

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

I.I. LUKASHUK, A.X. SAIDOV

HOZIRGI ZAMON XALQARO HUQUQI NAZARIYASI ASOSLARI

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi qoshidagi Muvofiqlashtiruvchi
Kengashning qarori bilan yuridik oliy
o‘quv yurtlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma
sifatida tavsiya etilgan*

**O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY JAMIYATI NASHRIYOTI
TOSHKENT
2007**

Taqrizchilar: yuridik fanlar nomzodi, dotsent **A. Mamatqulov**,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent **X. Muhamedov**.

Xalqaro huquq fanining taniqli olimlari qalamiga mansub ushbu darslikda huquqning mustaqil tizimi — hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqining asosiy institutlari va tarmoqlarining nazariy asoslariga atroflicha ta'rif berilgan. Ayniqsa, xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasidagi xalqaro huquq amaliyotiga alohida e'tibor qaratilgan.

Talabalar, aspirantlar, ilm-fan va amaliyot bilan shug'ullanuvchi huquqshunoslar hamda xalqaro huquq bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

67.412
L86

Lukashuk I.I., Saidov A.X.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi nazariyasi asoslari: Yuridik oliy o'quv yurtlari uchun darslik/ I.I. Lukashuk, A.X. Saidov; —T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007. 392 b.

I. Saidov A.X.

BBK 67.411ya73

ISBN 978-9943-319-38-7

© Lukashuk I.I., 2007.

© Saidov A.X., 2007.

© O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.

KIRISH

XXI asr kishilik jamiyati hayotining baynalmilallashuvidek tarixiy qonuniyatning kuchayishi bilan ajralib turadi. Davlat chegaralarining mavjudligi va har xilligiga qaramay, xalqaro munosabatlarda mamlakatlarning o'zaro aloqalari rivojlanib bormoqda. Xalqaro munosabatlar nafaqat davlatlar, balki har bir inson hayotiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Xalqaro munosabatlar tizimi huquqning muayyan sohasi — xalqaro huquq bilan tartibga solinadi. U davlatlarning, jismoniy va yuridik shaxslarning turli-tuman aloqalariga u yoki bu darajada ta'sir qiladi. Xalqaro huquqning milliy huquqqa va davlat ichki hayotiga ham ta'siri kuchaymoqda. Shu bois bugungi kunda huquqni bilish nafaqat xalqaro munosabatlar bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar, balki iqtisodchilar va tadbirkorlar, hatto oddiy fuqarolar uchun ham ahamiyatli bo'lib bormoqda.

Xalqaro huquq normalari asta-sekin milliy huquqiy tizimning bir qismiga aylanib bormoqda. Uning asoslarini bilish jismoniy va yuridik shaxslarning o'z huquqlarini mamlakat ichida himoya qilishlari uchun ham zarurdir.

Afsuski, hozirgi paytda omma o'rtasida xalqaro-huquqiy bilimlar darajasi nihoyatda past. Bu o'rinda turli davlatlarning huquqni himoya qiluvchi organlari xalqaro normalarning milliy huquqiy tizimdagi yangi vazifasiga tayyor emasligini alohida ta'kidlash lozim. Xalqaro-huquqiy bilimlarning past darajadaliigi, hatto aksariyat mamlakatlarning yuristlari uchun ham xosdir. O'zbekistonda ham bu muammo dolzarb bo'lib turibdi. Albatta, buning o'ziga xos obyektiv va subyektiv sabablari mavjud. Birinchidan, sobiq SSSR huquqiy tizimining xalqaro huquq bilan aloqasida faollik farqlanmas edi. Ikkinchidan, yuridik oliy o'quv yurtlarida xalqaro huquq kursi asosan umumiy ta'lim sifatida o'qitilar edi. Uchinchidan, boshqa yuridik fanlar o'qitilayotganda, muayyan huquq sohasining xalqaro huquq bilan bog'liqligiga e'tibor berilmas edi.

Shu bois bugungi kunda milliy huquqning xalqaro huquq bilan o'zaro aloqasini yorituvchi o'quv adabiyotlarini tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, amaliyotchi yuristlar uchun katta ahamiyatga

ega bo'lgan, xalqaro iqtisodiy huquq, xalqaro jinoyat huquqi singari xalqaro huquqning boshqa sohalariga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Albatta, barcha yuristlarni xalqaro huquq bo'yicha yetuk mutaxassisga aylantirib bo'lmaydi. Buning sabablari haqida mashhur italyan professori B. Konforti shunday yozadi: «Xalqaro huquqning mazmuni shu qadar kengaydiki, uni umumiy kurs darajasida yoritish mumkin emas»¹. Bugun hatto xalqaro yurist ham xalqaro huquqning hamma sohasi bo'yicha yetuk mutaxassis bo'la olmaydi. Shuning uchun bizning vazifamiz milliy huquq sohasi mutaxassislarning xalqaro huquq asoslarini bilishlari uchun ularga ko'maklashish hisoblanadi.

Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro huquqning har bir sohasini mufassal bilish nazariy jihatdan muhim hisoblanadi. Shu bois ushbu darslikda xalqaro huquqning umumiy va maxsus qismlariga alohida e'tibor berildi.

«Umumiy qism» xalqaro huquqning yuridik tabiatini yoritishga, uning normalarini yaratish va amalga oshirish mexanizmiga, xalqaro va milliy huquqning o'zaro aloqasi kabi masalalarga bag'ishlangan. Xalqaro huquqning umumiy mazmunini tashkil etuvchi va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan asosiy prinsiplarga alohida e'tibor berildi. «Davlatlarning xalqaro-huquqiy subyektligi» instituti mazkur muammolar bilan chambarchas bog'liq ravishda ko'rib chiqildi.

Xalqaro huquqning umumiy o'ziga xos tabiatini bilib olgach, uning u yoki bu sohasini qiyinchiliksiz o'zlashtirish mumkin, umumiy prinsiplar bilan sohaga oid normalarning o'zaro aloqasini aniqlash ancha oson kechadi. Shu bois «Maxsus qism»da xalqaro huquqning asosiy sohalariga alohida e'tibor qaratildi. Bu orqali darslik amaldagi xalqaro huquq tizimiga nihoyatda yaqinlashtirildi.

Darslik xalqaro huquq bo'yicha mamlakatimizda qabul qilingan o'quv dasturlarining barcha mavzularini qamrab oladi. Faqat xalqaro huquq nazariyasi muammolaridan iborat bo'lgan uchinchi bo'lim noan'anaviydir. O'ylaymizki, bu bo'limning kiritilishi ham nazariy, ham amaliy nuqtayi nazardan yetarlicha asoslangan.

Darslik hajmini xalqaro huquq sohaları bo'yicha taqsimlashda asosiy qiyinchilikka duch kelindi. Gap shundaki, xalqaro huquq asosiy normalarining oddiy bayoni darslikning umumiy hajmini oshirib yuborgan bo'lardi. Bundan tashqari, huquqning alohida sohalariga, masalan, dengiz va havo huquqiga ko'p jildlik asarlar bag'ishlangan. Shuning uchun bunday hollarda xalqaro huquqning zaruriy tizimini idrok qilish uchun

¹ Qarang: Konforti B. *International Law the Role of Domestic Legal Systems*. Dordrecht, 1993. P.125.

umumiy tasavvur berildi. Bunday yondashuv amaliyotchi yurist uchun xalqaro huquq sohalarini batafsil o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Ko'p yillar davomida «Xalqaro huquq» kursi umumiy ta'lim sifatida o'qitilib, ichki huquq doirasidagi amaliyotchi yurist faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri bog'liq emas edi. Endilikda xalqaro huquq har qanday ixtisoslikdagi yurist uchun alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun xalqaro huquqqa amaliy nuqtayi nazardan qarash, uni o'rganish va o'qitish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois nafaqat xalqaro yurist, balki konstitutsiyaviy, ma'muriy, fuqarolik, jinoyat, oila va boshqa ichki huquq sohalarida faoliyat yurituvchi mutaxassislarning ham ehtiyoji hisobga olindi.

Xalqaro huquqqa faqat kasbiy nuqtayi nazardan yondashib bo'lmaydi. Xalqaro huquq — ko'p asrlik baynalmilal tajribani o'zida aks ettiruvchi umuminsoniy madaniyatning muhim elementidir. U baynalmilal ong rivojiga, insonlarni barcha millatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga ko'maklashadi. Bu o'rinda xalqaro-huquqiy madaniyat milliy va etnik ziddiyatlarni bartaraf etishda katta ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlash lozim.

Hozirgi paytda xalqaro huquqni o'rganish shu qadar dolzarb bo'lganligi bois BMT ham unga alohida e'tibor bermoqda. BMT xalqaro huquq o'n yilligida (1990–1999) xalqaro huquqni o'rganish va o'qitishni rag'batlantirishga, uning ahamiyatini tushunishga hamda xalqaro-huquqiy bilimlar ko'lamini kengaytirishga jiddiy e'tibor qaratdi. Xalqaro-huquqiy bilimlarni o'rganish va o'qitishga yordam ko'rsatish bo'yicha BMTning alohida Dasturi qabul qilingan.

Ushbu darslikni yozishda aksariyat davlatlar va xalqaro tashkilotlar amaliyotidagi dastlabki manbalardan foydalanildi. Xalqaro-huquqiy norma sifatida BMTning Xalqaro sudi qarorlariga alohida e'tibor berildi. Albatta, ko'p hollarda O'zbekiston Respublikasining amaliyoti hisobga olindi. Xorijiy mamlakat olimlarining eng yangi asarlaridan foydalanildi. Darslik rejasini tuzishda shu turdagi nashrlarning xalqaro tajribasiga ham e'tibor berildi. Darslikda xalqaro huquqning ayrim dolzarb muammolari birinchi marta yoritilmoqda. Bu o'quvchining o'ziga u yoki bu nuqtayi nazarning asoslilikiga nisbatan mustaqil xulosa chiqarish imkonini beradi. Chet el va mamlakatimizning oliy o'quv yurtlarida xalqaro huquq fani o'qitilishining ko'p yillik tajribasiga tayanib, mualliflar kitobxonlar doirasini kengaytirish maqsadida mavzularni mumkin qadar sodda va tushunarli bayon qilishga harakat qilindi.

BIRINCHI BO‘LIM. UMUMIY XALQARO HUQUQNING NAZARIY ASOSLARI

- **«Xalqaro huquq» tushunchasi, ahamiyati va tizimi**
- **Xalqaro huquq nazariyasi, fani va amaliyoti birligi**
- **Xalqaro huquq normalari va manbalari**
- **Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari**
- **Xalqaro huquq subyektlari**
- **Xalqaro-huquqiy subyektilik va xalqaro huquqda davlatning tan olinishi**
- **Davlatlarning huquqiy vorisligi**
- **Xalqaro huquq va milliy huquqning o‘zaro munosabati**
- **Xalqaro huquqda hudud**
- **Xalqaro huquqda aholi**
- **Xalqaro-huquqiy javobgarlik**

BIRINCHI MAVZU.

«XALQARO HUQUQ» TUSHUNCHASI, AHAMIYATI VA TIZIMI

- 1-§. «Xalqaro huquq» tushunchasi
- 2-§. «Xalqaro huquq» atamasining ma'nosi
- 3-§. Xalqaro huquqning obyekti va predmeti
- 4-§. Zamonaviy xalqaro huquq, uning amal qilish doirasi va asosiy maqsadlari
- 5-§. Xalqaro huquqning funksiyalari
- 6-§. Xalqaro huquqning ahamiyati
 - *Davlatlararo tizim va xalqaro huquq*
 - *Xalqaro huquq va davlat suvereniteti*
 - *Xalqaro huquq va tashqi siyosat*
 - *Xalqaro huquq va mafkura*
 - *Xalqaro huquq va din*
- 7-§. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari
- 8-§. «Xalqaro huquq tizimi» tushunchasi
- 9-§. Xalqaro «yumshoq» huquq
- 10-§. Xalqaro huquq va milliy huquqiy tizim
- 11-§. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq
- 12-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquq

1-§. «Xalqaro huquq» tushunchasi

Xalqaro huquq — davlatlar, xalqlar, xalqaro tashkilotlar, turli jamoat birlashmalari, alohida fuqarolar (xalqaro huquq tilida ular individlar yoki jismoniy shaxslar deb ataladi), turli davlatlarning yuridik shaxslari ishtirok etadigan xalqaro munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquq tizimi. Xalqaro munosabatlarda na qonun chiqaruvchi alohida oliy organ va na boshqaruvchi yagona davlat hokimiyati mavjud bo'lmaydi. Xalqaro munosabatlar xalqaro darajada tartibga solinadi. Davlatlar o'z xalqlari suverenitetining ifodachilari sifatida o'zaro muomala va xulq-atvor qoidalarini, ya'ni yuridik normalarni yaratadilar, bu qoidalarning buzilishi esa tegishli javobgarlikka olib keladi. Shu bois, «xalqaro huquq» tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish o'rinlidir:

Xalqaro huquq — davlatlararo munosabatlarni, tinchlik va hamkorlikni ta'minlashni tartibga solib turuvchi muayyan yuridik normalar tizimi.

Ushbu ta'rif xalqaro huquqning quyidagi eng muhim jihatlarini o'zida aks ettiradi:

birinchidan, xalqaro huquq — yagona maqsadlar va prinsiplar asosida strukturali tartibda tashkil topgan normalar tizimi;

ikkinchidan, xalqaro-huquqiy normalar ijtimoiy munosabatlarning alohida turi hisoblanuvchi davlatlararo, ya'ni hukumatlararo munosabatlarni tartibga soladi;

uchinchidan, hozirgi zamon xalqaro huquqining bosh maqsadi tinchlik va hamkorlikdan iborat.

Xalqaro huquq xalqaro munosabatlarning yuridik shakli sifatida namoyon bo'ladi. Bunday shakl nisbatan mustaqilligi tufayli xalqaro munosabatlarni tartibga solishda muayyan ta'sir kuchiga egadir.

Zamonaviy xalqaro huquqning *asosiy maqsadi* umumjahon huquq tartibotini va huquqiy davlatlar hamjamiyatini o'rnatishdir. Xalqaro huquq jahon miqyosida qonun ustuvorligini va inson huquqlariga oid xalqaro andozalarni ta'minlashga intiladi.

Fransuz adibi va mutafakkiri J.J. Russo (1712–1778) zamonidan buyon urf bo'lib kelayotgan nuqtayi nazarga ko'ra, huquqning substansiyasi, ya'ni tub mohiyati iroda bo'lmog'i darkor. Xalqaro-huquqiy normalarda subyektlar, ya'ni davlatlarning xohish-irodalariga muvofiq tarzda shakllangan umumiy iroda o'z ifodasini topadi.

Davlatlar irodasi uning organlari faoliyatida o'z aksini topadigan mutlaqo asosli voqealidir. Bu xalqaro amaliyotda, shu jumladan sudlov amaliyotida ham azaldan e'tirof etib kelinayotgan qoidalardan biri hisoblanadi. Xalqaro odil sudlov doimiy palatasining «Lotos» paroxodi ishi bo'yicha 1926-yildagi qarorida shunday deyilgan: **«Xalqaro huquq mustaqil davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turadi. Shu bois, davlatlar uchun majburiy bo'lgan huquq normalari ana shu davlatlarning konvensiyalar yoki hammaga rasm bo'lib qolgan urf-odatlarda o'z ifodasini topgan erkin xohish-irodasi tufayli dunyoga keladi».**

Davlatlarning hamjihat, uyg'un umumiy irodasi subyektlar irodasining shunchaki bir yig'indisi emas. Balki u davlatlarning ichki va xalqaro hayoti shart-sharoitlarini o'zida aks ettiruvchi birdamlik samarasidir. Shunday ekan, uyg'un iroda o'ziga xos yangi tushuncha demakdir. Bu bilan biz normalar yaratish jarayonida davlatlar irodasi tamomila uyg'unlashtiriladi, demoqchi emasmiz, albatta. Zero, bunday uyg'unlik tegishli norma doirasidagina mavjud bo'ladi va bu doiradan tashqarida har bir davlatning irodasi bir-biridan butunlay farq qilishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan yaratiladigan normalar ham irodaviy mazmun kasb etadi. Chunki, xalqaro tashkilotlarning faoliyati a'zo davlatlarning hamjihat munosabatlari tizimiga asoslanadi. Bunday hamjihatlik jarayonida iroda tashkilot a'zolari irodalarining shunchaki yig'indisiga o'xshab emas, aksincha, mustaqil hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, zamonaviy xalqaro huquq quyidagi munosabatlarni tartibga soladi:

birinchidan, davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama va ko'ptomonlama hamda xalqaro hamjamiyatni qamrab oladigan munosabatlar;

ikkinchidan, davlatlar bilan hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar;

uchinchidan, hukumatlararo tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlar;

to'rtinchidan, davlatlar va davlatlarga o'xshash mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lgan tuzilmalar (masalan, Vatikan rim katolik cherkovining markazi sifatida alohida xalqaro-huquqiy maqomga ega) bilan bo'lgan munosabatlar.

Shunday qilib, **xalqaro huquq obyektini xalqaro, aniqrog'i, davlatlararo munosabatlardir**. Xalqaro huquq obyektini bilan xalqaro-huquqiy munosabatlar sohasini farqlash lozim. Xalqaro-huquqiy munosabatlar predmeti deganda, tomonlar huquqiy munosabatga kirishishi uchun sabab bo'ladigan barcha holatlar tushuniladi. Bu sohaga harakat va harakatdan saqlanish, hudud va boshqa shu kabi masalalar kirishi mumkin. Ijtimoiy boshqaruv turlaridan biri bo'lgan xalqaro-huquqiy tartibga solish, aslida, ijtimoiy munosabatlarni boshqarishning o'ziga xos ko'rinishidir.

2-§. «Xalqaro huquq» atamasining ma'nosi

«Xalqaro huquq» deganda, odatda, «xalqaro ommaviy huquq» («mejdunarodnoe publichnoe pravo», «International public law») tushuniladi. Xalqaro ommaviy huquq asosan davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Xalqaro ommaviy huquqqa qarama-qarshi o'laroq, «xalqaro xususiy huquq» ham mavjud. Xalqaro xususiy huquq milliy huquqiy tizimning tarkibiy qismi bo'lib, chet el elementi bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Ushbu darslikda «xalqaro huquq» deganda, biz «xalqaro ommaviy huquq»ni nazarda tutamiz.

«Xalqaro huquq» atamasi uch ma'noda qo'llaniladi.

Birinchi ma'noda: xalqaro huquq obyektiv ma'nodagi harakatdagi xalqaro-huquqiy normalar yig'indisidir. Xalqaro huquq muttasil rivojlanayotgan mustaqil huquqiy tizim bo'lib, davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalardan tashkil topadi. Xalqaro huquq davlatlar va boshqa xalqaro huquq subyektlarining kelishilgan irodasini ifodalovchi huquqiy normalarning muayyan tizimidan iboratdir. Xalqaro huquq tizimi xalqaro-huquqiy normalar, institutlar va uning sohalari yig'indisidan tashkil topadi.

Ikkinchi ma'noda: «xalqaro huquq» atamasi mustaqil ijtimoiy fan sohasini anglatadi. Xalqaro huquq fani ushbu huquq tizimiga oid ilmiy-nazariy muammolarni o'rganadi. Bunday muammolar jumlasiga xalqaro

munosabatlarni xalqaro-huquqiy tartibga solish mexanizmi, xalqaro huquqning ijtimoiy va yuridik fanlar tizimida tutgan o'rni va ahamiyati, xalqaro huquqning normalari, institutlari va sohaları nazariyasi hamda boshqalar kiradi.

Uchinchi ma'noda: «xalqaro huquq» deganda, mustaqil o'quv kursi tushuniladi. Hozirgi kunda xalqaro huquq o'quv predmetining yuridik ta'lim tizimida o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Bu o'quv fani o'zining tizimiga ega bo'lib, uni obyektiv ma'nodagi xalqaro huquq tizimidan farqlash lozim. Xalqaro huquq tizimi xalqaro huquq o'quv fanining asosini tashkil etadi. Shu bilan birga, bu ikki tizim aynan bir narsani anglatmaydi. Masalan, xalqaro huquq o'quv fanini ikki — umumiy va maxsus qismga bo'lib o'rganish qabul qilingan. Agar xalqaro huquq o'quv kursining «umumiy» qismida xalqaro huquqning predmeti, ahamiyati, tizimi, o'rganilish tarixi va uning asosiy tushunchalari hamda institutlari o'rganilsa, «maxsus» qismida esa, xalqaro huquqning turli mustaqil sohaları (diplomatik huquq, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro iqtisodiy huquq va boshqalar) ko'rib chiqiladi.

3-§. Xalqaro huquqning obyektı va predmeti

«Xalqaro huquq obyektı» tushunchasi keng ma'noda davlatlarning tamomila ichki vakolatlariga tegishli bo'lmagan, ular yuzasidan xalqaro huquq subyektlari huquqiy munosabatga kirisha olishi mumkin bo'lgan barcha moddiy va nomoddiy ne'matlarni, xatti-harakatlardan tiyilib turishni anglatadi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro huquq obyektı xalqaro huquqni sohalariga va institutlarga ajratish asnosida hisobga olinadi. Masalan, xalqaro iqtisodiy huquq nafaqat davlatlarning savdo-sotiq sohasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi normalar, prinsiplar va institutlar guruhidan iborat, shu bilan birga, u davlatlarning savdo-iqtisodiy birlashmalari maqomini ham belgilab beradi. Xalqaro havo huquqi havo hududlaridan foydalanish bo'yicha huquqiy munosabatlarni qamrab olish bilanigina cheklanmasdan, balki xalqaro havo aloqalari («havo erkinligi»)ni amalga oshirish chog'ida savdo huquqini ham belgilaydi.

Shunday qilib, xalqaro huquqqa ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lmagan har qanday narsa ham xalqaro huquq obyektı hisoblanavermaydi. Misol uchun, milliy qonunchilik — xalqaro huquq obyektı emas, chunki uni qabul qilishda davlatlar uzil-kesil o'zining suverenitetiga asoslanadi.

Xalqaro huquq obyektini xalqaro huquq predmetidan, ya'ni xalqaro huquqiy munosabatlarning o'zidan farqlash lozim. Shuningdek, xalqaro huquq fanining predmeti degan tushuncha mavjud bo'lib, u xuddi shu fan o'rganadigan narsalarni nazarda tutadi. Bunda, birinchi holatda, xalqaro huquq obyektidan foydalanish jarayonida xalqaro aloqalarda yuzaga ke-

ladigan munosabatlar tartibga solish uchun ajratib olinadi, ikkinchi holatda esa — ilmiy (nazariy) bilimga ega bo'lish uchun xalqaro huquqshunos olimlar xalqaro huquqning turli muammolarini, shu jumladan, xalqaro huquq fanining predmeti xalqaro huquq predmetiga nisbatan anchayin umumiy tushuncha ekanligi haqidagi masalani tadqiq etadilar..

Xalqaro huquq predmeti deganda, odatda, xalqaro huquq subyekt-lari o'z huquq va majburiyatlarini ro'yobga chiqarishlari jarayonida yu-zaga keladigan xalqaro munosabatlar tushuniladi. Bunday munosabat-lar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari bi-lan tartibga solinadi.

Xalqaro huquqning predmeti asosida xalqaro huquqning obykti bilan birga xalqaro huquqni sohalarga ajratish ham muhim hisoblanadi. Masalan, xalqaro shartnomalar (xalqaro shartnomalar huquqi) tuzish, ularning amal qilishi va to'xtatilishi borasidagi, dengiz va okeanlardan foydalanish sohasidagi (xalqaro dengiz huquqi), fazoviy hudud va samoviy jismlardan foydalanish hamda ularni tadqiq etishdagi (xalqaro kosmik huquqi) va boshqa o'rinlardagi huquqiy munosabatlar farqlanadi.

4-§. Zamonaviy xalqaro huquq, uning amal qilish doirasi va asosiy maqsadlari

Xalqaro huquq nazariyasida hozirgi zamon xalqaro huquqi ikkinchi jahon urushidan keyin shakllana boshlagan, deb hisoblanadi. Zamo-naviy xalqaro huquqning asosi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ustavi bo'lib, u mazkur nufuzli tashkilotning 1945-yil iyunda San-Fran-siskoda bo'lib o'tgan konferensiyasida qabul qilingan. Shu paytdan bosh-lab BMT Ustavi zamonaviy xalqaro huquqning poydevori bo'lib qolgan. BMT Ustavida ta'sischi davlatlar zamonaviy xalqaro huquqning umu-miy maqsad va vazifalarini belgilab qo'ygan va ular bu jabhadagi eng asosiy tizimlashtiruvchi omillar sirasiga kiradi.

Huquqning, shu jumladan xalqaro huquqning har qanday tizimi muayyan doira (soha)da amal qiladi. Xalqaro huquqning amal qilish doirasi deganda, muayyan ijtimoiy munosabatlar sohasi tushuniladi va bunda tasarrufdagi obyektlarga nisbatan ta'sir o'tkazishning xalqaro-huquqiy vositalaridan foydalaniladi.

Xalqaro huquq quyidagi uchta asosiy sohada amal qilishi mumkin:
birinchisi — subyektlik sohasi (subyektga oid soha);
ikkinchisi — obyektlik sohasi (obyektga oid soha);
uchinchisi — hududiy soha (hududga oid soha).

Subyektlik sohasi xalqaro huquq normalari ta'sirida bo'lgan sub-yehtlar doirasini qamrab oladi.

Obyektlik sohasi huquqiy munosabatga kirishuvchi subyektlarning huquq va majburiyatlariga yo'naltirilgan, tomonlar xalqaro-huquqiy

munosabatlarga kirishishi uchun omil hisoblanuvchi barcha jihatlar demakdir. Obyektlik sohasi subyektlilik sohasi bilan o'zaro bog'liq, chunki unga xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarga mansub bo'lib, ularning barcha ishtirokchilarini qamrab olmaydi.

Hududiy soha yoki xalqaro huquq amal qilishining hududga, makonga oid sohasi amaliyot nuqtayi nazaridan juda muhim bo'lib, bu o'rinda xalqaro huquq amal qiladigan huquq subyektlari o'z huquq va majburiyatlarini ro'yobga chiqaradigan hududlar — quruqlik, suv, havo, fazo makonlari xususida so'z bormoqda. Bunda xalqaro va milliy huquqiy tizimlar ta'sirining hududiy sohalarini cheklash muammosi kun tartibida turishini unutmash lozim. Ta'kidlash joizki, davlat o'ziga tegishli hudud doirasida o'zining to'liq va istisnosiz suverenitetini joriy etadi. Xalqaro huquqda bu borada muhim bir qoida mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning xalqaro makonlar (havo, fazo, ochiq dengiz, Antarktika) dagi faoliyati milliy huquq asosida tartibga solinadi, tabiiyki, bunda xalqaro huquq doirasidagi qoidalar ham inobatga olinadi.

BMT Ustavida hozirgi zamon xalqaro huquqining quyidagi asosiy maqsadlari belgilab qo'yilgan:

birinchidan, tinchlik va xavfsizlikni saqlash;

ikkinchidan, do'stona munosabatlarni rivojlantirish;

uchinchidan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xususiyatga ega bo'lgan xalqaro muammolarni hal etishda hamda inson huquqlari va erkinliklariga nisbatan hurmatni rag'batlantirish va rivojlantirish bo-rasida hamkorlikni amalga oshirish;

to'rtinchidan, shartnomalar va xalqaro huquqning boshqa man-balaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga nisbatan odillik va hurmat-e'tiborni ta'min etishga qaratilgan shart-sharoitlar yaratish¹.

5-§. Xalqaro huquqning funksiyalari

Xalqaro huquqning funksiyalari xilma-xil bo'lib, zimmadagi vazifa-lar miqyosi ortgani sari u murakkablashib boradi. Xalqaro huquqning quyidagi funksiyalarini ko'rsatish mumkin:

Birinchi funksiya. Xalqaro huquqning bosh ijtimoiy funksiyasi mavjud xalqaro munosabatlar tizimini mustahkamlash hisoblanadi. Bunga asosan ushbu tizimda tegishli darajada tartibga amal qilishni ta'minlash orqali erishiladi.

Ikkinchi funksiya. Xalqaro huquqning bosh yuridik funksiyasi xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solishdan iborat. Unda xalqaro-huqu-qiy ta'sir ko'rsatishning muhim jihatlari o'z aksini topgan. Har ikki

¹ Qarang: BMT Ustavi // O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. —12–19-b.

funksiya ham tizimda muayyan tartibni saqlash uchun mo'ljallangani tufayli barqarorlashtiruvchi va muhofazalovchi ahamiyat kasb etadi.

Uchinchi funksiya. Xalqaro huquq o'zining maqsad va prinsiplariga zid bo'lgan yangi munosabatlar va institutlar paydo bo'lishiga qarshi ta'sir ko'rsatish funksiyasini bajaradi. Jumladan, xalqaro huquqda kuch bilan tahdid qilish yoki kuch ishlatish, mustamlakachilik, irqchilik va boshqa holatlarning g'ayriqonuniy deb tan olingani bunga misol bo'la oladi.

To'rtinchi funksiya. Baynalmilallashtirish funksiyasi davlatlar o'rtasidagi hamkorlik aloqalarini kengaytirish va chuqurlashtirishni ko'zda tutadi. Bunda xalqaro huquqning ijtimoiy negizi bo'lgan xalqaro hamjamiyat mustahkamlanadi va natijada uning faoliyati uchun shart-sharoit yaxshilanadi.

Beshinchi funksiya. Xalqaro huquqning axborot-ma'rifiy funksiyasi esa davlatlarning ibratli xulq atvori bo'yicha to'plangan tajribalarni almashish, huquqqa va huquq himoyasidagi manfaatlar hamda qadriyatlarga hurmat-ehtirom ruhida tarbiyalash jarayonida huquqdan foydalanish imkoniyatlari yuzasidan ta'lim berishni nazarda tutadi.

Xalqaro huquq yana boshqa qator funksiyalarni ham bajaradi:

1) muvofiqlashtirish funksiyasi — xalqaro huquqning normalari ko'magida davlatlar o'zaro munosabatlarda xulqning umume'tirof etilgan andozalarini belgilaydi;

2) tartibga solish funksiyasi — davlatlar xulqning qat'iy belgilangan qoidalarini qabul qiladilarki, bunday qoidalarsiz ana shu davlatlarning birga mavjud bo'lishi va hamjihatlikda faoliyat ko'rsatishi mumkin emas;

3) ta'min etish funksiyasi — xalqaro huquq davlatlarni xulqning belgilangan qoidalariga amal qilishga undovchi normalarga ega;

4) muhofazalash funksiyasi — xalqaro huquqda davlatlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan mexanizmlar shakllangan.

6-§. Xalqaro huquqning ahamiyati

XXI asr boshida xalqaro huquq ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, turli sohalarda xalqaro huquq qanday ahamiyatga ega ekanligini qisqacha ko'rib chiqamiz.

Davlatlararo tizim va xalqaro huquq. Xalqaro huquq — davlatlararo tizimda amaldagi huquqning alohida mustaqil tizimi. Avvalambor, xalqaro huquq davlatlararo munosabatlarni tartibga soladi. Davlatlararo tizimning tarkibiy qismlari quyidagilardir: davlatlar, xalqlar va millatlar, xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, xalqaro konferensiyalar, davlatlardagi turli nohukumat birlashmalari, xalqaro organlar (xalqaro komissiyalar, xalqaro sudlar, xalqaro arbitrajlar), xalqaro-huquqiy normalar. Davlatlararo tizimning barcha qismlari bir-biri bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Davlatlararo tizim ichki davlat tizimidan farq qiladi. Davlatlararo tizimda oliy hokimiyat yo‘q. Bundan tashqari, ichki davlat tizimidagi kabi qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyati organlar ham yo‘q. Bu holat esa davlatlararo tizimning o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Davlatlararo tizimning normativ asosini xalqaro huquq normalari tashkil etadi. Xalqaro huquq davlatlararo tizim o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi huquqiy vositadir.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, davlatlararo tizim subyektlari o‘rtasidagi munosabatlar faqat xalqaro huquq normalari bilangina tartibga solinmaydi. Bu munosabatlar xalqaro siyosiy va axloq normalari, xulq-atvor qoidalari, odat normalari, xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiya — tavsiyalari bilan ham tartibga solinadi.

Xalqaro huquq va davlat suvereniteti. Olimlar, davlat va siyosat arboblari o‘rtasida xalqaro huquq davlatlar mustaqilligini cheklab qo‘yadi, degan qarash keng tarqalgan. Ularning fikricha, har qanday shartnoma ning tuzilishi oxir-oqibatda shunga olib keladi. Bunday fikr, odatda, mustaqillikni mutlaq harakat erkinligi sifatida tushunishga asoslangan bo‘ladi. Ayni paytda, «mutlaq» mustaqillikning mavjud bo‘lishi mumkin emas. Chunki har doim bir davlatning mustaqilligi boshqalarining mustaqilligi bilan cheklangan bo‘ladi.

Xalqaro huquq davlatlarning suverenitetini emas, balki ularning harakat erkinligini muayyan tartibga solib turadi, xolos.

Xalqaro huquq va tashqi siyosat. Xalqaro huquq bilan davlatlar siyosati o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud. Shubhasiz, xalqaro huquq tashqi siyosat yuritishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ammo bunday aloqadorlikka qaramay, xalqaro huquq mustaqil ijtimoiy hodisa hisoblanadi va siyosat real voqelik sifatida namoyon bo‘ladi.

Biron-bir davlat o‘z siyosiy mavqeiga putur yetishi to‘g‘risida xavotirlanmasdan turib, xalqaro huquqqa nisbatan bepisandlik qilishga qodir emas. Bu xalqaro munosabatlarda huquq ustunligi e’tirofining dalolatidir.

Xalqaro huquq siyosatga ta’sirining ikkita jihati bor:

birinchidan, xalqaro huquq siyosatni hamma qabul qilgan tartiblar doirasida cheklab qo‘yadi;

ikkinchidan, xalqaro huquq siyosat ixtiyoriga yuridik vositalar xazinasini taqdim etar ekan, bu bilan uning istiqboli uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratib beradi. Bu jihatlarning har ikkisi ham davlatning milliy manfaatlarini ta’minlash yo‘lida birdek ahamiyatlidir.

Xalqaro huquq va mafkura. Butun tarix davomida mafkura xalqaro hayotda muhim o‘rin tutgan. Davlatlar o‘rtasidagi kurashlarga muntazam ravishda mafkuraviy tus berib kelingan. Siyosat qanchalik jangovar bo‘lsa, shunchalik mafkuraviy madadga ehtiyoj sezgan.

Mafkura va xalqaro huquq o'zaro bog'liq hodisalardir. Ularning har ikkisi ham ijtimoiy hayotning mafkuraviy sohasiga mansub hisoblanadi. Mafkura u yoki bu ijtimoiy kuch ifoda etayotgan g'oyalar, prinsiplar, qarashlar tizimi, demakdir. U harakatga rahnamolik qiladi, siyosat va huquq esa mafkuraviy konsepsiyalarni amalda tatbiq etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. O'z navbatida, siyosat va huquq o'zining ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash, shuningdek, oldida turgan vazifalarni nazariy tafakkurdan o'tkazish uchun mafkuraga tayanadi.

Xalqaro huquq va din. Din, siyosat va huquq o'rtasida bevosita o'zaro bog'liqlik mavjud. Din jamiyat hayotida doim muayyan ahamiyat kasb etib kelgan. Din va diniy tashkilotlar XXI asr boshida ham xalqaro munosabatlarga va huquqqa sezilarli darajada ta'sir ko'rsatib turibdi.

Jahonning qirqdan ziyod davlati konstitutsiyalarida muayyan bir dinning imtiyozli maqomi ko'zda tutilgan. Bu borada islom dini davlat dini sifatida birinchi o'rinni egallagan bo'lib, u musulmon davlatlarining xalqaro-huquqiy hujjatlarida doim o'z aksini topadi. Islom dini musulmon huquqining negizi ekanidan kelib chiqilgan holda, alohida «musulmon xalqaro huquqi» konsepsiyasi ishlab chiqilgan. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mazkur huquq yuridik jihatdan umumiy andozalardan uncha farq qilmaydi. Islom dini asosan siyosiy-huquqiy mazmunga, shuningdek, xalqaro hujjatlarning tiliga ta'sir etadi. Xalqaro huquqqa islomdagi ayrim ekstremistik oqimlar xavf solmoqda.

Umuman olganda, xalqaro huquq uchun na islom dini va na musulmon huquqining biron-bir xatarli joyi yo'q. Hamma gap ulardan qaysi siyosat va qanday maqsadlarda foydalanishiga bog'liq.

Shunday qilib, xalqaro huquq xalqaro va milliy hayotning turli jabhalari bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda xalqaro huquqning keng ko'lamlil xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solishdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Shu ma'noda ijtimoiy xalqaro munosabatlarni va davlatlarning tashqi siyosati huquqiy asoslarini xalqaro huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

7-§. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari

Xalqaro huquq tarixi insoniyat tarixiy taraqqiyotining uzviy qismidir. Yuridik adabiyotlarda barqarorlashgan fikrga ko'ra, xalqaro huquq xud-di ichki huquq singari davlatning o'zi bilan bir paytda paydo bo'ladi.

Xalqlarning o'zaro aloqalarini normativ asosda tartibga solish ehtiyoji davlat paydo bo'lishidan anchagina ilgari sezila boshlagan. Hatto qabilalararo munosabatlarda ham, garchi ular davlatlararo munosabatlardan farqli o'laroq, siyosiy mazmun kasb etmagan bo'lsa-da, ana shunday normativ tartiblarga ehtiyoj bo'lgan. Qabilalar o'rtasida tinchlik,

qo'shma jangovar yurishlar, mulkdagi cheklashlar va boshqalar to'g'risida bitimlar tuzilgan. Shuningdek, bu borada muayyan urf-odatlar ham shakllangan.

Shunday qilib, xalqaro huquq qadimiy bo'lib, u uzoq tarixga ega. Yuridik adabiyotlarda xalqaro huquq paydo bo'lishi va taraqqiyotini davriylashtirish, ya'ni rivojlanish bosqichlariga bo'lish bo'yicha yagona fikr yo'q. Shunga qaramasdan, xalqaro huquqqa oid o'quv va maxsus adabiyotlarda xalqaro huquq taraqqiyoti quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich: *Qadimgi dunyo xalqaro huquqi davri*. Bu bosqich davlatlar bilan xalqaro huquq paydo bo'lgan paytdan to V asrgacha bo'lgan uzoq davom etgan davrni qamrab oladi.

Ikkinchi bosqich: *O'rtta asrlar xalqaro huquqi davri*. Bu bosqich V—XVI asrlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bosqich: *Klassik xalqaro huquq davri*. Bu bosqich XVII—XX asrning birinchi yarmiga xosdir.

To'rtinchi bosqich: *Zamonaviy xalqaro huquq davri*. Bu bosqich ikkinchi jahon urushidan keyin boshlanib, to hozirgi kunga qadar davom etmoqda.

Dunyoning turli mintaqalarida davlatlarning paydo bo'lishi bilan birga ularning o'zaro munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro huquq normalari ham paydo bo'lgan. Qadimgi davrda xalqaro huquq ikki daryo oralig'i bo'lgan Bobil va Misrda, Xitoy va Hindistonda, Markaziy Osiyoda¹, qadimgi Gretsiya va Rimda taraqqiy etgan. Bu mintaqalarda o'ziga xos xalqaro-huquqiy institutlar rivojlangan. Masalan, Misr fir'avni Ramzes II va Xettlar shohi Xattushil III qullar qo'zg'aloniga qarshi kurash bo'yicha harbiy ittifoq tuzish haqidagi shartnomani imzolaganlar. Ushbu shartnomaga ko'ra, qochoq qullar qaytarib berilgan. Eramizdan avvalgi XXIII asrda tuzilgan Akkadlar shohi Naramsin bilan Elam hukmdorlari o'rtasida tuzilgan xalqaro shartnoma hozirgi kunga qadar yetib kelgan. Rim huquqshunoslari qadimgi xalqaro huquq, ya'ni «xalqlar huquqi»ga katta hissa qo'shganlar. Rim huquqshunosi Ulpian «xalqlar huquqidan barcha xalqlar foydalanadi va u tabiiy huquqdir» degan.

Qadimgi dunyo xalqaro huquqining o'ziga xosliklari quyidagilardan iborat bo'lgan:

birinchidan, xalqaro huquq juda sodda bo'lib, yagona tizimga ega bo'lmagan va mintaqaviy xususiyat kasb etgan, chunki u turli jo'g'rofiy mintaqalar doirasida rivojlangan;

¹ Bu haqda qarang: Rtveladze E.V., Saidov A.X. O'zbekiston hududida eng qadimgi davrda diplomatik munosabatlarning rivojlanishi. — T, 2001; Сарсенбаев М.А. Международно-правовые вопросы в истории Казахстана и Средней Азии (с XV века по настоящее время). — Алма-ата, 1991.

ikkinchidan, xalqaro huquq asosan odat huquqi normalaridan iborat bo'lib, diniy xususiyat kasb etgan;

uchinchidan, qadimgi dunyoda zamonaviy xalqaro huquqning an'anaviy institutlari va sohalari paydo bo'lgan hamda ular hozirga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bular qatoriga urush olib borishning qonunlari va odatlarining adolatli bo'lishi, urushda jabr ko'rganlarni himoya qilish, shartnomalarga rioya qilish, chet elliklarga nisbatan mehmondo'st munosabatda bo'lish, ajnabiylarni himoya qilish, xorijiy davlatlar elchilarini haqorat qilmaslik, chet elliklar bilan nikoh tuzmaslik kabi institutlar kiradi.

O'rta asrlarda xalqaro huquq o'z taraqqiyotining navbatdagi bosqichiga ko'tarilgan. O'rta asrlar xalqaro huquqining o'ziga xos jihatlari quyidagilardan iborat:

birinchidan, xalqaro huquq va uning ta'limotlariga dinning ta'siri katta bo'lgan, xristianlik keng tarqalgan davlatlarda din davlatlararo munosabatlarda yetakchi mavqega ega bo'lgan, musulmon xalqaro huquqi paydo bo'lgan;

ikkinchidan, xalqaro huquq rivojiga salb yurishlari, diniy-harbiy itifoqlar sezilarli ta'sir ko'rsatgan;

uchinchidan, xalqaro savdo va iqtisodiy munosabatlarning rivojlaniishi ta'siri ostida xalqaro huquqning yangi institutlari va sohalari, jumladan, xalqaro dengiz huquqi rivojlangan;

to'rtinchidan, xalqaro huquq rivojlanish markazlari yangi mintaqalarga, ya'ni G'arbiy Yevropa, Vizantiya, Hindiston, Xitoy, musulmon Sharqi va Amerika qit'asiga ko'chgan;

beshinchidan, xalqaro huquq turli xil davlat boshqaruvi shakllariga mos ravishda rivojlangan;

oltinchidan, xalqaro huquqning an'anaviy institutlari va sohalari yanada taraqqiy etgan.

Xalqaro huquq davlatlar amaliyotida davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik vosita sifatida o'rta asrlar oxirlariga kelibgina e'tirof etilgan. Tarixiy shart-sharoit taqozosi o'laroq, dunyo miqyosida xalqaro huquq yuzaga kelishi uchun qulay imkoniyat va yetarli zamin tayyorlangan eng asosiy mintaqa Yevropa bo'lgan.

Xalqaro huquqning tiklanish jarayoni bir qadar og'ir kechgan. Ak-sariyat hollarda xalqaro normalarning huquqiy mazmun-mohiyati rasman e'tirof etilsa-da, amalda tan olinmagan, hurmat qilinmagan.

XIX asr bashariyatga tsivilizatsiya va madaniyatni tuhfa etgan, dey-dilar. Xalqaro huquq ana shu tsivilizatsiya va madaniyatga bevosita taalluqlidir. XIX asrning birinchi yarmiga kelib, ilk bora ko'p tomonlama shartnomalar tuzish zarurati yuzaga kelgan. 1815-yilda Yevropaning to'qqiz davlati tomonidan diplomatik martabalar to'g'risida Vena

reglamenti qabul qilingan. Xalqaro transport va aloqa vositalari faoliyatini huquqiy tartibga solish muammosi qat'iy yechimini kutgan. 1856-yilda Parij deklaratsiyasiga muvofiq, savdo kemalarining urush davrida harakatlanish rejimi belgilangan. Savdo kemalarining xalqaro daryolar — Yevropadagi Reyn, Dunay, Elba, Amerikadagi Missisipi va Muqaddas Lavrentiy, Afrikadagi Kongo va Niger daryolari bo'ylab erkin harakatlanish rejimi shakllangan.

1874-yilda Butun jahon pochta ittifoqini ta'sis etish to'g'risidagi aktning imzolanishi unga a'zo davlatlar hududidan xat va jo'natmalarni erkin tranzit qilish tartibi o'rnatilishiga asos bo'lgan. 1875-yilda esa Telegraf ittifoqi to'g'risidagi Konvensiya qabul qilingan. 1890-yili Temir yo'l bo'yicha ko'p tomonlama konvensiya imzolandi, chunki xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivoji ushbu sohada huquqiy tartibga solishni faollashtirishni taqozo etgan.

XIX asr oxirida yaqinlashib kelayotgan katta urushning halokatli nafasi sezilgan. 1899-yilda birinchi Gaaga tinchlik konferensiyasi chaqirilgan. Rossiya qurolli kuchlar va harbiy budjetni muzlatib qo'yish taklifi bilan chiqqan, zero bu og'ir yuk uni hammadan ko'ra ko'proq qiynayotgan edi. Ammo ushbu taklif qo'llab-quvvatlanmagan va qurollanish poygasini cheklash g'oyasi barbod bo'lgan. Uning o'rniga urush olib borish qonunlari va odatlari kodifikatsiya qilingan. 1907-yilgi ikkinchi Gaaga tinchlik konferensiyasida bu sohada nisbatan to'liq kodifikatsiyalash amalga oshirilgan. Mazkur konferensiya xalqaro huquq rivojida muhim qadam bo'lgan. Ayniqsa, konferensiyada Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi konvensiya qabul qilingani va hakamlar sudining doimiy palatasi ta'sis etilganini alohida ta'kidlash o'rinlidir. Shunday qilib, XX asr boshida xalqaro huquq kuch qo'llash uchun keng imkoniyatlar ochgan, urush esa siyosatning qonuniy quroliga aylangan.

Huquqiy tartibga solish xalqaro munosabatlarni tartibga solishning mustaqil turi sifatida juda sekin rivojlanib borgan. Aksariyat hollarda u tartibga solishning boshqa (siyosiy, diniy, axloqiy) turlari bilan birlashib ketgan. Shunga qaramay, bu sohadagi siljishlar sezilarli bo'lgan. Xalqaro huquq kattagina hajmdagi xalqaro munosabatlarning zarur tartibga soluvchisiga aylangan.

XX asr boshida kishilik jamiyati amalda siyosat, ayniqsa xalqaro siyosatni istisno etganda, barcha sohalarda yuqori darajadagi taraqqiyotga erishgan. Shu bilan birga, jamiyat hayotini baynalmillalashtirish baynalmilal siyosatni taqozo etgan. Natijada xalqaro munosabatlarni boshqarish mexanizmiga tub o'zgarishlar kiritishni talab qiluvchi keng miqdordagi jamoatchilik harakatlari yuzaga kelgan. Ular 1919-yilda Birinchi jahon urushining g'olib davlatlari Millatlar Ligasini tuzish va uning Sta-

tutini tasdiqlash yuzasidan qaror qabul qilishda muayyan o'rin tutganlar. Shu tariqa davlatlar o'rtasida tinchlik va hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan dastlabki umumiy siyosiy tashkilot ta'sis etilgan.

Statutda «adolat hukmronligini o'rnatish va birlashgan xalqlarning o'zaro munosabatlari bo'yicha shartnomalarda yuklangan barcha majburiyatlarga vijdonan amal qilish» vazifasi qo'yilgan. Mustamlaka xalqlar va mamlakatlar xalqaro huquq ta'siri doirasidan tashqarida edi. Statutga muvofiq, 1922-yili birinchi doimiy xalqaro sud — Xalqaro odil sudlovning doimiy palatasi ta'sis etilgan.

Millatlar Ligasi Statutining asosiy kamchiliklaridan biri u, hatto jahon urushidan so'ng ham, xalqaro munosabatlarda kuch qo'llashni g'ayriqonuniy deb hisoblamagan. Aksincha, Statut mustamlakachilik siyosatini amalda qonuniylashtirgan.

1928-yilda Milliy siyosat quroli sifatida urushdan voz kechish to'g'risidagi Parij pakti (Brian-Kellog pakti) imzolanishi hozirgi zamon xalqaro huquqi tomon qo'yilgan muhim qadam bo'lgan. Mazkur hujjatga ko'ra urushga faqat baynalmilal siyosat quroli sifatida, ya'ni davlatlarning umumiy manfaatlarini uchungina yo'l qo'yilgan, barcha kelishmovchiliklarni tartibga solish esa faqat tinch vositalar bilan amalga oshirilmog'i lozim bo'lgan.

Ana shu paytda dunyo yangi jahon urushi tomon ketmoqda edi. 1939-yilda Germaniyaning Polshaga hujumi bilan II jahon urushi boshlangan. Urushdan oldingi davrdan farqli o'laroq, Ikkinchi jahon urushi davomida aksilgitlerchilik koalitsiyasi davlatlari o'rtasida izchil hamkorlik yo'lga qo'yilgan. 1945-yil fevralida uch davlat rahbarlarining Yalta konferensiyasi bo'lib o'tgan va unda urushdan keyingi tartibga solishning bir qancha (Germaniya istilosi va uning ustidan nazorat o'rnatish; reparatsiyalar (tovon to'lash), Yevropada urushdan keyingi tartibga solishlar; Polsha, Yugoslaviya) masalalari hal etilgan.

1945-yilning iyunida San-Fransiskoda Birlashgan Millatlar Konferensiyasi hozirgi zamon xalqaro huquqiga asos solgan muhim hujjat — BMT Ustavini qabul qilgan.

Ijtimoiy jihatdan BMT Ustavi umuminsoniy manfaatlarni hamda davlatlarning hamjihatlikdagi sa'y-harakatlari bilan tinchlik va farovonlikni ta'minlash mumkinligiga ishonchni o'zida mujassam etgan. Siyosiy jihatdan hamkorlik prinsipi xalqaro huquqning negiziga aylandi. Ustav klassik xalqaro huquqqa xos bo'lgan mustamlakachilik siyosatini qonuniylashtirishga barham berdi. BMT Ustavi zamonaviy xalqaro huquqqa xos umumiy maqsadlar va prinsiplarni belgilab bergan. Bularning barchasi xalqaro huquqda yangi institut — imperativ normalarning paydo bo'lishi uchun muayyan darajada xizmat qildi. Xalqaro huquqning imperativ normalari shunday normalarki, ular xalqaro hamjamiyat tomo-

nidan yaratiladi va davlatlar, hatto o'zaro kelishuv bo'yicha ham, bunday normalardan chekina olmaydi.

8-§. «Xalqaro huquq tizimi» tushunchasi

Xalqaro huquq tizimi asosan yagonaligi, shu bilan birga, nisbatan mustaqil tarkibiy qismlar (institutlar va tarmoqlar) tarzida tartibga keltirilgan bo'lim ekani bilan ajralib turuvchi yuridik normalar majmuasidir.

Barcha davlatlar uchun majburiy hisoblangan umumiy xalqaro huquq ushbu tizimning o'zagini tashkil etadi. U subyektlar, yaxlit xalqaro hamjamiyat, ya'ni yetarli miqdordagi va nafaqat son jihatidan nufuzli bo'lgan davlatlarning yalpi sa'y-harakatlari bilan yaratiladi va o'zgartirib boriladi. U eng asosiy siyosiy va huquqiy tizimlarni, shuningdek, barcha qit'alarni namoyon etishi shart. Umumiy xalqaro huquq odat normalaridan tashkil topadi va butun xalqaro hamjamiyatning huquqi hisoblanadi. Shu bois, har qanday davlat, jumladan yangi tashkil topgan davlatlar ham bu huquqni hurmat qilishga majbur.

Bundan tashqari, bir guruh davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi mintaqaviy xalqaro-huquqiy majmualar ham mavjud. Amaldagi normalarning aksariyat qismi ikki tomonlama munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Mintaqaviy va ikki tomonlama normalar umumiy xalqaro huquqqa mos kelishi kerak, ular birgalikda global xalqaro-huquqiy tizimni tashkil etadi.

Xalqaro huquq tizimi xalqaro huquq (sohalari, tarmoqlari, institutlari)ning mustaqil qismlari borligini va ayni chog'da uning tartibga solingan bo'linmalarini tavsiflovchi yuridik normalar majmuyini ko'zda tutadi. Xalqaro huquq tizimi xalqaro huquqning bir-biri bilan bog'liq bo'lgan sohalari mujassamligidirki, ular o'z prinsiplariga ega hamda xalqaro huquqning amaldagi normalaridan tashkil topuvchi institutlar va tarmoqlarga ajraladi.

Xalqaro-huquqiy normalar xalqaro huquq tizimining birlamchi elementi sifatida subyektlar doirasi jihatidan (umumiy, barcha davlatlar uchun majburiy va mahalliy, davlatlarning muayyan doirasi uchun majburiy) hamda ularning yuridik kuchi bo'yicha (dispozitiv va imperatid) bir xil emas.

Xalqaro huquq tizimiga uning uchun xos bo'lgan tuzilma, ya'ni ichki tarkib, undagi elementning joylashishi va birlashishi, ularning o'zaro aloqalaridagi mazmun-mohiyat mos va xosdir. Xalqaro huquq normalari o'zaro bog'liq va shu tufayli ulardan har birining mazmuni butun xalqaro huquq tizimi sifatida o'rganilmog'i lozim.

Xalqaro huquqning tarkib topgan asosiy prinsiplari majmuyi ilgari tarqoq holda bo'lgan normalar guruhlarini birlashtirdi, tarkiblashtirdi

va bir-biriga bo'ysundirdi. Tizimning yangi bir alomati — normalar ustunligi, ularning bo'ysunuvchanligini belgilash tartibi yuzaga keldi. Xalqaro protsessual huquq izchil shakllanmoqdaki, bu huquqiy tizim yetukligining dalolatidir.

Obyektiv xalqaro huquq tizimi o'zida xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini hamda uning sohalarini: xalqaro shartnomalar huquqi; diplomatiya huquqi; xalqaro dengiz huquqi; xalqaro fazo huquqi; konsullik huquqi; inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq; xalqaro tashkilotlar huquqi; xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositalari; xalqaro gumanitar huquq; xalqaro xavfsizlik huquqi; xalqaro javobgarlik huquqi va boshqa huquq sohalarini mujassam etadi.

Xalqaro huquq tizimining o'ziga xosligi undagi dinamizm bo'lib, uning uchun bir vaqtning o'zida nisbatan ham barqarorlik, ham uzluksiz rivojlanish xos hisoblanadi. Xalqaro huquqning ta'sir ko'rsatish sohasi, ham subyektlar doirasi bo'yicha, ham u tartibga soladigan masalalar obykti nuqtayi nazaridan muntazam kengayib borayotgan ekan, demak, xalqaro huquq tizimi ham rivojlanib bormoqda. Bu jarayon xalqaro huquqning mavjud sohalarini ravnaq topishi evaziga ham, shuningdek, yangi sohalarining shakllanish yo'li bilan ham yuz bermoqda.

«Yangi sohalar» sifatida xalqaro xavfsizlik huquqi, xalqaro javobgarlik huquqi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq, xalqaro iqtisodiy huquq, atrof-muhit huquqi, xalqaro atom huquqi va boshqa shu kabi huquqlarni ko'rsatish mumkin.

Shunday qilib, xalqaro huquq tizimini ichki bog'liqlikdagi elementlar: umume'tirof etilgan prinsiplar, shartnomaviy va odat huquq normalari, tarmoqlar, xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari, xalqaro sudlov organlari qarorlarining, shuningdek, xalqaro tan olish, huquqiy vorislik, xalqaro javobgarlik va boshqa shu kabi xalqaro huquq institutlarining amaldagi obyektiv yaxlitligi sifatida ta'riflash o'rinlidir. Har qaysi soha xalqaro huquq tizimining yaxlit, yagona doiradagi tarmog'i hisoblanishi mumkin bo'lgan muayyan tizimdan tashkil topadi.

Xalqaro huquq tizimini xalqaro huquq fani tizimi bilan bir xil deb qarash, ularni tenglashtirish mumkin emas. Chunki xalqaro huquq fani tizimi turli xil ilmiy maktablar va yo'nalishlar tomonidan yaratiladi hamda bu tizim subyektiv xususiyatga egadir.

9-§. Xalqaro «yumshoq» huquq

Xalqaro «yumshoq» huquq atamasi ikkita har xil holatni ifodalash uchun ishlatiladi.

Birinchidan, xalqaro «yumshoq» huquq aniq huquq va majburiyatlarni yuzaga keltirmaydigan, faqatgina umumiy yo'nalish beradigan va

ayni chog'da bu yo'nalishga subyektlar amal qilishi majburiy bo'lgan xalqaro-huquqiy normalarning alohida turidir. Bunday normalar uchun «erishish», «intilish», «zaruriy choralar ko'rish» va boshqa shu singari so'zlar xosdir. Ular, ayniqsa siyosiy shartnomalarda tobora ko'payib bormoqda.

Ikkinchidan, xalqaro «yumshoq» huquq nohuquqiy xalqaro normalarga nisbatan ishlatiladi. Ular nohuquqiy hujjatlarda — xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalarida, qo'shma bayonotlarda, kommyunikelarda mavjud bo'ladi. Bu normalarga misol sifatida Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) hujjatlarini¹ ko'rsatish mumkinki, ular Yevropadagi xalqaro munosabatlar tizimini qayta ko'rishda muhim vositaga aylangan.

Xalqaro «yumshoq» huquqning ana shu har ikkala turi ham tomonlar o'z zimmalariga aniq majburiyatlar olishga tayyor bo'lmagan, ayniqsa tartibga solish zarurati borasida o'zaro tushunish mavjud bo'lgan, ammo buni qanday ko'rinishda amalga oshirish noma'lum bo'lib turgan hollarda qo'llaniladi. Masalan, 1948-yili jahon hamjamiyati Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'zining inson huquqlari muammolariga taalluqli umumiy qarashlarini bayon etgan bo'lsa, 1966-yilda Inson huquqlari to'g'risidagi ikkita pakt normalarida Umumjahon deklaratsiyasi g'oyalarini muayyanlashtirish imkoni tug'ildi². Xuddi shu kabi MDH mamlakatlarining 1994-yilgi erkin savdo hududini tashkil etish to'g'risidagi bitimida o'zaro savdo-sotiqdagi cheklashlarga barham berish yo'lidagi umumiy intilish ifodalangani holda, uning asosida qabul qilingan erkin savdo to'g'risidagi ikki tomonlama bitimlarda tomonlarning bu boradagi ikki tomonlama munosabatlarining o'ziga xos jihatlari va kon'yunkturasi aniq hisobga olingan, aniq majburiyatlar bayon etilgan. Shu bois, xalqaro «yumshoq» huquq normalari dastlabki, huquqqacha bo'lgan tartibga solishlarni ta'minlaydi va huquqqa yo'l ochib beradi.

10-§. Xalqaro huquq va milliy huquqiy tizim

Xalqaro huquq dunyodagi davlatlar irodasining kelishuvi natijasidir. Milliy huquqiy tizim esa, bir davlat doirasidagi huquqiy normalarning yig'indisidir. Xalqaro huquq ham, milliy huquq ham huquqning turli xil darajada namoyon bo'lishidir hamda huquqning ikki mustaqil tizimini tashkil etadi. Ular o'zaro bog'liq va bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud.

¹ Qarang: Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 166-b.

² O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 48—74-b.

Xalqaro huquq milliy huquqiy tizimdan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi.

Birinchidan, xalqaro huquq normalari o'ziga xos usulda shakllanadi. Agar milliy huquq normalari bir davlat organlari tomonidan qabul qilinsa, xalqaro huquq normalari xalqaro huquqning subyektlari (davlatlar, xalqaro tashkilotlar) tomonidan yaratiladi.

Ikkinchidan, xalqaro huquq o'z mohiyati bilan milliy huquqiy tizimdan farq qiladi. Agar milliy huquq normalari muayyan bir davlatning mazmun-mohiyati va tabiatini namoyon etsa, xalqaro huquq normalari umuminsoniy va umumdemokratik xususiyat kasb etadi.

Uchinchidan, xalqaro huquq milliy huquqdan o'z subyektlari tarkibi bilan ham farq qiladi. Agar milliy huquqning subyektlari jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari bo'lsa, xalqaro huquq subyektlarga, avvalambor, davlatlar hamda xalqlar va millatlar, xalqaro tashkilotlar kiradi.

To'rtinchidan, xalqaro huquq o'zining tartibga solish obyekti bilan ham ajralib turadi. Agar milliy huquq normalari bir davlat doirasidagi ijtimoiy munosabatlarni, shu jumladan chet el elementi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solsa, xalqaro huquq normalari, avvalambor, davlatlararo munosabatlarni yoki kengroq ma'noda davlatlararo tizim subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi.

Beshinchidan, xalqaro huquq o'z faoliyati ko'lami va vositalari bilan ham milliy huquqdan farq qiladi. Agar milliy huquqning harakati va uning qo'llanishi muayyan bir davlatning ijroiya va sud organlari bilan bog'liq bo'lsa, xalqaro huquq normalarining harakat qilish mexanizmi-da esa ijroiya va sud organlari yo'qdir. Xalqaro huquq normalariga ri-oya qilish davlatlar tomonidan bevosita yoki bilvosita majburlash orqali amalga oshiriladi. Amerikalik professor M.Makdugal xalqaro munosabatlarda majburlashning quyidagi *to'rtta* vositasini ko'rsatgan: 1) diplomatik, shu jumladan kuch bilan tahdid qilish; 2) mafkuraviy; 3) iqtisodiy; 4) harbiy. Shu vositalar orqali xalqaro huquq normalarini bajarish ta'minlanishi mumkin.

11-§. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq

Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq bir-biri bilan yaqin aloqada bo'lgan va o'zaro bog'liq huquq tizimlari hisoblanadi. Masalan, ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo shartnomalari tashqi savdo bo'yicha davlatlararo xalqaro-huquqiy majburiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunda xalqaro shartnomalar xalqaro ommaviy huquq predmeti doirasida o'rganiladi. Mana shu savdo shartnomalari asosida tuziladigan tashqi savdo bitimlari (tovarlarni yuklash, tashish, tushirish, ularga haq to'lash va hokazo) esa fuqarolik huquqiy munosabatlarni keltirib chiqaradi va xalqaro xususiy huquq predmeti doirasida o'rganiladi.

Huquqshunoslik fanida xalqaro umumiy huquq va xalqaro xususiy huquqning o'zaro munosabati masalasi bahsli muammolardan hisoblanadi. Bu masalada uch xil nuqtayi nazarni ko'rsatish mumkin.

Birinci nuqtayi nazarga ko'ra, xalqaro xususiy huquq milliy huquqning tarkibiy qismidir. Bu fikr tarafdorlariga L.A. Luns, I.S. Pereterskiy (Rossiya), X. Batiffol (Fransiya), M. Jiliano (Italiya) kabi olimlar kiradi.

Ikkinchi nuqtayi nazar tarafdorlari — S.B. Krilov (Rossiya), M. Genovski (Bolgariya), Moreno Kintana (Argentina) fikriga ko'ra, xalqaro xususiy huquq xalqaro umumiy huquqning tarkibiy qismidir.

Uchinchi nuqtayi nazarga ko'ra, xalqaro xususiy huquq qisman xalqaro ommaviy huquq, qisman milliy huquq normalaridan tashkil topadi. Masalan, bunday fikrni Xose de Languas Messiya (Ispaniya) olg'a suradi.

Albatta, xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq muayyan o'zaro umumiy o'xshash tomonlarga hamda bir-biridan farqlanuvchi jihatlarga ega. Asosiysi shundan iboratki, ular bir biri bilan yaqin aloqada bo'lgan va o'zaro bog'liq huquq tizimlaridir.

12-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquq

«Mustaqillik va suverenitet jahon hamjamiyatiga kirib borishimizga, barcha davlatlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishimizga imkon yaratdi»¹.

Davlat mustaqilligiga qadar sobiq markaz barcha xalqaro aloqalarni faqat o'z qo'lida tutar edi, O'zbekistonga esa, «gullab-yashnayotgan Sovet Sharqi»ni xorijiy mehmonlarga ko'z-ko'z qilish vazifasi topshirilar edi. O'zbekiston nomigagina mustaqil bo'lib, boshqa ittifoqdosh respublikalar singari xalqaro hamjamiyatda yuz berayotgan jarayonlardan chetlashtirilgan edi. Bunday uzilish, ayniqsa jahon iqtisodiy tizimidan chetda qolish, O'zbekistonning milliy manfaatlariga zid edi.

SSSR tarqab ketganidan keyin O'zbekistonning xalqaro hamjamiyatdan uzilib qolganiga ham chek qo'yildi. Hozirga kelib, O'zbekiston Respublikasi ham Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Amir Temur va Temuriylar, o'zbek xonliklaridek davlatlar singari o'zining tashqi siyosatini mustaqil ravishda belgilaydi va amalga oshiradi.

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga ilk qadam qo'ygan davrdanoq, 1990-yil 20-iyundagi Mustaqillik deklaratsiyasida «xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga sodiqligini» e'lon qilgan edi. Deklaratsiyada suverenitet va inson huquqlari munosabatlarining quyidagi muhim jihati aks ettirilgan: davlat suvereniteti oliy maqsadlar — inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'lida xizmat qiladi.

¹ Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. — T., 1996. — 3-b.

Shuningdek, 1992-yilgi Konstitutsiya Muqaddimasida O'zbekiston xalqi: «xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olgan holda» mazkur Konstitutsiyani qabul qilishi qayd etilgan. Bu so'zlarning zahirida ijtimoiy taraqqiyotga tamomila yangicha yondashuv, insoniyat hayotini saqlab qolish uchun kurashga bel bog'lashga mas'ul hamjamiyat — jahon hamjamiyati bilan uzviy aloqa bog'lash g'oyasi yotadi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida uning negiziga xalqaro huquq qoidalari ko'rsatgan ijobiy ta'sir yaqqol aks etib turibdi, ya'ni inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga muvofiq hamda mazkur Konstitutsiyaga binoan e'tirof etiladi va kafolatlanadi.

Konstitutsiyaning Muqaddimasida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan qoidalari milliy qonunlardan ustunligining tan olinishi belgilab qo'yilgan. Shuningdek, Konstitutsiyada, xalqaro huquq bilan davlatimiz huquq tizimining o'zaro aloqalari belgilangan. Jumladan, O'zbekiston qonun normalari bilan xalqaro shartnoma qoidalari o'rtasida tafovut mavjud bo'lgan hollarda xalqaro shartnoma qoidalarining ustuvor qo'llanilishi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mamlakatimiz o'zini jahon hamjamiyati oldida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalariga sodiqligini konstitutsiyaviy darajada e'lon qilgan. Bu esa O'zbekistonning eng nufuzli xalqaro tashkilotlarga to'laqonli a'zo sifatida kirishiga, suveren davlatimizning dunyo miqyosida umumiy diplomatik tan olinishiga, ikki tomonlama va ko'p tomonlama siyosiy, iqtisodiy, madaniy va huquqiy aloqalar o'rnatishiga hamda mustaqil tashqi siyosatini amalga oshirishiga imkon berdi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati jahon hamjamiyati teng huquqli a'zosining, boshqa davlatlar bilan hamkorlikda XXI asr huquqiy tartibotini yaratayotgan suveren davlatning mustaqil siyosatidir. O'zbekiston umumbashariy, Yevropa va Markaziy Osiyo miqyosidagi yangi xalqaro-huquqiy tartibotni qurishda faol ishtirok etmoqda.

Istiqlol yillari davomida O'zbekiston Respublikasi o'zining siyosiy, iqtisodiy, boy madaniy va ma'naviy salohiyatiga tayangan holda xalqaro siyosatning mustaqil va obro'li omiliga aylandi. 2004-yilning boshiga kelib O'zbekistonning davlat mustaqilligini 131 davlat tan oldi, ularning 113 tasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatildi. Toshkentda 44 davlatning elchixonalari hamda 20 ta yirik xalqaro tashkilot vakolatxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. O'z navbatida, O'zbekiston xorijiy mamlakatlarda o'zining 40 ta vakolatxonasini (jumladan 28 tasi elchixona) ochdi. Bugun O'zbekiston 53 ta nufuzli xalqaro tashkilotlarning to'laqonli a'zosi bo'lib, ularning faoliyatida faol ishtirok etmoqda. Shunday qilib, XXI asrda O'zbekiston xalqaro va mintaqaviy siyosatning peshqadam markazlaridan biriga aylanishi uchun barcha zaminga egadir.

IKKINCHI MAVZU.

XALQARO HUQUQ NAZARIYASI, FANI VA AMALIYOTI BIRLIGI

- 1-§. Xalqaro huquq nazariyasining shakllanishi. Tabiiy huquq va pozitiv huquq nazariyalari
- 2-§. Xalqaro huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar tizimida
- 3-§. Xalqaro huquq amaliyotiga tabiiy fanlar ta'siri
- 4-§. Xalqaro huquq va tashqi siyosatning o'zaro nisbati
- 5-§. Zamonaviy xalqaro huquq fanining ahvoli
- 6-§. Zamonaviy xalqaro huquq amaliyoti

1-§. Xalqaro huquq nazariyasining shakllanishi. Tabiiy huquq va pozitiv huquq nazariyalari

XXI asr boshida xalqaro munosabatlar rolining kundan-kunga o'sib borishi va ularning nihoyatda murakkabligi munosabati bilan xalqaro huquq fani alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki xalqaro huquq xalqaro miqyosdagi nizo va kelishmovchiliklarni bartaraf etishda, tobora globallashib borayotgan dunyoning birligini va yaxlitligini saqlashda juda muhim rol o'ynaydi. Xalqaro munosabatlar roli ortib borishining yaqqol misoli sifatida BMT Assambleyasi tomonidan 1990—1999-yillarni BMT «Xalqaro huquq o'n yilligi» deb e'lon qilinishini ko'rsatish mumkin. O'n yillikning asosiy vazifasi — «xalqaro huquq prinsiplarining qabul qilinishi va ularni hurmat qilishga yordam ko'rsatish» bo'ldi. Xalqaro huquq rolining muttasil o'sib borishi va xalqaro-huquqiy muammolarning hal qilinishi nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligini ta'minlashni taqozo etadi. «Xalqaro huquq fanining o'n yilligi» dasturida xalqaro huquq fanini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan. O'n yillikning asosiy maqsadlaridan biri xalqaro huquqqa oid ilmiy tadqiqotlarni yanada rag'batlantirishdan iborat bo'ldi. Davlatning yuqori malakali mutaxassislar tomonidan amalga oshirilgan xalqaro huquqqa oid ishlarni rag'batlantirib borishi maqsadga muvofiqdir. O'n yillik yakunlari bo'yicha BMT Bosh Assambleyasi Rezolyutsiyasida «davlatlar va xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq bo'yicha risola va boshqa materiallarni nashr etishni, xalqaro huquqni ommalashtirish maqsadida o'tkaziladigan simpozium, konferensiya, seminar va boshqa yig'ilishlarni rag'batlantirishi maqsadga muvofiq»¹ — deyiladi.

Xalqaro huquq fani ahamiyati va rolining o'sib borishi, o'z nav-

¹ Qarang: Резолюция 54/28 от 17 ноября 1999г.// Резолюции и решения, принятые Генеральной Ассамблеей на пятьдесят четвертой сессии I. - Нью-Йорк, ООН, 2000.

batida, tashqi siyosatda ilm-fanning muhim ahamiyat kasb etishini, ya'ni nazariy omilni ta'minlaydi. Shu bilan birga, boshqa fanlar singari xalqaro huquq nazariyasi va amaliyotining chambarchas aloqalarini ta'minlaydi. Bu esa xalqaro huquq normalarining puxta shakllanishi va rivojlanishi uchun muhim omil vazifasini bajaradi.

Tarixiy manbalarda keltirilishicha, xalqaro huquq g'oyasining o'zi dastlab olim va mutafakkirlarning «miyasida» shakllangan bo'lib, so'ngra bu g'oya davlatlar amaliyotida qo'llanishigacha ancha vaqt o'tgan. Shu ma'noda xalqaro huquq tarixi milliy huquq tarixidan farqlanadi. Davlatlar faoliyati natijasida xalqaro huquq tizimi paydo bo'lgan.

Nazariyotchi huquqshunoslarning qonun ijodkorligi jarayonida to'g'ridan to'g'ri ishtirok etishining yaqqol misoli sifatida Yustinian «Digestlar»ni keltirish mumkin¹. 533-yilda Rim imperatori Yustinian «Rim odil sudlovining ramzi» sifatida «Digestlar» haqidagi farmonini e'lon qilgan. Digestlar miloddan oldingi I asr — milodning IV asrlarida yashab o'tgan Rim huquqshunolarining fikrlarini o'zida mujassamlashtirgan. «Digestlar»ga iqtibos olinayotgan mualliflarning nomlari va ular asarlarining ro'yxati ham ilova qilingan. Keyinchalik, «Digestlar» yuridik amaliyot uchun zarur bo'lgan normalarni o'zida aks ettirgan degan sababga ko'ra, yuqoridagi adabiyotlardan foydalanish taqiqlangan. Tegishli iqtiboslarni tanlash maxsus komissiya tomonidan amalga oshirilgan. Bu komissiya 6 nafar a'zodan iborat bo'lib, shundan 4 nafari huquqshunos olim bo'lgan. Biroq tegishli qoidalarni tanlab olishda asosiy rolni komissiya raisi, imperator devonxonasining boshlig'i hamda tajribali huquqshunos Tribonian bajargan. Bularning hammasi Digestlar faqat nazariyotchi huquqshunoslarning g'oyasi emasligidan dalolat beradi. Ularning asarlaridan davlat hokimiyat talablariga mos ayrim qoidalar olingan, xolos.

To'g'ri, tabiiy huquq nazariyasi ko'pgina tarafdorlarining fikrlariga ko'ra, davlat pozitiv huquqni yaratadi, tabiiy huquq mazmunini aniqlashda esa olimlarga katta o'rin beriladi. Shu munosabat bilan fransuz klassik huquqshunosi L. Dyugining «obyektiv huquq» (droit objectif) konsepsiyasini eslab o'tish joizdir. Obyektiv huquq — «inson his qiluvchi narsalarni o'zida mujassamlashtirgan, olimlar esa uni shakllantiradi, xolos»². Bu konsepsiyada muhim qoida o'z aksini topgan bo'lib, uning mohiyati shundan iboratki, davlat tomonidan qabul qilinadigan qonunlar har doim jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan holda qabul qilinmaydi. Bunga qonunlar obyektiv borliqdan kelib chiqqan holda tuzish uchun ko'pgina sabablar, xususan, qonunshunosning yuqori malakaga ega bo'lmasligi sabab bo'lishi mumkin. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan

¹ Qarang: Дигесты Юстиниана. — М., 1983.

² Duguit L L Etat, le droit objectif et la loi. — Paris, 1901.

qonunlar «obyektiv qonunlar» hisoblanadi va uni mazmunan shakllantirishda huquqshunoslik fani muhim o‘rin tutadi.

Xalqaro huquq nazariyasi o‘z tarixi davomida bu huquqning shakllanishida va ko‘pchilik tomonidan tan olinishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ba‘zan uni «olimlar huquqi» («professorona huquq») deb ham atashgan. Bu jihatlar biror marta ham mutaxassislar tomonidan qayd etilmagan. Professor L.A. Kamarovskiyning yozishicha, Ilm-fan xalqaro huquqni yaratgan, rivojlantirgan va u haqdagi ta‘limotlarni har doim mustahkamlagan¹. Haqiqatan ham bunda xalqaro huquqning quyidagi ikki vazifasi: birinchidan, xalqaro huquq normalarining amaliyotda tasdiqlanishiga va, ikkinchidan, xalqaro-huquqiy ongning rivojlanishiga ta‘sir ko‘rsatishi to‘g‘ri qayd etilgan.

«Xalqaro huquqning otasi» sifatida golland huquqshunosi va diplomati Gugo Grotsiy (1583—1654) tan olingan bo‘lib, u «Urush va tinchlik huquqi haqida» nomli asarida (1625) xalqlar va ularning hukumatlari o‘rtasidagi munosabatni tartibga soluvchi huquq mavjudligini asoslab bergan². Haqiqatan ham o‘sha zamonda shunday buyuk va ulug‘ g‘oyaning bir inson boshida paydo bo‘lishi uchun tegishli moddiy va intellektual omillar mavjud bo‘lgan.

Rim imperiyasi qulab, papa hokimiyati kuchsizlanganidan keyin G‘arbiy Yevropada tartibsizlik boshlanib uzluksiz urushlar hukm sura boshlagan. K. Van Vollenxovenning yozishicha, XVI asrning oxirida «do‘zaxiy hayot sharoitlari» yuzaga kelgan. O‘ttiz yillik urush mobaynida (1618—1648) katolik va protestant davlatlarning o‘zaro holsizlanishi natijasida Vestfal tinchlik shartnomasi tuzilgan. Ushbu Tinchlik shartnomasi G‘arbiy Yevropada xalqaro munosabatlarni yangi bosqichga ko‘targan va mustaqil davlatlar o‘rtasidagi xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni yaratgandi. Bunday sharoitda huquq yordamida davlatlararo munosabatlarda o‘zboshimchalikni cheklash va oldini olish g‘oyasi ilgari surilgan.

Bu g‘oyaning amalga oshishida ichki siyosiy tajriba ham muhim rol o‘ynagan. G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida burjuaziya munosabatlari-ning mustahkamlanishi (XVI—XVII asrlar) uning qirol hokimiyatiga ta‘sirini oshirgan. Bu, o‘z navbatida, burjuaziya sinfi manfaatlarini himoya qilgan. Bu ittifoq feodallarni qisqartirish imkonini bergan. Tartib o‘rnatishda huquq juda muhim ahamiyat kasb etgan va o‘zi ham rivojlanib borgan. Bu xalqaro munosabatlarda xalqaro huquqni qo‘llash amaliyotiga ijobiy ta‘sir etgan.

G. Grotsiy asarining asosiy mazmuni o‘sha davrdagi buyuk faylasuf

¹ *Камаровский Л.А. Основные вопросы науки международного права. — М, 1895. С. 63.*

² *Гроций Г. О праве войны и мира. Три книги. — М, 1956. С. 44.*

va huquqshunos olimlarning asarlaridan olingan edi. Faylasuflar xalqaro munosabatlarda oddiy tartibni asoslashga uringanlar. G. Grotsiyga Foma Akvinskiyning (1225—1274) «Grad bojiy» asari juda katta ta'sir o'tkazgan. Bu asarda muallif G'arbiy Yevropa mamlakatlari hukmdorlarini papa boshchiligida birlashishga chaqirgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, F. Akvinskiy huquqqa alohida e'tibor qaratgan, jumladan, xalqaro munosabatlarni tartibga solish maqsadida u Qadimgi Rimning jus gentium — «xalqlar huquqi» — tushunchasini kengaytirgan. Huquqshunoslar haqida gap ketganda, albatta, Grotsiydan oldin yashab o'tgan yurist-olimlarning ham xizmatini alohida ta'kidlash lozim. Xalqaro huquq tarixi bilan shug'ullanuvchi ayrim olimlarning fikricha, xalqaro huquqning haqiqiy «otalari» F. Vitoria (1483—1546) va A. Jentili (1552—1608) bo'lgan¹.

Haqiqatan ham G. Grotsiy ularning fikrlaridan, ayniqsa A. Jentili asarlaridan keng foydalangan. Shu bilan birga faqat G. Grotsiygina xalqaro huquq nazariyasini ishonarli tarzda asoslagan va xalqaro huquqning asosiy qoidalarini qayd etib o'tgan.

Asosiy qiyinchilik huquqning aniq normalarini ishlab chiqishda bo'lgan. Sababi davlatlar amaliyotida deyarli qo'llanilmagan qoidalarni yaratish lozim bo'lgan. Shuning uchun G. Grotsiy o'zidan oldingi olimlar singari huquq normalarini tabiiy huquqdan, diniy matnlardan va axloqdan qidirgan. Tabiiy huquq normalarini aniqlashda «aql huquqi» va Rim huquqi muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bilan birga, G. Grotsiy «umume'tirof etiladigan huquq barcha davlatlarning yoki ular ko'pchiligining kelishuvi bilan paydo bo'lishi mumkin»² deb hisoblagan.

Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, gap asosan huquq haqida emas, balki ko'proq falsafiy g'oyalar haqida borgan. Ushbu falsafa real hayotdan ancha uzoq bo'lib, utopik xususiyatga ega bo'lgan. Shunga qaramasdan, bu «utopik xayollar» faqatgina orzular bo'libgina qolmasdan, balki xalqaro hayotning real ehtiyojlarini ifodalagan. Bu omillar xalqaro huquq nazariyasining yanada rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu, o'z navbatida, o'sha paytda fantastika sifatida qaralayotgan xalqaro huquq prinsiplari va qoidalarining ommalashishiga sabab bo'lgan. Shunga qaramasdan, bu «utopik xayollar» faqatgina orzular bo'libgina qolmasdan, balki xalqaro hayotning real ehtiyojlarini ifodalagan edi.

Bu omillar xalqaro huquq nazariyasining yanada rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu, o'z navbatida, o'sha paytda fantastika sifatida qaralayotgan xalqaro huquq prinsiplari va qoidalarining ommalashishiga sabab bo'lgan.

¹ Qarang: Scott J. The Spanish Origin of International Law. N.Y., 1928.

² Гроций Г. О праве войны и мира. Три книги. — М., 1956. С. 48.

BMT sobiq Bosh kotibi Peres de Kuelyarning yozishicha: «BMT Us-tavida mustahkamlangan g'oyalar kishilik jamiyati taraqqiyotining qay-sidir bosqichida fantastik, hatto g'ayritabiiy bo'lib tuyulgan. Bu g'oyalar G. Grotsiy va Immanuil Kant singari olimlarning miyalarida paydo bo'lgan. Afsuski, hukmdor doiralar bu g'oyalarga deyarli e'tibor berish-magan»¹.

Xalqaro-huquqiy ongning paydo bo'lishida huquqshunoslarning asar-lari muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Biroq u amaliyotga juda sekin tatbiq qilingan. XIX asr boshida I. Kantning yozishicha, G.Grotsiy, S.Pufendorf, Ende Vattel va boshqalar hech qanday yuridik kuchga ega bo'lmagan «falsafiy va diplomatik kodeks»ni yaratganlar². Shunga qara-masdan, diplomatiya asta-sekin yuridik asoslashdan foydalana boshla-gan. Shu o'rinda Pyotr I davrida vitse-kansler bo'lgan P.P. Shafirov-ni asari diqqatga sazovordir. Bu asar Shvetsiyaga qarshi urushning qonuniy sabablarini asoslashga va tabiiy huquqqa bag'ishlangan. Pyotr I ning o'zi esa «berilgan va'daning kuchini saqlash uchun shartnomaga amal qilinadi», deb hisoblagan.

Faqat XIX asrga kelibgina tabiiy huquq nazariyasining ustuvorligi bilan birgalikda pozitiv huquq maktabining ta'siri paydo bo'la boshla-gan. Bu xalqaro huquqning amaliy ahamiyatini oshib borishi bilan izoh-langan. Pozitiv huquq maktabi vakillari (G. Uiton, R. Fillimor, J. Kent, J. Mur va boshqalar) amaliyot materiallarini, ularning zarurligini isbot-lamasdan va ularni tanqidiy baholamasdan yig'ishgan, umumlashtirish-gan va ma'lum bir tizimga solishgan.

Xalqaro normalarning shakllanishida esa xalqaro huquq nazariyasi amaliyotdan ancha ilgari ketgan. Bu esa o'z navbatida, adabiyot-larda huquq ijodkorlik nazariyasi bevosita ishtirok etadi degan qarash-larning tarqalishiga olib kelgan.

XIX asr o'rtalarida shveysariyalik huquqshunos olim I. Blyunchli shunday deb yozgan: «Hozirgi paytda Uiton va Fillimor, Vilden va Kent, Gefter vam Oppengeym mashhur nazariya tufayli bir birlari bilan kelishishadi. Tabiiyki, xalqaro huquq tan olinmagan va shubhali hisoblan-gan tarixiy davrlarda ham biz xalqaro huquqni tan olish tarafdorimiz»³. Shunga qaramasdan buyuk olimlarning o'zaro yakdil fikrlari xalqaro-huquqiy ongga o'z ta'sirini o'tkazgan va asta-sekin davlatchilik amali-yotida qo'llanila boshlangan.

Qadimda pozitiv xalqaro huquqdagi ayrim bo'shliqlarni to'ldirish

¹ Куэльяр П. Послания и заявления, посвященные международному году мира, 1986. Нью-Йорк ООН. 1987. С. 33–34.

² Кант И. Вечному миру // Трактаты о вечном мире.—М., 1963. С. 184; Малиновский В.Ф. Рассуждения о мире и войне // Там же. С. 251.

³ Блюнчли И. Современное международное право цивилизованных государств, изложенное в виде кодекса. —М., 1876. С. 74.

maqsadida milliy sudlar qarorlari va xalqaro huquqshunoslarning asarlariga murojaat qilishgan. AQSH Oliy Sudi qaroriga muvofiq 1820-yilda umumiy qoida belgilangan bo'lib, unga ko'ra milliy huquq «om-maviy huquq bilan shug'ullanayotgan mashhur huquqshunoslarning asarlari vositasida ham dalillanishi va isbotlanishi mumkin»¹. Bunda sudlar qaysi manbani asosli deb topish huquqini o'zlarida qoldirganlar. 1934-yilda Buyuk Britaniya Maxfiy kengashi quyidagi fikrlarni bildirgan: «xalqaro huquqqa murojaat qilayotib, xalqaro huquq jahondagi ilg'or fikrlarni ifodalaydi. Fikrning qadr qimmatini baholashda nafaqat hech kimda e'tiroz tug'dirmaydigan fikrlarni qidirish, balki biror-bir masala bo'yicha eng qulay nuqtayi nazarni ifodalash maqsadga muvofiqdir»². Vaqt o'tishi bilan sudlar amaliyotida umume'tirof etilgan nazariyagina e'tiborga olinishi qayd etilgan. Huquqshunos olimlarning asarlaridan xalqaro huquq normalarini sharhlashda foydalanilgan.

Xalqaro huquq nazariyasida tabiiy huquq va pozitiv huquq o'rtasida o'zaro aloqador bo'lgan fikrlar eng asosiy yo'nalish sifatida e'tirof etilgan. Shunga muvofiq davlatlar amaliyotida huquq normasi juda ham qiyinchilik bilan e'tirof qilingan, xalqaro huquq qanday bo'lishi lozim bo'lsa, xalqaro huquq shunday bayon etilgan. Bu an'anani hozirgi paytda ko'pgina mualliflarning asarlarida ham kuzatish mumkin.

2-§. Xalqaro huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar tizimida

Xalqaro huquq nazariyasi tarixining ko'rsatishicha, u boshqa bir qancha ijtimoiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Xalqaro huquq fani o'zining ilk bosqichlarida falsafa bilan o'zaro aloqador holatda o'rganilgan. Keyinchalik esa u sotsiologiya va siyosatshunoslik bilan hamkorlikda o'rganila boshlangan. Haqiqatan ham, xalqaro huquqning boshqa ijtimoiy fanlar bilan o'zaro aloqasi juda ham zarur. Tajribaning ko'rsatishicha, barchaga yaxshi ma'lum bo'lgan huquq nazariyasi faqat o'z doirasida chegaralanib qolsa, salbiy natijalarga olib keladi, ijtimoiy munosabatlarni tor doirada tartibga soladi. Huquq nazariyasiga bo'lgan bunday yondashuvda xalqaro huquqning mazmun-mohiyati va tabiatini ko'rsatib bo'lmaydi, har tomonlama asoslangan nazariyani yaratib bo'lmaydi. Xalqaro huquqning majburiylikni asoslash maqsadida xudoning irodasiga va huquqiy ongga murojaat qilingan yoki bo'lmasa, bu huquqning o'rganish obyektiga kirmaydi deb hisoblangan. Asosiy e'tibor normalarni sharhlashga qaratilgan, huquqning real hayotga ta'siri esa tan olinmagan. Shu bilan birgalikda rasmiy yuridik xususiyatga ega bo'lgan ayrim asarlarda sotsiologik jihatlar ham qisman hisobga olingan.

¹ United States v. Smith // U.S. Reports. 18. (5 Wheaton), 1820. P.53, 160–161.

² In re Piracy Jure Gentium (1934).

Buning ta'sirida ayrim sotsiologik huquqqa yondashuvchilarni «huquq sotsiologiyasi» kabi maktablari ham paydo bo'lgan. Ijtimoiy va tabiiy fanlarning rivojlanib borishi natijasida huquq nazariyasi ham ijtimoiy hayotning real jarayonlarini o'zida aks ettirib borgan. 1960-yillardan boshlab ko'pgina huquqshunoslar huquq nazariyasi xalqaro huquqni tartibga solishga kam e'tibor qaratayapti, deb hisoblashgan va bu masalalarga huquq nazariyasi alohida e'tibor qaratishi lozim, degan g'oyalar ilgari surilgan. Bu haqda D.B. Levin shunday deb yozgan: «Xalqaro huquqning obyektiv ijtimoiy qonuniyatlarini kashf etish va rivojlantirish xalqaro huquq fanining eng muhim vazifasidir»¹.

O'tgan davrning sodda va oddiy huquqiy tartibga solish mexanizmi jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarini oldindan bilishni talab qilmas edi. Bu qonuniyatlardan faqat amaliyotda foydalanilardi, odamlar ularning amal qilinishiga moslashar edi, xolos. Nazariya to'plangan tajribalarini tahlil qilib, umumlashtirib, amaliyot orqasidan harakat qilar edi. XXI asming boshi xalqaro munosabatlar tizimi va dunyoda sodir bo'layotgan integratsion jarayonlardagi muammolarni ma'lum bir qoida asosida hal qilish mumkin bo'lmay qoldi.

Xalqaro munosabatlar taraqqiyoti qonuniyatlarini va ularning rivojlanish yo'nalishlarini hamda ularga ta'sir qilish vositalarini nafaqat hozir, balki kelajakda ham o'rganish muhim ahamiyatga ega. Bugun amaliyotning o'zi xalqaro huquq fanining rivojlanishidan o'ta manfaatdordir. Faqat shunday bo'lgandagina xalqaro huquq fani amaliyotga bevosita xizmat qilishi mumkin.

Bunda xalqaro huquqning u yoki bu sohasini dabdurustdan o'rganish kerak emas, balki yangi sharoitlar tizimli ravishda atroflicha chuqur o'rganish lozim. Kelajakda paydo bo'luvchi muammolarni hal qilish normalarini yaratish xalqaro hayotning kundan-kunga o'sayotgan dinamizmi sharoitida alohida ahamiyatga egadir. Faqat shu omillarni nazarga olgandagina muhim amaliy muammolarni huquqiy hal qilish imkoniyati tug'iladi. Xalqaro huquq fani xalqaro munosabatlarga huquqning ta'sir qilish imkoniyatlarini va bunday ta'sir usullarini aniqlashga yordam berishi lozim. Bu yo'ldagi muammo ilmiy bilishning siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy hayotga singdirish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat. Buning hammasi xalqaro huquq fanining vazifalari kengayishidan, ijtimoiy ahamiyatining oshishidan dalolat beradi.

Shunday qilib, hozirgi paytda xalqaro huquqni o'rganish katta ahamiyatga ega. Xalqaro-huquqiy tartibga solishning xarakteri, uning obyektivi davlatlararo munosabatlar natijasida aniqlanadi. Ularni o'rganishdagi

¹ *Левин Д. Б. Методология советской науки международного права // Сов. государство и право, 1969. № 9. С. 63.*

muvaqqiyat xalqaro huquqning boshqa ijtimoiy fanlar bilan hamkorligiga ham bog'liq.

An'anaviy falsafa, sotsiologiya, mantiq, huquq nazariyasi bilan o'zaro aloqalardan tashqari xalqaro huquq fanning boshqa sohalarini bilan ham aloqa o'rnatishga majbur bo'lyapti. Bunda ayniqsa siyosatshunoslik bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, iqtisodiyot bilan bo'lgan aloqalarning ham ahamiyati oshib bormoqda. Xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro ommaviy huquqning asosiy tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. Xalqaro huquq fani sohalarining rivojlanishi, ya'ni xalqaro kosmik va xalqaro dengiz huquqi, atrof muhitni muhofaza qilish (ekologiya) huquqi va boshqa tabiiy fanlarning tegishli tarmoqlari bilan yaqin hamkorlik qilishni taqozo etmoqda.

3-§. Xalqaro huquq amaliyotiga tabiiy fanlar ta'siri

Ilm-fan inqilobi nafaqat texnik, balki boshqa ijtimoiy muammolarni yuzaga keltiradi. Xalqaro ijtimoiy hayotda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu esa, xalqaro huquqqa qo'yilayotgan talablarni yanada oshiradi. Bugungi kunda xalqaro huquq fani jamiyat hayotidagi tabiiy fanlar va texnika o'zgarishlarini hisobga olmagan holda o'rganilishi mumkin emas. Borgan sari fan-texnika yutuqlarini insoniyat uchun xizmat qilishini ta'minlash murakkab kechmoqda. Bu muammolarni hal etishning asosiy vositasi — huquqdir. Polshalik taniqli yurist M. Lyaxs shunday xulosaga keladiki, bu muammolarni yechishning asosiy vositasi bu faqat va faqat huquqdir yoki inson tomonidan yaratilgan xalqaro huquqdir. Insoniyatning tabiat qonunlari ochilishiga javoban va inson tomonidan yaratilgan vositalar — uni insoniyat manfaatlarini uchun oqilona foydalanishni nazorat qiladigan kalitdir¹.

Hozirgi sharoitda tabiiy fanlarning ko'zga ko'ringan vakillari va texnika sohasidagi mutaxassislar xalqaro huquq normalarini yaratishda bevosita yoki bilvosita ishtirok etishyapti. Bu asosan alohida fan sohalariga, masalan, dengiz, kosmik, telekommunikatsiya, atrof-tabiatni muhofaza qilish huquqlariga tegishlidir. Tegishli norma loyihalarini turli konvensiyalarda ishlab chiqishda davlatlarning delegatsiyasi tarkibida tegishli bilim sohasiga ega bo'lgan mutaxassislar qatnashadi. Texnik konvensiyalarga tayyorgarlik ko'rish paytida bunday mutaxassislar ko'pincha butun delegatsiyani boshqarishadi, huquqshunoslar esa ularda ekspert sifatidagina qatnashadilar. Ko'pgina bilim sohalarini hamkorlik qilishga undaydigan holatlar katta ahamiyat kasb etadi. Aksariyat huquqshunoslar orasida tarqalgan fikrga qarshi o'laroq, shuni alohida ta'kidlash lo-

¹ *Lachs M. Thoughts on Science, Technology and World Law // American Journal of International Law, 1992.No. 4.P. 699.*

zimki, xalqaro huquq xalqaro munosabatlarni tartibga soladigan yagona vosita emas. Bunday tartibga solish turli normalar, xususan, siyosiy va axloqiy normalar asosida amalga oshadi. Ularning hammasi bir-birlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, BMT Ustavi tomonidan mustahkamlangan asosiy prinsiplar bilan birgalikda yagona xalqaro normativ tizimni tashkil etadi.

Ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan hamkorlikni mustahkamlash nafaqat xalqaro huquq uchun, balki butun huquqshunoslik fani uchun muhimdir. Ayniqsa, xalqaro huquq uchun bunday hamkorlik hayotiy zaruratdir. Kanadalik professor R. Makdonald bu haqda quyidagicha yozgan: «Aynan xalqaro huquq, boshqa huquq sohalariga nisbatan siyosatshunoslik va ijtimoiy fanlar bilan doimiy aloqada bo‘ladi»¹.

Asosiy yo‘nalish — xalqaro huquqni zamonaviy vositalar bilan ta‘minlashdir. Buni yaxshiroq anglash uchun quyidagi misolni keltirish maqsadga muvofiq.

Xalqaro odat huquqi davlatlarning amaliyoti asosida shakllanadi. Zamonaviy aloqa vositalari yordamida u qisqa muddat ichida keng tarqalmoqda. Xalqaro odat huquqi normalarining tarkib topish jarayoni tobora o‘sib boryapti. Bu esa xalqaro-huquqiy tartibga solish darajasini oshirish uchun juda muhimdir. Bu jarayonning imkoniyatlaridan foydalanish tegishli texnik vositalardan foydalana bilishni talab etadi. Buzsiz amaliyotning ko‘p manbalarini va ularning rivojlanish tendensiyasini umumlashtirish va tahlil qilish mumkin emas.

Shunday qilib, xalqaro hayotning murakkablashib borishi xalqaro-huquqiy tartibga solishning intellektual darajasini oshirishni talab etadi. Buning birdan bir yo‘li xalqaro huquqning ijtimoiy va tabiiy fanlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish va ta‘minlashdir. Yuz berayotgan o‘zgarishlarning ta‘siri natijasida, hatto xalqaro huquq nazariyasida ham muayyan o‘zgarishlar yuz bermoqda.

4-§. Xalqaro huquq va tashqi siyosatning o‘zaro nisbati

Xalqaro huquqning davlat siyosati bilan munosabati bu huquq amal qilish mexanizmini tushunish uchun alohida qiziqish uyg‘otadi. Bu muammo bir qator huquqshunos olimlar tomonidan har tomonlama o‘rganilgan².

Amerikalik huquqshunos R. Bek xalqaro huquqning tashqi siyosat bilan chambarchas bog‘liqligi haqida shunday yozgan: «Huquqni siyo-

¹ Macdonald R. The Charter of the United Nations and the Development of fundamental Principles of International Law // Contemporary Problems of International Law. London, 1988. P.209.

² Qarang: Черниченко С.В. Теория международного права. Т.1.—М., 1999. С. 20.

satsiz to'la anglab bo'lmaydi. O'z navbatida, siyosatni ham huquqsiz mushohada etib bo'lmaydi»¹.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda bu haqda ikkita yo'nalish mavjud. Birinchisi, siyosatning ahamiyatini oshirib, ikkinchisi kamaytirib ko'rsatadi.

«XX asr oxiri huquqshunoslari xalqaro huquqning siyosiy tabiatini rad etishdan ko'ra u bilan bog'liq bo'lgan oqibatlar bilan hisoblashishsa yaxshiroq bo'lardi»².

So'nggi o'n yilliklarda G'arb, ayniqsa, AQSH adabiyotida boshqacha biryoqlamalik keng tarqaldi. Amerikalik professor L. Genkinning e'tiroficha, «xalqaro huquq bu siyosatdir»³. «Siyosiy realizm» maktabi vakillarining fikricha, xalqaro huquq hech qanday davlatning siyosatiga cheklovlar qo'ymaydi (G. Morgentau, AQSH). «Siyosiy yurisprudensiya» oqimi tarafdorlari (M. Makdugal va boshqalar) xalqaro huquqni tashqi siyosat ichiga singdirib yubordilar⁴.

Xalqaro huquq va tashqi siyosatning o'zaro nisbati muammolari xalqaro huquq fanida yangi yo'nalishning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. D. Kennedi, F. Krotovhil, N. Onaf, A. Karti, M. Kaskenniemi kabi mashhur olimlar bu oqimning tarafdorlaridir⁵. Bu oqimning mazmuni va mohiyati xalqaro huquq nazariyasi bir vaqtning o'zida ham yuridik ilmiy, siyosiy real bo'la olmaydi, degan fikrdan iboratdir. Uning namoyondalari xalqaro huquq nazariyasining tashqi siyosatdan farqlanuvchi alohida maxsus tadqiqotlar sohasi yo'q ekanligini isbotlashga intiladilar. Xalqaro huquqshunolar bir tomondan, axloqiy falsafadan, boshqa tomondan, diplomatiyadan voz kechishga juda ko'p harakat qilganlar. Biroq diplomatik siyosat ham falsafaning shakllaridan biridir.

Qator asarlar muallifi, Finlyandiya Tashqi ishlar vazirligining tajribali xodimi M. Koskenniemi shunday deb yozadi: «Haqiqatan ham qandaydir ma'noda xalqaro huquqning muayyan voqelikda mavjudligini ko'rsatish uchun zamonaviy huquqshunos bu huquq bir vaqtning o'zida ham normativ va aniq (real) ekanligini, u har qanday davlat xulq-atvoriga, uning xohish-istagi va manfaatiga bog'liq bo'lmagan holda majburiy ekanligini ko'rsata bilishi kerak». Muallif «xalqaro huquqni xalqaro xulq-atvorni oqlash yoki uni tanqid qilish vositasi deb tushunmaslik kerak» degan xulosaga kelgan⁶. Uning fikricha, tanqidiy oqimning boshqa tarafdorlari singari, obyektivizm doirasidan chiqish va xalqaro huquqni

¹ Beck R. The Grenada Invasion / Boulder, 1994. P. XXII.

² The Structure and Process of International Law. P. 204.

³ Journal of International Affairs. 1990. Vol. 44. P.183.

⁴ Qarang: Mc Dougal M, Reisman M. International Law Essays. N.Y., 1981.

⁵ Kennedy D. International Legal Structures. N.Y.1987; Kratochwil F. Rules, Norms and Decisions. N.Y., 1989; Onuf N. World of Our Marking. N.Y. 1989.

⁶ Koskenniemi M. From Apology to Utopia. Helsinki. 1989. P. 2, 48.

o'rganishni xalqaro munosabatlarning mustahkam bo'lgan poydevori asosida o'rganish muammoning yechimi hisoblanadi. Buning uchun xalqaro huquq nazariyasini real siyosatga yaqinlashtirmoq kerak.

Darhaqiqat, xalqaro huquq nazariyasining real xalqaro munosabatlari poydevoriga asoslanishini rad etib bo'lmaydi. Biroq, bu xalqaro huquq siyosat bilan omuxtalashib ketsin, degani emas. Huquq so'zsiz davlatning iroda va manfaatlarini ifoda etadi, biroq shu bilan birga huquq siyosatga nisbatan muayyan mustaqillikka egadir. Aks xolda, u o'zining tartibga solish funksiyasini amalga oshira olmaydi. Huquqda o'z aksini topgan davlatlar irodasi ham shunga yo'naltirilgan, buni ularning manfaatlari ham talab qiladi. Tashqi siyosat va xalqaro huquq o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning chuqurlashuvi ular o'rtasidagi munosabatlarda chegaraning yo'qolishini bildirmaydi. Bu yerda bir-biriga yaqin, biroq o'xshash bo'lmagan holatlar to'g'risida so'z ketmoqda. Xalqaro huquqning tashqi siyosatdagi rolining pasayishi ikkala hodisaga ham zarar yetkazadi. Siyosat o'zining amalga oshirish uchun qulay bo'lgan dastagidan ayrilsa, bir vaqtning o'zida xalqaro huquqning obro'yi ham tushadi. Formal yuridik yondashuv tashqi siyosat bilan xalqaro huquqning o'zaro aloqasini inkor qiladi. Natijada haqiqiy hayot bilan aloqa uziladi, xalqaro huquqning tabiati buzilib ko'rsatiladi. Ayrim fikrlarga qaraganda, xalqaro huquq bilan tashqi siyosatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Bunda asosiy vazifa ular o'rtasidagi maqbul o'zaro munosabatlar nisbatini topishdir.

Xalqaro huquq tashqi siyosatga nisbatan muayyan mustaqillikka egadir. G.I. Tunkin: «Milliy huquq singari xalqaro huquq siyosat bilan yaqin aloqada, biroq siyosatning tarkibiy qismi emas» — deb yozgan¹. Xalqaro huquq har qanday siyosat uchun vosita bo'lib xizmat qila olmaydi. O'ziga to'g'ri keladigan siyosat uchun xalqaro huquq qo'shimcha imkoniyatlar ochadi, boshqa tomondan esa unga qarshi bo'lgan siyosatning imkoniyatlarini cheklaydi. Siyosat bu imkoniyat san'ati, shundan kelib chiqib u xalqaro huquq imkoniyatlari bilan hisoblashmasa bo'lmaydi.

Ijtimoiy hayotning baynalmilallashuvi davlatlar tashqi siyosatining ham baynalmilallashuvini talab qiladi. Qachonlardir mashhur bo'lgan «milliy egoizm» siyosati o'z asoslarini yo'qotib bormoqda. U milliy manfaatlarni himoya qilish borasida ham samarasiz bo'ladi. Zamonaviy siyosat imkoniyat darajasida ko'proq davlatlar umumiy manfaatlari va umuminsoniy qadriyatlarni yaqqol namoyon etishi kerak. Kelajakni ko'zlagan tashqi siyosat uchun milliylik emas, balki baynalmilallashuv asos bo'lib xizmat qiladi. Bu umumiy xalqaro huquqni yanada mustahkamlanishiga olib keladi.

¹Тункин Г.И. Право и сила в международной системе. — М., 1983. С. 106.

Shunday qilib, xalqaro huquq tashqi siyosat bilan bog'liq bo'lishiga qaramay, u alohida bir ijtimoiy hodisa va reallik sifatida namoyon bo'ladi. O'z navbatida, siyosat ham xalqaro huquq bilan hisoblashmasa bo'lmaydi. Dunyodagi hech bir davlat xalqaro huquqqa e'tiborsizlik bilan qaray olmaydi, chunki bu uning xalqaro maydondagi obro'yiga jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Tashqi siyosatning xalqaro huquqqa ta'sirini hisobga olib, bu ta'sirni qandaydir darajada muvozanatga keltirish maqsadida xalqaro huquqning siyosatdan ustuvorligi tamoyilini tan olish lozim. Yuridik nuqtayi nazardan, huquq siyosat talablariga emas, tashqi siyosat xalqaro huquq talablariga mos bo'lishi kerak (political legibus, non lyes politis adaptandae). Huquq ustuvorligi siyosatning tarkibiy qismi bo'lishi lozim. BMT ning 2000-yilda e'lon qilingan «Ming yillik Deklaratsiyasi»da xalqaro ishlarda huquqning ustuvorligini oshirish alohida ta'kidlab o'tilgan.

Shunday qilib, xalqaro huquqning tashqi siyosatga ta'sirini ikki asosiy jihatini ko'rsatish mumkin. Bir tomondan, xalqaro huquq tashqi siyosatni umume'tirof etilgan qoliplar bilan cheklaydi, boshqa bir tomondan, tashqi siyosat uchun yuridik vositalar yordamida keng imkoniyatlar ochib beradi. O'z navbatida tashqi siyosat ham davlat milliy manfaatlarini ta'minlash uchun keraklidir.

5-§. Zamonaviy xalqaro huquq fanining ahvoli

Zamonaviy xalqaro huquq fani XXI asming yuqori talablariga javob berishi lozim. Xalqaro huquq fanining hozirgi holati bu talablarga qanday javob beradi, degan tabiiy savol tug'iladi. Xalqaro huquq muammolarining o'ta murakkabli huquqshunoslar uchun muayyan qiyinchilik tug'dirdi. G.I. Tunkinning yozishicha, xalqaro huquqshunoslarning ko'pchiligi atom asri talablariga javob bermaydi. Ular fil suyagidan bo'lgan minorada qolishni va eski yondashuv va urf-odatlariga tayanib harakat qilishni afzal ko'radilar¹.

Oxirgi o'n yilda chiqqan xorijiy adabiyotlarda zamonaviy xalqaro huquq fani jiddiy tanqid qilinadi. Masalan, amerikalik huquqshunos K. Rayt shunday yozgan: «Xalqaro huquq fani inqiroz yoqasida turibdi. An'anashunoslar uchun u eskirgan, modernistlar uchun esa har doimgidek bo'lib ko'rinadi»². Oradan bir necha o'n yillar o'tsa-da, hamon shunday tanqidiy qarashlar saqlanib qolmoqda. Bunda ayniqsa xalqaro huquq umumiy nazariyasining ahvoli keskin tanqid ostiga olinmoqda. Shvetsiyalik professor I. Detter de Lyupisning ta'kidlashicha, xalqaro

¹ Tuncin G. The Nuclear Age and a Jurist in an Ivory Tower // International Law at the Time of its Codification. Milano, 1987. P. 544.

² Wright Q. The Study of International Relations. N.Y. 1955. P. 233.

huquq nazariyasining o'zi anarxiya holatida ekanligi kundan kunga oydinlashmoqda¹.

Xalqaro huquq fanini ochiqchasiga rad etuvchi, uni faqat siyosat uchun xizmat qiluvchi soha bo'lishi lozimligini asos qilib olgan qarashlar ham mavjud. Bu borada M. Koskenniemiining fikri diqqatga sazovordir. Uning fikricha, «Xalqaro huquq «nazariyasini» muhokama qilish ikkinchi darajali mashg'ulotga aylandi». Bu esa, xalqaro huquq bir vaqtning o'zida ham «yuridik ilmiy ham siyosat uchun real ahamiyatga ega» bo'la olmasligi bilan izohlanadi².

Ijtimoiy fanlarning imkoniyatlariga ishonqiramasdan qarash umumiy xususiyatga ega edi. Dunyoda shu qadar o'zgarishlar bo'ldiki, hatto ko'pchilik jamiyatshunoslar ham bu yangi muammolarni yetarli darajada hal qilishga skeptik munosabatda bo'lmoqdalar. Bu muammo bo'yicha Kanadalik olimlar R. Makdonald va D. Djonstonlar shunday deb yozganlar: «Bugungi kunda olimlar o'rtasida ularning fan sohasi inqirozga uchraganligini aytish odat tusiga aylangan. Ko'pchilik olimlar o'zlarining fan sohalari XX asr oxiri talablariga javob bera olmaydi deb tan olishga tayyor»³.

Xalqaro huquq bo'yicha huquqshunos olimlarning nazariyaga bo'lgan qiziqishi tushib ketishining ma'lum bir sabablari mavjud. Xalqaro huquqda nafaqat amaliyotchi yuristlar, balki nazariyotchi huquqshunoslarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb qilgan yangi o'ziga xos ko'plab muammolar vujudga keldi. Ko'pgina olimlar, avvalambor, aniq muammolarni hal qilishga asosiy e'tiborni qaratish lozim, deb hisoblaydilar. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro huquqning nazariy masalalariga bepisandlik kayfiyatini keltirib chiqaradi. Fan asosan o'z e'tiborini yangi vujudga kelayotgan muammolarga qaratib, ushbu muammolarni hal etishning umumnazariy asoslarini yaratmadi.

Natijada olimlarning xalqaro huquqning u yoki bu sohalarida tor ixtisoslashuvi vujudga keldi. Fanda parchalanish yuz berdi. Uning turli sohalardagi vakillari o'zaro aloqalarni yo'qotdilar. Xalqaro huquq bilan shug'ullanish fan hisoblanmasdan, balki «kasb-kor»ga aylandi. Aniq amaliy muammolarni yechishga qaratilgan kuchli diqqat-e'tibor xalqaro huquq umumiy nazariyasining rivojlanishini susayishiga sabab bo'ldi. Xalqaro huquqning tor ixtisoslashuvi va parchalanishi umumnazariy izlanishlarni murakkablashtirdi. Bundan tashqari o'rganish kerak bo'lgan holatlarning doirasi kengligi shu bilan birga siyosiy va madaniy omillarning haddan tashqari ko'p qirraliligi xalqaro huquq umumiy nazariyasi rivojlanishini qiyinlashtirdi.

¹ Dettter de Lupis I. The Concept of International Law. Stockholm, 1987. P. 17.

² Koskenniemi M. From Apology to Utopia. Helsinki, 1989. P. XIII, XV.

³ The Structure and Process of International Law. The Hague, 1983. P.1.

Shunga qaramasdan vaqt o'tishi bilan biror-bir fan sohasi tegishli umumiy nazariyasiz rivojlanishi mumkin emasligi yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Nazariyasiz xalqaro amaliyotning murakkab muammolarini hal etib bo'lmashligi ham aniq bo'ldi. Ayniqsa, xalqaro huquqni kodifikatsiyalash va rivojlanish jarayonida nazariyaning o'rni sezila boshladi. Natijada oxirgi o'n yillikda xalqaro huquq nazariyasini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar taraqqiy topdi. Professor N. Onaf: «Oxirgi yillarda tanqidiy ruhdagi nazariy izlanishlarning ko'paygani ko'zga tashlanadi. Bu kabi izlanishlarning asosiy predmeti doktrinadir»¹ — deb yozadi. Professor A.D. Amatoning fikricha, «biz xalqaro huquq nazariyasining qayta tug'ilishi bo'sag'asida turibmiz». Uning ta'kidlashicha, oxir-oqibatda davlatlar tomonidan xalqaro huquqqa bo'lgan hurmatning oshishi shunga bog'liqdir².

Xalqaro huquqning rivojlanishi haqida gap ketganda, g'arblik olimlarning salmoqli hissasiga e'tiborni qaratmoq lozim. R. Makdonald va D. Djonston: «Ko'plab madaniyatlarining xalqaro huquq amaliyotiga qo'shgan hissasi sezilarli ekanligiga qaramasdan, nazariy adabiyotlar yaratish borasida sanoqligina davlatlarning olimlari ajralib turadilar. Nazariy ta'sir sanoqli madaniyatlargagina xosligini hisobga oladigan bo'lsak, bu albatta fan uchun jiddiy salbiy ta'sirga egadir»³, — deb yozadilar.

Shu munosabat bilan milliy fanning xalqaro nazariya va amaliyotning rivojlanishidagi ta'sirini keskin tushib ketganiga diqqatni qaratish lozim.

Hozirgi kunda xalqaro huquq nazariyasining rivojiga BMTning Xalqaro huquq komissiyasi qo'shayotgan hissasi salmoqlidir. Uning faoliyatida xalqaro huquqni kodifikatsiyalash asosan ingliz va fransuz tilidagi adabiyotlar asosida amalga oshirilmoqda. Holbuki, gap ertaga davlatlar orasidagi munosabatlarni tartibga soladigan va uning muhim manfaatlariga zarar yetkazmaydigan xalqaro-huquqiy normalarni ishlab chiqish haqida bormoqda. Shu munosabat bilan, BMTning Xalqaro huquq komissiyasining faoliyatida o'zbek olimlarining ham ishtiroki alohida ahamiyat kasb etadi.

Milliy huquqning ko'p jihatlari xalqaro huquqdan kelib chiqadi. Xalqaro huquqning umumiy nazariyasiga bag'ishlangan adabiyotlar juda ham kam nashr qilinmoqda. Hatto ularning ayrimlari xorijiy tillarda chop etilmaydi.

¹ Falk R. *The Status of Law in International Society*. Princeton, 1970. P. 8.

² D. Amato A. *The Concept of Custom in International Law*. Ithaca, 1971. P. XXI, 6.

³ *The Structure and Process of International Law*. P. 9.

6-§. Zamonaviy xalqaro huquq amaliyoti

Xalqaro huquqning shakllanish davrida olimlarning ishlaridan amaliyotda keng foydalanilganligini xalqaro huquqdagi bo'shliqlar bilan izohlash mumkin. Olimlar amaliyot materiallarini o'z faoliyatlari davomida qo'llayotib, xalqaro huquqqa oid ma'lum bir normalarni yaratganlar. Bu jarayonga liberal falsafa juda katta ta'sir ko'rsatgan. Nazariyotchi olimlarning asarlari natijasida xalqaro huquq rivojlanib bormoqda. Amaliyotda xalqaro huquqning eskirgan normalaridan voz kechilib, dolzarb huquqiy normalar ishlab chiqilmoqda.

Hozirgi kunga kelib xalqaro huquq fanining roli tubdan o'zgardi. U avvalgidek amaliy tajribalarni umumlashtirmoqda. Bu tajribalarni esa olimlar tomonidan ilmiy tahlil etish o'ta murakkab vazifa bo'lib, u olimdan juda katta tajribani talab etadi. Ayniqsa, xalqaro huquq tizimini nazariy o'rganish dolzarb bo'lib turibdi.

Xalqaro huquq fani va amaliyoti nufuzining ortishiga yadroviy urush xavfi ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday vaziyatda insoniyat xavfsizligini saqlashda xalqaro huquq juda ham muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, jahon urushlari va uzluksiz davom etayotgan mintaqaviy mojarolar ham xalqaro huquqqa nisbatan talab va ehtiyojni oshirmoqda. Xalqaro huquq normalarisiz tinchlikni saqlab bo'lmashligi bugungi kunda har bir insonga ayon bo'ldi. Bu haqda ispan huquqshunosi Leonard Amselem shunday yozadi: «Ikki jahon urushi insoniyatning ko'p orzularini chippakka chiqardi. Shu bilan birga, ular huquq uchun kurashning yangi davrini boshlab berdi»¹.

Shu munosabat bilan xalqaro huquq asta-sekinlik bilan diplomatiya doirasidan chiqib, xalqaro-huquqiy ongni shakllantirishga xizmat qilmoqda, ijtimoiy fikrni shakllantirmoqda. Bu esa, o'z navbatida, xalqaro huquqning rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Hozirgi zamonda tashqi siyosat arboblari xalqaro huquqni amaliyotdagi o'mi haqida juda ko'p gapirmoqdalar. «Shu paytgacha Tashqi ishlar vazirligi va xalqaro huquqshunos olimlar bilan bu darajada yaqindan suhbatlashilmagan. Bu jahon miqyosida xalqaro huquq rolining oshib borayotganligidan dalolat beradi», degan edi Rossiyaning sobiq tashqi ishlar vaziri I.S. Ivanov². Sobiq AQSH davlat kotibi D. Rask Jorjiya shtati Universitetida nutq so'zlayotib: «AQSH hukumati xalqaro huquq fanidan xalqaro maydonda turgan muammolarni hal etishni kutmoqda», — deb ta'kidlagan edi³.

Shunga qaramasdan, xalqaro huquq amaliyoti va nazariyasi o'rtasidagi

¹ Leonard y Amselem, A. Investigaciyan científica y derecho inernacional. Madrid, 1981 P.73—74.

² Российский ежегодник международного права, 2002. СПб, 2002. С. 16.

³ Britin B, Watson L. International Law for Seagoin Officers. Annapolis, 1973. P. 15.

munosabatlarda hozircha tub o'zgarishlar yuz bergani yo'q¹. Xalqaro huquq bo'yicha huquqshunos olimlar muhim tashqi siyosat masalalarini hal etishda siyosatdonlar ular bilan kam maslahatlashishlarini aytishadi va buning sabablarini aniqlashga harakat qilishadi. Buning yorqin misoli sifatida amerikalik taniqli huquqshunos M. Rizmanning asarini keltirish mumkin². U bu asarida yuqoridagi holatlarning bir qancha sabablariga to'xtalib o'tadi.

Keltirilayotgan holatlarni xalqaro huquq nazariyasining amaliyotga ta'siri past darajada ekanligiga izoh, deb bo'lmaydi. R. Folk bu haqda quyidagicha yozadi: «Afsuski, Qo'shma shtatlardagi xalqaro huquqshunoslar xalqaro huquq fani rivojining istiqbollarini yetarli darajada ishlab chiqmadilar. Ular AQSHning tashqi siyosatini oqlash bilangina ovora bo'lishdi»³.

Prezident J. Bush davrida bu muammolar yana ham kuchayib ketdi. Uning ma'muriyati xalqaro huquq asoslarini shubha ostiga qo'ydi. J. Bush: «Biz hech qachon kuch ishlatish bo'yicha umumiy rozilikka erishishga harakat qilmaymiz. Keskin harakatlar ijobiy natijalar beradi, qarshi davlat va rahbarlarni o'z ortidan ergashtiradigan oqimni yaratadi»⁴.

Bu borada bir necha huquqshunoslar AQSH Prezidenti J. Bushga yordam berishga shoshilishdi. AQSHning Kosovo va Iroqdagi harakatlarni nazarda tutgan holda Taft Universiteti professori M. Glenon shunday yozadi: «BMT Ustavidagi kuch ishlatishni tartibga soluvchi qoidalar endi xalqaro huquqda majburiy normalar hisoblanmaydi. Shuning uchun Qo'shma Shtatlar Xavfsizlik Kengashi ma'qullamasa ham Iroqda urushni boshlashi mumkin va bu huquqqa zid bo'lmaydi»⁵. Bu professor kuch ishlatishni tartibga soluvchi yangi normalar ishlab chiqishni lozim deb hisoblaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy tashqi siyosatni oqlash amaliyoti boshqa davlatlar xalqaro huquqiga ham tegishli. Lekin bu holat fanning amaliyotga yetarlicha ta'siri haqidagi savolga to'liq javob bermaydi.

Bu borada M. Rizmanning «har qanday sharoitda «huquqiy» deb hisoblangan muammo xalqaro tizim qanday bo'lishidan qat'i nazar paydo bo'ladi va hal qilish zarurati yuzaga keladi» degan fikri diqqatga sazovordir⁶. Huquqiy muammolarning ko'payishi natijasida davlatlar

¹ Foreign Policy and the Government Legal Adviser // Georgia Journal of International and Comparative Law. 1972. Vjol. 2. Suppl.2.

² Reisman M. International Incidents: Introduction to a New Genre in the Study of International Law // Yale Journal of International Law. Vol. 10. 1984. P.1.ct seq.

³ Falk R. Revitalizing International Law. Ames, 1988. P. 91.

⁴ Woodward B. Bush at War. NY., 2002.

⁵ Glenon M. The Rule of Law is Breaking Down // International Herald Tribune, 2002. Nov. 22.

⁶ Sinclair J. The Practice of International Law // International Law: Teaching and Practice. London, 1982.

o'z idoralarida va tashqi siyosat xodimlari orasida huquqshunoslarga oddiy xizmatchi xodim sifatida qarash shakllanib qolgan. Qachonki, Britaniya Tashqi ishlar vaziri R. Kuk AQSH davlat kotibi M. Olbraytga BMT Xavfsizlik Kengashining ruxsatisiz Yugoslaviyaga nisbatan kuch ishlatishda o'z huquqshunoslari bilan muammo paydo bo'lganini aytganda, M. Olbrayt: «Yangi huquqshunos mutaxassislarni to'plang», — deb javob bergan edi¹.

Obyektivlik nuqtayi nazaridan shuni alohida ta'kidlash lozimki, huquqshunoslar orasida xalqaro huquq nazariyasining amaliyotga ta'sirini yuqori baholaydiganlari ham bor. Amerikalik professor L. Sonning fikricha, «Diplomatlar hali ham huquq ijodkorlari hisoblanishsa, tashqi ishlar muassasalari huquqshunoslari va buyuk huquqshunos professorlar qaysi normalar xalqaro odat huquqi bo'lishini belgilab beruvchi mutaxassislardir»².

Shuni ta'kidlash lozimki, AQSHda huquqshunoslarning dunyoga mashhur jamoalari shakllandi. Ularning katta qismini boshqa davlatlardan kelgan olimlar tashkil qiladi. AQSH xalqaro huquqshunoslar soni, ularning ilmiy darajasi, moddiy ta'minoti jihatidan boshqa davlatlardan oldinda turadi. Natijada Amerika xalqaro huquq nazariyasi jahon xalqaro huquq doktrinasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Shu bilan birga, u ma'lum darajada g'arb mamlakatlarining nazariya va amaliyotiga asoslangan holda bir tomonlama bo'lib bormoqda.

So'nggi yillarda yuqoridagi holatlar sharq mamlakatlari olimlari tomonidan tanqid qilinmoqda. Tokio Universiteti professori Onuma Yasuaki Amerika xalqaro huquqshunoslari uyushmasida so'zga chiqib, amerikalik huquqshunoslarni siyosiy plyuralizmga salbiy munosabatda ekanligini ta'kidladi³.

Ayrim amerikalik olimlarni o'z mamlakatining tashqi siyosatiga nisbatan tanqidiy funktsiya bajarishini ta'kidlashyapti. R. Folkning yozishicha: «Markaziy tashkilotlarning xalqaro masalalardagi kuchsizligini berkitish yo'llaridan biri bu olimlarning mustaqil hakam bo'lib, o'z davlati xatti-harakatlarining huquqiyiligini baholashidir»⁴.

Fanning amaliyotga ta'sir etishida asosiy rolni xalqaro huquq mutaxassislarining xalqaro jamoat birlashmalari amalga oshiradi. XIX asr o'talaridanoq xalqaro huquq bo'yicha jamoat birlashmasiga ehtiyoj sezila boshlangan. 1859-yili London yuristlar hamjamiyatida ma'ruza bilan

¹ Qarang: International Herald Tribune, 2002. Nov 22.

² Theory of International Law at the Threshold of the 21 st Century. The Hague, 1996. P.554.

³ American Sorility of International Law. Procudings of the 75 th Annual meeting, 1981, P. 164—167.

⁴ Falk R. The Status of Law in International Society. Princeton, 1970. P. 12.

ishtirok etgan Xarkov universitetining professori D.I. Kachenovskiy xalqaro olimlar hamjamiyatiga xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish zarurligini asoslab bergan. Bu fikr 1873-yili ko'pgina davlatlar olimlari ishtirokida Xalqaro huquq instituti ochilganligi bilan o'z mantiqiy yakunini topgan. O'sha yili Xalqaro huquq uyushmasi tuzilgan.

Xalqaro huquq fanining roli oshganini xalqaro huquqning progressiv rivojlanishi va kodifikatsiyasida yaqqol ko'rish mumkin. Bu borada markaziy o'rinni BMT ning Xalqaro huquq Komissiyasi egallaydi.

Komissiya haqidagi Nizomda xalqaro huquq fanining alohida roli belgilangan. Uning maqsadi «xalqaro huquqni progressiv rivojlantirish va uni kodifikatsiya qilishga yordam berishdir». «Progressiv rivojlantirish» deganda, xalqaro huquq tomonidan tartibga solingan yoki davlat amaliyotida yetarli darajada rivojlanmagan muammolar bo'yicha konvensiyalar loyihalarini tayyorlashni tushunish kerak. Shundan ko'rinib turibdiki, gap bevosita qonun ijodkorligi jarayonida ishtirok etish haqida boryapti. Keyinchalik Komissiya va Bosh Assambleya bir necha bor shuni ta'kidlaganidek, xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish va uning progressiv rivojlanishi o'zaro bog'liqdir.

Albatta, xalqaro huquqning bunday qiyin masalalarni yechishi uchun jiddiy ilmiy tahlil kerak. Komissiya faoliyati davlatlarning amaliyotiga tayanadi. Bu amaliyot ikkiga bo'linadi. Birinchisi, bu davlat aytayotgani, ikkinchisi, bu davlat qilayotgani. Afsuski, davlatlar har doim o'z faoliyati davomida rasmiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilmaydilar.

Shuning uchun ham yuristlar davlatning vakillari aytganidan ko'ra uni real xulq-atvori muhimroq, deb ta'kidlashadi. Xalqaro sudning sobiq raisi, amerikalik huquqshunos S. Shvebelning aytishicha: «Davlatning qilayotgan ishi, uni gapirayotgan gapidan muhimroqdir»¹. Bunday sharoitda «guruchni» «kurmakdan» ajratish oson ish emas. Komissiya ko'proq olimlarning asarlaridan foydalanadi, davlatlarning rasmiy vakillari chiqishlariga havola qilishdan qochadi.

Shunday qilib, amaliyot xalqaro huquqning rivojlanishi uchun juda muhim. Xalqaro huquqning o'n yilligi bo'yicha dastur shuni ko'zda tutgan ediki, davlatlar xalqaro huquq bo'yicha chop etilayotgan materiallarni rag'batlantirishi lozim. Afsuski, O'zbekistonda bu boradagi chop etish ishlarini ko'ngildagidek deb bo'lmaydi.

Xalqaro huquq Komissiyasining hay'ati tarkibiga «xalqaro huquqda nom qozongan shaxslar» saylanadi. Komissiya faoliyati davomida unga dunyoda mashhur ko'plab xalqaro huquq mutaxassislari a'zo bo'lganlar.

¹ Schwebel S. The Effect of the UN General Assembly on Customary International Law // ASIL. Proceedings 1979. P. 304.

Komissiya faoliyati BMTning Bosh Assambleyasida bir necha bor yuqori baholangan. Komissiyaning 50-yilligi munosabati bilan BMT kollokviumida BMT Bosh kotibi K. Ananning aytishicha: «Oxirgi 50-yil davomida Xalqaro huquq Komissiyasi jahon hamjamiyati oldida xalqaro huquq yo'nalishida paydo bo'lgan muammolarni hal etishda oldingi qatorlarda turgan. Xalqaro huquqning ustuvor yo'nalishlarida asosiy normalarni o'rnatishga erisha olgan»¹.

Kollokvium davomida Komissiya tomonidan qabul qilingan loyihalar va ularga sharhlar nafaqat Xalqaro sud va boshqa xalqaro sudlov organlari tomonidan, balki milliy sudlar va arbitrajlar tomonidan ham keng qo'llanilgani aytib o'tildi. Komissiya ishida olimlar va ilmiy muassasalarning ishtiroki va o'rni alohida takidlandi. Bugungi kunda xalqaro huquqning rivojlanishiga Xalqaro sud ham katta hissa qo'shmoqda. Sudya V.S. Veresheten fikricha, Xalqaro sud «zamonaviy xalqaro huquqning ko'p soha va institutlariga katta ta'sir ko'rsatmoqda»². Haqiqatan ham xalqaro sud tarkibida dunyoda ko'zga ko'ringan ko'plab olimlar bor.

Xalqaro sud tajribasi shuni ko'rsatdiki, u o'z faoliyati davomida olimlarning asarlaridan foydalanmaslikka harakat qiladi. Xalqaro huquq Komissiyasi esa xalqaro huquqning umumiy normalarini shakllan-tirishdagina olimlarning asarlaridan foydalanishga harakat qiladi.

Fanning xalqaro huquqqa ta'sir yo'nalishlaridan biri bu ta'lim orqalidir. 1995-yili BMTning Kongressida bu masalaga jiddiy ahamiyat berildi. Unda hatto aholining aksariyat qismi xalqaro huquq borligi haqida ma'lumotga ega emasligi ko'rsatib o'tilgan. Hatto ba'zi Tashqi ishlar vaziri ham ayrim holatlarda xalqaro huquq normalarini inkor etishlari ham ta'kidlangan.

Xalqaro huquq fanini o'qitishning ahamiyati BMTning «Xalqaro huquq o'n yilligi Dasturi»da ham o'z aksini topgan bo'lib, xalqaro huquq fani ta'limi va uni aholi o'rtasida ommalashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifa quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

birinchidan, BMTning xalqaro huquq fanini uzluksiz o'qitish dasturini to'la amalga oshirish va xalqaro huquqni aholi o'rtasida yanada ommalashtirish;

ikkinchidan, xalqaro huquq fanini o'qitishga yordam ko'rsatish va bu sohada xalqaro hamkorlik olib borish;

uchinchidan, xalqaro huquq bo'yicha mintaqaviy anjuman, seminar, simpoziumlar tashkil etish;

¹ Making Beter International Law: The International Law Commission at 50. N.Y., 1998. P. VI.

² Qarang: Верещетин В.С. Международный Суд ООН на новом этапе // Российский ежегодник международного права, 2002. С. 25.

to'rtinchidan, xalqaro huquqshunoslar va davlat xizmatchilarining malakasini uzluksiz oshirib borish.

Xalqaro huquq o'n yilligi munosabati bilan BMT Bosh Assambleyasi xalqaro huquqni o'qitish va uni ommalashtirish maqsadida maxsus dastur qabul qildi¹. Buning natijasida xalqaro huquq bilimlarini o'qitish va keng omma orasida targ'ib qilish davlatlar majburiyatiga aylandi. Chunki hanuzgacha ko'pgina davlatlarda xalqaro huquq fani majburiy emas, bu fan bo'yicha dasturlar qoniqarli emas. Shuning uchun xalqaro huquq fanini o'qitish XXI asr talablari darajasida bo'lmog'i zarur.

UCHINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ NORMALARI VA MANBALARI

- 1-§. «Xalqaro huquq normasi» tushunchasi
- 2-§. Xalqaro huquq normalarining tasnifi
- 3-§. Xalqaro huquq normalarining yuridik majburiyligi
- 4-§. Xalqaro huquq institutlari va sohalar
- 5-§. «Xalqaro huquq manbalari» tushunchasi va tizimi
- 6-§. Xalqaro huquqning universal manbalari
 - *Shartnoma — xalqaro huquq manbai*
 - *Urf-odat — xalqaro huquq manbai*
- 7-§. Xalqaro huquqning maxsus manbalari
 - *Xalqaro tashkilotlar qarorlari — xalqaro huquq manbai*
- 8-§. Xalqaro huquqning qo'shimcha manbalari
 - *Huquqning umumiy prinsiplari — xalqaro huquq manbai*
 - *Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari — xalqaro huquqning manbai*
 - *Xalqaro sudlar va arbitrajlar qarorlari — xalqaro huquqning manbai*
- 9-§. Davlatlarning bir tomonlama hujjatlari
- 10-§. Xalqaro huquq ta'limoti (doktrinasini)ning o'rni
- 11-§. Xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish
- 12-§. Xalqaro huquqda norma ijodkorligi
- 13-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq

1-§. «Xalqaro huquq normasi» tushunchasi

Xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari, ayniqsa, uning normalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xalqaro-huquqiy norma xalqaro huquqning

¹ Qarang: Резолюции № 54/28 и № 4/102. Резолюции и решения, принятые Генеральной Ассамблеей на пятьдесят четвертой сессии Т.1. Нью-Йорк, 2000.

mazmun-mohiyatini namoyon etuvchi tashqi shakl bo'lib, umumlashgan huquqdir. Xalqaro-huquqiy normalar xalqaro huquq subyektlarining yurish-turish qoidalarini belgilab beradi va umumiy xususiyat kasb etadi.

Xalqaro huquq normasi — xalqaro huquq subyektlarining bitimi asosida tuzilgan rasmiy qoida bo'lib, ushbu subyektlarning huquqlari, majburiyatlarini belgilaydi va ularni yuridik mexanizm bilan ta'minlaydi.

Norma bir qancha holatlar uchun mo'ljallangan umumiy yurish-turish qoidasidir. Xalqaro huquq normalari o'ziga xos tuzilishga ega. Muhimi shundaki, aksariyat normalar dispozitsiyadagina iborat bo'lib, sanksiyalar esa xalqaro huquq tizimi tomonidan umumiy tarzda belgilanadi. Normalar buzilgan hollarda qo'llaniladigan qarshi choralar alohida xalqaro shartnomalarda ham ko'zda tutilishi mumkin.

Xalqaro huquq normalarini yaratish muayyan jarayon, ya'ni xalqaro huquq subyektlarining kelishilgan irodasini ifodalash jarayonidir. Davlatlarning suveren irodasini kelishtirishdan maqsad xalqaro huquq normalarini yaratish hisoblanadi. Bu jarayonga xalqaro vaziyat, davlatlarning ichki va tashqi ahvoli ham muayyan ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquq normalarini yaratish uchun aynan muayyan bir xil davlat irodasi talab etilmaydi. Asosiysi, davlatlarning kelishuvidir. Xalqaro huquq normalarini ishlab chiqishda suveren va teng huquqli subyektlar ishtirok etadilar. Ularning yuridik irodasi teng bo'lib, har bir davlat bir ovozga ega bo'ladi. Xalqaro huquq normalari xalqaro huquq subyektlari irodasining kelishtirilishi natijasidir. Hozirgi zamonda xalqaro huquq normalarini yaratishda xalqaro tashkilotlarning roli oshib bormoqda.

Xalqaro huquq normalar shaklida mavjuddir. Normaning yuridik mazmuni xalqaro munosabatlar subyektlarining xulq-atvor qoidasidan iborat. Shu bilan birga, xalqaro huquq normasi subyektlar kelishuvi asosida yaratilgan, ular uchun huquq va majburiyatlarni ko'zda tutadigan hamda yuridik mexanizm bilan ta'minlaydigan aniq shakldagi qoida deganidir. Norma noaniq miqdordagi holatlar uchun mo'ljallangan umumiy qoidadir. Xalqaro huquq nazariyasida qaror, xalqaro shartnoma ko'rinishida bayon etilgan, aniq bir tartibga solishni ko'zda tutadigan va boshqa holatlarda qo'llash mumkin bo'lmagan qoidalar norma hisoblanadimi yoki yo'qmi, degan mavzuda anchadan buyon bahs bormoqda. Bunday qarorlarda normaga xos belgilar mavjud bo'lib, ular tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, yuridik majburiy kuchga ega, ammo bir necha bor qo'llash uchun mo'ljallanmagan. Bu qabildagi qarorlar, odatda, individual normalar deb ataladi.

2-§. Xalqaro huquq normalarining tasnifi

Xalqaro-huquqiy normalarni har xil mezonlar asosida turlicha tasniflash mumkin.

1. Xalqaro huquq normalari o'z mazmuni va xalqaro-huquqiy tizimda tutgan o'zni bo'yicha norma — maqsadlar va norma — prinsiplarga bo'linadi.

Xalqaro-huquqiy maqsad subyektlar birgalikdagi intilishlari asosida amalga oshirishga kelishib olgan va unga yuridik kuch bergan istiqbolda kutilayotgan holatning modelidir. Maqsadlar xalqaro huquq tizimida muhim o'rin tutadi. Xalqaro shartnoma maqsadlari uni amalga oshirish borasidagi choralar qonuniyligining mezoni bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro huquq prinsiplari xalqaro huquqning alohida jihatlarini, shuningdek, asosiy mazmun-mohiyatini ifodalovchi va oliy yuridik kuchga ega bo'lgan umumlashgan normalardir.

2. Xalqaro huquq normalari faoliyat doirasi bo'yicha universal, mintaqaviy va partikulyar normalarga bo'linadi.

Universal xalqaro-huquqiy normalar faoliyat doirasining globalligi, umummajburiy kuchga egaligi, butun xalqaro hamjamiyat tomonidan yaratilishi va bekor qilinishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Universal normalarning asosiy shakli esa urf-odatdir. Ushbu normalar umumiy xalqaro huquqni vujudga keltirish uchun xizmat qiladi.

Mintaqaviy xalqaro-huquqiy normalar sayyoramizning alohida hududlarida davlatlar o'rtasidagi o'zaro teran hamjihatlik, ikki tomonlama shartnomalardan ko'ra yuqoriroq darajadagi normativ tartibga solish natijasida yuzaga keladi.

Partikulyar yoki mahalliy xalqaro-huquqiy normalar son jihatidan universal normalardan juda ko'pdir va ularning ta'siri ishtirokchilarning cheklangan, aksariyat hollarda ikki tomonlama munosabatlar doirasida bo'ladi.

3. Xalqaro huquq normalari yuridik kuchga egaligi bo'yicha imperativ va dispozitiv normalarga bo'linadi.

Imperativ normalar (*jus cogens* — imperativ huquq) alohida yuridik kuchga egaligi bilan ajralib turadi. Alohida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda *jus cogens* normalaridan bu davlatlarning o'zaro bitimi asosida chekinish mumkin emas.

Imperativ normalarga zid keluvchi xalqaro urf-odat yoki shartnoma haqiqiy hisoblanmaydi. Ushbu normalar buzilgan hollarda xalqaro-huquqiy javobgarlikning alohida qonuniy munosabatlari yuzaga keladi: nafaqat bevosita jabrlangan, balki boshqa har qanday davlat ham huquq-buzarning javobgarligiga taalluqli yuridik javobgarlik masalasini ilgari surishga haqli hisoblanadi.

Imperativ normalarni buzish javobgarligining alohida shakli — davlat organlaridagi mansabdor shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish. Bu yerda xalqaro jinoyatlar hisoblanadigan huquqbuzarliklar haqida gap bormoqda. Imperativ normalarga yaqqol misol sifatida xalqaro huquqning umumiy prinsiplarini ko'rsatish mumkin. Shu bilan birga, ta'kidlash

joizki, hozirgi kunga qadar xalqaro huquqning imperativ normalari va prinsiplari ro'yxati biror-bir xalqaro hujjatda to'liq keltirilmagan.

Dispozitiv normalar xalqaro huquq subyektlarining o'zaro kelishuvi asosida ularning hamjihatlikdagi munosabatlarida muayyan chegaradagi chekinishlarga yo'l qo'yilishini ko'zda tutuvchi normalardir. Xalqaro huquq normalarining aksariyati dispozitiv normalar sirasiga kiradi. Xalqaro huquqning dispozitiv normalariga bir misol. Zamonaviy xalqaro huquq hududiy suvlarni davlatlar hududining ajralmas tarkibiy qismi deb hisoblaydi va bu suvlarda chet davlatlarning baliq ovlash bilan shug'ullanishi taqiqlanadi. Lekin ikki davlat o'zaro shartnoma tuzishi mumkin va shu shartnoma normalari asosida bir davlat o'z hududiy suvlarida ikkinchi chet davlatga baliq ovlash bilan shug'ullanishga ruxsat berishi mumkin.

4. Xalqaro-huquqiy tizimdagi vazifasi bo'yicha xalqaro huquq normalari moddiy va protsessual normalarga bo'linadi.

Moddiy normalar bevosita xalqaro munosabatlarni tartibga soladi. Protsessual normalar esa, xalqaro huquqni yaratish va amalga oshirish jarayonlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Amaldagi har bir xalqaro shartnoma o'zining protsessual normalariga ega bo'ladi. Protsessual huquq yuksak darajadagi dispozitivligi bilan ajralib turadi. U protsessual faoliyatning umumiy jihatlarnigina belgilab beradi.

Xalqaro huquq normalari o'zining yaratilish usuli va mavjud bo'ladigan shakli, ya'ni manbai bo'yicha — odat, shartnomaviy, xalqaro tashkilotlarning qarorlari normalariga bo'linadi.

Xalqaro huquq normalari boshqa nisbatan ahamiyati kamroq mezonlar bilan tasniflanishi mumkin. Bular — taqiqlovchi, majburlovchi, vakolat beruvchi normalar; boshqa normalarda, aktlarda mavjud qoidalarni qo'llashga majbur etadigan havola qiluvchi normalar; tabiat, fan va texnika qonunlari talablariga yuridik kuch beradigan xalqaro huquq normalari texnik normalar qatoriga kiradi; dasturiy va tavsivaviy xalqaro huquq normalariga bo'lish mumkin.

3-§. Xalqaro huquq normalarining yuridik majburiyligi

Xalqaro-huquqiy normalarning yuridik majburiylik kuchiga ega ekanligi xalqaro huquqning muhim jihati bo'lib, bu xalqaro munosabatlarni huquqqa mos usulda tartibga solishning zaruriy shartidir.

Xalqaro-huquqiy normani yaratishda ikkita bitimga asoslanilishini ko'rsatish mumkin. Ularning biri normaning mazmuniga, ikkinchisi esa unga yuridik majburiylik kuchi berilishiga taalluqlidir. Bir qarashda sof nazariy tuyuladigan ushbu qoida o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega. Aksariyat hollarda davlatlar xalqaro-huquqiy normaning mazmuni yuzasidan kelishib olgach, unga yuridik emas, balki siyosiy majburiylik

kuchi berilishi to'g'risida shartlashadilarki, o'z-o'zidan, bunday norma xalqaro huquqiy norma hisoblanmaydi.

Davlatlar o'rtasidagi kelishuv nafaqat alohida shartnoma yoki norma, balki xalqaro huquqqa ham to'liq yuridik majburiylik kuchini beradi.

4-§. Xalqaro huquq institutlari va sohalari

Xalqaro-huquqiy institut deganda, bir turdagi xalqaro munosabatlarni tartibga soluvchi huquq normalarining guruhi tushuniladi, ular ana shu munosabatlarning umumiy obyekti bilan o'zaro chambarchas bog'liqlik kasb etadi. Misol tariqasida, huquqbuzarlik uchun xalqaro javobgarlik institutini keltirish mumkin.

Huquqiy normalar va institutlar, o'z navbatida, xalqaro huquq sohalariga birlashadi. Bir turdagi xalqaro munosabatlarning jami majmuyi, masalan, xalqaro shartnomalar tuzishga doir (xalqaro shartnomalar huquqi), xalqaro tashkilotlar faoliyati bilan bog'liq (xalqaro tashkilotlar huquqi) va shu kabilar soha obyekti hisoblanadi. Ayrim sohalar (masalan, xalqaro dengiz huquqi va diplomatik huquq) azaldan mavjud, boshqalari (misol uchun, xalqaro atom huquqi va xalqaro kosmik huquqi) nisbatan yaqinda paydo bo'lgan.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro huquq sohasi deganda, xalqaro hayotning muayyan jabhasidagi xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi yuridik norma va prinsiplar majmuyi tushuniladi, u xalqaro huquqning o'ziga xos predmeti sanaladi va xalqaro huquqning har bir sohasiga doir normalar va prinsiplar, keng ma'noda xalqaro huquqning to'liq tarkibiy qismi hisoblanadi. Sohaviy norma va prinsiplar xalqaro huquqning umumiy prinsiplariga asoslanadi va ular huquqiy munosabatlarning muayyan sohasiga tatbiqan aniqlashtiriladi, ular xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga zid bo'lmasliklari shart. Xalqaro huquq nazariyasida har qaysi xalqaro huquq sohasining predmeti va obyektining o'ziga xosligi bilan belgilanadigan, normalari hamda prinsiplarining aynan shu o'ziga xosligi xalqaro huquqda uning alohida sohaslarini farqlash uchun muhim mezon hisoblanadi.

Xalqaro huquqni sohalarga ajratish borasida xalqaro huquq nazariyasida yagona fikr yo'q. Bu boradagi konsepsiyalardan biriga ko'ra, xalqaro huquq sohalari faqatgina xalqaro huquq normalari va prinsiplarini ilmiy jihatdan tizimlashtirish uchun mavjud, shuningdek, ular xalqaro huquqni o'rganish va unda ta'lim berishda qulaylik yaratish maqsadida ajratiladi. Boshqa bir nuqtayi nazarga muvofiq, xalqaro huquq sohalari xalqaro munosabatlarning muayyan sohalaridagi huquqiy munosabatlarning o'ziga xosligini aks ettiruvchi obyektiv kategoriya sifatida mavjuddir.

Shuningdek, xalqaro huquqning sohalarga bo'linish mezonlari ha-

qida bir necha xil nuqtayi nazarlar bayon etiladi. Shunday nuqtayi nazarlardan biriga qaraganda, xalqaro huquq sohasi huquqiy tartibga solish predmetining ichki yaxlitligiga ega bo'lishi hamda bunday tartibga solishning o'ziga xos uslubidan foydalanishi zarur. Boshqa bir nuqtayi nazarga ko'ra, xalqaro huquq normalari va prinsiplari guruhini alohida sohaga ajratish uchun huquqiy munosabatlar predmetining o'ziga xosligi hamda huquqning maxsus sohaviy prinsiplari birligi kifoyadir. Xalqaro huquq nazariyasida, bundan tashqari xalqaro huquq sohalari va kichik tarmoqlarni ham farqlash tavsiya etiladi.

5-§. «Xalqaro huquq manbalari» tushunchasi va tizimi

Xalqaro huquq normalar ko'rinishida mavjuddir. Har qanday xalqaro huquq normasining mohiyati uning subyektlari irodalarining kelishuvi jarayonida erishilgan bitimdan iboratdir. Har xil holatlarda xalqaro-huquqiy normalarni yaratish jarayoni turlicha kechadi hamda turli shakllarni oladi. Xalqaro huquq normalarini yaratishning ana shu shakllari xalqaro huquq manbalari deb ataladi.

Xalqaro huquq manbalari doirasini belgilashda aksariyat huquqshunoslar ko'pincha BMT Xalqaro sudi statutining 38-moddasiga murojaat qilishadi. Ushbu moddaga muvofiq nizolarni xalqaro huquq asosida hal etar ekan, Xalqaro sud konvensiyalarni, xalqaro-huquqiy odatlarni, madaniyatli millatlar tomonidan tan olingan huquqning umumiy prinsiplarini qo'llaydi. Huquqiy normalarni belgilash uchun qo'shimcha vosita sifatida sud qarorlari va eng malakali mutaxassislarning nazariyalari (doktrinalari) qo'llanilishi mumkin¹.

Keyingi paytlarda Xalqaro sud statutining 38-moddasi asosli tanqidlarga uchramoqda va buning hayratlanarli joyi yo'q. Chunki ushbu modda Birinchi jahon urushidan so'ng Xalqaro odil sudlov doimiy palatasi uchun yaratilgan edi. O'sha davrning normativ materiallari esa anchagina qashshoq edi. Xalqaro tashkilotlarning soni juda kam bo'lgan, ayni chog'da alohida olimlarning asarlari katta obro' qozongandi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi manbalarining tizimi quyidagi uchta guruhga jamlangan:

Birinchi guruh — xalqaro huquqning universal manbalari:

Xalqaro shartnoma;

Xalqaro odat.

Ikkinchi guruh — xalqaro huquqning maxsus manbalari, ya'ni xalqaro tashkilotlarning qarorlari.

Uchinchi guruh — xalqaro huquqning qo'shimcha manbalari:

¹ Qarang: Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ustavi // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. —T., 2004. 26-b.

Huquqning umumiy prinsiplari;
Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari;
Xalqaro sud va arbitrajning qarorlari.

6-§. Xalqaro huquqning universal manbalari

Shartnoma — xalqaro huquq manbai.

Shartnoma xalqaro huquq normalarining amaldagi yozma shaklidir. Xalqaro shartnoma ikki yoki undan ortiq xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi bitimdir. Xalqaro shartnoma mustaqil davlatlarning ixtiyoriylik va suveren tenglik asosida kelishilgan irodasi hisoblanadi. Zamonaviy xalqaro huquqning aksariyat normalari shartnoma xususiyatiga ega.

O'tmishda ham, hozir ham qog'ozda qayd etilgan normalarni qo'llashdagi aniqlik va qulaylik tufayli, xalqaro shartnomalar juda om-mabop hisoblanadi. Xalqaro-huquqiy tartibga solish vazifalarining mu-rakkablashib borishi natijasida xalqaro shartnomalarning mavqei tobora ortib bormoqda.

Hozirgi zamon xalqaro huquqiga xos eng muhim jihat ko'p tomonla-ma shartnomalar soni va mavqeining ortib borayotganidir. Birgina MDH doirasida 200 tadan ziyod shunday shartnoma tuzilgan. Bu jarayon isti-qi-bolda yanada rivojlanib borishini taxmin etish uchun asoslar yetarlidir.

Ko'p tomonlama shartnomalar soni va mavqeining ortishi dunyoda faqat davlatlarning hamjihatlikdagi sa'y-harakatlari bilangina tartibga solish mumkin bo'lgan global muammolar soni ko'payib ketayotgani bilan izohlanadi. Barcha davlatlar uchun umumiy prinsiplar va norma-lar asosida umumjahon tartibotini saqlab turish zarurati ham xuddi shu yo'nalishga qaratilgandir.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro-huquqiy shartnoma deganda, xalqaro huquqning asosiy va muhim manbalaridan biri tushuniladi. Bu BMT Ustavida hamda BMT Xalqaro sudi statutida ham o'z aksini topgan.

1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konven-siyasi hamda 1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shart-nomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq, xalqaro shartnoma — xalqaro huquq tomonidan tartibga solinadigan dav-latlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasidagi bitimdir.

Shartnoma xalqaro huquq subyektlari o'rtasida ular uchun yuridik majburiy bo'lgan qoidalar — ularning o'zaro huquq va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki bekor qilishga doir xalqaro-huquqiy norma-larni yaratish to'g'risidagi bitimni nisbatan aniq va muayyan shaklda ifoda etadi. Xalqaro huquq normalarining ko'pchiligi shartnomaviy xu-susiyatga egadir.

Xalqaro shartnomada xalqaro huquq manbayi sifatida ko'p marta qo'llashga mo'ljallangan umumiy normalar hamda aniq holatlar uchun

ilova qilinadigan individual normalar, ya'ni universal va partikulyar normalar ifodalangan bo'lishi mumkin.

Xalqaro huquq manbalari sirasiga davlatlararo shartnomalarni ham, shuningdek, xalqaro shartnomalar ishtirokidagi shartnomalarni ham kiritish qabul qilingan. Unda barcha xalqaro shartnomalar, ularda ishtirok etuvchilar sonidan qat'i nazar, xalqaro huquqning u yoki bu subyektlari uchun xalqaro huquq manbalari hisoblanishini ham ta'kidlash lozim. Ularga umumiy talablar qo'yiladi. Huquqiy asosli shartnomalargina xalqaro huquqning asl manbalariga mansub hisoblanadi, ya'ni bunday shartnomalar sirasiga faqat ixtiyoriy teng huquqli xohish-iroda sifatida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga muvofiq, kuch ishlatmasdan va kuch ishlatish bilan tahdid qilmasdan tuzilgan shartnomalar kiradi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnomalarning xalqaro huquq manbalari sifatidagi turli qirralari qayd etiladi. Ayniqsa, davlat manfaatlarini ifodalovchi va har qanday davlat qo'shilishi uchun ochiq bo'lgan universal shartnomalar muhim o'rin tutadi. Ular orasida BMT Ustavi xalqaro shartnomalar ichida oliy yuridik kuchga ega bo'lib, xalqaro huquqning asosiy manbai sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Odat — xalqaro huquq manbai.

Odat BMT Xalqaro sudi statutining 38-moddasida «huquqiy norma sifatida qabul qilingan umumiy amaliyot»ning dalili, deb belgilangan. Bunda ikkita xususiyatini — umum qabul qilingan xulq-atvorni, shuningdek, uning yuridik norma (opinio juris) sifatida tan olinganini ko'rish mumkin.

Xalqaro odat normasi — ko'p yillar davomida hamma tomonidan qo'llanib kelinayotgan yurish-turish qoidalaridir. Xalqaro odatning uch asosiy xususiyati mavjud:

birinchisi, xalqaro odat normalari uzoq vaqt davomida qo'llanilgan; ikkinchisi, xalqaro odat normalari xalqaro huquq subyektlari tomonidan tan olingan;

uchinchisi, xalqaro odat normalari huquqiy majburiyligi tan olingan.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida odat normalarining ikkita turi mavjud.

Birinchisi, an'anaviy, amalda yozma holda bo'lmagan, biroq yuridik kuchi tan olingan odatdagi qoidalardan iborat.

Ikkinchisi — xalqaro odatning yangi turi bo'lib, uning tarkibiga uzoq muddatli amaliyot davomida yaratiladigan emas, balki bir nechta, hatto bitta hujjatda mavjud bo'lgan va qoida sifatida tan olingan normalar kiradi.

Ikkinchi turga mansub normalar avval shartnomalarda yoxud xalqaro kengashlar va tashkilotlar qarorlari kabi nohuquqiy hujjatlarda

shakllanadi, keyinchalik esa ularning umumiy xalqaro huquq normalari degan maqomi e'tirof etiladi. Yuridik jihatdan bu normalar odat sifatida mavjud bo'lsa-da, tegishli hujjatlar ular mohiyatining dalili bo'lib xizmat qiladi.

Xalqaro tashkilotlar aktlari odatlarga yangi kuch bag'ishladi. Ana shu aktlar ko'magida odat normalari shakllanadi, qayd qilinadi, talqin etiladi, hayotda qo'llaniladi. Ular tufayli odatning qator an'anaviy nuqsonlarini bartaraf etishga muvaffaq bo'lindi. Endilikda odat anchagina tez, puxta va pishiq shakllarda yaratiladigan bo'ldi, uning mazmuni ham hamma uchun tushunarli tus oldi. Xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari odatning amaldagi tasdig'ini topishida ko'maklashadi, uning mazmun-mohiyatini yangi shart-sharoitga shunday moslashtiradiki, natijada odatning hayot bilan bog'liqligi mustahkamlanib boradi.

Odatning shakllanish jarayonini anglash uchun ikkita asosiy tushunchani aniqlashtirib olish kerak:

birinchidan, amaliyotni;

ikkinchidan, yuridik kuch (opinio juris) sifatida e'tirof etilishini.

Amaliyot subyektlar, ular organlarining harakatini yoxud harakatdan tiyilishini anglatadi. Amaliyot yetarlicha aniq, bir xil bo'lishi kerakki, toki undan umumiy qoida chiqarish mumkin bo'lsin. Odatni belgilashda subyektlar pozitsiyasi, nuqtayi nazari yetarlicha aniq-ravshan ifoda etilgan amaliyot shakllari (bayonot, nota, kommyunike, xalqaro tashkilotlar rezolyutsiyalari) tobora katta ahamiyat kasb etayotir.

Amaliyotning davomiyligi odatni tan olishda hech qachon hal etuvchi ahamiyat kasb etmagan. Ko'p narsa aniq shart-sharoitga bog'liq bo'ladi. Keskin o'zgarishlar yuz bergan va paysalga solmay hal etishni taqozo qiluvchi yangi muammolar paydo bo'lgan paytlarda odat normasi yagona pretsedent, hodisa natijasida ham shakllanishi mumkin.

Ilk Yer sun'iy yo'ldoshining uchirilishi va bunga nisbatan davlatlarning sukut saqlashi chet davlatlar hududlari ustidan fazoda (kosmosda) bezarar parvoz etish huquqi to'g'risida odat normasining paydo bo'lishiga olib keldi. Natijada amaliyot va opinio juris munosabatlarida o'zgarish yuz berdi. Agar ilgari ulardan birinchisi muhim mavqe egallab turgan bo'lsa, endilikda bu mavqega ikkinchisi egalik qila boshladi. Xalqaro huquqning umumiy normalarini shakllantirishda protest (no-rozilik) alohida ahamiyat kasb etadi. Protest bildirilmadimi, demak, davlat yangi odat normasiga rozi.

Xalqaro-huquqiy amaliyotda xalqaro shartnomalar eng aniq va nufuzli dalil sifatida xizmat qiladi. Kodifikatsiyalash odat huquqini siqib chiqarish va shartnoma huquqi bilan almashtirishga olib kelmaydi. Odat normasi kodifikatsiya konvensiyasiga kiritilganidan keyin ham o'zining avvalgi shaklida mavjud bo'lib qolaveradi. Bunday hollarda mazmunan

bir-biriga muvofiq ikkita norma — shartnoma va odat normalarining yonma-yon mavjud bo'lishi va amal qilishini kuzatish mumkin.

Amaliyotni belgilash, odat normalarini shakllantirish borasida BMT Xalqaro sudi alohida o'rin tutadi. Davlatlar sudlarining xalqaro huquq normalarini qo'llashdagi mavqei ham o'sib bormoqda. Ular faoliyatining natijasi o'laroq, amaliyot odat normalarining dalili sifatida tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

Jami xalqaro-huquqiy tizimlarning o'zagi hisoblangan va ta'sir doirasi barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlarni qamrab olgan umumiy xalqaro huquq odat normalaridan iboratdir.

Shuningdek, partikulyar, ya'ni ayricha odat ham mavjudki, u cheklangan doiradagi davlatlarning alohida manfaatlarini ifodalaydi. Shu bois bunday xalqaro-huquqiy odatning shakllanishi barcha manfaatdor davlatlarning roziligini taqozo etadi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro-huquqiy odat deganda, xalqaro amaliyotda shakllanib ulgurgan va xalqaro huquq subyektlari tomonidan yuridik majburiy ekanligi tan olingan yurish-turish qoidasi tushuniladi. Xalqaro odat aynan davlatlar amaliyoti natijasida tashkil topadi, bunda u huquqiy norma sifatida tan olinishi orqali xalqaro-huquqiy odat normasi, degan mazmun kasb etadi. Bunday norma xalqaro odat shaklida o'zining tashqi ifodasiga ega bo'ladi.

Xalqaro-huquqiy normalar yaratishning shartnomaviy shaklidan farqli o'laroq, xalqaro-huquqiy odat tegishli qoidalar shakliga mos holda aniq ifoda etilgan yuridik hujjat sifatida namoyon bo'lmaydi. U xalqaro huquqning barcha yoki ayrim subyektlari o'rtasida takrorlanadigan xalqaro harakatlar samarasi o'laroq, yuzaga keladi va aniq shaklga ega normadan ko'ra muayyan xulq timsolida ko'proq namoyon bo'ladi. Buning natijasida davlatlarning ziddiyatli va muntazam o'zgarib turadigan amaliyotida xalqaro odat huquqi normalarini bo'laklarga ajratish aksar hollarda o'ta qiyinchilik bilan kechadi.

Xalqaro-huquqiy odatga xos jihatlarga uning uzoq muddat qo'llanishi va xalqaro munosabatlar ishtirokchilari uchun yuridik majburiy kuchga egaligiga nisbatan ishonch mavjudligi kiradi. Bunda xalqaro huquq subyektlari amaliyotining uzoq muddatligi nisbiy ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida odat normalarini (masalan, xalqaro kosmik huquq) qisqa muddat oralig'ida yaratish tajribasi mavjud.

Xalqaro-huquqiy odat xalqaro huquq manbai sifatida tan olinishi nuqtayi nazaridan universal (umumiy) yoki cheklangan doiradagi xalqaro munosabatlarda tan olinishi nuqtayi nazaridan partikulyar (mintaqaviy yoxud mahalliy) bo'lishi mumkin. Oxirgi holatda xalqaro-huquqiy odat xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplariga (jus cogens) zid kelmasligi kerak.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida odat normalarining ikki turi mavjud. Birinchisi an'anaviy bo'lib, amaliyotda yozilmagan qoida sifatida shakllangan va yuridik kuchga egaligi tan olinadi. Ikkinchisi — yangi tur, unga uzoq muddatli amaliyot chog'ida yaratiladigan emas, balki bir necha yoki bitta hujjatdagi qoidalarni xuddi shu mazmunda tan olish orqali yuzaga keladigan normalardir. Xalqaro odatlar birinchi navbatda davlatlar amaliyotida yaratiladi. Odat normalarining yaratilishida hozirgi davrda xalqaro tashkilotlar qarorlari ham muhim rol o'ynaydi. Xalqaro tashkilotlar o'z faoliyati jarayonida odat normalari yaratilishi uchun ham ko'maklashishi mumkin. Bunga misol sifatida BMT Xavfsizlik kengashi doimiy a'zolarining ovoz berishdan tiyilib turish amaliyotini aytak bo'ladi.

Xalqaro-huquqiy odatni xalqaro-huquqiy odatiylikdan farqlash lozim. Xalqaro huquq nazariyasida odatiylik deganda, davlatlarning yuridik majburiy kuchga ega bo'lmagan umumiy amaliyoti tushuniladi. Odatiylik asosan ayni shu jihati bilan xalqaro-huquqiy odatdan farqlanadi. Xalqaro takalluf ko'rsatish normalari ham odatiylikka kiradi. Elchilik va dengiz tantanali marosimlari (xususan, davlat rahbari yoki hukumat boshlig'ini kutib olish tantanali marosimi; ochiq dengizda kemalarning o'zaro mushakbozligi) odatiylikka yana bir misoldir. Odatiylik xalqaro huquq normasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin (ya'ni, barcha xalqaro muomala ishtirokchilari uchun yuridik majburiylik kuchiga ega xulq qoidasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin). Buning uchun odatiylik xalqaro-huquqiy odatga yoki huquqning shartnomaviy normasiga aylanishi kerak bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, hozirgi zamon xalqaro huquqi aslida ko'p jihatdan shartnoma huquqi hisoblansa-da, xalqaro-huquqiy odat baribir uning xalqaro huquq manbayi sifatidagi ahamiyatini saqlab qolmoqda. Hozirgi zamon xalqaro munosabatlarida shartnoma va odat huquqlari o'rtasida o'zaro bog'liqlik kuzatiladi.

Odat normalari o'zlarining xalqaro shartnomalarda mustahkamlab qo'yilishi orqali shartnoma huquqi normalariga aylanadi. Bunda ular ko'pincha shartnomaviy yo'l bilan bekor qilinadi, o'zgartiriladi yoki rivojlantiriladi (masalan, xalqaro huquqni kodifikatsiyalash va ilg'or rivojlantirishga doir xalqaro shartnomalarda). Bundan tashqari, shartnoma normasi, agar u hamma tomonidan e'tirof etilib, odat huquqining umum tan olingan normasiga aylansa, tegishli shartnomada ishtirok etmayotgan davlatlar uchun ham odat sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, 1968-yildagi Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomada hozircha dunyoning barcha davlatlari ishtirok etmayapti, ammo uning aynan barcha davlatlar uchun majburiy normalar sifatidagi qoidalarini tan olish tobora kengroq tasdig'ini topmoqda.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi va xalqaro munosabatlar amaliyoti tahlilidan xulosa qilish mumkinki, ayni bir masala yuzasidan shartnoma normalari bilan birga odat normalari ham amal qilishi mumkin.

7-§. Xalqaro huquqning maxsus manbalari

Xalqaro tashkilotlar qarorlari — xalqaro huquq manbai.

Hozirgi zamon xalqaro tashkilotlari sonining ortib borishi, ularning nufuzi va xilma-xilligi xalqaro-huquqiy ijodkorlik jarayonida ishtirokidagi vazifalarining ham xilma-xilligini belgilaydi. Xalqaro tashkilotlarning huquq normalarini yaratish huquqi ularni tuzgan davlatlar tomonidan belgilab qo'yiladi va bu haqda xalqaro tashkilot ta'sis hujjatida qayd etiladi. Unda xalqaro tashkilot vakolatlarining umumiy ko'lami va uning yuridik normalar yaratish bo'yicha huquqlari aniq bayon etiladi.

Ko'p tomonlama xalqaro tashkilotlar asosan o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha xalqaro shartnomalar tayyorlash va qabul qilishi bilan ajralib turadi. Bunday hollarda xalqaro tashkilot doimiy ravishda shartnoma loyihalarini tayyorlash uchun zarur tashkiliy asoslarga ega bo'ladi. Bunda xalqaro shartnoma ham, uni qabul qilish jarayoni ham to'g'ridan to'g'ri muzokaralar davomida yoki xalqaro konferensiyalarda tasdiqlanadigan shartnomalardan ko'p farq qilmaydi.

Xalqaro tashkilotlarga a'zo davlatlar vakillari o'rtasidagi muntazam aloqalar tufayli tashkilotda u yoki bu sohada mavjud ehtiyojlar va yangi shakllar yaratish zarurati zudlik bilan aniqlab olinadi. Shuning uchun xalqaro tashkilot doirasida yangi xalqaro-huquqiy normalar tayyorlashni tashkillashtirish qulayroq va ularni mazmun-mohiyati bo'yicha darajalab chiqish ancha osondir. Masalan, davlat yoki bir guruh davlatlar xalqaro shartnoma (yuridik kuchga ega normalardan iborat) qabul qilishni yoki umumiy fikrlarini siyosiy normalardan tashkil topgan deklaratsiyalarda yoxud bayonotlarda bildirishni ham taklif qilishi mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro shartnomalari nafaqat yuridik soha, balki siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transport, aloqa, sog'liqni saqlash kabi maxsus sohalar bo'yicha ham yuksak malakali bilimga ega bo'lishni talab qiladi va aynan xalqaro tashkilotlar doirasida yuqori saviyali ekspertlardan foydalanishni ta'minlash imkoniyati nisbatan kengroqdir. Bu ayniqsa maxsus masalalar bo'yicha tuzilgan xalqaro tashkilotlar va BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalariga ko'proq taalluqlidir. Haqiqatan ham, bugungi kunda alohida sohalar bo'yicha hamkorlikni yo'lga qo'yishda ularning ahamiyati beqiyosdir. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat ishlari bo'yicha maxsus tashkiloti — YUNESKO, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Butun jahon pochta ittifoqi, Butun jahon sog'liqni

saqlash tashkiloti va boshqalar maxsus ekspertiza va huquqiy qarorlarni amalda birlashtirgan holda faoliyat ko'rsatayotgani bilan ajralib turadi.

Transport, aloqa, sog'liqni saqlash kabi sohalarda band bo'lgan ko'pchilik tashkilotlar huquqiy emas, balki ma'muriy va texnik normalardan tashkil topgan reglamentlar qabul qiladi va shu yo'l bilan ichki davlat huquqiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim xalqaro tashkilotlarda shartnomalarni qabul qilishning alohida tartibi mavjud. Misol uchun XMT konferensiyasida qabul qilingan konvensiyalar uzil-kesil tasdiqlash uchun tegishli hukumatlarga yuboriladi.

8-§. Xalqaro huquqning qo'shimcha manbalari

Huquqning umumiy prinsiplari — xalqaro huquq manbai.

Huquqning umumiy prinsiplari har qanday huquq tizimida amal qilaveradigan prinsiplardir. Ularning tarkibi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ayrim huquqshunos olimlarning fikricha, ular «qilmishiga yarasha jazo olishi kerak» yoki «keyingi norma avvalgisini bekor qiladi» deganga o'xshash yuridik-texnikaviy qoidalardan iborat. Boshqa olimlarning uqtirishiga qaraganda, huquqning umumiy prinsiplari qatoriga adolatparvarlik yoki vijdoniylik kabi prinsiplarni kiritish o'rinlidir.

Xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari — xalqaro huquqning manbai.

Ko'pchilik hollarda xalqaro tashkilotlar o'zlarining majburiy yuridik kuchga ega bo'lmagan rezolyutsiyalarida keyinchalik uning ishtirokchilari tomonidan imzolanadigan shartnomalarda aks etishi ko'zda tutilgan prinsiplar va normalarni belgilaydilar. Masalan, BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari inson huquqlari bo'yicha shartnomalar majmuyini yaratishda bosh omil bo'ldi. Bu qarorlar, shuningdek, yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma, Kosmos to'g'risidagi shartnoma va boshqa shu kabi xalqaro shartnomalar imzolanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Xalqaro tashkilotlar o'z nizomlariga muvofiq rezolyutsiyalar qabul qiladilar. Bunday rezolyutsiyalarning ayrimlari majburiy bo'lsa, boshqalari tavsiyaviy xususiyat kasb etadi. Misol sifatida BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalarini keltirish mumkin. Ularni yuridik kuchi bo'yicha uch guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh: BMT Bosh Assambleyasining majburiy yuridik kuchga ega bo'lgan rezolyutsiyalari. Bunday rezolyutsiyalar qatoriga BMTga yangi a'zo davlatlarni qabul qilish yoki a'zolarini muayyan huquq va imtiyozlarini to'xtatish yoxud budget masalalari to'g'risidagi rezolyutsiyalarni kiritish mumkin.

Ikkinchi guruh: davlatlar harakati uchun huquqiy asos bo'luvchi rezolyutsiyalar. BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari a'zo davlatlar uchun muayyan huquq va majburiyatlar keltirib chiqarishi mum-

kin. BMTning bunday rezolyutsiyasi har qanday a'zoga rezolyutsiya asosida harakat qilish huquqini bersa, boshqa davlatlarga ushbu harakatlarning huquqiyligini tan olish majburiyatini yuklaydi.

Uchinchi guruh: BMT Bosh Assambleyasining siyosiy va axloqiy ahamiyatga molik rezolyutsiyalari. Bunday rezolyutsiyalar yuridik majburiy kuchga ega emas va tavsiyaviy xususiyat kasb etadi. Shuning uchun ular xalqaro huquq normalari emas. Albatta, BMT Bosh Assambleya rezolyutsiyalarini bajarmagan a'zo davlatlarga nisbatan muayyan choralar ko'rish mumkin, ya'ni davlatlarni o'z rezolyutsiyalarini bajarishga chaqirishi yoki maxsus qo'mita (masalan, dekolonizatsiya bo'yicha qo'mita) tuzishi mumkin. BMTning bunday choralari o'z mazmuni jihatidan yuridik sanksiyalarga yaqindir.

Xalqaro sudlar va arbitrajlar qarorlari — xalqaro huquqning manbai.

Xalqaro sudlar va arbitrajlarining qarorlari nizoda o'ziga nisbatan qaror chiqarilayotgan tomon uchungina majburiy kuchga ega bo'ladi. Ammo BMT Xalqaro sudining qarorlari, odatda, yangi normalarni ishlab chiqishda e'tiborga olinadi, sudlar va arbitrajlarining dalil-isbotlari esa ko'p hollarda bunday nizolarda tomonlarning pozitsiyasini asoslash uchun ishlatiladi.

9-§. Davlatlarning bir tomonlama hujjatlari

Davlatlarning bir tomonlama aktlari miqdor jihatidan xilma-xil bo'lib, ular xalqaro huquq ijodkorligida muhim o'rin tutadi. Bu aktlarni bir necha guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruh: davlat tomonidan chiqariladigan va boshqa davlatlar uchun muayyan oqibatlarga ega bo'lishi mumkin bo'lgan aktlar. Buni davlatlarning Jahon okeanida o'z huquqi va yurisdiksiyasini o'rnatishiga qaratilgan bir tomonlama aktlar misolida tushuntirish mumkin. Masalan, davlat okean orqali o'tadigan (xuddi Rossiyaning Kamchatka sharqiy sohili bo'ylab o'tgan dengiz chegarasi kabi) o'z chegara chiziqlarini e'lon qiladi. Bu aktning ta'sir kuchi asosida sohilbo'yi davlati ochiq dengizdan, ya'ni davlatlar umum foydalanadigan dengiz maydonidan tegishli qismini egallab oladi. Ayni chog'da, ana shu hududga bevosita tutash boshqa davlat mavjud bo'lmasa, demak sohilbo'yi davlati bu borada qo'shimcha muzokaralar o'tkazishga majbur emas. Shu bilan birga, sohilbo'yi davlatining ushbu akti boshqa davlatlar uchun baliq ovlash, boshqa xil tabiat zaxiralariga egalik qilish, shuningdek, hududiy dengiz deb e'lon qilingan suvlarda suzish chog'ida sohilbo'yi davlati qonunchiligiga amal qilish kabi majburiyatlarni yuzaga keltiradi.

Ammo sohilbo'yi davlatining tegishli tartibda chop etilgan mazkur aktiga nisbatan boshqa davlatlar tomonidan noroziliklar kelib tushma-

gan taqdiridagina xalqaro huquqning yangi normasi vujudga kelgani haqida gapirish mumkin. Bunday hollarda sohilbo'yi davlatining bir tomonlama akti e'tirozsiz tan olinganining qayd etilishi o'rinli bo'ladi. Bu — bir tomonlama akt bilan o'z-o'zidan normalar darrov yaratilavermaydi, deganidir. Bu holda ham norma bitim yordamida yaratiladi, bitim esa bir tomondan, bir tomonlama akt tuzilishi, ikkinchi tomondan, uning sukut saqlash ko'rinishidagi tan olishi tufayli tashkil topadi.

Xalqaro-huquqiy amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar o'zlari uchun yuridik oqibatlarga ega bir tomonlama aktlar, agar mavjud xalqaro huquq normalariga asoslangan bo'lsa, bunday aktlarni tan olishga ko'proq moyildir. Aytaylik, 12 dengiz mili kengligida, BMTning Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasida ko'zda tutilganidek, hududiy dengiz chegaralarini belgilash yoki odatiy huquqda mustahkamlanib qolganidek, chegara daryosining o'rtasidan chegara chizig'i o'tkazish biron-bir e'tirozga sabab bo'lmaydi.

Ikkinchi guruh: bayonotlar, notalar, davlat rahbarlarining chiqishlari va boshqalar. Bunday aktlardan istalgani davlatning zimmasiga bayonot berilganiga muvofiq tarzda yo'l tutish bo'yicha muayyan majburiyatlar yuklaydi. Tinch okeani orollaridagi Fransiya yadro quroli sinovlari bo'yicha ishni ko'rib chiqishda BMT Xalqaro sudi fransuz hukumati sinovlarni to'xtatish to'g'risida bergan bayonotning yuridik ahamiyatiga e'tibor qaratdi. Sud tomonidan fransuz hukumati bayonoti uning uchun xalqaro-huquqiy majburiyatni yuzaga keltirishi belgilandi. Bu kabi bayonotlar yuridik yoki faktik holatlarga nisbatan huquqiy majburiyatlar yaratishga qodirligidan kelib chiqib, ushbu holatning umume'tirofga molik ekani ta'kidlandi.

Bayonot berayotgan davlatning maqsadi ushbu bayonot uning shartlariga muvofiq tarzda majburiy tus olishidan iborat bo'lgan hollarda tegishli bayonot yuridik majburiyat hisoblanadi. Biroq bu mutlaqo — davlatning xohish-irodasiga bog'liq va u o'z majburiyatlarini o'zi istagan paytda bimalol bekor qilishi mumkin, degani emas. Sud tomonidan huquqiy majburiyatlarning yaratilishi va ijro etilishini tartibga soluvchi prinsiplardan biri halollik, vijdoniylik prinsipi ekani qayd etildi.

Shunday qilib, manfaatdor davlatlar bir tomonlama deklaratsiyalarni e'tiborga olishi va ularga ishonch bildirishi mumkin va shu tariqa yuzaga keladigan majburiyatlar hurmat qilinishini talab etishga haqlidir.

Bunday aktlar bayonot bergan davlat uchun majburiyatlarni yuzaga keltirishi barobarida, boshqa davlatlarga huquq va shu huquqdan foydalanish shartlarini vujudga keltiradi. Huquqdan foydalanishga rozilik bildirgan tomonlar tegishli shartlarni ham bajarishga majburdir.

Xalqaro-huquqiy amaliyot boshqa davlatlar o'zlariga qo'yilgan shart-

larni buzgan hollarda bir tomonlama majburiyatdan bosh tortishning qonuniyligidan kelib chiqadi. Misol uchun Sobiq SSSR, AQSH ham shu yoʻldan borishi sharti bilan yerosti yadro sinovlarini amalga oshirmaslik yuzasidan oʻz zimmasiga bir tomonlama majburiyat olgandi. Qoʻshma Shtatlar tomonidan yadro sinovlari oʻtkazilganidan soʻng SSSR hukumati 1986-yil aprelida bundan keyin oʻzini zimmasiga olgan majburiyatidan ozod, deb hisoblashi toʻgʻrisida bayonot berdi.

Uchinchi guruh: xalqaro huquqda tan olinishi juda muhim ahamiyatga ega boʻlgan aktlar. Qaysidir yuridik akt yoki vaziyatni tan olgan davlat ana shu eʼtirofiga qarshi ish tutishga haqli emas. Boz ustiga, qoida boʻyicha, eʼtirof qaytarib olinishi mumkin emas. Eʼtirofga misol sifatida yangi davlatlarning paydo boʻlishi, davlat chegaralarining faktik oʻzgarishi, nizoli huquqlar va daʼvolarning tan olinishi hollarini koʻrsatish mumkin.

Toʻrtinchi guruh: eʼtiroz — eʼtirofga mutlaqo zid boʻlgan aktdir. Bu akt yordamida davlat muayyan vaziyatga nisbatan oʻzining noroziligini, daʼvosini va huquqiy oqibatlarga ega boshqa holatlarni izhor etadi. Protest natijasida tegishli vaziyat manfaatdor davlatlar oʻrtasida nizo mavzusiga aylanadi. U eʼtiroz bildirayotgan davlat uchun hech qanday majburiyatlarni yuzaga keltirmaydi.

Beshinchi guruh: voz kechish — davlatning huquq, daʼvo, vakolatdan bosh tortishi boʻlib, ular shu paytdan eʼtiboran mavjud boʻlmaydi.

Oltinchi guruh: sukut saqlash koʻrinishidagi voz kechishning alohida holati estoppel boʻlib, uning mazmuni tomonlar oʻz harakatlari bilan bogʻlanib qolganini va bu harakatlarga tayangan va oʻzi ham shu boʻyicha harakat qilgan tegishli tomonga ziyon yetkazadigan tarzda talablar qoʻyish mumkin emasligini bildiradi. Masalan, 1969-yilgi Shartnomalar huquqi boʻyicha Vena konvensiyasining 45-moddasiga muvofiq, agar davlatga qoida buzilish fakti maʼlum boʻlsa-yu u shartnoma oʻz kuchini yoʻqotayotganiga sukut saqlash koʻrinishida rozilik bildirgan deb hisob-lansa, shundan soʻng ushbu davlat shartnomani bekor qilishning qoida buzilish shaklidagi asosiga murojaat qilish huquqidan mahrum boʻladi.

10-§. Xalqaro huquq taʼlimoti (doktrinas)ning oʻrni

Klassik xalqaro huquqni shakllantirishda yuristlarning mehnati alohida oʻrin tutadi. Hatto XX asrga qadar xalqaro huquqqa olimlar huquqi, doktrinal, nazariy huquq sifatida qarab kelindi. Sudlar deyarli butunlay «buyuk olimlar»ga tayanar edi. XXI asrga kelib turli mamlakat yuristlarining jamoaviy fikri katta ahamiyat kasb eta boshladi. Bu ayniqsa Xalqaro huquq assotsiatsiyasi, Xalqaro huquq instituti kabi no-davlat tashkilotlarining hujjatlarida yaqqol aks etgan. Konvensiya loyihalarini tayyorlash bilan shugʻullanuvchi xalqaro organlar aʼzolarining katta qismi xalqaro huquq professorlaridan iborat. BMTning Xalqaro

huquq Komissiyasi bunga yaqqol misol sifatida xizmat qilishi mumkin.

Hozirgi davrda xalqaro huquq manbalari hisobidan «xalqaro huquq doktrinalari» deb nomlanuvchi manbalarni, ya'ni xalqaro huquq sohasi atoqli olimlarining ishlarini to'raligicha istisno etib bo'lmaydi. Bunday ishlar ko'pincha ayrim xalqaro-huquqiy qoidalarni, shuningdek, muayyan davlatlarning xalqaro-huquqiy pozitsiyasini aniqlashtirishda qo'l keladi. Xususan, nizolashayotgan tomonlar o'zlarining xalqaro sudlov organlariga taqdim etadigan hujjatlarida ba'zi hollarda xalqaro huquqning turli masalalari bo'yicha mutaxassislarining fikrlaridan foydalanadilar. Bu esa huquqning ushbu sohasi manbalari doirasini aniqlashtirish chog'ida hisoblashish zarur bo'lgan faktir.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, xalqaro huquq doktrinasining o'ziga xalqaro huquq manbayi sifatida qaralmaydi. U normalarni belgilashda ko'magi tegadigan qo'shimcha vositadan boshqa narsa emas.

11-§. Xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish

Amalda zamonaviy xalqaro huquq normalarini muayyan bir tizimga keltirish xalqaro huquqni kodifikatsiyalash deyiladi. Kodifikatsiyalash jarayonida xalqaro huquq normalari aniqlanadi, rivojlantiriladi hamda yangilari ishlab chiqiladi. Xalqaro huquq normalari kodifikatsiyasi bilan BMTning Xalqaro huquq Komissiyasi va qator qo'mitalari shug'ullanadi. Xalqaro huquq Komissiyasi BMTning xalqaro huquq normalarini kodifikatsiya qiluvchi asosiy organidir. Komissiya 25 a'zo-ekspertdan tashkil topgan. Uning a'zolari BMT Bosh Assambleyasi tomonidan saylanadi. Xalqaro huquq bo'yicha Komissiya 1949-yildan faoliyat ko'rsatib kelmoqda. O'zining yarim asrdan ortiq faoliyati davomida komissiya ko'plab xalqaro konvensiya loyihalarini ishlab chiqqan.

Xalqaro huquqning o'ziga xos jihatlari va normalarining shakllanish jarayoni taqozosiga ko'ra, xalqaro huquq manbalari ro'yxatini va ular ta'rifini belgilab beruvchi, barcha xalqaro huquq subyektlari tan olgan qandaydir huquqiy hujjat mavjud emas.

Xalqaro huquq normalari shartnoma va odatlarda mustahkamlab qo'yiladi, shunday ekan, faqat konvensiyalar (xalqaro shartnomalar) va xalqaro odatlar xalqaro huquq manbalariga mansubdir. Umumiy xalqaro konvensiyalar deganda, barcha davlatlar ishtirok etadigan shartnomalar anglanadiki, ularning matni butun xalqaro hamjamiyat uchun majburiy bo'lgan normalar, ya'ni umumiy xalqaro huquq normalaridan iborat bo'ladi.

Xalqaro huquqni kodifikatsiyalash bilan bog'liq izchil jarayon davom etayotganiga qaramay, odatlarning xalqaro hayotda tutgan o'rni saqlanib qolmoqda. Ba'zi xalqaro munosabatlarning o'zi ayrim davlatlarda shartnomaviy normalar yordamida, boshqalarida esa odatlar bilan tartibga solinishi mumkin.

Ayni chogʻda (aksariyat yuristlar xuddi shunday fikrda) xulq-atvor qoidasini odat sifatida tasniflash murakkab masala, chunki shartnomaviy normalardan farqli oʻlaroq, odat qandaydir yaxlit hujjat sifatida yozma koʻrinishda rasmiylashtirmaydi. Shu munosabat bilan odat mavjudligini aniqlash uchun yordamchi vositalar: sud qarorlari va doktrinalar, xalqaro tashkilotlar qarorlari, shuningdek, davlatlarning bir tomonlama hujjatlari hamda xatti-harakatlaridan foydalaniladi.

Yordamchi vositalardan biri — sud qarorlariga BMT Xalqaro sudi, shuningdek, boshqa xalqaro miqyosdagi sud va arbitraj organlari qarorlari ham kiradi. Nizoni BMT Xalqaro sudiga yoki boshqa xalqaro sudlov organiga havola etar ekan, davlatlar koʻpincha nizolashayotgan tomonlar uchun majburiy hisoblangan odat normasi bor-yoʻqligini aniqlab berishni soʻraydi.

12-§. Xalqaro huquqda norma ijodkorligi

Davlatlararo xalqaro munosabatlarni shu munosabatlarning mustaqil subyektlari oʻrtasida oʻzaro huquq va majburiyatlarni oʻrnatish yoʻli bilan tartibga soluvchi alohida yuridik normalar tizimi sifatida xalqaro huquq oʻziga xos norma ijodkorligi jihatlariga ega. Bu sohada norma ijodkorligining oʻziga xosligi shundaki, bu jarayonda subyektlarning oʻzi ixtiyoriy xohish-iroda asosida ishtirok etadi. Xalqaro huquq normasi negizida doimo shu normani yaratishning yagona usuli hisoblangan subyektlar bitimi yotadi. Bitimlarning shakllanishi va huquqiy normada mustahkamlanishi muayyan protsessual tartibda amalga oshadi. Ana shu tartibga muvofiq kelishib olingan qoida oʻzida odat yoki shartnoma shaklini mujassam etib, yuridik kuchga ega boʻladi. Bu xalqaro ommaviy huquq kelishuv mazmunini kasb etadi, deb hisoblash uchun imkon beradi. Kelishuvsiz hech kim xalqaro ommaviy huquq xulq qoidasini belgilash huquqiga ega emas. Shunday ekan, xalqaro huquqqa nisbatan «qonunchilik», «xalqaro qonuniylik» kabi tushunchalarni qoʻllash bir qadar nooʻrindir.

Umumiy xalqaro huquq normalarini shakllantirishda protest (eʼtiroz) bildirish muhim oʻrin tutadi. Eʼtiroz bildirilmaganligi, davlat yangi norma roziligini anglatadi.

Xalqaro huquqda norma ijodkorlik xalqaro shartnomalar tuzish orqali yoki odatlarni shakllantirish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Bu jarayonda xalqaro tashkilotlar, avvalo BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari rezolyutsiyalari hamda qarorlari katta ahamiyatga ega boʻldi. Ushbu hujjatlarda koʻpincha allaqachon shakllangan odat —huquq normalari qayd etiladi, shuningdek, xalqaro munosabatlar subyektlarining muayyan xulq qoidalari ragʻbatlantiriladiki, bu yangi norma va odatlar yuzaga kelishi uchun sabab boʻladi.

Kodifikatsiya amaldagi xalqaro-huquqiy normalarni tizimlashtirish, ziddiyatlarni bartaraf etish, kamchiliklarni to'ldirish va eskirgan normalarni yangilari bilan almashtirish jarayoni ekaniga alohida urg'u berish zarur.

Bundan kelib chiqadiki, kodifikatsiya huquq ijodkorligi jarayoni demakdir. Davlatlar va ularga tegishli tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan rasmiy kodifikatsiya hamda davlat ishtirokisiz, jamoat tashkilotlari va alohida jismoniy shaxslar tomonidan joriy etiladigan norasmiy kodifikatsiya farqlanadi. Bunda norasmiy kodifikatsiyaning asosiy turi sifatida olimlar yoki ularning tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan doktrinal (nazariy) kodifikatsiyani misol qilib keltirish o'rinlidir.

Norma ijodkorligi alohida ko'rinishda — xalqaro huquq subyektlarining davlatlar bir tomonlama hujjatlarini tan olish yo'li bilan ham ro'yobga chiqishi mumkin. Bir tomonlama hujjatlar sirasiga bayonotlar, notalar, davlat arboblarning chiqishlari va boshqalar kiradi. Majburiyat bir tomonlama hujjatlarning asosiy turi hisoblanadi (masalan, birinchi bo'lib yadro qurolini qo'llamaslik yuzasidan Rossiyaning majburiyati). Bir tomonlama hujjatlarning yana bir turi— e'tirofdir: u yoki bu yuridik hujjatni, vaziyatni e'tirof etar ekan, endilikda davlat ana shu e'tirofiga qarshi ish qilish huquqiga ega emas. Bundan tashqari, odatda, e'tirofni ortga qaytarib (chaqirib olib) bo'lmaydi.

Bir tomonlama hujjatlarning boshqa bir turi protest (e'tiroz) (e'tirofqa qarama-qarshi hujjat) hisoblanadi. Bu hujjatda davlat muayyan vaziyatga, da'voga va huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan barcha holatlarga qarshi o'z e'tirozini bayon etadi.

Bir tomonlama hujjatlarning navbatdagi turi voz kechish bo'lib, bunda davlat o'z huquqi, da'vosi, vakolatlaridan voz kechadi hamda shu paytdan e'tiboran ular barham topadi. Voz kechish qat'iy yakuniy va ortga qaytarib bo'lmaydigan mazmun kasb etadi. Sukutga asoslangan voz kechishning asosiy ko'rinishi estoppel bo'lib (estoppel-da'vo, e'tiroz huquqidan mahrumlik), u ingliz umumiy huquqidan kirib kelgan hamda mazmuniga ko'ra, tomonlar o'z xatti-harakatlari bilan bir-biriga bog'liq ekanini va ana shu harakatga suyangan holda o'zini risoladagidek tutgan boshqa tomongan ziyon keltiradigan talablar qo'yishi mumkin emasligini anglatadi.

Shunday qilib, xalqaro huquq nazariyasi ikkita asosiy manba— xalqaro shartnomalar va xalqaro-huquqiy odatlarga muvofiq ravishda xalqaro huquq normalarini yaratishning ikkita asosiy usulini ko'zda tutadi. Xalqaro huquqning shartnoma (konvensiya) va odat normalarining majburiy yuridik kuchi bir xildir. Bu davlatlar amaliyotida, BMT Ustavida, BMT Xalqaro sudi statutida va 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida mustahkamlab qo'yilgan.

13-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq

Har qanday davlatning tashqi siyosiy faoliyati u yoki bu darajada konstitutsiyaviy tartibga solish predmeti bo'lib kelgan. XVIII asrning oxiri — XX asr boshlarida qabul qilingan konstitutsiyalar «urush huquqini» suverenitetning zaruriy belgisi deb bilib, «urush e'lon qilish huquqi»ning oliy hokimiyat tizimidagi an'anaviy huquqlardan biri sifatida qabul qilgan. O'sha davrda ham «Tinchlikka qaratilgan moddalar» mavjud bo'lgan. 1791-yilgi Fransiya Konstitutsiyasida istilochilik urushidan voz kechish holatlari, 1931-yilgi Ispaniya Konstitutsiyasida esa «urushdan milliy siyosat quroli» sifatida foydalanishdan voz kechish holatlari o'z aksini topgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin vaziyat keskin o'zgardi. «Tinchlikka qaratilgan moddalar» Italiya, Yaponiya, GFR va bir qancha boshqa davlatlarning konstitutsiyalaridan o'rin oldi. Yaponiyaning 1947-yilgi Konstitutsiyasi 9-moddasida urushdan butunlay voz kechish va mamlakatda qurolli kuchlarni tuzishni man etish qoidalari mustahkamlangan.

XX asrning ikkinchi yarmida qabul qilingan konstitutsiyalarda davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini tartibga solishning kengayishi yaqqol namoyon bo'ldi. Bu, eng avvalo, tashqi siyosatning ayrim prinsiplarini rasmiy e'lon qilish, urush e'lon qilish va xalqaro shartnomalar tuzish bilan bog'liq masalalarni tartibga solish, xalqaro va ichki huquqning o'zaro munosabatlari, davlat organlarining xalqaro shartnomalarni tuzish, ratifikatsiya va denonsatsiya qilish bo'yicha vakolatlarini belgilash, inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi hamkorlik — fuqarolik, insonning huquq va erkinliklari, ekstraditsiya va boshpana huquqi, davlatlararo iqtisodiy va harbiy-siyosiy integratsiyani tartibga solish masalalarida tartibga solishda ko'rinadi.

Internatsionallashuv — zamonaviy konstitutsionalizmning asosiy xususiyatlaridan biri. U dunyodagi demokratik davlatlardagi konstitutsiyalarning xalqaro huquq bilan yaqinlashishida namoyon bo'lmoqda. Ayrim davlatlarning konstitutsiyaviy huquqi erishgan yutuqlar xalqaro miqyosda umumlashtirilib, xalqaro huquqning muhim hujjatlari — deklaratsiyalar, konvensiyalar, paktlarga kiritilgan. Ushbu hujjatlar ishtirokchi davlatlarga o'zlarining milliy qonunchiliklariga u yoki bu turdagi demokratik konstitutsiyaviy-huquqiy institutlarini kiritish majburiyatini yuklaydi (masalan, insonning huquq va erkinliklari).

Xalqaro huquqning milliy tizimlarga bo'lgan ta'siri ham oshib bormoqda. Ko'pgina konstitutsiyalarda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari milliy konstitutsiyaviy huquqning tarkibiy qismiga kiradi. GFRning Asosiy qonunidagi 25-moddasiga asosan, «xalqaro huquqning umumiy qoidalari Federatsiya huquqining tarkibiy

qismiga kiradi». Ular qonunlardan ustun bo'lib, federal hudud aholisi uchun bevosita huquq va majburiyatlar yaratadi, deb yozib qo'yilgan.

Fransiya Konstitutsiyasining 55-moddasida «tegishli ravishda qabul qilingan yoki ratifikatsiya qilingan shartnomalar yoki kelishuvlar ichki qonunlardan kattaroq kuchga ega bo'ladi», — deb qayd qilingan.

TO'RTINCHI MAVZU.

XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI

- 1-§. «Xalqaro huquq prinsipi» tushunchasi**
- 2-§. Xalqaro huquq prinsiplarining tizimi**
- 3-§. Suveren tenglik prinsipi**
- 4-§. Aralashmaslik prinsipi**
- 5-§. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi**
- 6-§. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi**
- 7-§. Xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi**
- 8-§. Hududiy yaxlitlik prinsipi**
- 9-§. Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi**
- 10-§. Hamkorlik prinsipi**
- 11-§. Inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi**
- 12-§. Chegaralarning buzilmasligi prinsipi**
- 13-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquqning asosiy prinsiplari**

1-§. «Xalqaro huquq prinsipi» tushunchasi

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari ilk bor BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan. Ularning mazmuni 1970-yili Bosh Assambleyada qabul qilingan BMT Ustaviga muvofiq do'stona munosabatlar va hamkorlikka taalluqli muhim hujjat — Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada, shuningdek, 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining Yakunlovchi aktida ochib berilgan va rivojlantirilgan. Bundan tashqari, xalqaro huquqning bir qator prinsiplariga bag'ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyalari ham mavjud.

Xalqaro huquq asosiy prinsiplarining aniq soni yuzasidan huquqshunos olimlar hozircha yakdil xulosaga kelolganlari yo'q. 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya quyidagi yettita asosiy prinsipni qamrab olgan: 1) kuch ishlatmaslik; 2) nizolarni tinch yo'l bilan hal etish; 3) aralashmaslik; 4) hamkorlik; 5) xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi; 6) suveren tenglik; 7) xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish. 1975-yildagi YXHK

Yakunlovchi akti bular qatoriga yana uchta — 1) chegaralarning buzilmasligi; 2) hududiy yaxlitlik; 3) inson huquqlarini hurmat qilish prinsiplarini qo'shdi, ular endilikda universal tus olgan.

Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi hujjatlarda ta'kidlanganidek, ular o'zaro uzviy bog'liq, birining mazmun-mohiyati boshqasining mazmuni bilan uyg'unlashib ketaveradi. Shu bois xalqaro huquq prinsiplarining mazmunini boshqalari bilan bog'lab o'rganish lozim.

Shunday qilib, xalqaro huquq prinsiplari umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalaridir.

2-§. Xalqaro huquq prinsiplarining tizimi

Xalqaro huquqda amalda bo'lgan prinsiplar universal va mintaqaviy (ularni e'tirof etadigan subyektlar doirasidan kelib chiqib), umumiy va sohaviy (ular amal qiladigan sohalar bo'yicha) prinsiplarga bo'linadi. Yuridik normalar va institutlar bilan birgalikda prinsiplar xalqaro huquqning murakkab ko'rinishdagi yaxlit tizimini tashkil etadi.

Xalqaro huquq doirasida prinsiplarning xilma-xil turlari farqlanadi. Ular orasida g'oya-prinsiplar muhim o'rin tutadi. Tinchlik va hamkorlik, gumanizm, demokratiya g'oyalari shular jumlasidandir. Ular BMT Ustavida, Inson huquqlari to'g'risidagi paktlarda va boshqa qator hujjatlarda o'z aksini topgan. G'oya — prinsiplar o'z faoliyatining asosiy ko'lamini aniq normalar orqali, ularning mazmunida aks ettirish va faoliyatini yo'naltirish yo'li bilan ro'yobga chiqaradi.

Shuningdek, xalqaro huquqning sohaviy prinsiplari mavjud. BMT Xalqaro sudi dengiz huquqi prinsiplariga bir necha bor havola qilganki, ushbu huquq sohaning bir qator umumiy normalarini anglatadi. Aksariyat xalqaro soha olimlarining fikricha, sohaviy prinsiplarning mavjudligi xalqaro huquq sohasiga xos bo'lgan zarur belgi demakdir. Prinsiplarning shakllanish va faoliyat ko'rsatish borasidagi o'ziga xosligi ko'pincha shu yo'l bilan belgilanadiki, ular jahon tartib-qoidalari va xalqaro huquqning eng muhim asoslarini aks ettiradi hamda mustahkamlaydi. Ular zaruriy huquq (jus necessitatis) sifatida namoyon bo'ladi.

Prinsiplar ichida xalqaro huquqning asosiy prinsiplari (jus cogens) ajralib turadi. Ular umumiy mazmun kasb etuvchi universal imperativ normalar hisoblangan xalqaro huquq tartibotining poydevorini tashkil etadi. Diplomatiya amaliyotida, odatda, ular xalqaro munosabatlar prinsiplari, deb yuritiladi. 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 58-moddasiga muvofiq jus cogens (umumiy xalqaro huquqning imperativ normasi) normasi deganda, davlatlar xalqaro hamjamiyati tomonidan butun holda norma sifatida qabul qilingan va tan olingan, undan chekinish mumkin bo'lmagan umumiy xalqaro huquq normasi anglanadi; u faqat umumiy xalqaro huquqning xuddi shun-

day xususiyatga ega keyingi normasi bilan o'zgartirilishi mumkin. Jus cogens normalarining boshqa imperativ normalardan farqi shundaki, jus cogens normalaridan har qanday chekinish davlatlar xatti-harakatini ahamiyatsiz qiladi. Jus cogens normalariga doim rioya qilinishi va ular xalqaro munosabatlarning har qanday sohasida qo'llanishi zarur. Umumiy xalqaro huquq normalari uning asosiy prinsiplari jus cogens normalari hisoblanadi. Davlat tomonidan biron-bir asosiy prinsipning buzilishini xalqaro hamjamiyat butun xalqaro huquq tartibotiga tajovuz sifatida baholashi mumkin.

Prinsiplarning o'ziga xos jihatlaridan biri ularning o'zaro bog'liqligidir. Prinsiplar mazmunidagi umumlashganlik darajasining yuksakligi ulardan har birining talablarini boshqalarning mazmunini qiyoslab ko'rish yo'li bilan qo'llash mumkinligini ko'zda tutadi. Deylik, o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipini qo'llash uchun hududiy yaxlitlik prinsipini hisobga olish lozim bo'ladi. Prinsiplarning o'zaro bog'liqligi, 1970-yildagi BMT Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada ta'kidlangan edi.

Xalqaro huquq nazariyasida muntazam ravishda prinsiplarning ierarxiyasini aniqlash yo'lida harakatlar bo'lgan va bunday harakatlar hali ham davom etmoqda. Shak-shubhasiz, xalqaro huquqning barcha prinsiplari boshida jus cogens normalari turadi. Asosiy prinsiplarning ichki ierarxiyasi (tabaqalanishi) muayyan muntazamlik kasb etmaydi: ayrim olimlar yalpi tinchlik va xavfsizlik muhofazasini mustahkamlovchi prinsiplarni birinchi o'ringa qo'ysa, boshqalari — gumanizm va insonparvarlik prinsiplarini, uchinchi guruh olimlari esa davlatga xos bo'lgan yaxlitlik va buzilmaslik prinsiplarini ustun deb hisoblaydi. Bir so'z bilan aytganda, bu borada yagona yondashuv mavjud emas.

3-§. Suveren tenglik prinsipi

BMT Ustavining prinsiplar to'g'risidagi moddasining ilk bandida: «tashkilot barcha a'zolarining suveren tengligi prinsipi asosida tuzilgan», deb qayd etilgan. Bu prinsip nafaqat BMT, balki butun xalqaro munosabatlar boshqaruvi tizimlari negizida yotadi. Xalqaro huquqning o'ziga xos alohida jihatlari, avvalambor, uning subyektlari suveren teng davlatlar ekani bilan belgilanadi.

Suveren tenglik prinsipining asosiy mazmuni quyidagicha: davlatlar bir-birlarining suveren tengligi va o'ziga xosligini, shuningdek, suverenitetga mansub barcha huquqlarni hurmat qilishlari shart. Barcha davlatlarning teng ravishda asosiy huquq va majburiyatlari mavjud. Har bir davlat xalqaro tashkilotlar va shartnomalarda ishtirok etish huquqiga egadir.

Davlatning suveren hokimiyati boshqa davlatlarning aynan shunday

hokimiyati bilan cheklangan bo'ladi, chunki ular teng suverendir. Bir davlatning «mutlaq suvereniteti» boshqalarining suverenitetiga mos kelmaydi. Suverenitet xalqaro huquq doirasida amalga oshiriladi, aks holda u o'zboshimchalikni bildirgan bo'lur edi. Suverenitet ta'sir doirasini aniq belgilash xalqaro huquqning asosiy vazifalaridan biridir.

Davlatlarning huquqiy maqomi tengligi xalqaro huquqning barcha normalari ularga nisbatan bir xil qo'llanilishini, teng kuchga ega ekani ni bildiradi.

BMTning 1970-yildagi Ustaviga muvofiq, davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyaga ko'ra, «suveren tenglik» tushunchasi aniq mazmunga ega bo'lib, quyidagilarni qamrab oladi:

- barcha davlatlar yuridik jihatdan teng;

- har bir davlat to'la suverenitetga xos bo'lgan huquqlardan foydalanadi;

- har bir davlat boshqa davlatlarning huquq subyektiga mansubligini hurmat qilishga majbur;

- davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligi daxlsiz;

- har bir davlat o'zining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tuzumlarini erkin tanlash hamda rivojlantirish huquqiga ega;

- har bir davlat o'zining xalqaro majburiyatlarini to'liq va sidqidildan bajarish hamda boshqa davlatlar bilan tinch-totuv yashashga majbur.

1975-yildagi Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi hujjatida ta'kidlanishicha, davlatlarning suveren tengligi prinsipi doirasida davlatlar bir-birining o'z siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin tanlash hamda rivojlantirish huquqini, shuningdek, o'z qonunlari va ma'muriy qoidalarini belgilash huquqini ham hurmat qiladilar; ular xalqaro huquqqa muvofiq bir-birining boshqa davlatlar bilan munosabatlarini belgilash va amalga oshirish huquqini hurmat qiladilar. Ushbu prinsipga xos elementlar qatoriga xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish yoki bo'lmaslik, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar ishtirokchisi bo'lish yoki bo'lmaslik, shuningdek, betaraf qolish (neytralitet) huquqlari kiradi.

4-§. Aralashmaslik prinsipi

Aralashmaslik prinsipi xalqaro huquq asoslaridan biridir. BMT Ustavida aytilishicha, u Tashkilotga har qanday davlatning ichki ishlariga aralashmaslik huquqini bermaydi va a'zo davlatlardan bunday ishlarni Ustav bo'yicha (2-moddaning 7-bandi) hal etish uchun taqdim etishni talab qilmaydi. Ushbu qoida xalqaro huquqning barcha subyektlarini aralashishdan tiyilib turishga majburlovchi umume'tirof etilgan odat normasini ifoda etadi.

Mazkur prinsipning tayanch tushunchasi — «ichki vakolatlar jabhasi» bo'lib, bu jabha davlat faoliyatining boshqa subyektlari uchun yopiqdir. Bu tushuncha hududiy emas, ya'ni davlatdan tashqarida ham aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Ushbu jabhada davlat o'z sheriklari oldida biron-bir majburiyatga ega emas, chunki faqat ana shu holatdagina davlat boshqa davlatlarning u yoki bu xatti-harakatlarini yo'qqa chiqarish huquqiga ega bo'lmaydi.

Xalqaro huquq tarixida bir necha bor davlatning ichki vakolatlariga kiradigan ishlar ro'yxatini tuzishga harakat qilib ko'rilgan. Bunda davlatning siyosiy va iqtisodiy tizimini belgilash ana shunday vakolatlar sirasiga kirishini umume'tirof etilgan, ayni chog'da keyingi o'n yillikda ilgari ichki vakolatlariga mansub bo'lgan ishlarning butun-butun toifalari muayyan darajada xalqaro-huquqiy tartibga solishning predmetiga aylanib bormoqda. Masalan, bugungi kunda xalqaro huquq o'z xalqiga nisbatan har qanday zo'ravonlikka yo'l qo'yilishi mumkin emas, deb hisoblaydi.

BMT Ustavining VII bobi 7-moddasining 2-bandiga muvofiq qo'llaniladigan choralar aralashmaslik prinsipiga kirmaydi. Boshqacha aytganda, tinchlikka tahdid solingan, tinchlik-osoyishtalik buzilgan, agressiya akti sodir etilgan hollarda, BMT Xavfsizlik Kengashi qaroriga binoan, tegishli davlatga nisbatan majburiy choralar qo'llanilishiga aralashmaslik prinsipi to'sqinlik qilmaydi. Zero, Xavfsizlik Kengashi va Bosh Assambleya bunday choralar qo'llanishi masalasini hal etar ekan, avvalambor, ushbu ishning ichki ekanini qanchalik bilsa, tinchlik va xavfsizlikka nisbatan xatar mavjudligini shunchalik aniq his qiladi va shunga ko'ra ichki ishlarga aralashadi.

Ichki ishlarga aralashmaslik prinsipi umumiy shaklda BMT Ustavi 2-moddasining 7-bandida qayd etilgan hamda BMTning 1970-yildagi Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiya, 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi hujjati, 1981-yildagi Intervensiyaga va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida, ularning mustaqilligi va suverenitetini muhofaza qilish haqidagi BMT deklaratsiyasi va boshqa shu kabi nufuzli xalqaro hujjatlarda aniq holda bayon etilgan.

5-§. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi

Xalqaro hayotda davlatdan ustun turuvchi hokimiyat mavjud emasligi tufayli kuch subyektlarning o'z ixtiyorida bo'ladi. Bunday sharoitda yagona yo'l — kuch ishlatishning huquqiy doiralarini belgilashdan iborat. BMT Ustavining 2-moddasi 4-bandiga muvofiq: «*Birlashgan Millatlar Tashkilotining barcha a'zolari har qanday davlatning hududiy daxl-*

sizligiga yoxud siyosiy mustaqilligiga zid ekani va, shuningdek, qaysidir jihatdan Birlashgan Millatlar maqsadlariga muvofiq emasligi tufayli kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatishdan tiyiladilar».

Kuch ishlatishni va kuch ishlatish bilan tahdid qilishni taqiqlash prinsipi BMT Ustavidagi va hozirgi zamon xalqaro huquqiga doir prinsiplar tizimida markaziy o'rin tutadi. Ushbu prinsip bir qator ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro hujjatlarda tasdiqlangan, rivojlantirilgan hamda aniqlashtirilgan. Ulardan BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya (1970-yil), Agressiya ta'rifi (1974-yil), Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi hujjati (1975-yil) hamda Xalqaro munosabatlarda kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan voz kechish prinsipi samaradorligini kuchaytirish to'g'risidagi deklaratsiyani (1987-yil) alohida tilga olish o'rinlidir.

Kuch ishlatmaslik prinsipining normativ mazmun-munosabatlari darajasiga quyidagilar kiradi: xalqaro huquq normalariga xilof ravishda boshqa davlat hududi okkupatsiya qilinishini taqiqlash, kuch ishlatish bilan bog'liq repressaliy aktlarini, uchinchi bir davlatga qarshi agressiya sodir etishi uchun davlatning boshqa davlatga o'z hududidan joy berib turishini, boshqa davlatdagi fuqarolik urushi yoki terrorchilik harakatlari gijgijlash, yordam ko'rsatish yoxud bunday harakatlarda ishtirok etish, boshqa davlat hududiga bostirib kirish uchun qurolli bandalar, noregulyar kuchlar, xususan, yollanma kuchlarni tashkillashtirish yoki rag'batlantirish. Kuch ishlatmaslik prinsipining buzilishiga, shuningdek, demarkatsiya chiziqlari va sulh chiziqlariga nisbatan tajovuzkorona xatti-harakatlarni, davlatga qarashli bandargohlar yoki qirg'oqlarning qamal qilinishini, xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashdek qonuniy huquqini ro'yobga chiqarishiga to'sqinlik qiladigan va boshqa har qanday tajovuzkorona harakatlar misol bo'la oladi.

Shunga qaramasdan, BMT Ustavida baribir ikki holatdagina kuch ishlatish yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilish ko'zda tutilgan. Bular: o'zini o'zi mudofaa qilish (BMT Ustavi, 51-m) maqsadida hamda tinchlikka tahdid solingan, tinchlik osoyishtalik buzilgan yoki agressiya akti sodir bo'lgan taqdirda BMT Xavfsizlik Kengashi qarori (BMT Ustavi, 39 va 42-m)ga asosan kelib chiqadigan holatlardir.

«Kuch» tushunchasi, birinchi navbatda, agressiv urushni qamrab oladi. BMT Xavfsizlik Kengashi 1974-yil 14-dekabrda qabul qilgan ta'rifga ko'ra: *agressiya muayyan davlat tomonidan boshqa bir davlatning suverenitetiga, hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi qurolli kuch ishlatilishidir.* Ko'rinib turibdiki, bu o'rinda yetarli darajada keng ko'lamlı harbiy harakatlar nazarda tutilmoqda.

Agressiya subyekti ham, obyektı ham faqatgina davlatlar bo'lishi

mumkin. Nodavlat tuzilmalarga qarshi qurolli kuch ishlatilishi bunga kirmaydi.

Agressiya nafaqat jabrlanuvchi davlat, balki butun xalqaro hamjamiyat manfaatlariga jinoyatkorona tajovuz qilish demakdir, chunki bu bilan yalpi tinchlik va xavfsizlik xatar ostida qoladi. Shu bois agressiya aktini sodir etmaslik majburiyati to'liq xalqaro hamjamiyat munosabatlariga taalluqli majburiyatlar toifasiga tegishlidir.

Kuch bilan tahdid qilish deganda, avvalo, qurolli kuch ishlatish xavfi ko'zda tutiladi. Boshqa turdagi voqelikka to'xtaladigan bo'lsak, davlatning hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga ziyon yetkazishga qodir bo'lgan ko'lamdagi aksiyalarni amalga oshirish taqiqlanadi.

O'zini o'zi himoya qilish huquqi hujum qurboniga aylangan davlatga tegishlidir. Ushbu davlat bu huquqdan foydalanish tartibi haqidagi masalani hal etadi. U hujum qilingani fakti to'g'risida bayonot berishi va bu haqda BMT Xavfsizlik Kengashiga zudlik bilan xabar qilishi zarur. Bunday xabarning yo'qligi tegishli davlat o'zini o'zi himoya qilish haqida so'z yuritmayotganining dalili sifatida baholanishi mumkin.

BMT Ustavida nafaqat yakka tartibda, balki jamoa bo'lib o'zini o'zi himoya qilish huquqi ham ko'zda tutilgan. Jamoa bo'lib o'zini o'zi himoya qilish to'g'risidagi qaror hujumga duchor bo'lgan davlat tomonidan qabul qilinadi. Uning iltimosisiz uchinchi davlatlar jamoa bo'lib o'zini o'zi himoya qilish tartibida chora qo'llash huquqiga ega emas.

Jabranuvchi davlat so'rovidan keyin jamoa bo'lib o'zini o'zi himoya qilish tartibida chora qo'llash huquqi barcha davlatlarga taalluqli hisoblanadi.

Kuch ishlatmaslik prinsipida kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llash evaziga hududga ega bo'lish hollari uchun sanksiya ko'zda tutilgan.

6-§. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi

Mazkur prinsip BMT Ustavida va xalqaro huquq prinsiplari bayon etilgan barcha xalqaro aktlarda mustahkamlab qo'yilgan. BMT Bosh Assambleyasining bir qator rezolyutsiyalari aynan shunga bag'ishlangan. BMT Ustaviga (2-moddaning 3-bandi) muvofiq 1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiyada ushbu prinsip quyidagicha ifoda etilgan: «Har bir davlat o'zining boshqa davlatlar bilan munosabatda yuzaga kelgan xalqaro nizolarini tinch yo'l bilan shunday tartibda hal etsinki, toki xalqaro tinchlik va xavfsizlik hamda adolat xavf-xatar ostida qolmasin».

Mintaqaviy aktlarda ham nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi xuddi shu mazmunda mustahkamlangan.

Nizolashayotgan tomonlar tinch yo'l bilan barqarorlashtirishdan bosh tortish huquqiga ega emas va hech qanday nizoni ushbu prinsip ta'sir doirasidan istisno qila olmaydi.

Hozirgi sharoitda tinchlikni ta'minlash manfaatlari nafaqat mavjud nizolarni hal etishni, balki nizo yuzaga kelishining oldini olish, mojaro-lar profilaktikasi bilan shug'ullanishni ham taqozo etmoqda.

Nizoni hal etish jarayonida yoki nizo vaziyatida nizolashayotgan tomonlar, shuningdek, boshqa davlatlar tinchlik va xavfsizlikni saqlash-ga xavf soladigan darajada vaziyatni qaltislashtirib yuborishi mumkin bo'lgan har qanday harakatlardan tiyilib turishga majburdir.

7-§. Xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi

Xalqaro huquq rivojlanishi jarayonida shakllangan boshqa prinsip-lardan farqli o'laroq, ushbu prinsip shu huquq bilan birgalikda qaror topgan. Mazkur prinsip bo'lmaganda, xalqaro huquq huquq deb hisoblan-mas edi va aynan unda xalqaro huquqning yuridik kuch manbayi mu-jassamlashgandir. Ushbu prinsip bo'yicha davlatlar o'rtasida xalqaro huquq normalarining yuridik kuchga egaligini tan olish to'g'risida bit-mlar tasdiqlangan.

BMT Ustavining 2-moddasida ko'rsatilishicha, BMT barcha a'zolarining «Tashkilot a'zolari tarkibiga mansubligidan kelib chiqadigan yalpi huquq va imtiyozlarini ta'minlash uchun ular mazkur Ustav bo'yicha o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni vijdonan bajaradilar» (2-band).

EXHK Yakunlovchi aktida o'z suveren huquqlarini, shu jumladan o'z qonunlari va ma'muriy tartib-qoidalarini o'rnatar ekan, davlatlar zimmalaridagi majburiyatlarini xalqaro huquq bo'yicha muvofiqlash-tirib olishlari zarurligi haqida alohida qoida mavjud.

Xalqaro shartnomalarni sidqidildan bajarish prinsipi — xalqaro huquq-ning imperativ prinsipi bo'lib, uning ta'sir kuchi qanday mazmunga va manbaga xosligidan qat'i nazar, har qanday haqiqiy xalqaro majburiyat-laming (shartnomalar, odatlar, xalqaro organlarning majburiy qarorlari, bir tomonlama hujjatlar) sidqidildan bajarilishini taqozo etadi. U fundamental umumiy prinsiplar va xalqaro huquqning qat'iy qoidalari toifasiga kiradi.

Xalqaro majburiyatning bajarilmaganligi yoki tegishlicha bajarilma-ganiga asos sifatida milliy qonunchilikka havola qilinishi mutlaqo mumkin emas. Sidqidildan bajarish prinsipi taqozo etadigan talablardan yana biri shuki, xalqaro huquq bo'yicha o'zining majburiyatlarini sidqidildan bajarmaydigan xalqaro huquq subyekti buning uchun belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Mazkur prinsip O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ham mus-tahkamlangan. Masalan, 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunning 27-moddasida shunday deyilgan: «O'zbekiston Respublika-sining xalqaro shartnomalariga O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq

normalariga muvofiq qat'iy va majburiy ravishda rioya etmog'i lozim»¹.

Xalqaro majburiyatlarning bajarilishi yuzasidan huquqiy davlatgina ishonchli kafolat berishga qodirdir. Boshqa bir jihatdan esa, xalqaro majburiyatlarga sodiqlik huquqiy davlatga xos sifat ekanini e'tirof etish o'rinalidir.

Ushbu prinsipning uzviy qismi sifatida vijdoniylik prinsipi quyidagi majburiyatlarni ko'zda tutadi:

— faktik shart-sharoitni, davlatlar va normalar ta'sir doirasiga kiruvchi xalqaro hamjamiyat manfaatlarini vijdonan aniqlash;

— qo'llash ko'zda tutiladigan normalarni vijdonan tanlash;

— normalarning amalda tatbiq etilishi ularning shakl va mazmuniga, xalqaro huquq va axloqqa, shuningdek, subyektlar zimmasidagi boshqa majburiyatlarga to'liq mos kelishini ta'minlash;

— huquqlarni suiiste'mol qilishga yo'l qo'ymaslik.

Majburiyatlarning vijdonan bajarilishi o'zaro bog'liqlikni taqozo etadi. Normani buzuvchi tomon shu normada ko'zda tutilgan o'z huquqlaridan foydalanishni ham da'vo qilmasligi shart. Huquqlardan foydalanish imkoniyatidan mahrum etish repressaliyaning muhim turi sanaladi.

8-§. Hududiy yaxlitlik prinsipi

BMT Ustavi davlatlarning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llashdan tiyilib turishga majbur etadi (2-moddaning 4-bandi).

Hudud boshqa davlatning kuch bilan tahdid qilishi yoki uni qo'llashi evaziga egallab olinadigan obyekt bo'lmasligi kerak. Kuch bilan tahdid qilish yoki uni qo'llash natijasida biron-bir hududning egallanishi tan olinmaydi.

1975-yildagi YXHK Yakunlovchi aktida hududiy yaxlitlik prinsip sifatida qayd etildi. Aktga muvofiq, BMT Ustaviga mos kelmaydigan, davlatning hududiy yaxlitligi yoki birligiga qarshi har qanday xatti-harakatlar taqiqlangan. Bundan kelib chiqadiki, hududiy yaxlitlikka qarshi yo'naltirilmagan va BMT Ustaviga mos keladigan harakatlarga yo'l qo'yilishi mumkin.

Hududiy yaxlitlik to'g'risida mintaqaviy birlashmalarning barcha ta'sis hujjatlarida so'z yuritiladi. Amerika Davlatlari Tashkiloti Ustavida hududiy yaxlitlikni himoyalash bosh maqsadlardan biri etib belgilangan (1-modda). Xuddi shunday qoida Afrika Birdamligi Tashkiloti Xartiyasida ham mavjud (2 va 3-moddalar).

Davlat hududining yaxlitligi va daxlsizligi prinsipi undan, jumladan uning tabiiy boyliklaridan suveren davlat roziligisiz foydalanishga yo'l qo'yilmasligini ham bildiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1996. №12. — 262-m.

9-§. Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi

Bu prinsip BMT Ustavida: «Millatlar o'rtasida do'stona munosabatlarni xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipini hurmat qilish asosida rivojlantirish, shuningdek, yalpi tinchlikni mustahkamlash uchun boshqa tegishli choralar qo'llash»ni ko'zda tutuvchi ushbu Tashkilotga xos maqsadlardan biri sifatida ifoda etilgan (1-moddaning 2-bandi).

Bu yerda gap xalqaro munosabatlar haqida bormoqda, chunki Ustavda «millat» atamasi «davlat»¹ degan mazmunda qo'llanilgan. Bu munosabatlar barcha xalqlarning teng huquqliligi va ulardan har biri o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega ekanini hisobga olgan holda ro'yobga chiqarilishi zarur.

Mazkur prinsip birinchi navbatda mustamlakachilikka qarshi yo'naltirilgandir. Shunday ekan, o'z-o'zidan, asosiy e'tibor prinsipning tashqi jihatiga — chet el istibdodi, zulmidan ozod bo'lishga qaratilgan. Bu borada o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini amalga oshirish yo'llari ko'rsatib berilgan. Avvalambor, mustaqil davlat barpo etish, so'ngra mustaqil davlatga qo'shilish yoxud u bilan birlashish yoki boshqa har qanday siyosiy maqom o'rnatish ko'zda tutilgan.

1966-yilgi Inson huquqlari bo'yicha xalqaro paktlarning dastlabki moddalarida: «barcha xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga ega» ekani mustahkamlab qo'yilishi bilan o'z taqdirini o'zi belgilash hamda inson huquqlari o'rtasidagi bog'liqlik tasdig'ini topdi. Etnik, diniy va til jihatidan ozchilikni tashkil etuvchilarga kelsak, ularga mansub shaxslarga xuddi shu guruhlarning boshqa a'zolari bilan birgalikda o'z madaniyatidan bahramand bo'lish, o'z diniga e'tiqod qilish va shu din marosimlarini ado etish, shuningdek, ona tilidan foydalanishni taqiqlash mumkin emas (1996-yil 16-dekabrda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 27-moddasi)².

Ushbu qoidalar BMT Bosh Assambleyasining 1992-yildagi Milliy yoki etnik, diniy va til jihatidan ozchilikni tashkil etuvchi shaxslar huquqlari to'g'risidagi deklaratsiyada yanada rivojlantirilgan. Davlatlar «o'zlariga tegishli hududlarda» bunday ozchilikning «mavjudligi va o'ziga xosligini» saqlab turishga va ana shu o'ziga xoslikning rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishni rag'batlantirishga majburdir. Shu bilan birga mazkur Deklaratsiya BMT maqsad va prinsiplariga, shu jumladan davlatning suveren tengligi, hududiy yaxlitligi va siyosiy mustaqilligiga mos

¹ «Birlashgan Millatlar Tashkiloti» nomi « Birlashgan Davlatlar Tashkiloti» tarzida tarjima qilinsa, to'g'riroq bo'lur edi.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. / Mas'ul muharrir — A.X. Saidov. — T. 2002. —64-b.

kelmaydigan biron-bir xatti-harakatga yo'l qo'yadigan mazmunda talqin etilishi mumkin emasligi yana bir bor ta'kidlanadi.

Yevropada mustamlakachilik muammosi mavjud emasligidan kelib chiqib, YXHK Yakunlovchi aktida prinsipning nomi quyidagicha o'zgartirilgan: «Teng huquqlilik va xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi». Unda: «barcha xalqlar har doim to'la-to'kis erkinlik sharoitida o'z ichki va tashqi siyosiy maqomini tashqi aralashuvlarsiz, qachon va qanday istaklariga qarab belgilash hamda o'z xohish-istaklari asosida o'zlarining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot yo'lidan borish huquqiga ega» ekani belgilab qo'yilgan (VIII prinsip)¹.

Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egaligi prinsipining hozirgi davrdagi normativ mazmuni xalqlarning huquqlari bilan birga davlatlarning shunga tegishli majburiyatlarini ham o'zida qamrab oladi. Aytaylik, xalqlarning erkin, hech qanday tashqi aralashuvlarsiz o'z siyosiy maqomini belgilash hamda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishni ro'yobga chiqarish huquqi davlatlarning nafaqat ushbu huquqni hurmat qilish, ayni chog'da hamjihatlikdagi va alohida sa'y-harakatlar orqali unga ko'maklashishdan iborat majburiyatlariga muvofiqdir.

Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash huquqiga egaligi prinsipi xalqlarning huquqi, ammo majburiyati emas. Ushbu huquq turli xil variantlarda ro'yobga chiqarilishi mumkin. O'z taqdirini o'zi belgilash ayirmachilik negizida, suveren davlatlar hududiy yaxlitligi va siyosiy hamjihatligiga ziyon yetkazadigan tarzda amalga oshirilmaligi kerak. Modomiki, xalq o'zini rasmiy jihatdan namoyon etadigan va ommaviy-huquqiy vazifalarni bajaradigan organni yaratgan bo'lsa, u holda o'z taqdirini o'zi belgilash jarayoniga tashqaridan xalal beruvchi har qanday tajovuzkorona xatti-harakat davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va suveren tengligi prinsiplariga xilof harakatlar sifatida baholanishi mumkin.

10-§. Hamkorlik prinsipi

Har tomonlama hamkorlik g'oyasi BMT Ustavida o'z ifodasini topgan. U 1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari Deklaratsiyasida prinsip sifatida shakllantirilgan. Ushbu prinsip davlatlar zimmasiga ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishidagi farqlanishlardan qat'i nazar, bir-biri bilan o'zaro hamkorlik qilish majburiyatini yuklaydi. Hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

birinchidan, tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash;

¹ Qarang: Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 14-b.

ikkinchidan, inson huquqlarini yalpi hurmat qilish;

uchinchidan, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnik va savdo sohasida xalqaro munosabatlarni suveren tenglik va aralashmaslik prinsiplariga muvofiq amalga oshirish;

to'rtinchidan, BMT bilan hamkorlik qilish va uning Ustavida ko'zda tutilgan choralarni qo'llash;

beshinchidan, dunyo miqyosida, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy yuksalishga ko'maklashish.

Har tomonlama hamkorlik g'oyasi BMT Ustavida (1-modda, 3-band) ta'kidlanganidek, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish maqsadini ko'zlaydi. Bunday hamkorlik xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlashdagina barcha davlatlarning majburiyati hisoblanadi»¹.

Hamkorlik prinsipi huquqiy kategoriya sifatida Ustavning boshqa qoidalari, xususan 55 va 56-moddalari qoidalaridan kelib chiqadi. Masalan, 55-modda mazmuni BMT organlarining ikki xil majburiyatlari mavjudligidan dalolat beradi: davlatlarning Ustavda ko'zda tutilgan maqsadlariga erishish yo'lida bir-birlari bilan hamkorlik qilish majburiyati va ularning xuddi shu maqsadlarga erishish uchun BMT bilan hamkorlik qilish majburiyati.

Davlatlar o'rtasidagi hamkorlik prinsipi BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada (1970-yil) uzil-kesil shakllantirilgan bo'lib, jumladan unda aytiladiki, davlatlar o'zlarining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlaridagi farqlardan qat'i nazar, bir-birlari bilan hamkorlik qilishga majburdir. Shuningdek, hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Bu yo'nalishlar sirasiga: tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish; inson huquqlarini yalpi hurmat qilish; iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, texnikaviy va savdo-sotiq sohalarida suveren tenglik va aralashmaslik prinsiplariga muvofiq ravishda xalqaro munosabatlarni amalga oshirish; BMT bilan hamkorlik qilish va uning Ustavida ko'zda tutilgan choralarni qo'llash; butun dunyoda, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy yuksalishga ko'maklashish kabilar kiradi.

11-§. Inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi

BMT Ustavida urush talafotlaridan xalos bo'lish vazifasidan keyin «asosiy inson huquqlariga ishonchni qaytadan tasdiqlash» ikkinchi eng

¹ Qarang: Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nizomi // Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar // Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2004.—3-b.

muhim vazifa sifatida belgilangan. Inson huquqlarini hurmat qilishni rag'batlantirish BMT maqsadlari qatorining uchinchi bandidan joy olgan. Shunga qaramay, 1970-yilgi Xalqaro huquq prinsiplari Deklaratsiyasida u mustaqil prinsip sifatida ko'rsatilmagan. Unda teng huquqlilik va o'z taqdirini o'zi belgilash, shuningdek, hamkorlik prinsiplarini bayon etishdagina inson huquqlarini hurmat qilish haqida so'z boradi.

BMT Ustavini rivojlantirish yo'lida 1948-yili Bosh Assambleya Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini bir ovozdan qabul qildi. Bu hujjatda asosiy fuqaroviy va siyosiy, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar o'z aksini topgan. Inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi 1975-yildagi YXHK Yakunlovchi aktida davlat huquqlariga doir prinsiplar bayonidan keyin yettinchi o'rinda qayd etilgan bo'lsa-da, mazkur hujjatda u ilk bor xalqaro huquqning mustaqil prinsipi sifatida ifoda etildi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida mazkur prinsip konsepsiyasining o'zi ham o'zgarib bormoqda. Ilgari u davlat ichkarisida sodir bo'lgan barcha hodisalarga daxldor sanalar edi. Endilikda ushbu prinsipning mazmun-mohiyati har bir davlatning uni o'z ichki huquqida mujassamlashtirish borasidagi mas'uliyatini ko'zda tutadi. Inson huquqlariga nisbatan hurmat davlatlarning xalqaro majburiyatidir, ayni chog'da ushbu majburiyat faqat milliy doiradagina ro'yobga chiqishi mumkin. Aksariyat mamlakatlar, shu jumladan O'zbekistonda inson huquqlari to'g'risidagi umume'tirof etilgan xalqaro normalar konstitutsiyaviy tartibda mustahkamlab qo'yilgan. O'zbekiston Konstitutsiyasining II bo'limida umume'tirof etilgan inson va fuqarolarning huquq va erkinliklari mustahkamlangan. Ushbu huquq va erkinliklar xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsipi va normalariga binoan tan olingan va kafolatlangandir.

Xalqaro aktlar tahlili inson huquqlarini hurmat qilish prinsipining quyidagi eng muhim qoidalarini qayd etish imkonini berdi:

birinchidan, insoniyatga bo'lgan qadr-qimmat, shuningdek, erkinlik, adolat va yalpi tinchlik ularning teng va ajralmas, daxlsiz huquqlari sifatida tan olinishi kerak;

ikkinchidan, har bir davlat birgalikda va mustaqil sa'y-harakatlar ko'rsatish yo'li bilan BMT Ustavida ko'zda tutilgan inson huquqlari va asosiy erkinliklarini yalpi hurmat qilish borasida ko'maklashishi shart;

uchinchidan, inson huquqlarini qonun chiqaruvchi hokimiyat muhofaza qilishi kerakki, bu milliy tinch-totuvlik va huquqiy tartibotni ta'minlaydi, inson so'nggi vosita sifatida zulm va zo'ravonlikka qarshi bosh ko'tarishga majbur bo'lmaydi;

to'rtinchidan, davlat o'z yurisdiksiyasi doirasida bo'lgan barcha shaxslarning xalqaro huquq tan olgan huquq va erkinliklarini hurmat

qilishga va ularni ana shu huquq va erkinliklar bilan ta'minlashga majbur;

beshinchidan, har bir inson boshqa kishilar va o'zi mansub jamiyat va davlat oldida muayyan majburiyatga egadir;

oltinchidan, davlat insonning o'z huquqlarini bilish va shu huquq bo'yicha ish ko'rish borasidagi huquqini ta'minlash zarur.

Xalqaro huquqning ushbu prinsipi BMT Ustavida qayd etilgan paytdan boshlab yuzaga kelgani va uni umume'tirof etilgani bugun hech kimda shubha uyg'otmaydi. Uning mazmuni, avvalo, barcha davlatlarning o'z yurisdiksiyasi doirasida asosiy, ya'ni individlarning huquqiy maqomi tavsifi uchun muhim va xos jihatlarni — inson huquq va erkinliklarini himoyalashni ta'min etish majburiyatini ko'zda tutadi. Bu huquqlar davlatlarning ichki huquqida qanday shaklda mustahkamlanadi va ularga rioya etilishi qaysi vositalar orqali ta'minlanadi — bu masala har bir davlatning ichki vakolatiga taalluqlidir. Inson huquqlarini ijtimoiy to'ldirib berish, ta'minlash va ro'yobga chiqarish borasidagi izchillik davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qurilishiga bog'liqdir.

Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini bevosita reglamentatsiya qilish va himoyalash hali ham to'liq har bir davlatning ichki ishi bo'lib qolmoqda, inson huquqlariga doir xalqaro normalarning aksariyatini esa, bevosita davlatlar hududida qo'llab bo'lmaydi va bu muayyan implemetsiya jarayonlarini taqozo etadi.

12-§. Chegaralarning buzilmasligi prinsipi

Chegaralarning buzilmasligi prinsipi 1975-yildagi YXHK Yakunlovchi aktida mustaqil prinsip sifatida mustahkamlangan. Ushbu prinsip Yevropadagi barcha davlatlar chegaralari buzilmasligining tan olinishi majburiyatini ko'zda tutadi. Gap shundaki, Ikkinchi jahon urushida g'olib chiqqan davlatlar urushdan keyin o'rnatilgan chegaralarni doim ham tan olavermasdilar va bu hol xalqaro munosabatlarni murakkablashtirardi. XX asrning 70-yillari boshida xalqaro munosabatlardagi keskinlik biroz susayishi munosabati bilan Ikkinchi jahon urushi yakunlarini yuridik rasmiylashtirish amalga oshirildi: amaldagi chegaralarning tan olinishini mustahkamlovchi bir nechta ikki tomonlama bitimlar tuzildi.

A'zo davlatlar nafaqat kuch bilan ta'minlangan, balki boshqa davlatlar hududlarini to'liq yoki qisman bosib olishga qaratilgan har qanday talab yoxud xatti-harakatlardan tiyilish majburiyatini o'z zimmalariga oldilar. Shu bilan birga, xalqaro huquqqa muvofiq, tinch yo'l bilan va bitim asosida chegaralarni o'zgartirish imkoniyati ham nazarda tutildi.

Yevropa davlatlari xavfsizligining eng muhim negizlaridan biri davlatlar chegaralarining buzilmasligi prinsipidir.

Ushbu prinsipning asosiy mazmuni quyidagi uchta unsur misolida namoyon bo'ladi:

birinchidan, mavjud chegarani xalqaro huquqqa muvofiq yuridik jihatdan o'rnatilgan deb tan olish;

ikkinchidan, ayni paytda va kelgusida ham hududga doir qandaydir da'volardan voz kechish;

uchinchidan, ushbu chegaralarga har qanday yo'l bilan, shu jumladan kuch ishlatish yoki uni ishlatish tahdidi bilan tajovuz qilishdan voz kechish.

Davlatlar chegaralarining buzilmasligi prinsiplari 1975-yildagi Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi Yakunlovchi hujjatida bir qadar to'liq shaklda bayon etilgan: «Ishtirok etuvchi davlatlar har birining chegaralarini, shu jumladan Yevropadagi barcha davlatlarning chegaralarini buzilmas deb biladilar va shu bois, ular endilikda hamda kelajakda bu chegaralarga nisbatan har qanday tajovuzlardan o'zlarini tiyib turadilar»¹.

BMT Ustaviga muvofiq davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlar va o'zaro hamkorlikka doir xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada (1970-yil) ushbu prinsip mazmuni kuch ishlatmaslik prinsipi bilan uyg'un holda keladi: «Har bir davlat boshqa davlatning mavjud xalqaro chegaralarini buzish maqsadida yoki xalqaro nizolarni, shu jumladan hududga doir hamda davlatlar chegaralariga taalluqli nizolarni hal etish vositasi sifatida kuch ishlatishdan yoxud kuch ishlatish tahdididan tiyilib turishga majbur».

13-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquqning asosiy prinsiplari

Xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari zamonaviy xalqaro huquqning asosiy mohiyatini namoyon etuvchi, ustun bo'lgan universal normalardir. U xalqaro hamjamiyat qabul qiladigan va tegishli xalqaro-huquqiy hujjatlarda umume'tirof etilgan normalar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu normalar, birinchidan, umumiy tinchlik va xalqaro xavfsizlikni ta'minlab berishning; ikkinchidan, xalqlar ozodligi va mustaqilligini ta'minlab berishning; uchinchidan, davlatlar orasidagi ijobiy aloqalarining; o'zaro umumiy manfaatlarni va ishonchni ta'minlashning huquqiy asosi hisoblanadi. Umum e'tirof etilgan prinsiplar va normalar ahamiyati va o'rnining oshib borishi hozirgi zamonaviy huquqning xususiyatlaridan biridir.

Xalqaro huquqning ko'pgina prinsiplari BMT Ustavining 2-mod-

¹ Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002.—12-b.

dasida o'z aksini topgan. 1970-yilda qabul qilingan Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyada ushbu prinsiplar kengroq berilgan. Bundan tashqari, BMT Ustavi hamda Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining 1975-yilgi Yakunlovchi aktida ham ular chuqur talqin etilgan.

Xalqaro huquqning u yoki bu shaklda umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari zamonaviy davlatlarning Konstitutsiyasiga kiritilgan bo'lib, qonunchilik hamda ijro etuvchi va sud hokimiyatining faoliyati ushbu prinsiplarga mos kelishi lozim. Ular O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bobida ham o'z aksini topgan.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida mustahkamlangan suveren tenglik prinsipi davlatlarning o'ziga xosligi, mustaqilligini hurmat qilish, huquq va erkinliklarni kafolatlash, o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy tizimini erkin tanlashi, mustaqil ravishda o'zining qonunlari va ma'muriy qoidalarini o'rnatishni bildiradi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida xalqaro munosabatlarda xalqaro huquqning ustuvor prinsiplari bo'lishi xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashlari huquqi to'g'risida gap boradi. Shu narsani ta'kidlash lozimki, ushbu prinsiplar davlatlarning xalqaro munosabatlarda faoliyat ko'rsatishining tartib qoidalaridir.

Xalqaro munosabatlarda suveren tenglik prinsipi har bir davlatni boshqa davlatlar bilan mustaqil ravishda va o'z xohishiga ko'ra aloqalarga kirishishini bildiradi, ya'ni muayyan davlat xalqaro huquq talablariga binoan xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishi, ko'p tomonlama, xususan ittifoqdosh shartnomalarda qatnashishi, betaraf bo'lish huquqiga ega bo'lishi demakdir. Ushbu prinsipdan kelib chiqib, O'zbekiston xalqaro munosabatlarning ko'pgina, ayniqsa mintaqaviy xavfsizlik muammolarini hal etishda o'zaro teng ravishda ishtirok etmoqda.

Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslikning konstitutsiyaviy prinsipi boshqa davlatga nisbatan bevosita yoki bilvosita ravishda kuch ishlatishga qaratilgan turli harakatlardan o'zlarini tiyishni anglatadi. BMT Ustavida (2-moddaning 4-bandi) «kuch» tushunchasi faqat qurolli kuchlarni emas, balki majbur etishning boshqa shakllarini ham bildiradi.

1970-yilda qabul qilingan Xalqaro huquqning prinsiplari to'g'risidagi Deklaratsiyaning muqaddimasida davlatlarning kuch ishlatishga yoki kuch bilan tahdid solishga qaratilgan barcha harakatlari man etiladi deb ochiqdan-ochiq yozib qo'yilgan. Hech qanday sabablar kuch ishlatishga yoki kuch bilan tahdid solishga asos bo'la olmaydi. Deklaratsiya ushbu prinsipning mohiyatiga yangi mazmun kiritib, uning harakat doirasini kengaytiradi. Unda boshqa a'zo davlatga nisbatan kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid solmaslik to'g'risidagi holatlar o'z aksini

topgan. Deklaratsiyada boshqa a'zo davlatga nisbatan kuch ishlatish, uning suveren huquqlarini cheklashga bo'lgan harakatlar, qandaydir repressaliylarga tortish man etiladi deb yozib qo'yilgan.

Zamonaviy xalqaro huquqning asosiy prinsiplari «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi qonunda mustahkamlab qo'yilgan¹.

O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosiy faoliyatida quyidagi asosiy prinsiplarga tayanadi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari va prinsiplariga, «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunga, «Mudofaa to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga, O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga, boshqa qonunlarga, Birlashgan Millatlar Tashkilotining prinsiplari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ratifikatsiya qilgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlarga asoslanadi;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlarga aralashish, mustaqillik va suverenitetni kamsitish hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishning har qanday ehtimolini istisno etuvchi teng huquqli va o'zaro foydali munosabatlarni barcha davlatlar bilan yo'lga qo'yadi;

to'rtinchidan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti hamda boshqa xalqaro tashkilotlar ishida faol ishtirok etish, Yevropa, Osiyo va jahon xavfsizlik tuzilmalariga integratsiyalashuv O'zbekiston Respublikasi tegishli tuzilmalarining tashqi siyosiy faoliyatidagi eng muhim vazifa hisoblanadi;

beshinchidan, O'zbekiston Respublikasi mamlakatning barqarorligini, sobitqadam rivojlanishi va milliy xavfsizligini ta'minlash imkonini beradigan, O'zbekiston Respublikasining jahon xo'jaligi aloqalariga axborot, texnologiya va kommunikatsiya jihatidan kirib borishiga ko'maklashadigan davlatlararo tuzilmalarga, shu jumladan iqtisodiy tuzilmalarga ustuvor ahamiyat beradi;

¹ «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997. № 2.—35-m.

oltinchidan, O'zbekiston Respublikasi «O'zbekiston Respublikasi-ning xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonunga va O'zbekiston Respublikasining Harbiy doktrinasiga muvofiq harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi. O'zbekiston Respublikasi har qanday davlatlararo tuzilmadan, bu tuzilma harbiy-siyosiy blokka aylantirilgan taqdirda, chiqish huq-qini o'zida saqlab qoladi;

yettinchidan, O'zbekiston Respublikasi mintaqadagi hamda undan tashqaridagi mojarolarning oldini olish va ularni bartaraf etish maqsa-dida hukumatlararo va hukumatga qarashli bo'lmagan tuzilmalarning ishida faol qatnashadi¹.

BESHINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARI

- 1-§. «Xalqaro huquq subyektlari» tushunchasi**
- 2-§. Davlat — xalqaro huquqning asosiy subyekti**
- 3-§. Xalqaro tashkilot xalqaro huquqning subyekti sifatida**
- 4-§. Mustaqil davlat barpo etish yo'lida kurashayotgan xalq, mil-lat — xalqaro huquq subyekti**
- 5-§. Xalqaro huquqning noan'anaviy subyektlari**
- 6-§. Individ — xalqaro huquq subyekti**
- 7-§. Transmilliy korporatsiyalar — xalqaro huquq subyekti**
- 8-§. O'zbekiston Respublikasi — xalqaro huquq subyekti**

1-§. «Xalqaro huquq subyektlari» tushunchasi

Xalqaro huquq subyekti o'z imkoniyatlari va yuridik xususiyatlari tufayli xalqaro huquq bo'yicha muayyan huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga va uning normalarini yaratish va amalda tatbiq etishda qat-nashishga qodir mustaqil tuzilmadir. Subyekt xalqaro huquqqa bevosita bo'ysunishi va mustaqil xalqaro maqomga ega bo'lishi zarur. Xalqaro huquq subyektlari maqomining o'ziga xosligi shundaki, ular nafaqat huquq va majburiyatlarni tashuvchi, balki xalqaro-huquqiy normalarni yaratish va amalda tatbiq etishda asosiy ta'sir etuvchi kuch vazifasini ham o'taydi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro huquq subyektlari jumlasiga xalqaro huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan hamda ularni xalqaro huquq asosida va doirasida ro'yobga chiqaradigan xalqaro munosabat-lar ishtirokchisini kiritish qabul qilingan. Xalqaro huquq subyekti —

¹ «O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1997. № 2. — 35-m.

o'zining imkoniyatlari va yuridik xususiyatlari evaziga xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga, ushbu normalarni yaratish va amalga oshirish jarayonida ishtirok etishga qodir mustaqil tuzilma.

Xalqaro huquq subyektlari quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

birinchidan, xalqaro ommaviy munosabatlar ishtirokchilari jamoaviy tuzilma hisoblanadi. Xalqaro munosabatlarning har bir ana shunday ishtirokchisi tashkilotga xos elementlarga: davlat— hokimiyati va boshqaruv apparatiga; kurashayotgan millat — mamlakat ichkarisida va xalqaro munosabatlarda uning vakilligini namoyon etadigan siyosiy organga; xalqaro tashkilot — doimiy ishlovchi organga va hokazolarga ega bo'ladi. Hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish chog'ida xalqaro huquq subyektlari nisbatan mustaqil va bir-birining irodasiga tobe emas. Ularning har biri mustaqil xalqaro-huquqiy maqomga ega, xalqaro-huquqiy munosabatlarda o'z nomidan ish yuritadi;

ikkinchidan, barcha subyektlar xalqaro normalarni ishlab chiqish va qabul qilishda mustaqil ishtirok etish layoqatiga ega. Shartnomaviy-huquqiy layoqatsizlik xalqaro huquq subyektiga xos muhim elementlardan sanaladi. Xalqaro huquq nazariyasida (aksariyat davlat ichki huquqi subyektlaridan farqli o'laroq) subyektlar shunchaki xalqaro-huquqiy normalar ijodkorlari emas, balki ularni yaratishda ishtirok etuvchi shaxslar hamdir.

Shuni ta'kidlash zarurki, huquqning alohida tizimi sifatida xalqaro huquq o'ziga xosligi, xalqaro huquq subyektiga xosligi va nihoyat xalqaro huquq subyektlilikning o'ziga xos jihatlarini belgilab berishi bilan ajralib turadi. Xalqaro huquq subyektligining mazmun-mohiyatini bunday subyektning xalqaro huquqiy normalaridan kelib chiqadigan asosiy huquq va majburiyatlari tashkil etadi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro huquq subyektlilik kelib chiqishiga ko'ra, faktik va yuridik qismlarga bo'linadi. Shunga mos ravishda, xalqaro huquq subyektlarining ikki xil — birlamchi (suveren) va hosila (nosuveren) kategoriyalari farqlanadi. Shuning uchun nazariyotda xalqaro huquq subyektlarini ikkita katta guruhga: birlamchi (asosiy) va ikkilamchi (hosila) sifatida tasniflash qabul qilingan.

Xalqaro huquq barcha subyektlarining umumiy xalqaro-huquqiy maqomi ularning asosiy huquq va majburiyatlarini tavsiflab beradi. Muayyan turdagi subyektlarga (davlatlarga, xalqaro tashkilotlarga va boshqalarga) xos bo'lgan huquq va majburiyatlar ushbu toifaga mansub subyektlarning alohida xalqaro-huquqiy maqomini tashkil etadi. Aniq bir subyektning huquq va majburiyatlari mujassamlilikda ana shu subyektning individual xalqaro-huquqiy maqomini tashkil etadi.

Shunday qilib, turli xalqaro huquq subyektlarining huquqiy holati bir xil emas, chunki ularga taalluqli xalqaro normalarni qo'llash va, o'z navbatida ular ishtirok etadigan xalqaro-huquqiy munosabatlar doirasi turlichadir.

Jismoniy shaxslar va davlat ichidagi tashkilotlar (shu jumladan, millatlararo, savdo-sotiq, sanoat kompaniyalari va korporatsiyalari) xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi. Ular davlatning favqulodda yurisdiksiyasida bo'ladi va ularning xalqaro maydondagi maqomi ichki qonunchilikda belgilab qo'yiladi.

2-§. Davlat — xalqaro huquqning asosiy subyekti

Davlatlar xalqaro huquqning birlamchi subyektlaridir. Ularning xalqaro-huquqiy layoqati tashkil topganlik fakti bilan birga paydo bo'ladi. Xalqaro huquqning boshqa subyektlari esa, bunday maqomga davlatlar tufayliga erishadilar.

Davlatlar xalqaro huquqning universal subyektlari hisoblanadi. Ular har qanday xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etish huquqiga egadir.

Xalqaro-huquqiy subyekti davlat nomidan vakil hisoblangan tegishli organlar yoki mansabdor shaxslar emas, balki davlatning o'zidir. Shu bois, «hukumatlararo» tashkilotlar, «hukumatlararo» bitimlar kabi iboralarni qo'llashda chalg'imaslik kerak. Bunday hollarning barchasida davlat xalqaro huquqning subyekti hisoblanadi va uning zimmasiga o'ziga tegishli organlar faoliyati uchun to'la javobgarlik mas'uliyati yuklangandir.

Xalqaro huquqda davlatlarning huquqlari va majburiyatlari ularning xalqaro-huquqiy maqomini tashkil etadi.

Xalqaro huquq nazariyasida davlatlar va mustaqil davlat tuzish yo'lida kurashayotgan millatlar va xalqlarning huquq subyektliligini e'tirof etish borasidagi munosabatlar turlicha bo'lsa-da, birlamchi subyekti subyektlar hisoblanadi.

Xalqaro huquqning birlamchi subyektlarini hech kim shunday holi-da yaratib qo'ymaydi. Ularning paydo bo'lishi — obyektiv reallik, ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy-tarixiy jarayoni natijasidir.

Suveren davlat xalqaro huquqning asosiy subyekti hisoblanadi. Davlat — aholiga xalqaro hamjamiyatda ishtirok etish, vakilligini namoyon qilish va manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo'ladigan tashkilot shakli. Davlat maqomini belgilaydigan normalar, birinchi navbatda, uning huquq subyektliligiga nisbatan joriy etiladi. Bir muncha cheklangan va vakillik yo'li bilan huquq subyektlilik belgilangan mavjud «qaram» davlatlarning masalasi quyidagi tartibda hal etiladi: davlatchilik shartlariga javob beradigan «qaram» davlat o'zining huquq subyektliligini saqlab

qoladi. Shu tariqa davlatlarning ham xalqaro hamjamiyatdagi o'rnini va tegishli salohiyatini belgilanadi.

Xalqaro-huquqiy adabiyotlarda azaldan quyidagi uchta elementga ega tuzilmalarga nisbatan «davlat» tushunchasi qo'llanib kelinadi:

- 1) suveren hokimiyat;
- 2) hudud;
- 3) aholi.

Xalqaro huquq nazariyasida suverenitet deganda, davlatning mustaqilligi, mamlakat ichkarisida davlat hokimiyatining ustunligi va cheklanmaganligi, shuningdek, boshqa davlatlar bilan o'zaro munosabatlardagi mustaqilligi va teng huquqligining yuridik ifodasi tushuniladi. Davlat suverenitetining xalqaro-huquqiy va ichki jihatlarini quyidagilardan iborat:

birinchidan, suverenitetning xalqaro-huquqiy jihati deganda, shu narsa anglashiladiki, xalqaro huquq o'z subyekti va xalqaro munosabatlar ish-tirokchisi sifatida davlat organlarini yoki alohida mansabdor shaxslarni emas, balki yaxlit holda davlatni ko'zda tutadi. Bunda davlatning tegishli vakolatga ega mansabdor shaxsi bajargan barcha xalqaro-huquqiy ahamiyatga ega harakatlarni shu davlat bajargan, deb hisoblanadi;

ikkinchidan, suverenitetning ichki jihati davlat hokimiyatining mamlakat ichkarisida va xorijda hududiy ustunligi va siyosiy mustaqilligini ko'zda tutadi.

Davlatning o'z suveren huquqlarini ro'yobga chiqarishida «yurisdiksiya» tushunchasi suverenitetning namoyon bo'lishi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ko'lamini jihatidan — to'liq va cheklangan yurisdiksiya, faoliyat sohasi bo'yicha — hududiy va ekstrahududiy, hokimiyatga xoslik mazmuniga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud yurisdiksiyalari farqlanadi.

Hududiy ustunlik mavqeidan kelib chiqqan holda, davlat o'z hududi doirasida to'liq yurisdiksiyani amalga oshiradi. Shaxsiy ustunlik mavqei nuqtayi nazaridan esa, xorijda o'z fuqarolariga nisbatan cheklangan yurisdiksiyani amalga oshiradi.

Tabiiyki, yurisdiksiya xalqaro huquqda tan olingan immunitetlarni saqlagan holda amalga oshirilishi kerak. Immunitet suveren tenglik prinsipidan kelib chiqadi. Ilgari immunitet mutlaq bo'lib, xorijiy davlatning har qanday faoliyatiga va uning mulkiga taalluqli hisoblanardi. XIX asr oxirlaridan boshlab to bugunga qadar cheklangan immunitet konsepsiyasi keng e'tirof etila boshlandi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, davlat suveren hokimiyat tashuvchisi (sohibi) sifatida o'z davlat hokimiyati mavqeidan kelib chiqib, sodir etadigan munosabatlar doirasi bilan cheklanadi.

Xalqaro huquq nazariyasida davlatlarning quyidagi asosiy huquqlari qayd etiladi:

- 1) suveren tenglik;
- 2) mustaqillik va o'zining barcha qonuniy huquqlarini ro'yobga chiqarish;
- 3) o'z hududi va shu hududdagi barcha shaxslar va mol-mulk ustidan (xalqaro huquqda tan olingan immunitetlarga amal qilingan holda) o'z yurisdiksiyasini joriy etish;
- 4) boshqa ichki davlatlar bilan teng huquqlilik;
- 5) tamomila o'zining ichki vakolatlariga kiradigan masalalarni hal etishda o'z mustaqilligini muhofazalash;
- 6) xalqaro hamjamiyatning boshqa a'zolari bilan hamkorlik qilish;
- 7) qurolli hujumga qarshi individual yoki jamoa tarzida o'zini o'zi mudofaa qilish.

Xalqaro huquq nazariyasida davlatlarning asosiy majburiyatlariga quyidagilar kiritiladi:

- boshqa davlatlar suverenitetini hurmat qilish;
- boshqa davlatlarning ichki va tashqi ishlariga aralashishdan tiyilib turish;
- boshqa davlat hududida nizolar qo'zg'ashdan tiyilib turish;
- inson huquqlarini hurmat qilish;
- xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini hurmat qilish;
- o'z hududida xalqaro ko'lamdagi tinchlikka tahdid solmaydigan shart-sharoit joriy etish;
- boshqa davlatlar bilan ikki o'rtada yuzaga kelgan nizolarni va o'zi jalb etilgan xalqaro ko'lamdagi mojaroli vaziyatlarni tinch vositalar yordamida hal etish;
- boshqa davlatning hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mustaqilligiga qarshi kuch ishlatish tahdididan yoxud kuch ishlatishdan yoki xalqaro huquqqa mos kelmaydigan boshqa xatti-harakatlardan tiyilib turish;
- alohida tartibda va boshqa davlatlar bilan hamjihatlikda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash;
- boshqa davlatning kuch ishlatmaslik prinsipiga xilof ravishda ortirgan hududlarini tan olishdan tiyilib turish;
- o'zining xalqaro majburiyatlarini sidqidildan bajarish;
- atrof-muhit muhofazasi borasida g'amxo'rlik qilish.

3-§. Xalqaro tashkilot xalqaro huquqning subyekti sifatida

Xalqaro tashkilot o'z ahamiyati jihatidan xalqaro huquqning ikkinchi subyekti hisoblanadi. Xalqaro tashkilotlar son jihatidan davlatlarga qaraganda anchagina ko'p bo'lsa-da, lekin huquqiy layoqati bo'yicha ularga nisbatan orqaroqda turadi. Xalqaro tashkilotlarning subyektlilik huquqi davlatlar ularga bergan vakolatlardan kelib chiqadi. Xalqaro tashkilotlarning vakolatlari ularning maqsadi va vazifalari doirasi bilan cheklan-

gandir. Shu bois, xalqaro tashkilotlarning subyektlilik huquqi davlatlarning subyektlilik huquqi hosilasi va maxsus, ya'ni mazkur xalqaro tashkilot nizomida belgilangan maqsadlar va vakolatlar bilan chegaralangan hisoblanadi.

O'z a'zolari o'rtasida yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlardan qat'i nazar, xalqaro tashkilotlar muayyan umumiy manfaatlarning tashuvchilari sanaladi va ana shu manfaatlar himoyasi uchun safarbar etilganidir. Buning natijasi o'laroq, ular ta'sis hujjatlari va nizomda belgilangan doiralarda mustaqil faoliyat ko'rsatish erkinligidan foydalanadi.

Davlatlararo tashkilotlarning xalqaro subyektlilik huquqi bugungi kunda bir qator xalqaro hujjatlarda mustahkamlangan. Bu boradagi o'ziga xos jihatlarga BMT Xalqaro sudi ham jiddiy e'tibor qaratadi. U, jumladan, xalqaro tashkilot xalqaro huquq subyekti sifatida xalqaro huquqning o'ziga tegishli qoidalaridan kelib chiqadigan muayyan majburiyatlarga bog'liq ekanini belgilab bergan. Demak, xalqaro tashkilot uchun davlatlar tomonidan va tashkilot ishtirokisiz yaratilgan umumiy xalqaro huquq normalari ham majburiydir. BMT Xalqaro sudining belgilashi-cha, xalqaro tashkilotlarning biron-bir jihati ularga «davlatdan ustun turuvchi» qandaydir tuzilma sifatida yondashish uchun asos bo'la olmaydi. Xalqaro tashkilot davlatlar ustidan turuvchi hokimiyat emas, balki davlatlarning hamkorlik organidir. BMT Bosh Assambleyasi muntazam ta'kidlab kelayotganidek, BMTning kuch-qudrati unga a'zo davlatlarning o'zaro hamkorligiga bog'liq.

Xalqaro huquq nazariyasida «xalqaro huquq subyekti» tushunchasi tuzuvchi davlatlardan tashkil topgan klassik hukumatlararo tashkilotlar (BMT va boshqalar)ni, shuningdek, a'zolari shaxsiy sifati asosida faoliyat yuritadigan (xalqaro arbitrajlar, qo'mitalar, ekspertlar guruhlari va hokazolar) davlatlararo mexanizmlar va organlarni qamrab oladi. Bundan tashqari, hukumatlararo konferensiyalar xalqaro huquqning muvaqqat subyekti sifatida tan olinadi.

Xalqaro huquqning o'rganilayotgan subyektlarining xalqaro huquq subyektliligi ana shu tashkilotlarning ta'sis hujjatlari — ustav yoki bitimda (keng ma'noda — shartnomada) belgilab qo'yiladi. Shunday qilib, xalqaro tashkilotlarning huquq vakolatlarining ko'lamini ta'sis etuvchi davlatlar belgilaydi. Shartnomada subyektning muayyan huquqiy layoqat, ya'ni xalqaro munosabatlarda o'z nomidan ish ko'rish: davlatlar va hukumatlararo tashkilotlar bilan xalqaro shartnomalar tuzish, o'z nomidan qarorlar (masalan, o'z nizomi va tartib-qoidalarini, konferensiya rezolyutsiyalarini, xalqaro arbitraj qarorlar)ini qabul qilish huquqi ko'zda tutiladi. O'z nomidan ish ko'ruvchi xalqaro tashkilotlarning qarorlarini shu tashkilot tomonidan xalqaro subyektlilik huquqiga xoslikning namoyon bo'lishi sifatida tushunish lozim.

4-§. Mustaqil davlat barpo etish yo'lidagi kurashayotgan xalq, millat — xalqaro huquq subyekti

BMT Ustavining 1-moddasi: «Biz, Birlashgan Millatlar Xalqlari» degan ibora bilan boshlanadi. Xalqaro huquq nazariyasida, aynan BMT Ustavi 1-moddasidagi «xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilashi» atamasida «xalq» tushunchasi «millat» tushunchasiga nisbatan ancha aniq ifoda etilgan, zero hududda yagona millat sifatida shakllanmagan ko'p millatli aholi istiqomat qilishi ham mumkin. Ayrim xalqaro huquqshunos olimlar ilgari surayotgan nuqtayi nazarga ko'ra, suverenitet tashuvchilikka asosiy da'vogar xalq bo'lib, xuddi shunga muvofiq ravishda xalq xalqaro huquq subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bunda xalqaro huquq subyektliligi tan olinishi lozim. Xalq deganda, kamida — o'zining yaxlitligini e'tirof etuvchi muayyan iqtisodiy va madaniy-tarixiy birlik anglanishini ta'kidlash o'rindir. Millat haqida gap borganda, til jihati-dan umumiy xususiyati ham qo'shiladi.

1969-yildagi Mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi deklaratsiya, 1970-yildagi Xalqaro huquq prinsiplari to'g'risidagi deklaratsiya, 1993-yildagi Vena deklaratsiyasi va Harakat dasturi xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi mazmunini ochib bergan bo'lib, ularda ta'kidlanishicha, ushbu prinsip unga amal qiluvchi va davlat hokimiyati organlarida hech qanday kamситishlarsiz aholi barcha qatlamlari vakilligini ta'minlovchi davlatlarning hududiy yaxlitligi va siyosiy hamjihatligiga ziyon yetkazadigan tarzda talqin etilmasligi kerak.

Xalqaro amaliyotda o'z taqdirini o'zi belgilash shart hisoblangan unsur sifatida mustaqil davlatning ajralib chiqishi va tashkil topishi huquqiga, birinchidan, o'zini o'zi boshqarmaydigan hududlar (koloniyalar va boshqa tobe hududlar)ning xalqlari, ikkinchidan, u yoki bu davlatning konstitutsiyasiga muvofiq, bo'linib chiqish (ajralish) huquqiga ega hududlarda yashovchi xalqlar, uchinchidan, xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilashi prinsipiga amal qilmaydigan davlatda yashovchilar ham ega, deb e'tirof etiladi. Yuqorida qayd etilgan shart-sharoit yuzaga kelgan taqdirda faqat ajralib chiqish uchun qurolli kurash olib borayotgan xalqlargina o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipiga tayangan holda, o'zlarining xalqaro huquq subyektlari sifatida tan olinishiga da'vo qilish huquqiga ega.

5-§. Xalqaro huquqning noan'anaviy subyektlari

Xalqaro huquqning noan'anaviy subyektlari tarkibiga erkin shahar yoki Vatikan singari davlat sifatidagi tuzilmalar kiradi.

Erkin shahar — o'zini o'zi boshqaruvchi siyosiy tuzilma bo'lib, shart-

noma asosida berilgan xalqaro-huquqiy maqom bilan u iqtisodiy, madaniy va muayyan darajada siyosiy xalqaro-huquqiy munosabatlarda ishtirok etishi mumkin. Erkin shaharning tashkil etilishi xalqaro tartibot omillari bilan belgilanadi. Shu bois, uning uchun erkin shaharning xalqaro-huquqiy subyektligini belgilovchi xalqaro-huquqiy shartnoma oliy yuridik kuchga ega hujjat hisoblanadi.

Hozir erkin shaharlar mavjud emas, Birinchi va Ikkinchi jahon urushlaridan keyin tashkil topgan erkin shaharlar tez barham topdi.

Vatikan — shahar-davlat, Muqaddas taxt — katoliklar cherkovining xalqaro markaziy qarorgohi sanaladi. Vatikan o'ziga xos xalqaro-huquqiy layoqatga ega. U dunyoning 80 dan ortiq davlati, shu jumladan O'zbekiston bilan ham diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'ygan. Vatikan BMTda kuzatuvchi maqomiga ega bo'lib, YUNESKO, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO), Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) va boshqa bir qator tashkilotlarga a'zodir.

6-§. Indivud — xalqaro huquq subyekti

Xalqaro huquq bo'yicha adabiyotlarda individning ham cheklangan xalqaro-huquqiy layoqatga ega ekani xususida fikrlar mavjud. Bunda ushbu nazariya tarafdorlari, avvalambor, xalqaro huquq individ uchun bevosita huquq va majburiyatlar tug'dirishiga e'tiborni qaratadilar. Darhaqiqat, bu fikrlarda asos bor. Chunki xalqaro huquqda qarochilik, genotsid, aparteid singari bir qator jinoyatlar ma'lumki, Xalqaro jinoyat sudi yoki maxsus tuzilgan xalqaro jinoyat tribunali vositasida individ ustidan xalqaro jinoyat odil sudlovini amalga oshirish chog'ida mazkur jinoyatlarga to'g'ridan to'g'ri xalqaro jinoyat sifatida qaralishi mumkin.

Xalqaro huquqda ayrim harakatlar bo'yicha shunday qoidalar ham borki, unga ko'ra muayyan harakatni sodir etganida individ nafaqat o'zi fuqarosi bo'lgan davlat, balki boshqa manfaatdor davlatlarning ham yurisdiksiyasi hisoblanadi. Bunday qoida shaxs fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy aralashish aktini sodir etgan taqdirda amal qilishi mumkin.

Yana bir misol tariqasida insoniyatning kosmosga yo'llagan elchilari sifatida e'tirof etiladigan kosmonavtlarning alohida maqomini olish mumkin. Ular kosmik kema ichkarisida ushbu kema ro'yxatdan o'tgan davlatning mutlaq yurisdiksiyasiga bo'ysunadilar. Kemadan tashqarida, shuningdek, zarur hollarda kema ichida ham kosmonavt barcha davlatlardan ko'mak va homiylik talab qilish huquqiga ega.

Inson huquqlari to'g'risidagi hujjatlarda har qanday individga taalulqli huquqiy tartibga solish xususida yana bir muhim jihatni ko'rsatish mumkin.

Birinchiidan, 1950-yildagi Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasiga muvofiq individga davlatlar va jamoat birlashmalari bilan tengma-teng asosda Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga murojaat etish huquqi berilgan.

Ikkinchiidan, 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning Fakultativ protokoli bo'yicha individ Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaga shikoyat bilan murojaat qilish huquqiga ega.

Ammo ushbu holatlarning barchasida individ ega bo'ladigan huquqqa davlat vositachilik qilishi shart va uning roziligisiz bu huquqlar amal qilmaydi. Individ faqatgina alohida xalqaro shartnomada ko'zda tutilgan muayyan harakatni amalga oshirishi yoki amalga oshirmasligi mumkin.

7-§. Transmilliy korporatsiyalar — xalqaro huquq subyekti

Ayrim huquqshunos olimlarning fikricha, transmilliy korporatsiyalar ham ma'lum ma'noda xalqaro huquqning subyektlari hisoblanadi. Darhaqiqat, bu korporatsiyalar sanoat va moliya sarmoyasining o'ta harakatchanligi bilan ajralib turadi. Bunday harakatchanlik esa ularga o'zlarining faoliyat ko'rsatish sharoiti tobora kamdaromad bo'lib borayotgan davlatlar hududini zudlik bilan tark etish imkonini beradi. Transmilliy korporatsiyalarning doimiy ravishda monopoliyaga intilishi oxir-oqibat — jahon bozoriga ziyon yetkazmasligi uchun Transmilliy korporatsiyalarning xalqaro ko'lamda kelishilgan faoliyat doirasini yuzaga keltiruvchi xalqaro-huquqiy tartibga solishning ahamiyati kattadir. Hozirgacha bu sohada xalqaro shartnoma yaratish borasidagi intilishlar sezilarli natija bermayapti va BMT Savdo va taraqqiyot konferensiyasi (YuNKTAD) doirasida ishlab chiqilgan Transmilliy korporatsiyalar fe'l-atvori kodeksi ham tavsiyaviy hujjatligicha qolmoqda. Transmilliy korporatsiyalarning o'zlari esa, xalqaro huquq normalarini yaratmaydi: ularning davlatlar bilan o'zaro shartnomalari davlatlar o'rtasida va boshqa chet el yuridik shaxslari o'rtasida tuziladigan shartnomalardan farq qilmaydi.

8-§. O'zbekiston Respublikasi — xalqaro huquq subyekti

«O'zbekiston — xalqaro munosabatlarning to'laqonli subyekti» degan konstitutsiyaviy qoida O'zbekiston Respublikasining hozirgi dunyodagi o'rnini bildiribgina qolmay, mamlakatimizning haqiqatan ham xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismi ekanligini anglatadi.

Bu esa quyidagilarni anglatadi:

birinchiidan, O'zbekiston suveren davlat sifatida zamonaviy xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari bilan bog'liq,

boshqa majburiyatlar davlatimizning rozilgisiz zimmamizga yuklatilishi mumkin emas;

ikkinchidan, O'zbekiston hududida davlat hokimiyati chegaralanmaydi va xalqaro huquqning hech qaysi bir subyekti aralashish huquqiga ega emas, o'zining hududidan tashqarida u o'z hokimiyatini faqat boshqa manfaatdor davlat roziligi bo'lgandagina amalga oshirishi mumkin;

uchinchidan, O'zbekiston xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikki tomonlama va ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashadi.

Konstitutsiya asosida O'zbekiston Respublikasini xalqaro munosabatlarning teng huquqli subyekti ekanini bildiruvchi huquqiy asoslar yaratildi. O'zbekistonning tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta'minlab beruvchi davlat organlari shakllantirildi. Ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida hamda butun xalqimizning qatnashuvi natijasida mamlakatimiz Prezidenti va Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari saylandilar. Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyatining yo'nalishlari tubdan o'zgartirildi. Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi va Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi, tashqi savdo bilan shug'ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi shakllantirildi, xorijiy firma, bank va kompaniyalarning vakolatxonalarini ochildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari Konstitutsiyamizning 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topgan. «Tashqi siyosat» tushunchasi davlatning xalqaro ishlardagi umumiy kursini o'z ichiga oladi. Tashqi siyosat davlatning boshqa davlatlar va xalqlar hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro aloqalarini o'z ichiga oluvchi maqsad va vazifalarini qamrab oladi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati va xalqaro faoliyati O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalari va prinsiplariga asoslanadi.

Diplomatiya tashqi siyosatni amalga oshirishning o'ta muhim vositasi hisoblanadi. Aynan tashqi siyosat diplomatiyaning maqsad va vazifalarini, ya'ni tashqi siyosatni amalga oshirishda foydalaniladigan shakllar, vositalar va usullar, amaliy tadbirlar majmuasini namoyon etadi hamda belgilab beradi.

O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy maqsadi davlat suverenitetini himoya qilish, ijtimoiy yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirishga yordam beruvchi xalqaro sharoitlarni yaratish, tinchlik, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'zaro manfaatli hamkorlikni o'rnatishdir.

O'zbekiston Respublikasi o'zining tashqi siyosatini amalga oshirishda quyidagi ustuvor holatlardan kelib chiqadi:

birinchidan, milliy davlatchilik manfaatlarining ustuvorligi sharoitida o'zaro manfaatlarni to'liq hisobga olish;

ikkinchidan, insonlar va davlatlar orasidagi o'zaro munosabatlarda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligini tan olgan holda O'zbekiston xalqaro aloqalarda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, nizolarni tinch yo'l bilan bartaraf etishni yoqlab chiqmoqda. O'zbekiston yadro qurolidan ozod hudud bo'lib qoladi, agressiv ruhdagi harbiy blokklar va ittifoqlarga a'zo bo'lmaydi, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni tan oladi va o'z sodiqligini e'lon qiladi;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati tinchlik, o'zaro foyda, ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplariga, mustaqillikni va suverenitetni chegaralovchi hamda davlatlararo munosabatlarni mafkuralashtirishga qaratilgan harakatlarga yo'l qo'yilmaydigan prinsiplarga quriladi («O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati asosiy prinsiplari to'g'risidagi» qonunning 3-moddasi):

to'rtinchidan, O'zbekiston tashqi siyosatda ochiqlik prinsipini turli xil mafkuraviy qarashlardan xoli ravishda amalga oshirib, barcha tinchliksevar davlatlar bilan keng tashqi aloqalarni o'rnatmoqda;

beshinchidan, O'zbekiston xalqaro huquq normalarining milliy qonunchilikdan ustunligini tan oladi, xalqaro-huquqiy standartlarni hurmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan bo'lgan munosabatlari davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid solmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquqning boshqa norma va prinsiplariga asosan quriladi. Ushbu prinsiplarning Konstitutsiyada mustahkamlangani ushbu prinsiplarning O'zbekiston hududida ichki qonun sifatida qabul qilinishini hamda milliy qonunchilikni to'liq xalqaro qonunchilikka moslashtirilishini, ularning davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning to'liq hurmat qilishini bildiradi.

OLTINCHI MAVZU.

XALQARO-HUQUQIY SUBYEKTLILIK VA XALQARO HUQUQDA DAVLATNING TAN OLINISHI

- 1-§. Xalqaro huquqda «davlat» tushunchasi
- 2-§. Xalqaro huquqda «davlatlarning subyektlilik huquqi» tushunchasi
- 3-§. «Davlat yurisdiksiyasi» tushunchasi
- 4-§. «Davlat immuniteti» («daxlsizlik huquqi») tushunchasi
- 5-§. Xalqaro huquqda oddiy (unitar) va murakkab davlatlar

6-§. Xalqaro huquqda tan olish. Davlatlarni tan olish

7-§. Hukumatlarni tan olish

8-§. Xalqaro huquqda tan olishning boshqa turlari

1-§. Xalqaro huquqda «davlat» tushunchasi

Davlat xalqaro huquqning asosiy subyektidir. O'zida uch belgi — aholi, hudud va siyosiy hokimiyat birligini mujassam etuvchi «davlat» tushunchasi xalqaro-huquqiy adabiyotlar azaldan ishlatib kelinadi. Bu tushuncha xalqaro amaliyotda ham keng qo'llaniladi. Masalan, 1933-yildagi Davlatlarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi amerikalalararo konvensiyaning 1-moddasida xalqaro huquq subyekti sifatida davlatning quyidagi belgilari: doimiy aholi, muayyan hudud, hokimiyat va boshqa davlatlar bilan munosabatga kirishish layoqati qayd etilgan.

Davlat — aholining xalqaro muloqotdagi ishtirokini tashkil qilishning zaruriy shakli. Xalq suverenitetining tashuvchisi sifatida davlat xalqaro hamjamiyatda xalq nomidan vakillik qiladi va uning manfaatlarini himoya etadi. Davlat xalqaro munosabatlarning boshqa ishtirokchilari, milliy tuzilmalar, jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasidagi aloqalarning asosiy qismini o'z nazorati ostida mujassamlaydi.

2-§. Xalqaro huquqda «davlatlarning subyektlilik huquqi» tushunchasi

Xalqaro huquqda davlatlar subyektlilik huquqining ikkita jihati mavjud:

birinchidan, huquq layoqati — xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'lish layoqati;

ikkinchidan, muomala layoqati — xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarni mustaqil ravishda amalga oshirish layoqati.

Aslida xalqaro-huquqiy layoqatlilik va xalqaro muomala layoqatliligi o'zaro ajralmasdir. Ammo shunday vaziyatlar yuz berishi mumkin, davlat xalqaro huquq subyekti maqomini saqlagan holda to'liq yoki qisman muomalaga layoqatsiz bo'lib qoladi. Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarida gitlerchilar Germaniyasi istilo etgan davlatlar o'z huquq layoqatini saqlab qolgan, ularning muomala layoqatliligini esa cheklangan me'yorda muhojirlikdagi hukumatlar amalga oshirib turgan.

3-§. «Davlat yurisdiksiyasi» tushunchasi

Davlat suverenitetini ro'yobga chiqarishda yurisdiksiya tushunchasi katta ahamiyat kasb etadi. Davlat yurisdiksiyasi suverenitetning namoyon bo'lishi sifatida davlat hokimiyati, uning hajmi (ko'lami) va faoliyat sohasini bildiradi.

Davlat yurisdiksiyasi turli mezonlarga ko‘ra har xil ko‘lam va shaklda amalga oshiriladi. Odatda, ko‘lami bo‘yicha davlat yurisdiksiyasi to‘liq va cheklangan, faoliyat sohasi bo‘yicha hududiy va eksterritorial, hokimiyat mazmun-mohiyatiga ko‘ra qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud yurisdiksiyalariga bo‘linadi.

Davlat hududiy ustunlik ta‘siri o‘laroq, o‘z hududi doirasida to‘liq yurisdiksiyani amalga oshiradi.

Shaxsan ustunlikning ta‘siri natijasida u chet eldagi o‘z fuqarolariga nisbatan cheklangan yurisdiksiyani amalga oshiradi. Bunda mamlakat huquqi ustunlik kuchiga ega bo‘ladi. Xorijiy davlat mahalliy huquq taqiblagan xulq-atvorni tayin eta olmaydi.

Xorijiy mamlakat hududida davlat o‘z hokimiyatining ayrim vakolatlarini amalga oshirishi ham mumkin. Uning organlari chet elda davlat, uning fuqarolari va tashkilotlari manfaatlarini himoya etadi, ma‘lum bir me‘yorda ularning faoliyatini nazorat qiladi. Diplomatik vakolatxonalar va konsullar tegishli fuqarolar va yuridik shaxslar o‘z davlati qonunlariga amal qilishini, shuningdek, ushbu subyektlar o‘z huquqlaridan foydalanishda kamsitilmasligini kuzatib boradi, xizmat o‘tilayotgan mamlakat bilan o‘z davlatlari o‘rtasidagi xalqaro shartnomalarning bajarilishini nazorat qiladi, harbiy xizmatga majburlarning hisob-kitobini yuritadi, nizosiz yurisdiksiya aktlarini (fuqarolik holati aktlari, notarial harakatlar va boshqalarni) amalga oshiradi. Jumladan, 1993-yildagi MDH mamlakatlari fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo‘yicha huquqiy yordam to‘g‘risidagi ko‘p tomonlama konvensiyaning 12-moddasi 2-bandiga muvofiq, tomonlar «o‘z fuqarolarini o‘zlarining diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari orqali so‘roq qilish» huquqiga egadir.

Davlat hududida chet el qurolli kuchlarining joylashtirilishi to‘g‘risidagi bitimlar ayniqsa o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, bunda mamlakat hududining muayyan qismida xorijiy davlat yurisdiksiyasi deyarli to‘liq ravishda amal qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga chet el fuqarolari O‘zbekiston hududidan tashqarida sodir etgan jinoyatlari uchun, agar bu jinoyatlar O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi, jamiyati yoki davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkinligini ko‘zda tutuvchi qoida ham kiritilgan.

4-§. «Davlat immuniteti» («daxlsizlik huquqi») tushunchasi

Davlatlarning suveren tengligi prinsipidan davlatlar bir-birining hokimiyatiga nisbatan immunitetga, ya‘ni daxlsizlik huquqiga egaligi kelib chiqadi. Bunga kengroq yondoshiladigan bo‘lsa, bir davlatning na qonun chiqaruvchi, na ijro va na sud hokimiyatining ta‘sir kuchi boshqa bir davlatda amal qilmaydi.

Davlatlarning o'zaro munosabatlarida sud immuniteti alohida ahamiyat kasb etadi. Davlat boshqa davlatning sudiga chaqirilishi va uning mol-mulki da'voini ta'minlash maqsadida qamoqqa olinishi mumkin emas. Shuningdek, bir davlatga nisbatan boshqa bir davlat sud hokimiyatining ijro harakatlari amalga oshirilmaydi.

Immunitetga bo'lgan ehtiyoj davlatlar o'rtasida rasmiy munosabatlarni qo'llab-quvvatlash talabi, suveren davlatlarning bir-birlarining hududida faoliyat ko'rsatish zarurati tufayli yuzaga kelgan. Davlatlar o'z xususiy huquqiy faoliyat (savdo-sotiq, tovar va xizmatlardan foydalanish, ko'chmas mulkka egalik qilish va boshqalar) doirasini kengaytirgani sari vaziyat o'zgarib borgan.

XIX asrning oxirida paydo bo'lgan cheklangan (funktional) immunitet nazariyasi XXI asrga kelib keng miqyosda e'tirof etilmoqda. Ushbu nazariyaga muvofiq, immunitet faqatgina davlat suveren hokimiyat sohibi sifatida faoliyat ko'rsatayotgan munosabatlar, davlat hokimiyati (jure imperii) kuchi asosida amalga oshiriladigan harakatlar bilan cheklanadi. Tijoriy mazmundagi (jure gestionis) huquqiy munosabatlar borasida esa davlat immunitetga ega bo'lmaydi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin o'tgan davrda aksariyat davlatlar (Buyuk Britaniya, AQSH, Singapur, Pokiston, JAR, Kanada, Avstraliya) o'zida cheklangan immunitet nazariyasini mujassam etgan qonunlar qabul qilgan. Boshqa mamlakatlarda bu nazariya sud qarori bilan mustahkamlab qo'yilgan. Masalan, GFR Federal konstitutsiyaviy sudining 1963-yildagi qarorida ta'kidlanishicha, immunitet «xorijiy davlat o'z suveren hokimiyatini amalga oshirish tartibida yoki xususiy shaxs sifatida, ya'ni xususiy huquq doirasida harakat qilishi»dan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Hozirgi davrda xalqaro huquqning davlat immunitetiga oid normalarini yaratish masalasi kun tartibida turibdi. Yevropa Kengashining 1972-yildagi Davlatlar immuniteti to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini va unga qo'shimcha protokolni qabul qilishi bu borada qo'yilgan ilk muhim qadam ekanini ta'kidlash joiz. Konvensiya davlat immunitetining umumiy prinsipini tasdiqlash barobarida, uni keng tafsilotli istisnolar ko'magida cheklab ham qo'yadi. Konvensiyada davlatning rasmiy vakillari immuniteti o'z tasdig'ini topgan.

5-§. Xalqaro huquqda oddiy (unitar) va murakkab davlatlar

Davlat butunligicha xalqaro huquq subyekti hisoblanadi. Hozirgi kunda 192 ta BMT a'zolaridan 171 tasi unitar davlat hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro muloqotda nafaqat davlatlarning o'zi, balki ularning ma'muriy-hududiy birliklari ham ishtirok etadi. Turli davlatlarning shaharlari, viloyatlari, provinsiyalari o'rtasidagi xalqaro aloqalar,

odatda, chegaralararo (transchegaraviy) hamkorlik, deb ataladi. Davlatlarning o'zaro munosabatlari tizimida bunday hamkorlik ko'lami tobora kengayib bormoqda. Bu hamkorlik, 1992-yildagi Xelsinki hujjati-da aytilishicha, iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlikka barham berish, etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash hamda davlatlar va xalqlarning ahil-inoqligini mustahkamlashga ko'maklashadi.

Ma'muriy-hududiy birliklarning xalqaro aloqalari ularni mutlaqo xalqaro huquq subyektiga aylantirmaydi. Chegaralararo aloqalar o'rnatishga yo'l qo'yiladigan hamkorlik sohalari, ularning shakllari va ma'muriy-hududiy tuzilmalar vakolatlarining hajmi davlat konstitutsiyasida belgilangan bo'ladi. Masalan, Belgiyaning 1980-yilgi Konstitutsiyasida xalqaro madaniy hamkorlik va shaxsga doir masalalar bo'yicha hamkorlik jamoalar vakolatiga mansubligi belgilangan. Belgiya bilan jamoalar vakolatiga doir masalalar bo'yicha shartnomalar tuzish chog'ida muzokaralarda ana shu jamoa kengashlari ishtirok etadi. Belgiya Hukumatining bayonot berishicha, jamoalarning xorijiy hamkorlari bilan tuzgan bitimlari xalqaro shartnoma mazmuniga ega emas va shu bois ular Belgiya davlatiga majburiyat yuklamaydi. Ana shu oxirgi qoidaga ko'ra, davlat o'zining tarkibiy qismlari hisoblangan tomonlarning bitimlari yuzasidan javobgar sanalmaydi.

Bu kabi aloqalarning mavjudligi davlatlarning tegishli xalqaro bitimlarida belgilanadi. Masalan, Rossiya va Fransiya o'rtasidagi 1992-yildagi Shartnomaga muvofiq, tomonlar «ma'muriy-hududiy tuzilmalarning o'zaro to'g'ridan to'g'ri aloqalarini rag'batlantirish» majburiyatini o'z zimmalariga olgan.

Davlatlar tarkibida xalqaro jabhadagi imkoniyatlari boshqa hududiy tuzilmalarga nisbatan anchagina keng bo'lgan avtonomiyalar ham uchrashi mumkin. Gollandiya tarkibiga, misol uchun, Niderlandiya Antil orollari avtonom tuzilma sifatida kirgan. Ularning sharq mamlakatlari bilan aloqalarini hisobga olgan holda, tegishli masalalarni, albatta avtonomiya vakolati doirasida o'zlari hal etish huquqi berilgan. Bu aloqalarni tartibga solishda Gollandiya shartnomalari, masalan, 1986-yildagi Aruba oroli va AQSH o'rtasida havo parvozi to'g'risidagi Gollandiya-Amerika bitimi xalqaro-huquqiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday bitimlarni qabul qilishning alohida protsedurasi belgilangan. Bu jarayonda Gollandiya davlati hukumati va parlamenti, shuningdek, avtonomiya parlamenti ishtirok etadi.

Federatsiya — ittifoq davlat — subyektlari o'z ichki ishlarida muayyan mustaqillikka ega bo'lgan o'ziga xos davlat tuzilmasi. Hozirgi kunda dunyoda 21 ta federativ davlat mavjud. Shulardan: beshtasi Yevropa va Osiyoda, 6 tasi Amerikada, 3 tasi Afrikada va 2 tasi Avstraliya va Okeaniyada joylashgan. Federativ davlatda tashqi munosabatlar markaziy

hokimiyat qo'liga to'plangan bo'ladi. Masalan, 1933-yildagi Davlatlarning huquq va majburiyatlari to'g'risidagi amerikalalararo Konvensiyaning 2-moddasida ushbu norma quyidagicha ifodalangan: «Federativ davlat xalqaro huquq oldida faqat yagona bir shaxsni tashkil etadi». Xalqaro-huquqiy amaliyot ushbu normani tasdiqlaydi.

Bir qancha federatsiyalar mavjudki, ularning subyektlari federal hukumat nazorati ostida cheklangan doiradagi masalalar (chegara, madaniyat, huquq-tartibot, iqtisodiy aloqalar) bo'yicha xalqaro bitimlar tuzish huquqiga ega hisoblanadi. GFR, Shveysariya, Avstriya, AQSH va Kanada ana shunday federatsiyalar qatoriga kiradi.

Tarixan subyektlar konstitutsiya bo'yicha suveren sanalgan va xalqaro huquq subyektlari maqomiga da'vogarlik qilishi mumkin bo'lgan ikkita federatsiya ma'lum. Bular SSR Ittifoqi va Yugoslaviya federatsiyasidir. Ayni chog'da, ularning bunday subyektlilik huquqiga egaligi sezilarli darajada rasmiy-yuridik mazmun kasb etgan edi.

Rossiya Konstitutsiyasida tashqi siyosat, xalqaro munosabatlar, xalqaro shartnomalar Federatsiya tasarrufiga o'tkazilgan (71-moddaning «k» bandi). Federatsiya subyektlariga kelsak, ularning xalqaro va tashqi iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish borasidagi imkoniyatlari Federatsiya va subyektlarning qo'shma tasarrufiga o'tkazilgan bunday aloqalarni muvofiqlashtirish haqida so'z yuritilgan moddada ko'zda tutilgan (72-modda). Subyektlar «aloqa»larni, federatsiya esa «munosabat»larni qo'llab-quvvatlaydi. Bunday farqlanish davlatlararo munosabatlar bilan subyektlarning xalqaro aloqalariga bir xil darajada qaramaslik nuqtayi nazaridan kelib chiqqandir.

Bu xulosani 1995-yil 13-oktabrdagi «Tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish to'g'risida»gi Federal qonun ham tasdiqlaydi. Rossiya Federatsiyasi subyektlarining tashqi savdo faoliyati sohasidagi vakolatlariga bag'ishlangan 8-moddada qayd etilishicha, subyektlar o'z vakolatlari doirasida «xorijiy federativ davlatlar subyektlari, xorijiy davlatlarning ma'muriy-hududiy tuzilmalari bilan tashqi savdo aloqalari sohasida bitimlar tuzish» huquqiga egadir.

1995-yil 15-iyuldagi «Rossiya Federatsiyasi xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi Federal qonunda ko'zda tutilishicha, agar Federatsiya shartnomasi subyekt tasarrufidagi masalalarga daxl qilsa, u holda uning organlari bilan kelishuv talab etiladi (4-modda). Subyektlar Federatsiyaga shartnoma tuzishga doir o'z tavsiyalarini taqdim etish huquqiga ega.

Shartnomalarni ratifikatsiya qilish va to'xtatish haqidagi qarorlar subyektlarning vakillik organi — Federatsiya Soveti tomonidan ko'rib chiqilishi kerak. Subyektlar o'z vakolatlari doirasida Rossiya Federatsiyasi shartnomalarining bajarilishini ta'min etadi (32-moddaning 3-bandi). Federatsiyaning hokimiyat organlari bilan subyektlar o'rtasida yu-

zaga keladigan vakolatlarga oid nizolar Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyaviy sudida hal etiladi. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasi subyektlari Federatsiyaning shartnomaviy munosabatlariga ta'sir etish imkoniyatiga ega hisoblanadi.

Xalqaro huquq normalari davlatlararo munosabatlarni tartibga solishning ko'p asrlik tajribalarini o'zida mujassam etadi. Bu borada xalqaro huquq mamlakat huquqining uzviy qismi hisoblangan Germaniya tajribasi ayniqsa e'tiborga molikdir. GFR Federal Konstitutsiyaviy sudi 1973-yilda Federatsiya subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda Konstitutsiyaning hal qiluvchi o'rnini tasdiqlagan va shu bilan birga, bunday tartibga solish mavjud bo'lmagan joylarda Federatsiyaga a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlar xalqaro huquq normalari bilan tartibga solinishini belgilab bergan.

6-§. Xalqaro huquqda tan olish. Davlatlarni tan olish

Xalqaro huquqda tan olish bu xalqaro munosabatlardagi yangi voqelik: yuridik fakt va vaziyat, harakatga rozilik akti, demakdir. Tan olishning barcha turlari ichida davlatlar va hukumatlarni tan olish alohida ahamiyatga egadir.

Xalqaro maydonga yangi davlatning kirib kelishi munosabati bilan davlatni tan olish masalasi kun tartibidan o'rin oladi. Yangi davlatni tan olar ekan, xalqaro hamjamiyat a'zolari u bilan xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishishga rozilik bildiradi.

Davlatlarni tan olish muayyan xalqaro huquq normalari yig'indisi bo'lib, xalqaro huquqning yangi subyektlarini xalqaro maydonga chiqishi bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarni tartibga soladi. Har qanday yangi davlatni tan olish siyosiy va muayyan huquqiy oqibatlariga olib keladi. Shu ma'noda davlatlarni tan olish odatdagi informativ akt emas, balki xalqaro hayotda tegishli o'zgarishlarga olib keluvchi qadamdir. Boshqacha so'z bilan aytganda, tan olish degani yangi davlat bilan xalqaro aloqalar olib borishga tayyor ekanligini ko'rsatuvchi yuridik holatdir.

Yangi davlat uchun tan olishning yuridik ahamiyati borasida ikki xil — konstituitiv va deklarativ nazariyalar mavjud. Konstituitiv nazariyaga ko'ra, tan olish davlatning xalqaro subyektlilik huquqini ta'kidlaydi, ya'ni faktik holatni yuridik holatga aylantiradi. Deklarativ nazariyaga binoan esa, davlat tashkil etilganidayoq, tan olinishidan mustaqil ravishda subyektlilik huquqiga ega bo'ladi.

Rasmiy-yuridik jihatdan har qanday davlat tashkil topishining asosida xalq irodasi yotadi. Davlat aynan shu xalqning suvereniteti sifatida dunyoga keladi. Shunday qilib, Amerika Davlatlari tashkiloti Nizomida qayd etilganidek, «Davlatning siyosiy jihatdan mavjudligi uning boshqa davlatlar tomonidan tan olinishiga bog'liq emas. Hatto tan olinishiga

qadar ham davlat o'z yaxlitligi va mustaqilligini himoya qilish, o'z xavfsizligi va farovonligini ta'minlash huquqiga egadir» (9-modda).

Ayni chog'da, o'z huquqlaridan amalda foydalanish masalasi yangi davlatning boshqa davlatlar tomonidan xalqaro huquq subyekti sifatida tan olinishiga bog'liq ekanini ham hisobga olmaslik mumkin emas.

Sobiq SSSR respublikalarining yangi mustaqil davlatlarga aylanishi bilan bog'liq voqealar shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar tan olish aktiga alohida e'tibor bermog'da. Hozirgi kunda mustaqil O'zbekistonni dunyoning 131 davlati tan olgan.

Huquqiy adabiyotlarda va xalqaro amaliyotda keng tarqalgan fikrga ko'ra, tan olish to'raligicha tan oluvchi davlatning irodasiga bog'liqdir.

SSSRning tarqalib ketishi munosabati bilan Bryusselda Yevropa hamjamiyati Kengashining tashqi ishlar vazirlari ishtirokidagi majlisi bo'lib o'tgan. Bu majlisda «Yevropa hamjamiyatining Sharqiy Yevropa va Sovet Ittifoqi hududidagi yangi davlatlarni tan olish bo'yicha mezonlari» qabul qilingan. Yevropa hamjamiyati a'zolari MDH tarkibiga kiruvchi «mazkur respublikalar tomonidan talablarni bajarishga shay ekanliklari haqida kafolat olinishi bilanoq» ular bu respublikalarni tan olishlarini ma'lum qilganlar. MDHga a'zo davlatlarning biron-tasi Yevropa hamjamiyatining bunday harakatlariga qarshi e'tiroz bildirmagan.

Xalqaro huquqda tan olishning ikki turi bor: de-yure va de-fakto. Umumiy qoidaga binoan, davlatni tan olish to'liq va uzil-kesil bo'ladi. Bunday tan olish «de-yure» tan olish, deb ataladi.

Ba'zan davlatning shakllanishi uzoq davom etadigan jarayonga aylanadi. Bunday hollarda vaqtincha, to'liqsiz tan olishdan ham foydalanish mumkin va bu «de-fakto» tan olish, deyiladi. U, odatda, yuridik rasmiyatchiliksiz yarim rasmiy munosabatlarni anglatadi. Mazkur tan olish ko'lamini vaziyatdan kelib chiqqan holda o'zgarib turadi.

Xalqaro huquqda davlatlarni tan olishning ikki turi bir-biridan ular keltirib chiqaradigan huquqiy oqibatlarining hajmi bilan farqlanadi. Agar de-fakto tan olish vaqtincha xususiyatga ega bo'lib, konsullik va ko'pincha savdo aloqalarini o'rnatishga yo'l ochsa, de-yure tan olish esa doimiy xarakterga ega bo'lib, o'zaro diplomatik aloqalar o'rnatish va xalqaro shartnomalar tuzishga yo'l ochadi. Hozirgi amaliyotda tan olishning de-fakto turi deyarli uchramaydi.

Shuningdek, ad hoc tan olish, ya'ni muayyan holatda tan olish akti ham mavjud.

7-§. Hukumatlarni tan olish

Yangi tashkil topgan davlatni tan olish uning hukumatini tan olish demakdir. Hukumatni alohida tan olish masalasi g'ayrikonstitutsiyaviy

yo'l bilan, inqiloblar, to'ntarishlar natijasida hukumat tashkil topgan hollarda yuzaga keladi.

Hukumatni tan olish tan oluvchi davlat ushbu hukumatga tegishli davlatning xalqaro munosabatlardagi qonuniy va yagona vakili sifatida qarashini anglatadi.

Hozirgi zamon amaliyotida hukumatni tan olishning hal qiluvchi sharti uning boshqaruvi samaradorligiga bog'liq ekani tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. AQSHning hisoblashicha, «har qanday davlatning qonuniy hukumati o'ziga tegishli hududda samarali nazoratni amalga oshirayotgan hamda xalqaro majburiyatlarni zimmasiga olishga va bajarishga layoqatli ekan, mazkur hukumat bilan rasmiy munosabatlar o'rnatilishi mumkin».

Shu bilan bir qatorda, davlat boshqaruv shaklini nazorat qilish tendensiyasi ham ko'zga tashlanmoqda. 1990-yilda Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) doirasida qabul qilingan Yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi davlatlarda boshqaruvning demokratik shaklini yagona maqbul shakl sifatida e'tirof etgan¹.

Ba'zan hukumatni tan olmaslik xalqaro huquqning imperativ normalarini buzganligi uchun xalqaro hamjamiyat tomonidan o'ziga xos sanksiya sifatida qo'llanishi mumkin. Bu o'rinda XX asrning 60-yillarida BMTning Janubiy Rodeziya irqchilik rejimini tan olmaslikni ta'minlash borasidagi o'rmini eslash kifoyadir.

Hukumatlarni tan olish to'g'risida bayonot berish amaliyotidan voz kechib, diplomatik munosabatlar o'rnatish yoki o'rnatmaslik bilan cheklanishni maqbul ko'rayotgan davlatlar soni borgan sari ko'payib bormoqda.

Davlat bilan bog'liq holda bo'lgani kabi hukumatni tan olish akti ham faktik va yuridik bo'lishi mumkin. Ham faktik, ham yuridik tan olish teskari ta'sir kuchiga ega bo'lib, tan olinayotgan hukumatning tan olinishiga qadar chiqargan huquqiy aktlariga taalluqli hisoblanadi. Davlatning xorijdagi mol-mulki sifatida, masalan arxivlar, bank omonatlari, ko'chmas mulk sanaladi.

Hukumatning tan olinmasligi uning ko'p tomonlama shartnomalarda ishtirok etishiga to'sqinlik qilmaydi. Uning xalqaro tashkilotlarda ishtiroki to'g'risidagi masala tegishli tashkilotlar qoidalariga muvofiq tarzda hal etiladi.

Tan olishning alohida turlaridan biri — muhojirlikdagi (quvg'indagi) hukumatni tan olishdir. Bunday hukumatlar davlat hududida samarali nazoratni amalga oshira olmaydi, ularning xalqaro majburiyatlarni ol-

¹ Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari / Mas'ul muharrir A.X. Saidov. — T., 2002. — 66-b.

ish va bajarish layoqatlari cheklangan. Tan olish hukumat g'ayriqonuniy ravishda, zo'raonlik bilan quvg'in qilingan hollardagina amalga oshirishi kerak. Ikkinchi jahon urushi yillarida bunday hodisalar juda keng tarqalgan edi. Gitlerchilar Germaniyasi tomonidan hududlari istilo etilgan Norvegiya, Polsha, Belgiya, Chexoslovakiya hukumatlari quvg'in qilingandilar.

8-§. Xalqaro huquqda tan olishning boshqa turlari

Chet el istilosi sodir bo'lgan hollarda ko'pincha milliy qarshilikning rahbariy organlari tashkil etiladi va, o'z navbatida, ularga nisbatan boshqa davlatlarning munosabatlari muammosi yuzaga keladi. Bunday hollarda tan olishning ko'lam va oqibatlari turlicha bo'ladi.

Dekolonizatsiya yillarida milliy ozodlik organlarini tan olish amaliyoti keng tarqalgandi. Ba'zida tan olish jamoaviy mazmun kasb etardi va xalqaro tashkilotlar tomonidan amalga oshirilar edi. Misol uchun, 1972-yili BMTning Dekolonizatsiya bo'yicha qo'mitasi Gvineya va Yashil burun orolining mustaqillik partiyasini Gvineya xalqining yagona vakili deb tan olgan va ana shu faktni (1975-yildan mustaqil Kabo-Verde Respublikasi) e'tiborga olishni so'rab barcha davlatlar va xalqaro tashkilotlarga murojaat bilan chiqqan.

O'tmishdagi fuqarolar urushi tarixidan ma'lumki, «isyonchi» va «urushayotgan» tomonlarni (yoki «urushayotganlar tomonidan») tan olish holatlari ham mavjud bo'lgan. Bunday tan olish xorijiy davlatning manfaatlari hukumatga qarshi kurashayotgan qurolli kuchlar nazorati ostidagi hududlarga bog'liq bo'lgan hollarda kuzatilgan. «Isyonchi» tomonni tan olish tan oluvchi davlat hukumatga qarshi isyon faktini tan olishini va qo'zg'alonchilarni qurolli jinoyatchilar deb hisoblamasligini anglatar edi. Tan oluvchi davlatlar ko'pincha qo'zg'alonchilarning muayyan huquqlari, masalan, boshpana so'rash huquqi, insonparvarlik yordami olish huquqi mavjudligini tan olishini ma'lum qilardi.

«Urushayotgan» tomonni tan olish nisbatan keng tarqalgan. Bunda qo'zg'alonchilarga davlatlarga beriladigan darajada keng ko'lamdagi qurolli nizolar huquqi, shu jumladan neytralitet huquqidan foydalanish imkoni beriladi. Tan olish sharti esa qo'zg'alonchilar tomonidan davlat hududining kattagina qismi barqaror nazoratga olinishi hamda harbiy intizom va xalqaro gumanitar huquq normalariga samarali amal qilinishidan iboratdir.

YETTINCHI MAVZU.

DAVLATLARNING HUQUQIY VORISLIGI

- 1-§. «Davlatlarning huquqiy vorisligi» tushunchasi va uning turlari
- 2-§. Xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislik
- 3-§. Yangi mustaqil davlatlar—sobiq ittifoqdosh respublikalarning huquqiy vorisligi
- 4-§. Davlat mulki bo'yicha huquqiy vorislik
- 5-§. Davlat arxivlari bo'yicha huquqiy vorislik
- 6-§. Davlat qarzlari bo'yicha huquqiy vorislik

1-§. «Davlatlarning huquqiy vorisligi» tushunchasi va uning turlari

Huquqiy vorislik — bir davlatning boshqasiga almashishi natijasida muayyan hududdagi xalqaro munosabatlar bo'yicha javobgarlik bilan bog'liq huquq va majburiyatlarga egalik qilish.

Huquqiy vorislik masalasi quyidagi hollarda yuzaga keladi:

birinchidan, bir davlat ikki yoki undan ko'proq yangi davlatlarga ajralganida;

ikkinchidan, ikki yoki undan ko'proq davlatlar yagona yangi davlat sifatida birlashganida;

uchinchidan, davlat hududining muayyan qismida yangi davlat tashkil topganida;

to'rtinchidan, bir davlat boshqasining tarkibiga kirganida;

beshinchidan, bir davlat hududining muayyan qismi boshqasiga o'tganida.

BMT qabul qilgan Huquqiy vorislik haqidagi ikkita konvensiyani sanoqli davlatlar ratifikatsiya qilgan va ularning yaqin orada kuchga kirishi gumon. Shunga qaramay, mazkur konvensiyalar tahlil etilayotgan sohaning eng nufuzli hujjatlari hisoblanadi va ularda huquqiy vorislik masalasini hal etishga qaratilgan umumiy yo'l-yo'riqlar o'z aksini topgan. Bular — 1978-yildagi Xalqaro shartnomalarga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasi hamda 1983-yildagi Davlat mol-mulki, davlat arxivlari va davlat qarzlariga nisbatan davlatlarning huquqiy vorisligi to'g'risidagi Vena konvensiyasidir.

Huquqiy vorislikning ikki xil usulini kuzatish mumkin:

birinchidan, so'zsiz huquqiy vorislik, ya'ni avvalgi davlatga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarni hech qanday shartlarsiz o'z zimmasiga olish;

ikkinchidan, tabula rasa (toza qog'oz) prinsipi bo'yicha huquqiy vorislik, ya'ni avvalgi davlatga tegishli bo'lgan barcha huquq va majburiyatlarni to'laligicha qaytadan ko'rib chiqish.

Odatda, xalqaro-huquqiy amaliyotda har ikki usul aralash holda qo'llaniladi.

2-§. Xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislik

Huquqiy vorislikning mazkur sohasi xalqaro shartnomalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan davlatlararo munosabatlarning barcha jihatlari taalluqlidir.

1978-yildagi Vena konvensiyasida aytilganidek, huquqiy vorislik chegaralar va ularning rejimini o'ratgan xalqaro shartnomalarga daxl qilmaydi. Bu yangi tashkil topgan davlat huquqiy vorislikni qabul qilayotgan paytida chegaralar va ularning rejimlarini avvalgi davlatda qanday bo'lgan bo'lsa, shundayligicha tan olishga majbur, deganidir. Agar uning chegaralar yuzasidan noroziligi bo'lsa, kelgusida mazkur sohaga oid xalqaro-huquqiy qoidalarining barchasiga to'liq amal qilgan holdagina bu masalaning ko'rib chiqilishini talab etishi mumkin. Masalan, sobiq SSSR hududida yangi mustaqil davlatlar tashkil topishi jarayonida ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi chegaralarni qayta ko'rib chiqish hollari kuzatilmagan.

Davlatlar birlashishi holatida ularga tegishli barcha shartnomalar o'z kuchida qoladi, ammo ular huquqiy vorislikni qabul qilish paytida qaysi hududda kuchda bo'lgan bo'lsa, birlashgan davlatning o'sha qismidagina qo'llaniladi. Masalan, Suriya va Misrning Birlashgan Arab Respublikasiga birlashishida ushbu qoida **BAR**ning 1958-yildagi Muvaqqat konstitutsiyasida quyidagicha mustahkamlangandi: «Bitimlar va shartnomalar ularni ratifikatsiya qilish paytida amal qilishi belgilangan mintaqaviy doiralarda o'z kuchini saqlab qoladi».

Yuqoridagi qoidalar bir davlatning o'z subyektlilik huquqini saqlab qolgan boshqa davlatga qo'shilishi holatiga ham tegishlidir. Bu borada 1990-yili Germaniya Demokratik Respublikasining Germaniya Federativ Respublikasi tarkibiga kirishi ayniqsa muhim voqea bo'lgandi. Mazkur mamlakatlarning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tizimlari hamda ularning xalqaro majburiyatlari bir-biridan keskin farq qilar edi. Boshqa manfaatdor davlatlar bilan kelishuvga muvofiq, quyidagi qoida qabul qilingan edi: GDR shartnomalari uning sheriklari bilan birgalikda ishtirokchi davlatlar ishonchini, manfaatlarini, GFRning shartnomaviy majburiyatlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan, shuningdek, Yevropa hamjamiyati vakolatlarini hisobga olgan holda (chunki GDR Hamjamiyatining tarkibiy qismiga aylanishi kerak edi) ko'rib chiqilishi zarur. GFR shartnomalariga kelganda, ular o'z kuchida qoldi va sobiq GDR hududida ham ta'sir kuchiga ega bo'ldi. Ana shu qoidalar 1990-yilda GDR va GFR o'rtasida tuzilgan yagona Germaniya davlatini barpo etish to'g'risidagi shartnomada qayd etilgan.

Agar davlatlar bo'linishi holatida muayyan bir qismi avvalgi davlat

sifatida mavjud bo‘lib tursa, u holda ana shu qismning shartnomaviy munosabatlarida o‘zgarishlar yuz bermaydi. Ajralib chiqqan hududga bevosita daxldor bo‘lgan shartnomalar bundan mustasno. Bular BMTga a‘zolikka ham tegishlidir. Ajralib chiqqan hududda tashkil topgan davlat haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, bu boradagi amaliyot turlichadir. 1947-yilda Hindiston tarkibidan Pokiston ajralib chiqqan. Shu munosabat bilan BMT Kotibiyati mana bunday nuqtayi nazarni ilgari surgan: «Hindistonning xalqaro maqomida o‘zgarish yuz bermagan. Ajralib chiqqan hudud — Pokiston yangi davlat hisoblanadi; u avvalgi davlatning huquq va majburiyatlariga egalik qilmaydi».

Yugoslaviya parchalanib ketganidan keyin «Yugoslaviya» nomini 2003-yil aprel oyiga qadar ikki respublika — Serbiya va Chernogoriya federatsiyasi o‘zida saqlab qolgan edi. Mazkur federatsiya hududi va aholisi soni sobiq Yugoslaviya hududi va aholisi sonining qariyb yarmigagina tengdir. Belgrad Yugoslaviyaning BMTdagi o‘rnini egallash huquqi borligi haqida bayonot bergan. Bu borada BMT Xavfsizlik Kengashining 1992-yil 30-maydagi rezolyutsiyasida aytiladiki, «Yugoslaviya Federativ Respublikasining (Serbiya va Chernogoriya) sobiq YUSFRning BMTdagi a‘zolicini to‘g‘ridan to‘g‘ri davom ettirishi yuzasidan da‘vosini umum qabul qilmagan».

BMT amaliyotida davlat ajralib chiqqanida uning a‘zolicini tiklash tajribasi ham ma‘lum. 1961-yilda Suriya 1958-yilda tashkil topgan Birlashgan Arab Respublikasi tarkibidan ajralib chiqqan va uning BMTga a‘zoligi hech qanday qiyinchiliklarsiz tiklangan.

3-§. Yangi mustaqil davlatlar — sobiq ittifoqdosh respublikalarning huquqiy vorisligi

Sovet Ittifoqining parchalanish jarayonida sobiq ittifoqdosh respublikalarning barchasi avval u xalqaro shartnomalar va SSSR bitimlaridan kelib chiqadigan barcha majburiyatlarni bajarishga shay ekanliklari to‘g‘risida bir tomonlama tartibda bayonot berganlar. Keyin ana shu majburiyat Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligini tashkil etish to‘g‘risidagi bitimda jamoa tarzida o‘z tasdig‘ini topdi.

Ta‘kidlash joizki, o‘sha davrda xalqaro hamjamiyat SSSRdek yirik va qudratli harbiy salohiyatga ega davlatning parchalanib ketishi barcha xalqaro munosabatlarga jiddiy putur yetkazishi mumkinligidan asosli ravishda xavotirlanmoqda edi. Turli mamlakatlarning diplomatik doiralari bosimi ta‘sirida yangi Rossiya hukumati siyosiy «davomchilik» konsepsiyasini ilgari surgan. Unga ko‘ra, Rossiya Federatsiyasi yangi davlat sifatida SSSRning davomchisi hisoblanadi va Sovet Ittifoqining xalqaro huquq va majburiyatlarini to‘lig‘icha davom ettirishga tayyordir. Biroq konsepsiya o‘zining yuridik rivojini topmadi.

SSSRning BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi sifatidagi o'miga kelganda, MDHga a'zo davlat rahbarlari Kengashining 1991-yil 21-dekabrda qaroriga ko'ra, «Hamdo'stlik davlatlari Rossiyani SSSRning BMTga a'ziligini, shu jumladan Xavfsizlik Kengashiga va boshqa xalqaro tashkilotlarga doimiy a'ziligini davom ettirishi borasida qo'llab-quvvatlaydilar». Belorussiya SSR va Ukraina SSR SSSR bilan bir qatorda BMT a'zosi bo'lganini nazarda tutgan holda, Belorussiya, Ukraina va BMTning yangi a'zosi — Rossiya MDHning boshqa davlatlariga ularning BMT va boshqa xalqaro tashkilotlarga doimiy a'zo bo'lishi bilan bog'liq muammolarni hal etishda ko'maklashishi zarur edi.

MDHga a'zo davlat rahbarlari Kengashining 1992-yil 20-martdagi qaroriga muvofiq, Hamdo'stlikka a'zo davlatlarning barchasi sobiq SSR Ittifoqining huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorislar sifatida tan olingan.

Amalda barcha yangi davlatlar o'z hududlariga taalluqli SSSR xalqaro shartnomalarini inventarizatsiyadan o'tkazishdi. Ayrim o'rinlarda bunday inventarizatsiya shartnoma bo'yicha sheriklar bilan birgalikda amalga oshirildi.

Xalqaro huquq huquqiy vorislikni faqat hududiy o'zgarishgagina bog'laydi. Davlat hokimiyati tuzilmasi va mazmun-mohiyatidagi o'zgarishlarga kelganda esa, ular shartnomalarning majburiylik kuchiga ta'sir etmasligi jiddiy belgilab qo'yilgan. Bu na davlat boshqaruv shakliga (monarxiya-respublika) va na davlat tuzilishiga taalluqli (federatsiya-unitar davlat) o'zgarishlar shartnomalarga hech qanday daxl qilmaydi, demakdir. Bu hukumatlarning g'ayrikonstitutsiyaviy o'zgarishiga ham tegishlidir. Bunda shartnomaviy munosabatlarning saqlanib qolishidan hukumatlarning o'zi manfaatdor bo'lib, odatda, ular ilgari tuzilgan shartnomalarga amal qilish niyati to'g'risida bayonot beradilar. Masalan, 1984-yili Nigeriyada yuz bergan to'ntarishdan keyin yangi hukumat boshlig'i avvalgi hukumatlar o'rtasidagi shartnomalar hurmat qilinishi va bajarilishi haqidagi bayonot bilan chiqqan.

Ayniqsa, nafaqat hokimiyat mazmun-mohiyatini, balki jamiyat tabiatini, fe'l-atvorini ham o'zgartirib yuboradigan ijtimoiy inqiloblar natijasi o'laroq, davlatlar tub o'zgarishlarga yuz tutadi. Rossiyani tubdan o'zgartirgan 1917-yilgi Oktabr to'ntarishidan keyin, 1918-yilning 26-avgustida Xalq Komissarlari Sovetining bir qator davlatlar bilan barcha shartnomalarni to'xtatish to'g'risidagi Dekreti chiqqan. Ammo tez orada shartnomalardan voz kechish evaziga Rossiya manfaatlariga yetkaziladigan ziyon ko'lamlari aniq bo'lib qolgan va shartnomaviy munosabatlarni qayta tiklash borasida mashaqqatli ishlar boshlanib ketgan. XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmida Xalq Komissarlari Soveti ilgari Rossiya imzolagan qator ko'p tomonlama konvensiyalarning SSSR uchun kuchga ega ekanligini tan olish haqida qaror chiqqan.

Nazarimizda, ijtimoiy inqiloblar davrida yuzaga keladigan muammolar yechimini erkin va ixtiyoriy rozilik, vijdoniylik hamda xalqaro majburiyatlarga imkon qadar to'liq amal qilish prinsiplari negizidan izlash yaxshi samara beradi.

4-§. Davlat mulki bo'yicha huquqiy vorislik

1983-yildagi Vena konvensiyasi faqatgina avvalgi davlatning davlat mulkiga taalluqlidir. Huquqiy vorislik rejimi jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkiga ta'sir etmaydi. «Avvalgi davlatning davlat mulki» deganda, «avvalgi davlatning ichki huquqiga binoan, huquqiy vorislik paytida unga tegishli hisoblangan mol-mulk, huquq va manfaatlar» tushuniladi (8-modda).

Davlat mulkining aniq obyektlari tarkibi ichki huquq tomonidan belgilanadi. Aksariyat hollarda, davlat mulkining negizi rasmiy maqsadlarda ishlatiladigan mol-mulk, davlat binolari, aloqa vositalari, muzeylar, harbiy bazalar va boshqalardan tashkil topadi.

Sotsialistik davlatlarda davlat mulki ko'lami ancha keng bo'lganini kuzatish mumkin. Butun iqtisodiyot, moliya va boshqalar amalda davlat mulki hisoblangan. Shu bois huquqiy vorislik doirasi ham juda keng. Ukrainaning 1990-yildagi Mustaqillik to'g'risidagi deklaratsiyasiga muvofiq, «Ukraina hududida tashkil topgan jami iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy salohiyat uning xalqiga tegishli mulk hisoblanadi». Shu yo'l bilan SSSRning mulk huquqi haqidagi qonunlari bekor qilingan. Ukraina hududidan tashqaridagi mol-mulkgina umumittifoqqa mansub bo'lib, umumiy mulk sifatida tan olingan. Belorussiya SSR yerni, uning boyliklarini, BSSR hududida joylashgan boshqa tabiiy zaxiralarni xalq mulki, deb e'lon qilgan. RSFSRning Davlat suvereniteti to'g'risidagi deklaratsiyasida xalqning Rossiya milliy boyliklariga nisbatan huquqi xususida so'z borgan.

Huquqiy vorislik masalalari davlatlar birlashganda nisbatan oson hal etiladi. Birlashayotgan davlatlar mulki birlashgan davlat ixtiyoriga o'tadi. Vaziyat nisbatan murakkab bo'lgan holatlarda esa, Vena konvensiyasidagi o'zaro bitim huquqiy vorislik muammosini hal etishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatiladi va bitim mavjud bo'lmagan hollardagina uning o'z qoidalari taklif etiladi.

Davlat hududiga tegishli qismning topshirilishida huquqiy vorislik obyekti sanalgan avvalgi davlatga qarashli ko'chmas mulk voris davlat hisobiga o'tadi. Xuddi shunday toifadagi avvalgi davlatga qarashli ko'char mulk ham, agar u avvalgi davlatning topshirilayotgan hudud faoliyatiga aloqador bo'lgan bo'lsa, voris davlat hisobiga o'tadi (14-modda). Bunday ko'char mulklar qatoriga temir yo'llarning harakatdagi tarkiblari, samolyotlar, avtomobillar va topshirilayotgan hududga bog'liq bo'lgan

boshqa transport vositalari kiradi. Tegishli qurol-yarog'lar ham ana shu toifaga mansubdir.

Ushbu qoidalar quyidagi holatlarga nisbatan: hududning bir qismi ajralib chiqib, alohida davlatni tashkil etganida, shuningdek, davlat bo'linganida ham qo'llanilishi mumkin. Bunda muammolar maxsus bitimlar orqali hal etiladi. Masalan, 1993-yilda SSSRning sobiq ittifoqdosh respublikalari o'rtasida sobiq SSSR temir yo'llar vazirligiga qarashli yuk vagonlari va konteynerlarning inventar parklarini o'zaro taqsimlash hamda ulardan birgalikda foydalanish to'g'risida bitim imzolangan.

Davlat bo'linishi hollarida avvalgi davlatning chet eldagi ko'char va ko'chmas mulkiga nisbatan huquqiy vorislik masalasi yuzaga keladi. Bunday mulk «adolatli ulushlarda» voris davlat hisobiga o'tadi (18-modda). Shuningdek, adolatli kompensatsiya imkoniyati ham nazarda tutiladi.

MDH mamlakatlari 1992-yilning mart oyida sobiq SSSR shartnomalari, davlat arxivlari, davlat mulki, qarzlari va aktivlariga nisbatan huquqiy vorislik bo'yicha komissiya tuzgandi. 1992-yil iyulida sobiq SSSRning chet eldagi barcha mol-mulkini taqsimlash haqidagi bitim loyihasi ishlab chiqilgan va unda ana shu mulkning MDH davlatlaridan har biriga taqsimlanishi ko'zda tutilgan foizlardagi ulushlar belgilangan edi. Keyinchalik mazkur masala yuzasidan MDH barcha mamlakatlari o'rtasida yagona bir bitimga erishish mumkin emasligi oydinlashdi va Komissiya tarqatib yuborildi, SSSRning chet eldagi mulkiga nisbatan huquqiy vorislik masalasi esa hal etilmay qoldi.

Rossiyaning chet eldagi mulkini huquqiy jihatdan ta'minlash maqsadida Rossiya Federatsiyasi Prezidentining 1993-yil 8-fevraldagi «Sobiq SSSRning chet eldagi davlat mulki to'g'risida»gi farmoniga muvofiq, Rossiya SSSRning davomchi davlati sifatida sobiq SSSRning chet elda joylashgan ko'chmas va ko'char mulki yuzasidan barcha huquqlarni, shuningdek, mazkur mulkdan foydalanish bilan bog'liq barcha majburiyatlarning bajarilishini o'z zimmasiga olishi belgilangan.

Bunday qarorga tezlikda munosabat bildirildi. Ukraina Tashqi ishlar vazirligi o'z maqomini SSSR davomchisi sifatida belgilash borasidagi har qanday bir tomonlama qarorlar xalqaro huquq normalariga zid ekani va sobiq SSSR subyektlari hisoblangan boshqa davlatlar huquqlari buzilishiga sabab bo'lishi haqida bayonot berdi.

Bularning barchasi shundan dalolat beradiki, bu boradagi eng to'g'ri yo'l vorislik huquqi to'g'risida har bir holatning alohida o'ziga xos jihatlarni hisobga olish imkonini beradigan ikki tomonlama bitimlar tuzilishidir. Bunday bitimlarning ahamiyati Vorislik to'g'risidagi Vena konvensiyasida alohida ta'kidlangan.

5-§. Davlat arxivlari bo'yicha huquqiy vorislik

Arxivlar nafaqat ilmiy va madaniy bebaho xazina, ayni chog'da, ular davlatning tashkil topishi va gullab-yashnashida ham beqiyos ahamiyat kasb etadi. Zero, davlat kecha, bugun va ertaning birlashgan ko'rinishidir. Shu jihatdan 1983-yildagi Vena konvensiyasining alohida qismi arxivlarga bag'ishlangan.

«Avvalgi davlatning davlat arxivlari» huquqiy vorislik predmeti sanaladi. Bu tushuncha avvalgi davlat ishlab chiqargan yoki sotib olgan va ichki huquq bo'yicha unga mansub hisoblangan va tomonidan saqlanayotgan har qanday tarixga ega bo'lgan hujjatlar jamlanmasini anglatadi. Umumiy qoidaga ko'ra, arxivlarning topshirilishida kompensatsiya ko'zda tutilmaydi (23-modda).

Huquqiy vorislik avvalgi davlat hududida joylashgan, ammo uning ichki huquqiga asosan uchinchi davlatga tegishli hisoblangan arxivlarga daxl qilmaydi (24-modda). Fikrimizcha, xalqaro huquqqa ko'ra uchinchi mamlakatga tegishli hisoblangan arxivlar ham huquqiy vorislik predmeti bo'la olmaydi. Ularni topshirgan taqdirda, avvalgi davlat xalqaro-huquqiy jihatdan javobgar sanaladi.

Mazkur masalalar bir qancha mamlakatlarning gitlerchilar Germaniyasi tomonidan egallab olingan va SSSRdan olib ketilgan arxivlari joylashgan Rossiya uchun, ayniqsa muhim ahamiyatga egadir. Rossiya Federatsiyasining 1993-yil 7-iyuldagi RF arxiv fondlari haqidagi qonunlarida davlat arxivlaridan hujjatlarning olib chiqib ketilishi taqiqlangan. Shu bilan birga, agar shartnomada boshqa qoida belgilangan bo'lsa, shartnoma qoidasi amal qilishi ko'zda tutilgan (25-modda). Bunday shartnomalarga misol sifatida Rossiyaning Fransiya bilan arxivlarni qaytarish yuzasidan tuzilgan bitimni keltirish mumkin.

Vena konvensiyasida davlat arxiv fondlari yaxlitligini saqlash prinsipi mustahkamlangan. Bu prinsip 1992-yilda MDH doirasida imzolangan hujjat — Sobiq SSSR davlat arxivlariga nisbatan huquqiy vorislik to'g'risidagi bitimda yaqqol o'z ifodasini topgan. Arxiv fondlarining yaxlitligi va bo'linmasligi prinsipidan kelib chiqqan holda mazkur hujjat ishtirokchilari sobiq Rossiya imperiyasi va SSSR oliy davlat organlarining faoliyati natijasida tashkil topgan hamda ularning «o'z hududlaridan tashqarida» saqlanayotgan fondlarga nisbatan da'vogarlik qilmaydilar (1-modda).

Ayni vaqtda, ishtirokchilardan har birining hududida joylashgan davlat arxivlari, shu jumladan, umumittifoq doirasidagi arxivlar ularning o'z yurisdiksiyalariga o'tgani o'zaro tan olindi (2-modda). Shunday qilib, arxivlarni taqsimlash nisbatan oddiy — hududiy mezon bo'yicha amalga oshirildi. Fondlarning bo'linmasligi prinsipi ham ayni shu jihatdan talqin etildi.

Davlatlar birlashishi chog'ida arxivlar birlashgan davlat ixtiyoriga o'tadi. Boshqa barcha hollarda amaliyotda umumiy foydalaniladigan asosiy qoidalar mavjud. Avvalgi davlat arxivlarining voris davlat o'z hududlarini samarali boshqarishi uchun uning hududida saqlanishi zarur bo'lgan qismi ana shu voris ixtiyoriga o'tadi. Shuningdek, arxivlarning voris davlat hududiga bevosita tegishli bo'lgan qismlari ham uning ixtiyoriga o'tadi.

Avvalgi davlat o'zining chegaralarini belgilab beradigan o'z hududiga oid huquqlarga taalluqli, shuningdek, topshirilgan arxivdagi hujjatlarning mazmun-mohiyatini aniqlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni voris davlatga taqdim etishga majbur. Ushbu muhim qoida MDH mamlakatlari o'rtasida tuzilgan Bitimda o'z aksini topmagan, ammo bunda MDH Nizomining maqsad va prinsiplarini hisobga olgan holda xulosa chiqariladi.

6-§. Davlat qarzlari bo'yicha huquqiy vorislik

1983-yildagi Vena konvensiyasi faqat avvalgi davlatning boshqa bir xalqaro huquq subyektiga nisbatan xalqaro huquq bo'yicha yuzaga kelgan har qanday moliyaviy majburiyatlariga doir davlat qarzlarigagina tegishlidir. Davlat moliyaviy majburiyatlarining kattagina qismi, chet eldagi hamda davlat hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarga nisbatan davlatning qarzlari uning ta'sir doirasidan tashqarida qolgan. Zero, bu kabi qarlar ham huquqiy vorislik predmeti sanaladi.

Sobiq SSSRning ichki qarzlari muammosini hal etish asoslari 1992-yildagi maxsus bitimda belgilangandi. Uning ishtirokchilari har birining hududidagi SSSR jamg'arma muassasalari balansi hisobida bo'lgan qarlar qoldig'iga proportsional miqdorda SSSR qarzlarini aholiga to'lash bo'yicha o'z zimmalariga majburiyat oldilar. Qarzlarning qolgan qismiga kelsak (SSSR Davlat banki, Davlat sug'urtasi va boshqalar bo'yicha ichki qarlar), uni har bir ishtirokchi ishlab chiqargan milliy daromadning tegishli ulushi va ittifoq budjetidan foydalangan sarmoya qo'yilmalari miqdoridan kelib chiqib, o'zaro taqsimlashga qaror qilingan.

Vena konvensiyasida umumiy prinsip sifatida ta'kidlanganidek, davlatlarning bu taxlit huquqiy vorisligi kreditorlarning majburiyatlari huquqiga daxl qilmaydi (36-modda). Boshqacha aytganda, huquqiy vorislik alohida hollarni istisno etganda, kredit beruvchilarning huquqlariga ziyon yetkazmaydi.

Huquqiy vorislikning barcha hollari uchun quyidagi umumiy qoida belgilangan: avvalgi davlatning qarzi voris davlatga adolatli ulushda o'tadi, ya'ni bu ulush ana shu davlat qarzi munosabati bilan voris davlat ixtiyoriga o'tadigan mol-mulk, huquq va manfaatlarni hisobga olgan holda belgilanadi.

Sobiq sovet respublikalari o'rtasida SSSR davlat qarzlari nisbatan huquqiy vorislik yuzasidan bir qator ko'p tomonlama va ikki tomonlama bitimlar tuzilgandi. Ulardan asosiysi 1991-yildagi SSSR tashqi davlat qarzlari va aktivlariga nisbatan huquqiy vorislik haqidagi ko'p tomonlama shartnoma bo'lib, unda «tashqi davlat qarzlari va aktivlari» tushunchasi ochib berilgan. Ammo ushbu qarzni proportsional taqsimlash asosida muammoni hal etishning imkoni bo'lmagan.

Muammoning tartibga solinmagani xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan moliyaviy munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir qilgan. Shu bois, Rossiya 1993-yilda o'z qarorini taklif etganki, uning prinsiplari zahirida ikki tomonlama bitimlar tuzish g'oyasi mujassamlashgan edi. Rossiya hukumatining 1993-yil 17-maydagi qarorida ushbu prinsiplar quyidagi tartibda bayon etilgan. Sobiq Ittifoq respublikalarining qarzlari 1991-yildagi shartnomani imzolagan davlatlarning sonini hisobga olgan holda belgilanadi. Shu ma'noda, ishtirok etmayotgan davlatlarning qarz bo'yicha ulushlari ishtirokchi davlatlar o'rtasida o'zaro taqsimlanadi. Respublikalar Rossiya zimmasiga ana shu davlatlar qarz ulushlarini to'lash majburiyatini yuklaydilar. Kompensatsiya sifatida respublikalar sobiq SSSR aktividagi o'z ulushlarini Rossiya ixtiyoriga topshiradilar.

SAKKIZINCHI MAVZU.

XALQARO HUQUQ VA MILLIY HUQUQNING O'ZARO MUNOSABATI

- 1-§. Xalqaro va milliy huquqning o'zaro munosabati**
- 2-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq**
- 3-§. Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa bo'lgan transformatsiyasi (implementatsiyasi)**

1-§. Xalqaro va milliy huquqning o'zaro munosabati

Xalqaro va milliy huquq (davlatning ichki huquqi) turli sohalarida amal qiladigan va bir-biriga bo'ysunmaydigan mustaqil huquq tizimlari hisoblanadi. Ayni chog'da, ular o'zaro murakkab munosabatlar bilan bog'langandir.

Keng ma'noda qaralganda, xalqaro va milliy huquqlarning harakat sohaları bir-biriga juda yaqin bo'lib, u tegishli huquq subyektlarining o'zaro harakati jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni qamrab oladi. Amaliy jihatdan yondoshganda, xalqaro va milliy huquqlarning harakat sohasi qanchalik o'zaro yaqin bo'lmasin, ular turlicha-dir.

Birinchiidan, xalqaro huquq subyektlari sifatida — davlatlar, milliy huquq subyektlari sifatida esa, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek, ushbu davlatlarning organlari namoyon bo'ladi.

Ikkinchiidan, tartibga solish obyekti xalqaro huquqda — xalqaro (davlatlararo) munosabatlar, milliy huquqda esa, mamlakat ichkarisidagi ijtimoiy munosabatlar kiradi.

Uchinchiidan, xalqaro huquqda normativ manbalarni davlatlar, bitim asosida yaratadi, milliy huquq manbalarini esa, qonunlar hamda davlatning oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining qonunosti hujjatlari tashkil etadi.

To'rtinchiidan, milliy huquq normalariga rioya etishni alohida davlat majburlov apparati ta'min etgani holda, xalqaro huquq normalariga amal qilishni ta'minlash alohida yoki jamoa tarzida majburlovchi usullarni qo'llash yo'li bilan ro'yobga chiqariladi, bunda majburlovni qo'llash doirasi va shakllari maxsus prinsiplar hamda xalqaro huquq normalarida belgilangan bo'ladi.

Xalqaro huquqning milliy huquq bilan bo'lgan o'zaro munosabatlaridagi chuqurlashuv ijtimoiy hayotni baynalmillallashtirish bilan belgilanadi.

Xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi-ga muvofiq, har qanday davlat o'z hokimiyatini amalga oshirishda, jumladan qonunlar va ma'muriy qoidalarni o'rnatishda o'z zimmasidagi xalqaro majburiyatlarni muvofiqlashtirib oladi. Shu bilan birga, davlatlarning suveren tengligi prinsipi har bir davlatga o'z milliy huquqiy tizimini o'zi tanlash, shuning barobarida, o'z ichki davlat huquqining xalqaro huquq bilan o'zaro munosabat tartibini belgilash uchun imkon beradi. Bu xalqaro huquq davlat zimmasiga muayyan majburiyat yuklaydi, uni mamlakat ichida amalga oshirish tartibini esa, agar xalqaro-huquqiy normada boshqa xil qoida mavjud bo'lmasa, milliy huquq belgilaydi.

Shunday qilib, xalqaro huquq va davlat ichki huquqi ikki mustaqil o'zaro bog'liq huquq tizimidir. Ular bir-biriga muayyan ta'sir ko'rsatadi hamda har biri o'z makonida harakat qiladi.

Xalqaro va milliy huquqning o'zaro munosabati bo'yicha uch xil nuqtayi nazar mavjud.

Birinchi nuqtayi nazar tarafdorlari xalqaro huquqning milliy huquq normalaridan ustunligini e'tirof etadilar va hozirgi kunda ko'pchilikni tashkil etadilar. Xalqaro huquqning ustunligi aksariyat davlatlarning konstitutsiyalarida, xususan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi-niing Muqaddimasida ham mustahkamlangan. Demak, birinchi nuqtayi nazar xalqaro huquq ustunligi nazariyasini asoslaydi.

Ikkinchi nuqtayi nazar bo'yicha xalqaro huquq va davlat ichki hu-

quqi o'zining subyektlari, manbalari, obyektlari, harakat qilish sohasi bo'yicha mustaqil huquq tizimlaridir. Bu nuqtayi nazar namoyondalarining ta'limoti dualistik nazariya nomini olgan.

Uchinchi nuqtayi nazar XIX asrda Germaniyada tarqalgan bo'lib, unda davlat ichki huquqining xalqaro huquqqa nisbatan ustunligi olg'a surilgan.

Xalqaro huquq tizimi va davlatning ichki huquqi tizimi bir-biridan umuman ajralgan va alohida holda mavjud bo'lmaydi.

Xalqaro huquqda norma ijodkorligi milliy huquq tizimlariga ta'sir ko'rsatishi hamda bu davlatlarning tashqi siyosati va diplomatiyasida hisobga olinishi fakt sifatida e'tirof etiladi. Xalqaro huquq o'z navbatida milliy qonunchilikka ta'sir ko'rsatadi. Qator davlatlarda ratifikatsiya qilingan xalqaro shartnomalar to'g'ridan to'g'ri milliy qonunchilikning bir qismiga aylanadi. Ko'plab davlatlar qonunlarida shunday qoida belgilanganiki, unga ko'ra, qonundagi qoidalar bilan xalqaro shartnoma normalari o'rtasida tafovut mavjud bo'lgan hollarda xalqaro shartnoma qoidalari ustuvor sanaladi.

Xalqaro huquq subyektlari, prinsip nuqtayi nazaridan olganda, xalqaro majburiyatlarga rioya qilmaganliklarini oqlash uchun o'z qonunchiligiga havola qilishlari mumkin emas. Davlatlar o'z zimmalariga olgan xalqaro majburiyatlarni sidqidildan bajarishlari zarur.

2-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq

Har bir davlatning milliy huquqi ular qabul qiladigan xalqaro huquq normalari mazmuniga ta'sir ko'rsatadi: biron-bir davlat o'zining g'oya va dasturlariga zid keluvchi xalqaro majburiyatlarni zimmasiga olmaydi. Shu bilan birga, milliy huquq xalqaro huquqning milliy huquqiy tizimga kirib kelishi huquqi darajasi va shartlarini belgilaydi va bunda davlatlarning asosiy qonunlari bo'lmish konstitutsiyalari hal etuvchi ahamiyat kasb etadi. Xalqaro huquqning bironta normasi konstitutsiyani chetlab o'tgan holda milliy huquqqa kirib kelishi mumkin emas.

Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa kirib kelish qoidalari turli mamlakatlarda turlichadir. Ayrim davlatlarning konstitutsiyalarida xalqaro huquqning milliy huquqdan ustun turishi va uning mamlakat ichkarisidagi bevosita ta'siri to'g'risida so'z boradi. Aslida bu ham xalqaro huquqning konstitutsiya bo'yicha kirib kelishi huquqi to'g'risidagi qoidadadir.

Dunyoning aksariyat mamlakatlarida xalqaro huquqning, bir tomondan, odat normalari, ikkinchi tomondan shartnomaviy normalarning kiritilishi tartiblari o'rtasida farqlar mavjud. Masalan, AQSHda xalqaro odat huquqi mamlakat milliy huquqining uzviy qismi sanaladi va ijro yoki qonun chiqaruvchi hokimiyatga mansub xalqaro shartnoma

yoxud boshqa biron-bir normativ hujjat yoki sud qarori mavjud bo'lmagan taqdirda, sudlar undan tegishli maqsadlarda foydalanishi ko'zda tutiladi.

Yevropa mamlakatlari huquqiy tizimlarida bu masala boshqacharoq hal etilganini kuzatish mumkin. Masalan, Germaniyada umumiy xalqaro huquq normalari mamlakat milliy huquqiga qo'shilibgina qolmay, ayni chog'da qonunlar oldida ustuvor kuchga ham egadir. Gollandiyada esa xalqaro odat huquqining barcha normalari qo'llanishi shartligi nazarda tutilgan.

Xalqaro shartnomalarga va milliy huquqning o'zaro munosabatiga kelsak, bu masalaning ikkita yechimi ma'lum:

birinchidan, xalqaro shartnoma qoidalari maxsus qonun chiqarish evazigagina milliy huquq kuchiga ega bo'ladi (Buyuk Britaniya, Hindiston, Nigeriya);

ikkinchidan, tegishli tartibda ratifikatsiya qilingan va rasmiy tarzda chop etilgan xalqaro shartnoma qoidalari to'g'ridan to'g'ri milliy huquq normalari kuchiga ega bo'ladi. Ko'pincha bunday hollarda milliy huquqda xalqaro-huquqiy normalarning mamlakat huquqiy tizimidagi ustunligi o'rnatiladi (Fransiya, Gretsiya, Ispaniya).

Yevropadagi aksariyat mamlakatlarda konstitutsiyaga zid bo'lgan xalqaro shartnomaning imzolanishiga faqat konstitutsiyaga tegishli o'zgartish kiritilganidan keyingina yo'l qo'yiladi.

3-§. Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa bo'lgan transformatsiyasi (implementatsiyasi)

Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa kirib kelish jarayoni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga aylanishini ko'zda tutgan holda, odatda, transformatsiya deb ataladi. Bunda xalqaro-huquqiy norma o'z mazmunini saqlab qolsa-da, uning shakli ba'zan o'zgaradi. Shu bois, bu o'rinda implementatsiya, ya'ni xalqaro huquq normalarining milliy huquq normalariga kirib borishi haqida ham so'z boradi.

Transformatsiya quyidagicha bo'lishi mumkin:

birinchidan, umumiy — bunda davlatning o'zi qabul qilgan xalqaro-huquqiy normalarning barchasi yoki ayrim turlari mamlakat huquqining uzviy qismi ekanini belgilaydi;

ikkinchidan, individual — bunda alohida xalqaro-huquqiy norma yoki normalar guruhi maxsus hujjat orqali mamlakat huquqiga kiritiladi;

uchinchidan, bevosita — bunda xalqaro shartnoma qoidasi, shartnoma qabul qilingani to'g'risidagi aktning to'g'ridan to'g'ri ta'sir kuchi natijasi o'laroq, milliy huquqdan ustunlik qiluvchi qoida asosida yuzaga

keladi. Ayni chog'da, xalqaro huquq normasi mamlakat milliy huquqining uzviy qismi sifatida qo'llanishi uchun u o'z-o'zidan ijro etiladigan, ya'ni bevosita qo'llash uchun yaroqli bo'lishi zarur;

to'rtinchidan, bilvosita — bunda xalqaro shartnoma asosida shartnoma mazmunini o'zida aks ettiruvchi milliy normativ hujjat chiqariladi.

Implementatsiyaning alohida turi — havola etish bo'lib, u qonunda muayyan qoidalar tegishli xalqaro shartnomaga muvofiq ravishda qo'llanishi yoki tegishli vaziyatda muayyan xalqaro shartnomaning qo'llanishi zarurligi qayd etilgan holatlarni nazarda tutadi.

Milliy huquqqa kirib kelar ekan, xalqaro huquq normalari unda alohida mavqega ega bo'ladi. Mamlakat huquqiy tizimining uzviy qismi sifatida ular o'z maqsad va prinsiplariga mos ravishda, shuningdek, unda belgilangan protsessual tartibga muvofiq tarzda qo'llanadi.

Kelgusida bunday xalqaro-huquqiy norma o'z tarkibidan olingan xalqaro shartnoma taqdiridan mustaqil holda mavjud bo'ladi. U xalqaro shartnoma to'xtatilganidan keyin ham amal qilib qolaverishi mumkin.

Transformatsiya davlatda maxsus qonun chiqarish yoki ushbu davlat hududida xalqaro shartnoma kuchda ekanini va barcha shaxslar uning talablariga rioya etishga majbur ekanini qonunlar asosida e'lon qilish yo'li bilan ro'yobga chiqarilishi mumkin. Shunday nuqtayi nazar ma'lumki, unga ko'ra davlatning xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilish yoki ma'qullash fakti uning milliy qonunchiligi ajralmas bo'lagiga aylanishi bilan tengdir. Xalqaro huquq nazariyasida ushbu yondashuv (retsepsiya) ko'pincha davlatning ichki huquqiy hujjatlarida xalqaro-huquqiy hujjat ifodasining aniq bayon etilishini belgilash maqsadida qo'llanadi. Ba'zan retsepsiya deganda, davlatning milliy qonunchilik yordamida o'z xalqaro majburiyatlarini bajarishini ta'min etishi tushuniladi.

Xalqaro huquq milliy qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshirishga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Milliy qonun chiqaruvchi hokimiyat xalqaro huquqqa zid keladigan qonunlar chiqara olmaydi. Qonun chiqaruvchi hokimiyat davlatning zimmasidagi xalqaro majburiyatlar bilan cheklab qo'yilgandir — u xalqaro huquq normalarini ro'yobga chiqarish uchun zarur qonunlar chiqarishga majbur.

Xalqaro huquqning milliy, shu jumladan konstitutsiyaviy huquqqa ta'sirining kuchayib borishi xalqaro majburiyatlar mamlakat konstitutsiyasiga muvofiqligini nazorat qilishning yangi shakllari yaratilishiga sabab bo'ladi. Bunda tobora keng urf bo'lib borayotgan konstitutsiyaviy sudlar muhim o'rin tutib, ularning asosiy vazifasi qonun hujjatlarining konstitutsiyaga nechog'li mos ekanini kuzatib borishdan iborat. Xalqaro shartnomalarning konstitutsiyaga mosligini nazorat qilish ular uchun

yangi bir vazifadir. Sudlar ushbu masalaga g'oyat ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Masalan, umumiy prinsiplar xalqaro huquq bilan demokratik davlatlar milliy huquqini bir-biriga yaqinlashtirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, milliy sudlarning huquqning umumiy prinsiplarini qo'llash borasidagi dastlabki tajribasini ijobiy baholamaslik mumkin emas. Sivilizatsiyalashgan davlat degan huquqiy tushuncha izchil qaror topmoqda. O'z huquqiy tizimida xalqaro huquqning asosiy prinsiplarini, shuningdek, imperativ normalar sifatida inson huquqini mustahkamlagan davlat tsivilizatsiyalashgan degan nomga munosibdir.

TO'QQIZINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQDA HUDUD

- 1-§. Xalqaro huquqda «hududiy ustuvorlik» tushunchasi**
- 2-§. Xalqaro huquqda «davlat chegaralari» tushunchasi**
- 3-§. Alohida xalqaro-huquqiy maqomga (rejimga) ega makonlar**
 - *Antarktikaning xalqaro-huquqiy maqomi*
 - *Arktikaning xalqaro-huquqiy maqomi*
 - *Shpitsbergenning xalqaro-huquqiy maqomi*
- 4-§. «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonuni**

1-§. Xalqaro huquqda «hududiy ustuvorlik» tushunchasi

Har qanday davlat muayyan hududda joylashadi va o'z hududini qo'riqlash uchun chegaralar o'rnatadi. Shu hududda uning fuqarolari istiqomat qiladi. Davlat o'z hududi doirasida ichki va tashqi funksiyalarni amalga oshiradi.

Hudud har qanday davlatning moddiy asosi bo'lib xizmat qiladi, davlat mavjudligining muhim sharti hisoblanadi. Barcha tabiiy zaxiralar davlat hududining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Modomiki, hudud to'liq daxlsiz ekan, demak uning qismlari, ya'ni tabiiy zaxiralari ham daxlsizdir. Ularni xorijiy shaxslar yoki davlatlar hududiy suveren ijroatsiz ishlatishi davlat hududiy daxlsizligining buzilishi sifatida e'tirof etiladi. Shu bois, davlatlar uning yaxlitligini ta'minlashga jiddiy e'tibor beradi. Ancha ilgari, Millatlar Ligasi statutidayoq har qanday tashqi xurujlarga qarshi o'laroq, a'zo davlatlarning hududiy yaxlitligini hurmat qilish va saqlab qolish majburiyati qayd etilgandi. Ushbu prinsip 1945-yilda BMT Ustavi qabul qilinishi bilan o'z tasdig'ini topdi.

Ba'zan davlatlarning hududiy yaxlitligi prinsipi davlatga tegishli hududlar yaxlitligi prinsipi yoxud davlatga tegishli hududlar daxlsizligi prinsipi, deb ham yuritiladi, ammo bu o'rinda asosiy mazmun-mohiyat

bitta — xorijiy davlat uchun hududini tajovuzkorlik bilan bosib olish, qo'shib olish yoki bo'lib tashlashni man etishdir.

Hududiy ustuvorlik davlat suverenitetining eng muhim xususiyatidir. U *davlatning o'z hududidagi oliy, to'liq va yagona hukmronligini* anglatadi. Masalan, Rossiya Konstitutsiyasida Rossiya Federatsiyasi suvereniteti «uning barcha hududiga taalluqli» ekani qayd etilgan (4-moddaning 1-qismi). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 3-moddasi-ning 2-qismida shunday deyilgan: «O'zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo'linmasdir».

Hududiy ustuvorlik oliy hokimiyat (*imperium*) va suveren egalikdan (*dominium*) iboratdir. *Oliy hokimiyat* deganda, davlat hududida boshqa biron-bir davlat hokimiyatining amalga oshirilmaligi tushuniladi. «Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va federal qonunlar Rossiya Federatsiyasining barcha hududlarida ustuvordir» (RF Konstitutsiyasi, 4-moddaning 2-qismi). O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 4-moddasining 1-qismida «O'zbekiston Respublikasi o'zining milliy-davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatini amalga oshiradi».

Agar davlat o'z hududi doirasida yagona hokimiyatni amalga oshirar ekan, demak u ana shu hududda sodir bo'ladigan barcha voqeahodisalar uchun tegishli ravishda *javobgarlikni* ham zimmasiga oladi. Davlat hududi doirasida amalga oshiriladigan faoliyat *boshqa davlatlarga ziyon yetkazmasligi kerak*. Bunda, avvalambor, atrof-muhitga yetkaziladigan zarar ko'zda tutilmoqda.

Suveren egalik deganda, davlat hududi va zaxiralarini tasarruf qilish, shu jumladan uning muayyan qismini xorijiy davlatga berish huquqi tushuniladi. Yer bo'yicha mulk huquqini qo'lga kiritish, hattoki xorijiy davlat bunday mulk huquqini qo'lga kiritgan taqdirda ham, uning davlat hududi tarkibidan chiqishiga olib kelmaydi.

Xalqaro shartnomaga muvofiq, davlatning ayrim huquqlari uning hududlaridan tashqarida ham ta'sir kuchiga ega bo'lishi mumkin. Masalan, BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasi qoidalariga ko'ra, davlatlar o'zlarining yagona iqtisodiy hududlari va kontinental shelf to'g'risidagi milliy qonunlarini qabul qiladi.

Davlat hududi davlatning moddiy asosini tashkil etadi. Hududni himoya qilish — davlatning asosiy vazifalaridan biri. Masalan, RF Konstitutsiyasiga muvofiq, «Rossiya Federatsiyasi o'z hududining yaxlitligi va daxlsizligini ta'minlaydi» (4-moddaning 3-qismi).

Xalqaro huquq ham davlat hududini qo'riqlashga alohida ahamiyat beradi. Uning kuch ishlatmaslik, hududiy yaxlitlik, chegaralar daxlsizligi kabi asosiy prinsiplarining mazmun-mohiyati deyarli shu masalaga

bag'ishlangan. Davlat boshqa har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga qarshi kuch bilan tahdid qilishdan yoki uni ishlatishdan o'zini tiyib turishga majbur. Davlat hududi boshqa davlatning unga qarshi kuch bilan tahdid qilish yoki uni ishlatish evaziga egalik qilinadigan obyekt bo'lishi mumkin emas.

Hudud, shuningdek, davlat suvereniteti amal qiladigan keng makon, davlatning hududiy yurisdiksiyasi makoni sifatida tushuniladi. Davlat hududi tarkibiga quyidagilar kiradi:

birinchidan, quruqlik hududi (quruqlikning yuza qismi), shu jumladan orollar;

ikkinchidan, suv hududi (akvatoriya): ichki suvlar va hududiy dengiz;

uchinchidan, quruqlik va suv hududlari ostidagi yer osti boyliklari; bunda yer qa'ri chuqurligi chegaralanmagan va nazariy jihatdan Yer kurrasining markazigacha taalluqli hisoblanadi;

to'rtinchidan, havo hududi bo'lib, u sanab o'tilgan makonlar doirasida toki fazogacha bo'lgan ustki hududdan iborat; havo hududining balandlik chegarasi o'rnatilmagan, ayrim fikrlarga qaraganda, u 100—110 kilometrni tashkil etadi.

Masalan, RF Konstitutsiyasiga muvofiq, Rossiya Federatsiyasi hududi «uning subyektlari hududlari, ichki suvlar va hududiy dengizlar, ular ustidagi hududiy makondan iboratdir» (67-moddaning 1-qismi).

Davlat muayyan huquqlarni boshqa davlatga bergan holda, bir tomonlama asosda yoxud xalqaro shartnoma bo'yicha o'zining hududiy yurisdiksiyasini cheklashi mumkin. Bunday hollar bevosita va tranzit havo yo'llari hamda chet el qurolli kuchlarining boshqa davlat hududida bo'lib turishi bo'yicha bitimlarda ko'proq ko'zga tashlanadi.

Hududlarning mansubligi va chegaralar o'tishi bilan bog'liq *xalqaro nizolar* faqat tinch yo'l bilan, kuch ishlatmasdan va xalqaro huquq asosida hal etilmog'i zarur.

Muzokaralar yo'li bilan yoki xalqaro organlarda bunday nizolarni hal etish borasida orttirilgan katta tajriba, odatda, davlatlar o'zining hududga egalik qilishini asoslash uchun ilgari suradigan bir necha dalil-isbotlarni aniqlash imkonini beradi.

1. *Istilo etish (okkupatsiya) va egallab olish muddatining uzoqligi samaralidir.* Bularning zamirida davlat suverenitetini samarali joriy etishdan iborat yagona prinsip mujassam, ya'ni davlat tegishli barcha hudud bo'ylab va o'zining xalqaro huquq bo'yicha majburiyatlarini bajarishi uchun zarur bo'lgan darajada hududiy ustunlikni amalga oshiradi. Davlat boshqaruv faoliyatining joriy etilishi tegishli hududning har bir nuqtasida namoyon bo'lishi uchun aholi yashamaydigan va borish qiyin bo'lgan joylarda yurisdiksiyani amalda qo'llash umuman talab etilmasligi ham mumkin va bu shart ham emas.

Samarali davlat boshqaruvining rasmiy mezonlariga quyidagilar kiradi: birinchidan, mazkur davlat huquq-tartibot idoralari qo'llab-quvvatlab turadigan muayyan tartibning o'rnatilganligi;

ikkinchidan, boshqa davlat hukmronligiga yo'l qo'yilmasligi yoki suveren davlat xabardorligi va roziligi asosida boshqa davlat yurisdiksiyasi uchun imkon beriladigan ayrim holatlar.

2. Hozirgi zamon nizolarida *egalik qilish muddatining uzoqligidan* foydalanish shubhalidir, zero o'tmishda hududlar, odatda, zamonaviy xalqaro huquq rad etgan usullar — urush, bosqinchilik, mustamlakachilik kurashlari evaziga qo'lga kiritilgan. *Muddat uzoqligi* dalili faqat quyidagi shartlar mavjud bo'lgan hollardagina tan olinishi mumkin:

birinchidan, o'tmishda hududni egallash davlatlarning tegishli shartnomada o'z ifodasini topgan roziligi yoki sukut saqlash ko'rinishida tan olishi asosida amalga oshirilgan;

ikkinchidan, egalik qilish uzluksiz va daxsiz bo'lgan, masalan, boshqa davlatlar e'tiroz bildirmagan.

Ana shu shartlar mavjud bo'lgan hollarda *muddat uzoqligi* — olis o'tmishga borib taqaladimi yoki bir necha o'n yildan iborat bo'ladimi — hech qanday ahamiyatga ega bo'lmaydi.

3. Egalik qilishning boshqa davlatlar tomonidan *sukut saqlash ko'rinishida tan olinishi* nafaqat to'g'ridan to'g'ri hududiy ustunlikni amalga oshirishga, balki boshqa alohida huquqlarga, masalan, baliq ovlash yoki dengizdan turli xil tabiat in'omlarini yig'ib olishga ham daxldordir. Davlat faoliyati ayrim turlarining sukut saqlash ko'rinishida tan olinishi oxir-oqibat faoliyatning xuddi shu turi bo'yicha zarur ko'lamda yurisdiksiya joriy etishni ko'zda tutuvchi muayyan rejimni yaratishga qodirdir.

4. Xalqning o'z taqdirini o'zi belgilashi plebistsit (referendum) jara-yonida aniqlanishi mumkin. Xalqaro-huquqiy amaliyotda muayyan hududiy tuzilmalarning u yoki bu davlatga qo'shilishi yuzasidan xalqning xohish-irodasini aniqlash maqsadida bir necha marta plebistsit huquqidan foydalanilgan.

2-§. Xalqaro huquqda «davlat chegaralari» tushunchasi

Davlat chegarasi deganda, uning yuzasi bo'ylab o'tkazilgan va davlat hududi sarhadlarini, ya'ni hududiy yurisdiksiya makonini belgilab beradigan, yuridik jihatdan asoslangan shartli chiziq tushuniladi.

Chegarani doimo davlatning o'zi o'rnatadi, ammo faqat shartnoma shaklidagi xalqaro bitim yoki boshqa davlatlarning sukut saqlash ko'rinishidagi tan olishi bilan tasdiqlangan chegara chizig'igina qonuniy deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasi chegaralarni shartnomaviy negizda mustahkamlash zaruratiga asoslanadi. Bunda O'zbekiston ichki va xalqaro

xayfsizlikni ta'minlash, chet el davlatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik, davlatlarning suvereniteti va hududiy yaxlitligini hamda davlat chegaralarining daxlsizligini o'zaro hurmat qilish, chegara muammolarini tinch yo'l bilan hal etish prinsiplariga amal qilmoqda. O'zbekistonning chegara to'g'risidagi qonunchiligi xalqaro shartnomalarga asoslanadi.

O'zbekiston beshta davlat bilan chegaradosh bo'lib, mamlakatimiz chegarasining uzunligi qariyb 7 ming kilometrni tashkil etadi. Davlat chegarasini belgilash, o'zgartirish, himoya qilish va qo'riqlash sohasidagi munosabatlar «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida»gi qonun bilan tartibga solinadi¹. Ushbu Qonunda O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi mamlakat hududi doirasini belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo'ylab o'tuvchi vertikal sathdan iboratligi ko'rsatilgan. Bu tushuncha xalqaro huquq normalariga mos kelib, O'zbekiston hududining barcha tabiiy ko'rinishlariga — quruqlikda, suvda, yer ostida va havo bo'shlig'idagi makon chegaralarini belgilaydi.

Chegara chiziqlari shartnomada yoki davlatning qonun hujjatlarida batafsil bayon etiladi va xaritada chiziladi. Bu bosqich *delimitatsiya* deb ataladi. Keyin chegara joyning o'zida belgilanadi, chegaraga oid belgilar o'rnatiladi, tegishli hujjatlar tayyorlanadi. Bu chegaralar *demarkatsiyasi* bosqichidir. Davlatlar amaliyotida, shuningdek, *redemarkatsiya* bosqichi ham ma'lumki, u ilgari o'rnatilgan chegaralarning tiklanishi yoki yangilanishini anglatadi. Ba'zan redemarkatsiya chegaralarni xalqaro huquqning umumiy normalariga muvofiqlashtirgan holda, hududlarni o'zaro almashish, ularni boshqa tomonga topshirish bilan ham bog'liq bo'ladi.

Masalan, 2003-yil 24-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlar bilan davlat chegarasi chizig'ini belgilash tartibi to'g'risida»gi 530-son qarori qabul qilingan. Mazkur qarorga asosan, «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining qo'shni mamlakatlar bilan davlat chegarasi chizig'ini belgilash ishlari tashkil etiladi².

Xalqaro huquqda chegaralarni delimitatsiya qilishning bir qancha usullari qayd etilgan. Xususan, *quruqlik chegaralarini* ahamiyatli nuqtalar, relief chiziqlari yoki aniq ko'rinish turadigan mo'ljallar bo'ylab o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunga misol sifatida daryolar, tog'lar va hokazolarni ko'rsatish mumkin. Bunday chegaralar aniq-ravshan farqlanib

¹ «O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni.//O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1999. № 9, 217-m.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 24-noyabrdagi 530-son qarori.

turadi va kamroq tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi. Ular *tabiiy* chegaralar deb ataladi.

Shuningdek, astronomik chegaralar ham borki, ular jo'g'rofiy to'ring meridian va parallel chiziqlari orqali o'tgan bo'ladi. Masalan, Filippin va Maldiv orollarining chegaralari xuddi shu taxlit o'rnatilgan. Afrika-dagi mustamlaka hududlar sarhadlarini belgilashda ham bunday chegaralar keng qo'llanilgan.

Suv chegaralari daryolar bo'ylab quyidagi tartibda: kema qatnaydigan daryolarda — bosh farvater o'rtasi bo'ylab yoki talvega bo'ylab (daryoning eng chuqur joyi orqali); kema qatnamaydigan daryolarda yoki oddiy irmoqlarda — ularning o'rtasi bo'ylab; bir necha shoxobchali daryolarda — bosh shoxobcha o'rtasi bo'ylab o'rnatiladi. Ko'llar va boshqa suv havzalarida davlat chegarasi quruqlikdagi chegaralarning suvga chiqish nuqtalarini to'g'ri chiziq orqali bir-biriga bog'lash bilan o'rnatiladi. Daryo, ko'l yoki boshqa suv havzalari bo'ylab o'tadigan chegara qirg'oq qiyofasida yoxud suv sathida o'zgarishlar yuz bergan hamda daryo oqimi o'zgargan hollarda ko'chirilmaydi.

Suv ombori yoki boshqa sun'iy suv havzasi barpo etilganidan keyin suv bosgan joylar bo'ylab ilgari o'tgan chegara xuddi o'sha joylarda saqlanib qoladi. U quruqlikdan suv chegarasiga o'zgaradi, xolos. Ko'priklar va to'g'onlar bo'ylab chegara, suv chegarasi chizig'idan qat'i nazar, mazkur inshootlarning o'rtasidan o'tadi.

Dengiz chegaralari hududiy dengizning tashqi chegaralariga mos tushadi. Masalan, Rossiyaning dengiz chegaralari 12 dengiz milyasi (qariyb 24 kilometr) masofasida Rossiyaning butun dengiz qirg'oqlari bo'ylab o'tadi.

Rossiya dengiz chegaralari qo'shni (Boltiqbo'yidagi va Qora dengiz bo'yidagi) davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar natijasi hisoblanadi yoki hozirgi kundagi (Kaspiy, Azov dengizlari bo'yicha) muzokaralarning mavzuini tashkil etadi.

Davlatlarning hududiy yurisdiksiyasidagi dengiz maydonlari, ayniqsa yagona iqtisodiy hudud yoki kontinental shelf kabi keng maydonlar bo'ylab yonlama chegara chizig'i o'tkazishda muayyan qiyinchiliklar yuzaga kelishi tabiiy. Xalqaro huquqda kodifikatsiyalangan odat normalariga muvofiq, bunday chegaralashlar chog'ida adolat prinsipi katta ahamiyat kasb etadi. Bunday chegaralashning texnik usuliga ko'ra, agar davlatlarning qirg'oq bo'yi hududlari bir-biriga qarama-qarshi yotgan bo'lsa — oraliq chiziq va agar davlatlarning qirg'oq bo'yi hududlari bir-biriga taqalgan, chegaradosh bo'lsa — teng turuvchi chiziqlar o'tkaziladi.

Milliy qonunlar va xalqaro shartnomalar yordamida chegarada chegara rejimi (tartibi) o'rnatiladi. Uning maqsadi — davlat xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, qonuniy aloqalarga ko'maklashuvchi va davlat

manfaatlariga zid kirish va chiqishlarga to‘siq bo‘luvchi o‘ziga xos filtr sifatida xizmat qilishdan iborat. Tegishli hujjatlar asosida va maxsus o‘tish joylaridagina chegarani kesib o‘tishga ruxsat etiladi. Faqat aviariya, tabiiy ofatlar va boshqa shu kabi favqulodda holatlardagina noqonuniy ravishda chegarani transport vositalarida, shu jumladan havo va dengiz kemalarida kesib o‘tish uchun yo‘l qo‘yiladi. Chegara rejimi «O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonunda belgilangan.

Chegaralarga taalluqli xalqaro huquqda *barqarorlik* tendensiyasi namoyondir:

birinchidan, chegaralar to‘g‘risidagi shartnomaga nisbatan shartnoma tuzilgan shart-sharoitning tubdan o‘zgargani to‘g‘risidagi izohni shartnomani to‘xtatish uchun asos sifatida qo‘llab bo‘lmaydi (Xalqaro shartnomalar bo‘yicha Vena konvensiyasi 62-moddasining 2-bandi). Demak, shart-sharoit o‘zgarganini sabab qilib, chegaralarni bir tomonlama tartibda o‘zgartirish mumkin emas;

ikkinchidan, xalqaro huquqda huquqiy vorislik bo‘yicha amal qilish prinsipi odat tusiga kirgan. Unga ko‘ra, voris davlat unga avvalgi davlatdan o‘ziga o‘tgan hudud chegaralarini tan olishi zarur. Bu prinsip ilk bor XX asrda Lotin Amerikasida amaliyotga kiritilgan edi.

XX asrda ushbu prinsipni Afrikaning mustamlakachilik zulmidan ozod bo‘lgan bir qancha davlatlari o‘rtasidagi chegara nizolarini hal etishda BMT Xalqaro sudi keng qo‘llagan. SSSRning sobiq ittifoqdosh respublikalari o‘rtasida mavjud bo‘lgan ma‘muriy bo‘linish chiziqlarini davlat chegaralari sifatida tan olgan sobiq ittifoqdosh respublikalar — mustaqil davlatlar tajribasida ham xuddi ana shu prinsip qo‘llanilganini kuzatish mumkin.

3-§. Alohida xalqaro-huquqiy maqomga (rejimga) ega makonlar

Er yuzida bir qator hududlar alohida xalqaro-huquqiy maqomga egadir. Ular jumlasiga Antarktika, Arktika va Shpitsbergenni kiritish mumkin.

Antarktikaning xalqaro-huquqiy maqomi.

Antarktika — Antarktida materigi va unga tutash Atlantika, Hind va Tinch okeanlari uchastkalarini, shu jumladan u yerdagi orollarni qamrab olgan janubiy yarimshardagi hudud.

Antarktida materigi qariyb 14 million kvadrat kilometr maydonga ega bo‘lib, Yer kurrasining o‘ndan bir qismini tashkil etadi. U mineral zaxiralarga g‘oyatda boy — ulkan ilmiy va harbiy ahamiyatga molikdir. Ushbu materikni 1820-yili F.F. Bellinsgauzen va M.P. Lazarev rahbarligidagi rus ekspeditsiyasi kashf etgan.

XX asr boshida bir qancha davlatlar materikning ayrim qismlariga

da'vo bildirganlar. Boshqa bir qator davlatlar esa, bu da'volarga qarshi noroziliklarini ma'lum qilganlar. Qit'aning xalqaro-huquqiy maqomini belgilash maqsadida 1959-yili Antarktika to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Ushbu shartnomada Antarktikaga da'vo bildirgan davlatlar ham, ana shu da'volarga qarshi chiqqan davlatlar ham, shu jumladan SSSRning huquqiy vorisi sifatida Rossiya ham ishtirok etgan.

Ushbu shartnoma Yer kurrasining 60-paralleligacha, shu jumladan barcha shelf muzliklarigacha bo'lgan janubiy qutbidagi hududlarda ta'sir kuchiga ega. Shartnomada *betaraf va qurolsizlantirilgan* hududlar maqomi belgilangan. Antarktikadan faqat tinch maqsadlardagina foydalaniladi. Harbiy bazalar barpo etish, harbiy mashqlar o'tkazish, qurol-yarog'larni sinovdan o'tkazish taqiqlangan. Antarktikada har qanday yadro portlatilishi va mazkur hududda radioaktiv materiallar ko'milishi taqiqlanadi. Ayni chog'da, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish va shu kabi boshqa har qanday tinch maqsadlar yo'lida harbiy xodimlardan foydalanish yoki jihozlash ishlarini amalga oshirish mumkin. Shartnomaning muhim prinsipi ilmiy tadqiqotlar erkinligidir.

Shartnomada hududiy da'volarni «muzlatib qo'yish»ning qayd etilgani ayniqsa alohida ahamiyat kasb etadi: ayrim ishtirokchi davlatlar ma'lum qilgan da'volaridan, ayrimlari esa ma'lum qilgan noroziliklaridan voz kechmaydilar. Ammo Shartnoma kuchda bo'lgan paytida yuz bergan biron-bir harakat yoki faoliyat Antarktikaning hududiy suverenitetiga nisbatan qandaydir da'voni qo'llab-quvvatlash yoxud inkor etishga doir bayonotlar uchun asos bo'la olmaydi va Antarktikada suverenitetning hech qanday huquqini yuzaga keltirmaydi.

Antarktikadagi barcha shaxslar o'z vazifalarini ado etish maqsadida bu yerda bo'lib turgan davrda yuz beradigan barcha xatti-harakatlar va kamchiliklar borasida o'zlari fuqarosi bo'lgan davlat yurisdiksiyasida hisoblanadilar.

Shartnoma maqsad va prinsiplarini joriy etishga ko'maklashuvchi Maslahat kengashi ta'sis etilgan bo'lib, u Antarktika bilan bog'liq masalalar yuzasidan axborot almashish, o'zaro maslahatlashish, shuningdek, ishtirokchi davlatlar hukumatlari uchun Shartnomaning maqsad va prinsiplarini joriy etishga ko'mak beradigan choralarni tayyorlash, ko'rib chiqish va tavsiya etish maqsadida ikki yilda bir marotaba chaqiriladi.

Muhokama etilgan masalalar bo'yicha Maslahat kengashi tegishli tavsiyalar qabul qiladi va ushbu tavsiyalarni kengash ishida vakillari qatnashgan barcha davlatlar tasdiqlagach, kuchga kiradi hamda Shartnomani imzolagan tomonlar uchun majburiy hisoblanadi. Shuningdek, inspeksiya masalasi ham ko'zda tutilgan bo'lib, davlatlar istalgan paytda Antarktikaning istalgan yoki barcha hududida bo'lish, shu jumladan mazkur hududlarni havodan nazorat qilish uchun to'liq erkinlik berila-

digan nazoratchilarni tayinlash huquqiga egadir. Antarktika to'g'risidagi shartnoma bir qancha huquqiy tartibot tizimlarini ishlab chiqish uchun tegishli shart-sharoit yaratgan.

1980-yilda Maslahat kengashi ishlab chiqqan Antarktikaning dengizdagi tirik zaxiralarini himoya qilish to'g'risidagi konvensiyasi atrof-muhit muhofazasi sohasiga taalluqli bo'lib, Antarktika ekotizimining muayyan qismi hisoblanuvchi 60-paralleldan shimolroqda joylashgan dengiz makonini o'z ta'sir doirasiga oladi. Konvensiyaga muvofiq, har qanday populyatsiya sonini uning barqaror holati ta'min etiladigan miqdordan kam bo'lmagan darajada saqlab qolish va umuman ekotizimga ziyon yetkazmaslik evaziga tirik organizmlarning barcha turlarini ovlash sanoatining obyekti hisoblanishi mumkin.

Antarktikaning dengizdagi tirik zaxiralarini himoya qilish bo'yicha komissiya ham mavjud bo'lib, u tirik organizmlardan ayrim turlarining mavsumlar va hududlar bo'yicha ovlanishi miqdorini tartibga solish bilan shug'ullanadi. Komissiya nazorat va inspeksiya qilish huquqiga ega. 1946-yildagi Kit ovlash sanoati to'g'risidagi konvensiyaga muvofiq tashkil etilgan Xalqaro kit ovlash sanoati komissiyasi kitlarni tijorat maqsadida ovlashni taqiqlash to'g'risida qaror qabul qilgan. Tyulenlarni ovlash sanoatiga taalluqli konvensiya ham mavjud. Antarktikada mineral xomashyo qazib olishni huquqiy tartibga soladigan tegishli hujjat ishlab chiqish borasidagi sa'y-harakatlar esa muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

1991-yilda Atrof-muhit muhofazasi haqidagi protokol Antarktika to'g'risidagi shartnomaga qo'shimcha etib ma'qullandi va unda Antarktika tinchlik va fan yo'lida xizmat qilish uchun mo'ljallangan tabiiy qo'riqxonalar sifatida belgilab qo'yildi. Protokolga muvofiq, Antarktikada mineral zaxiralarga aloqador har qanday faoliyatni amalga oshirish taqiqlanadi, ilmiy tadqiqotlar esa bundan mustasnodir. Bu o'rinda kelgusida chuchuk suvning bebaho manbaiga aylanishi mumkin bo'lgan muzga nisbatangina istisno tariqasida yondashildi. Maslahat kengashi bu borada erishgan bitimga ko'ra, muzdan foydalanish mineral zaxiralarni o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat doirasiga kirmaydi va shu boisdan ham u taqiqlanmaydi.

Arktikaning xalqaro-huquqiy maqomi.

Arktikaning o'ziga xos iqlim sharoiti taqozosiga ko'ra bu mintaqada faoliyatning alohida huquqiy maqomi shakllangan. Arktikaga tegishli bo'lgan dunyo miqyosidagi maxsus hujjatlar mavjud emas. Arktika kengliklarining xalqaro-huquqiy maqomi Rossiya, AQSH, Kanada, Norvegiya, Daniya (uning tarkibiga Grenlandiya oroli ham kiradi) kabi arktikabo'yi davlatlarining bir tomonlama hujjatlari bilan belgilangan.

XX asr boshlarida Kanada Shimoliy qutbning Kanadaning Shimoliy Muz okeaniga olib chiqish nuqtalarini birlashtiruvchi meridian sektori

doirasida o'z yurisdiksiyasi amalda ekanini tasdiqlaydigan qator hujjatlar qabul qilgan. 1926-yilda xuddi shu sektor doirasida va aynan Kanada belgilagan prinsip asosida «Shimoliy Muz okeanida joylashgan yerlar va orollarni SSR Ittifoqi hududi deb e'lon qilish to'g'risida»gi SSSR MIK Prezidiumining qarori paydo bo'lgan.

Arktikaning tabiiy shart-sharoiti Shimoliy Muz okeanidagi faoliyatni huquqiy tartibga solishning boshqa sohalarini ham nazarda tutadi:

birinchidan, bu yerda ichki suvlar va hududiy yurisdiksiyadagi boshqa hududlarni belgilash uchun boshlang'ich to'g'ri chiziqlar boshqa makonlardagiga nisbatan kengroq qo'llaniladi;

ikkinchidan, qirg'oq yaqinidan o'tadigan suv yo'llari (Norvegiya sohil-laridagi Indreleya, Rossiya Federatsiyasi sohillaridagi Shimoliy dengiz yo'li) qirg'oqbo'yi davlatlarining to'liq yurisdiksiyasida hisoblanadi, chunki ularni kema qatnaydigan holatda saqlab turish katta mehnat va sarf-xarajatni talab etadi, aksariyat hollarda esa, ushbu suv yo'li bo'ylab muz yorar kema boshchilgisiz qatnash mutlaqo imkonsizdir. 1991-yildan Rossiyada «Shimoliy dengiz yo'li trassasi bo'ylab suzish nizomi» amal qilmoqda.

BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasida Arktikaga aloqador davlatlarning tabiiy muhitni muhofaza etishga qaratilgan huquqiy hujjatlar qabul qilishlari uchun alohida vakolatlar ko'zda tutilgan. Arktikaga aloqador davlatlar shunday hujjatlarni qabul qilgan-ki, ular mazkur davlatlarga bu yerdagi barcha faoliyat turlarini nazorat va inspeksiya qilib borish bo'yicha huquqlar beradi. Arktikaga aloqador davlatlarning bu boradagi hamkorligi yanada rivojlanmoqda.

1996-yili Arktika kengashi tashkil topgan va u Arktika tabiiy muhitini va uning ekotizimi sog'lomligini himoya qilish, tabiiy zaxiralarning biologik turfa xilligini ta'minlash, ularni avaylab saqlash va ulardan bir me'yorda foydalanish kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan.

Shpitsbergenning xalqaro-huquqiy maqomi.

1920-yildagi Parij shartnomasiga muvofiq, Shpitsbergen arxipelagi Norvegiyaning to'liq va mutloq suvereniteti ostida ekani tan olingan. Ayni chog'da, Shartnoma ishtirokchilariga mansub kemalar va fuqarolar Shartnomaning I-moddasida ko'rsatilgan hududlarda va ularning hududiy suvlarida bir xil asoslarga binoan baliq ovlash hamda ov qilish huquqidan foydalanishlari uchun ijozat etilgan. Yevropa, Osiyo va Lotin Amerikasining 30 dan ortiq davlati, shu jumladan Rossiya ham ana shu Shartnoma ishtirokchisi sanaladi.

Bundan tashqari, Shpitsbergen betaraf hudud deb e'lon qilingan: arxipelagda biron-bir dengiz bazasi tashkil etilishi, harbiy maqsadlarda foydalanish butunlay taqiqlangan, hududda qandaydir mudofaa inshootlari qurilishi mumkin emas. Shunday qilib, Shpitsbergen xalqaro shartnoma bilan belgilab qo'yilgan noyob maqomga egadir.

4-§. «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonun

Ushbu Qonun 1999-yil 20-avgustda qabul qilingan bo‘lib, 46 modadan iborat¹. Qonunning asosiy maqsadi O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasini belgilash, o‘zgartirish, himoya qilish va qo‘riqlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda xalqaro huquqning ustunligi prinsipi mustahkamlangan. Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan boshqacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma normalari qo‘llaniladi.

Qonunda «O‘zbekiston Respublikasining davlat chegarasi» tushunchasi belgilangan: O‘zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi (bundan buyon matnda «davlat chegarasi» deb yuritiladi) — O‘zbekiston Respublikasi hududi doirasini (quruqlikda, suvda, yer ostida, havo bo‘shlig‘ida) belgilovchi chiziqdan va bu chiziq bo‘ylab o‘tuvchi vertikal sathdan iborat. Bundan tashqari, qonunda davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirish bo‘yicha xalqaro huquqning asosiy prinsiplari mustahkamlab qo‘yilgan. Davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirish paytida O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligini ta‘minlash zaruratidan kelib chiqadi hamda quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- 1) davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligi, davlat chegaralari daxlsizligi va buzilmasligini o‘zaro hurmat qilish;
- 2) chegara masalalarini tinch yo‘l bilan hal etish;
- 3) chet el davlatlari bilan har tomonlama, teng huquqlilik va o‘zaro manfaatdorlik asosida hamkorlik qilish;
- 4) qo‘shni davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- 5) kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga asosan, davlat chegarasini belgilash va o‘zgartirishni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi amalga oshiradi. Davlat chegarasi delimitatsiya va demarkatsiya (redemarkatsiya) qilinadi.

Davlat chegarasi quyidagicha belgilanadi:

birinchidan, quruqlikda — o‘ziga xos nuqtalar reliefning chiziqlari yoki aniq ko‘rinib turadigan joylar bo‘yicha;

ikkinchidan, kema qatnaydigan daryolarda — daryoning asosiy farvater yoki talvegi o‘rtasi bo‘ylab; kema qatnamaydigan daryolarda, jilg‘alarda — ularning o‘rtasi yoki daryoning asosiy o‘zanining o‘rtasi bo‘ylab; ko‘llar yoki boshqa suv havzalarida — davlat chegarasi ko‘l yoki boshqa suv havzasi qirg‘oqlariga chiqqan joylarni tutashtiruvchi

¹ «O‘zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonuni // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1999. №9. —217-m.

to'g'ri yoki boshqacha chiziq bo'yicha. Daryo, jilg'a yoki boshqa suv havzasi orqali o'tadigan davlat chegarasi ular qirg'oqlarining ko'rinishi yoki suv sathi o'zgarganda ham, daryo, jilg'a oqimi u yoki bu tomonga burilganda ham o'zgarmay qolaveradi;

uchinchidan, suv omborlarida va boshqa sun'iy suv havzalarida — ular suv bilan to'ldirilgunga qadar davlat chegarasining mazkur joyi o'tgan chizig'iga muvofiq ravishda;

to'rtinchidan, daryolar, jilg'alar, ko'llar va boshqa suv havzalari orqali o'tuvchi ko'priklarda, to'g'onlar va boshqa inshootlarda — davlat chegarasi suvdan o'tish-o'tmasligidan qat'i nazar, shu inshootlarning o'rtasi yoki ularning texnologiya o'qi bo'ylab.

Davlat chegarasi joylarda aniq ko'rinib turadigan chegara belgilari bilan ko'rsatib qo'yiladi. Chegara belgilarining shakllari, o'lchamlari va ularni o'rnatish tartibi qonun hujjatlari hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilanadi. Qo'shni davlatlar o'rtasida davlat chegarasi chizig'ini ko'rsatib qo'yish uchun joylarda chegaraning butun uzunligi bo'ylab, shuningdek, chegara bo'yi daryolari va suv havzalari bo'ylab chegaraning tozalash mintaqalari belgilanadi.

Davlat chegarasining shaxslar va transport vositalari tomonidan kesib o'tilishi xalqaro avtomobil, temir yo'l, havo, daryo qatnovi yo'llarida yoki qonun hujjatlarida hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilab qo'yiladigan boshqa joylarda amalga oshiriladi.

Chegara nizolari va mojarolarini hal etish qonun hujjatlarida hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlash sohasida quyidagi vakolatlarga ega:

1) davlat chegarasini himoya qilish va qo'riqlashni tashqi siyosiy, xalqaro-huquqiy jihatdan ta'minlashni amalga oshiradi;

2) davlat chegarasini va uning rejimini belgilash bo'yicha muzokaralar olib boradi, zarur hujjatlar va materiallarni tayyorlaydi;

3) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasiga kirishi va O'zbekiston Respublikasidan chiqishi huquqini beruvchi hujjatlarni rasmiylashtiradi;

4) davlat chegarasi rejimiga rioya etish masalalarini, chegara nizolarini belgilangan tartibda hal etadi;

5) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'NINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQDA AHOLI

- 1-§. Xalqaro huquqda «fuqarolik» tushunchasi
- 2-§. Xalqaro huquqda «diplomatik himoya» tushunchasi
- 3-§. Shaxsning xalqaro-huquqiy maqomi
 - *Fuqarolikka ega bo'lish*
 - *Fuqarolikni yo'qotish*
 - *Hududiy o'zgarishlarda fuqarolik masalasining hal etilishi*
 - *Fuqarosizlik*
 - *Ko'p fuqarolik*
 - *Davlat hududidagi fuqarosizlarning holati*
- 4-§. Ishchi-migrantlar (ko'chmanchilar)ning huquqiy maqomi
- 5-§. Qochoqlarning huquqiy maqomi
- 6-§. Xalqaro huquqda boshpana huquqi

1-§. Xalqaro huquqda «fuqarolik» tushunchasi

Har bir inson — shu davlat fuqarosimi, chet el fuqarosimi yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxsmi — bundan qat'i nazar, o'zi istiqomat qilayotgan davlat hududida shu davlat bilan muayyan huquqiy aloqada bo'ladi. Barcha insonlar istiqomat qilayotgan shu davlat qonunlariga, ijtimoiy va huquqiy tartibiga to'liq rioya qilishlari lozim.

Shaxsiy ustunlik deganda, davlatning o'z aholisi hisoblangan barcha shaxslarga nisbatan oliy hokimiyat kuchiga egaligi tushuniladi. Har qanday davlat aholisi o'z huquqiy maqomi bo'yicha quyidagi uchta muhim toifaga bo'linadi:

- 1) fuqarolar;
- 2) chet elliklar;
- 3) fuqaroligi bo'lmagan shaxslar.

Fuqarolik jismoniy shaxs bilan davlat o'rtasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarni belgilab beruvchi huquqiy munosabatdir. Agar federal davlat qonunchiligida federal fuqarolikdan tashqari, federatsiya subyekti fuqaroligi ham ko'zda tutilgan bo'lsa, u holda xalqaro-huquqiy tartibga solish doirasida faqat federal fuqarolik hisobga olinadi. Bu, jumladan kanton va obshina (jamoalar fuqaroligi mavjud bo'lgan Shveysariya fuqaroligiga, shuningdek, ayrim respublikalari (Tatariston, Boshqirdiston) o'zining alohida fuqaroligini joriy etgan Rossiya Federatsiyasi fuqaroligiga tegishlidir.

1992-yildagi (1993-yildan kuchga kirgan) Maastrixt shartnomasi bilan belgilangan Yevropa Ittifoqi fuqaroligi masalasi nisbatan murakkabroqdir. Unga ko'ra, «a'zo davlat fuqaroligiga ega bo'lgan har bir shaxs

Ittifoq fuqarosi hisoblanadi». 1997-yil 23-maydagi Belorussiya va Rossiya Ittifoqi Nizomiga muvofiq, «Ittifoq fuqaroligi joriy etiladi. Rossiya Federatsiyasining har bir fuqarosi va Belarus Respublikasining har bir fuqarosi bir vaqtning o'zida Ittifoqning fuqarosidir».

1948-yildagi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida qayd etilgan umumiy prinsipga ko'ra, birinchidan, har bir inson fuqaro bo'lish huquqiga ega; ikkinchidan, hech kim mantiqsiz ravishda, o'zboshimchalik bilan o'z fuqaroligidan yoki fuqaroligini o'zgartirish huquqidan mahrum etilishi mumkin emas.

Fuqarolikni tartibga solishda ichki huquq muhim o'rin tutadi. O'zining ustunlik kuchidan foydalangan holda, davlat fuqaro huquqlarini, fuqarolikni olish va yo'qotish tartib-qoidalarini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va 1992-yildagi «O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonun¹ mamlakatimizning bu bo'radagi asosiy hujjatidir.

2-§. Xalqaro huquqda «diplomatik himoya» tushunchasi

Davlatning o'z fuqarolariga nisbatan xalqaro miqyosdagi majburiyati boshqa davlatda bo'lib turgan chog'ida ularni himoya etishdan iborat bo'lib, u *diplomatik himoya* deb ataladi.

Diplomatik himoya biron-bir davlat xatti-harakati bilan uning hududida bo'lib turgan boshqa davlat fuqarosiga nisbatan zarar yetkazilgan taqdirda, quyidagi shartlar asosida qo'llanishi mumkin:

birinchidan, ana shu xatti-harakatlar xalqaro huquqqa zid bo'lsa;

ikkinchidan, odatdagi himoya vositalari (sud va boshqalar)dan foydalanish natija bermagan yoki berishi mumkin bo'lmagan hollarda;

uchinchidan, zarar xususiy shaxs xatti-harakati bilan yetkazilgan bo'lsa-yu, davlat buzilgan huquqlarni tiklash borasida zarur choralarni ko'rmasa;

to'rtinchidan, chet el fuqarolarining ichki milliy qonunlarga amal qilmaslik hollari kuzatilganda.

Aksariyat hollarda diplomatik himoyani diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari amalga oshiradi. Mustasno hollarda Tashqi ishlar vazirligi va hatto hukumat mazkur masala bilan shug'ullanishga kirishishi mumkin. Masalan, *Belorussiya va Rossiya Ittifoqi Nizomiga muvofiq (18-modda), Ittifoq fuqarosi* «o'zi fuqarosi bo'lgan Ittifoqning ishtirokchi davlatiga qarashli diplomatik vakolatxonalar mavjud bo'lmagan uchinchi mamlakat hududida Ittifoqning boshqa ishtirokchi davlatiga qarashli diplomatik vakolatxonalar yoki konsullik muassasalari tomonidan

¹ Qarang: «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonun. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi. 1992.-№ 9.—333-m.

ana shu davlat fuqarolari bilan bir xil sharoitlarda himoya qilinish» huquqiga egadir.

3-§. Shaxsning xalqaro-huquqiy maqomi

Fuqarolikka ega bo'lish. Fuqarolikka ega bo'lishning ikkita asosiy usuli mavjud.

Birinchisi: *filiatsiya*, ya'ni birlamchi usul bo'lib, bunda fuqarolikka ega bo'lish huquqi tug'ilish bilan birga paydo bo'ladi.

Ikkinchisi: *naturalizatsiya* usuli deb ataladi va ushbu hosila usuliga ko'ra, boshqa bir davlat fuqarosi yoxud apatrid (fuqaroligi bo'lmagan shaxs) hisoblangan shaxslarga fuqarolik beriladi.

Fuqarolarning aksariyat qismini tug'ilishiga ko'ra fuqarolar tashkil etadi. Fuqarolikka ega bo'lish to'g'risidagi qonunchilikning ikkita prinsipi ma'lum: qon huquqi (jus sanguinis) va tuproq huquqi (jus soli). Birinchi prinsipga muvofiq, shaxs tug'ilgan joyidan qat'i nazar, ota-onalari fuqaroligiga ega bo'ladi. Ota va ona turli fuqarolikka ega bo'lgan hollarda ushbu masala milliy qonunchilikka muvofiq va ko'pincha ota-ona roziligi asosida hal etiladi. Tuproq huquqi prinsipiga ko'ra, shaxs qaysi davlat hududida tug'ilgan bo'lsa, o'sha davlatning fuqaroligiga ega bo'ladi.

Amaliyotda ana shu ikki prinsipning muayyan jihatlarini o'zida birlashtirgan aralash tizimlar tobora keng tarqalmoqda. Masalan, RFning 1991-yil 28-noyabrdagi «Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, fuqarolikka *qon huquqi prinsipi asosida ega bo'linadi, bola qayerda tug'ilganligidan qat'i nazar, ota-onasi fuqaroligini oladi* (14-modda). Ammo ota-onalar hech qanday fuqarolikka ega bo'lmagan hollarda tuproq huquqi prinsipi qo'llanilishi mumkin (17-modda). «Tashlandiqlar», ya'ni ota-onalari noma'lum bolalar ham xuddi shu asosda fuqarolikka ega bo'ladi (16-modda). Ota-onalari noma'lum bolalarning mahalliy fuqarolik prezumpsiyasi ko'pchilik davlatlarga xosdir.

Naturalizatsiya, asosan, shaxsning arizasiga ko'ra fuqarolikka qabul qilinishi, demakdir. Naturalizatsiyaning boshqa xil ko'rinishlari — asrab olish, optatsiya, ko'chish, davlat xizmatiga o'tish kabilar. Ko'pincha chet ellik shaxs bilan nikohga o'tish hollarida fuqarolikka ega bo'lish muammoga aylanadi. Ilgari qabul qilingan tartibga ko'ra, bunday hollarda ayol o'z fuqaroligini yo'qotar va erining fuqaroligiga ega bo'lardi. Hozirgi kunda davlatlarning aksariyat ko'pchiligi jinsiy tenglik pozitsiyasini ma'qullagan holda, ayolning bunday nikohga kirishi uning fuqaroligiga ta'sir qilmasligi qoidasiga asoslanmoqda. Shu bilan birga, nikohga kirish chog'ida fuqarolikka ega bo'lishning imkon qadar sod-dalashtirilgan tartiblari ko'zda tutilayotir. Masalan, «Rossiya Federatsiyasi fuqaroligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq, nikohga kirishda RF fuqaroligiga ro'yxatdan o'tish bilan ega bo'lish mumkin.

Bunday amaliyot 1957-yildagi Turmush qurgan ayol fuqaroligi to'g'risidagi konvensiyaga mos bo'lib, unga ko'ra, nikohga o'tish va shuningdek, nikohni bekor qilish ayolning fuqaroligiga hech qanday ta'sir etmaydi. Chet ellik xotin soddalashtirilgan tartib bo'yicha o'z erining fuqaroligini olishi mumkin.

Fuqarolik *tegishli shaxsning xohish-istagisiz* berilmasligi kerak. Majburiy tarzda fuqarolik berilishi — tegishli shaxs o'zi fuqarosi bo'lgan davlat tomonidan diplomatik himoyaga olinishi uchun yetarli asos hisoblanadi. Ba'zan qonunchilik qaysidir shaxsning alohida xizmatlarini munosib taqdirlash maqsadida, unga o'z fuqaroligini berishni ham ko'zda tutishi mumkin.

Fuqarolikka ega bo'lishning alohida turi — reintegratsiya bo'lib, u ilgari yo'qotilgan fuqarolikning qayta tiklanishidir. Ko'pchilik mamlakatlar huquqida fuqarolikni tiklashning soddalashtirilgan tartiblari mavjud.

Fuqarolikni yo'qotish. Fuqarolikni yo'qotish, uning to'xtatilishi bilan bog'liq masalalar davlatning ichki huquqi asosida hal etiladi.

Shaxs fuqarolikni quyidagi hollarda yo'qotishi mumkin:

birinchidan, o'z xohish-istagiga ko'ra;

ikkinchidan, davlat tashabbusi bilan.

Ikkinchi holatda fuqarolikdan mahrum etish haqida so'z boradi. U g'ayriixtiyoriy ravishda, masalan, shaxs boshqa fuqarolikka ega bo'lganida, chet elda uzoq muddat yashab qolganida, chet el qurolli kuchlariga xizmatga kirganida amalga oshirilishi mumkin. Fuqarolikdan mahrum etishning boshqa bir turi — bu haqda davlatning maxsus hujjati, oliy organ qarori yoki sud hukmi chiqishidan iborat.

Siyosiy faoliyati tufayli ommaviy tartibda fuqarolikdan mahrum etish tajribasi ham mavjud. *1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin Rossiyada xuddi shu asos bo'yicha qariyb ikki million kishi fuqaroligidan mahrum etilgandi.* Aynan shunday vaziyat 1941-yilda Germaniya tomonidan Fuqarolik bo'yicha imperiya huquqi to'g'risidagi 11-dekret chiqarilganda yuz bergan va chet ellarda yashayotgan germaniyalik yahudiylar fuqarolikdan mahrum etilgan edi.

So'nggi o'n yilliklarda davlatlarning fuqarolikdan mahrum etish huquqini cheklash tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, 1992-yil 2-iyulda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida»gi qonuning 1-moddasida «hech kim fuqarolikdan yoki fuqarolikni o'zgartirish huquqidan mahrum qilinishi mumkin emas»¹, deyilgan.

1961-yildagi (1975-yil 13-dekabrda kuchga kirgan) Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi konvensiyada fuqarolikni yo'qotishga taalluqli

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining axborotnomasi, 1992. №9.— 3338-m.

bir qator normalar mavjud. Konvensiyada qayd etilgan umumiy qoidaga ko'ra, agar oqibatda fuqaro fuqaroligi bo'lmagan shaxsga aylanib qoladigan bo'lsa, davlat uni fuqaroligidan mahrum etmasligi kerak.

Aksariyat davlatlar qonunchiligida (masalan, AQSHning 1952-yildagi Immigratsiya va fuqarolik to'g'risidagi qonunida) mavjud yana bir normaga ko'ra, boshqa bir fuqarolik qabul qilinishi munosabati bilan tegishli fuqarolik g'ayriixtiyoriy ravishda barham topadi. Bunday norma 1963-yildagi Ko'p fuqarolikni cheklash va ko'p fuqarolik hollarida harbiy majburiyat to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida ham bor.

Hududiy o'zgarishlarda fuqarolik masalasining hal etilishi.

Bir davlat hududining boshqasiga o'tishi chog'ida aholining fuqarolik masalasi xalqaro ahamiyat kasb etadi. Bunday vaziyatda fuqarolik masalasi yalpi xususiyatga ega bo'lishi natijasida ushbu muammo yanada jiddiy tus oladi. Topshirilayotgan hudud aholisining yalpi ravishda boshqa davlat fuqaroligiga o'tishi transfert, deyiladi. *U turli vaziyatlarda turlicha o'ziga xosliklarga ega bo'ladi.*

Bir davlatning boshqasiga qo'shilishida avvalgi davlatning fuqaroligi barham topadi. Boshqa hollarda transfert optatsiya, ya'ni mavjud yoki imkoni bor holatlarning ikki yoki undan ko'prog'i orasidan tanlab olish huquqi bilan birgalikda amalga oshiriladi.

Bir davlat hududining boshqasiga o'tishi bilan bog'liq hollardan tashqari, boshqa vaziyatlarda, masalan, o'zga fuqarolikka ega bo'lgan shaxs bilan nikohga kirish paytida, tug'ilishiga ko'ra ikki fuqarolikka ega bo'lgan shaxs balog'at yoshiga yetganida ham optatsiya qo'llanilishi mumkin. SSSRning tarqalib ketishi davrida bu borada hayotning o'zi katta tajribani amalga oshirdi. O'shanda yangi mustaqil davlatlar — sobiq ittifoqdosh respublikalar tomonidan yalpisiga «aholining hudud izidan borishi» prinsipi qo'llanildi. Ittifoqdosh respublikalar o'z davlat mustaqilligini e'lon qilar ekan, odatda, o'z hududidagi jami aholiga o'zlarining fuqaroligi huquqini berdi. Ko'pincha ushbu huquq optatsiya bilan birgalikda amalga oshirilmasdi. Ammo, asta-sekin yangi davlatlar optatsiya bilan birgalikda yalpi ravishda fuqarolik berish tomon yuz tutdilar.

Fuqarosizlik. Fuqarosizlik shaxs biron-bir davlat fuqaroligiga ega bo'lmagan yuridik holatdir. Bunday shaxslar *apatridlar* deyiladi. Agar tug'ilgan joyining qonuni va ota-onasi fuqarolari bo'lgan mamlakat qonuni qon huquqi prinsipiga asoslangan bo'lsa, u holda shaxs tug'ilgan paytidan shunday holatga tushib qolishi mumkin.

Hozirgi zamon xalqaro huquqi fuqarosizlikka nisbatan butunlay salbiy munosabatdadir. 1961-yildagi Fuqarosizlikni kamaytirish to'g'risidagi konvensiya davlat zimmasiga o'z hududida tug'ilgan va apatrid bo'lish ehtimoli mavjud har qanday shaxsga fuqarolik berish majburiyatini yuklaydi.

1954-yildagi Apatridlar maqomi to'g'risidagi *konvensiya* ularning maqomini chet elliklar maqomi bilan tenglashtirishni talab etadi. Bu hali o'z vatani hisoblangan davlatning diplomatik himoya etishi borasida chet elliklar ega bo'lgan huquqni, shuningdek, ularning mamlakati bilan tuzilgan shartnomalarda ko'zda tutilgan huquqlarni bildirmaydi, albatta. Ammo bu borada davlatning o'z hududida doimiy yashab turgan fuqarosiz shaxslarga nisbatan diplomatik himoya etish huquqi tobora tan olinayotganini kuzatish mumkin.

Ko'p fuqarolik. Fuqarolik to'g'risidagi milliy qonunlar o'rtasidagi farqlar ta'sir kuchi o'laroq, inson tug'ilishi bilanoq ikki va undan ortiq davlatning fuqaroligiga ega bo'lishi mumkin. AQSH hududida tug'ilgan Rossiya fuqarolarining farzandlari har ikki davlat fuqaroligi huquqiga egadir.

Ikki davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs — *bipatrid*, bir necha fuqarolikka ega shaxs esa — *multiatrid* deb ataladi.

Umume'tirof etilgan normaga muvofiq, bir necha davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxs ana shu davlatlarning har biri tomonidan faqat mazkur davlatning fuqaroligiga ega deb qaraladi (1930-yildagi Fuqarolik to'g'risidagi qonunlar kolliziyasiga doir ayrim masalalar haqidagi Gaaga konvensiyasining 3-moddasi). Buning mazmuni shuki, agar shaxs o'zi fuqarosi bo'lgan davlatlardan birining hududida bo'lib tursa, boshqa davlatlar unga diplomatik himoya ko'magini ko'rsatish huquqiga ega emas (o'sha Konvensiyaning 4-moddasi).

Uchinchi bir davlat, ya'ni o'zi fuqarosi bo'lmagan davlat hududida bo'lib turgan bir necha fuqarolikka ega shaxsga faqat bitta fuqaroligi bor deb qaraladi. Bunda uchinchi davlat samarali fuqarolik qoidasini qo'llaydi, ya'ni shaxsning o'zi muqim yashab turgan davlat fuqarosi ekani e'tiborga olinadi. Agar buni aniqlash qiyin bo'lsa, u holda shaxs nisbatan ko'proq bog'liq hisoblangan davlat fuqaroligi tan olinadi (5-modda).

Bipatridlar uchun harbiy majburiyat muammosining hal etilishi katta ahamiyatga egadir. 1930-yildagi Ikki fuqarolik bilan bog'liq ayrim holatlarda harbiy majburiyat to'g'risidagi Gaaga protokoli xuddi shu masalaga bag'ishlangan. 1963-yildagi Ko'p fuqarolikni cheklash va ko'p fuqarolik hollarida harbiy majburiyat to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida ham mazkur mavzuga taalluqli qoidalar mavjud. Doimiy yashab turilgan yoki samarali aloqasi bo'lgan davlatdagina harbiy xizmatni o'tash majburiydir.

Rossiya Konstitutsiyasida belgilanishicha, Rossiya fuqarosi «federal qonun yoki Rossiya Federatsiyasi xalqaro shartnomasiga muvofiq, chet el davlati fuqaroligiga (ikki fuqarolikka) ega bo'lishi mumkin» (62-moddaning 1-qismi). Rossiya fuqarosining chet el fuqaroligiga egaligi, si-

yosiy huquqlardagi ayrim cheklashlarni hisobga olmaganda, uning huquq va majburiyatlariga daxl qilmaydi.

Rossiya Federatsiyasi ikki fuqarolikni tartibga solish yuzasidan yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan bir nechta bitimlar imzolagan bo'lib, ushbu hujjatlarga harbiy majburiyatni bajarish tartibi to'g'risidagi bitimlar ilova qilingan.

Fuqarolik to'g'risidagi qonunga muvofiq, O'zbekiston Respublikasida yakka fuqarolik joriy qilingan. O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lgan shaxsning biron-bir davlat fuqaroligiga mansubligi tan olinmaydi. Bu 1930-yilgi Gaaga konvensiyasida mustahkamlangan ikki fuqarolikni tan olmaslik xalqaro prinsipiga ham to'liq mos keladi.

Davlat hududidagi fuqarosizlarning holati. Davlat hududidagi fuqarosizlar qatoriga quyidagilar kiradi:

birinchidan, chet elliklar, ya'ni o'zlari bo'lib turgan mamlakat fuqarosi hisoblanmagan va boshqa davlat fuqaroligiga ega bo'lgan shaxslar. Chet ellik shaxs o'zi bo'lib turgan mamlakatning to'liq hududiy yurisdiksiyasida va o'zi fuqarosi hisoblangan davlatning shaxsan yurisdiksiyasida bo'ladi. Bunda hududiy yurisdiksiya ustun sanaladi;

ikkinchidan, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar;

uchinchidan, multipatridlar, ya'ni bir necha fuqarolikka ega shaxslar.

Xalqaro munosabatlarda davlatning fuqarosiz shaxslariga shartnoma yoki odat normasi asosida beriladigan bir nechta huquqiy maqom odatga aylangan. Bunday maqomlar chet elliklarga nisbatan ikki tomonlama shartnomalar orqali o'rnatilsa, apatridlar va multipatridlarga nisbatan ko'p tomonlama konvensiyalar asosida yoki odat bo'yicha belgilanadi.

Bu maqomlar ichida nisbatan keng tarqalgani — *milliy maqom bo'lib, unga ko'ra, fuqarosizlar, ayrim istisnolarni hisobga olmaganda, asosan, mahalliy fuqarolarga tenglashtiriladi*. Ushbu maqom, masalan, Rossiya Konstitutsiyasida ham qayd etilgan, unda aytilishicha, chet ellik fuqarolar va fuqarosiz shaxslar «federal qonun yoki Rossiya Federatsiyasi xalqaro shartnomasida belgilanganidan tashqari barcha hollarda Rossiya Federatsiyasi fuqarolari bilan teng ravishda huquq va majburiyatga egadirlar» (62-moddaning 3-qismi).

Alohida fuqarolarga tegishli bo'lgan huquqlar ham borki, chet elliklar bunday huquqlarga ega emas.

Bu huquqlar sirasiga quyidagilar kiradi:

1) Rossiyaga moneliksiz qaytib kelish huquqi;

2) mitinglar, demonstratsiyalar, namoyishlar huquqi;

3) yerga xususiy egalik huquqi;

4) ehtiyojmand fuqarolarning davlatdan moddiy ko'mak olish huquqi;

5) bepul tibbiy, tez yordamdan tashqari, xizmat ko‘magidan foydalanish huquqi.

Bundan tashqari, Rossiya fuqarosi Rossiya Federatsiyasidan tashqari-ga ko‘chirib yuborilishi yoki boshqa davlatga topshirilishi mumkin emas.

Fuqarosizning huquqiy maqomidagi eng muhim farq uning davlatni boshqarishda ishtirok etish bilan bog‘liq quyidagi huquqlari mavjud emasligidir:

birinchidan, davlat hokimiyati va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlariga saylash va saylanish;

ikkinchidan, davlat xizmatida bo‘lish;

uchinchidan, armiyada va boshqa huquq-tartibot idoralarida xizmat qilish;

to‘rtinchidan, davlat siri bilan bog‘liq bo‘lgan mansab vazifalarida ishlash;

beshinchidan, dengiz kemasi kapitani va havo kemasi ekipaji a‘zosi bo‘lish.

Shu bilan birga, chet elliklar faqat fuqarolar zimmasida bo‘lgan ayrim majburiyatlarni, avvalo, harbiy majburiyatni ado etishdan ozod-dirlar.

BMT Bosh Assambleyasi 1985-yilda qabul qilgan O‘zlari yashab turgan mamlakatlarning fuqarolari hisoblanmagan shaxslarga nisbatan inson huquqlari to‘g‘risidagi deklaratsiyada chet elliklar maqomining umumiy qoidalari qayd etilgan bo‘lib, unda jumladan qonuniy asosda mamlakat hududida bo‘lib turgan bunday shaxslarni ommaviy tartibda ko‘chirib yuborishga yo‘l qo‘yilmasligi ko‘rsatilgan.

Shartnoma asosida fuqarosiz uchun mumkin qadar qulaylik berish rejimi yaratilishi mumkin: bunda u tadbirkorlik, bojxona va soliq to‘lovlari va shu kabi boshqa masalalar bo‘yicha boshqa har qanday toifaga mansub shaxslardan kam bo‘lmagan huquqlardan foydalanadi. Shuningdek, fuqarosizlarga nisbatan alohida yengillik va imtiyozlar berishni ko‘zda tutuvchi preferensial rejim ham qo‘llanilishi mumkin.

4-§. Ishchi-migrantlar (ko‘chmanchilar)ning huquqiy maqomi

Ishchi-migrantlar va ularning oila a‘zolari fuqarosizlarning alohida toifasini tashkil etadi. Ularning soni barcha mamlakatlar bo‘yicha hisoblanganda 50 million kishidan ortiqdir.

Xalqaro mehnat tashkiloti 1939-yildayoq Ishchi-migrantlar to‘g‘risidagi konvensiyani qabul qilgan, 1975-yilda esa yana bir konvensiya qabul qilindi. Ko‘p o‘tmay, 1977-yilda Yevropa Kengashi ishchi-migrantlarning huquqiy holati to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasini qabul qilgan bo‘lsa, 1990-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi

Barcha ishchi-migrantlar va ular oila a'zolarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi xalqaro konvensiyani qabul qildi.

Migrant deganda, *o'zlari fuqarosi hisoblanmagan davlatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanadigan, shug'ullangan yoki shug'ullanayotgan shaxslar* tushuniladi. Konvensiyaning asosiy mazmun-mohiyati umume'tirof etilgan inson huquqlarining migrantlarga ham taalluqli ekanini tan olishdan iboratdir.

Konvensiyadagi bir qator qoidalarda migrantlar maqomining o'ziga xos jihatlari aks etgan. Ular orasida «nasl-nasabi daxldor davlatlar» talabi bo'yicha kiritilgan qoidaning e'tiborli jihati shundaki, davlatlar migrantlarning madaniy o'ziga xosligi hurmat qilinishini ta'minlaydi va ularning nasl-nasabi daxldor davlat bilan madaniy aloqalarni amalga oshirishiga to'sqinlik qilmaydi.

5-§. Qochoqlarning huquqiy maqomi

Qochoqlarga taalluqli dastlabki hujjatlar Birinchi jahon urushidan keyin qabul qilingan. Ayni paytda bu boradagi asosiy xalqaro-huquqiy hujjat 1951-yildagi Qochoqlar maqomi to'g'risidagi konvensiyadir.

Qochoq deganda, irqi, dini, fuqaroligi, muayyan ijtimoiy guruh yoki siyosiy maslakka mansubligi yuzasidan ta'qibga olingach, asosli ravishda xavf-xatar ostida qolgani tufayli, ayni paytda, o'zi fuqarosi hisoblangan mamlakatdan tashqarida bo'lgan va ushbu mamlakat himoyasidan foydalanish imkoni yoxud istagi bo'lmagan shaxs tushuniladi. Ushbu ta'rif yuqoridagi sabablarga ko'ra, o'zi avval yashab turgan mamlakatdan tashqarida bo'lgan hamda xuddi shunday xavf-xatar mavjudligi o'z yurtiga qaytish imkoni yoxud istagi bo'lmagan fuqarosiz shaxslarga ham taalluqlidir.

Bundan ko'rinib turibdiki, iqtisodiy mulohazalarga ko'ra o'z mamlakatini tark etuvchi «iqtisodiy qochoqlar» mazkur toifaga taalluqli emas. Tinchlik-osoyishtalikka qarshi jinoyat, harbiy jinoyat yoki insoniyatga qarshi jinoyat sodir etgan, shuningdek, muqaddam siyosiy mazmun kasb etmagan og'ir jinoyat sodir etgan shaxs qochoqlik maqomini da'vo qilishi mumkin emas.

Aslida, davlat qochoqlarga, odatda, chet elliklarga beriladigan maqomni berishga majbur. Hukumat yordamidan foydalanish borasida esa ular mahalliy fuqarolarga tenglashtiriladi. Qochoqlar ularning hayoti yoki erkinligi uchun xavf-xatar mavjud bo'lgan mamlakatlarga ko'chirilishi mumkin emasligi haqidagi qoida ham katta ahamiyatga ega.

Qochoqlar huquqiga amal qilinishini BMTning Qochoqlar ishi bo'yicha Bosh Komissariat Boshqarmasi nazorat qiladi. Uning Nizomini 1950-yilda BMT Bosh Assambleyasi tasdiqlagan.

Rossiyada 1993-yil 19-fevralda «Qochoqlar to'g'risida»gi qonun qabul

qilingan. Unda qayd etilishicha, qonun xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga muvofiq ravishda chiqarilgan. Xalqaro shartnoma bilan qonun o'rtasida tafovut mavjud bo'lgan hollarda shartnomadagi qoida qo'llaniladi, qochoqlar huquqi cheklanishiga sabab bo'lishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasnodir.

Qochoqlarga milliy maqom berilgan. Bundan tashqari, ular majburiy ko'chirilganlar uchun belgilangan imtiyozlardan foydalanadilar.

6-§. Xalqaro huquqda boshpana huquqi

Boshpana huquqi konstitutsiyaviy huquqning umume'tirof etilgan, xalqaro huquqda tan olingan va ma'qullangan institutidir. Xalqaro-huquqiy odat normalari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va BMTning 1967-yildagi Hududiy boshpana to'g'risidagi deklaratsiyasida qayd etilgan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi har kimning ta'qibdan qochib boshqa mamlakatlarda boshpana izlash va ana shu boshpanadan foydalanish huquqini mustahkamlab qo'ygan.

1967-yildagi Deklaratsiya ko'rsatishicha, davlat o'z suvereniteti nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda boshpana beradi. Aynan shugina boshpana berish uchun asosni tegishli baholaydi. Boshpana izlayotgan shaxsning chegaradan o'tishiga ruxsat berishdan bosh tortish yoki uni ta'qibga uchrashi mumkin bo'lgan mamlakatga ko'chirib yuborish mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko'ra, umume'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga muvofiq ravishda chet el fuqarolari bilan bir qatorda, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ham siyosiy boshpana berilishi mumkin.

O'N BIRINCHI MAVZU. XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK

- 1-§. «Xalqaro-huquqiy javobgarlik» tushunchasi, elementlari va maqsadlari**
- 2-§. Xalqaro huquqbuzarliklar**
- 3-§. Xalqaro huquqda majbur qilish va uning turlari**
- 4-§. Xalqaro huquqda sanksiyalar**
- 5-§. Xalqaro huquqda qarshi choralar**
- 6-§. Xalqaro javobgarlik huquqining nazariy muammolari**

1-§. «Xalqaro-huquqiy javobgarlik» tushunchasi, elementlari va maqsadlari

Javobgarlik xalqaro huquqning eng qadimiy institutlaridan biridir. *Xalqaro-huquqiy javobgarlik* huquqbuzarlik subyektini xalqaro huquqning boshqa subyektiga yetkazgan zarari oqibatlarini bartaraf qilish bo'yicha yuridik majburlashdir. Javobgarlik masalalarini tartibga soluvchi normalar asosan xalqaro shartnomalarda o'z aksini topgan va BMT hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalarida tasdiqlangan. Faqat xalqaro huquq subyektlarigina xalqaro-huquqiy javobgarlik subyektini bo'lishi mumkin. Demak, *xalqaro-huquqiy javobgarlik* xalqaro huquq normalari va o'z xalqaro majburiyatlarini buzgan xalqaro huquq subyektlari uchun boshlanadigan yuridik oqibatlardir.

Xalqaro huquq bo'yicha javobgarlik xalqaro g'ayrihuquqiy xatti-harakat oqibatida yuzaga keladi va quyidagi elementlardan iborat:

birinchidan, subyektiv element — mazkur subyektning aybi mavjudligi;

ikkinchidan, obyektiv element — subyektning xalqaro-huquqiy majburiyatlarini buzishi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, *javobgarlik* — huquqiy munosabat bo'lib, bir tomondan, huquqbuzar zimmasiga g'ayrihuquqiy harakatlarga barham berish, huquqbuzarlik oqibatlariga chek qo'yish yoki ularni kompensatsiya qilish majburiyatini yuklasa, ikkinchi tomondan, jabrlanuvchi subyektini tilga olingan harakatlar amalga oshirilishini talab etish huquqi bilan ta'min etadi.

Aybsiz javobgarlik faqat xalqaro shartnomada ko'zda tutilgan alohida vaziyatlardagina boshlanishi mumkin. Bunday shartnomalar (asosan ko'p tomonlama konvensiyalar) hozircha ko'p emas va ularning barchasi yuqori xavf-xatarli manbalarni ishlatish bilan bog'liq davlatlararo munosabatlar sohasiga taalluqlidir. Masalan, 1972-yildagi Kosmik obyektlar yetkazgan zarar uchun xalqaro javobgarlik to'g'risidagi konvensiya.

Javobgarlikdan ko'zda tutilgan maqsadlar quyidagilardan iborat:

birinchidan, potensial huquqbuzarni tiyib turish;

ikkinchidan, huquqbuzarlarni o'z vazifalarini tegishli tartibda bajarishga undash;

uchinchidan, jabrlanuvchiga yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararni qoplash (kompensatsiya qilish);

to'rtinchidan, xalqaro munosabatlarni javobgarlik boshlanishiga sabab bo'lgan voqealargacha bo'lgan darajada tiklash.

2-§. Xalqaro huquqbuzarliklar

Xalqaro huquqbuzarliklar ikki guruhga bo'linadi:

birinchi guruh — xalqaro jinoyatlar;
ikkinchi guruh — deliktlar, qilmishlar, ya'ni g'ayriqonuniy harakatlarni.

Xalqaro jinoyatlar qatoriga xalqaro hamjamiyat alohida xavfli va og'ir deb tasniflagan va uning tub manfaatlarini himoyasi uchun g'oyatda muhim bo'lgan majburiyatlarning buzilishiga taalluqli jinoyatlar kiradi. Bular, avvalo, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash (birinchi galda agressiya), inson huquqini himoya qilish (qulchilik, genotsid, aparteid), atrof-muhitni muhofaza qilish (okean yoki atmosferaning keng ko'lamda ifloslanishi) borasidagi muhim majburiyatlarning jiddiy ravishda buzilishidir.

Xalqaro jinoyat sodir etilgan hollarda javobgarlikning universal huquqiy munosabatlari yuzaga keladi va unga ko'ra, huquqbuzar nafaqat jabrlanuvchi oldida, balki xalqaro hamjamiyat oldida ham yalpi javobgar bo'ladi. Bu o'rinda universal majburiyatlar, *erga omnes* majburiyatlarining buzilishi haqida gap bormoqda. Bunday hollarda xalqaro huquqning har bir subyekti huquqbuzardan o'z jinoiy harakatlarini to'xtatishni va ularning oqibatlarni bartaraf etishni talab qilish huquqiga egadir.

Xalqaro jinoyatlar toifasiga kirmaydigan huquqbuzarliklar xalqaro deliktlar hisoblanadi. Delikt natijasida yuzaga keladigan javobgarlik ikitomonlama huquqbuzarlik mazmuniga ega bo'lib, unga ko'ra, qoidabuzar faqat jabrlanuvchi oldida javobgardir.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik to'lig'icha davlat zimmasidadir. Davlat quyidagilarning harakatlari uchun to'liq javobgar hisoblanadi:

birinchidan, o'z organlarining;

ikkinchidan, o'z mansabdor shaxslarining;

uchinchidan, o'z yurisdiksiyasida bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslarning;

to'rtinchidan, uning hududida boshqa davlat amalga oshirgan va uchinchi davlatning huquq va manfaatlariga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar. Bunday vaziyat, masalan, ijaraga olingan hududdagi harbiy bazadan uchinchi davlatga qarshi agressiya amalga oshirilganida yuzaga kelishi mumkin.

3-§. Xalqaro huquqda majbur qilish va uning turlari

Sanksiyalar va qarshi choralar xalqaro huquqda majbur qilishning huquqbuzarga nisbatan qo'llanadigan turlari sirasiga kiradi. Garchand xalqaro huquqda majbur qilishning markazlashgan tartibi mavjud bo'lmasa-da, baribir, u xalqaro huquq faoliyatida muhim o'rin tutadi va uning amal qilish mexanizmidagi o'ziga xos jihatlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, majbur qilish bu mexanizmga yetakchilik qilmaydi va bunday bo'lishi mumkin ham emas.

Shu o'ringda xalqaro huquqni hurmat qilishga majburlash mexanizmidagi e'tiborli o'zgarishlar yuz berganini qayd etish lozim. Xalqaro-huquqiy normalarga rioya etishni ta'minlash borasidagi hamkorlikning o'rni ortib, to'g'ridan to'g'ri majbur qilishning ahamiyati esa kamaymoqda. Xalqaro tashkilotlar ta'sir ko'rsatish choralarining ahamiyati kuchayib bormoqda. Qoidabuzarga ta'sir ko'rsatishning asosiy universal mexanizmi uni o'zi buzgan huquqiy munosabatlar tizimi, masalan, tashkilotga a'zolik yoki ko'p tomonlama shartnomada ishtirok etish taqozo qiladigan huquq va imtiyozlardan mahrum etishdan iboratdir.

Majbur qilishning zaruriy belgisi qonuniyligidir. Majbur qilish asosi va maqsadi bo'yicha ham, shuningdek, uslubi va ko'lami bo'yicha ham qonuniy bo'lmog'i zarur. Qonuniylik, avvalambor, xalqaro huquqning asosiy maqsadlari va prinsiplariga mos kelishi bilan belgilanadi.

Xalqaro huquqda majbur qilish choralarini ularni qabul qiluvchi subyektlarga qarab ikki guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh: *sanksiyalar* — faqat xalqaro tashkilotlar qo'llaydigan majbur qilish choralari;

ikkinchi guruh: *qarshi choralalar* — davlat qo'llaydigan choralalar hisoblanadi.

4-§. Xalqaro huquqda sanksiyalar

BMT sanksiyalar qo'llash borasida keng miqyosli vakolatlariga ega tashkilotdir. U iqtisodiy munosabatlar, temir yo'l, dengiz va havo yo'llari, pochta, telegraf, radio yoki boshqa vositalar orqali aloqalarni to'xtatib qo'yish, diplomatik munosabatlarni uzish, shuningdek, harbiy choralalar kabi sanksiyalarni qo'llash huquqiga ega. Bu choralarning barchasini faqat BMT Xavfsizlik Kengashi qarori asosidagina va faqat tinchlik xavfi ostida qolgan yoki agressiya akti sodir bo'lgan hollardagina davlatlarning qo'llashi majburiy ahamiyat kasb etishi mumkin.

BMTda tajribaning tobora ortib borayotgani va siyosiy muhitning o'zgarayotgani tufayli, o'rganilayotgan soha bo'yicha bir talay imkoniyatlarning mazkur Tashkilotga tegishli ekanini tan olish bilan bog'liq muayyan tendensiya kuzatilmoqda. Huquqbuzarga ma'naviy-siyosiy ta'sir ko'rsatish chorasi sifatida BMT Bosh Assambleyasining qoralovchi qarorlari qabul qilinmoqda, vaholanki, BMT Ustavida sanksiya sifatida bunga o'xshash choralardan foydalanish ko'zda tutilmagan. Bunday qarorlar, agar ularda kuch bilan yoxud uni ishlatish yo'li bilan tahdid solish orqali erishilgan natijalarni tan olmaslik haqida so'z borsa, muayyan huquqiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin.

BMTning sanksiyalar qo'llash borasidagi tajribasi ularning naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatmoqda. Janubiy Rodeziya va Janubiy Afrika-dagi irqchilik rejimlariga ko'p jihatdan BMT sanksiyalari tufayli chek

qo'yilgan edi. Fikrimizcha, yaqin yillar BMT Ustavining «Tinchlikka tahdid, tinchlik-barqarorlikning buzilishi va agressiya aktlariga nisbatan harakatlar» nomli VII bobini tamomila yangi mazmun-mohiyat bilan boyitadi. Shu ma'noda, 1990-yili Quvaytga hujum qilgani uchun Iroqqa nisbatan sanksiya qo'llash tajribasi ibratlidir. Bu qarama-qarshiliklardan keyingi davrda keng ko'lamli sanksiya qo'llash borasidagi ilk tajriba edi. BMT Xavfsizlik Kengashining dastlabki qarori agressiya boshlangan kundayoq qabul qilindi. Iroqqa qarshi qurolli kuchlardan foydalanish agressiyaga tez fursatda barham berish imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, bu sohada qator kamchiliklar ham ko'zga tashlanib qoldi. Qurolli kuchlardan foydalanish bo'yicha rahbarlikni BMT emas, balki bir guruh davlatlar amalga oshirdi, hatto sof iqtisodiy sanksiyalarning qo'llanilishi ham ko'pchilik mamlakatlarning jiddiy moddiy talafotlar ko'rishiga sabab bo'ldi. Bu esa nisbatan ko'proq talafot ko'rgan mamlakatlarning zararini qoplash yo'li bilan tegishli moddiy yukni iloji boricha adolatli ravishda taqsimlash muammosini kun tartibiga qo'yadi.

5-§. Xalqaro huquqda qarshi choralar

Qarshi choralar alohida davlatlar xalqaro huquq doirasida, uning imperativ normalarini hisobga olgan holda qo'llaydi. Uning asosiy sharti qurolli kuchlarni qo'llashga yo'l qo'ymaslikdan iboratdir. Bundan tashqari, qarshi choralar inson huquqlarini, alohida xalqaro-huquqiy himoyada bo'lgan shaxslar, masalan, diplomatlarning daxlsizligini buzmasligi kerak.

Xalqaro amaliyotda keng qo'llanayotgan iqtisodiy majburlash choralaridan foydalanishning o'ziga xos murakkabliklari mavjud. Huquqshunoslarning fikricha, keng miqyosda iqtisodiy majburlash choralaridan foydalanish masalasiga taqiqlangan kuch ishlatish sifatida qaralmog'i lozim.

Qarshi choralar quyidagilarga bo'linadi:

birinchidan, retorsiya — bir davlat boshqa bir davlatning o'ziga nisbatan nodo'stona, adolatga zid va tahqirlovchi, shu bilan birga, huquqbuzarlik hisoblanmaydigan xatti-harakatlarini to'xtatish maqsadida qo'llaydigan qarshi choralar.

Retorsiya huquqbuzarlik xavfi mavjud bo'lgan hollarda ogohlantiruvchi chora sifatida qo'llanishi mumkin. Retorsiyani ko'pincha davlatlar uning fuqarolari boshqa bir davlat hududida tahqirlanganida, iqtisodiy va madaniy aloqalar nodo'stona cheklab qo'yilganda va shu kabi boshqa holatlarda qo'llaydilar. Odatda, retorsiyalar aynan o'xshash yoki o'zi qarshi qaratilayotgan choralarga munosib bo'lgan choralar hisoblanadi. Retorsiya huquqi har doim davlatga tegishlidir;

ikkinchidan, repressaliya — huquqbuzarlik sodir etilgan hollarda,

xalqaro huquqda qarshi chora sifatida qo'llashga ruxsat etiladigan bir tomonlama majbur qilish chorasi. U xalqaro huquqqa muvofiq amalga oshiriladi. Repressaliyalar mutanosib bo'lmog'i kerak: qarshi chora intensivligi bevosita maqsadga erishish uchun talab etiladiganidan ortiq bo'lmasligi shart.

Repressaliyalar maqsadga erishilishi bilan barham topadi. Maqsad esa huquqbuzarlikni to'xtatishga va ko'zda tutilgan javobgarlik bo'yicha huquqiy munosabatlar asosida majburiyatlarni bajarishga undashdan iboratdir.

Repressaliyaning alohida turi huquqbuzarga nisbatan umumiy xalqaro huquqning u buzgan normalarini qo'llashni, shuningdek, buzilgan shartnomalarning amal qilishini biroz to'xtatib turish yoki amal qilishiga butunlay chek qo'yishni ko'zda tutadi;

uchinchidan, o'zini o'zi mudofaalash — davlatning unga nisbatan jinoiy qurolli hujum, shu jumladan qurolli kuchlardan foydalangan holda uyushtirilgan hujumga javoban qo'llaydigan choralari. Qarshi choralarning ushbu turi repressaliyalarga yaqin tursa-da, qurolli kuchlardan foydalanish uchun asos bo'luvchi o'ta jiddiy huquqbuzarliklarga nisbatan chora qo'llash xususida gap borayotgani uchun, o'zini o'zi mudofaalash alohida turga ajratilgan.

Davlatlarning individual yoxud jamoaviy o'zini o'zi mudofaalash huquqi BMT Ustavida qayd etilgan (5-modda). Bu huquq qurolli hujum fakti sodir bo'lgan taqdirdagina yuzaga keladi. Tinchlikka tahdid solingan holatda tegishli ogohlantiruvchi choralalar faqat Xavfsizlik Kengashining qarori asosidagina qo'llanadi (BMT Ustavining 39 va 50-moddalari).

6-§. Xalqaro javobgarlik huquqining nazariy muammolari

Xalqaro-huquqiy javobgarlik xalqaro huquqning qadimiy institutlaridan biri hisoblanadi. Uning norma va prinsiplari, ulardan ayrimlari shartnomaviy normalarda o'z tasdig'ini topgan bo'lsa-da, asosan xalqaro-huquqiy odat mazmuniga egadir.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik deganda, huquqbuzar subyektning o'zi sodir etgan huquqbuzarlik oqibatida xalqaro huquqning boshqa subyektiga yetkazilgan ziyon oqibatlarini bartaraf etish borasidagi yuridik majburiyati yoki xalqaro huquq normalarini buzmaydigan xatti-harakati oqibatida yetkazilgan moddiy ziyonni qoplash majburiyati, agar shu taxlit qoplash tartibi alohida xalqaro shartnomada ko'zda tutiladigan bo'lsa, tushuniladi.

XX asr adabiyoti va amaliyotida davlatlarning xalqaro g'ayrihuquqiy xatti-harakatlarini jinoyatlar va huquqbuzarliklar sifatida ikkiga ajratish nazariy jihatdan o'z tasdig'ini topa boshlagan.

Xalqaro jinoyatlar sirasiga xalqaro hamjamiyatning hayotiy muhim manfaatlarining ta'minlashda o'zak hisoblanadigan xalqaro majburiyatlarini buzadigan xalqaro g'ayrihuquqiy xatti-harakatlar hamda xalqaro hamjamiyat tomonidan yalpisiga jinoyat deb qaraladigan holatlar (masalan, agressiya, quldorlik, genotsid va boshqalar) kiradi. Boshqa barcha g'ayrihuquqiy xatti-harakatlarni xalqaro huquqbuzarliklar sifatida qabul qilish tavsiya etiladi.

Xalqaro huquq nazariyasiga ko'ra, shuningdek, xalqaro jinoyat sodir etilgan (ya'ni, zikr etilganidek, xalqaro hamjamiyatning tub manfaatlarini himoya qilishda shu qadar muhim bo'lgan majburiyatlar buzilgan hamda bu hol o'ta xavfli va og'ir deb tasnif etilgan) taqdirda, har qanday davlat yoki davlatlar guruhi huquqbuzarga da'vo qiluvchi subyekt bo'lib chiqishi mumkin, huquqbuzarlik (ya'ni, ikki tomonlama huquqiy munosabatlarni buzish) sodir etilganda esa faqat jabr ko'rgan davlatning o'zi da'vo bilan chiqish huquqiga ega.

Hozirgi paytgacha xalqaro huquqning ushbu institutiga xos huquqiy shartnomalar to'la kodifikatsiya qilinmagan va xuddi shu bois u qoidaga ko'ra, pretsedentlar va sud qarorlari negizida yuzaga kelgan odat huquqi normalarni qo'llashga asoslanadi.

Xalqaro huquqda shunday umumiy prinsip yuzaga kelganki, unga ko'ra subyektning xalqaro g'ayrihuquqiy xatti-harakatlari uning xalqaro-huquqiy javobgarligini keltirib chiqaradi.

Xalqaro-huquqiy javobgarlikning siyosiy va moddiy turlarini farqlash qabul qilingan. Tegishli hollarda jabrlanuvchi tomon nafaqat o'zining buzilgan manfaatlarini huquqbuzar hisobidan qondirish, balki huquqbuzarga nisbatan jazo choralarini qo'llash huquqiga ham ega.

Xalqaro-huquqiy javobgarlik qat'iy belgilangan majburlash choralarini o'zida mujassam etmaydi. Javobgarlikni ro'yobga chiqarish xalqaro odatiy va shartnomaviy huquq normalariga asoslanadi. Uning yuzaga kelishida xalqaro pretsedentlar ma'lum ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro huquqda davlat nomidan ish ko'radigan hamda harbiy jinoyat va insoniyatga qarshi jinoyat sifatida tasniflanadigan harakatlarni sodir etgan jismoniy shaxslarning javobgarligi bilan bog'liq masalalar alohida o'rin egallaydi.

IKKINCHI BO‘LIM. XALQARO HUQUQ SOHALARINING NAZARIY ASOSLARI

- **Diplomatik va konsullik huquqi**
- **Xalqaro shartnomalar huquqi**
- **Xalqaro tashkilotlar huquqi**
- **Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq**
- **Xalqaro dengiz huquqi**
- **Xalqaro havo huquqi**
- **Xalqaro kosmik huquq**
- **Xalqaro iqtisodiy huquq**
- **Xalqaro atrof-muhit huquqi**
- **Xalqaro jinoyat huquqi**
- **Xalqaro gumanitar huquq**
- **Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish huquqi**
- **Xalqaro xavfsizlik huquqi**

O'N IKKINCHI MAVZU. DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI

- 1-§. Tashqi siyosat va diplomatiya
- 2-§. Davlatning tashqi aloqalar olib boruvchi organlari tizimi
- 3-§. Diplomatik huquq asoslari
- 4-§. Konsullik huquqi asoslari
- 5-§. O'zbekiston Respublikasida diplomatik xizmatning huquqiy asoslari
- 6-§. O'zbekiston Respublikasida konsullik xizmati

1-§. Tashqi siyosat va diplomatiya

Keng ma'noda olganda, siyosat — negizi muayyan hokimiyatni xalqaro munosabatlarning u yoki bu sohasi bo'yicha xalqaro sahnada (davlat hokimiyatini yoki davlat hukmronligini) qo'lga kiritish, saqlab turish va undan foydalanish muammosidan iborat ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar bilan bog'liq faoliyat sohasidir. O'z navbatida, davlat aholining xalqaro hamjamiyatda ishtirok etishi, vakilligini taqdim etishi va o'z manfaatlarini himoya qilishi uchun zarur shakl kasb etgan jamiyat siyosiy tashkiloti sifatida namoyon bo'ladi.

Davlatning tashqi siyosiy faoliyati ijtimoiy faoliyatning o'ziga xos mazmun kasb etuvchi shakllaridan biridir. U davlatning muayyan organlari bilan davlat siyosiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha, avvalambor, xalqaro munosabatlarning turli sohalarida hukmronligini qo'lga kiritishi, saqlab turish va undan foydalanish bo'yicha shunga vakil qilingan shaxs o'rtasidagi sa'y-harakatlar mujassamligini o'zida namoyon etadi.

Ayni chog'da, bunday faoliyatni e'tirof etilgan xalqaro normalarga rioya qilmay turib, amalga oshirib bo'lmaydi. Xalqaro huquq normalari va prinsiplari, diplomatiya faoliyati jarayonida shakllanar ekan, davlatlarning barcha asosiy guruhleri uchun maqbul bo'lgan kompromiss-murosa ko'rinishida ko'zga tashlanadi. Shu bois, ular aslida ham sinfiy mazmun kasb etmaydi. Davlatning o'z tashqi siyosatini xalqaro huquqda belgilangan tartibda diplomatik tadbirlar, usullar va uslublar yordamida amalga oshirish diplomatiya, deb ataladi.

Keng ma'noda, «*diplomatiya*» tushunchasi davlatlar o'zaro munosabatlarini o'rnatadigan va saqlab turadigan, bir-birlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yadigan hamda siyosiy yoki yuridik kelishuvlarni shu ishlar uchun maxsus vakillar orqali ro'yobga chiqaradigan barcha vositalarni qamrab oladi. Shu ma'noda, diplomatiya bir-biri bilan qurolli nizo holatida bo'lgan davlatlar o'rtasida mavjud bo'lishi mumkin. Ammo bu

tushuncha iqtisodiy va harbiy nizolarning moddiy jihatidan ko'ra, do'stona bo'ladimi yohud dushmanlik maqsadidami, yuzaga keladigan munosabatlarga ko'proq taalluqlidir.

Tor ma'noda olganda, *diplomatiya* — xalqaro muzokarolar yuritish san'atidir. Diplomatiya doirasi va shakli xalqaro huquqda belgilanadi. Shu bilan birga, diplomatiya xalqaro huquq normalarini yaratish va joriy etish vositasi ham hisoblanadi. Tashqi siyosat, diplomatiya va xalqaro huquqning xalqaro munosabatlar tizimidagi uzviy birligi hamda o'zaro bog'liqligi xuddi ana shunda namoyon bo'ladi.

Odatda diplomatiya doimiy diplomatik vakolatxonalari almashinuvi bilan bog'liq va bunday doimiy vakolatxona davlatlarga BMT va bshqa yirik hukumatlararo tashkilotlarga o'z a'zolicini moddiylashtirishi uchun zarur. Bundan tashqari, maxsus missiyalar (yoki ad hoc diplomatiyasi) hamda davlatlarning konferensiyalarida ad hoc (ya'ni muayyan munosabat bilan) vakillari mavjud bo'ladi.

Diplomatik aloqalarni tartibga soluvchi xalqaro huquq normalari davlatlarning uzoq yillik amaliyoti natijasida ishlab chiqilgan va nafaqat ushbu amaliyotning o'zi bilan, balki milliy huquqning qonunchilik hujjatlari va sud qarorlari bilan ham tasdig'ini topadi. Ushbu sohaga oid huquq endilikda ma'lum darajada Diplomatik aloqalar to'g'risida Vena konvensiyasi (1961-yil) bilan kodifikatsiyalangan. Ushbu konvensiya o'zining qoidalarida «to'g'ridan to'g'ri ko'zda tutilmagan» masalalarni tartibga soladigan xalqaro odat huquqi normalarini chetlab o'tadi va, tabiiyki, davlatlar u yoki bu qoidani shartnomaviy tartibda yoxud xulq-atvorga asoslangan sukutli bitim yo'li bilan o'zgartirish borasida erkindir.

Tashqi aloqalar bo'yicha davlat organlarining maqomi va funksiyalariga taalluqli (boshqacha qilib aytganda, davlatlararo rasmiy munosabatlarni o'rnatish va amalga oshirish tartibini me'yorga solib turuvchi) xalqaro-huquqiy normalar tizimi xalqaro-huquqiy amaliyotda diplomatik huquq, deb ataladi.

Diplomatik huquq normalariga quyidagilar kiradi:

birinchidan, diplomatik vakolatxonalar almashish va ularning faoliyati bilan bog'liq holda yuzaga keladigan davlatlararo munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;

ikkinchidan, bir davlat tomonidan boshqasiga maxsus missiyalar, shu jumladan, u yoki bu tashqi siyosiy masalani hal etish uchun delegatsiya yoxud vakil yo'llash bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi normalar;

uchinchidan, davlatlarning xalqaro tashkilotlarga vakillik qilishi hamda u yoki bu davlat hududida xalqaro tashkilotlarning faoliyat yuritishi bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi

nomalar, shu jumladan, xalqaro tashkilotlar, xalqaro doiradagi mansabdor shaxslar va xizmatchilar imtiyozlari hamda immunitetiga doir nomalar;

to'rtinchidan, keyingi yillarda diplomatik huquqqa konsullik huquqini kiritish bo'yicha harakatlar borligini, bu bir paytning o'zida diplomatiya va konsullik xizmatlarining tashqi ishlar mahkamasi doirasida birlashtirilganligi holati bilan izohlanadi.

Xalqaro tashkilotlar, ularning mansabdor shaxslari va xizmatchilari immuniteti hamda imtiyozlariga doir masalalar, qoidaga ko'ra, muayyan xalqaro tashkilot a'zolari yoxud xalqaro tashkilot va u hududida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan tegishli davlat o'rtasida tuziladigan maxsus shartnomalar orqali tartibga solinadi.

2-§. Davlatning tashqi aloqalar olib boruvchi organlari tizimi

Diplomatik huquq yoxud tashqi aloqalar huquqi¹ — xalqaro huquqning alohida mustaqil tarmog'i bo'lib, rasmiy davlatlararo munosabatlarni tartibga solib turadi.

Tashqi aloqalar huquqi har bir davlatning markaziy hokimiyatiga tegishlidir. Tashqi aloqalarni an'anaviy ravishda ijroiya hokimiyati organlari amalga oshiradi. Har qaysi organning aniq vakolatlari konstitutsiyada va boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi.

Demak, xalqaro munosabatlarni muayyan davlat nomidan harakat qiladigan maxsus organlar amalga oshiradi. Har bir davlatning tashqi ishlar organlari shu davlat organlarining muhim tarkibiy qismidir. Davlatning tashqi funksiyalarini amalga oshirishning muhim shakli diplomatik faoliyat hisoblanadi.

Har bir davlatning tashqi ishlar bilan shug'ullanuvchi organlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruh: davlat ichidagi tashqi ishlar organlari;

ikkinchi guruh: xorijdagi tashqi ishlar organlari.

Davlat ichidagi tashqi ishlar organlariga quyidagilar kiradi:

1) davlat boshlig'i;

2) parlament;

3) hukumat;

4) tashqi ishlar vazirligi (1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi

¹ Xalqaro huquqning eng qadimiy sohalaridan bo'lmish bu soha tarixan «elchilik huquqi» sifatida shakllangan va rivojlangan. XIX asr boshlaridan boshlab «diplomatik huquq» nomini oldi. Ayrim olimlar ushbu huquq sohasini «tashqi aloqalar huquqi» deb nomlaydilar. Qarang: Сандровский К.К. Право внешних сношений. — Киев, 1986: Саидова Л.А. Правовые основы дипломатической деятельности Республики Узбекистан. Ташкент, 2001. Hozirgi kunda xalqaro huquq bo'yicha aksariyat darsliklarda «diplomatik huquq» nomi qo'llanadi.

to'g'risidagi Vena konvensiyasining 7-moddasi). Xalqaro huquqqa muvofiq, o'z rasmiy maqomiga ko'ra quyidagilar maxsus vakolatlarsiz davlat nomidan ish ko'radi:

Davlat rahbarining vakolatlari prezidentlik respublikalarida, ayniqsa, katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, Prezident davlat rahbari sifatida xalqaro munosabatlarda O'zbekiston Respublikasi nomidan ish ko'radi. U tashqi siyosat borasida rahbarlikni amalga oshiradi, muzokaralar olib boradi, shartnomalar va bitimlarni imzolaydi. Prezident o'z huzurida akkreditatsiyadan o'tgan chet davlatlar diplomatik va boshqa vakillarning ishonch va chaqiruv yorliqlarini qabul qiladi.

Oliy Bosh qo'mondon sifatida Prezident urush holatlarini hisobga olib, xalqaro huquqda ko'zda tutilgan vakolatlarni, shu jumladan o'zini o'zi mudofaalash maqsadida qurolli kuchlardan foydalanish, neytarilitet e'lon qilish, sulh tuzish va hokazolarni amalga oshiradi.

Parlamentar respublikalarda tashqi aloqalarni amalga oshirishda asosiy vazifa *hukumatga* tegishli bo'ladi.

Parlament tashqi aloqalar bilan shug'ullanuvchi muhim organdir. Parlamentning xalqaro ishlardagi ishtiroki O'zbekistonning xalqaro majburiyatlarini ifodalovchi qonunlar qabul qilish, shartnomalarni ratifikatsiya qilishda qatnashishi bilan belgilanadi. O'zbekiston Konstitutsiyasida parlamentning urush va tinchlik masalalariga taalluqli qonunlar qabul qilish vakolatlari alohida ko'zda tutilgan. Hozirgi kunda xalqaro munosabatlarda ham milliy parlamentlarning, ham xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning o'rni tobora oshib bormoqda. Bu borada BMT bilan Parlamentlararo Ittifoqning o'zaro hamkorligi diqqatga sazovordir¹.

Tashqi ishlar vazirligi davlatning tashqi aloqalarini boshqarish bilan shug'ullanuvchi ijro organidir. Ular markaziy devon, shuningdek, chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar va konsullik muassasalari, xalqaro tashkilotlar huzuridagi vakolatxonalardan iborat. Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifalari Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizomda belgilab berilgan².

Davlatning xorijdagi tashqi ishlar organlariga quyidagilar kiradi:

- 1) diplomatik vakolatxonalar: elchixona va missiyalar;
- 2) konsullik vakolatxonalari;
- 3) xalqaro davlatlararo tashkilotlardagi vakolatxonalar;

¹ Qarang: *Саудов А.Х.* Межпарламентские организации мира.: Справочник. — М., 2004.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 14-martdagi «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil qilish va takomillashtirish masalalari to'g'risida»gi qarori bilan «O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom» tasdiqlangan.

4) xalqaro konferensiyalardagi delegatsiyalar;

5) maxsus missiyalar.

Shunday qilib, *davlatning tashqi aloqalarni olib boruvchi organlari faoliyati, huquqiy maqomi va funksiyalarini tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi diplomatik va konsullik huquqi deyiladi.*

3-§. Diplomatiik huquq asoslari

Diplomatiik huquq — davlatlar diplomatiik vakolatxonalarining huquqiy maqomi va faoliyatini tartibga soluvchi normalar majmuyidir.

Diplomatiik huquq manbaiga, avvalo, odat normalari kiradi. Ko'p jihatdan ushbu normalar umume'tirof etilgan. Ular qator universal konvensiyalarda: 1961-yildagi Diplomatiik munosabatlar to'g'risidagi Vena konvensiyasida, 1969-yildagi Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiyada, 1973-yildagi Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatiik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlarni jazolash to'g'risidagi konvensiyada 1975-yildagi Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlarning vakilligi to'g'risidagi Vena konvensiyasidagi kodifikatsiyalangan va to'ldirilgan.

Diplomatiik munosabatlarni o'rnatish va vakolatxonalar ta'sis etish davlatlar o'rtasidagi bitimga muvofiq amalga oshiriladi. O'zaro diplomatiik munosabatlarning o'rnatilishi har doim ham o'z-o'zidan vakolatxona ta'sis etishga olib kelavermaydi.

Diplomatiik vakilni tayinlash va qabul qilish tartibi akkreditatsiya qilish deb ataladi. Vakolatxona boshlig'i tayinlanishiga qadar yuboruvchi davlat uning shu lavozimga tayinlanishi to'g'risida qabul qiluvchi mamlakatning roziligini (agrement) olishi zarur. Qabul qiluvchi mamlakat sababini izohlamagan holda agreement berishga rozi bo'lmasligi mumkin. Vakolatxona a'zolari prinsip jihatidan akkreditatsiya qiluvchi davlatning fuqarolari bo'lishi kerak.

Agreement olganidan va rasmiy ravishda tayinlanganidan keyin vakolatxona boshlig'iga uning o'zi mansub davlat rahbari imzolagan ishonch yorlig'i, ya'ni umumiy mazmundagi vakolatnoma beriladi. Akkreditatsiya qilish ana shu ishonch yorlig'ini qabul qiluvchi davlat rahbariga topshirish bilan nihoyasiga yetadi va shundan keyin vakil o'z vazifasini ado etishga kirishishi mumkin.

Diplomatiik vakolatxonalarining turlariga — elchixona va vakolatxona, ulardan quyiaraq darajada esa missiya kiradi. Vakolatxona darajasi, odatda, tegishli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning qandayligiga bog'liq.

Vena konvensiyasida vakolatxona boshliqlari uch toifadan iborat ekani qayd etilgan: qabul qiluvchi davlat rahbarlari huzurida akkreditatsiya qilingan elchilar va vakillar; tashqi ishlar vaziri huzurida akkreditatsiya qilingan ishonchli vakillar.

Elchixonaga favqulodda va muxtor elchi, missiyaga esa vakil yoxud ishonchli vakil rahbarlik qiladi. Iшонchli vakilni muvaqqat ishlar bo'yicha vakildan farqlash lozim, chunki muvaqqat ishlar bo'yicha vakil elchi yo'qligida elchixonani vaqtincha boshqarib turishi mumkin.

Maxsus missiya 1969-yilgi Maxsus missiyalar to'g'risidagi konvensiyada davlatning maxsus masalalarni hal etuvchi yoxud maxsus topshiriqni bajaruvchi muvaqqat vakolatxonasi sifatida belgilangan.

Diplomatik vakolatxonaning asosiy vazifalari:

a) vakil qilib yuboruvchi davlatning vakolatxona joylashgan davlatda vakillik qilishi;

b) qabul qiluvchi mamlakat hukumati bilan muzokaralar olib borish;

d) o'z fuqarolari va yuridik shaxslari manfaatlarini himoya qilish;

e) qabul qiluvchi mamlakatdagi shart-sharoitlar va voqea-hodisalar to'g'risida o'z hukumatiga axborot berib borish;

f) iqtisodiyot, madaniyat, fan sohasida hamkorlikni rivojlantirish. (Diplomatik aloqalar to'g'risidagi 1961-yilgi Vena konvensiyasining 3-moddasi.)

Diplomatik immunitet va imtiyozlar davlat organi sifatida diplomatik vakolatxonaga va vakolatxona xodimlariga tegishli hisoblanadi. Diplomatik immunitet faqat davlatlarga taaluqli bo'lib undan davlatlar o'z tashqi siyosiy faoliyatini olib borishda foydalanadi. Shu ma'noda diplomatik immunitet funksional mazmunga ega bo'lib, undan faqat davlatlar voz kechishi mumkin. Diplomatik imtiyozlar esa diplomatik vakolatxona xodimlariga tegishli bo'lib, diplomatga nisbatan alohida qulay sharoit yaratishga qaratilgan bo'lib soliq, bojxona, ma'muriy majburlovdan ozod etishni anglatadi.

Diplomatik vakolatxona binolari (xonalari) daxlsizdir. Qabul qiluvchi mamlakat ma'murlari ularga faqat vakolatxona boshlig'i roziligi asosidagina kirishlari mumkin. Shu bilan birga, ular binolarga (xonalarga) bostirib kirish va ziyon-zahmat yetkazishdan himoyalash borasida zarur choralar ko'rishga, vakolatxona faoliyat yuritishi uchun tegishli shart-sharoitni ta'minlashga majburdir. Daxlsizlik kemalar, samolyotlar kabi transport vositalariga ham taalluqli bo'lib, ular tintuvdan, rekvizitsiyadan, hibsdan va ijro harakatlaridan holidir. Bunda avtoinspeksiyaning ko'cha harakati qoidalari buzilganligi holatlarini qayd etish va bular haqida Tashqi ishlar vazirligiga xabar berish huquqi istisno etilmaydi. Transport vositalari daxlsizligi diplomat hisoblanmaydigan haydovchilarga taalluqli emas. Misol uchun 1995-yilning sentabrida Moskvada garovda ushlab turishda ayblangan Saudiya Arabistoni elchixonasining haydovchisi hibsga olingan, so'ng sudlangan.

Vakolatxona arxivlari va hujjatlari har qanday vaqtda va ularning

qayerda joylashganidan, shu jumladan muvaqqat saqlash joyidan qat'i nazar, daxlsizdir. Ushbu qoida, hatto diplomatik aloqalar uzilgan holdalarda ham amal qilaveradi.

Vakolatxona bino bilan bog'liq barcha soliqlardan ozod etiladi (moliyaviy immunitet), biroq foydalanish sarf-xarajatlari (elektr energiyasi, suv ta'minoti va boshqa to'lovlar) bundan mustasnodir. Vakolatxona rasmiy ishlar uchun mo'ljallangan narsalarga bojxona to'lovi to'lashdan ozod etiladi (bojxona immuniteti).

Vakolatxona o'z davlat bayrog'i va emblemasidan, navbatdan tashqari telegraf va telefon aloqasidan foydalanish imtiyozlariga ega. U rasmiy maqsadlarga qaratilgan aloqalarni amalga oshirishda, shu jumladan shifrdan foydalanishda erkindir. Diplomatik pochmani ochish mumkin emas, uni kuzatib boruvchi diplomatik kurerlar esa shaxsiy daxlsizlikdan foydalanadi.

Vakolatxona xizmatchilariga qanday immunitet berilishi tegishli shaxsning qaysi xodimlar toifasiga mansub ekaniga bog'liqdir. Diplomatik darajaga ega *diplomatik xodimlar* to'liq immunitetdan foydalanadilar. Ular hibsga olinishi yoki biror shaklda ushlanishi mumkin emas. Diplomatning turarjoyi, hatto muvaqqat, masalan, mehmonxonadagi joyi, shuningdek, unga tegishli buyumlar ham daxlsizdir.

Diplomat jinoiy, fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiyalar immunitetlaridan foydalanadi. Bu diplomat sudlov yurisdiksiyasi va huquqni majburiy joriy etish yurisdiksiyasidan chiqarilgan, deganidir. Tayinlash yurisdiksiyasiga ko'ra esa, diplomat immunitetga ega bo'lmaydi, chunki u qabul qiluvchi mamlakat qonunlariga, shu jumladan maxsus diplomatlar uchun mo'ljallangan qonun hujjatlariga itoat etishga majbur. Shu bilan birga, diplomatlar o'zi mansub davlatning to'liq yurisdiksiyasida bo'ladi.

Fuqarolik yurisdiksiyasi immuniteti muayyan cheklashlarga ega bo'lib, bunda diplomat rasmiy maqomda bo'lmaydigan holatlar ko'zda tutilgan. Diplomatga nisbatan tegishli xususiy ko'chmas mulk yuzasidan mulk da'vosi; u vasiyatnoma ijrochisi, meros mulk vasiysi, merosxo'r yoki rad javobini oluvchi xususiy shaxs sifatida namoyon bo'lgan o'rinlarda esa, meros da'vosi qo'zg'atilishi mumkin.

Jinoiy yurisdiksiya immuniteti mutlaq mazmun kasb etadi hamda immunitet suiiste'mol etilgan hollarda ham ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bunda diplomatni nomaqbul shaxs deb tan olish va uni chaqirib olishlarini talab qilish asosiy jazo chorasi hisoblanadi. Diplomatni tavsiya etgan davlat uni o'zi akkreditatsiya qilingan mamlakatda sodir etgan jinoyati uchun jinoiy javobgarlikka tortish huquqiga egadir.

Diplomat qabul qiluvchi mamlakat sudlarida guvoh sifatida ishtirok etishga majbur emas, lekin bu diplomatning qabul qiluvchi mamlakat

iltimosiga binoan bunday guvohlik uchun rozilik berishini istisno etmaydi.

Diplomat bojxona immunitetidan foydalanadi. Uning yuklari orasida olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan narsalar borligi yuzasidan jiddiy asoslar mavjud bo'lgan holatlar bundan mustasnodir. Bunday hollarda yukni ko'zdan kechirish diplomat yoki uning vakili huzurida amalga oshirilishi shart.

Diplomatiya xodimlari moliyaviy immunitetdan foydalanadi — ular bevosita soliqlardan ozod etiladi. Diplomat bilan birga yashaydigan oila a'zolari ham, agar ular qabul qiluvchi davlat fuqarosi hisoblanmasa, bunday immunitetdan foydalanadi.

Tegishli davlatdagi vakolatxonalarning diplomatik xodimlari diplomatik korpusni tashkil etadi va ularga qabul qiluvchi mamlakatda eng uzoq muddat ishlayotgan vakolatxona boshlig'i — duayen boshchilik qiladi. Ushbu korpus va uning duayeni protokol bo'yicha o'z vazifasini ado etadi. Diplomatik immunitet buzilganda, korpus norozilik bildirgan holatlar ma'lum.

Vakolatxona xizmatchilarining ikkinchi toifasi *ma'muriy-texnik* xodimlardan iborat. Ular tarkibiga buxgalterlar, shifrovchilar, devonxona xizmatchilari, tarjimonlar va hokazolar kiradi. Keng tarqalgan amaliyotga muvofiq, 1961-yildagi Vena konvensiyasida ma'muriy-texnik xodimlar va ularning oila a'zolari, ayrim ahamiyatli istisnolar ko'zda tutilgan holda, diplomatiya xodimlariga sezilarli darajada tenglashtirib qo'yildi. Fuqarolik va ma'muriy yurisdiksiya immuniteti xizmat vazifasidan tashqari hollarda sodir etilgan xatti-harakat uchun taalluqli emas. Mazkur xodimlar dastlabki zarur narsalar, ro'zg'or buyumlarini poshlinasiz olib kirishlari mumkin, ammo ular bojxona nazoratidan ozod etilmaydilar.

Uchinchi toifa *xizmat ko'rsatuvchi xodimlar* (oshpazlar, bog'bonlar, qo'riqchilar, haydovchilar va boshqalar)dir. Bu guruh a'zolari o'zlarining xizmat vazifasini bajarish davrida sodir etgan xatti-harakatlariga nisbatan immunitetdan foydalanadilar va ularning xizmat maoshlari, agar ular qabul qiluvchi mamlakat fuqarolari bo'lmasa, soliqlardan ozod etiladi.

Xalqaro tashkilotlarning va ular xodimlarining imtiyozlari hamda immunitetlari tashkilotlar nizomlarida, ko'p tomonlama konvensiyalarda va qabul qiluvchi mamlakat bilan tuzilgan ikki tomonlama bitimlarda belgilab qo'yiladi.

1946-yilda Bosh Assambleya BMT imtiyozlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilgan. Konvensiyaga muvofiq, BMT mol-mulki sudlov harakatlari daxl qilmasligi immunitetidan foydalanadi, shu bilan birga, ayrim hollarda bunday daxlsizlik huquqidan voz

kechish ham mumkin. Tegishli binolar va arxivlar daxlsiz hisoblanadi. BMT mulki soliqlar va bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi. Tashkilot aloqa vositalarining barcha turlarini qo'llaydi. BMT Bosh kotibi va uning o'rinbosarlari, shuningdek, ularning oila a'zolari to'liq diplomatik immunitetdan foydalanadi. Boshqa mansabdor shaxslar funksional immunitetdan foydalanadi: ular mansabdor shaxs sifatida sodir etgan xatti-harakati uchun sud oldida javobgar bo'lmaydi; BMT to'laydigan maoshlari soliqlarga tortishdan ozod etiladi. Mabodo tegishli immunitet odil sudlovni ro'yobga chiqarishga xalal bersa, Bosh kotib mansabdor shaxsga berilgan immunitetdan voz kechishi mumkin. BMTning ixtisoslashgan muassasalari va boshqa xalqaro tashkilotlar ham shu kabi immunitet va imtiyozlarga egadir.

Xalqaro tashkilotlar huzuridagi davlatlar vakillarining immunitet va imtiyozlari mazkur tashkilotlarning ta'sis hujjatlari, ular a'zolarining ko'p tomonlama bitimlari, shuningdek, tashkilotlar bilan qabul qiluvchi davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama bitimlarda belgilanadi. Bu boradagi bir talay odat normalari 1975-yilda qabul qilingan va hozircha kuchga kirmagan Universal xarakterdagi xalqaro tashkilotlar qoshidagi davlatlarning vakilligi to'g'risidagi Vena konvensiyasida kodifikatsiyalangan.

Xalqaro tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalarining faoliyati davlatlardagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatiga bir qadar yaqindir. Ulardagi farq, avvalo, vakolatxonalarni ta'sis etish va xodimlarni tayinlash tartibida ko'rinadi. Vakolatxonani yoki kuzatuvchilar missiyasini ta'sis etish masalasi qabul qiluvchi davlat ishtirokisiz hal etiladi. Ishonch yorlig'i tashkilotning bosh mansabdor shaxsiga topshiriladi. Mavjud immunitet va imtiyozlar ham diplomatik immunitetlarga o'xshashdir.

Shunday qilib, diplomatik huquq xalqaro huquqning eng qadimiy va muhim mustaqil sohasidir. Xalqaro huquqni diplomatik huquqsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Diplomatik huquq zamonaviy xalqaro huquqning eng kodifikatsiyalangan sohalaridan biridir. Hozirgi kunda diplomatik huquq davlatlarning tashqi siyosiy funksiyalarini amalga oshiruvchi ichki davlat organlari faoliyatini borgan sari ko'proq tartibga solmoqda. Bundan tashqari, davlatlarning diplomatik faoliyatini tartibga soluvchi ichki davlat qonunchiligi ham jadal rivojlanmoqda.

Zamonaviy diplomatik huquqning manbalari xilma-xildir. Ular qatoriga xalqaro shartnoma, xalqaro-huquqiy odat va qo'shimcha manba sifatida milliy qonunchilik kiradi.

Xalqaro shartnoma diplomatik huquqning asosiy manbaidir va uning quyidagi turlari mavjud:

1) universal xalqaro shartnomalar. Masalan, 1961-yilgi Diplomatik munosabatlar to'g'risidagi konvensiya zamonaviy diplomatik huquqning yadrosi bo'lib, universal kodifikatsiyalangan hujjatdir;

- 2) davlatlar o'rtasidagi ikki tomonlama xalqaro shartnomalar;
- 3) davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar;
- 4) xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi xalqaro shartnomalar.

4-§. Konsullik huquqi asoslari

Bu boradagi universal bitim 1963-yilgi Konsullik aloqalari to'g'risidagi Vena konvensiyasidir. Bundan tashqari, O'zbekiston ko'plab ikki tomonlama konsullik konvensiyalariga ham ega.

Konsullik munosabatlari muayyan davlatning boshqa davlat hududidagi jismoniy va yuridik shaxslarining huquq va manfaatlarini himoyalashga qaratilgan xalqaro ma'muriy-huquqiy munosabatlar yig'indisidan iboratdir.

Konsullik munosabatlarning o'rnatilishi va konsulliklarning ta'sis etilishi davlatlar o'rtasidagi bitimlar bo'yicha amalga oshiriladi. Bu munosabatlar diplomatik aloqalar mavjud bo'lmagan, masalan, davlat yoki hukumat de-fakto tan olingan hollarda ham, o'rnatilishi mumkin. Bunday sharoitda konsullik ayrim diplomatik vazifalarni ham bajaradi.

Konsullik munosabatlari istisnoli hollarda, misol uchun urush boshlangan taqdirda to'xtatiladi.

Konsullik muassasalarining to'rt turi mavjud:

- 1) bosh konsullik;
- 2) konsullik;
- 3) vitse-konsullik;
- 4) konsullik agentligi.

Ularni tegishli tartibda bosh konsul, konsul, vitse-konsul yoxud konsullik agenti boshqaradi.

Konsullar davlatning mansabdor shaxslaridir. Amaliyotda, shuningdek, shtatsiz yoki faxriy konsullar ham ma'lum. Faxriy konsullar o'zlarini tayinlaydigan davlatning fuqarosi hisoblanmasligi va mazkur davlat xizmatida bo'lmashligi mumkin. Ular faqat konsullik vazifasini bajarganligi uchungina moddiy rag'batlantiriladi.

Har qaysi konsullik muassasasi konsullik okrugi — o'z davlati bilan qabul qiluvchi davlat o'rtasidagi bitimga muvofiq belgilab berilgan hudud doirasida faoliyat yuritadi.

Konsulni tayinlashda muayyan shaxs yuzasidan qabul qiluvchi davlatning oldindan roziligi talab etilmaydi. Yuboruvchi davlat unga *konsullik patenti* beradi. Qabul qiluvchi davlat esa konsullik *ekzekvaturasi* — o'z okrugida konsullik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi hujjatni topshiradi.

Konsullik muassasalari quyidagi uchta asosiy vazifani bajaradi:

birinchisi — o'z davlati va uning fuqarolari, shuningdek, yuridik shaxslarining manfaatlarini himoya qilish;

ikkinchisi — o‘zaro do‘stona munosabatlar rivojiga ko‘maklashish; uchinchisi — konsullik faoliyati sohasiga doir axborot berib borish, shu jumladan manfaatdor fuqarolar va yuridik shaxslarga tegishli ma‘lumotlar taqdim etish.

Konsullar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

1) konsullik okrugi hududida joylashgan vatandoshlariga qabul qiluvchi mamlakat qonunlari va urf-odatlariga haqida ma‘lumotlar beradi;

2) o‘z fuqarolariga pasportlar va yo‘l chiptalari, shuningdek, konsul vakillik bo‘lib turgan davlatga borishni xohlovchilarga vizalar berishni amalga oshiradi;

3) o‘z okrugi hududida joylashgan vatandoshlarining hisob ro‘yxatini yuritadi;

4) muayyan yurisdiksiya, xususan, notarial harakatlarni va fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etishni amalga oshiradi;

5) konsullik legalizatsiyasi, ya‘ni qabul qiluvchi davlat hukumati chiqaradigan hujjatlardagi imzolarning haqiqiylikini hamda ana shu hujjatlarning shu davlat qonun-qoidalariga muvofiqlikini aniqlash va tasdiqlash bilan shug‘ullanadi;

6) fuqarolar vafot etgan taqdirda, ularning manfaatlarini himoya qiladi;

7) voyaga yetmaganlar va muomalaga to‘liq layoqatli bo‘lmagan boshqa fuqarolarining manfaatlarini himoya qiladi;

8) qabul qiluvchi davlat sudlari va boshqa muassasalarida o‘z davlati fuqarolarining huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida ko‘rsatma olish maqsadida, fuqarolarning o‘zlari bunga erisholmagan hollarda, tegishli ravishda vakillik qiladi yoki vakillikni ta‘minlaydi;

9) o‘z davlati tergov yoki sudlov organlari topshiriqlarini bajaradi.

Konsullar o‘z davlati bayrog‘i ostida suzayotgan kemalarga, shuningdek, mazkur davlatda ro‘yxatga olingan samolyotlarga va ularning ekipajlariga nisbatan nazorat va inspeksiya ishlarini amalga oshiradi. Konsullar bunday kemalar va samolyotlarga yordam ko‘rsatadi, ularni ko‘zdan kechiradi va kema hujjatlarini rasmiylashtiradi, yo‘lda sodir bo‘lgan har qanday voqea-hodisani o‘rganib chiqadi, kapitan bilan ekipaj o‘rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etadi.

Konsullik immuniteti to‘lig‘icha mazkur muassasaga va uning xodimlariga tegishlidir. Muassasa immuniteti xizmat binolarining daxlsizligidan iborat. Mahalliy ma‘murlar bu yerga konsul yoki diplomatik vakolatxonaning ruxsati bilan kirishi mumkin. Bunday ruxsatning berilishi yong‘in yoki tabiiy ofat yuz bergan hollarda ko‘zda tutiladi. Konsullikka qarashli barcha binolar, shuningdek, mol-mulk, shu jumladan transport vositalari jamoatchilik ehtiyoji uchun rekvizitsiya qilinish-

dan xolidir. Konsullik arxivlari ham diplomatik arxivlar singari daxlsiz hisoblanadi. Ammo qabul qiluvchi davlat hokimiyati organlari konsullik valizlari (pochtalari)ni, agar unda olib ketish uchun ruxsat berilgan narsalardan yoki konsullik yozishmalaridan tashqari boshqa narsa mavjudligiga gumon qilinsa, ochib ko'rishni talab qilishi mumkin.

Konsullik o'z davlat bayrog'i va gerbidan foydalanishi mumkin. Konsullik binolari va konsulxona boshlig'ining qarorgohi barcha soliqlardan ozod etiladi. Konsullik xodimlari qabul qiluvchi mamlakatning barcha hududlarida erkin harakatlanishi mumkin. Konsullik muassasalari barcha aloqa vositalari, shu jumladan kurerlar va shifrlı ma'lumotlardan foydalangan holda, erkin rasmiy aloqalarni amalga oshirish huquqiga ega.

Konsullik o'z fuqarolari bilan, ushbu fuqarolar esa konsulxona bilan erkin aloqada bo'ladi. Qabul qiluvchi davlatning tegishli organlari konsulxonaga u vakili bo'lgan davlatga mansub fuqarolarning qamoqqa olinishi yoki ushlab turilishi bilan bog'liq barcha holatlar haqida zudlik bilan ma'lum qiladi. Konsullar qamoqdagi o'z fuqarolarini, agar ular bunga qarshi bo'lmasa, borib ko'rishı mumkin.

Qabul qiluvchi mamlakat ma'murlari konsullikka u vakili bo'lgan davlat fuqarolarining o'limi va ularga nisbatan vasiylik o'rnatilishi, shuningdek, mazkur davlatda ro'yxatga olingan kemalar va samolyotlarning halokatga uchrashi kabi barcha holatlar haqida xabar beradi.

Konsullik o'z vakolatiga kiruvchi aktlarni amalga oshirganligi uchun konsullik yig'imini undirish huquqiga ega.

Konsulxona xodimlarining immuniteti funksional prinsipga asoslanadi. Immunitetni belgilash maqsadida konsulxona xodimlari uchta toifaga ajratiladi:

1) *konsullikning mansabdor shaxslari* — konsullik vazifasini bajaruvchi shaxslar;

2) *konsullik xodimlari* — ma'muriy yoki texnik vazifalarni bajaruvchi shaxslar;

3) *xizmat ko'rsatuvchi xodimlar*.

Konsullikning mansabdor shaxslari shaxsiy daxlsizlikdan foydalana-di, ular qamoqqa olinishi yoki dastlabki tergovda qamoqda ushlab turilishi mumkin emas. Og'ir jinoyat sodir etish hollari bundan mustasnodir. Lekin bunday hollarda ham kuchga kirgan sud qarori asosidagina ularning shaxsiy erkinligi cheklanishi mumkin. Konsullikning mansabdor shaxsiga qarshi jinoiy ish qo'zg'atilgan taqdirda, u tegishli vakolatli organlarga borishi zarur. Bunday hollarda va mansabdor shaxs qo'lga olingan taqdirda qabul qiluvchi davlat ma'murlari konsullikni zudlik bilan xabardor etadi.

Mansabdor shaxs va xodimlar xizmat vazifasini bajarish vaqtida sodir

etgan harakatlariga nisbatan mahalliy yurisdiksiyadan immunitetga egadir. Ushbu qoida uchinchi tomon transport vositasi bilan yetkazilgan zarar uchun qo'zg'atgan fuqarolik da'vosiga nisbatan qo'llanmaydi.

Konsulxonaning xizmat ko'rsatuvchi xodimlari guvohlik ko'rsatmalari berish uchun sudga chaqirilishi mumkin. Konsullik xodimlari va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar sudda ko'rsatma berishdan bosh tortishi mumkin emas. Agar konsullikning mansabdor shaxsi sudda ko'rsatma berishdan bosh tortsa, unga nisbatan hech qanday majburlash choralari qo'llanmaydi.

Konsullikning mansabdor shaxslari va xodimlari, shuningdek, ularning oila a'zolari barcha soliq va yig'implardan ozod etiladi. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ish haqiga solinadigan soliqlardan ozod etiladi. Konsullikning mansabdor shaxslari bojxona to'lovlari va ko'rigidan ozod etiladi. Mansabdor shaxslarning yuklari orasida olib kirish yoki olib chiqish taqiqlangan narsalar borligi yuzasidan jiddiy asoslar mavjud bo'lgan holatlardagina ko'zdan kechirilishi mumkin. Bunday hollarda yukni ko'zdan kechirish konsullik mansabdor shaxsi huzurida amalga oshirilishi shart.

Davlat konsullik xizmatchisining immunitetidan voz kechishi mumkin. Konsullik xizmatchisining suddagi fuqarolik da'vosi uni qarshi da'voga nisbatan immunitetiga murojaat qilish huquqidan mahrum etadi. Sudlov immunitetidan voz kechish sud qarori bo'yicha ijro harakatlariga nisbatan immunitetdan voz kechish, degani emas. O'zbekistonda konsullik munosabatlariga oid barcha masalalar 1996-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi bilan tartibga solinadi¹.

5-§. O'zbekiston Respublikasida diplomatik xizmatning huquqiy asoslari

Diplomatik xizmatga oid eng muhim masalalar, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi bilan tartibga solinadi. Konstitutsiya: birinchidan, O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplarini mustahkamlagan (17-modda); ikkinchidan, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari milliy qonunchilikdan ustunligini e'tirof etgan (Muqaddima): uchinchidan, O'zbekistonning tashqi aloqalar olib boruvchi organlari tizimini o'rnatgan.

Bundan tashqari, O'zbekistonda tashqi siyosat va diplomatik huquqqa oid qator maxsus qonunlar qabul qilingan. Bunday qonunlar jumlasiga quyidagilar kiradi: «Diplomatik darajalar va martabalarni o'rnatish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (1992) va «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlarda diplomatik vakolatxona

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi. — T., 1996.

boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni (1992).

Ushbu qonunlar ichida «O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to'g'risida»gi va «O'zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalari belgilash to'g'risida»gi qonunlar O'zbekistonda diplomatik xizmatni tashkil etishning huquqiy asoslarini tashkil etadi.

Agar birinchi qonun O'zbekiston Respublikasining diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibini «Diplomatik munosabatlar to'g'risida»gi 1961-yildagi Vena konvensiyasiga hamda boshqa umume'tirof etilgan xalqaro-huquqiy normalar va qoidalarga muvofiq belgilab bersa, ikkinchi qonun esa, O'zbekiston Respublikasining diplomatik xodimlari uchun diplomatik darajalari va martabalarini belgilab bergan.

O'zbekiston Respublikasining chet davlatdagi diplomatik vakolatxonasining boshlig'i O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Oliy Majlis Senatiga tayinlash uchun kiritiladi. Bu lavozim nomzodligiga doir taklifni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tegishli idoralar bilan kelishgan holda kiritadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti ma'qullagan diplomatik vakolatxonasi boshlig'ining nomzodini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vaziri vakolatxona joylashgan mamlakat Tashqi ishlar vazirligiga (yozma) taqdim etib, uning roziligini (agreman) so'raydi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining boshlig'ini tayinlash vakolatxona joylashgan mamlakatning rasmiy roziligi olinganidan keyin amalga oshiriladi. Vakolatxona joylashgan mamlakatdan javob olingunga qadar diplomatiya vakolatxonasining boshlig'i lavozimiga nomzod xususidagi ma'lumotlar yopiq hisoblanadi.

Favqulodda va muxtor elchi yoki favqulodda va muxtor vakil tayinlangan mamlakatga jo'nab ketgunga qadar O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi unga boradigan davlatining rahbariga topshirishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti imzolagan hamda O'zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vaziri imzosi bilan tasdiqlagan ishonch yorlig'ini tayyorlaydi.

O'zbekiston Respublikasining ishonchli vakiliga O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining qabul qiluvchi mamlakat Tashqi ishlar vazirligi nomiga yozilgan maktubi beriladi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonasining boshlig'i quyidagi hollarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan chaqirib olinadi:

- 1) diplomatiya vakolatxonasining boshlig'i almashtirilganda;

2) diplomatiya vakolatxonasining boshlig‘i nomaqbul shaxs (persona non grata) deb e‘lon qilinganda;

3) davlatlar o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar uzilganda;

4) davlatlar o‘rtasida urush holati e‘lon qilinganda;

5) davlat xalqaro huquq subyekti sifatida yo‘qolganda.

O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarining boshqa a‘zolari O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining buyrug‘i bilan tayinlanadilar va chaqirib olinadilar¹.

O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarining 3 darajasi belgilangan:

1) chet davlat boshlig‘i huzurida akkreditatsiya qilinadigan favqulodda va muxtor elchi;

2) chet davlat boshlig‘i huzurida akkreditatsiya qilinadigan favqulodda va muxtor vakil;

3) chet davlat tashqi ishlar vaziri huzurida akkreditatsiya qilinadigan ishonchli vakil.

O‘zbekiston Respublikasi vakolatxonalarining boshliqlari mansub bo‘lishi loyiq ko‘rilgan daraja diplomatiya munosabatlari o‘matayotgan davlat o‘rtasidagi ahdlashuvda belgilab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasida quyidagi diplomatiya martabalar — O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi vakolatxonalarining diplomatiya xodimlariga beriladigan alohida xizmat unvonlari belgilanadi:

1) favqulodda va muxtor elchi;

2) birinchi darajali favqulodda va muxtor vakil;

3) ikkinchi darajali favqulodda va muxtor vakil;

4) birinchi darajali maslahatchi;

5) ikkinchi darajali maslahatchi;

6) birinchi darajali birinchi kotib;

7) ikkinchi darajali birinchi kotib;

8) birinchi darajali ikkinchi kotib;

9) ikkinchi darajali ikkinchi kotib;

10) uchinchi kotib;

11) attashe.

Favqulodda va muxtor elchi, birinchi va ikkinchi darajali favqulodda va muxtor vakil martabalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan beriladi. Ana shu masalalar yuzasidan takliflarni O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri kiritadi. Boshqa diplomatik martabalar O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirining buyrug‘i

¹ «O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni (1992-yil 3-iyulda qabul qilingan) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1992. № 9. — 349-m.

bilan beriladi. Bu martabalarni berish haqidagi takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining malaka komissiyasi kiritadi. Malaka komissiyasining tarkibi va u haqdagi nizomni O‘zbekiston Respublikasining tashqi ishlar vaziri tasdiqlaydi. Diplomatik martabalar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining rahbar va mas’ul xodimlariga ham beriladi.

Birlamchi diplomatik martaba — attashe diplomatik xizmatida kamida bir yil ishlagan kishiga beriladi. Diplomatik vakolatxonalarining xodimlariga navbatdagi uchinchi kotib, ikkinchi kotib martabalari malakasiga hamda xoh markaziy devonda, xoh O‘zbekiston Respublikasining chet ellardagi vakolatxonalarida kamida 2—3 yil, birinchi kotib, maslahatchi martabalari esa kamida 3—4 yil xizmatni muvaffaqiyatli o‘taganligiga qarab beriladi. Ishdagi katta yutuqlari uchun diplomatik vakolatxonasining xodimi belgilangan muddatdan oldin yuqoriroq diplomatik martaba berishga tavsiya etilishi mumkin.

Favqulodda va muxtor elchi, favqulodda va muxtor vakil martabalari bir umrga beriladi. Boshqa diplomatik martabaga ega bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tizimidan pensiyaga chiqqanlari taqdirda ularning bu martabalari saqlanib qoladi.

Favqulodda va muxtor elchi, favqulodda va muxtor vakil, diplomatiya martabalaridan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan mahrum etiladi. Diplomatiya vakolatxonalarining boshqa a‘zolari xususida bu masala yuzasidan qarorni O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining malaka komissiyasi taqdimiga ko‘ra, tashqi ishlar vaziri qabul qiladi¹.

6-§. O‘zbekiston Respublikasida konsullik xizmati

O‘zbekiston Respublikasida konsullik xizmatining huquqiy asoslarini «O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi» tashkil etadi. Konsullik ustavi 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan bo‘lib, 4 bo‘lim, 13 bob, 78 moddadan iborat². Konsullik ustavi 1963-yilgi Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi qoidalari asosida tayyorlangan. Konsullik ustavi to‘rt guruh konsullik xizmatiga oid munosabatlarni tartibga soladi:

birinchidan, konsullik muassasalari va ularning faoliyatini tashkil etish;

¹ «O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalarining boshliqlarini tayinlash hamda chaqirib olish tartibi to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni (1992-yil 3-iyulda qabul qilingan) // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1992. №9, —350-m.

² Qarang: «O‘zbekiston Respublikasining Konsullik ustavi» // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1996. № 9. —124-m.

ikkinchidan, konsullik vazifalari va ularni bajarish tartibi;
uchinchidan, notarial harakatlar, konsulning hujjatlarini qonunlash-
tirish, konsullik yig'irlari;
to'rtinchidan, imtiyozlar hamda immunitetlar va konsul vazifasi-
ning tugatilishi.

Konsullik ustavida konsullik xizmatiga oid quyidagi asosiy tushun-
chalarning mazmun-mohiyati ochib berilgan:

1) *Konsullik muassasasi* — O'zbekiston Respublikasi diplomatiya vakolatxonasi konsullik bo'limi, O'zbekiston Respublikasining xo-
rijiy davlatda ta'sis etiladigan bosh konsulxonasi, konsulxonasi, vitse-
konsulxonasi va konsullik agentligi;

2) *Konsul* — konsullik muassasasining rahbari bo'lmish bosh kon-
sul, konsul, vitse-konsul va konsullik agenti;

3) *Konsullikning mansabdor shaxsi* — konsullik vazifalarini bajarish
ishi topshirilgan har qanday shaxs, shu jumladan konsullik muassasasi-
ning rahbari, shuningdek, diplomatiya vakolatxonasi konsullik bo'limining
mudiri;

4) *Konsullik muassasasining xodimi* — konsullik muassasasiga xiz-
mat ko'rsatish yuzasidan konsullik muassasasida ma'muriy yoki texnikaviy
vazifalarni bajarish bilan shug'ullanayotgan har qanday shaxs;

5) *Konsullik okrugi* — konsullik vazifalarini bajarish uchun konsullik
muassasasi ixtiyoriga berilgan hudud;

6) *Konsullik binolari* — konsullik muassasasi ehtiyojlari uchun foy-
dalanilayotgan binolar yoki ularning bir qismi, shuningdek, ularga qa-
rashli yer maydonlari;

7) *Kema* — O'zbekiston Respublikasi bayrog'i ostida suzib yurgan
har qanday kema, harbiy kema bundan mustasno;

8) *Havo kemasi* — O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan
har qanday havo kemasi, harbiy samolyot bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi qaysi davlatlar bilan konsullik munosabat-
lari o'rnatgan bo'lsa, shu davlatlarda konsullik muassasalarini ta'sis etadi.
Konsullik munosabatlarini o'rnatishga oid bitim bo'lmagan taqdirda, diplo-
matik munosabatlarning o'rnatilishi konsullik munosabatlarning ham
o'rnatilishi deb hisoblanadi. Biroq diplomatik munosabatlarning uzilishi
o'z-o'zidan konsullik munosabatlarning ham uzilishini va O'zbekiston
Respublikasi konsullik muassasasining tugatilishini anglatmaydi.

O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari chet ellarda
O'zbekiston Respublikasining, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va
yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qiladi. Konsullik
muassasalari konsullik joylashgan davlatlar bilan O'zbekiston Respubli-
kasining do'stona munosabatlari rivojlanishiga hamda ular bilan iqtis-
odiy, savdo, ilmiy-texnikaviy, madaniy va boshqa aloqalarning ken-

gayishiga ko'maklashadi. O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasalari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi hamda konsullik joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga, xalqaro prinsiplarga, ushbu Ustavga, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga amal qiladi.

Konsullik muassasalari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga bo'ysunadi va konsulxona joylashgan davlatlarga O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasi boshlig'ining umumiy rahbarligida ish ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonalarining konsullik bo'limlarini konsullik bo'limlarining mudirlari boshqaradi. Bosh konsulxonalar, konsulxonalar, vitse-konsulxonalar va konsullik agentliklarini tegishli bosh konsullar, konsullar, vitse-konsullar va konsullik agentlari boshqaradi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari bo'lmagan davlatlarda konsulxona joylashgan davlatning roziligi bilan konsul zimmasiga diplomatik vazifalar ham yuklatishi mumkin.

Konsullik muassasasining manzili, uning darajasi va konsullik okrugi konsulxona joylashgan davlat bilan kelishilgan holda belgilanadi.

Konsullik muassasasi O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan hamda konsullik muassasasining nomi O'zbekiston Respublikasining davlat tilida yozilgan muhrga ega bo'ladi. Konsullik muassasasi o'zi egallab turgan binoga O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi tushirilgan hamda O'zbekiston Respublikasining davlat tilida va konsulxona joylashgan davlat tilida konsullik muassasasining nomi yozilgan peshlavha o'rnatish huquqiga egadir. Konsullik muassasasi joylashgan bino ustida O'zbekiston Respublikasi o'z Davlat bayrog'ini o'rnatishga haqlidir. Konsul o'z qarorgohiga, shuningdek, o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida o'z transport vositalarida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ini o'rnatishga haqlidir.

Konsullik muassasalarining mansabdor shaxslari va xodimlari O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida davlat xizmatida bo'ladilar. Faqat O'zbekiston Respublikasining fuqarosigina konsullikning mansabdor shaxsi bo'lishi mumkin. Konsul lavozimiga tayinlanayotganida O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligidan uning konsullik okrugi belgilab berilgan konsullik patentini oladi. Konsul konsulxona joylashgan davlatning roziligini (ekzekvaturasini) olganidan keyin o'z vazifalarini bajarishga kirishadi. Uning bu vazifaga tayinlanganligi to'g'risida konsulxona joylashgan davlat ma'murlari xabardor qilinadi.

Agar konsul biron sababga ko'ra o'z vazifalarini bajara olmaydigan bo'lsa yoki uning lavozimi vaqtincha bo'sh bo'lsa, konsulning vazifalarini bajarish ushbu konsullik muassasasining yoki O'zbekiston Respub-

likasining konsulxona joylashgan davlatdagi boshqa konsullik muassasasining boshqa mansabdor shaxsi zimmasiga yoxud shu davlatdagi O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolatxonasining diplomatiya xodimlaridan biri zimmasiga yuklatiladi.

Konsul Konsullik ustavida hamda O'zbekiston Respublikasi bilan konsulxona joylashgan davlat o'rtasida imzolangan xalqaro shartnomalarda nazarda tutilgan vazifalarni bajaradi. Konsul o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shaxsan bajaradi yoki ularning bajarilishini konsulxonaning boshqa mansabdor shaxsiga topshiradi. Konsul boshqa davlatning konsullik vazifalarini faqat O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining ko'rsatmasiga binoan va konsulxona joylashgan davlat roziligi bilan bajarishi mumkin.

Konsul o'zining konsullik okrugi doirasida konsullik muassasasining faoliyati bilan bog'liq barcha masalalar yuzasidan konsulxona joylashgan davlat ma'murlariga murojaat etishi mumkin. Konsul har yili kamida bir marta konsullik okrugini aylanib chiqishi shart. Konsul O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslarining konsulxona joylashgan davlatning qonun hujjatlariga ko'ra va O'zbekiston Respublikasi hamda konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga, shuningdek, xalqaro prinsiplarga ko'ra ularga berilgan barcha huquqlardan foydalana olishlari uchun chora-tadbirlarni ko'rish shart. Konsul yozma arizalarni ham, og'zaki arizalarni ham qabul qilishi shart. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslarining buzilgan huquqlari tiklanishining chora-tadbirlarini ko'rish shart. Konsul uning konsullik okrugida doimiy yashayotgan hamda vaqtincha yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining hisobini yuritadi. Konsul O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, idoralari, korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining konsullik okrugi doirasida turgan vakillariga o'z xizmat vazifalarini bajarishlarida ko'maklashadi. Konsul uning konsullik okrugida vaqtincha yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining konsulxona joylashgan davlatning qonunlari va boshqa normativ hujjatlaridan, shuningdek, mahalliy urf-odatlardan xabardor qiladi. Konsulning O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda bo'lishlariga doir masalalar bo'yicha far moyishlari ular uchun majburiy kuchga egadir.

Konsul O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, konsulxona joylashgan davlatda O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy hisobini yuritadi. Konsul muddatli harbiy (muqobil) xizmatga chaqiriladigan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining O'zbekiston Respublikasidagi tegishli mudofaa ishlari bo'limlariga borishlarini ta'minlaydi.

Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqaroligida bo'lgan va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida yashayotgan bolaning farzandlikka olinishi-

ni rasmiylashtirish huquqiga egadir. Agar farzandlikka oluvchi O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lmasa, farzandlikka olish uchun O'zbekiston Respublikasidagi bunga vakolatli organning roziligini olish zarur. Otonasining homiyligidan mahrum bo'lgan O'zbekiston Respublikasining voyaga yetmagan fuqarolari ustidan konsul o'z konsullik okrugida vasiylik va homiylik o'rnatilishi chora-tadbirlarini ko'radi. Salomatligining yomonligi tufayli o'z huquqlarini mustaqil amalga oshirishga hamda o'z majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining voyaga yetgan fuqarolari ustidan konsul o'z konsullik okrugida vasiylik va homiylik o'rnatilish chora-tadbirlarini ko'radi.

Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarosining vafotidan so'ng undan qolgan mol-mulkning qo'riqlanish chora-tadbirlarini ko'radi. Agar qolgan mol-mulkning hammasi yoki uning bir qismi buzilishi mumkin bo'lgan narsalardan iborat bo'lsa, shuningdek, ularning saqlanishi o'ta qimmatga tushadigan bo'lsa, konsul bu mol-mulkni sotish huquqiga ega va tushgan pulni tegishliligiga qarab jo'natishi shart. Konsul meros qilib qoldirilgan mol-mulkni O'zbekiston Respublikasida bo'lgan merosxo'rlarga topshirish uchun qabul qilib olish huquqiga egadir. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga tegishli pullar, boyliklar, qimmatli qog'ozlar va hujjatlarni saqlab turish uchun qabul qilib olishi mumkin.

Saqlab turish uchun topshirilgan mol-mulk egasi bo'lgan shaxs vafot etgan taqdirda, bunday mol-mulkka nisbatan Konsullik ustavining 35-moddasidagi qoidalar qo'llaniladi.

Konsul, agar bu konsulxonaga joylashgan davlat qonunlarida man etilmagan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga taalluqli topshiriqlarni bajaradi. Mazkur topshiriqlar xalqaro shartnomalarga hamda O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga rioya etilgan holda bajariladi. Konsul jinoyat sodir etishda gumon qilinib hibsga olingan (qamalgan) yoki ushlab turilgan yoxud O'zbekiston Respublikasi fuqarosining erkinligini cheklovchi boshqa choralarga tortilgan yoki ozodlikdan mahrum etish tarzida jazoni o'tayotgan, shuningdek, sudlov yoki ma'muriy ta'sir choralarining boshqa turlariga tortilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosiga nisbatan konsulxonaga joylashgan davlat qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi va konsulxonaga joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalar qoidalari tatbiq etilishini kuzatib borishi shart.

Konsul ozodlikdan mahrum etish joylaridagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini manfaatdor shaxslarning iltimosiga binoan hamda o'z tashabbusi bilan borib ko'rish hamda ularni saqlab turish shart-sharoitlarini aniqlashi shart. Konsul bunday fuqarolar gigiena va sanitariya talablariga javob beradigan sharoitlarda saqlanishini hamda ularga nisbatan shafqatsiz va inson qadr-qimmatini tahqirlovchi muomala qilinishini kuzatib turishi shart.

Konsul uning konsullik okrugida istiqomat qilib turgan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi fuqaroligi masalalariga doir arizalarni qabul qilishi shart. Konsul chet elda doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek, qonunga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olgan shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasportini berish hamda uni almashtirib berish huquqiga ega. Konsul O'zbekiston Respublikasiga kelish, O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketish va O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit o'tish uchun vizalar berish, ularning muddatini uzaytirish, ularni bekor qilish, shuningdek, berilgan vizalarga o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega.

Konsul O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holati dalolatnomalarini yozadi. Konsul chet elda doimiy yashab turgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining fuqarolik holatini qayd etish yozuvlariga o'zgartirishlar, tuzatishlar, qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi, yo'qotilgan yozuvlarni qayta tiklash, shuningdek, familiyasi, ismi va otasining ismini o'zgartirish haqidagi iltimosnomalarni qabul qilib oladi hamda ularni qarab chiqish uchun vakolatli organlarga yuboradi.

Konsul O'zbekiston Respublikasining havo, dengiz, daryo kemasi-da biron shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida ma'lumot olishi bilanoq, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tug'ilganlik yoki vafot etganligi to'g'risidagi holatni ro'yxatga oladi. Konsulning fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tasdiqlaydi.

Konsul o'z konsullik okrugi doirasida konsulxona joylashgan davlatning aeroportlarida O'zbekiston Respublikasi havo kemasining komandiri, ekipaji va yo'lovchilariga konsulxona joylashgan davlatning qonun hujjatlariga hamda O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarga muvofiq huquqlar va immunitetlar berilishini kuzatib boradi. Konsul O'zbekiston Respublikasi fuqarolik havo kemasi komandiri, ekipaji va yo'lovchilarining konsulxona joylashgan davlat ma'murlari bilan munosabatlarida yordam berishi, shuningdek, zarur hollarda, havo kemasi, uning ekipaji va yo'lovchilari uchun O'zbekiston Respublikasiga qaytish yoki parvozni davom ettirish chora-tadbirlarini ko'rish kerak.

Ushbu sohada konsul quyidagi huquqlarga ega:

1) havo kemasining aeroportga uchib kelishi, undan uchib ketishi va aeroportda turishiga ko'maklashish;

2) havo kemasida yuz bergan hodisalarning holatlarini aniqlash, havo kemasining komandiri, ekipaj a'zolari va yo'lovchilardan so'rab-surishtirish;

3) havo kemasi, undagi yuk va reysga doir ma'lumotlar olish;

4) zarur hollarda havo kemasi ekipaji a'zolari va yo'lovchilarining davolanishi hamda O'zbekiston Respublikasiga jo'natilishini ta'minlash chora-tadbirlarini ko'rish;

5) O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini, pochta va yuklarni O'zbekiston Respublikasining aeroportlariga boradigan O'zbekiston Respublikasi havo kemalarida jo'natib yuborish;

6) havo kemalariga taalluqli, O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda yoki O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan deklaratsiya yoki boshqa hujjatni olish, tuzish yoki tasdiqlash.

Havo kemasi halokatga uchragan, qo'nishga majbur bo'lgan yoki boshqa hodisa sodir bo'lgan taqdirda, konsul o'zining konsullik okrugi doirasida ekipaj va yo'lovchilarga zarur yordam ko'rsatadi. Konsul halokatga uchragan yoki qo'nishga majbur bo'lgan havo kemasini, hodisa xususiyatidan shohidlik beruvchi undagi yuklar va ashyoviy dalillarni qo'riqlash choralari ko'radi hamda uchish vaqtida yuz bergan hodisaning sabablarini aniqlashda O'zbekiston Respublikasi mutaxassislariga ko'maklashadi.

Havo kemasining bortida jinoyat sodir etilgan taqdirda konsul O'zbekiston Respublikasi ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalardan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlaridan kelib chiqadigan vazifalarni bajarishda havo kemasining komandiriga ko'maklashadi.

Agar konsullikning mansabdor shaxsida mavjud bo'lgan ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi havo kemasining muayyan aeroportga kirishi bexatar bo'lmasa, konsullikning mansabdor shaxsi havo kemasi kapitanini bundan ogohlantirishi shart.

Chet elda kema sotib olingan taqdirda konsul O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ostida suzib yurish huquqini beradigan muvaqqat guvohnoma beradi.

Notarial harakatlar O'zbekiston Respublikasining konsullik muassasasida bajariladi. Konsul quyidagi notarial harakatlarni bajaradi:

1) bitimlarni (shartnomalar, vasiyatnomalar, ishonchnomalar va hokazolarni) tasdiqlaydi. O'zbekiston Respublikasidagi uy-joylarni boshqa shaxsga o'tkazish va garovga qo'yish to'g'risidagi shartnomalar bundan mustasno;

2) meros qilib qoldirilgan mulkning qo'riqlanishiga doir chora-tadbirlarni ko'radi;

3) meros huquqi to'g'risidagi guvohnomani beradi;

4) er-xotinning umumiy mulkidagi ulushga egalik huquqi to'g'risida guvohnoma beradi;

5) hujjatlar nusxalarining va hujjatlardan olingan ko'chirmalarning to'g'riligini shahodatlaydi;

- 6) hujjatdagi imzolarning haqiqiylikini shahodatlaydi;
- 7) hujjatlarning bir tildan boshqasiga to'g'ri tarjima qilinganligini shahodatlaydi;
- 8) shaxsning tirik ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 9) fuqaroning muayyan joyda ekanligi faktini tasdiqlaydi;
- 10) fuqaroning fotosuratda aks ettirilgan shaxs ekanligini tasdiqlaydi;
- 11) hujjatlar taqdim etilgan vaqtni tasdiqlaydi;
- 12) pul summalari va qimmatli qog'ozlarni depozitga qabul qilib oladi;
- 13) ijro xatlarini yozadi;
- 14) saqlash uchun hujjatlarni qabul qilib oladi;
- 15) qonunda nazarda tutilgan boshqa notarial harakatlarni bajaradi.

Notarial harakatlarni bajarayotgan konsul ushbu notarial harakatlarga oid sirni saqlashi shart. Bajarilgan notarial harakatlar to'g'risidagi ma'lumotnomalar va hujjatlar O'zbekiston Respublikasining notariat to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq beriladi.

Notarial tartibda tasdiqlanadigan bitimlar, shuningdek, ariza va boshqa hujjatlar notarial harakatlarni bajarayotgan konsul huzurida imzolaniadi. Agar bitim, ariza yoki boshqa hujjat konsul yo'qligida imzolangan bo'lsa, imzo chekkan hujjatni o'zi imzolaganligini shaxsan tasdiqlashi lozim. Konsul notarial harakatlarni bajarayotgan vaqtda O'zbekiston Respublikasining fuqarolariga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntirishi, bajarayotgan notarial harakatlarining oqibatlari to'g'risida ogohlantirishi shart. Konsul o'z nomiga va uning nomidan xotining (erining) va o'zining yaqin qarindoshlari nomiga hamda ularning nomidan notarial harakatlar bajarishi mumkin emas.

Konsullik muassasasida notarial ish yuritish O'zbekiston Respublikasining davlat tilida amalga oshiriladi. Agar notarial harakatni bajarish iltimosi bilan murojaat qilgan shaxs ish yuritilayotgan tilni bilmasa, notarial harakatni bajarayotgan konsul yoki konsul taniydigan tarjimon rasmiylashtirilayotgan hujjatlarning matnlarini unga tarjima qilib berishi lozim.

Agar O'zbekiston Respublikasida istiqomat qilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi foydasiga meros ochilganligi ma'lum bo'lib qolsa, konsul meros va ehtimol tutilgan merosxo'rlar to'g'risida o'zi bilgan barcha ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga darhol xabar qilishi shart.

Agar notarial harakatni bajarish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lsa, konsul bunday harakatlarni bajarishni rad etadi. Agar hujjatlar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga mos kelmasa yoki o'z mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zarar mumkin bo'lsa yoxud fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma'lumotlarga ega bo'lsa, konsul

bunday hujjatlarni notarial harakatlarni bajarish uchun qabul qilmaydi. Notarial harakatni bajarish to'g'risidagi shaxsning iltimosiga binoan, unga rad etishning sabablari bayon qilinishi va uning shikoyat qilish tartibi tushuntirib berilishi lozim.

Konsul o'z konsullik okrugidagi mahalliy ma'murlar vakillarining ishtirokida tuzilgan yoki ana shu ma'murlardan kelgan hujjatlar va aktlarni qonunlashtiradi. O'zbekiston Respublikasining organlari ana shunday hujjatlar va aktlarni, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida yoki O'zbekiston Respublikasi va konsulxona joylashgan davlat ishtirokchi bo'lgan xalqaro shartnomalarda o'zgacha hol ko'zda tutilgan bo'lmasa, konsul qonunlashtirganidan keyingina qarab chiqish uchun qabul qiladi. Konsulning hujjatlarni qonunlashtirishining mohiyati ana shu hujjatlar va aktlardagi imzolarning haqiqiylikini va hujjatlar bilan aktlarning konsulxona joylashgan davlat qonunlariga muvofiqlikini aniqlash hamda shahodatlashdan iboratdir. Konsulning hujjatlarni qonunlashtirish tartibini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarini qonunlashtirish tartibini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lgan yoki o'z mazmuniga ko'ra O'zbekiston Respublikasining davlat manfaatlariga zarar yetkazishi yoxud fuqarolarning sha'ni va qadr-qimmatiga putur yetkazuvchi ma'lumotlarga ega hujjatlar va aktlar qonunlashtirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi konsulxona joylashgan davlat bilan kelishib turib, ayrim konsullik vazifalarini bajarishni shtatsiz konsullarga topshirishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ham, uning fuqarosi bo'lmagan shaxslar ham shtatsiz konsul bo'lishlari mumkin. Shtatsiz konsullar O'zbekiston Respublikasi davlat xizmatida turmaydi. Shtatsiz konsullarning vazifalarini O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi belgilab beradi.

Konsullik muassasalar, konsullik muassasasining xodimlari hamda ularning oila a'zolari 1963-yilgi Konsullik munosabatlari to'g'risidagi Vena konvensiyasida, O'zbekiston Respublikasi bilan konsulxona joylashgan davlat o'rtasidagi shartnomalarda, shuningdek, xalqaro huquqning umumiy normalarida nazarda tutilgan imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadilar.

Konsulning vazifasi quyidagi hollarda tugatiladi:

- 1) konsul chaqirib olinganda;
- 2) ekzekvatura bekor qilinganda;
- 3) konsullik patentining muddati tugaganda;
- 4) konsullik muassasasi yopilganda;
- 5) konsullik munosabatlari tugatilganda.

O'N UCHINCHI MAVZU. XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQI

- 1-§. «Xalqaro shartnomalar huquqi» tushunchasi
- 2-§. Xalqaro shartnomalarda tomonlar
- 3-§. Xalqaro shartnomalarni tuzish bosqichlari
- 4-§. Xalqaro shartnomalarda izoh
- 5-§. Xalqaro shartnomalarning kuchga kirishi, e'lon qilinishi va ro'yxatga olinishi
- 6-§. Xalqaro shartnomaning shakli, tuzilishi va tili
- 7-§. Xalqaro shartnomaning amal qilishi
- 8-§. Xalqaro shartnomaning haqiqiy yoki haqiqiy emaslik shartlari
- 9-§. Xalqaro shartnomaning bekor qilinishi
- 10-§. Xalqaro shartnomaning to'xtatib qo'yilishi
- 11-§. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuni

1-§. «Xalqaro shartnomalar huquqi» tushunchasi

Xalqaro shartnomalar huquqi — xalqaro huquqning alohida mustaqil sohasi bo'lib, xalqaro shartnomalarni tuzish, qo'llash va bekor qilish tartiblariga oid munosabatlarni tartibga soladi.

Xalqaro shartnomalar huquqining manbalari odat normalari va ular quyidagi universal konvensiyalarda kodifikatsiyalashtirilgan hamda rivojlantirilgan:

- 1) 1969-yildagi Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi;
- 2) 1986-yildagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasi.

Xalqaro shartnoma turlicha nomlanishi mumkin, lekin bu uning yuridik kuchiga ta'sir etmaydi. Uning eng keng tarqalgan nomlari quyidagilar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, pakt, ustav, deklaratsiya.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnomalar huquqi deganda, xalqaro huquqning xalqaro shartnomalar tuzilishi, amal qilishi, o'zgartirilishi va to'xtatilishi tartibini, amaldagi shartnomalar sharoitini belgilaydigan normalaridan iborat tegishli sohasi tushuniladi. Bu soha obyekt sifatida esa, xalqaro huquqning yetakchi va asosiy manbaiga aylanib ulgurgan xalqaro shartnomaning o'zi namoyon bo'ladi.

Xalqaro shartnomalar huquqi shartnomaning nomlanishi, obyektning turi va ularni tuzish protsedurasidan qat'i nazar, barcha turdagi

xalqaro shartnomalarga taalluqli hisoblanadi. Xalqaro huquqning ushbu sohasi ahamiyatining izchil ortib borishiga hozirgi kunda dunyoda xalqaro shartnomalarning o'rni kuchaygani sabab bo'lmoqda. Ayni chog'da uning asosiy manbayi hali ham xalqaro-huquqiy odat hisoblanadi.

2-§. Xalqaro shartnomalarda tomonlar

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro shartnoma deganda, ikki yoki undan ortiq davlatlar yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari o'rtasida ularning siyosiy, iqtisodiy yoki boshqa munosabatlari borasidagi o'zaro huquq va majburiyatlarining o'rnatilishi, o'zgartirilishi yoki to'xtatilishini ko'zda tutuvchi bitim tushuniladi. Xalqaro shartnomalar shartnoma tomonlarining o'zaro huquq va majburiyatlarini aniq va puxta belgilab olish uchun tuziladi. Xalqaro munosabatlarning shartnomalar orqali mustahkamlanishi xalqaro huquqning tartibot barqarorligini ta'minlaydi. Xalqaro shartnoma xalqaro huquqning asosiy manbayi hisoblanadi.

Xalqaro shartnoma — xilma-xil bitimlarni qamrab oluvchi tushuncha bo'lib, ular turlicha: shartnoma, bitim, pakt, traktat, konvensiya, deklaratsiya, kommyunike, protokol va shu kabi nomlar bilan atalishi mumkin. U yoki bu nomning aniq belgilangan ma'no-mazmuni mavjud emas. Qanday nomlanishidan qat'i nazar, barcha xalqaro shartnomalar bir xil yuridik kuchga ega. Odatda, ular yozma shaklda tuziladi. Og'zaki shakldagi xalqaro shartnomalar (boshqacha aytganda, «jentelmencha bitimlar») kam uchrasa-da, har holda, xalqaro munosabatlarda shartnomalarning shunday turi ham ma'lum. Xalqaro shartnomalar tomonlari (yoki subyektlari) bo'lib faqat xalqaro huquq subyektlari chiqishi mumkin.

Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida (1969-yil) hamda Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasida (1986-yil) «muzokaralarda ishtirok etuvchi tashkilot» «ahdlashuvchi davlat» (ya'ni, shartnoma kuchga kirgan, kirmaganligidan qat'i nazar, o'zi uchun shu shartnomaning majburiy ekaniga rozi bo'lgan davlat), «ahdlashuvchi tashkilot», «ishtirokchi» (ya'ni, o'zlari uchun shartnoma majburiy ekaniga rozi bo'lgan va ular uchun shartnoma kuchga kirgan tegishli davlat yoki xalqaro tashkilot), «uchinchi davlat» va «uchinchi tashkilot» (ya'ni, shartnoma ishtirokchisi hisoblanmaydigan davlat va xalqaro tashkilot) kabi tushunchalar qo'llanadi.

Tomonlar deganda, xalqaro shartnoma ishtirokchilari tushuniladi.

Xalqaro shartnomada davlat yaxlit holda tomon hisoblanadi. Federatsiya subyekti istisno tariqasida, agar bu federal Konstitutsiyada ko'zda tutilgan bo'lsa, shartnomalarda ishtirok etishi mumkin. Davlat

nomidan ish ko'ruvchi organlar nomidan kelib chiqqan holda, uch xil xalqaro shartnomani ko'rsatish mumkin:

birinchidan, davlatlararo (oliy darajada va davlatlar nomidan tuziladigan);

ikkinchidan, hukumatlararo (hukumatlar nomidan tuziladigan) va idoralararo (idoralar nomidan tuziladigan);

uchinchidan, idoralararo (idoralar nomidan tuziladigan) shartnomalar.

Davlatlararo tashkilotlar ishtirokidagi shartnomalar soni tobora ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning alohida subyekti hisoblangani bois ularning shartnomalardagi ishtiroki ustavlarida belgilanadigan vazifalari doirasi bilan cheklanadi.

Xalqaro shartnomalar faqat o'z ishtirokchilarigagina muayyan majburiyatlar yuklaydi. Uchinchi, ya'ni ishtirok etmaydigan davlat uchun shartnomalarda huquq va majburiyatlar ko'zda tutilmaydi. Uchinchi davlatning roziligi asosidagina xalqaro shartnoma unga nisbatan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday davlat xalqaro shartnomadan kelib chiqadigan huquqlardan foydalanar ekan, u shu bilan bog'liq majburiyatlarga ham rioya etishi lozim. Masalan, 1948-yildagi Dunayda kema qatnovi to'g'risidagi konvensiya bo'yicha tegishli huquqlardan foydalanuvchi davlatlar boshqalarning rozilgisiz, shartnoma mazmunini o'zgartirish huquqiga ega.

Xalqaro shartnomalar, ishtirokchilar sonidan kelib chiqib, ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarga bo'linadi. Xalqaro shartnomalarning asosiy qismi ikki tomonlama shartnomalardir. Ko'p tomonlama konvensiyalar xalqaro huquqni kodifikatsiyalovchi va taraqqiy ettiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Barcha davlatlarning manfaatlarini uchun xizmat qiladigan normalar, obyektlar va maqsadlarni o'zida mujassam etgan xalqaro shartnomalar *umumiy yoki universal* shartnomalar, deb ataladi. Bunday shartnomalar ochiq bo'lishi, ya'ni barcha davlatlar ularda ishtirok etish huquqiga ega bo'lishi kerak. *Yopiq* xalqaro shartnomada faqat uni tuzgan davlatlarga ishtirok etadi. *Yarim ochiq* shartnomalarga boshqa davlatlar ularning ishtirokchilari roziligi asosidagina qo'shilishi mumkin. MDH doirasidagi aksariyat ko'p tomonlama shartnomalar xuddi shu turga mansubdir. Yoki 1949-yildagi Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) ham bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Muayyan jug'rofiy hududdagi davlatlar o'rtasida *mintaqaviy* xalqaro shartnomalar ham tuzilishi mumkin. Bunday shartnomalarga, masalan, MDH yoki Markaziy Osiyo mintaqasi doirasida tuzilgan bitimlar kiradi.

3-§. Xalqaro shartnomalarni tuzish bosqichlari

Xalqaro shartnomalarni tuzish jarayoni, odatda, uch bosqichdan iborat bo'ladi.

Birinchi bosqichda muzokara ishtirokchilari roziligi asosida matn qabul qilinadi, u tomonlarga yuridik majburiyatlar yuklamaydi. Odatda shundan so'ng ikki tomonlama shartnoma imzolash uchun tavsiya etiladi.

Ikkinchi bosqichda matnning autent ekani (asl nusxaga mosligi) aniqlanadi. Asl nusxaga mos deb topilgan matn kelgusida shartnomani amalda qo'llash jarayonida anglashilmovchiliklar kelib chiqadigan hollarda tomonlar o'rtasida talqin etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Universal mazmundagi ko'p tomonlama shartnomalarni BMTning olti rasmiy tillari — ingliz, ispan, xitoy, arab, rus va fransuz tillarida yoxud ulardan ayrimlarida yagona nusxada tuzish odat tusini olgan.

Xuddi shu bosqichda shartnomani *imzolash* amalga oshiriladi. Shartnoma yakuniy yoki dastlabki tarzda imzolanishi mumkin. Dastlabki tarzda imzolashga misol sifatida parafirovaniya — rasmiy ravishda tasdiqlangunga qadar xalqaro shartnomaga o'z ism va familiyasining bosh harflarini qo'yib, oldindan o'z roziligini bildirish va ad referendum imzolash (davlatning vakolatli organi imzosi bilan haqiqiylikni tasdiqlash sharti)ni ko'rsatish mumkin. Tomonlar biron-bir shartning bajarilishini zarur deb hisoblaganlari taqdirda dastlabki tarzda imzolash usulini qo'llaydilar.

Shartnomani imzolash tartibi haqida, odatda, tomonlar o'rtasidagi muzokaralar jarayonida kelishib olinadi. Ayrim xalqaro tashkilotlarda qabul qilingan tartib-qoidalarda imzolash jarayoni butunlay ko'zda tutilmaydi. Masalan, Xalqaro mehnat tashkilotida konvensiyalarni konferensiya qabul qiladi va tasdiqlash uchun davlatlarga yuboradi.

Uchinchi bosqichda shartnomani imzolash, ratifikatsiya qilish, qabul qilish, tasdiqlash yoki shartnomada ko'zda tutilgan tartib bo'yicha unga qo'shilish yo'li bilan shartnomaning majburiy ekaniga rozilik bildiriladi.

Xalqaro shartnomani imzolash chog'ida bu jarayonni quyidagi besh bosqichga bo'lish taklif etiladi:

birinchi bosqich — shartnoma borasidagi tashabbusni ilgari surish (bunda xalqaro huquqning yagona yoki bir guruh subyektlari kelgusida bir yo'la shartnoma tomonlari, shartnoma matni loyahasini taqdim etishi ehtimolini ko'zda tutgan holda, muayyan xalqaro shartnoma taklifi yuzasidan amalga oshiradigan aniq sa'y-harakatlari nazarda tutilmoqda);

ikkinchi bosqich — muzokaralarga kirishish va ularni olib borish

(milliy qonunchilikka yoxud tashkilotlarning ichki normativ hujjatlari-ga asoslangan holda, xalqaro shartnomalar imzolanishi bo'yicha munozaralar o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish protsedurasini, muzokara jarayonida xalqaro huquq subyektining vakillari sifatida namoyon bo'ladigan aniq shaxslar doirasini xalqaro shartnomalar imzolanishi-ning tegishli bosqichi uchun aniqlashni, zarur hollarda munozaralar o'tkazish va xalqaro shartnomalarni imzolash uchun vakolatlar taqdim etishni nazarda tutadi);

uchinchi bosqich — shartnomaning matnini tuzish (tayyorlash) va uni qabul qilish (diplomatik munozaralar yoki xalqaro konvensiyalar muhokamasi yoxud xalqaro tashkilotlarda ko'rib chiqish vositasida amalga oshiriladigan xalqaro shartnoma matnini tayyorlash bo'yicha ahdlashuv jarayoni subyektlarining javoban harakatlarini qamrab oladi: xalqaro shartnoma matnining qabul qilinishi — xalqaro huquq subyektlari o'rtasida ushbu matnni tayyorlash bo'yicha muzokaralar yakuniga yetishi, demakdir);

to'rtinchi bosqich — shartnomaning matni teng bir xilligini (autentligini), ya'ni asl nusxa va huquqiy ekanini belgilash (Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida Vena konvensiyasining (1969-yil) 10-moddasiga muvofiq, xalqaro shartnoma matni ahdlashuv jarayonida ishtirok etayotgan davlatlar belgilagan protseduralar vositasida yoki imzolash, ad referendum imzolash, shartnomaning o'zini yoxud shu matnni o'zida mujassam etuvchi konvensiya yakuniy hujjatini tasdiqlash (parafirovaniya) yo'li bilan autent hamda yakuniy deb e'tirof etiladi.);

beshinchi bosqich — shartnomaning majburiy ekaniga roziligini bildirish (xalqaro huquqning ahdlashuvchi subyektini o'zi uchun xalqaro shartnoma majburiy ekanini bildirish maqsadida amalga oshiradigan harakatlarini ko'zda tutadi. Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi (1969-yil), davlatlar va xalqaro tashkilotlar o'rtasida yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasida shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasi (1986-yil) 11-moddasiga muvofiq, xalqaro amaliyotda xalqaro shartnomaning majburligiga rozilikni ifoda etuvchi quyidagi usullar qayd etilgan: shartnomani imzolash, shartnomani tashkil etuvchi hujjatlarni almashish, shartnomani ratifikatsiya qilish, uni qabul qilish, tasdiqlash, unga qo'shilish yoki tomonlar kelishib olgan boshqa har qanday usullar).

Xalqaro shartnoma tuzish jarayonining har qanday bosqichida ishtirok etish uchun davlat yoki tashkilot vakili tegishli vakolatlarga ega bo'lishi shart. Oliy mansabdor shaxslar (davlat rahbari, hukumat boshlig'i, tashqi ishlar vaziri yoki xalqaro tashkilotning bosh kotibi) egallab turgan mansabi nuqtayi nazaridan bunday vakolatlarga ega hisoblanadi. Boshqa shaxslarning alohida vakolatga — yozma hujjatga

ega bo'lishi taqozo etiladi. Ikki tomonlama shartnomani tayyorlash davrida bunday vakolatlar o'zaro almashinadi. Ko'p tomonlama shartnomalarni tayyorlashda esa vakolat hujjatlari tekshirish uchun taqdim etiladi.

Ratifikatsiya qilish — davlatning tomonidan shartnomaning majburiy-ligiga rozilik belgisi sifatida uni tasdiqlash akti. Ratifikatsiya qilish tar-tibi ichki milliy huquqda belgilab qo'yiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, ratifikatsiya qilishni Oliy Majlis qonun shaklida amalga oshiradi.

Aslida ratifikatsiya qilish uzoqqa cho'zilmasligi kerak. Ammo bu jarayon o'n yillab muddatga cho'zilgan hollar ham ma'lum. Masalan, SSSR Radioeshittirishlardan tinchlik manfaatlari yo'lida foydalanish to'g'risidagi konvensiyani 1936-yilda imzolagan bo'lsa, Rossiya SSSR-ning huquqiy merosxo'ri sifatida ushbu hujjatni 1992-yili ratifikatsiya qilgan. Bunday hollarni ayniqsa AQSH amaliyotida ko'plab kuzatish mumkin.

Ratifikatsiya qilish to'g'risidagi hujjat asosida davlat rahbari rati-fikatsiya yorlig'ini imzolaydi. Ratifikatsiya yorliqlari almashinganidan (ikki tomonlama shartnomalardan) yoki u saqlash uchun topshirilgani-dan (ko'p tomonlama shartnomalardan) so'ng ratifikatsiya jarayoni yakunlangan hisoblanadi.

Yorliqlar depozitariyga — ahdlashuvchi tomonlar kelishuvi asosida tayinlangan davlat, hukumat, xalqaro tashkilot yoki mansabdor shaxsga topshiriladi. Depozitariyning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) xalqaro shartnomaning asl nusxasini va saqlash uchun topshirilgan vakolatlarni saqlab turish;

2) shartnomaning tasdiqlangan nusxalarini tayyorlash va tarqatish;

3) shartnomaga doir boshqa hujjatlarni olish va saqlash hamda ular haqida ishtirokchilarni xabardor etib borish;

4) shartnomani ro'yxatga olish.

Xalqaro shartnomani imzolashning zikr etilgan bosqichlari diplo-matiya amaliyotida qo'llanadigan muayyan turlarining xilma-xilligi bi-lan farqlanadi, ularni ishtirok etuvchi tomonlar belgilaydi. Xalqaro hu-quqda depozitariy deganda, ko'p tomonlama xalqaro shartnoma va unga doir barcha hujjatlarning asl matnini saqlovchi tushuniladi. Bir yoki bir nechta davlat xalqaro tashkilot yoxud bunday tashkilotning yetakchi ijrochi mansabdor shaxsi depozitariy bo'lishi mumkin. Deylik, BMT Bosh kotibi BMT doirasida imzolangan qator ko'p tomonlama shart-nomalarning depozitariysi vazifasini bajarayotir. Depozitariyni muzoka-ralarda ishtirok etuvchi davlatlar belgilaydi. Odatda, mazkur shartnomani qabul qilgan xalqaro konvensiya qaysi davlat hududida bo'lib o'tsa — o'sha davlat yoki agar shartnoma xalqaro tashkilot doirasida qabul qi-

lingan bo'lsa, shu tashkilotning vakolatli organi depozitariy sifatida tayinlanadi.

Universal mazmundagi shartnomalarda imkon qadar ko'proq davlatlar ishtirok etishi manfaatlardan kelib chiqib, ularga bir necha depozitariy tayinlanishi mumkin. Depozitariyning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1) shartnomaning asl matnini va depozitariyga topshirilgan vakolatlarni saqlash;

2) asl matnning tasdiqlangan (ishonchli) nusxalarini tayyorlash hamda ularni ishtirokchilarga va shartnoma ishtirokchilari bo'lish huquqiga ega davlatlarga yetkazib berish;

3) shartnoma ostiga qo'yiladigan imzolarni olish: unga doir hujjatlarni, bildirishnoma va xabarnomalarni olish va saqlash;

4) shartnomaga mansub imzolar, hujjatlar, bildirishnoma yoxud xabarnomalar tartibli ekani, tegishli shakldaligi bilan bog'liq masalalarni o'rganish hamda zarur hollarda, ushbu masalani tegishli davlat e'tiboriga havola etish;

5) ishtirokchilarni va shartnoma ishtirokchilari bo'lish huquqiga ega davlatlarni shartnomaga mansub hujjatlar, bildirishnoma va xabarnomalar haqida xabardor etib turish;

6) shartnoma ishtirokchilari bo'lish huquqiga ega davlatlarni shartnoma kuchga kirishi uchun zarur bo'lgan imzolar miqdori, ratifikatsiya yorliqlari yoki qabul qilish, tasdiqlash yoxud qo'shilish to'g'risidagi hujjatlar olingani yoki saqlash uchun topshirilgani haqida xabardor etib turish;

7) shartnomani BMT Kotibiyatida yoki boshqa xalqaro tashkilotlarda ro'yxatdan o'tkazish.

BMT Ustavining 102-moddasiga muvofiq, a'zo davlatlar o'z shartnomalarini BMT Kotibiyatida ro'yxatdan o'tkazishga majbur. Shartnoma shu tartibda ro'yxatdan o'tkazilmagan taqdirda, davlatlar BMTning biron-bir organida ushbu hujjatga havola eta olmaydilar. BMT Kotibiyati imkoniyat tug'ilishi bilan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni alohida to'plamlar turkumida nashrdan chiqaradi.

Xalqaro shartnomani tasdiqlash, qabul qilish ratifikatsiya qilinmaydigan, lekin imzolanganidan so'ng ma'qullash zarurligi ko'zda tutilgan shartnomalarning majburiyligiga rozilik ifodasi bo'lgan protseduralardir. Xalqaro shartnomalarda, odatda, ma'qullash har qaysi tomonning o'z milliy huquqiga muvofiq ravishda amalga oshirilishi to'g'risidagi qoida mavjud bo'ladi.

Xalqaro shartnomalarga qo'shilish boshqa davlatlar o'rtasida tuzilgan shartnomaning majburiyligiga rozilik to'g'risidagi akt sanaladi. Qo'shilish imkoniyati shartnomada ko'zda tutiladi yoki uning ishtirokchi-

lari o'rtasida kelishib olinadi. Qoidaga ko'ra, qo'shilishni ratifikatsiya qilish yoki tasdiqlash bilan shug'ullanadigan organlar tomonidan amalga oshiradi.

Vena konvensiyasi og'zaki shartnomalarning yuridik kuchini inkor etmasa-da, lekin faqat yozma shartnomalarga taalluqli deb hisoblaydi. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonun ham xuddi shu maqsadga qaratilgan.

Xalqaro shartnomaning alohida shakli — ayni mazmundagi *notalar almashish* yo'li bilan o'zaro kelishuvdir.

4-§. Xalqaro shartnomalarda izoh

Izoh (ogovorka) xalqaro shartnoma tuzish jarayonida izoh beruvchi davlatga nisbatan shartnomaning alohida qoidalari harakatini o'zgartirish yoki bekor qilish maqsadida, shu davlatning bir tomonlama tartibda beradigan bayonoti, demakdir. *Izoh shartnomaning maqsad va prinsiplariga zid bo'lmashligi va uning asosiy mazmunini o'zgartirib yubormasligi kerak.* Izoh ratifikatsiya qilish, tasdiqlash va qo'shilish davrida beriladi. Izoh berilishiga yo'l qo'ymaydigan, masalan, MDH mamlakatlari Iqtisodiy ittifoqini tuzish to'g'risidagi shartnoma kabi shartnomalar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Izoh bergan davlat uni istalgan paytda bekor qilishi mumkin.

Agar ishtirokchilarning muayyan qismi, shuningdek, shartnomaning maqsad va prinsiplari uni barcha ishtirokchilarning yalpi ravishda qabul qilishini talab etsa, u holda shartnomaga izohlarni ham barcha ishtirokchilar tomonidan qabul qilinishi taqozo etiladi. Boshqa hollarda ishtirokchilardan muayyan qismining izohga nisbatan bildirgan e'tirozlari izoh bergan davlatning shartnomada ishtirok etishiga monelik qilmaydi. Bir yil davomida izohga nisbatan e'tiroz bildirilmasa, uni ishtirokchi qabul qilgan hisoblanadi.

Izohning yuridik oqibatlari shartnomaga uni tuzgan tomonlar va qabul qilgan tomonlar o'rtasidagi munosabatlarga daxldor o'zgartirishlar kiritishdan iborat. Agar ayrim tomonlar izoh beruvchi davlat bilan o'zaro munosabatlariga daxldor izohlarga e'tiroz bildirsa, u holda bunday qoida qabul qilinmaydi. Izoh boshqa ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarning o'zgarishiga olib kelmaydi.

Izohdan tashqari, davlatlar xalqaro shartnomaga *bayonot* ham bershishi mumkinki, bu bilan tegishli davlat shartnomadagi u yoki bu qoidaga o'z nuqtayi nazarini bildiradi. Shu bois, aksariyat hollarda ular *talqin qiluvchi bayonotlar* deb ham ataladi. Izohlardan farqli o'laroq, bayonotlar xalqaro shartnoma mazmunini o'zgartirmaydi va unga boshqa ishtirokchilar roziligi talab etilmaydi. U faqat xalqaro shartnomani tayyorlagan davlatgagina majburiyat yuklaydi.

5-§. Xalqaro shartnomaning kuchga kirishi, e'lon qilinishi va ro'yxatga olinishi

Xalqaro shartnomaning kuchga kirishi u o'zida qayd etilgan shart-sharoitga muvofiq ravishda yuridik hujjatga aylangan paytdan boshlanadi. Ratifikatsiya qilinishi yoki tasdiqlanishi taqozo etilmaydigan xalqaro shartnoma imzolanishi bilanoq kuchga kiradi. Ratifikatsiya qilinishi zarur bo'lgan xalqaro shartnoma esa ratifikatsiya qilingach (yoki tasdiqlan-gach) kuchga kirgan hisoblanadi.

Xalqaro shartnoma kuchga kirishiga qadar uni qabul qilganlarga majburiyat yuklamaydi. Ammo umumiy xalqaro huquq normalari ta'sir kuchiga ko'ra, tomonlar shartnoma imzolangan paytidan to kuchga kirishiga qadar shartnomani obyektidan mahrum qilishga qodir bo'lgan, shartnoma maqsadlarini ro'yobga chiqarishga xalal beradigan xatti-harakatlardan tiyilib turishga majburdir.

Xalqaro shartnomaning kuchga kirishi va uni qo'llash, odatda, bir xil paytga to'g'ri keladi. Lekin istisnoli hollar ham yo'q emas. Masalan, 1954-yildagi Qurolli mojaro chiqqan holda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi Gaaga konvensiyasida ko'zda tutilishicha, u ratifikatsiya yorlig'i yoki qo'shilish to'g'risidagi hujjat topshirilganidan so'ng kuchga kirgani holda, faqat qurolli mojarolar yuz bergandagina qo'llanishi mumkin. Ba'zan xalqaro shartnomalarda ularning shartlari kuchga kirganidan so'ng muayyan muddat o'tgach qo'llanila boshlashi haqidagi qoidalar ham ko'zda tutilgan bo'ladi.

Agar xalqaro shartnomada tegishli qoida ko'zda tutilgan yoki ishtirokchilar bu haqda boshqa bir tarzda ahdlashib olgan bo'lsa, shartnoma vaqtincha, kuchga kirishiga qadar ham qo'llanishi mumkin. Bunday vaqtincha qo'llash tajribasini Iqtisodiy Ittifoq (MDH) tuzish to'g'risidagi shartnoma yuzasidan uning ishtirokchilari qabul qilgan qaror misolida kuzatish mumkin.

Xalqaro shartnoma, xuddi qonun kabi, orqaga qaytish kuchiga ega emas.

Xalqaro shartnomaning *rasmiy tarzda e'lon qilinishi* jiddiy amaliy ahamiyat kasb etadi. Shu paytdan e'tiboran u mamlakat huquq tizimi-ning uzviy qismiga aylanadi va barcha davlat organlarida qo'llanishi majburiy tus oladi.

Xalqaro shartnomalarni *registratsiya qilish* (ro'yxatga olish) maxfiy shartnomalardan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydigan muhim vositadir. BMT Ustavi talabiga muvofiq, mazkur Tashkilot a'zosi ishtirok etadigan har qanday xalqaro bitimni Kotibiyat ro'yxatga olishi va e'lon qilishi shart. Registratsiya qilmaslik hollari uchun sanksiya ko'zda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, bunday shartnomani tuzgan tomonlar BMTning biron-bir organida ushbu shartnomaga havola qilishlari mumkin emas.

Boshqacha aytganda, ro'yxatga olinmagan shartnoma BMT uchun yuridik jihatdan mavjud deb hisoblanmaydi. Lekin bu shartnomaning tegishli tomonlarga nisbatan majburiy kuchga ega ekaniga daxl qilmaydi.

Xalqaro shartnomalarni registratsiya qilish mintaqaviy tashkilotlar ustavlarida ham ko'zda tutilgan.

6-§. Xalqaro shartnomaning shakli, tuzilishi va tili

Xalqaro huquqda majburiy tusdagi *xalqaro shartnoma shakli* belgilanmagan.

«Xalqaro shartnoma tuzilishi» tushunchasini shartnoma nomi, uning muqaddimasi, asosiy va xulosa qismlari, shartnoma tomonlarining imzolari tashkil etadi.

Xalqaro shartnomalarning tuzilishi, odatda, bir xil bo'ladi. Qoidaga ko'ra, shartnoma uchta qismdan tashkil topadi:

birinchisi — *muqaddima* bo'lib, unda shartnomaning maqsadi va prinsiplari ifodalanadi: muqaddima shartnomani sharhlashda ham katta ahamiyat kasb etadi;

ikkinchisi — *asosiy qism* — shartnoma mazmuni bayonidan iborat bo'ladi. Shartnomaning asosiy qismi bo'limlarga, boblarga yoki qismlarga guruhlanishi mumkin bo'lgan moddalarga bo'linadi. Ayrim shartnomalarda moddalarga, shuningdek, bo'limlarga (boblarga, qismlarga) alohida-alohida nomlar berilishi mumkin;

uchinchisi — *xulosa qismi* — shartnoma majburiylikiga rozilik bildirish, uning kuchga kirishi hamda tuzilgan yili va boshqa yakuniy qoidalardan tashkil topadi. Mazkur qism hatto shartnoma kuchga kirishiga qadar ham majburiy hisoblanadi.

Aksariyat xalqaro shartnomalar ilovalarga ham ega bo'lib, ular, odatda, shartnomaning asosiy qismi bilan bir xil huquqiy ta'sir kuchiga ega bo'ladi va uning to'rtinchi, qo'shimcha qismi sifatida raqamli ko'rsatkichlar, formulalar va xaritalarni o'zida jamlovchi tafsiliy qoidalardan iborat bo'ladi.

7-§. Xalqaro shartnomaning amal qilishi

Xalqaro shartnoma unda ko'rsatilgan muddat mobaynida amal qiladi. Muddati belgilanmagan shartnomalar ham mavjud bo'lib, masalan, ular sirasiga huquqiy rejim o'rnatuvchi umumiy shartnomalar, kodifikatsion konvensiyalar kiradi.

Xalqaro shartnomaning amal qilish muddati unda ko'rsatilgan shartlar asosida yoki o'zaro kelishuv bo'yicha uzaytirilishi mumkin. Shartnoma muddatini bunday uzaytirish *prolongatsiya* deb ataladi. U shartnoma muddati tugashiga qadar amalga oshirilishi zarur. Shundan so'ng shart-

noma harakatini davom ettirish mumkin. Bunday aksiya *renovatsiya* deyiladi. Renovatsiya ishtirokchilarning roziligi bo'yicha amalga oshiriladi.

Muddatni uzaytirish uchun shartnoma qoidalariga ko'ra hech qanday harakatni amalga oshirish talab etilmasa, u avtomatik *prolongatsiya*, deb nomlanadi. Agar bunda tegishli harakatni amalga oshirish taqozo etilsa, u tashabbusli *prolongatsiya* deyiladi.

Xalqaro shartnomani *qayta ko'rib chiqish* tuzatishlar yordamida amalga oshiriladi. Tuzatishlar shartnoma mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkinligi bois, ular ishtirokchilarning roziligi asosidagina qabul qilinadi. Agar ishtirokchilar shartnomani qayta ko'rib chiqish borasida boshqacha muayyan tartib-qoidalar xususida ahdlashib olmagan bo'lsa, u holda shartnomani tuzatish chog'ida qo'llanadigan qoidalardan foydalaniladi.

8-§. Xalqaro shartnomaning haqiqiy yoki haqiqiy emaslik shartlari

Xalqaro shartnomalar haqiqiylikining shartlari xalqaro huquq talablari negizida belgilab berilgan va bu shartlarga rioya qilinishi shartnomaning huquqiy normalarga muvofiqligini namoyon etadi. Buning natijasi o'laroq, shartnoma o'z kontragentlari bajarishi uchun va boshqa davlatlar hurmat qilishi uchun majburiy hisoblanadi. Xalqaro shartnomalar haqiqiylikining shartlari — quyidagilarga taalluqli shartlar, demakdir:

birinchidan, shartnoma subyektlariga (subyektlik huquqiga ega, shartnomadan bevosita manfaatdor tegishli tomonlar);

ikkinchidan, tomonlar xohish-irodasining haqiqiylikiga (shartnomaga kirgan tomonlarning vakolatdorligi, vakolatlarining haqiqiylikligi, muxtor vakillar va vakillar faoliyatining o'zlariga berilgan vakolatlariga muvofiqligi, qayd etilgan shaxslarga nisbatan tazyiqning yo'qligi, tomonlarga nisbatan kuch ishlatish yoki kuch bilan tahdid etishning yo'qligi, tomonlar, muxtor vakillar va vakillarning xatoga yo'l qo'ymaganligi yoki pora berib sotib olinmaganligi);

uchinchidan, shartnoma obyekt va maqsadlariga (shartnoma xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga muvofiq ekani).

Faqat ana shu shartlarning barchasiga rioya etilgan taqdirda, shartnoma haqiqiy tus oladi. Qayd etilgan talablar Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining (1969-yil) 46–53-moddalarida o'z ifodasini topgan.

Shuningdek, davlat vakilini pora berib sotib olish, kontragentni aldash yoki shartnomada ishtirok etishning asosli negizi sifatida xizmat qiluvchi vaziyat faktiga taalluqli xatolik natijasida imzolangan shartnomalar haqiqiy emas, deb hisoblanadi.

Xalqaro shartnomalar haqiqiy emasligining asosi hisoblanuvchi barcha shartlarni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1) shartnoma subyektlariga doir;

2) xalqaro huquq subyektlarining, shartnomada ularning roziligini namoyon etuvchi xohish-irodasining haqiqiyiligiga doir;

3) shartnoma obyekti va maqsadiga doir.

Xalqaro shartnomalar haqiqiy emasligining asoslari hisoblanuvchi aniq alomatlar Xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 46—53-moddalarida o'z ifodasini topgan.

Xalqaro *shartnomaning haqiqiy emasligi* nisbiy va mutlaq bo'lishi mumkin. Nisbiy haqiqiy emaslik sharti shartnomani bahsli qilib qo'yadi va bunga vakilning xatosi, yolg'onchiligi, xiyonatkorligi asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday hollar, odatda, juda kam uchraydi va ularni isbotlash mushkuldir.

Mutlaq haqiqiy emaslik shartnomaning avvalboshdanoq e'tiborsiz, nufuzi yo'q ekanligini bildiradi. Unga vakilning majburlashi, davlatning majburlashi, shartnoma qoidalarining xalqaro huquq imperativ normalariga zidligi asos hisoblanadi.

Davlatning majburlashi, agar kuch ishlatish bilan tahdid etish yoki uni ishlatish BMT Ustavida aks etgan xalqaro huquq prinsiplariga zid hisoblangan hollarda, shartnomaning haqiqiy emasligiga sabab bo'ladi. Huquqiy normalar doirasida, masalan, agressorga qarshi kuch ishlatish esa agressiyaga barham berish yo'lida tuzilgan shartnomaning haqiqiy emasligiga sabab bo'lmaydi. Bunga misol sifatida Ikkinchi jahon urushiga yakun yasagan va huquqiy asosi BMT Ustavida mustahkamlangan tinchlik yo'lidagi shartnomalarni aytib o'tish mumkin.

Xalqaro shartnomaning haqiqiy emasligi belgilanganidan keyin har bir ishtirokchi shartnomani amalga oshirish natijasida o'zgargan ahvolni imkon qadar qayta tiklashni talab etish huquqiga ega. Shartnoma xalqaro huquq imperativ normalariga zid ekani bois, haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, ishtirokchilar bunday shartnoma asosida bajarilgan har qanday harakatlar oqibatlariga imkon qadar barham berishga majbur hisoblanadi.

Nisbiy haqiqiy emaslik hollarida ishtirokchi o'ziga tegishli dalillar ma'lum bo'lganidan keyin o'z vaqtida zarur harakatlarni ko'rish kerak. Bunday harakatlar vaqtida ko'rilmasa, ushbu huquq o'z kuchini yo'qotadi.

9-§. Xalqaro shartnomaning bekor qilinishi

Xalqaro shartnomaning *bekor qilinishi* yoki undan chiqish shartnoma qoidalariga muvofiq yoxud ishtirokchilarning kelishuvi asosida amalga oshiriladi. Ko'pchilik hollarda xalqaro shartnoma muddati va ijrosi yaku-

niga yetishi natijasida bekor qilinadi. Ijro faktini tomonlar yuridik jihatdan rasmiylashtiradilar.

Aksariyat xalqaro shartnomalarda *denonsatsiya*, ya'ni shartnoma harakatini unda ko'rsatilgan tegishli shartlar asosida bir tomonlama to'xtatish to'g'risidagi qoidalar mavjud bo'ladi.

Xalqaro shartnoma harakatini unda ko'rsatilmagan shartlar tartibida, huquqiy normalarga muvofiq ravishda, bir tomonlama bekor qilish (*annulirovanie*) *kuchdan qoldirish* deb ataladi. Xalqaro huquqda buning uchun quyidagi asoslar nazarda tutilgan:

birinchidan, shartnomaning boshqa ishtirokchilar tomonidan buzilishi;

ikkinchidan, shartnomani ijro etishning imkonsizligi;

uchinchidan, shartnoma tuzilgan vaziyatning tubdan o'zgarib ketishi;

to'rtinchidan, shartnomaga zid keluvchi yangi imperativ normaning paydo bo'lishi.

10-§. Xalqaro shartnomaning to'xtatib qo'yilishi

To'xtatib qo'yish shartnoma harakatining vaqtincha to'xtatilishidir. U shartnomaga muvofiq ravishda, ishtirokchilar roziligi bo'yicha, shuningdek, xalqaro huquq asosida amalga oshirilishi mumkin. Keyingi holda shartnomaning jiddiy ravishda buzilganligi va uni bajarish vaqtincha imkonsiz ekanligi asos bo'lib xizmat qiladi. To'xtatib qo'yish ishtirokchilarni shartnomani bajarish majburiyatidan vaqtincha muddatga ozod etadi, orttirilgan huquq va majburiyatlarga ta'sir ko'rsatmaydi. Ishtirokchilar shartnomaning qayta kuchga kirishiga xalal beruvchi harakatlardan tiyilishi shart.

Keyingi vaqtda, odatda, xalqaro huquqni buzganlik uchun jazo sifatida xalqaro tashkilotlar qarorlari asosida shartnomalarning bekor qilinishi va ular harakatining to'xtatib qo'yilishi bilan bog'liq hollar ko'plab uchramoqda. Buni davlatning xalqaro tashkilotdan chiqarilishi mumkinligi misolida ko'rish mumkin.

Ishtirokchilarning o'zaro kelishuviga muvofiq, shartnomadagi, masalan, MDHni tuzish to'g'risidagi bitimdagi ayrim qoidalarni to'xtatib qo'yish yoki bekor qilish hollariga yo'l qo'yiladi.

Qurolli mojaro o'z-o'zidan barcha ikki tomonlama shartnomalarning bekor qilinganligini anglatmaydi. Buni hal etish mojaro ishtirokchilarining xohish-irodasiga bog'liqdir. Urush tufayli siyosiy mazmun kasb etgan va mojaro tabiatiga muvofiq kelmaydigan shartnomalar barham topadi. Nosiyosiy shartnomalarning harakati esa to'xtatib qo'yiladi.

11-§. «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonuni

«O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonuni 1995-yil 22-dekabrda qabul qilingan¹. Ushbu Qonun O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, to‘xtatish, to‘xtatib turish va denonsatsiya qilish tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplari va normalariga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, shuningdek, «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonunga hamda shartnomaning o‘z qoidalariga muvofiq tuziladi, bajariladi, to‘xtatiladi, to‘xtatib turiladi va denonsatsiya qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish, bajarish, to‘xtatish, to‘xtatib turish va denonsatsiya qilishning «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan tartibi ularning turi, shakli va nomlanishidan qat’i nazar, O‘zbekistonning barcha xalqaro shartnomalariga nisbatan qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasini bajarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi qonunini, Oliy Majlis qarorini qabul qilish, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonini yoki O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorini, farmoyishini chiqarish lozim bo‘lgan hollarda, manfaatdor vazirliklar va idoralar, Adliya vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan kelishilgan holda shunday hujjat qabul qilish to‘g‘risida belgilangan tartibda taklif kiritadilar.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi respublikaning bir yoki bir necha davlat, xalqaro tashkilot yoxud xalqaro huquqning boshqa subyektlari bilan xalqaro munosabatlar sohasidagi huquq va majburiyatlariga doir teng huquqli va ixtiyoriy kelishuvidir. Xalqaro shartnomalar: shartnoma, bitim, konvensiya, protokol, memorandum, deklaratsiya, xatlar va notalar almashuvi deb nomlanishi va shunday ko‘rinishda tuzilishi, shuningdek, boshqacha nomlanishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari unda ishtirok etuvchi subyektlarning soniga qarab, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama shartnomalar bo‘ladi. Xalqaro shartnomalar mazmuniga qarab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shartnomalar bo‘lishi, shuningdek, boshqa masalalar bo‘yicha tuzilishi mumkin. Muddatiga qarab shartnomalar muddatli va muddatsiz bo‘ladi. Xalqaro shartnomalar boshqa turlarda ham tuzilishi mumkin.

¹ Qarang: «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida» O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 1995-yilda 22-dekabrda qabul qilingan // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi, 1995. №12. —262-m.

O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining tili O'zbekiston Respublikasining davlat tili va ahdlashayotgan boshqa tomon (tomonlar)ning tili hisoblanadi. Xalqaro shartnoma subyektlarining kelishuviga muvofiq, boshqa til shartnoma tili deb tanlanishi mumkin. Xalqaro shartnoma matni qaysi tilda tuzilgan bo'lsa, u ushbu shartnoma matnida ko'rsatiladi, uning autentligi va rasmiyligi belgilanadi. Xalqaro shartnomalar, qoida tariqasida, yozma shaklda tuziladi.

Davlatning siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy, huquqiy va boshqa sohalaridagi faoliyati O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining obyekti bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish huquqi davlatga tegishlidir. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari quyidagicha tuziladi:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi nomidan — davlatlararo shartnomalar;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan — hukumatlararo shartnomalar;

uchinchidan, O'zbekiston Respublikasi vazirliklari va idoralari nomidan — idoralararo shartnomalar.

O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalarni tuzish to'g'risidagi takliflar — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Hukumati tasarrufidagi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalarni tuzish to'g'risidagi takliflar esa — O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalarni tuzish to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga Tashqi ishlar vazirligi kiritadi. Boshqa vazirliklar va idoralar o'zlarining vakolatlariga kiradigan masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan xalqaro shartnomalar tuzish to'g'risidagi takliflarini tashqi ishlar vazirligi bilan birga yoki u bilan kelishilgan holda, O'zbekiston Respublikasining Prezidentiga kiritadilar.

O'zbekiston Respublikasining Hukumati nomidan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish to'g'risidagi takliflarini O'zbekiston Respublikasining Hukumatiga Tashqi ishlar vazirligi kiritadi. Boshqa vazirliklar va idoralar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasining Hukumatiga Tashqi ishlar vazirligi bilan birga yoki u bilan kelishilgan holda, mustaqil ravishda esa ushbu Qonunda nazarda tutilgan hollardagina kiritadilar.

Vazirliklar va idoralarning idoralararo shartnomalar tuzish to'g'risidagi takliflar kiritish tartibini O'zbekiston Respublikasining Hukumati belgi-

laydi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish to'g'risidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yoki O'zbekiston Respublikasining Hukumatiga kiritilgunga qadar Adliya vazirligi, shuningdek, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan kelishib olinadi. Xalqaro shartnomani tuzish to'g'risidagi taklif shartnoma loyihasini yoki uning asosiy qoidalarini, uni tuzish maqsadga muvofiq ekanligining asoslarini, shuningdek, zarurat bo'lganda, shartnoma tuzishdan kelib chiqishi mumkin bo'lgan moliyaviy-iqtisodiy oqibatlariga berilgan bahoni o'z ichiga olishi kerak. Zarur hollarda, xalqaro shartnoma loyihasini tuzish yoki ko'rib chiqish uchun manfaatdor vazirliklar va idoralarning vakillari, mutaxassislar va mustaqil ekspertlardan iborat komissiya tuziladi.

Tashqi iqtisodiyot masalalari bo'yicha, shu jumladan savdo-iqtisodiy hamkorlik va texnikaviy yordam ko'rsatish masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini tuzish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasining Hukumatiga Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi mustaqil ravishda, ayni bir paytda Tashqi ishlar vazirligini ogohlantirgan holda, kiritadi. Boshqa vazirliklar va idoralar tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalar tuzish to'g'risidagi takliflarni O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi bilan birga yoki u bilan kelishilgan holda kiritadilar.

Muzokaralar olib borish to'g'risidagi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolash to'g'risidagi qarorlar:

birinchidan, O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan esa — O'zbekiston Respublikasining Hukumati;

ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasining Hukumati nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Hukumati;

uchinchidan, idoralararo shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Hukumati belgilaydigan tartibda qabul qilinadi.

Muzokaralar olib borish va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolash vakolatlarini:

1) O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Hukumati tasarrufiga tegishli masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Hukumati;

2) O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan tuziladigan shart-

nomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati beradi;

3) idoralararo shartnomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati belgilaydigan tartibda beriladi. Muzokaralar olib borish va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolash vakolatlari belgilangan yozma shaklda beriladi.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig‘i sifatida xalqaro munosabatlarda O‘zbekiston Respublikasi nomidan ish ko‘radi va xalqaro-huquqiy normalar hamda O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq, maxsus vakolatlarsiz muzokaralar va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolaydi. Tashqi ishlar vaziri ham maxsus vakolatlarsiz muzokaralar olib borishga va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolashga haqlidir. O‘zbekiston Respublikasining chet eldagi diplomatik vakolatxonasining boshlig‘i yoki O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilot yoki konferensiya qoshidagi vakolatxonasining boshlig‘i diplomatik vakolatxona joylashgan davlat bilan yoki shu xalqaro tashkilot, konferensiya doirasida maxsus vakolatlarsiz xalqaro shartnoma tuzish to‘g‘risida muzokaralar olib borishga haqli. Vazir yoki idora rahbari o‘z vakolati doirasida maxsus vakolatlarsiz muzokaralar olib borish va idoralararo shartnomalarni imzolashga haqli.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini Oliy Majlis ratifikatsiya qiladi. Quyidagilar: O‘zbekiston Respublikasining hamkorlik va o‘zaro yordam to‘g‘risidagi shartnomalari; O‘zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyatiga daxldor masalalar bo‘yicha shartnomalari; kuch ishlatishdan yoki kuch ishlatish bilan tahdid qilishdan o‘zaro voz kechish to‘g‘risidagi shartnomalar; tinchlik shartnomalari va kollektiv xavfsizlik shartnomalari; O‘zbekiston Respublikasining boshqa davlatlar bilan hududiy chegaralanishi to‘g‘risidagi shartnomalar; O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo ittifoqlarda, xalqaro tashkilotlarda va boshqa birlashmalarda ishtiroki to‘g‘risidagi shartnomalar; ijrosi amaldagi qonunlarni o‘zgartirilishini yoki yangi qonunlar qabul qilinishini taqozo etadigan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining qonunlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalarni belgilaydigan xalqaro shartnomalar ratifikatsiya qilinadi. Tuzish vaqtida tomonlar kelgusida uni ratifikatsiya qilish to‘g‘risida kelishib olgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ham xuddi shunday ratifikatsiya qilinadi.

Oliy Majlis O‘zbekiston Respublikasining boshqa xalqaro shartnomalarini ham ratifikatsiya qilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining Hukumati yoki u vakolat bergan organlarning xalqaro moliya institutlari bilan tuzgan O‘zbekiston Respublikasining xalqaro zayom va kafolatli shartnomalari ratifikatsiya qilin-

maydi va O'zbekiston Respublikasi uchun imzolangan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq imzolangan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi takliflarni Oliy Majlisga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti kiritadi. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qaroriga muvofiq imzolangan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi takliflarni Oliy Majlisga O'zbekiston Respublikasi Hukumati kiritadi va bu haqda tegishli qaror qabul qiladi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini ratifikatsiya qilishga kiritish to'g'risidagi takliflari Tashqi ishlar vazirligi mustaqil ravishda yoki agar shartnoma boshqa vazirliklar va idoralarning vakolatlariga kiradigan masalalarga daxldor bo'lsa, ular bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga kiritadi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasini ratifikatsiya qilish to'g'risidagi Oliy Majlisning to'xtami qaror shaklida qabul qilinadi.

Ratifikatsiya yorlig'i Oliy Majlis xalqaro shartnomani ko'rib chiqqanligidan guvohlik beruvchi va xalqaro shartnoma O'zbekiston Respublikasi uchun majburiyligiga rozi ekanligini ifodalovchi maxsus hujjatdir. Ratifikatsiya yorlig'ining shakli Tashqi ishlar vazirligining taqdimnomasiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti belgilaydi. Ratifikatsiya yorlig'i Oliy Majlisning xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilish to'g'risidagi qaroriga asosan, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti imzolaydi, uning muhri Tashqi ishlar vazirining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Ratifikatsiya yorliqlarini almashish, O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilganligi to'g'risidagi yorliqlarni saqlash uchun depozitariylarga topshirishni Tashqi ishlar vazirligi yoxud uning topshirig'iga binoan, O'zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonasi yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilot huzuridagi vakolatxonasi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining ratifikatsiya qilinmaydigan, lekin ularning tasdiqlanishi (qabul qilinishi)ni nazarda tutuvchi xalqaro shartnomalarni tasdiqlash (qabul qilish):

1) O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Hukumati tasarrufidagi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan tuziladigan shartnomalarga nisbatan — O'zbekiston Respublikasining Hukumati;

2) O'zbekiston Respublikasining Hukumati nomidan tuziladigan

shartnomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati amalga oshiradi;

3) idoralararo shartnomalarga nisbatan esa — O‘zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydigan tartibda amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarga qo‘shilishi to‘g‘risidagi qarorni:

1) ratifikatsiya qilinadigan shartnomalarga nisbatan — Oliy Majlis;

2) ratifikatsiya qilinmaydigan, ularga qo‘shilish O‘zbekiston Respublikasi nomidan amalga oshiriladigan shartnomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, ratifikatsiya qilinmaydigan, ularga qo‘shilish O‘zbekiston Respublikasining Hukumati tasarrufidagi masalalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi nomidan amalga oshiriladigan shartnomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati;

3) ratifikatsiya qilinmaydigan, ularga qo‘shilish O‘zbekiston Respublikasining Hukumati nomidan amalga oshiriladigan shartnomalarga nisbatan — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati qabul qiladi;

4) idoralararo shartnomalarga nisbatan esa — O‘zbekiston Respublikasining Hukumati belgilaydigan tartibda qabul qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomani yoki uning bir qismini u kuchga kirgunga qadar vaqtincha qo‘llashi mumkin, agar shartnomada bu hol nazarda tutilgan yoki shartnomani imzolagan tomonlar bilan shunday shartlashuvga erishilgan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomani yoki uning bir qismini vaqtincha qo‘llash to‘g‘risidagi qarorni xalqaro shartnomani imzolash haqida qaror chiqargan organ qabul qiladi.

Xalqaro shartnomalar O‘zbekiston Respublikasi uchun ushbu Qonunga muvofiq, shartnomada nazarda tutilgan yoki ahdlashuvchi tomonlar o‘rtasida kelishilgan tartibda va muddatlarda kuchga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini imzolash, ratifikatsiya qilish, tasdiqlash, qabul qilish yoki shartnomalarga qo‘shilish vaqtida shartnoma shartlari va xalqaro huquqning tegishli normalariga rioya qilingan holda shartnomalarga doir qo‘shimcha shartlar qo‘yilishi mumkin. Qo‘shimcha shartlar qanday qo‘yilgan bo‘lsa, shunday tartibda istalgan vaqtda olib tashlanishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini e‘lon qilish tartibini O‘zbekiston Respublikasining Hukumati belgilaydi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, ularning autentik matnlari chet tillarda tuzilgan bo‘lsa, davlat tilida e‘lon qilinadi. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari boshqa tillarda ham e‘lon qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini Birlashgan

Millatlar Tashkiloti Kotibiyatida va boshqa xalqaro tashkilotlarning tegishli organlarida ro'yxatdan o'tkazishni Tashqi ishlar vazirligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquq normalariga muvofiq, qat'iy va majburiy ravishda rioya etmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq respublika tuzgan shartnomalar, bitimlar va u qabul qilgan majburiyatlarga rioya etilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Hukumati O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini bajarish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi uchun mas'uliyat yuklatiladigan vazirliklar, idoralar va mansabdor shaxslarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Hukumati, vazirliklar va idoralar, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan tartibga solinadigan masalalar vakolat doirasiga kiradigan boshqa davlat organlari shartnoma bo'yicha O'zbekiston qabul qilgan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlaydilar, bunday shartnomalardan kelib chiquvchi O'zbekiston Respublikasiga tegishli huquqlarning amalga oshirilishini va shartnomalarning boshqa ishtirokchilarining o'z majburiyatlarini bajarishini kuzatib boradilar. O'zbekiston Respublikasi Hukumati O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bajarilishini Tashqi ishlar vazirligi kuzatib boradi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan va O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan tuzilgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining asl nusxalari (tasdiqlangan nusxalari, rasmiy tarjimalari) saqlash uchun ular imzolangan (tasdiqlangan nusxalari, rasmiy tarjimalari depozitariydan olingan) kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida Tashqi ishlar vazirligiga topshiriladi, bu hujjatlarning nusxalarini esa, ular kuchga kirgan kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida Tashqi ishlar vazirligi tegishli vazirliklar va idoralarga yuboradi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining asl nusxalarini saqlash tartibini tashqi ishlar vaziri tasdiqlaydi. Idoralararo shartnomalarning asl nusxalari tegishli vazirliklar va idoralarning arxivlarida saqlanadi, bu shartnomalarning tasdiqlangan nusxalari ular imzolangan (tasdiqlangan nusxalari, rasmiy tarjimalari depozitariydan olingan) kundan e'tiboran ikki haftalik muddat ichida Tashqi ishlar vazirligiga yuboriladi. Ko'p tomonlama xalqaro shartnomalar depozitariysi vazifalarini, agar mazkur shartnomalarning shartlariga muvofiq, bunday vazifa O'zbekiston Respublikasiga yuklatilgan bo'lsa, Tashqi ish-

lar vazirligi bajaradi. Ko'p tomonlama xalqaro shartnomalarning depozitariysi vazifasini bajaruvchi xorijiy davlat organlari, xalqaro tashkilotlar yoki ularning bosh ijrochi mansabdor shaxslari bilan yozishmalarni Tashqi ishlar vazirligi olib boradi.

Xalqaro shartnomani to'xtatish yoki O'zbekiston Respublikasining undan chiqishi:

1) shartnoma qoidalariga muvofiq;

2) shartnomaning boshqa ishtirokchilari bilan maslahatlashuvlar asosida istalgan vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida uni to'xtatish to'g'risida qoida bo'lmasa va uni denonsatsiya qilish yoki undan chiqish nazarda tutilmagan bo'lsa, bu shartnoma denonsatsiya qilinmaydi va undan chiqishga yo'l qo'yilmaydi, agar:

1) xalqaro shartnoma ishtirokchilari shartnomani denonsatsiya qilish yoki undan chiqish imkoniyatini yaratish niyatida bo'lganlari belgilab qo'yilgan bo'lsa;

2) shartnoma xususiyati uni denonsatsiya qilish yoki undan chiqish huquqni nazarda tutmaydigan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasi shartnomani denonsatsiya qilish yoki undan chiqish niyatini kamida o'n ikki oy oldin xabar qiladi.

Xalqaro shartnomaning amal qilishini O'zbekiston Respublikasi shartnomaning hamma ishtirokchilariga yoki shartnomaning alohida ishtirokchisiga nisbatan to'xtatib turish:

1) shartnoma qoidalariga muvofiq;

2) shartnomaning boshqa ishtirokchilari bilan maslahatlashuvlar asosida istalgan vaqtda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi, agar uning barcha ishtirokchilari xuddi shu masala bo'yicha keyingi shartnomani tuzgan bo'lsalar va:

1) ushbu masalaning keyingi shartnoma bilan tartibga solinishi shu shartnoma mazmunidan kelib chiqsa yoki shundayligi qisqacha tarzda belgilangan bo'lsa;

2) O'zbekiston Respublikasining keyingi shartnomasi qoidalari oldingi shartnoma qoidalariga zid bo'lsa va ikkala shartnomani bir vaqtda qo'llash mumkin bo'lmasa, bekor qilingan hisoblanadi.

Undan oldingi shartnomaning amal qilishi faqat to'xtatib turilgan hisoblanadi, agar uning ishtirokchilari shunday niyatda ekanliklari keyingi shartnoma mazmunidan kelib chiqsa yoki shundayligi boshqacha tarzda belgilangan bo'lsa.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasini ushbu shartnoma ishtirokchilaridan birontasining jiddiy buzishi shartnomaning butunlay yoki qisman amal qilishini to'xtatish yoki to'xtatib turish uchun

O'zbekiston Respublikasiga bu buzishni asos qilib ko'rsatish huquqini beradi. Xalqaro shartnomaning jiddiy buzilishi quyidagilardan iborat:

1) xalqaro huquq normalariga zid tarzda shartnomadan voz kechish;

2) shartnoma obyektini va maqsadining amalga oshirish uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qoidaning buzilishi.

O'zbekiston Respublikasi nomidan, O'zbekiston Respublikasining Hukumati nomidan tuzilgan O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining amal qilishini to'xtatish, denonsatsiya qilish yoki to'xtatib turish to'g'risidagi takliflarni tegishli tarzda Tashqi ishlar vazirligi mustaqil ravishda yoki boshqa vazirliklar va idoralar bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga kiritadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining amal qilishini to'xtatish, denonsatsiya qilish yoki to'xtatib turish to'g'risidagi takliflarni Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Hukumatiga kiritib, ayni paytda Tashqi ishlar vazirligini xabardor qilishga haqlidir. Boshqa vazirliklar va idoralar xalqaro shartnomalarning amal qilishini to'xtatish, denonsatsiya qilish yoki to'xtatib turish to'g'risidagi takliflarni Tashqi ishlar vazirligiga kiritadilar.

O'zbekiston Respublikasi nomidan tuzilgan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini to'xtatish, denonsatsiya qilishni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimnomasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasarrufidagi masalalar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi nomidan tuzilgan shartnomalarni esa, O'zbekiston Respublikasi Hukumatining taqdimnomasiga muvofiq, Oliy Majlis amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan tuzilib, ratifikatsiya qilingan O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarini to'xtatish, denonsatsiya qilishni O'zbekiston Respublikasi Hukumatining taqdimnomasiga muvofiq, Oliy Majlis amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasining to'xtatilishi, denonsatsiya qilinishi, agar shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa yoki uning o'ziga ishtirokchilari bilan boshqacha kelishilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasini shartnomalarni bajarish majburiyatidan ozod qiladi va shartnomaning amal qilishi davomida paydo bo'lgan O'zbekiston Respublikasining huquq va majburiyatlariga ta'sir etmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumati nomidan tuzilgan va ratifikatsiya qilinmaydigan xalqaro shartnomalarni, shuningdek, Hukumatning qaroriga asosan qo'shilingan shartnomalarni to'xtatish, denonsatsiya qilishni O'zbekiston Respublikasi Hukumati amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari amal qilishining to'xtatib turi-

lishi, agar shartnomada boshqacha hol nazarda tutilmagan yoki uning ishtirokchilari bilan boshqacha kelishilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasini shartnoma to'xtatib turilgan muddat davomida uni bajarishdan ozod qiladi.

2004-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Tashqi ishlar vazirligi bilan birgalikda «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'plami» davriy nashrida chop qilinmoqda va ochiq obuna yo'li bilan tarqatilmoqda¹.

O'N TO'RTINCHI MAVZU. XALQARO TASHKILOTLAR HUQUQI

- 1-§. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va yuridik xususiyatlari**
- 2-§. «Xalqaro tashkilotlar huquqi» tushunchasi**
- 3-§. Xalqaro tashkilotlarni tasniflash (klassifikatsiyalash)**
- 4-§. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning subyekti sifatida**
- 5-§. Xalqaro tashkilotlarning funksiyalari**
- 6-§. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik**
- 7-§. Xalqaro tashkilotlarning organlari**
- 8-§. Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari**
- 9-§. Birlashgan Millatlar Tashkiloti — universal xalqaro tashkilot**
- 10-§. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti**
- 11-§. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi**
- 12-§. Xalqaro konferensiyalar**

1-§. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va yuridik xususiyatlari

XIX asrning yarmidan boshlab dunyo xaritasida birinchi nosiyosiy xalqaro tashkilotlar tuzilgan. Masalan, 1865-yili Xalqaro telegraf ittifoqi, 1874-yili Xalqaro pochta ittifoqi, 1865-yili Yer o'lchash xalqaro ittifoqi, 1890-yili Bojxona tariflarini nashr qilish xalqaro ittifoqi tuzilgan. Birinchi universal siyosiy xalqaro tashkilot — Millatlar Ligasi — 1919-yilda tuzilgan. Uning Statuti Parij tinchlik konferensiyasida qabul qilingan bo'lib, Versal shartnomasining tarkibiy qismi bo'lgan. Millatlar Ligasi o'z faoliyatini amalda 1940-yilda, rasman 1946-yilda tugatgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2003-yil 27-avgustda qabul qilgan qarori.

1939-yilda dunyoda 48 ta hukumatlararo xalqaro tashkilot bo'lgan.

Xalqaro tashkilotlar taraqqiyotining tarixida burilish nuqtasi 1945-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotining tuzilishi hisoblanadi. XX asrning ikkinchi yarmida xalqaro tashkilotlarning soni juda tez o'sgan va yangidan-yangi xalqaro tashkilotlar paydo bo'lgan.

Xalqaro tashkilotlarning o'ziga xos yuridik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) xalqaro tashkilotni davlatlar ko'p tomonlama shartnoma negizida tuzadi va shu shartnomalar (ustavlar) asosida faoliyat ko'rsatadi;

2) xalqaro tashkilot ma'lum maqsadlarda tuziladi;

3) xalqaro tashkilot muayyan tashkiliy tuzilishga ega bo'ladi;

4) xalqaro tashkilotlar o'z ustaviga ko'ra, ma'lum xalqaro huquq layoqatiga, ya'ni mustaqil huquq va majburiyatlarga ega bo'ladi;

5) xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq normalariga asosan tuziladi va xalqaro huquqning ikkilamchi subyekti hisoblanadi. Ular suverenitetga ega emas;

6) davlatlar xalqaro huquqning subyekti sifatida xalqaro tashkilotlar faoliyatida davlatlarning suveren tengligi prinsipi asosida qatnashadilar va xalqaro tashkilotga a'zolikdan ixtiyoriy ravishda chiqish huquqiga ega;

7) xalqaro tashkilotlarning qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega;

8) xalqaro tashkilotlar hudud va aholiga ega emas;

9) xalqaro tashkilotlar BMT Xalqaro sudida tomonlar bo'la olmaydi va ularning vakilligi doimo bir tomonlama bo'ladi;

10) xalqaro tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari diplomatik imtiyoz va immunitetga egadirlar;

11) xalqaro tashkilotlarda ularning a'zolarini doimiy vakillari bo'ladi (BMT, YUNESKO huzurida);

12) xalqaro tashkilotlar xalqaro shartnomalar tuzish huquqiga ega;

13) xalqaro tashkilotlar xalqaro-huquqiy javobgarlikning subyekti bo'la oladi.

Shunday qilib, xalqaro tashkilot maxsus xalqaro shartnoma (ustad) asosida tuzilgan, xalqaro-huquqiy layoqatga va muayyan tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan hamda xalqaro huquq normalari asosida faoliyat ko'rsatadigan xalqaro huquq subyektidir.

2-§. «Xalqaro tashkilotlar huquqi» tushunchasi

Xalqaro tashkilot a'zo davlatlar shartnomasi asosida ta'sis etilgan va xalqaro tashkilot maqomini olgan tashkilotdir.

Davlatlararo tashkilotlar bilan nohukumat xalqaro tashkilotlarni o'rtasida katta farq mavjud bo'lib, nohukumat xalqaro tashkilotlarni turli mamlakatlarning jismoniy va yuridik shaxslari tuzadi va davlat

ichki huquqiga muvofiq ravishda bitta yoki bir nechta davlatlarda yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olinadi. Bunday tashkilotlar xalqaro huquq subyekti hisoblanmaydi.

Xalqaro tashkilotlar tashkilot, ittifoq, jamg'arma, bank, agentlik, markaz va shu kabi boshqa nomlar bilan ataladi. Ma'lumki, BMT ayrim tillarda «Birlashgan Millatlar» deb yuritiladi. Bularning barchasi tashkilot maqomiga ta'sir qilmaydi.

Xalqaro tashkilot xalqaro huquqning ikkilamchi subyekti hisoblanadi, ya'ni u mustaqil ravishda yuzaga kelmaydi va shu bois uning xalqaro munosabatlardagi maqomi va ichki huquqiy tartiboti to'lig'icha tashkil etuvchi davlatlar ixtiyorida bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, xalqaro tashkilotlar davlatlardan butunlay farq qiladi. Xalqaro tashkilotlarning huquqiy asosi «tashkilotlar to'g'risidagi qoidalar»dan iboratdir. 1986-yil 21-martdagi Davlatlar va xalqaro tashkilotlar yoki xalqaro tashkilotlar o'rtasidagi shartnomalar to'g'risidagi Vena konvensiyasining 2-moddasiga muvofiq, ular, xususan, tashkilotning ta'sis hujjatlari (ustavi), shu asosda qabul qilingan qarorlar va rezolyutsiyalar, shuningdek, tashkilotning tegishli amaliyotidan tashkil topadi.

Xalqaro tashkilotlarning ta'sis hujjatlari ham aslida shartnomalar hisoblanadi, ammo ular o'ziga xosligi bilan farqlanib turadi. Bu, avvalo, shartnomada ishtirok etish va ishtirok etishni to'xtatish bo'yicha belgilangan alohida tartibga taalluqlidir. Masalan, xalqaro tashkilotga faqat qabul qilish protsedurasi asosidagina a'zo bo'lish mumkin. Xalqaro tashkilot qarori bo'yicha a'zolik to'xtatilishi ham mumkin.

Ularning ustavlari boshqa shartnomalarga nisbatan mazmunan anchagina o'zgaruvchan bo'ladi. Xalqaro tashkilot ustavi uning o'z vazifasini bajarish borasidagi talablardan kelib chiqib kengayib boradi. O'zgarishlar a'zo davlatlar e'tirof etadigan amaliyot asosida kiritib boriladi. Shunday yo'l bilan yuzaga keladigan odatiy normalar har bir tashkilot huquqining uzviy qismini tashkil etadi. Misol uchun BMT Xavfsizlik Kengashi 1994-yili BMT Ustavining «Tinchlikka tahdid, tinchlik-osoyshtalikning buzilishi va agressiya aktlariga nisbatan harakatlar» nomli VII bobini asos qilib, o'zining 955-rezolyutsiyasi bilan Ruanda uchun xalqaro jinoiy tribunalni ta'sis etdi. Ammo aslida ushbu bobda bunday xalqaro tashkilot ta'sis etish mumkinligi haqida ishorat ham qilinmagan. Shunga qaramay, BMT Xavfsizlik Kengashi qarori davlatlarning qo'llab-quvvatlashi yoki sukut saqlab tan olishi natijasida huquqiy normativ mazmun kasb etdi.

Xalqaro tashkilotlarning vazifalari va vakolatlari ularning ustavlarida mustahkamlab qo'yiladi. Shu bilan birga, ustav bu holatlarni tegishli ko'lamlarda va xalqaro hayotning barcha rang-barangliklarini to'lig'icha qamrab ololmasligi mumkin. Shu bois, «anglashiladigan vakolatlar»

nazariyasini e'tirof etishga to'g'ri keldi. 1996-yili Xalqaro Sud joriy xalqaro amaliyotga tayangan holda belgilab qo'yganki: «Xalqaro hayot talablari tashkilotlar o'z maqsadlariga erishishi borasida ularning faoliyatini tartibga solib turadigan asosiy hujjatlarda bevosita nazarda tutilmagan qo'shimcha vakolatlariga ham ega bo'lishi zarurligini taqozo etishi mumkin».

3-§. Xalqaro tashkilotlarni tasniflash (klassifikatsiyalash)

Xalqaro tashkilotlarni bir qancha mezonlar asosida turlicha tasniflasa (klassifikatsiya qilsa) bo'ladi.

A'zolarining doirasi bo'yicha xalqaro tashkilotlarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

birinchidan, umumiy (universal), ya'ni barcha davlatlar ishtirok etishi uchun ochiq bo'lgan xalqaro tashkilotlar. Bugungi kunda ayrim mamlakatlar turli sabablarni ro'kach qilib, hatto BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari faoliyatida ishtirok etmayotganini kuzatish mumkin;

ikkinchidan, cheklangan tarkibli, aytilish mumkinki, mintaqaviy — muayyan jug'rofiy hududdagi davlatlar uchungina ochiq bo'lgan tashkilotlar, masalan, Afrika Birdamlik Tashkiloti, Arab Davlatlari ligasi, Yevropa Ittifoqi va boshqalar.

Cheklangan tarkibli xalqaro tashkilotlar boshqa mezonlar asosida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti ishida faqat sanoati taraqqiy etgan mamlakatlarga ishtirok etadi. Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (OPEK) a'zolari esa asosiy daromad manbayi neft eksporti hisoblanadigan mamlakatlardan iborat.

Tashkilotlar o'zining vakolatlari mazmunidan kelib chiqib quyidagilarga bo'linadi:

birinchidan, umumiy vakolatga ega tashkilotlar; bu vakolatlar hamkorlikning muayyan bir sohasi bilan cheklanib qolmasligini bildiradi. Bunga BMTni misol keltirish mumkin, u amalda har qanday xalqaro muammo bilan shug'ullanadi. Umumiy vakolatga ayrim mintaqaviy tashkilotlar, masalan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi ham ega bo'lishi mumkin;

ikkinchidan, maxsus vakolatga ega tashkilotlar, masalan, Xalqaro dengiz tashkiloti.

Aksariyat xalqaro tashkilotlar davlatlararo tashkilot hisoblanib, davlatlardan yuqori turuvchi hokimiyatga ega emas, a'zo davlatlar bunday tashkilotlarga o'z hokimiyatiga tegishli vakolatlarni bermaydi. Shu bilan birga, bugungi kunda shunday xalqaro tashkilotlar ham borki, ularga davlatlar bir qator suveren vakolatlarni amalga oshirish huquqini bergan. Ular muayyan masalalar yuzasidan jismoniy va yuridik shaxslar zimmasi-

ga bevosita majburiyatlar yuklovchi qarorlar qabul qila oladi. Bundan tashqari, bunday qarorlar ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinishi mumkin.

Ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar umuman olganda davlatlardan yuqori turuvchi tashkilotlar hisoblanmasa-da, ularga xos bo'lgan ayrim jihatlarga ega. Masalan, Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi yoki Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti o'ziga tegishli normalarga amal qilinishini nisbatan qat'iy ta'minlamoqda. Bu normalarning buzilishi jiddiy ravishda bu boradagi faoliyatning xalqaro miqyosdagi talablarga muvofiq kelmasligini bildiradi.

Juda ko'p hollarda yuristlar «xalqaro tashkilotlar» atamasini keng ma'noda, davlatlararo, hukumatlararo tashkilotlarga nisbatan ham, no-hukumat yo'nalishdagi tashkilotlarga nisbatan ham qo'llayveradilar. Ammo ularning yuridik tabiati xilma-xildir.

Davlatlararo tashkilotlar quyidagi belgilari bilan ajralib turadi:

birinchidan, davlatlarning a'zoligi;

ikkinchidan, xalqaro ta'sis shartnomasining mavjudligi;

uchinchidan, doimiy organlarining mavjudligi; a'zo davlatlar suverenitetini hurmat qilish.

Ana shu belgilarni inobatga olib, shuni qayd etish mumkinki, xalqaro hukumatlararo tashkilot — xalqaro shartnoma asosida umumiy maqsadlarga erishish uchun ta'sis etilgan, a'zo davlatlarning umumiy manfaatlari yo'lida, ularning suverenitetini hurmat qilgan holda, faoliyat ko'rsatadigan davlatlararo birlashma. Ayni shu tashkilotlar xalqaro huquq subyektlari hisoblanadi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning asosiy belgisi shundaki, ular davlatlararo shartnoma asosida tashkil etiladi hamda jismoniy va yuridik shaxslarni birlashtiradi.

Hozirgi zamon xalqaro ommaviy huquqida hukumatlararo tashkilotlar davlatlar ishlab chiqqan va ma'qullagan xalqaro bitim yoki boshqa ta'sis hujjati asosida, hukumatlarning muayyan xalqaro muammolarini hal etish hamda turli ijtimoiy qurilish yo'lini tanlagan davlatlar o'rtasida har tomonlama hamkorlikka ko'maklashish maqsadida tuzilgan doimiy davlatlararo tuzilma, deb qaraladi.

Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar xalqaro huquqning ushbu nisbatan yangi institutini ajratib ko'rsatadigan bir qator xususiyatlarga ega:

birinchidan, bunday tashkilotlar organlari faoliyatda hukumatlar rasmiy tayinlaydigan vakillar ishtirok etadi, ushbu organlarning o'zlari esa davlat ichkarisida tegishli hukumat muassasalari va tashkilotlari vakolati bo'lgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy mazmundagi turli xil muammolarni hal etishda ko'maklashish yuzasidan davlatlarning sa'y-harakatlarini muhokama qilish hamda bir-biriga kelishtirish bilan shug'ullanadi;

ikkinchidan, tashkilot hamda uning organlari faoliyati va vakolatlari, odatda, davlatlarning xalqaro nazariyada ushbu tashkilotning konstitutsiyaviy hujjati deb ataluvchi bitimlar (ustav, statut, konvensiya, bitim va boshqalar) bo'yicha belgilanadi;

uchinchidan, barcha a'zo davlatlar vakillarini, ijro organi (kengash, ijroiya qo'mita va boshqalar), shuningdek, doimiy kotibiyat vakillarining davriy chaqirib turiladigan yig'ilishlar ko'rinishidagi o'ziga xos tuzilmasi mavjud;

to'rtinchidan, doimiy yoki muntazam mazmundagi faoliyat, faoliyat yuritish uslubi (ko'p tomonlama muzokaralar, masalalarni ochiq muhokama qilish), qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish (muhokama qilish va ovoz berish) hamda, odatda, majburiy kuchga ega bo'lmagan va «bir tomon-bir ovoz» prinsipiga yoki tegishli a'zo davlatlarning moliyaviy badaliga va iqtisodiy ahvoriga asoslangan holda qabul qilinadigan qarorlarning mazmuni ko'zda tutiladi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro tashkilotlarni tasniflash uchun turli mezonlardan foydalaniladi.

Ular a'zolik mazmuniga binoan davlatlararo va nohukumat tashkilotlarga bo'linadi.

Davlatlararo tashkilotlar ishtirokchilar doirasiga ko'ra universal-dunyoning barcha davlatlari ishtirok etishi uchun ochiq (BMT, uning ixtisoslashgan muassasalari) hamda mintaqaviy-bitta mintaqqa davlatlari a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan (Afrika Birdamligi tashkiloti, Amerika davlatlari tashkiloti, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi) tashkilotlaridan iborat.

Umumiy va alohida vakolatlarga ega davlatlararo tashkilotlar farqlanadi. Umumiy vakolatlarga ega tashkilotlar faoliyati a'zo davlatlar o'rtasidagi munosabatlarning barcha: siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va boshqa sohalarini qamrab oladi. Alohida vakolatga ega tashkilotlar maxsus bir soha doirasidagi hamkorlik bilan kifoyalanadi (masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti va hokazolar) hamda ular siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, diniy va shu kabi boshqa sohalar bo'yicha taqsimlanishi mumkin.

Vakolatxonalarning mazmuniga ko'ra, davlatlararo va davlatdan ustun turuvchi tashkilotlar bir-biridan ajralib turadi. Birinchi guruhga maqsadi davlatlararo hamkorlikni tashkil qilish hamda qarorlariga qaratilgan aksariyat ko'pchilik xalqaro tashkilotlar kiradi. Davlatdan ustun turuvchi tashkilotlarning maqsadi integratsiyaga xizmat qilishdir. Ularning qarorlari bevosita a'zo davlatlar fuqarolariga va yuridik shaxslarga taalluqli hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotga a'zo bo'lib kirish tartibiga ko'ra, ochiq (har qanday davlat xohish-ixtiyoridan kelib chiqib a'zo bo'lishi mumkin

bo'lgan) va yopiq (a'zolikka dastlabki muassislar taklifi asosida qabul qilinadigan) tashkilotlar farqlanadi.

Xalqaro tashkilotlarni xalqaro huquqning ikkilamchi (hosila)si sifatida davlatlar tashkil (ta'sis) etadi.

Xalqaro amaliyotda allaqachon shakllanib ulgurgan quyidagi vaziyat e'tirof etiladi: davlatlar xalqaro tashkilotlarni tuzar ekan, ularning huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, xalqaro huquq normalarini yaratish va qo'llash, xalqaro huquq normalariga rioya etish himoyasida turish borasidagi layoqatini e'tirof etgan holda, ushbu tashkilotlarni muayyan huquq va layoqatdorlik bilan ta'minlaydi. O'zlarining bunday e'tirofi bilan davlatlar xalqaro huquqning yangi subyektlarini yaratadilarki, bu subyekt ana shu davlatlar bilan bir qatorda turib, xalqaro hamkorlik sohasida huquq ijodkorligi, huquqni qo'llash va huquqni muhofaza qilish vazifalarini amalga oshiradi.

Xalqaro tashkilot vazifalari deganda, ushbu tashkilotlar zimmasiga yuklatilgan yumushlarni bajarish bo'yicha ular faoliyati jarayonlarining tashqi jihatdan namoyon bo'lishi anglanadi (masalan, tartibga solish, nazorat qilish va boshqalar). Bunda tashkilot faqat o'z vakolatiga kiradigan vazifalar yuzasidan faoliyatini amalga oshirish huquqiga egadir.

Xalqaro tashkilot muayyan muassis — davlatlar zimmasiga yuklaydigan hamda ta'sis hujjatida qayd etiladigan vakolatlar doirasida aniq maqsad va vazifalarni bajarish uchun tuziladi.

Yangi xalqaro tashkilotni tuzish jarayoni quyidagi uch bosqichni qamrab oladi:

birinchi bosqich — ta'sis hujjatining qabul qilinishi;

ikkinchi bosqich — tashkilotning moddiy tuzilmasini yaratish;

uchinchi bosqich — asosiy organlar yig'ini (chaqirig'i) tashkilot faoliyat boshlaganidan dalolat beradi.

Davlatlarning suveren tengligi prinsipi xalqaro tashkilotlar tuzilishi-da yetakchi o'rinda turadi. Uning namoyon bo'lishi quyidagi jihatlarda ko'rinadi:

birinchidan, xalqaro tashkilotning shartnomaviy asosi;

ikkinchidan, a'zolikning ixtiyoriyligi;

uchinchidan, tashkilot qarorlarining asosan tavsiyaviy mazmunga egaligi;

to'rtinchidan, uning davlatlararo mazmunga egaligi;

beshinchidan, davlatlar suverenligi va teng huquqliligining tashkilot ichkarisida ham, uning tashqarisida ham saqlab qolishi.

Davlatlarning xalqaro tashkilotni yaratish borasidagi o'zaro kelishib olgan xohish-irodasi quyidagi ikki usulda mustahkamlab qo'yilishi mumkin:

birinchi usul — xalqaro shartnomada;
ikkinchi usul — endilikda mavjud bo'lgan xalqaro tashkilot qarori-
da.

Tashkilot faoliyatini tugatish ham xuddi shu tartibda, a'zo davlat-
larning o'zaro kelishib olingan xohish-irodasi asosida amalga oshiriladi.

Shunday qilib, xalqaro tashkilotlarning huquqiy tabiati negizida a'zo
davlatlar umumiy maqsad va manfaatlarining mavjudligi yotadi. Xalqaro
tashkilotning huquqiy tabiati uchun eng muhim jihat shuki, uning maqsad
va prinsiplari, vakolatlari, tuzilishi va hokazolar o'zaro kelishib olingan
shartnomaviy asosga ega bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlarning shartnomaviy huquqiy layoqatga qodirligi
ta'sis hujjatlarida, umumiy qoidaga ko'ra, ikki xil usul bilan mustahkam-
lanadi:

birinchidan, tashkilot o'z vazifalarini bajarishga qodirligini
ta'minlaydigan har qanday shartnomalarni imzolash huquqini ko'zda
tutuvchi umumiy qoida bo'yicha;

ikkinchidan, tashkilotning muayyan toifaga mansub bitimlarni
muayyan tomonlar bilan (har qanday davlat bilan yoki faqat a'zo dav-
latlar bilan, har qanday xalqaro tashkilot bilan yoxud ulardan ayrimlari
bilan) tuzish imkonini belgilab beradigan alohida qoida yoki qoidalar
bo'yicha.

Xalqaro tashkilotlar shartnoma (kontrakt) asosida xodimlarni ishga
olish huquqiga ega bo'ladi. Bunday xodimlar davlatlar vakillari emas,
balki xalqaro darajadagi mansabdor shaxslar hisoblanib, tamoman xalqaro
tashkilotga bo'ysunadi hamda uning nomidan va uning manfaatlari yo'lida
ish ko'radi.

Xalqaro tashkilotlar diplomatik aloqalarda ishtirok etish layoqatiga
egadir.

Har qanday xalqaro tashkilotning aksariyat qismi a'zo davlatlar badal-
laridan tashkil topadigan va faqatgina tashkilotning umumiy manfaat-
lari uchun sarflanadigan o'z moliyaviy mablag'lariga ega bo'ladi.

Xalqaro tashkilotlarning o'ziga xos va o'ziga mos tomoni shundaki,
ular davlatlar ichki huquqi bo'yicha yuridik shaxsga mansub bo'lgan
barcha huquqlar asosida faoliyat yuritadi.

Xalqaro huquq subyektlari sifatida xalqaro tashkilotlar o'z faoliyati
bilan ziyon yetkazadigan huquqbuzarlik sodir ergani uchun javobgar
hisoblanadi hamda lozim bo'lganda javobgarlik da'vosi bilan chiqishi
mumkin.

4-§. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning subyekti sifatida

Xalqaro tashkilotlarning xalqaro huquq subyekti ekanligi va xalqaro-huquqiy munosabatlarga kirishish va xalqaro huquq bo'yicha zimmasiga mas'uliyat olish layoqati to'lig'icha bunday tashkilotni tuzuvchi davlatlarga bog'liq va bu ta'sis hujjatlarida qayd etilgan bo'ladi.

Tashkilotning xalqaro subyektlilik huquqi *alohida* mazmun kasb etadi va uning vazifalari bilan belgilanadi. Boshqa subyektlar singari tashkilot ham xalqaro huquq normalarini bajarishga va ularni buzganlik uchun javobgarlikni zimmasiga olishga majburdir. Xalqaro tashkilotning subyektlilik huquqiga uning davlatlar va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan, masalan, o'z binolarining maqomi to'g'risida, immunitetlar to'g'risida, turdosh tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik to'g'risida xalqaro shartnomalar tuzish huquqi ham kiradi. 1986-yildagi Vena konvensiyasida qayd etilganidek: «Xalqaro tashkilotning shartnomalar tuzish borasidagi huquqiy layoqati mazkur tashkilot qoidalariga muvofiq ravishda tartibga solinadi».

Xalqaro tashkilotlar o'z vakolatlari doirasida diplomatik aloqalarda ham ishtirok etadi. Qator xalqaro tashkilotlar huzurida davlatlarning doimiy vakolatxonalari mavjud bo'ladi. Xalqaro tashkilotlar o'z missiyalarini davlatlarga yuborib turadi.

Xalqaro tashkilotlar davlatlar va hukumatlarning tan olinishida ishtirok etadi. Yuridik jihatdan bunday vakolat faqat davlatlarga tegishli bo'lsa-da, davlatni xalqaro tashkilotga qabul qilish — uni tan olishning to'g'ridan to'g'ri yo'lidir va hatto ba'zan bu hol davlatni ayrim davlatlar tan olishidan ham kattaroq ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tashkilotning unga a'zo *davlatlar ichki huquqi* bo'yicha huquqiy layoqatga egaligi tashkilot ta'sis hujjatlari, tashkilotning alohida a'zo davlatlar bilan tuzgan bitimlari, shuningdek, ushbu davlatlarning o'z ichki huquqiga muvofiq ravishda belgilanadi. BMT Ustavida qayd etilishicha, misol uchun, BMT a'zosi bo'lgan davlatlardan har birining hududida o'z vazifalarini bajarishi uchun zarur bo'ladigan tegishli huquqiy layoqatga ega hisoblanadi (104-m).

Xalqaro tashkilotning turli davlatlar hududlarida (mahsulot va xizmatlar, ijara, mulk, mehnat munosabatlarini istifoda etish va boshqa masalalar yuzasidan) huquqiy munosabatlarga kirishishi shubhasizdir. Davlatlar sudlov amaliyoti tahlilining ko'rsatishicha, xalqaro tashkilotlarning huquqiy subyektliligi hatto ushbu tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar hududida ham tan olinadi. Bitim tuzar ekan, xalqaro tashkilot ham odatdagi yuridik shaxslar qatori muayyan fuqarolik-huquqiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. U shartnomasiz majburiyatlar, masalan, yo'l harakati hodisasi tufayli yuzaga keladigan majburiyatlar bo'yicha ham javobgar sanaladi. Ammo, xalqaro tashkilot tegishli immunitetga

egaligi bois, bunday javobgarlikning amalga oshishi qiyin kechishi mumkin. Bunday paytda xalqaro tashkilotlar ko'p hollarda immunitetdan voz kechadi. Xalqaro tashkilot odil sudlovning amalga oshishiga to'sqinlik qilmasligi darkor. Immunitetdan voz kechilmagan taqdirda, masala diplomatik doirada hal etiladi. Xalqaro tashkilotga nisbatan xalqaro miqyosda xalqaro huquqqa muvofiq ravishda da'vo qo'zg'atilishi mumkin.

So'nggi yillarda xalqaro munosabatlarda xalqaro nohukumat tashkilotlar tobora ko'p rol o'ynamoqda. Ammo ular tom ma'noda xalqaro huquqning subyektlari emas. Chunki xalqaro tashkilotlar davlatlararo tuzilgan xalqaro shartnomalar asosida vujudga keladi. Xalqaro nohukumat tashkilotlar esa u yoki bu davlatning miliy qonunlari asosida paydo bo'ladi va faoliyat ko'rsatadi.

5-§. Xalqaro tashkilotlarning funksiyalari

Xalqaro tashkilotlarni davlatlar muayyan umumiy maqsadga erishish uchun tuzadi va u ana shu umumiy manfaatni ro'yobga chiqarishda ishtirokchi davlatlarning qo'shma organi bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, xalqaro tashkilotning vazifasi har bir a'zo davlat manfaatlarining o'zaro uyg'un jihatlarini aniqlash, shu asosda tegishli vazifalarni, shuningdek, ularni hal etishning uslub va vositalarini belgilab olishda umumiy pozitsiyani, umumiy xohish-irodani ishlab chiqishdan iborat bo'ladi. Bunda o'ziga xoslik xalqaro tashkilot a'zolarining suveren davlatlar ekani bilan belgilanadi. Xalqaro tashkilotning tegishli vazifalari va ularni amalga oshirish mexanizmining o'ziga xosligi ham shundan kelib chiqadi.

Xalqaro tashkilot faoliyatining asosiy bosqichlari muhokama etish, qarorlar qabul qilish va ular ijrosining nazorati bilan shug'ullanishdan iboratdir. Shundan kelib chiqib, xalqaro tashkilotlar funksiyalarini quyidagi uchta muhim turga ajratish mumkin:

- 1) tartibga solish;
- 2) nazorat etish;
- 3) operativ.

Xalqaro tashkilotning *tartibga solish funksiyasi* bugungi kunda o'ta muhim ahamiyatga egadir. U a'zo davlatlarning maqsadlari, prinsiplari, o'zini tutish tartib-qoidalarini belgilovchi qarorlar qabul qilishni ko'zda tutadi. Qarorlar xalqaro tashkilotning ichki huquqiga muvofiq ravishda qabul qilinadi.

Xalqaro tashkilotning *nazorat etish funksiyasi* a'zo davlatlarning qabul qilingan qarorlarga muvofiq ravishda o'zini tutishi ustidan nazoratni amalga oshirishdir. Shu maqsadda xalqaro tashkilotlar tegishli axborotlarni yig'ish va tahlil etish, uni muhokama qilish va tegishli rezolyutsiyalarda bu boradagi fikrlarini bayon etish huquqlariga egadir. Aksariyat hollarda davlatlar o'zlarining xalqaro huquq normalari va tashkilotlarning tegishli soha

bo'yicha hujjatlarini qanday bajarayotgani haqida muntazam ravishda hisobotlar taqdim etib turishga majbur hisoblanadi. Masalan, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE) ustavida jiddiy nazorat choralari, shu jumladan inspeksiya qilish ko'zda tutilgan.

Xalqaro tashkilotning *operativ funksiyasi* o'z vositalari ko'magida belgilangan maqsadlariga erishishidan iboratdir. Ko'pchilik hollarda xalqaro tashkilot voqelikka suveren a'zo davlatlar orqali ta'sir o'tkazadi. Shu bilan birga, asta-sekin to'g'ridan to'g'ri ta'sir etish faoliyatining ahamiyati ham ortib bormoqda. Xalqaro tashkilotlar iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va boshqa xil yordamlar bermoqda, maslahat xizmati ko'rsatish bilan shug'ullanmoqda.

6-§. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik

Ko'pincha hukumatlararo tashkilotlar deb atalishiga qaramay, xalqaro tashkilotlarga faqat suveren davlatlarga a'zo bo'lishi mumkin. Davlatning muayyan qismi xalqaro tashkilot a'zosi bo'la olmaydi. Barcha a'zolar teng huquqlilik asosida tashkilot ishida ishtirok etadi va uning faoliyati uchun mas'ul hisoblanadi.

Bir talay xalqaro tashkilotlar ta'sis hujjatlarida to'liq a'zolikdan tashqari *assotsiatsiyalangan a'zolik* ham ko'zda tutilgan. Davlatni xalqaro tashkilotning assotsiatsiyalangan a'zosi sifatida qabul qilish, odatda, tashkilot bilan mazkur davlat o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Assotsiatsiyalangan a'zoning maqomi va huquqlari xalqaro tashkilotning ta'sis hujjatlarida belgilab qo'yiladi. Ba'zan assotsiatsiyalangan a'zo xalqaro tashkilot faoliyatining ayrim sohalaridagina ishtirok etadi; ba'zan uning xalqaro tashkilotning yuqori organlariga ovoz berish va ijro organlariga saylanish borasidagi huquqlari cheklangan bo'ladi. Ayrim hollarda, masalan, Yevropa Kengashida assotsiatsiyalangan a'zolik to'liq a'zolikka qabul qilishdan oldingi bosqich sanaladi.

Xalqaro tashkilotga a'zo bo'lmagan davlatlar yoki tashkilot organi tarkibiga kirmagan a'zo davlatlarga *kuzatuvchi maqomi* beriladi. Shveysariya BMT Bosh Assambleyasining ko'pgina sessiyalarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etgan. BMTning aksariyat a'zolari Xavfsizlik Kengashi majlislariga o'z kuzatuvchilarini yuboradi. BMTda kuzatuvchilik maqomi qator milliy ozodlik harakatlariga ham berilgan.

Ko'pincha ixtisoslashgan muassasalar va mintaqaviy tashkilotlar ham BMT organlariga o'z kuzatuvchilarini yuborishini kuzatish mumkin. MDH organlarida kuzatuvchilik tizimi keng rivojlangan. Kuzatuvchi maqomiga ega davlatlar asosiy majlislarda hozir bo'lish va hujjatlar olish huquqidan foydalanadi.

Maslahatchilik maqomi kuzatuvchi maqomiga yaqin bo'lib, u ayrim,

ko'pincha universal tashkilotlarga, nohukumat tashkilotlarga, ya'ni turli mamlakatlarning jismoniy yoki yuridik shaxslari tuzadigan va qabul qiluvchi davlatda milliy huquq bo'yicha yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olinadigan tashkilotlarga beriladi. Bunday tajriba BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS), shuningdek, YUNESKO faoliyatiga ko'proq xosdir.

Aksariyat xalqaro tashkilotlar ustavlarida ko'zda tutilganidek, tashkilotdan chiqish natijasida unga a'zolik to'xtatilishi mumkin. *1949 va 1953-yillar oralig'ida Sharqiy Yevropadagi bir qator mamlakatlarning Jahon sog'liqni saqlash tashkilotidan va YUNESKODan chiqib ketishi kuzatildi.* Ko'pchilik G'arb davlatlari bunday qadamni g'ayriqonuniy deb baholaydi. Keyinchalik esa AQSH va Buyuk Britaniya YUNESKoga a'zolicini bir tomonlama tartibda to'xtatdi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarning Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va YUNESKoga a'zolikni davom ettirish haqidagi qaroridan so'ng ushbu davlatlarga nisbatan xalqaro tashkilotga qabul qilish protsedurasi qo'llanilmay, balki ularning a'zoligi qayta tiklandi.

Ko'pchilik xalqaro tashkilotlar ustavlarida a'zolik safidan chiqarish imkoniyatlari ko'zda tutilgan bo'ladi. Aks holda, a'zolikdan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi. Bunday hollarda ustav shartlarini buzayotgan davlatning xalqaro tashkilot ishida ishtirok etishiga ijozat bermaslik mumkin, xususan, mazkur davlat vakillari vakolatlarini tan olishdan voz kechish uning a'zolicini to'xtatib qo'yish bilan teng sanaladi.

7-§. Xalqaro tashkilotlarning organlari

O'z vazifasini ado etish uchun xalqaro tashkilotlar tegishli mexanizmga ega bo'ladi. Uning asosi xalqaro tashkilot organlaridir. Bir xalqaro tashkilot organlarining tarkibi, zimmasidagi vazifalar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda, boshqa tashkilotnikiga nisbatan jiddiy farq qiladi. Bu borada bir nechta asosiy turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Universal (umumjahon miqyosidagi) yoxud aralash, murakkab, serqirra tashkilotlar uchun quyidagi ikki turga mansub organlar xosdir:

birinchisi — vakillik;

ikkinchisi — funksional.

Xalqaro tashkilotning oliy organi barcha a'zo davlatlar vakillarining *yalpi majlisidir.* U Assambleya, konferensiya, kongress va shu kabi turlicha nomlanishi mumkin. Ushbu organlar asosiy masalalar yuzasidan qaror qabul qilish bo'yicha mas'uldir. Ular muntazam ravishda — har yili (BMT Bosh Assambleyasi), ikki yilda bir (YUNESKO) va hatto besh yilda bir marta (Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi) yig'ilishib turadi.

Plenar organ rezolyutsiyalarini tayyorlash uchun oliy organ sessiyasi mobaynida ishlaydigan umumiy tarkibdagi komissiyalar va qo'mitalar tuziladi.

Plenar organ *cheklangan tarkibdagi organlarni* tashkil etadiki, ular qatoriga: asosiy ijro organi va tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha organlar kiradi.

Cheklangan tarkibdagi organlarni tashkil etishda muayyan mezonlar, avvalo, asosiy mintaqalar va davlatlar guruhi vakilliklari hisobga olinadi. Bundan boshqa mezonlar ham mavjud. Xalqaro mehnat tashkiloti (MOT) ning rahbarlik organida 10 ta joyni muhim sanoat mamlakatlari egallagan. Fuqarolik aviatsiyasi xalqaro tashkiloti (IKAO) Kengashida fuqaro aviatsiyasiga navigatsiya xizmati ko'rsatishda ulkan hissa qo'shayotgan davlatlarning alohida vakilligi ta'minlanadi.

Ikki tomonlama xalqaro tashkilotlar, masalan, qo'shma komissiyalar yoki cheklangan maqsadli tashkilotlarda, odatda, bunday murakkab tizim mavjud emas. Davlatlar ularda ko'pincha tashkilotning barcha vazifalarini bajaradigan o'z mansabdor shaxslari orqali vakillik qiladi.

Ko'p tomonlama tashkilotlar organlarining katta qismi vakillikka asoslanadi, ya'ni ular tarkibiga davlatlar yo'llagan shaxslar kiritiladi. Faqatgina ijro faoliyati bilan mashg'ul ayrim organlarda yollanma xodimlar ishlaydi.

Ba'zi bir xalqaro tashkilotlar tarkibida *sudlov organlari* ham mavjud bo'ladi. Odatda, bu organlar shaxsiy sifati asosida saylanadigan va mustaqil ravishda faoliyat yurituvchi shaxslardan iborat bo'lib, ular na xalqaro tashkilot va na o'z hukumatlari oldida hisobdor emas. Ammo istisnoli hollar ham uchraydi. Masalan, MDH Iqtisodiy sudi tarkibini tom ma'noda a'zo davlatlar tayinlaydi va ular o'z hukumatlari qaroriga muvofiq, vazifasidan ozod etilishi mumkin.

Sudlov organlarining faoliyati, odatda, xalqaro tashkilot a'zolari o'rtasida shu tashkilot qabul qilgan huquq normalarining buzilishi tufayli yuzaga kelgan nizoli masalalarni hal etishdan iborat bo'ladi.

Universal xalqaro tashkilotlar tarkibida, shuningdek, ma'muriy tribunallar, ya'ni kadrlar masalalari bo'yicha sudlar ham mavjuddir.

Mintaqaviy integratsion birlashmalarning sudlari, misol uchun, Yevropa Ittifoqi tarkibiga kiruvchi Yevropa sudi yoki And umumiy bozori sudi alohida mavqega egadir. Bunday sudlar nafaqat davlatlar, balki birlashma organlari qabul qilgan qarorlarning huquqiy jihatdan to'g'riligini ko'rib chiqadi.

Mintaqaviy integratsion birlashmalar tarkibiga bir qator hollarda parlament organlari ham kiradi. Ko'pincha ular a'zo davlatlar parlamentlarining vakillaridan iborat bo'lib, milliy qonunlarni o'zaro yaqinlashtirish va uyg'unlashtirish vazifasini bajaradi. Yevropa Parlamentini (Yevropa Ittifoqi organlaridan biri) bevosita a'zo davlatlar aholisi saylaydi va plenar hamda ijro organlari alohida muhim qarorlar qabul qilishi chog'ida maslahatchilik vazifasini bajaradi.

Barcha xalqaro tashkilotlar xizmat ko'rsatish bilan bog'liq ishlarni bajaradigan kotibiyatga egadir. Unga oliy organ muayyan muddatga saylab qo'yadigan bosh ma'muriy shaxs (Bosh kotib yoki Bosh direktor) rahbarlik qiladi.

Xalqaro tashkilotning a'zo davlatlar, shuningdek, tashqi dunyo bilan munosabatlarda tashkilot nomidan vakillik qiluvchi mansabdor shaxslari aksariyat hollarda tegishli ko'lamlari tashkilot ichki huquqi va a'zo davlatlar o'rtasida tuzilgan bitimlarda belgilab qo'yiladigan diplomatik immunitet va imtiyozlarga ega bo'ladi.

Ba'zi o'rinlarda xolislikni ta'minlash maqsadida a'zolari davlatlar emas, balki shaxsiy sifati bo'yicha saylanadigan mutaxassislardan iborat bo'lgan organlar ham tuziladi. Bunday organlar sirasiga asosan sudlov organlari kiradi. BMT Xalqaro huquq komissiyasi ham shunday tartib bo'yicha tuziladi.

Xalqaro tashkilotni o'z a'zolari moliyaviy jihatdan ta'minlaydi. Ko'pchilik moliya tashkilotlari budjetini o'z daromadlari hisobidan shakllantiradi.

8-§. Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari

Xalqaro tashkilotlarning organlari qabul qiladigan hujjatlarning mazmuni hamda ularni qabul qilish tartibi har bir tashkilotning ichki huquqi bilan tartibga solinadi. Umuman olganda, mazkur hujjatlar ikki toifaga bo'linadi:

birinchidan, organning o'z ishlarini tashkil qilishga taalluqli qarorlari. Bunday qarorlar, odatda, ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va majburiy hisoblanadi;

ikkinchidan, tom ma'noda tashkilot maqsad va vazifalarini ro'yobga chiqarish uchun qabul qilinadigan qarorlar. Keyingi o'n yillikda konsensus usuli keng tarqalgan, unga ko'ra, qarshi e'tirozlarga uchramagan qaror qabul qilingan sanaladi. Bunday qarorlar rezolyutsiya, deklaratsiya, rekomendatsiya kabi turlicha nomlanadi. Umumiy qoidaga ko'ra, ular yuridik majburiy hisoblanmaydi va xalqaro huquq manbayi bo'lib xizmat qilmaydi. Bunday qarorlar faqat axloqiy-siyosiy kuchagina ega bo'ladi. Shu bilan birga, ularning davlatlararo munosabatlarga va xalqaro huquqqa ta'sir ko'rsatish kuchini kam deb ham baholamaslik kerak. Zero, har qanday davlatning xalqaro tashkilot qaroriga qarshi chiqishi qiyin muammodir.

9-§. Birlashgan Millatlar Tashkiloti — universal xalqaro tashkilot

BMT hozirgi zamon dunyosining ajralmas bo'lagi bo'lib, jahonda mavjud tartibotning shakllanishida muhim o'rin tutgan. U xalqaro tashkilotlar global tizimining o'ziga xos yadrosidir. BMT Ustavi xalqaro-hu-

quqiy tartibotning asosiy maqsad va prinsiplarini mustahkamlab qo'yan va ularga imperativ kuch bag'ishlagan birinchi xalqaro hujjat hisoblana-di. Shu ma'noda, BMT Ustavi aksariyat hollarda xalqaro hamjamiyat konstitutsiyasi deb atalishi bejiz emas.

BMTning *asosiy maqsadlari* quyidagilardan iborat:

1. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish.

2. Tinchlikka tahdidga barham berish hamda uning oldini olish, shuningdek, agressiya yoki boshqa tinchlikni buzuvchi xatti-harakatlar-ni bartaraf etish uchun samarali jamoaviy chora-tadbirlar qo'llash.

3. Xalqaro nizolarga yoki tinchlik buzilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni tinch vositalar yordamida hal etish.

4. Xalqlar o'rtasida do'stona munosabatlarni rivojlantirish.

5. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va gumanitar mazmundagi xalqaro muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni amalga oshirish.

6. Inson huquqlarini hamda irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barchaga taalluqli bo'lgan asosiy erkinliklarni rag'batlantirish va rivoj-lantirish.

7. Tashkilot oldida turgan maqsadlarga erishish yo'lida davlatlar sa'y-harakatlarini birlashtiradigan markaz bo'lish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun BMT quyidagi *prinsiplar* asosida faoliyat yuritishni o'z zimmasiga olgan:

1. Suveren tenglik;

2. BMT Ustavi bo'yicha majburiyatlarni sidqidildan bajarish;

3. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish chog'ida xalqaro tinch-lik, xavfsizlik va adolatni tahdid ostiga qo'ymaslik;

4. Har qanday davlatning hududiy daxlsizligiga yoki siyosiy mus-taqilligiga qarshi va shuningdek, BMT maqsadlariga xilof bo'lgan boshqa vaziyatlarda ham, xalqaro munosabatlarda kuch bilan yoxud uni qo'llash bilan tahdid etishdan voz kechish;

5. BMT o'z ustaviga muvofiq qo'llaydigan barcha sa'y-harakatlarida har tomonlama yordam ko'rsatish hamda u ogohlantiruvchi yoxud majburlovchi mazmundagi choralar qo'llayotgan har qanday davlatga yordam ko'rsatishdan tiyilib turish;

6. BMT a'zosi bo'lmagan davlatlar ham uning prinsiplariga mu-vofiq ravishda harakat qilishini ta'minlash, chunki bu xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun qo'l kelishi mumkin;

7. BMTning aslida davlatlar ichki vakolatlariga mansub bo'lgan ish-lariga aralashmasligi.

BMT o'z faoliyati mobaynida qanchadan-qancha mushkul davrlar-ni boshidan kechirgan. Dastlabki paytlarda ko'pchilik ovozni nazorat ostiga olgan G'arb davlatlari ozchilikka o'z xohish-irodasini majburlab o'tkazishga uringan. Dekolonizatsiyadan keyin rivojlanayotgan davlat-

lar ko'pchilikni tashkil qilgan va ular ham boshqa davlatlarning manfaatlarini yetarli darajada hisobga olmasdan, ovoz berish mashinasini o'z xohishlari bo'yicha foydalanishga intilgan. Oqibatda esa mutlaqo befoyda, samarasiz rezolyutsiyalar qabul qilingan. «Sovuq urush» tufayli yanada mushkul vaziyatlar yuzaga kelgan. «Sovuq urush» tugaganidan keyingi yangicha shart-sharoitlar, tabiiyki, BMT oldiga yangi ta-lablarni qo'ymoqda.

BMT davlatlararo tashkilot hisoblanadi. Unga dunyoning deyarli barcha davlatlari a'zodir. 2004-yilning 1-yanvarigacha dunyoning 192 davlati BMTga a'zo bo'lgan.

BMTning asosiy organlari:

- 1) Bosh Assambleya;
- 2) Xavfsizlik kengashi;
- 3) Ijtimoiy va iqtisodiy kengash (EKOSOS);
- 4) Vasiylik kengashi;
- 5) Xalqaro sud;
- 6) Kotibiyat.

Bosh Assambleya — BMTning Ustavi doirasida har qanday masala-larni yoki ishlarni muhokama etish huquqidek keng vakolatlarga ega bo'lgan vakillik organi. Shuningdek, u BMTning har qanday organi vakolatiga kiradigan masalalarni muhokama etishi mumkin. Tegishli masalani ko'rib chiqish natijasi o'laroq, u BMT a'zolariga va organlari-ga, shu jumladan Xavfsizlik kengashiga ham tavsiyalar kiritadi. Bunday tavsiyalar Xavfsizlik kengashi va Xalqaro suddan tashqari, BMTning barcha organlari uchun majburiydir.

BMT Ustavida Bosh Assambleya faoliyatining eng muhim yo'nalishlari ko'rsatib qo'yilgan. Bosh Assambleya tinchlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi hamkorlikning umumiy prinsiplari, shu jumladan qurolsizlanish prinsiplarini ko'rib chiqish va BMT a'zolari hamda Xavf-sizlik kengashiga tegishli tavsiyalar kiritish vakolatiga ega.

BMT Bosh Assambleyasi davlatlar o'rtasida yalpi tinchlik-osoyishtalik va do'stona munosabatlarga xalal berishi mumkin bo'lgan har qanday vaziyatni tinch yo'l bilan hal etishga qaratilgan choralarni ham tavsiya etish mumkin. Bunda BMT Ustavining maqsad va vazifalar bayon etil-gan qoidalarini buzish oqibatida yuzaga keladigan vaziyatlar ham nazarda tutilgan.

BMT Bosh Assambleyaning asosiy vakolatlari sirasiga, shuningdek, siyosiy soha bo'yicha xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va xalqaro huquq va uning kodifikatsiyasi borasidagi progressiv taraqqiyotini rag'batlantirish masalalari ham kiritilgan. Bosh Assambleya ishtirokida eng muhim masalalar, shu jumladan inson huquqlari, yadro qurolini tarqatmaslik, dengiz tubi va kosmik fazodan foydalanish kabi sohalarga

taalluqli 300 dan ziyod shartnoma qabul qilingan. Bundan tashqari, iqtisodiy va ijtimoiy turmush, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash va inson huquqlari sohalari bo'yicha hamkorlikka ko'maklashish ham Bosh Assambleyaning asosiy vazifalaridandir.

BMTning barcha asosiy organlari, shu jumladan Xavfsizlik kengashi ham o'z faoliyati to'g'risida Bosh Assambleyaga hisobotlar taqdim etib turadi. U BMT budjetini tasdiqlaydi va a'zolar to'laydigan badallar miqdorini belgilaydi. Bosh Assambleya Xalqaro suddan tegishli konsultativ xulosalarni so'rab olishi barobarida, buni BMTning boshqa organlari va uning ixtisoslashgan muassasalari amalga oshirishiga ham ruxsat etishi mumkin.

Bosh Assambleya vakolatlari BMT organlarini shakllantirish jahasida alohida ahamiyat kasb etadi. U Xavfsizlik kengashining 10 ta muvaqqat a'zosini va EKOSOSning barcha a'zolarini saylaydi. U jami 200 dan ortiq qo'shimcha organlarni tasdiqlaydi. Va nihoyat BMT Ustaviga tuzatishlar kiritish jarayoni ham Bosh Assambleya ma'qullagandan so'ng boshlanadi.

BMT Bosh Assambleyasi bir qator vakolatlarni Xavfsizlik kengashi bilan birgalikda amalga oshiradi. Xavfsizlik kengashi tavsiyasiga muvofiq, Bosh Assambleya a'zolikka qabul qilish, a'zolikni vaqtincha va butunlay to'xtatish to'g'risida qarorlar chiqaradi. Bosh Assambleya va Xavfsizlik kengashi birgalikda Xalqaro sud a'zolarini ham saylaydi.

Xavfsizlik Kengashi nafaqat BMT, balki umuman xalqaro tashkilotlar tizimida o'ziga xos alohida mavqega ega. Uning o'ziga xos mavqei quyidagilarda namoyon bo'ladi:

birinchidan, uning zimmasiga tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlashdek o'ta muhim mas'uliyat yuklatilgan; U tinchlikka xavf soluvchi, osoyishtalikni buzuvchi yoki agressiya akti hisoblanuvchi holatlarning mavjudligini belgilaydi. O'z-o'zidan bunday belgilash o'zining yuridik oqibatlariga ega hisoblanadiki, unga ko'ra, tahdid yoki agressiya ostida qolgan davlat manfaatlarini ta'minlash maqsadida bu davlatga BMTning ko'maklashish huquqi ko'zda tutiladi;

ikkinchidan, Xavfsizlik Kengashi BMTning asosiy ijro organi hisoblanadi; agar Bosh Assambleya bilan tinchlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan masalani muhokama etish natijasida tegishli harakatni amalga oshirish zarurati mavjudligi oydinlashsa, bunday masala Xavfsizlik Kengashi zimmasiga yuklanadi;

uchinchidan, BMT hatto o'ziga a'zo hisoblanmagan davlatlar ham Ustav prinsiplariga muvofiq ravishda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan darajada harakat qilishini ta'minlaydi, bunda Xavfsizlik Kengashi alohida o'rin tutadi.

Xavfsizlik Kengashi — cheklangan vakillik organi (BMT a'zolari

umumiy sonining 1 foizidan kam) bo'lsa-da, a'zo davlatlar Xavfsizlik Kengashi o'z vazifalarini bajarishda «ularning nomidan ish ko'rishi»ga rozilik bergan. Boshqacha aytganda, Xavfsizlik Kengashining mustaqil ravishda amalga oshiradigan harakatlarini o'z harakatlari sifatida qarashadi. Xavfsizlikka tahdid mavjudligini aniqlagach, Xavfsizlik Kengashi tegishli tavsiyalar kiritishi mumkin va shu bilan birga, huquqbuzarga nisbatan majburlash choralari to'g'risida qaror qabul qilish huquqiga ham egadir. BMT Ustavida bunday hollarda noharbiy va harbiy choralarning qo'llanishi ko'zda tutilgan. Har ikki turga mansub choralarni davlatlar Xavfsizlik Kengashi qaroriga muvofiq ravishda qo'llaydi;

to'rinchidan, iqtisodiy munosabatlarni, temir yo'l, dengiz, havo yo'llari, pochta, telegraf, radio yoki boshqa xil aloqa vositalarini to'liq yoki qisman to'xtatish, shuningdek, diplomatik munosabatlarni uzish kabilar noharbiy choralar sirasiga kiradi. Bu ro'yxatga uzil-kesil deb emas, balki namuna sifatida qarash joizdir. Xavfsizlik Kengashi bir necha bor bunday choralarni sanksiya sifatida, masalan, Janubiy Afrika Respublikasi va Janubiy Rodeziyaga nisbatan qo'llash to'g'risida qarorlar qabul qilgan;

beshinchidan, a'zo davlatlarning havo, dengiz yoki quruqlikdagi kuchlari amalga oshiradigan namoyish, qamal va boshqa shu kabi operatsiyalar harbiy choralarni tashkil etadi. BMT a'zosi bo'lgan barcha davlatlar Xavfsizlik Kengashi ixtiyoriga ko'zda tutilgan qurolli kuchlarni yetkazib berishi va ularning faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi shart. Buning uchun maxsus bitimlar tuziladi. Bunday choralarni amalga oshirishda Xavfsizlik Kengashiga ko'maklashish maqsadida doimiy a'zo davlatlar vakillaridan iborat Harbiy Shtab qo'mitasi tuzilgan.

BMT Xavfsizlik Kengashi tarkibi uning vazifasi va vakolatlari ko'lamidan kelib chiqib belgilangan. Xavfsizlik Kengashi 15 a'zodan: beshta doimiy (Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSH va Fransiya) va o'nta muvaqqat a'zolardan iborat. Muvaqqat a'zolarni Bosh Assambleya ikki yil muddatga saylaydi va ularni zudlik bilan qayta saylash mumkin emas. Bu a'zolarni saylashda nafaqat adolatli jug'rofiy taqsimot, balki tinchlikni qo'llab-quvvatlash va BMTning boshqa maqsadlarini ro'yobga chiqarish borasida davlatlar ishtiroki darajasidan ham kelib chiqiladi.

Protседuraga tegishli masalalar bo'yicha qarorlar Xavfsizlik Kengashi a'zolarining ko'pchilik — to'qqizta ovozi asosida qabul qilinadi. Shuningdek, boshqa masalalar yuzasidan ham kamida to'qqiz ovoz yig'iladi, bu ovozlarning sirasida albatta doimiy a'zolarining ovozlari bo'lishi shart.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash (EKOSOS) BMT Ustavidagi «Xalqaro iqtisodiy va ijtimoiy hamkorlik» nomli IX bobda bayon etilgan vazifalar ijrosi uchun mas'ul hisoblanadi. U har yili Bosh Assambleya uch yil muddatga saylaydigan 54 a'zodan iborat.

EKOSOS iqtisodiy va ijtimoiy soha, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi turli eng muhim sohalarda xalqaro masalalar bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi va ma'ruzalar tayyorlaydi. EKOSOS bunday masalalarning har biri yuzasidan Bosh Assambleyaga, BMT a'zolari va ixtisoslashgan muassasalariga tavsiyalar kiritishi mumkin. BMT Ustavida inson huquqlari sohasiga doir tavsiyalar kiritish huquqi alohida belgilab qo'yilgan. Bosh Assambleya sessiyalarida qabul qilinadigan qarorlarning yarmidan ko'prog'i, odatda, EKOSOS sohasiga taalluqli bo'ladi. EKOSOS Bosh Assambleyaga konvensiya loyihalarini taqdim etishi mumkin.

EKOSOS ixtisoslashgan muassasalar bilan o'zaro bitimlar tuzadi va ularning faoliyatini muvofiqlashtirib turadi, ulardan ma'ruzalar olish vakolatiga ega sanaladi. BMT a'zolari bilan tuzilgan bitimlarga muvofiq, EKOSOS ulardan o'z tavsiyalari, shuningdek, Bosh Assambleyaning tegishli sohalarda bo'yicha tavsiyalarining ijrosi to'g'risida ma'ruzalar olishi mumkin. EKOSOS bunday ma'ruzalar yuzasidan o'z mulohazalarini a'zo davlatlarga, shuningdek, Bosh Assambleyaga taqdim etishi mumkin. Bu nazorat faoliyati EKOSOSning salohiyatini sezilarli darajada yuksaltirib turadi. Xavfsizlik Kengashi taklifiga binoan, EKOSOS faoliyatning tegishli sohalari bo'yicha unga ko'maklashishga majburdir. EKOSOSning o'zi shug'ullanadigan masalalar yuzasidan manfaatdor bo'lgan nohukumat tashkilotlar bilan aloqalari alohida ahamiyat kasb etadi. Tegishli hukumat bilan maslahatlashuvlardan keyingina milliy nohukumat tashkilotlar bilan aloqa bog'lash mumkin.

Vasiylik Kengashi qaram hududlarni boshqarish uchun tuzilgan vasiylik tizimini nazorat qilib turish maqsadida ta'sis etilgan. 1975-yildayoq barcha qaram hududlar mustaqillikka erishgani tufayli bunday kengashga bo'lgan zarurat barham topdi.

BMT Kotibiyati — BMTning o'ta muhim organidir. Kotibiyat xodimlarini BMT Bosh kotibi tayinlaydi. Bunda xodimlarni iloji boricha kengroq jug'rofiy asoslar bo'yicha tanlab olishga e'tibor qaratish ayni muddaodir. Kotibiyat xodimlari xalqaro miqyosdagi xodimlar hisoblanadi va hukumatdan topshiriqlar olmasligi kerak. Kotibiyatning asosiy vazifasi BMT faoliyati yo'lida xizmat ko'rsatish, shu jumladan zarur hujjatlarni tayyorlash va uning organlari qarorlarining hayotga tatbiq etilishiga ko'maklashishdan iborat. Keyingi yillarda Bosh kotib vakillarining «olovli nuqtalar»dagi vaziyatni o'rganish borasidagi faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lmoqda.

BMT Bosh kotibi har yili Bosh Assambleyaga BMT faoliyati to'g'risida hisobot taqdim etadi va unda BMT faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan o'z tavsiyalarini bayon etadi.

Xalqaro sud faoliyatining huquqiy negizini BMT Ustaviga uning uzviy qismi sifatida kiritilgan ushbu Sud statuti tashkil etadi. Xalqaro

sud Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi tomonidan 9-yil muddatga saylanadigan 15 nafar sudyadan iboratdir. Sudyalarning yuksak axloqiy va kasbiy sifatlarga ega bo'lishi taqozo etiladi. Sud tarkibi to'lig'icha olganda tsivilizatsiyaning eng muhim shakllari va dunyoning asosiy huquqiy tizimlari vakilligini ta'minlaydi.

Muayyan ishning ko'rib chiqilishida Xalqaro sud to'liq tarkibda ishtirok etishi mumkin yoxud nizolashayotgan tomonlarning iltimosiga binoan, mazkur ish uch yoki undan ortiq sudyalar tarkibidan iborat palataga ko'rib chiqish uchun topshiriladi.

Davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish barobarida Xalqaro sud Assambleya va Xavfsizlik Kengashi so'rovi bo'yicha konsultativ xulosalar ham chiqaradi. O'tgan yillar davomida 20 dan ortiq shunday xulosalar chiqarilgan. Ular BMTga a'zolik, shartnomalarni talqin etish, Bosh Assambleya vakolatlari, Namibiyaning maqomi va shu kabi boshqa bir qator masalalarga taalluqlidir.

BMT va uning mansabdor shaxslari Tashkilot maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan hamda o'zlarining Tashkilot faoliyati bilan bog'liq vazifalarini mustaqil bajarishlari uchun zarur hisoblangan imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadi. BMT huzurida davlatlarning doimiy vakolatxonalari va ularning xodimlari to'liq diplomatik imtiyozlar va immunitetlardan foydalanadi.

BMT tizimiga, shuningdek, ixtisoslashgan muassasalar ham kiradi. BMTning ixtisoslashgan muassasalari alohida sohalari va BMT bilan bog'liq holda hamkorlikni amalga oshiruvchi universal mazmundagi hukumatlararo tashkilotlardir. BMT Ustavining 57- moddasida ularning quyidagi o'ziga xos jihatlari sanab o'tilgan:

1. Shunday tashkilotlar tuzish to'g'risidagi bitimlarning hukumatlararo mazmunda bo'lishi.

2. Shu tashkilotlar ta'sis hujjatlari doirasida keng ko'lamli xalqaro javobgarlik.

3. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, gumanitar va boshqa shu kabi alohida sohalarda hamkorlikni amalga oshirish.

4. BMT bilan aloqalar.

Hozirgi kunda BMTning 17 ta ixtisoslashgan muassasasi mavjud bo'lib, ular quyidagi guruhlarga mansub:

1) ijtimoiy mazmundagi tashkilotlar (Xalqaro mehnat tashkiloti — MOT, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti — VOZ);

2) madaniy va gumanitar mazmundagi tashkilotlar (Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti — YUNESKO, Butun Jahon intellektual mulk tashkiloti — BIMT);

3) iqtisodiy tashkilotlar (Sanoat taraqqiyoti bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti — YUNIDO);

4) moliya tashkilotlari (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki — XTTB, Xalqaro valyuta jamg'armasi — XVJ, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi — XTA, Xalqaro moliya korporatsiyasi — XMK, Investitsiyalar kafolatlari bo'yicha ko'p tomonlama agentlik — IKKA);

5) qishloq xo'jaligi sohasiga doir tashkilotlar (Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti — FAO, Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi — IFAD);

6) transport va aloqa sohasiga doir tashkilotlar (Xalqaro Fuqaro aviatsiyasi tashkiloti — IKAO, Xalqaro dengiz tashkiloti — IMO, Jahon pochta ittifoqi — JPI, Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi — MES);

7) metereologiya sohasiga doir tashkilot (Jahon metereologiya tashkiloti — JMT).

10-§. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti

Budapesht kengashining 1994-yildagi qaroriga muvofiq, Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashi (EXHK) Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) sifatida qayta tashkil etildi. Qarorda YXHTning quyidagi maqsadlari belgilab berildi:

1) yalpi xavfsizlik hududlarini yaratish yo'lida norma va standartlardan qat'iyat bilan foydalanish;

2) YXHKning barcha majburiyatlari bajarilishini ta'minlash;

3) maslahatlashish, qarorlar qabul qilish va hamkorlik qilish uchun forum vazifasini o'tash;

4) preventiv diplomatiyani kuchaytirish;

5) nizo va mojrolarni tartibga solish va tinchlik o'rnatish operatsiyalarini amalga oshirish layoqatini yanada oshirish;

6) qurollar va qurolsizlanish bo'yicha nazoratni amalga oshirish yo'li bilan xavfsizlikni mustahkamlash;

7) inson huquqlari sohasidagi faoliyatni rivojlantirish.

Mustahkam bozor iqtisodiyotini joriy etish yo'lida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat maqsad, ayniqsa e'tiborga sazovordir.

YXHTga Yevropa mamlakatlari, AQSH, Kanada, shuningdek, MDHning barcha davlatlari, shu jumladan, Osiyoda joylashgan davlatlar ham a'zo hisoblanadi.

YXHTning oliy organi — *Davlatlar va hukumatlar boshliqlari kengashidir. Tashqi ishlar vazirlaridan tashkil topgan Vazirlar kengashi* qarorlar qabul qilish va YXHTni boshqarishda muhim o'rin tutadi. *Boshqaruv kengashi* siyosatni muhokama etadi va shakllantiradi, budjetga oid umumiy masalalarni hal etadi, shuningdek, iqtisodiy masalalarni muhokama etishda o'ziga xos forum bo'lib xizmat qiladi.

Doimiy kengash siyosiy konsultatsiyalar o'tkazish va qarorlar qabul qilish organidir. U a'zo davlatlarning doimiy vakillaridan tashkil top-

gan. Ijro faoliyati uchun yalpi javobgarlik amaldagi rais zimmasiga yuklangan bo'lib, unga vakillar «uchligi» ko'maklashib turadi. YXHT Bosh kotibi — asosiy ma'muriy shaxs hisoblanadi.

1991-yilda a'zo davlatlar parlamentlararo hamkorligi organi bo'lmish YXHT Parlament Assambleyasi ta'sis etilgan.

Bugun YXHT 55 ishtirok etuvchi davlat uchun universal va mahbul hisoblanib, u umumiy qadriyatlarni ma'qullaydigan mamlakatlar oilasidir.

O'zbekiston Respublikasi YXHT a'zoligiga 1992-yil 30-yanvarda qabul qilingan edi. O'zbekiston ushbu obro'li xalqaro tashkilot a'zosining barcha majburiyatlarini o'z zimmasiga oldi.

O'zbekiston YXHT oliy darajadagi uchrashuvlarda: YXHT ishtirok etuvchi davlatlari boshliqlari sammitida (ikki yilda bir marta o'tkaziladi), ishtirok etuvchi davlatlar tashqi ishlar vazirlarining har yilgi uchrashuvlarida, YXHT Parlament Assambleyasi sessiyalarida (Kopengagenda) faol qatnashmoqda. Bundan tashqari, O'zbekistonning Varshavadagi YXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari byurosi bilan hamkorligi rivojlanmoqda.

«O'zbekiston Umumevropa jarayoniga qo'shilib yadrosiz dunyoga sodiqligini bayon etadi va o'zaro davlatlararo munosabatlarda kuch bilan tahdid solish, har qanday ishlatish usullari istisno etilishiga umid qiladi. Barcha masalalar faqat siyosiy, o'zaro kelishuv vositalari yordamida hal etiladi. Biz YXHTga rasmiy qo'shilib millatlar va xalqlar oldida o'z zimmasiga olayotgan yuqori mas'uliyatni anglaymiz»¹.

«Insoniylik mezonlari» atamasi (Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti) ishtirok etuvchi davlatlarining o'z zimmalariga olgan inson huquqlari va asosiy erkinliklari hurmat qilinishini ta'minlash, qonun ustuvorligiga rioya qilish, demokratiya prinsiplari qaror topishiga ko'maklashish va shu bilan bog'liq holda demokratik institutlarini barpo etish, mustahkamlash va himoya, qilish, shuningdek, butun YXHT mintaqasida sabr-toqat muhitini yaratish majburiyatlarini anglatadi.

Insoniylik mezonlari kompleks tushuncha bo'lib, u har qanday davlat rivojlanishining ham iqtisodiy, ham demokratik ko'rsatkichlarini qamrab oldi. YXHT bu ko'rsatkichlarga barqarorlik va xavfsizlik kafolatlari sifatida rioya etishga alohida e'tibor bermoqda.

Bunda inson huquqlariga rioya etilishi va fuqarolik jamiyatini qurishni ta'minlash mexanizmlari ijtimoiy portlashlar hamda fuqarolik va elatlararo mojarolarning oldini olish chora-tadbirlar borasida birinchi o'rinda turadi.

YXHT normalari barcha ishtirok etuvchi davlatlarga nisbatan amal

¹ Xalq so'zi, 1992-yil 28-fevral.

qiladi: barcha qarorlar konsensus asosida qabul qilinganligi tufayli bironta ishtirok etuvchi davlat o'ziga taalluqli bo'lmagan qandaydir majburiyatlarni tasdiqlashga haqli emas. YXHTning insoniylik mezonlari masalalaridagi strategiyasi shu bilan universalki, uning xavfsizlikni ta'minlashga nisbatan hamkorlikka asoslangan yondashuvi o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini bajara olmaydigan davlatni yakkalab qo'yishga emas, balki unga ko'mak berishga qaratilgandir. Xelsinki Yakunlovchi hujjatida bayon etilgan majburiyatlar va rahbariy prinsiplar YXHT kelgusi uchrashuvlarida chorak asr davomida o'zining rivojini topdi. Insoniylik mezonlari nuqtayi nazaridan Madrid va Vena uchrashuvlari alohida ahamiyatga ega. Vena uchrashuvida (1986-yil 4-noyabr — 1989-yil 19-noyabr) «YXHT insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyani» bu sohadagi ishlarining holatini ko'rib chiqishga qaror qilindi. Konferensiya uch bosqichda Parijda (1989-yil 30-may — 23-iyul), Kopenhaga (1990-yil — 5—29-iyun) va Moskvada (1991-yil 10 sentabr — 4-oktabr) o'tkazildi. Kopenhagen hamda Moskva bosqichlari insoniylik mezonlari bo'yicha yangi majburiyatlardan iborat hujjatlarni qabul qilish bilan yakunlandi.

Shunday qilib, 1975-yilgi Xelsinki Yakunlovchi hujjati imzolangan paytdan boshlab, YXHTning soni oshib borayotgan bir qancha hujjatlari qabul qilindi¹. Xalqaro huquqqa muvofiq YXHT hujjatlari yuridik majburiy hujjatlar tusiga ega emas. Shunga qaramasdan ular konsensus orqali ma'qullangan, barcha ishtirok etuvchi davlatlar uchun siyosiy majburiyatlar hisoblanadi.

11-§. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi

Hamdo'stlik 1991-yil 8-dekabrda imzolangan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligini tuzish to'g'risidagi bitim va unga 21-dekabrda qo'shimcha Protokolga muvofiq tashkil topgan. Bu hujjatlarni Armaniston, Belorussiya, Gruzziya, Moldaviya, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Turkmaniston, Ukraina, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston qabul qilgan. 1993-yil yanvarida Armaniston, Belorussiya, Gruzziya, Moldaviya, Ozarbayjon, Rossiya, Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va O'zbekiston MDH Ustavini imzolagan. Shunday qilib, Turkmaniston va Ukraina uchun faqat 1991-yil 8—21-dekabrda bitimgina ta'sis hujjati hisoblanadi.

MDH Ustavi 2-moddasiga muvofiq Hamdo'stlikning maqsadlari quyidagilardan iborat:

¹ Qarang: Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining insoniylik mezonlari bo'yicha hujjatlari/ Mas'ul muharrir A. X. Saidov. Toshkent, 2002.

1. Siyosiy, iqtisodiy, ekologik, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni amalga oshirish.

2. Umumiy iqtisodiy makon yaratish.

3. Umume'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari hamda YXHT hujjatlariga muvofiq inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlash.

4. Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash hamda qurol-sizlanishni amalga oshirish yo'lida a'zo davlatlarning o'zaro hamkorlik qilishi.

5. Hamdo'stlik doirasida erkin muloqotda bo'lish, o'zaro aloqa qilish va harakatlanish uchun ko'maklashish.

6. O'zaro huquqiy yordam ko'rsatish va huquqiy munosabatlarning boshqa sohalorida hamkorlik qilish.

7. Hamdo'stlik o'z faoliyatini umume'tirof etilgan xalqaro huquq prinsiplari asosida amalga oshirishi zarur. Xususan, MDH Ustavida Xelsinki yakunlovchi hujjati o'nta prinsipining hammasi sanab o'tilgan. MDH Ustavida, shuningdek, quyidagilar ko'zda tutilgan:

— davlatlararo munosabatlarda xalqaro huquqning ustunligi prinsipi;

— bir-birlarining va yaxlit Hamdo'stlikning manfaatlarini hisobga olish prinsipi;

— sa'y-harakatlarni birlashtirish va bir-birlarini qo'llab-quvvatlash prinsipi;

— a'zo-davlatlar xalqlarining o'ziga xosligini hurmat qilish negizida ularning ma'naviy hamjihatligi prinsipi;

— madaniy qadriyatlarni va madaniy almashinuvlarni saqlab qolish yo'lida yalpi hamkorlik prinsipi.

Hamdo'stlik davlat hisoblanmaydi va u milliy doiradagi vakolatlariga ega emas. U xalqaro huquqning teng huquqli subyektlari bo'lgan barcha a'zolarining suveren tengligi negizida asos solingan davlatlar birlashmasidir. MDH Ustavining 4-moddasida umuman olganda Hamdo'stlikka xos manfaatlar mavjudligi e'tirof etiladi hamda 1991-yildagi Minsk bitimini hisobga olgan holda shakllantirilgan a'zo davlatlar qo'shma faoliyatining sohalari belgilab beriladi.

Ularga, xususan, quyidagilar kiradi:

1. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlash.

2. Tashqi siyosiy faoliyatni muvofiqlashtirish.

3. YALpi iqtisodiy makonni, Umumevropa va Yevroosiyo bozorlarini shakllantirish hamda rivojlantirish yo'lida hamkorlik hilish.

4. Bojxona siyosati.

5. Transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish yo'lida hamkorlik.

6. Sog'liqni saqlash va atrof-muhit muhofazasi.

7. Ijtimoiy siyosat va migratsiya masalalari.

8. Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash.

9. Mudofaa siyosati va tashqi chegaralarni qo'riqlash sohasi bo'yicha hamkorlik qilish.

Ushbu ro'yxat a'zo davlatlarning o'zaro kelishuvi asosida to'ldirilishi mumkin.

Qayd etilganlardan quyidagi bir necha xulosalarni qayd etish lozim:

1) Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga xalqaro hukumatlararo tashkilot sifatida qaralmog'i kerak, chunki unga amalda universal xalqaro e'tirofga sazovor bo'lgan mustaqil davlatlar kiradi;

2) MDH ishtirokchi davlatlarini dunyoning aksariyat davlatlari de yure (de jure) e'tirof etgan, tashkilotdan tashqarida ular BMTning to'laqonli a'zolari hisoblanadi, u ko'plab ixtisoslashgan muassasalari tarkibiga, shuningdek, boshqa xalqaro hukumatlararo tashkilotlarga kirgandir;

3) MDHga a'zo har bir davlat dunyoning boshqa ko'plab davlatlari bilan diplomatik munosabatlarni amalga oshiradi;

4) MDH faoliyatining huquqiy asosini a'zo davlatlar har bir tomon konstitutsiyasi talablarini hisobga olgan holda va xalqaro shartnomalar huquqi to'g'risida Vena konvensiyasi (1969-yil) qoidalariga muvofiq imzolagan hamda ratifikatsiya qilgan xalqaro shartnomalar tashkil etadi.

MDHning maqsadi davlatlarning barcha sohalar bo'yicha keng hamkorligini ta'minlashdan iborat. U o'z a'zolarining umumiy iqtisodiy makon doirasida har tomonlama hamda muvozanatli iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini, integratsiyalashuvini ta'minlashga qaratilgan. Bosh maqsadlar sifatida xalqaro huquqqa muvofiq ravishda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, a'zo davlatlar fuqarolariga MDH hududi doirasida erkin muloqot qilish va harakatlanish borasida ko'maklashish ko'zda tutilgan.

MDHning ta'sis hujjatlarida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari, shuningdek, davlatlararo munosabatlarda xalqaro huquqning ustunligi asosiy prinsiplar sifatida qayd etilgan. Hamdo'stlik doirasidagi bitimlarga nisbatan Ustavda mustahkamlangan majburiyatlarning ustunligi belgilangan.

MDHga a'zo bo'lishni istagan davlat uning Ustavidan kelib chiqadigan majburiyatlarni qabul qilishi va barcha a'zolarining roziligini olishi zarur. Shuningdek, Tashkilotning ayrim faoliyat yo'nalishlarida ishtirok etishni istovchi davlatlar uchun assotsiatsiyalashgan a'zolik imkoniyati ham ko'zda tutilgan.

A'zo davlat Ustavni buzgan, MDH doirasida tuzilgan bitimlar bo'yicha majburiyatlarini yoki Hamdo'stlik organlari qarorlarini muntazam ravishda bajarmay kelayotgan bo'lsa, unga nisbatan xalqaro huquqda yo'l qo'yiladigan choralar qo'llanishi mumkin.

MDH Ustavida bir qator organlarni tuzish ko'zda tutilgan. Eng yuqori organlar — *Davlatlar rahbarlari kengashi va Hukumatlar boshliqlari kengashi* bo'lib, ular o'ta muhim masalalarni hal etadi. Har ikkala organ qarorlari konsensus asosida qabul qilinadi. Ammo har qanday davlat muayyan masaladan manfaatdor emasligi haqida bayonot berishi mumkin va bunday hollarda bu davlatning roziligi talab etilmaydi. Ikkala organ ham ishchi va yordamchi organlar tuzish huquqiga ega.

Tashqi siyosiy faoliyatni Davlatlar rahbarlari kengashi va Hukumatlar boshliqlari kengashi qarorlariga muvofiq, *Tashqi ishlar vazirlari kengashi* muvofiqlashtirib turadi.

Davlatlar rahbarlari kengashining harbiy siyosat va harbiy qurilish masalalari bo'yicha organi *Mudofaa vazirlari kengashidir*. *Chegara qo'shinlari qo'mondonlari kengashi* a'zo davlatlarning tashqi chegaralarini qo'riqlash masalalari bilan shug'ullanadi.

Davlatlar rahbarlari kengashining qarori bilan Hamdo'stlik organlari tarkibiga *Ijroiya qo'mitasi* kiritilgan.

Inson huquqlari bo'yicha komissiya ushbu sohadagi majburiyatlarining bajarilishini kuzatib boruvchi konsultativ organ sanaladi.

MDH Ustavida, shuningdek, sezilarli darajada mustaqil faoliyat ko'rsatish imkoniga ega bo'lgan tarmoqlar bo'yicha hamkorlik organlari ham ko'zda tutilgan. Bular MDHga a'zo mamlakatlarning alohida tarmoqlar bo'yicha hamkorligiga rahbarlik qilish uchun tuziladigan kengashlar va qo'mitalardir. Bunday organlar 1991-yilning dekabridanoq (masalan, Temir yo'l transporti bo'yicha kengash) tuzila boshlangandi. Hozir ularning soni 50 tadan oshgan. Ularning har biri Hukumat boshliqlari kengashi tasdiqlaydigan o'z nizomlariga muvofiq ravishda ishlaydi. Tarmoqlar bo'yicha hamkorlik organlari tarkibiga qoida bo'yicha tegishli tarmoqlarning birinchi shaxslari kiradi.

MDH *Parlamentlararo Assambleyasi* 1995-yildagi Konvensiya asosida faoliyat ko'rsatadi. Assambleya asosan keyinchalik a'zo mamlakatlarning parlamentlariga ko'rib chiqish uchun yuboriladigan model qonun hujjatlarini tayyorlash bilan shug'ullanadi.

MDH Iqtisodiy sudi 1995-yildagi Iqtisodiy sud maqomi to'g'risidagi bitim asosida ishlaydi. U a'zo davlatlar tayinlaydigan sudyalardan iborat bo'lib, mustaqil emas. Sud tizimida a'zo mamlakatlar oliy iqtisodiy (xo'jalik) sudlari rahbarlaridan iborat Plenum faoliyat ko'rsatadi. Iqtisodiy sud qarori ustidan Plenumga shikoyat bilan chiqish mumkin. Sud iqtisodiy majburiyatlarni ado etish chog'ida davlatlar o'rtasida yuzaga keladigan nizolarni hal etadi. Shu bilan birga, a'zolar boshqa xil nizolarni ham ushbu sudning yurisdiksiyasiga kiritishi mumkin. Sud bitimlar va Hamdo'stlikning boshqa hujjatlarini rasmiy sharhlaydi.

Iqtisodiy sud qarorlari nizolashayotgan tomonlar uchun majburiy

va pretседentlik mazmuniga ega emas. Iqtisodiy sud o'z vazifalarini bajarishda, ayniqsa, MDH hujjatlarini sharhlash borasida juda faollik ko'rsatmoqda.

MDH o'z taraqqiyotining ancha-muncha yo'lini bosib o'tdi. 1993-yilning o'rtalaridan boshlab integratsion mazmundagi choralar qo'llanila boshlangan. 1993-yilning sentabrida Iqtisodiy ittifoq tuzish to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Shartnomaga muvofiq, Iqtisodiy ittifoqning maqsadi etib bosqichma-bosqich ravishda bozor munosabatlari asosida umumiy iqtisodiy makon yaratish ko'zda tutilgan. Tegishli bosqichlar sifatida Erkin savdo assotsiatsiyasi, To'lov ittifoqi, Valyuta ittifoqi, Boj-xona ittifoqini tuzish belgilandi. Hozircha faqat Erkin savdo assotsiatsiyasi tashkil etilgani haqidagina ishonch bilan gapirish mumkin.

12-§. Xalqaro konferensiyalar

Xalqaro konferensiya — vaqtinchalik xalqaro tashkilot bo'lib, o'z oldiga qo'yilgan masalalarni muhokama etadi va o'zaro kelishilgan qarorlar qabul qiladi.

Siyosiy masalalarni muhokama qiladigan konferensiyalar bilan birga qator konferensiyalar kodifikatsion konvensiyalarni qabul qilish uchun chaqiriladi. Masalan, 1961-yildagi Diplomatik munosabatlar haqidagi Vena konferensiyasi, 1974-yildan 1982-yilgacha ishlab turgan Dengiz huquqi bo'yicha konferensiya shular jumlasidandir.

Keyingi yillarda «konferensiya» atamasi o'mniga, hatto unda ko'pchilik mamlakatlar qatnashayotgan bo'lsa-da, «kengash» atamasini ishlatish tobora urf bo'lib bormoqda (Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik bo'yicha umumevropa kengashi). Atamalaridagi bunday har xillik yuridik jihatdan hech qanday ahamiyatga ega emas.

Ko'plab ishtirokchilar qatnashgan konferensiyalarda tamomila puxta qoidalar qabul qilinadi. Ortiqcha ishlarga chalg'imaslik uchun BMT Bosh Assambleyasining protseduraviy qoidalari asos sifatida qabul qilinadi. Rais, qo'mitalar, qo'mitachalar, ishchi guruhlari, kotibiyatdan iborat ancha murakkab tashkiliy tizim tuziladi.

Protседuraga oid qoidalarda ovoz berish va qarorlar qabul qilish tartibi belgilangan bo'ladi. Cheklangan tarkibdagi kengashlarda qarorlar aksar holda konsensus usulida, ba'zan bir ovozdan qabul qilinadi. Yalpi konferensiyalarda protsedura masalalari anjumanda hozir bo'lgan va ovoz berishda ishtirok etayotganlarning oddiy ko'pchiligi ovozi asosida hal etiladi. Bu — anjumanda qatnashmayotganlar va betaraflar hisobga olinmaydi, deganidir. Yakuniy matn, odatda, uchdan ikki qism ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi.

Cheklangan tarkib uchrashuvlarining qarorlari, odatda, qo'shma bayonot yoki kommyunike tarzida rasmiylashtiriladi. Kengroq ko'lamdagi

konferensiyalar ish yakunlari va qabul qilingan qarorlar matnini o'zida mujassam etgan yakunlovchi aktlarni qabul qiladi. Xalqaro konferensiyalar rezolyutsiyalari yuridik jihatdan majburiy hisoblanmasa-da, vijdoniylik prinsipining ta'siri o'laroq, ularni ma'naviy-siyosiy majburiyat sifatida ishtirokchilar hurmat qiladilar.

Xalqaro munosabatlar amaliyotida iqtisodiy masalalar bilan bir qatorda, keng ko'lamdagi xalqaro munosabatlar masalalari bo'yicha davlatlar rahbarlarining oliy darajadagi kengashlaridan («katta sakkizlik»ning har yilgi uchrashuvlari) tobora ko'proq foydalanilayotir. Bunday kengashlarni o'tkazishda, odatda, maxsus protseduralarga amal qilinmaydi.

Hozirgi zamon xalqaro huquqida xalqaro konferensiya har qaysisi bittadan ovozga ega bo'lgan kamida uchta davlatning rasmiy vakillaridan tashkil topgan, uchinchi davlatlar, hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarning (ovoz huquqiga ega bo'lmagan) kuzatuvchilari ishtirok etishi mumkin bo'lgan, ishtirokchi davlatlar kelishib olgan maqsadlarni ko'zda tutuvchi hamda, qoidaga ko'ra, protsedura qoidalarida qayd etilgan muayyan tashkiliy tuzilma va vakolatlariga ega muvaqqat jamoaviy organ tushuniladi.

Xalqaro konferensiyalarga qo'yiladigan asosiy talabga ko'ra, har qanday xalqaro konferensiyaning maqsadi va faoliyat yo'nalishi xalqaro huquqning asosiy prinsiplariga mos bo'lishi shart.

Hukumatlararo konferensiyalarning nomlanishidagi farqlar (syezd, kongress, konferensiya, kengash) yuridik ahamiyat kasb etmaydi.

Xalqaro konferensiyalarni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin: Xalqaro konferensiyalar, ishtirok etuvchi tomonlardan kelib chiqqan holda, hukumatlararo va nohukumat konferensiyalarga bo'linadi. Hukumatlararo konferensiyalar ko'p tomonlama diplomatiyaning bir turi va xalqaro muzokaralarning asosiy vakolatlaridan biri hisoblanadi, shuningdek, xalqaro huquq subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Ishtirokchilar doirasiga qarab, xalqaro konferensiyalar — universal — ishida har qanday davlat ishtirok etish huquqiga ega va mintaqaviy — ishida muayyan jug'rofiy hududga mansub davlatlar ishtirok etadigan konferensiyalarga bo'linadi.

Muhokamaga qo'yilgan masalalarning nechog'li muhimligi yoki ularning muhokama va hal etish uchun qanchalik tayyorligi, xalqaro konferensiyaga yo'llanadigan delegatsiyalar tarkibi kabi omillar bilan belgilanadigan xalqaro konferensiya darajasiga qarab, ularni davlat rahbarlari va hukumat boshliqlari (oliy darajadagi kengash), tashqi ishlar vazirlari, boshqa rasmiy shaxslar boshqaradi. Bu o'rinda har qanday holda ham delegatsiya rahbari davlat nomidagi chiqishga vakolatli ekanini asosiy omil hisoblanadi.

Xalqaro konferensiyalar davriy hamda ad hoc konferensiyalariga

bo'linadi. Davriy konferensiyalarni nafaqat xalqaro tashkilotlar organlarining (konferensiya, Assambleya) yalpi majlislaridan, balki ularning shu kabi davriy asosda ishlaydigan organlari (kengashlar va hokazolar) majlislaridan ham farqlash muhimdir.

Ad hoc konferensiyalari (tasodifiy, biror munosabat bilan o'tkaziladigan konferensiyalar) ko'pchilikni tashkil etadi. Ularni yoki xalqaro tashkilotlar (shularning doirasida yoinki *rahnamoligida*) yoki tashabbus bilan chiqqan davlatlar chaqiradi. Konferensiyaning xalqaro tashkilot doirasida yoki rahnamoligida chaqirilishi uning mustaqil xalqaro organi sifatidagi mazmunini o'zgartirmaydi.

Muhokama etiladigan masalalarga ko'ra tinch, siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va aralash konferensiyalar farqlanadi.

Protsedura qoidalaridagi huquqiy normalar, asosan, xalqaro konferensiya o'tkazish tartibining quyidagi jihatlarini tartibga soladi:

1) konferensiyani umumiy tashkil qilish: delegatsiyalar tarkibi, vakillar vakolatlari, ishchi organlarini (qo'mita va komissiyalarni) tuzish va faoliyat ko'rsatish tartibi, protokol yuritish, kotib va kotibiyat vazifalari;

2) raisning umumiy va alohida huquqlari: majlislarni ochish, to'xtatib turish va yopish, shuningdek, majlislardagi bahs-munozaralarga boshchilik qilish; majlislarda tartibni saqlash; majlisni olib borish tartibi bo'yicha qarorlar chiqarish hamda majlisning borishiga rahbarlikni amalga oshirish; so'zga chiquvchilarni e'lon qilish va to'xtatish;

3) delegatlarning alohida huquqlari: protsedura mazmunidagi takliflarni kiritish huquqi; boshqa delegatga javob qaytarish huquqi, majlisni olib borish tartibi yuzasidan takliflar kiritish huquqi;

4) takliflar kiritish va qarorlar qabul qilish usullari: takliflarni va ularga o'zgartirishlarni ko'rib chiqish tartibi, qarorlarni qabul qilishda ovoz hamda talab etiladigan ko'pchilik huquq; ovozlarni hisoblab chiqish usullari va ovoz berishga rahbarlik qilish, ovoz berish qoidalari.

Konferensiya protsedura qoidalarini yaratish mexanizmi (ularni ishlab chiqish, ularni tasdiqlash usuliga doir qarorlar qabul qilish va ularni tasdiqlash) konferensiyaning ishtirokchi davlatlariga bog'liqdir. Tasdiqlanganidan so'ng protsedura qoidalari majburiy mazmun kasb etadi va ishtirokchi davlatlar ularga rioya etishlari shart. Protsedura qoidalarini qo'llashning muhim jihatlaridan biri protseduraviy mazmundagi masalalar bo'yicha qaror qabul qilinishi hisoblanadi va bunday qarorlarni, qoidaga ko'ra, hozir bo'lgan hamda ovoz berishda ishtirok etayotgan davlatlarning oddiy ko'pchiligi qabul qiladilar.

Konferensiya ishi davomida davlatlar pozitsiyalarini moslashtirishning ikki xil jarayoni: predmetga taalluqli normalarga hamda ishtirokchilarning qabul qilinadigan normalar bo'yicha pozitsiyalarini moslashtirish tartibini yo'lga qo'yishiga qaratilgan jarayonlar kechadi.

Konferensiyaning protsedura normalari bilan konferensiya ishi davomida uning faoliyati bo'yicha ishlab chiqiladigan normalar yuridik kuchga egaligi jihatidan bir-biridan farq qilishi mumkin: protsedura normalari majburiy mazmunga ega, konferensiya faoliyati predmeti bilan bog'liq masalalar bo'yicha ishlab chiqiladigan qoidalar esa, tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lishi mumkin (ko'pincha ega bo'ladi ham). Ular tomonlarning qo'shimcha xohish-irodasi evazigagina majburiy kuch kasb etishi mumkin.

Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar xalqaro huquq nazariyasida xalqaro huquq subyektlari sifatida e'tirof etiladi hamda ularning imkoniyatlari yuridik layoqatiga ko'ra, xalqaro huquq bo'yicha huquq va majburiyatlarga ega bo'lishga, xalqaro-huquqiy normalarni yaratish va amalga oshirishda ishtirok etishga, xalqaro ommaviy munosabatlarga kirishishga qodir, deb qaraladi. Aksar hollarda xalqaro tashkilotlar va konferensiyalarni «xalqaro muassasalar» degan umumiy tushuncha bilan izohlashadi.

Xalqaro muassasalar o'z huquqiy tabiatiga ko'ra, xalqaro huquqning hosila subyektlari hisoblanadi va faqatgina huquq subyektiga xoslik layoqatiga ega bo'ladi. Bu layoqatning qo'llanishi va mazmuni xalqaro tashkilot va konferensiyalarning xalqaro shartnoma shaklidagi ta'sis hujjatlarida yuridik mustahkamlab qo'yiladigan iroda va istaklariga bog'liq bo'ladi. Xalqaro huquq va xalqaro munosabatlar prinsiplarining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, xalqaro muassasalar cheklangan huquqiy layoqatlilikka ega bo'lib, bunday layoqatlilik xalqaro huquqning ana shu subyektlarini davlatlarning tan olishini taqozo etadi.

Xalqaro tashkilotlar va konferensiyalar jamoaviy tuzilmalar sirasiga kiradi. O'zlarining hukmronlik vakolatlarini ro'yobga chiqarishda ular nisbatan mustaqil hamda bir-biriga va xalqaro huquqning boshqa subyektlariga tobe emas. Xalqaro-huquqiy munosabatlarda o'z nomidan ish ko'rar ekan, ularning har biri mustaqil xalqaro-huquqiy maqomga egadir.

Ta'kidlash joizki, muzokaralar, xalqaro konferensiyalar va xalqaro tashkilotlar kabi institutlar o'rtasidagi chegaralar o'ta o'zgaruvchan bo'lib, ularni aniq belgilash juda mushkul. Xalqaro konferensiyalar — muzokaralardan, xalqaro tashkilotlar esa, konferensiyalardan kelib chiqqan bo'lishiga qaramay, ushbu institutlarning har biri o'z ahamiyatini yo'qotmagan va xalqaro munosabatlarda ham, xalqaro huquqda ham nisbatan mustaqil rivojlanishda davom etmoqda. Bundan tashqari, ular o'zlari kelib chiqqan o'sha institutga xos ayrim jihatlarni saqlab kelyapti hamda ular bilan yonma-yon faoliyat ko'rsatyapti. Masalan, bugun ham konferensiyalar, ham tashkilotlar doirasida konferensiyalar bajaradigan ba'zi bir vazifalarni ushbu tashkilotlarning oliy vakolatli organlari ado

etayotir. Ammo, bu — bir institutning o‘rmini boshqasi qoplashi, bir institutni boshqasi bilan almashtirish mumkin, degani emas. Masalan, konferensiyalar va tashkilotlar doirasida o‘tkaziladigan muzokaralar bevosita manfaatdor vakillar o‘rtasidagi muzokaralardan farq qiladi, chunki birinchi va ikkinchi holatda muzokaralar muayyan me‘yorda majburiy protsedura normalariga hamda bunday muzokaralarning rasmiy qismiga asos sifatida shu normalarda ko‘zda tutiladigan tashkiliy shakllarga bog‘liq bo‘ladi.

Hozirgi kunda xalqaro konferensiyalar ko‘pincha qarorlar qabul qilish bilan yakun topadi. Qarorlar qabul qilish jarayonining samaradorligini imkon qadar oshirish maqsadida uning faoliyat reglamentatsiyasiga taalluqli qoidalar konferensiyaning protsedura qoidalariga kiritiladi. Qarorlar qabul qilishga ko‘maklashuvchi mexanizm va ularni chiqarish shakli konferensiya maqsadlariga, uning protsedura qoidalariga hamda uzoq yillar mobaynida shakllangan odatiy amaliyotga bog‘liqdir.

Qarorlar qabul qilish bo‘yicha aniq protseduralarni uch tizim tarkibida guruhlantirish mumkin. Bular: «an‘anaviy», «konsensual» va «kombinatsiyalangan» («qurama») tizimlardir.

«An‘anaviy» deganda, ishtirokchi davlatlar irodasini aniqlashning asosiy usuli sifatida ovoz berishni ko‘zda tutuvchi tizim tushuniladi. «An‘anaviy» tizimni qo‘llash chog‘ida qarorlar ko‘pchilik (oddiy yoki malakali) ovoz bilan qabul qilinadi. Har qaysi delegatsiya konferensiyada bir ovozga ega bo‘ladi. Ushbu qoidada, xususan, davlatlar o‘rtasidagi tenglik prinsipi namoyon bo‘ladi. Ovoz berish ochiq yoki yopiq yo‘l bilan amalga oshirilishi mumkin. Yopiq ovoz berish yo‘li bilan, odatda, saylovlar o‘tkaziladi. Ochiq ovoz berish qo‘l ko‘tarish orqali yoki nomma-nom (shu jumladan, kompyuter yordamida) amalga oshiriladi. Nomma-nom ovoz berish kuchlar joylashuvining real ahvolini aniqlash imkonini yaratadi.

«Konsensual» tizimga ishtirokchi davlatlarning nuqtayi nazarlarini ovoz berishsiz va qarorlarni yalpisiga qabul qilish uchun rasmiy e‘tiroz mavjud bo‘lmagan holatda bir-biriga yaqinlashtirish yo‘li xos hisoblanadi. Bu — shunday qarorlar ishlab chiqiladiki, ularga konferensiyaning barcha ishtirokchilari rozilik bildirishi mumkin, deganidir. Ammo, alohida hollarda, mavjud kelishilgan qarorga yalpisiga rozilik bildirar ekan, konferensiya ishtirokchilari protokol qaydnomasida yoki yakunlovchi hujjatda o‘zlari muhim deb hisoblagan shartlarni (ogovorka) qayd etadilar.

Qarorlar qabul qilishning «qurama» tizimi «konsensual» va «an‘anaviy» tizimlarning omuxtasidir. U barcha ishtirokchi davlatlarning ovoz berishsiz hamjihat bir qarorga kelishlari uchun mavjud barcha imkoniyatlarning namoyonidir. «Konsensual» va «qurama» tizim-

lari — bular ham tegishli bosqichlardan tashkil topgan va aniq maqsadga yo'naltirilgan jarayonlardir, ammo shu bosqichlarning tuzilishi va davomiyligi farqli jihatlariga ega. Eng davomli bosqich (asosan konferensiya doirasida o'tadigan)— qarorlar matnini tayyorlashdir.

Umumiy qoidaga ko'ra, xalqaro konferensiya ishidan ko'zda tutilgan maqsadga erishilgach, ya'ni u yoki bu bitim imzolangandan keyin yoki muzokaralar ishtirokchilari davlatlar nuqtayi nazarlaridagi murosasizlik tufayli kelishuv mumkin emasligi to'g'risidagi xulosaga kelgandan so'ng konferensiya tugagan hisoblanadi. Birinchi holatda konferensiyaning tugashi, odatda, yakunlovchi hujjat yoki barcha ishtirokchilar imzolagan protokol bilan rasmiylashtiriladi.

Konferensiyalarda asosan ikki turdagi: joriy ishlar mazmunini bayon etuvchi va ularning yakuni bo'yicha materiallardan iborat hujjatlar qabul qilinadi.

Birinchi turga — majlis protokollari, ikkinchisiga esa xalqaro-huquqiy mazmundagi hujjatlar (shartnomalar, konferensiyalar va boshqalar) mansubdir.

Xalqaro huquqda konferensiya hujjatlarining qandaydir majburiy bir shaklini joriy etuvchi normalar mavjud emas. Ammo, uzoq yillik amaliyot mavjudki, uning natijasi o'laroq, ayrim nomlar konferensiyalarda qabul qilinadigan muayyan turdagi hujjatlar uchun nisbatan doimiy bo'lib qolgan. Masalan, konferensiyaning ifodalovchi asosiy faktlarni o'zida jamlagan hujjatlarni aksar hollarda yakunlovchi hujjat, deb atashadi. Qoidaga ko'ra, xalqaro huquq normalarini yaratishga qaratilgan konferensiya hujjatlari, odatda, konferensiya, deb ataladi, davlatlarga yoki xalqaro tashkilotlarga tavsiyalardan iborat hujjatlar esa rezolyutsiya, deyiladi.

Konvensiyalar. Diplomatik konferensiya, xususan, siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, huquqiy, ijtimoiy sohalarida va turli xil alohida hamkorlik masalalari bo'yicha ko'p tomonlama konvensiyalar imzolash uchun chaqiriladi. Ular, qoidaga ko'ra, atiga tegishli konvensiyalar matnini qabul qilish (ma'qullash) bilan yakuniga yetadi, bu esa o'z-o'zidan ana shu konvensiyalar endi ishtirokchi davlatlar uchun majburiy kuchga ega bo'ldi, degani emas, albatta. Kelgusida konvensiyaning ishtirokchi davlatlari konvensiyaga yo vaqtincha ishtirokchi bo'lishi yoki unda ishtirok etishdan tamoman chetda turishi mumkin.

Rezolyutsiyalar. Hukumatlararo konvensiyalarda ko'pincha konferensiya faoliyatining predmeti bo'yicha turli-tuman rezolyutsiyalar qabul qilinib, ular davlatlarga (qoidaga ko'ra, davlatning ushbu konferensiya ishtirokchisi ekani yoki ishtirokchi emasligidan qat'i nazar) va (yoki xalqaro tashkilotlarga va ularning yoxud rahbariy mansabdor shaxslariga) da'vatlar, iltimoslar, takliflar hamda tavsiyalar bilan murojaat qiladi. Konferensiyada qabul qilinadigan rezolyutsiyalar, adresatidan qat'i nazar,

tavsiyaviy mazmun kasb etadi. U yoki bu konferensiyada ishtirok etuvchi davlatlar uning rezolyutsiyalariga nisbatan o'z munosabatini qat'iy individual tartibda bildiradi. Ammo xalqaro konferensiyalar rezolyutsiyalaridan tegishli xalqaro shartnoma va konvensiyalarni ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin. Ayrim hollarda rezolyutsiyalardan amaldagi xalqaro-huquqiy normalarni konstatatsiya yoki talqin qilish vositasi sifatida foydalaniladi.

Tavsiya («istak») mazmunidagi rezolyutsiyalar bevosita konferensiyaning yakunlovchi hujjatiga kiritilishi yoki uning ilovasi bo'lishi mumkin. Bunday hollarda yakunlovchi hujjatning matnida, odatda, qabul qilingan rezolyutsiyalar ro'yxati qayd etiladi.

Yakunlovchi hujjatlar. Xalqaro konferensiyalar ular ishining asosiy faktlarini aks ettiruvchi bayondan iborat yakunlovchi hujjatlar bilan nihoyasiga yetadi. Yakunlovchi hujjatlarning aksariyati u yoki bu konferensiya faoliyatining asosiy jihatlarini qamrab olgan bo'ladi.

Shunday qilib, xalqaro konferensiyalar zamonaviy xalqaro huquqning muhim instituti bo'lib, ularning o'mi va ahamiyati XXI asrda tobora oshib bormoqda. Xalqaro konferensiyalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1) ular davlatlarning vaqtinchalik kollektiv organi hisoblanadi va shu bilan xalqaro tashkilotlardan farq qiladi;

2) ular turlicha nomlansa-da (konferensiya, kengash, kongress) mohiyati birdir;

3) ular davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari, Tashqi ishlar vazirlari ishtirokida yuqori darajada va ekspertlar ishtirokida bo'lishi mumkin;

4) ular biror xalqaro shartnomani tayyorlash, muhokama qilish yoki qabul qilish yoxud u yoki bu muhim xalqaro shartnomani muhokama qilish uchun chaqirilishi mumkin.

O'N BESHINCHI MAVZU. INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO HUQUQ

1-§. «Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq» tushunchasi va mazmuni

2-§. Inson huquqlari to'g'risidagi normalarga rioya qilish bo'yicha xalqaro nazorat

1-§. «Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq» tushunchasi va mazmuni¹

Inson huquqlari haqidagi normalardan tashkil topgan xalqaro huquq sohasi negizida quyidagi ikki guruhdan iborat prinsiplar yotadi:

birinchidan, xalqaro huquqning asosiy prinsiplari. Ular orasidan mazkur soha uchun eng ahamiyatli inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi bo'lib, u BMT Ustavida mustahkamlab qo'yilgan;

ikkinchidan, maxsus prinsiplar:

a) universallik prinsipi, u inson huquqlari haqidagi normalar barcha davlatlar va ularning barcha aholisiga nisbatan majburiy ekanini anglatadi;

b) kamsitmaslik prinsipi, unga ko'ra, qaysi bir jihatdan bo'lmasin, kamsitish, tahqirlash noqonuniydir.

Paydo bo'lish davri va asosiy mazmun-mohiyati bo'yicha inson huquqlari haqidagi barcha normalarni «*inson huquqlari avlodlari*» deb ataluvchi uchta guruhga tasniflab chiqish mumkin.

Birinchi avlod Buyuk fransuz inqilobi e'lon qilgan shaxs huquqlaridir. U asosan fuqarolik va siyosiy huquqlardan iborat. Ushbu huquqlarga mansub normalarni o'z-o'zidan bajariladigan qoidalar sirasiga kiritish mumkin. Ularni milliy huquq tizimlarida bevosita qo'llasa bo'ladi.

Ikkinchi avlod asosan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlardan iborat. Ular XX asr o'rtalarida shakllana boshlagan. Bu huquqlarni joriy etish uchun muayyan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy shart-sharoit zarur bo'ladiki, bunday sharoitlarni hamma mamlakatlarda ham mavjud deb bo'lmaydi.

Uchinchi avlodga mansub inson huquqlari XX asrning 70-yillarida paydo bo'lgan. Bunday huquqlar barcha davlatlarning hamjihatlikdagi sa'y-harakatlari bilangina ta'minlanishi mumkin va ular umuminsoniy qadriyatlarining huquqiy ifodasi hisoblanadi. Bular tinchlik, qurolsizlanish, rivojlanish, musaffo tabiiy muhit huquqi kabilardir. Ularni ba'zan «bir-damlik huquqlari» deb ham atashadi.

Ayrim huquqshunoslar xalqlar huquqini, ya'ni individlarning yirik birlashmalariga (xalqlar, millatlar, milliy ozchiliklar, tub xalqlarga) tegishli va ular ruyobga chiqaradigan huquqlarni uchinchi avlod huquqlaridan ajratib ko'rsatadi. Bu huquqlar o'z taqdirini o'zi belgilash, tabiiy zaxiralardan erkin foydalanish, diniy marosimlarni ado etish, o'z madaniy qadriyatlarini rivojlantirish va etnik ehtiyojlarini qondirish huquqi kabilardan iboratdir.

Ba'zida, shuningdek, inson huquqlarini *individual* va *kollektiv* (asotsiatsiyalar, kasaba uyushmalar va madaniy birlashmalarga birlashish huquqi) huquqlarga bo'linishi haqida gap boradi.

¹ Batafsil qarang: Саидов А.Х. Международное право прав человека. —М., 2002.

1948-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilingan va unda eng muhim inson huquqlarining sanog'i va mazmuni belgilab berilgan. BMTning 1966-yili ikkita — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi hamda Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktlarni qabul qilishi ushbu yo'nalishda qo'yilgan navbatdagi jiddiy qadam bo'ldi.

Inson huquqlarining ayrim toifalariga taalluqli ko'plab konvensiyalar qabul qilindi. Bunda aholining himoyaga o'ta muhtoj qatlamlarining huquqlari, avvalambor, ayollar va bola huquqlariga alohida e'tibor qaratildi.

Bir qancha xalqaro hujjatlar inson huquqlariga qarshi jinoyatlarga barham berishga qaratilgan. Genotsid va aparteidni taqiqlash to'g'risidagi, irqiy kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi, qullikni taqiqlash to'g'risidagi kabi qator konvensiyalar shular jumlasidandir. Bunda Xalqaro Mehnat tashkilotining ko'psonli konvensiyalari o'ziga xos majmuani tashkil etgani ayniqsa diqqatga sazovordir.

Inson huquqlari bo'yicha konvensiyalarning bir qanchasi mintaqaviy darajada — Afrika Birligi tashkiloti, Amerika Davlatlari tashkiloti, Yevropa Kengashi va MDH doirasida qabul qilingandir.

MDH Ustavida xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari hamda Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi hujjatlariga muvofiq ravishda inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlash eng asosiy maqsadlardan biri ekani alohida qayd etilgan. MDH davlatlari 1993-yil 24-sentabrda qabul qilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklari sohasidagi xalqaro majburiyatlar to'g'risidagi deklaratsiyada ishtirokchilar milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi bitimlar, xususan, YXHT hujjatlari bo'yicha majburiyatlarga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli choralar ko'rish mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan. 1995-yilning 26-mayida Inson huquqlari va asosiy erkinliklari to'g'risida MDH konvensiyasi qabul qilingan.

2-§. Inson huquqlari to'g'risidagi normalarga rioya qilish bo'yicha xalqaro nazorat

Inson huquqlarining hurmat qilinishini xalqaro nazorat etish tizimi g'oyatda murakkab va yetarli darajada tashkil qilinmagan.

Bunday nazoratni BMT, avvalo, Bosh Assambleya, Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha komissiya va Ayollar huquqlari bo'yicha komissiya kabi ixtisoslashgan organlar amalga oshiradi. 1993-yili Bosh Assambleya Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissar lavozimini ta'sis etdi va u BMTga alohida mamlakatlarda va umuman dunyoda inson huquqlarining holati haqidagi o'zining yillik dokladini taqdim etib boradi. BMTning ixtisoslashgan muassasalari,

masalan, YUNESKO inson huquqlariga jiddiy e'tibor bilan yondashadi. Xalqaro Mehnat tashkilotining bu boradagi nazorat mexanizmi yaxshi shakllangan.

Inson huquqlari haqidagi konvensiyalar asosida ularning ijrosini nazorat qilish bo'yicha qo'mitalar tashkil etilgan. Bu yo'nalishda Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktga muvofiq tuzilgan Inson huquqlari bo'yicha qo'mita umumiy vakolatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Paktga ishtirok etuvchi davlatlar Qo'mitaning 18 nafar a'zosini ularning shaxsiy sifatlaridan kelib chiqib saylaydi. Mazkur davlatlar Qo'mitaga inson huquqlarini ro'yobga chiqarish bo'yicha o'zlari ko'rayotgan chora-tadbirlar to'g'risida dokladlar taqdim etadi. Qo'mita dokladlarni o'rganib chiqib, davlatlarga o'z mulohazalarini ma'lum qiladi.

Paktga Fakultativ protokol qoidalariga ko'ra, davlat Qo'mitaning Pakt bo'yicha majburiyatlar buzilgani haqidagi ma'lumotlarni ko'rib chiqish borasidagi vakolatini tan olishi haqida bayonot berishi mumkin. Bunda mazkur davlat yurisdiksiyasida bo'lgan va Paktga bayon etilgan huquqlarni shu davlatning buzishi oqibatida jabrlangan shaxslarning ma'lumotlari ko'zda tutilmoqda. Qo'mita o'z mulohazalarini mazkur davlatga ma'lum qiladi. Tegishli shaxsning huquqiy himoya borasida mavjud barcha ichki vositalardan foydalanib bo'lishi uning Qo'mitaga murojaat qilishi sharti bo'lib hisoblanadi.

Shunday qilib, dunyo miqyosida ikkita asosiy xalqaro nazorat chorasi qo'llanadi:

birinchidan, davlatlar muntazam taqdim etadigan ma'ruzalarni ko'rib chiqish;

ikkinchidan, yakka tartibdagi shikoyatlarni ko'rib chiqish.

Umuman olganda, bu mintaqaviy nazorat tizimlariga ham tegishli hisoblanadi. Ular orasida eng rivojlangani Yevropa Kengashi tizimidir.

Inson huquqlariga amal qilinishi bo'yicha nazoratning xalqaro vositalariga davlatlarning ichki qarorlariga nisbatan kassatsion instansiya sifatida qaramaslik kerak. Ularning vazifasi mutlaqo boshqadir. Ular aniq holatlar misolida inson huquqlariga nisbatan haqiqiy munosabat qanday bo'lishi ijodkorligi hamda huquqni qo'llash bilan bog'liq siyosatiga ta'sir ko'rsatadi, lozimligini namoyon etadi va shu yo'l bilan davlatlarning huquq ijodkorligi hamda huquqni qo'llash bilan bog'liq siyosatiga ta'sir ko'rsatadi.

O'N OLTINCHI MAVZU. XALQARO DENGIZ HUQUQI

- 1-§. Xalqaro dengiz huquqi, uning manbalari va prinsiplari
- 2-§. Xalqaro dengiz huquqining asosiy tushunchalari
- 3-§. Davlat suvereniteti ostidagi dengiz hududlari
- 4-§. Qirg'oqbo'yi davlati alohida nazorat etish huquqiga ega bo'lgan dengiz hududi
- 5-§. Qirg'oqbo'yi davlati tabiiy zaxiralardan foydalanish uchun suveren huquqqa ega bo'lgan dengiz hududi
- 6-§. Xalqaro huquqning barcha subyektlari tomonidan umumiy tarzda foydalaniladigan hududlar

1-§. Xalqaro dengiz huquqi, uning manbalari va prinsiplari

Xalqaro dengiz huquqi dengiz hududlari maqomi, dengiz qa'ri va zaxiralari, ulardan foydalanish tartibini belgilab beruvchi huquqiy normalar tizimidan iborat. Bu xalqaro huquqning qadimiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro dengiz huquqi doktrinasi dengiz makonlari rejimini o'rnatish va xalqaro huquq subyektlari o'rtasida ularning jahon okeanidagi faoliyati bilan bog'liq munosabatlarini tartibga solishga yo'naltirilgan normalar va prinsiplar majmuyidan iborat bo'lgan xalqaro huquqning mustaqil tarmog'i sifatida belgilangan.

Xalqaro dengiz huquqi umumiy xalqaro huquqning tarkibiy qismi bo'lib, uning umumiy (xususan, subyektlar, manbalar, xalqaro shartnoma huquqi, javobgarligi va boshqa shu kabi) qoidalaridan foydalanilgan, baribir, muayyan o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi va xalqaro huquqning boshqa (xalqaro havo huquqi, kosmos huquqi va shu kabi) tarmoqlari bilan o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'ladi.

Er sharining suv qobig'i dengiz va okeanlardan iborat bo'lib, yer yuzasining qariyb 75 foizini tashkil etadi. «Jahon okeani» tushunchasi turlicha talqinlarga ega. Fizika-geografiya nuqtayi nazaridan jahon okeani yaxlit bir butunlik hisoblanadi, huquqiy jihatdan u turli xil yuridik maqomlarga ega makonlarga bo'linadi. Huquqshunoslar uchun dengizlar va okeanlar makonlarining aynan huquqiy rejimi ko'proq ahamiyatlidir.

Huquqiy nuqtayi nazardan, xalqaro huquqda muayyan huquqiy maqomga ega bo'lgan makonlar farqlanadi. Bular turli davlatlar suvereniteti ostida bo'lgan va ulardan har birining hududini tashkil etadigan makon hamda biror-bir davlat suvereniteti daxl qilmaydigan makonlar, demakdir.

Xalqaro dengiz huquqining asosiy manbalari quyidagilar:

- xalqaro odat normalari;
- BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasi;
- xalqaro dengiz tashkiloti doirasida ishlab chiqilgan va kemalar hamda dengiz tabiiy zaxiralarini qazib olish uchun qo'llaniladigan stasionar inshootlar qurilishiga taalluqli qator shartnomalar;
- kemalar tomonidan hamda chiqindilarni ko'mish va avariya sodir bo'lishi oqibatida dengiz ifloslanishining oldini olishni tartibga soluvchi konvensiyalar;

— Dunyo okeanining turli hududlarida baliq ovlashni tartibga soluvchi bitimlar;

— Dunyo okeani va uning qa'ridan harbiy maqsadlarda foydalanishni cheklovchi yoki tartibga soluvchi shartnomalar.

Xalqaro dengiz huquqi prinsiplari quyidagilardan iborat:

birinchidan, xalqaro huquqning asosiy prinsiplari;

ikkinchidan, maxsus prinsiplar.

Xalqaro dengiz huquqining *maxsus prinsiplariga* quyidagilar kiradi:

1) ochiq dengiz erkinligi prinsipi, ya'ni Dunyo okeanida barcha davlatlarning boshqa foydalanuvchilarga to'sqinlik qilmay va umuman butun insoniyatga ziyon yetkazmay faoliyat ko'rsatish borasida teng huquqlarga egaligi;

2) dunyo okeanidan oqilona foydalanish va uning tabiiy zaxiralarini asrab-avaylash prinsipi;

3) dengiz muhitini muhofaza etish va asrab-avaylash prinsipi.

2-§. Xalqaro dengiz huquqining asosiy tushunchalari

Xalqaro dengiz huquqini o'rganishda juda zarur bo'lgan ayrim tushunchalarini sanab o'tish lozim. Bular jumlasiga ikki asosiy tushuncha kiradi.

Dunyo okeani — yer kurrasidagi bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan jami suvlik, ya'ni barcha okeanlar, dengizlar, bo'g'ozlar, buxtalar va ularning qa'ridagi boyliklarni ifodalovchi yuridik tushuncha. Bunga faqat Kaspiy va Orol kabi qit'a ichida joylashgan dengiz-ko'llargina kirmaydi. Dunyo okeanining sayyoraviy mazmuni xalqaro dengiz huquqi ham sayyoraviy mazmun kasb etishini taqozo qiladi. Yuqorida qayd etilgan bitimlarga deyarli barcha davlatlar, hatto dengiz qirg'oqiga ega bo'lmagan davlatlar ham ishtirokchi sanaladi.

Boshlang'ich chiziq — qirg'oqning yuridik chegarasi. U dengiz qirg'oqbo'yi mansub (qirg'oqbo'yi davlati deb ataluvchi) davlat tomonidan suv quyilishi chizig'i bo'yicha o'tkaziladi yoki burunlar yoxud qirg'oqbo'yiga orollarining chekka nuqtalarini tutashtiruvchi to'g'ri chiziqlardan tashkil topadi.

3-§. Davlatlar suvereniteti ostidagi dengiz hududlari

Ichki suvlar — boshlanish chizig'idan qirg'oqqacha bo'lgan suvlar, shuningdek, portlar va reydlar suvlaridan iborat. Bunga «tarixiy» qo'ltiqlar va dengizlar, ya'ni uzoq davrlardan buyon shu qirg'oqbo'yi davlati aholisigina foydalanib kelgan va bu holni boshqa davlatlar (sukut saqlash yo'li bilan bo'lsa-da) tan olgan qo'ltiqlar va dengizlar suvi kiradi. Rossiyaning qirg'oqbo'ylarida ikkita yirik «tarixiy suvlik» — Uzoq Sharqdagi Buyuk Pyotr qo'ltig'i va Yevropa qismining shimolidagi Oq dengiz mavjud.

Ichki suvlar davlat hududining tarkibiy qismini tashkil etadi va uning uzil-kesil suvereniteti ostida bo'ladi. Ichki suvlarda har qanday xorijiy faoliyat qirg'oqbo'yi davlatining ruxsati bilangina amalga oshirilishi mumkin. Chet elning tijorat maqsadlarida foydalanilayotgan (ya'ni, savdo va baliqchilik) kemalari belgilangan yo'nalish bo'yicha portlarga borishda ichki suvlardan o'tish huquqiga ega va ular portda to'xtab turish davrida ichki qonunchilikka amal qilishga majburlirlar.

Davlatlarning notijorat maqsadlarida ishlatiladigan kemalari (ilmiy-tadqiqot, pochta, harbiy kemalar) faqat suveren davlatning har bir alohida holat bo'yicha yoki uzoq muddatga beriladigan ruxsati asosidagina ichki suvlarga kirishi mumkin.

Davlatlarning ma'muriy va jinoiy yurisdiksiyasi ichki suvlarda to'la miqyosda amal qiladi. Fuqarolik yurisdiksiyasi, odatda, qirg'oqbo'yi davlatiga daxldor ishlar bilan cheklanadi.

Hududiy dengiz (hududiy suvlar, deb ham ataladi) — dengiz hududining qirg'oqbo'yi davlati tomonidan boshlanish chizig'idan boshlab o'lchangan muayyan kenglikdagi qismi. U davlat hududiga tegishli qism hisoblanadi.

BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasida dengiz hududini 12 dengiz mili (qariyb 20 kilometr)dan iborat kenglikda o'rnatish mumkinligi belgilangan. Aksariyat davlatlar ana shu kenglikni to'laligicha qabul qilgan. Shu bilan birga, 32 davlat, asosan, dengiz bo'yidagi davlatlar ilgari mavjud bo'lgan o'lchov — 3 mil ko'lamidagi kenglik bilan kifoyalanib turgani holda, o'ndan ortiq davlat 200 mildan ziyod kenglikdagi suvlarga da'vogarlik qilayotir. Rossiya Federatsiyasining 1993-yildagi «Rossiya Federatsiyasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunida 12 mildan iborat kenglik tasdiqlangan (5-moddaning 3-qismi).

Qirg'oqbo'yi davlatining hududiy dengizdagi suvereniteti barcha davlatlar kemalariga tinch-osoyishta o'tish uchun yo'l berish bilan cheklangandir. O'tish uzluksiz va tezkor hamda qirg'oqbo'yi davlatining xalqaro huquqqa muvofiq ravishda belgilagan qoidalarga amal qilgan holda aniq yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi. Harbiy kemalarga nisbatan oldindan xabardor etish to'g'risidagi qoida o'rnatilgan bo'lishi

mumkin. Suvosti kemalari suv yuzasiga chiqadi va bayrog'ini ko'taradi. «Alohida mazmundagi» kemalarga, ya'ni yadroviy dvigatelli yoki zaharli yoxud xavfli yuklarni tashib o'tayotgan kemalarga, shuningdek, yirik tonnajli tankerlarga nisbatan qo'shimcha xavfsizlik choralari havola etilishi mumkin.

Agar chet el kemasi hududiy dengiz orqali davlatning ichki suvlari-dan chiqqanidan keyin o'tsa, u holda mazkur davlat hibsga olish yoki kema bortida tekshiruv o'tkazish bilan bog'liq har qanday chorani qo'llashi mumkin. Boshqa hollarda davlatga tegishli hududiy dengiz bo'ylab o'tadigan chet el kemasi bortida sodir etilgan jinoyat shu davlat manfaatlariga daxldor bo'lgan hollardagina uning jinoiy yurisdiksiyasi ushbu kemaga nisbatan ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Bunga, shuningdek, kema kapitani, diplomatik vakil yoki konsulning yordam so'rab murojaat etishi asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Giyohvand moddalar bilan savdo-sotiqqa chek qo'yish bilan bog'liq harakatlar alohida asoslardan hisoblanadi.

Fuqarolik yurisdiksiyasiga kelsak, agar qirg'oqbo'yi davlati suvlari bo'ylab o'tish bilan bog'liq majburiyat yoki mas'uliyat haqida gap bor-gan hollarda bunday yurisdiksiya ta'sir kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Davlatlarning notijorat maqsadlarida ishlatilayotgan kemalari muayan immunitetga ega bo'ladi. Ular yetkazgan zarar uchun bayroq egasi bo'lgan davlat mas'ul hisoblanadi. Harbiy kema, masalan, qirg'oqbo'yi davlatining milliy qonunlarini buzgan taqdirda, shu davlat undan hududiy dengizni zudlik bilan tark etishini talab qilishi mumkin.

Arxipelag suvlari yoxud *arxipelag davlatlar* suvlari tegishli davlatlar (Indoneziya, Maldiv orollari, Filippin, Fidji va boshqalar) jami hududini tashkil etuvchi orollardan chetdagisining eng chekka nuqtasi bilan boshlanish chizig'i o'rtasidagi hududlardir. Bu hudud orollar o'rtasida joylashgan suvlar, suv qa'ri, boyliklar va havo hududidan iboratdir. Bunda oraliqdagi suv ham, quruqlik (orol) ham yuridik ma'noda oroldagi davlatning yaxlit butunlikdagi hududi hisoblanadi.

Arxipelag davlat suvereniteti barcha chet davlatlar kemalariga arxipelag suvlari bo'ylab faqat belgilangan yo'nalish bo'yicha tranzit (tez va to'xtamasdan) o'tish uchun yo'l berish bilan cheklanadi.

4-§. Qirg'oqbo'yi davlati alohida nazorat etish huquqiga ega bo'lgan dengiz hududi

Yon-atrofdagi zona — ochiq dengizning qirg'oqbo'yi davlati hududiy dengiziga tutash bo'lgan va shu davlat o'z hududi doirasida tegishli bojxona, moliyaviy, immigratsiya va sanitariya qoidalarining buzilishiga barham berish maqsadida alohida nazorat etish huquqiga ega bo'lgan qismi. Qirg'oqbo'yi davlati bu hududda tegishli tartibda bojxona, moli-

yaviy, immigratsiya va sanitariya qoidalarini o'rnatadi. Yon-atrofdagi zonaning kengligini davlatning o'zi belgilaydi, ammo u boshlanish chizig'idan hisoblaganda 24 dengiz milidan ortiq bo'lmashligi kerak.

5-§. Qirg'oqbo'yi davlati tabiiy zaxiralardan foydalanish uchun suveren huquqqa ega bo'lgan dengiz hududi

Alohida iqtisodiy zona boshlanish chizig'idan hisoblaganda 200 dengiz mili kengligidagi hududni va undagi suvliklarni, suv qa'ri va yer osti boyliklarini qamrab oladi. Alohida iqtisodiy zona doirasida qirg'oqbo'yi davlati suvdagi, suv qa'ridagi jonli va jonsiz zaxiralarni hamda yer ostidagi boyliklarni tadqiq etish, ishlov berish va saqlash borasida alohida huquqqa ega hisoblanadi.

Davlat, shuningdek, sun'iy orollar (asosan neft platformalari) barpo etish va ulardan foydalanish, dengiz muhitini muhofaza etish huquqiga egadir. Alohida iqtisodiy zonadagi sun'iy orollar bayroq egasi sanalgan davlat yurisdiksiyasi ostida bo'ladi. Sun'iy orollar va inshootlar orol maqomiga ega bo'lmagani bois, ularning hududiy dengizi, alohida iqtisodiy zonasi va kontinental shelfi mavjud emas. Ular atrofdagi kengligi 500 metr dan oshmaydigan xavfsizlik zonasi o'rnatilishi mumkin.

Qirg'oqbo'yi davlatining qayd etilgan barcha huquqlari alohida hisoblanadi va bu boshqa barcha davlatlar alohida iqtisodiy zonada xuddi shunday faoliyat yuritishi uchun ularga faqat qirg'oqbo'yi davlati ruxsati asosida hamda uning ichki huquqida belgilangan tartibdagina ijozat etilishi mumkinligi bilan izohlanadi. Shuning uchun 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyada qirg'oqbo'yi davlati alohida iqtisodiy zona tabiiy zaxiralarni tadqiq etish va ulardan foydalanishda suveren huquqlarga ega ekani qayd etilgan.

Alohida iqtisodiy zonada qirg'oqbo'yi davlati o'z huquqlarini amalga oshirish barobarida ko'zdan kechirish, nazorat qilish, qamoqqa olish, ishni sudda ko'rish kabi choralardan ham foydalanishi mumkin. Ammo bunda qamoqqa olingan kema va uning ekipaji garovni yoki boshqa ta'minotni to'laganidan keyin zudlik bilan ozod etilishi zarur. Qo'llanadigan jazo choralari sirasiga qamash yoki shunga o'xshash shaxsiy jazo choralari kiritilishi mumkin emas. Bundan boshqacha qoida faqat shartnoma orqaligina belgilanishi mumkin. Masalan, Yaponiya bilan tuzilgan bitimga muvofiq, *Rossiya tomoni noqonuniy ravishda baliq ovlayotgan yapon kemasini ushlagan taqdirda ushbu kemani uning ustidan sudlov yoxud ma'muriy ish qo'zg'atishi majbur bo'lgan yapon ma'murlariga topshiradi.*

Ayni vaqtda barcha davlatlar uchun alohida iqtisodiy zonadan tabiiy zaxiralarni ishlatishdan boshqa maqsadlarda foydalanish erkinligi, xususan, kema qatnovi, kabellar va trubaprovodlar yotqizish erkinligi, fundamental ilmiy tadqiqotlar erkinligi saqlanib qoladi.

Kontinental shelf — quruqlik hududining materik suvosti chekka hududining tashqi chegaralarigacha tabiiy ravishdagi davomi. Kontinental shelf chegarasi, yuridik jihatdan yondashganda, boshlanish chizig'idan hisoblaganda 350 dengiz milidan ortiq uzoqlikda joylashmasligi kerak.

BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasiga muvofiq, qirg'oqbo'yi davlati tabiiy zaxiralarni, masalan, suv qa'ri mineral resurslarini va uning boshqa boyliklarini, shuningdek, «turg'un turlar» sirasiga kiruvchi jonzotlarni tadqiq etish va yig'ib olish borasida kontinental shelf ustidan suveren huquqni amalga oshiradi.

Qirg'oqbo'yi davlatining kontinental shelfdagi huquqi uni o'rab turgan suvlik va uning ustidagi havo hududi huquqiy maqomiga ta'sir etmaydi. Davlatning o'z suveren huquqlarini amalga oshirishi kemalar qatnoviga, shuningdek, kabellar va trubaprovodlar yotqizishga xalal bermasligi zarur.

6-§. Xalqaro huquqning barcha subyektlari tomonidan umumiy tarzda foydalanadigan hududlar

Ochiq dengiz dengizning davlat hududiga kirmaydigan jami qismini tashkil etadi.

Ochiq dengiz barcha mamlakatlar uchun ochiqdir. Biror-bir davlat uning qaysidir qismini o'z suverenitetiga bo'ysundirishga da'vo qilishi mumkin emas.

Ochiq dengiz huquqiy rejimining asosi ochiq dengiz erkinligidan iborat bo'lib, u quyidagilardan tashkil topadi:

- kema qatnovi erkinligi;
- baliq ovlash erkinligi;
- ilmiy tadqiqotlar o'tkazish erkinligi;
- ochiq dengiz ustida parvozlar erkinligi;
- kabellar va trubaprovodlar yotqizish erkinligi.

Hozir ana shu barcha erkinliklar qat'iy tartibga solib turilishini ta'kidlash joiz va bunda BMTning ixtisoslashgan muassasasi maqomiga ega xalqaro tashkilotlar alohida o'rin tutadi. Ochiq dengizda baliq ovlash uchun baliq ovida muhim ahamiyat kasb etuvchi hududlar ajratilgan bo'lib, bu yerda BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti shafe'ligi ostida ishlovchi mintaqaviy baliq ovlash tashkilotlari faoliyat yuritadi. Ular mavjud baliq zaxiralari tahlilini amalga oshiradi, yillik yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan ov miqyosini belgilaydi, ov kvotalarini tayinladi va har bir hududda ov qilish istagini bildirgan davlatlarga litsenziyalar beradi.

Kema qatnovi sohasida Xalqaro dengiz tashkilotining roli katta bo'lib, u foydali va bexatar hisoblangan qatnov yo'llarini aniqlash va bu yo'llarda harakatni tartibga solib turish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Ochiq dengiz ustida parvozlar erkinligi masalasida Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotining o'рни beqiyosdir. Mazkur tashkilot va uning shafe'ligi ostida ishlaydigan mintaqaviy aviatsiya organlari xavfsiz parvoz yo'llarini belgilaydi, eng foydali yo'nalishlarni tavsiya etadi.

Ochiq dengizda hech bir davlatning hududiy yurisdiksiyasi amal qilmaydi. Savdo kemalari, harbiy kemalar, sun'iy orollar va inshootlar bayroq egasi bo'lgan davlatning qat'iy yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. Bu ba'zan chalkash muammoga aylanib ketadigan fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalarini hal etishda qo'l keladi. Masalan, 1996-yilning boshida Buyuk Britaniya yaqinidagi sohilda «Si Empress» tankeri qumloqqa botib qoladi. Undan qariyb 70 ming tonna neft suvga to'kiladi. O'z-o'zidan javobgarlik masalasi ko'tariladi. Ma'lum bo'lishicha, tankerdagi neft Angliyaga tegishli bo'lib, kema esa Ispaniyada qurilgan, Norvegiyaning bir kompaniyasiga qarashli bo'lgan, Kiprda ro'yxatga olingan, Fransiya firmasi bilan kelishuvga muvofiq Shotlandiya kompaniyasi boshqaruvida bo'lgan, Rossiya ekipaji bilan ta'minlangan va Liberiya bayrog'i ostida suzib yurgan ekan.

Har qaysi davlat o'z bayrog'i ostida suzib yurgan kemalar ustidan o'z yurisdiksiyasini amalga oshirishi va nazoratni yo'lga qo'yishi zarur. Shuningdek, u umum qabul qilingan xalqaro qoidalar va amaliyotga amal qilinishini ta'minlash borasida barcha choralarni ko'rmog'i lozim.

Kemalar to'qnashuvi yoki kema bilan bog'liq va kapitan yo ekipaj a'zolarini jinoiy yoki ma'muriy javobgarlikka tortish uchun sabab bo'ladigan boshqa biror-bir hodisa sodir bo'lgan taqdirda tergov ishi faqat bayroq egasi bo'lgan davlatning yoxud tegishli shaxs fuqarosi hisoblangan davlatning ma'muriy yoki sudlov organi huzuridagina qo'zg'atilishi mumkin. Ochiq dengizda bayroq egasi bo'lgan davlat ma'murlarining farmoyishi asosidagina kema hibsga olinishi yoki ushlab qolinishi mumkin.

Harbiy va notijorat davlat xizmatida bo'lgan kemalar ochiq dengizda to'la ravishda immunitetdan foydalanadi.

Xalqaro huquqda *qaroqchilikka* nisbatan universal jinoiy yurisdiksiya amal qiladi. Har qanday davlat ochiq dengizda qaroqchilarni ta'qib etish va jazolash huquqiga egadir. Isyonchi ekipaj o'z qo'lga olgan harbiy kema yoki havo kemasi sodir etgan qaroqchilarcha xatti-harakat xususiy kema sodir etgan harakatlarga tenglashtiriladi. Barcha hollarda qo'lga olish faqat hukumat xizmatidagi kemalar tomonidan amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, davlat xizmatidagi kemalar chet el kemasi qullar savdosi yoxud ruxsat etilmagan tarzda xabar berish bilan shug'ullangani haqida taxmin qilish uchun asos mavjud bo'lsa, milliy mansubligi bo'lmasa yoki bayroq ko'tarishdan bosh tortsa, uni ko'zdan kechirish

huquqiga egadir. Agar gumonlar tasdig'ini topmasa, ko'zdan kechirilgan kema ko'rgan zarar qoplanadi.

Dengiz bo'g'ozlari maqomini va huquqiy rejimini belgilashda ularning xalqaro kema qatnovida tutgan o'rni katta ahamiyat kasb etadi. Ana shu nuqtayi nazardan barcha dengiz bo'g'ozlarini ikki guruhga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga BMTning Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasiga muvofiq, xalqaro kema qatnovida foydalaniladigan va ochiq dengiz yoxud alohida iqtisodiy zonaning bir qismidan boshqa qismigacha o'tib boradigan bo'g'ozlar kiradi. Ular orasida Gibraltar, La-Mansh, Singapur bo'g'ozlari alohida o'rin tutadi. Bunday bo'g'ozlar, hatto qirg'oqbo'yi davlatining hududiy yoki ichki suvlari bilan yopib qo'yilganda ham ulardan o'tish chog'ida barcha kemalar va uchish apparatlari tranzit o'tish huquqidan foydalanadi. Bu o'tishga qarshi hech qanday to'siqlar qo'yilishi mumkin emas. Qirg'oqbo'yi davlati xalqaro huquqda belgilangan doirada tranzit o'tishga doir qoidalarni joriy etishi mumkin. Tranzit o'tish huquqidan foydalanish chog'ida kemalar va uchish apparatlari odatdagi uzluksiz va tezkor tranzit tartibiga doir faoliyatdan tashqari, har qanday harakatlardan tiyilib turadi. Bunda qirg'oqbo'yi davlatining fuqarolik va jinoyiy yurisdiksiyalari hududiy dengiz orqali o'tgan mahalliy kemalarga nisbatan qo'llanilgan miqyosda joriy etiladi.

Ikkinchi guruhga huquqiy rejimi maxsus bitimlar bilan belgilanadigan bo'g'ozlar kiradi. Bu, avvalo, ikkala qirg'og'i ham Turkiya hududiga kiruvchi Qora dengiz (Bosfor, Dardanell va ular orasida yotuvchi Marmar dengizi) bo'g'ozlaridir. Ularning rejimi 1936-yilda Montryoda imzolangan konvensiya bilan belgilanadi. Unda barcha mamlakatlar noharbiy kemalarining qatnovi erkinligi ko'zda tutilgan. Harbiy kemalar esa, bo'g'oz orqali o'tishi haqida Turkiya hukumatini oldindan xabardor etishi zarur. Faqat Qora dengiz bo'yidagi davlatlarga bo'g'oz orqali muntazam va suv osti kemalarini olib o'tishi mumkin. Boshqa davlatlar uchun esa harbiy kemalarni Qora dengizdan olib o'tishda qo'shimcha cheklashlar belgilangan.

Ushbu guruhga bir qirg'og'i Rossiyaga, boshqasi esa Ukrainaga tegishli bo'lgan Kerch bo'g'ozini ham kiradi. Bu bo'g'ozning huquqiy rejimi ayni paytda muhokama etilmoqda.

Xalqaro dengiz kanallari — muayyan davlat hududidan o'tadigan va xalqaro kema qatnovida foydalaniladigan sun'iy barpo etilgan dengiz yo'llari. Ulardan eng muhimlari Suets, Panama, Kill kanallaridir. Kanallar murakkab gidrotexnik inshootlar bo'lib, ularni yaroqli holda muntazam ravishda saqlab turish uchun kattagina miqdorda sarf-xarajatni talab etadi. *Dengiz kanallari* o'z hududidan o'tadigan davlatning to'liq suvereniteti ostida bo'ladi. Kema qatnovi har bir kanalga tegishli xalqaro bitim asosida amalga oshiriladi.

Qoidaga ko'ra, xalqaro dengiz kanallari, suveren davlat belgilaydigan qoidalarga amal qilingan taqdirda, barcha kemalarning erkin qatnovi uchun ochiq hisoblanadi. Kanaldan o'tish uchun, odatda, to'lov olinadi.

Xalqaro dengiz osti rayoni (Rayon) — dengiz hududining sof shartnomaviy tabiatga ega bo'lgan mutlaqo yangi toifasi. Rayon maqomi negizida BMTning 1982-yildagi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasi, shuningdek, 1994-yildagi maxsus bitim qoidalari mujassamlangan.

Rayon toifasiga kontinental shelf va alohida iqtisodiy zona doirasidan tashqaridagi dengiz va okeanlar qa'ri, boyliklari kiradi. Rayon va uning zaxiralari *insoniyatning umum merosi* sifatida e'lon qilingan. Biror-bir davlat Rayon yoki uning zaxiralari nisbatan o'z suverenitetini yoxud suveren huquqini da'vo qila olmaydi. Rayondagi faoliyatdan olinadigan moliyaviy va iqtisodiy foyda, adolat prinsipiga muvofiq, rivojlanayotgan mamlakatlarning manfaatlari va ehtiyojlarini e'tiborga olgan holda taqsimlanadi.

Dengiz osti bo'yicha xalqaro organ butun insoniyat nomidan ish ko'radi va u Rayondagi faoliyatni tashkillashtiradi, amalga oshiradi hamda nazorat qilib boradi. Tabiiy zaxiralarni tadqiq etish va yig'ib olish ushbu organga tegishli korxonalar, shuningdek, «Organ bilan uyushma»ga kiruvchi davlatlar tomonidan amalga oshiriladi. Organ Rayon zaxiralari qazib olinishi tufayli iqtisodiyoti salbiy oqibatlariga duch kelgan eksportchi mamlakatlarga kontraktchilar to'lovlari hisobiga tashkil etilgan maxsus jang'arma orqali tegishli yordam ko'rsatadi.

Rayondan faqat tinchlik maqsadlaridagina foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning Rayon huquqiy rejimiga amal qilishini ta'minlash mas'uliyati ana shu shaxslar fuqarosi hisoblangan davlatlar zimmasiga yuklangan.

O'N YETTINCHI MAVZU. XALQARO HAVO HUQUQI

- 1-§. Xalqaro havo huquqi, uning prinsiplari va manbalari**
- 2-§. Xalqaro havo bo'shlig'ida parvozlarni tartibga solish**
- 3-§. Davlatlar hududi ustidan o'tadigan xalqaro parvozlarni**
- 4-§. Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash**

1-§. Xalqaro havo huquqi, uning prinsiplari va manbalari

Xalqaro havo huquqi fuqaro aviatsiyasi huquqi sifatida paydo bo'lgan va rivojlangan. Asta-sekin havo ummonidan foydalanishning boshqa xil turlari va ularni tartibga soluvchi normalar, avvalo, harbiy maqsadlarda

foydalanish hamda havo musaffoligini muhofaza qilishga doir normalar yuzaga kela boshlagan.

Xalqaro huquq nazariyasida xalqaro havo huquqi deganda, xalqaro huquq subyektlari o'rtasida havo bo'shlig'idan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soluvchi va uning huquqiy rejimini belgilab beruvchi maxsus prinsiplar, norma va institutlar majmuyini o'zida mujassam etgan, xalqaro huquqning nisbatan yangi tarmog'i tushuniladi.

Jahon amaliyotida e'tirof etilishicha, xalqaro havo huquqi fuqaro aviatsiyasining havo bo'shlig'idan foydalanishining aeronavigatsiyasiga daxldor jihatlarini tartibga soladi. U tabiat muhofazasi bilan bog'liq munosabatlar, harbiy aviatsiyadan, quyosh energiyasidan foydalanish atmosfera jarayonlariga, kosmik faoliyatga ta'sir ko'rsatish (ayni havo bo'shlig'idan foydalanishga daxldor qismida) holatlar uchun tatbiq etilmaydi.

Xalqaro havo huquqi ikkita asosiy *prinsipga*, ya'ni umumiy xalqaro huquqning asosiy prinsiplari va maxsus prinsiplarga bo'linadi.

Xalqaro havo huquqining maxsus prinsiplariga quyidagilar kiradi:

1) davlatning o'z hududi doirasidagi havo bo'shlig'iga nisbatan suvereniteti prinsipi;

2) davlat hududiga kirmaydigan havo bo'shlig'idagi parvozlarning erkinligi prinsipi;

3) fuqaro aviatsiyasi xavfsizligi prinsipi.

Xalqaro havo huquqining asosiy manbalari:

1. 1944-yildagi Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi Chikago konvensiyasi.

2. Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga oid qator bitimlar.

3. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti (IKAO)ning aktlari. Mazkur tashkilotga dunyoning deyarli barcha davlatlari a'zo hisoblanadi. IKAO ko'plab hujjatlar — standartlar, «xalqaro aviatsiya reglamentlari» degan umumiy nom bilan ataluvchi amaliy tavsiyanomalar va protsedura aktlarini tayyorlaydi. Ulardan ayrimlari, masalan, xalqaro bo'g'ozlar orqali parvozlarning to'g'risidagi nizom barcha davlat havo kemalari uchun majburiy ahamiyatga ega. Amaliyot davlatlar IKAOning boshqa tavsiyalarini ham hisobga olishga shayligini ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda ichki havo huquqining asosiy hujjati O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksidir. «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonuni va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda ham bu borada ko'plab muhim qoidalar mavjud. O'zbekiston Respublikasi milliy huquqining fuqarolik, jinoyat, mehnat, bojxona va boshqa tarmoqlarida ham havo huquqiga bevosita daxldor bo'lgan ayrim normalar uchraydi.

2-§. Xalqaro havo bo'shlig'ida parvozlarni tartibga solish

Xalqaro havo bo'shlig'ida parvozlarning erkinligi prinsipiga muvofiq, havo kemalari kemani ro'yxatga olgan davlat yurisdiksiyasiga bo'ysunadi. Qayd etish tartibi shu davlatning ichki huquqlarida belgilangan bo'ladi, kema qaysi davlatga mansubligi esa uning korpusida ifoda etiladi.

Kema qaysi davlatga mansubligi bilan davlat, jamoat tashkilotlari va xususiy shaxslarning mulki hisoblanishi mumkin bo'lgan kemaning mulk sifatidagi fuqaroviy-huquqiy jihatlari, unga egalik qilish va undan foydalanish masalalari o'rtasidagi farqni aniq ajratib olish kerak. Xalqaro-huquqiy majburiyat masalalarini hal etishda havo kemalarini quyidagicha farqlash maqsadga muvofiqdir:

birinchidan, davlat (harbiy, bojxona, politsiya kemalari; maxsus kemalar, masalan, davlat rahbarining samolyoti) kemalari. Bu kemalar tegishli immunitetga ega bo'lib, ularning harakati uchun bevosita davlat javobgar hisoblanadi;

ikkinchidan, milliy-huquqiy tartibga solishning obyektiga bo'lgan no-davlat kemalar. Ularning harakati uchun kema egasi javob beradi.

Davlatlar o'zlarida ro'yxatga olingan havo kemalarining parvoz xavfsizligi talablariga javob berishi va xalqaro normalarga amal qilishini nazorat qiladi. Xalqaro havo bo'shlig'ida Chikago konvensiyasining 2-ilovasiga muvofiq ravishda shakllanadigan parvoz qoidalari tizimi amal qiladi. Ushbu qoidalar davlatlarga qarashli bo'lmagan barcha havo kemalari uchun majburiydir. Davlatlarga qarashli havo kemalari uchun, IKAOning parvoz qoidalari rasmiy jihatdan majburiy hisoblanmasa-da, ana shu qoidalarga amal qilish odatiy-huquqiy amaliyotga aylangan.

3-§. Davlatlar hududi ustidan o'tadigan xalqaro parvozlarning

Havo bo'shlig'i davlat hududining bir qismi hisoblanadi. Havo kodeksiga muvofiq, O'zbekiston o'z ustidagi havo bo'shlig'ining to'liq va alohida suverenitetiga ega.

Davlatga tegishli havo bo'shlig'idan faqat uning roziligi asosidagina foydalanishga ijozat etiladi. Qoidaga ko'ra, davlatlar havo yo'llari to'g'risida ikki tomonlama bitimlar tuzadilar. Odatda, bu bitimlarda uzoq muddatga mo'ljallangan muntazam qatnovlarga ruxsat etilishi ko'zda tutilgan bo'ladi. Nomuntazam parvozlarning uchun esa har bir holatda alohida ruxsat so'raladi. Davlatga tegishli havo bo'shlig'idagi parvoz qoidalari shu davlatning ichki qonunchiligi bilan belgilanadi.

«O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonunning 10-moddasiga muvofiq, O'zbekistonning xalqaro shartnomalarida yoki hukumat qarorlarida belgilangan joylardagina chegarani kesib

o'tishga ijozat etiladi'. Shuningdek, bu hujjatlarda chegaradan toki o'tishga ruxsat etilgan punktgacha borish va orqaga qaytish yo'nalishida harakatlanish tartibi ham belgilab qo'yiladi. Bunda o'tishga ruxsat etilgan punkt aeroport bo'lib, u xalqaro parvozlar uchun ochiqdir. O'zbekiston havo bo'shlig'ida, shu jumladan tranzit bo'yicha uchayotgan havo kemalarining noxalqaro aeroportlarga qo'nishi, shuningdek, parvoz man etilgan hududlarga uchib kirishi taqiqlanadi.

O'zbekiston havo bo'shlig'iga favqulodda vaziyatlar sababli majburiy ravishda uchib kirish hollari uchun umumiy qoidalardan istisnolar ham ko'zda tutilgan.

Chikago konvensiyasiga muvofiq, har bir davlat o'z hududidan chet el havo kemalarida harbiy asbob-aslahalar va harbiy materiallar tashib o'tilishini taqiqlashi mumkin.

Chet el havo kemalari *belgilangan yo'nalishlar* bo'yicha o'tishi shart. Bojxona yoki boshqa turdagi nazoratni amalga oshirish maqsadida har qaysi havo kemasidan ko'rsatilgan aeroportga qo'nishini talab qilishi mumkin.

4-§. Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash

Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, aviatsiya texnikasi va yerdagi uskunalarning texnik jihatdan ishonchligini ta'minlash yo'li bilan aviatsiya texnikasini «xavfsiz va tartibli ravishda» rivojlantirish masalasi IKAO zimmasidagi muhim vazifalardan biridir. Shu bois havo kemalarining parvozga yaroqliligi hamda uchuvchi va texnik xodimlarning ixtisosligi, havo kemalarining ro'yxatga olinishi va bort hujjatlari, aeroportlar xarakteristikasi, parvoz qoidalari va shu kabi boshqa masalalarga taalluqli xalqaro reglamentlar ustida IKAO doirasida doimiy ravishda ish olib borilmoqda.

Ikkinchidan, fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy ravishda aralashishning oldini olish va bunday hollarga barham berishga qaratilgan chora-tadbirlarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Fuqaro aviatsiyasi faoliyatiga noqonuniy ravishda aralashishga qarshi kurashda davlatlar hamkorligiga doir uchta universal konvensiya qabul qilingan.

1) 1963-yilgi Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va ba'zi boshqa aktlar to'g'risidagi Tokio konvensiyasi;

2) 1970-yilgi Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to'g'risidagi Gaaga konvensiyasi;

3) 1971-yilgi Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi yo'naltirilgan

¹ «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risidagi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1999. № 9. 217-m.

g'ayriqonuniy harakatlar bilan kurashish to'g'risidagi Monreal konvensiyasi, shuningdek, Monreal konvensiyasini to'ldiradigan 1988-yilgi Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatuvchi aeroportlarda g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to'g'risidagi protokol.

Mazkur hujjatlarda parvozdagi havo kemasini g'ayriqonuniy tarzda egallab olish, parvozdagi havo kemasi bortidagi shaxslarga zulm o'tkazish, yerdagi aeronavigatsiya uskunalari ishdan chiqarish yoki ulardan foydalanishga aralashish, havo kemasi parvozi xavfsizligini xatar ostiga qo'yuvchi yolg'on ma'lumotlarni xabar qilish aktlariga nisbatan universal yurisdiksiya belgilangan.

Bunday xatti-harakatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan «topshir yoki jazola» prinsipi qabul qilingan. O'z hududida gumon qilinayotgan jinoyatchini qo'lga olgan har qanday davlat uni sud qilishga yoxud topshirishga majbur. Bu boradagi tegishli qoidalar havo yo'llari to'g'risidagi ikkitomonlama bitimlarga ham kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi 1993-yil 7-mayda qabul qilingan. 1997-yil 26-dekabrda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan¹.

O'N SAKKIZINCHI MAVZU. XALQARO KOSMIK HUQUQ

- 1-§. «Xalqaro kosmik huquq» tushunchasi**
- 2-§. Kosmik fazo maqomi**
- 3-§. Kosmosdagi faoliyat uchun javobgarlik**
- 4-§. Kosmonavtlar va kosmik apparatlar maqomi**
- 5-§. Amaliy kosmik faoliyatni xalqaro-huquqiy tartibga solish**

1-§. «Xalqaro kosmik huquq» tushunchasi

Xalqaro kosmik huquq — kosmik fazo, shu jumladan, samoviy jismlar maqomini belgilovchi, shuningdek, kosmosdan foydalanish bo'yicha davlatlarning faoliyatini tartibga solib turuvchi huquqiy normalar majmuyi.

Xalqaro kosmik huquqning shakllanishiga 1957-yili SSSR dastlabki Yerning sun'iy yo'ldoshini uchirishi munosabati bilan asos solingan. Natijada insonning Yerdagi hayoti uchun katta ahamiyat kasb etuvchi yangi faoliyat sohasi ochilgan.

Davlatlarning kosmosdagi faoliyatiga nisbatan kuch bilan tahdid

¹ O'zbekiston Respublikasining Havo kodeksi // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 1993. -№ 6. -217-m. 1998. № 3. — 38-m.

etishni yoki uni qo'llashni taqiqlash, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, suveren tenglik kabi xalqaro huquqning asosiy prinsiplari to'g'ridan to'g'ri joriy etilgan. 1967-yildayoq davlatlarning kosmik fazoni, shu jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlarni tadqiq etish va ulardan foydalanish borasidagi faoliyati prinsiplari to'g'risidagi shartnoma qabul qilingan. Unda xalqaro kosmik huquqning maxsus prinsiplari mustahkamlab qo'yilgan. 1963-yilgi Moskva shartnomasiga muvofiq, atmosferada, kosmik fazoda va suv ostida yadro qurollarini sinash taqiqlangan.

Shundan keyin yana qator xalqaro-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Ular jumlasiga:

- 1) kosmonavlarni qutqarish to'g'risida;
- 2) kosmik obyektlar tomonidan yetkazilgan ziyon yuzasidan javobgarlik to'g'risida;
- 3) kosmik fazoga uchirilayotgan obyektlarni qayd etish to'g'risida;
- 4) davlatlarning Oyda va boshqa samoviy jismlardagi faoliyati to'g'risidagi hujjatlar kiradi.

Kosmosdagi ilmiy-texnik hamkorlik bo'yicha ham ko'plab bitimlar mavjudki, ular alohida guruhni tashkil etadi.

Xalqaro kosmik huquq shakllanishining yana bir yo'nalishi xalqaro organlar va tashkilotlarning ta'sis etilishidir. BMT tomonidan Kosmik fazodan tinch maqsadlarda foydalanish bo'yicha qo'mita va uning huquqiy kichik qo'mitasi tuzilgan bo'lib, xalqaro kosmik huquq normalarini tayyorlash bilan bog'liq asosiy jarayonlar shu yerda kechadi. Kosmik aloqani tartibga soluvchi tashkilotlar, Xalqaro telekommunikatsiyaviy sun'iy yo'ldoshlar tashkiloti (INTELSAT), Xalqaro dengiz sun'iy yo'ldoshlari tashkiloti (INMARSAT) tuzildi. Mintaqaviy tashkilotlar ham ta'sis etildi.

Xalqaro kosmik huquq, umuman olganda, xalqaro hamjamiyat tomonidan yaratilsa-da, bunda tegishli natijalarni boshqa mamlakatlar bilan baham ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga olgan, kosmosdan foydalanayotgan davlatlar hal qiluvchi o'rin egallaydi.

2-§. Kosmik fazo maqomi

Kosmik fazo — ochiq xalqaro makon. Fazo, shu jumladan, Oy va boshqa samoviy jismlar, xalqaro huquqqa muvofiq, barcha davlatlar tadqiq etishi va foydalanishi uchun ochiq bo'lib, uni hech bir jihatdan biror-bir davlat o'zlashtirib olishi mumkin emas.

Samoviy jismlar va ularning tabiiy zaxiralari insoniyatning umum mulki hisoblanadi. Ularni tadqiq etish va ulardan foydalanish barcha mamlakatlar farovonligi va manfaatlari yo'lida amalga oshirilishi hamda uning natijalari butun insoniyat mulki deb hisoblanishi kerak.

Oy va boshqa samoviy jismlardan faqatgina tinch maqsadlar uchun

foydalaniladi. Ularda harbiy inshootlar barpo etish, yadro quolini sinash va hokazolar man etilgan.

Sayyoralararo fazoning o'zi qisman demilitarizatsiya etilgan bo'lib, orbitaga yadroviy va boshqa har qanday (kimyoviy, bakteriologik, radiologik va hokazo) ommaviy qirg'in quollari yuklangan obyektlarning chiqarilishi taqiqlangandir.

Kosmosdagi har qanday faoliyat zararli ifloslantirishlardan, shuningdek, yerdan tashqaridagi moddalarni keltirish natijasida yer muhitiga nomuvofiq o'zgarishlar yuz berishidan ehtiyot bo'lgan holda amalga oshirilishi zarur.

3-§. Kosmosdagi faoliyat uchun javobgarlik

1967-yilgi Kosmos to'g'risidagi shartnoma kosmosdagi faoliyat uchun javobgarlikning umumiy qoidalarni belgilab berdi. Unga ko'ra, kosmosdagi har qanday faoliyat uchun, uni hukumat yoki unga tegishli jismoniy va yuridik shaxslar amalga oshirishidan qat'i nazar, davlat javobgar hisoblanadi. Har qanday davlat bunday faoliyatning xalqaro huquqqa muvofiqligini ta'minlashi shart. Hatto kosmik faoliyat xalqaro tashkilot tomonidan amalga oshirilayotgan taqdirda ham, tashkilotga a'zo davlatlar o'zaro javobgar hisoblanadilar.

1972-yilgi konvensiya kosmik obyektlar yetkazgan ziyon uchun javobgarlik masalalariga bag'ishlangan. Unda kosmik obyekt Yer yuzasiga va parvozdagi havo kemasiga yetkazgan ziyoni uchun ana shu obyektни uchirgan davlat mutlaq javobgar ekani belgilangan. Shunday qilib, davlat bunday hollarda aybi bor-yo'qligidan qat'i nazar, yetkazilgan ziyon uchun javobgar hisoblanadi.

Agar Yer yuzasida emas, balki kosmosda yoki havo bo'shlig'ida, bir davlatning kosmik obyektiga boshqa davlatning shunday obyektни ziyon yetkazgan bo'lsa, ziyon yetkazgan davlat aybi mavjud bo'lgandagina javobgar sanaladi. Obyektни uchirishda bir qator davlatlar ishtirok etgan hollarda ularning barchasi birgalikda javobgar hisoblanadi.

Hatto jismoniy va yuridik shaxslarga ziyon yetkazilgan hollarda ham javobgarlik masalasi davlatlararo darajada hal etiladi. Ziyonni qoplash to'g'risidagi da'vo diplomatik kanallar orqali bildiriladi, masala yechimini topmagan hollarda esa Da'volarni ko'rib chiqish komissiyasiga ma'lum qilinadi. Har bir tomon tayinlagan a'zo bittadan uchinchi a'zoni saylaydi. Komissiya, agar tomonlar boshqa ahdlashuvga kelishishmagan bo'lsa, tavsiyaviy mazmunda xulosa beradi.

4-§. Kosmonavtlar va kosmik apparatlar maqomi

Xalqaro kosmik huquq kosmonavtlar faoliyatiga alohida ahamiyat

qaratib, ularga «insoniyatning koinotdagi elchilari» sifatida yondashadi. Shunday ekan, avariya sodir bo'lgan hollarda barcha mamlakatlar ularga ko'mak berishi zarur. Majburiy qo'nish hollarida ular shu apparat qayd etilgan davlatga zudlik bilan qaytarilishi shart. Kosmik obyektlar ham ularni qayd etgan davlat yurisdiksiyasida hisoblanadi. Boshqa davlatlar hududida topilgan kosmik obyektlar va ularning bo'laklariga mulkiy egalik huquqi saqlanib qoladi, ular qayd etilgan davlat hisobidan qaytarilishi lozim. Bu qoida kosmik apparatlar, kosmik stansiyalar, geofizik sun'iy yo'ldoshlarning barcha turlari uchun tegishlidir.

5-§. Amaliy kosmik faoliyatni xalqaro-huquqiy tartibga solish

Sun'iy yo'ldoshlardan foydalanish chastotalarini taqsimlash, radioaloqa muhofazasi, to'siq (shovqin)larni bartaraf etish ko'plab jiddiy muammolarni yuzaga keltirdi.

Sun'iy yo'ldoshlarning geostatsionar orbitasi cheklangan tabiiy zaxiralari bilan tan olingan shunday orbitaki, unda sun'iy yo'ldosh muntazam ravishda Yerning bir nuqtasi ustida joylashib tura oladi va uning bunday joylashuvini yaxshilash uchun sa'y-harakatning hojati bo'lmaydi. Geostatsionar orbitaning eng qulay joylashuv o'rni ekvator ustidir. Xalqaro elektr aloqasi ittifoqi elektr aloqasi bo'yicha sun'iy yo'ldoshlarning barcha tizimlaridan foydalanishni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi.

Bevosita televizion ko'rsatuvlar BMT Bosh Assambleyasining 1982-yilgi deklaratsiyasining mavzui bo'lib, mazkur hujjatda quyidagi ikki prinsip o'z tasdig'ini topgan:

- uzatuvchi va qabul qiluvchi davlatlar o'rtasidagi maslahatlashuvlar;
- istiqboldagi qabul qiluvchi davlatlarni oldindan xabardor etish va ular bilan maslahatlashuvlar.

Erni masofadan zondlash jarayonlari Bosh Assambleyaning 1986-yilgi rezolyutsiyasi bilan tartibga solinadi. Uning mazmun-mohiyati shundaki, bu jarayon zondlash obyekti bo'lgan davlatlarning qonuniy manfaatleri va huquqlariga ziyon yetkazmasligi kerak. Zondlovchi davlatlar zondlanayotgan davlatlarning hududlariga taalluqli boshlang'ich ma'lumotlarni hamda tayyorlangan axborotni taqdim etishi shart. Ma'lumot va axborotlar tegishli miqdordagi to'lov evaziga taqdim etiladi. To'lov miqdorini belgilashda rivojlanayotgan mamlakatlarning ehtiyoj va manfaatleri inobatga olinmog'i lozim. Hududlari zondlanayotgan davlatlarning iltimosiga ko'ra zondlovchi davlatlar ular bilan maslahatlashuvlarga kirishishi zarur.

O'N TO'QQIZINCHI MAVZU. XALQARO IQTISODIY HUQUQ

- 1-§. Xalqaro iqtisodiy huquq, uning maqsadi va prinsiplari
- 2-§. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari
- 3-§. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning ishtiroki
- 4-§. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar
- 5-§. Transmilliy korporatsiyalar
- 6-§. Xalqaro iqtisodiy huquqda javobgarlik
- 7-§. Xalqaro savdo huquqi
- 8-§. Jahon savdo tashkiloti: maqomi, tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari
- 9-§. Xalqaro moliya huquqi
- 10-§. Xalqaro investitsiya huquqi
- 11-§. Natsionalizatsiya
- 12-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslari

1-§. Xalqaro iqtisodiy huquq, uning maqsadi va prinsiplari

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlar juda rang-barangdir. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar jumlasiga xalqaro kredit va moliyaviy munosabatlar, xalqaro transport munosabatlari, xalqaro iqtisodiy hamkorlik munosabatlari, xalqaro savdo munosabatlari, xalqaro investitsiyaviy munosabatlar va boshqalar kiradi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda turli davlatlar, ularning yuridik va jismoniy shaxslari, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar ishtirok etishi mumkin.

Agar, xalqaro mulkiy munosabatlar asosan davlatning ichki huquqi, ya'ni xalqaro xususiy huquq normalari bilan tartibga solinsa, xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar xalqaro ommaviy huquq, xususan, uning mustaqil sohasi bo'lmish xalqaro iqtisodiy huquq normalari bilan tartibga solinadi.

Xalqaro iqtisodiy huquq — xalqaro iqtisodiy munosabatlarda xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar yig'indisi.

Xalqaro iqtisodiy huquq qadim tarixga ega. U savdo va dengizda suzishga oid davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos shakli bo'lib kelgan. Xalqaro iqtisodiy shartnomalar, dastavval, savdo bitimlari, keyinchalik transport, aloqa, sanoat mulki va boshqa iqtisodiy munosabatlarga oid hujjatlar shaklida bo'lgan.

Xalqaro iqtisodiy huquq xalqaro huquqning alohida tarmog'i bo'lib, uning prinsiplari va normalari davlatlararo iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga xizmat qiladi.

Xalqaro sohaning aksariyat huquqshunoslari xalqaro iqtisodiy huquq hozirgi xalqaro huquqning mustaqil tarmog'ini bo'lib xalqaro huquq subyektlari (avvalo, davlatlar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hamda ularning hamjihatlikdagi xohish-irodasini ifoda etuvchi mavjud, shuningdek, shakllanish va rivojlanish bosqichida bo'lgan prinsiplar va normalar majmuasidir, degan ta'rifni ma'qullaydilar.

Iqtisodiyotning globallashuvi jahon taraqqiyotidagi muhim omildir. Hamjamiyatdan ajralgan holda iqtisodiy mustaqillikka erishish (avtarkiya) harakatlari, tarixdan ma'lumki, hech qachon muvaffaqiyat qozonmagan. Sotsialistik iqtisodiy tizimning tanazzuli bunga yaqqol misol bo'la oladi. O'zbekiston Respublikasining muhim hayotiy manfaatlari mamlakatimiz iqtisodiyotining faol ravishda global iqtisodiy xo'jalik jarayonlariga qo'shilishini taqozo etadi.

Hozirgi zamon xalqaro iqtisodiy munosabatlar negizini bozor iqtisodiyoti prinsiplari tashkil etadi. Bu xalqaro iqtisodiy munosabatlar iqtisodiy usullar bilan tartibga solinishi kerak, deganidir. Jahon bozorining ravon, bozordagi narx-navo va tovarlar miqdori keskin o'zgarishlarga yuz tutmay, harakatlanishi muvaffaqiyat garovidir. Ayni vaqtda xalqaro huquq subyektlari, ya'ni davlatlar taraqqiyot darajasidagi keskin farqlanishlar ham bozor rivojiga to'sqinlik qiladi. Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy huquq quyidagi bir necha maqsadlarga yo'naltirilgan:

— monopolizm, ya'ni bozorga yagona ta'minotchi hukmron bo'lishiga qarshi kurashish;

— risoladagidek ishlash amaliyotini qo'llab-quvvatlash;

— subyektlarning taraqqiyot darajalarini tenglashtirish;

— xalqaro iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish;

— xalqaro iqtisodiy hamkorlikka ko'maklashish.

Xalqaro iqtisodiy huquqning bu maqsadlari uning quyidagi asosiy xususiyatlarini belgilab beradi:

1) umumjahon ahamiyatga molik ekanligi;

2) turli davlatlarning xo'jalik faoliyatiga o'zaro singib keta olishining natijasi o'laroq, xalqaro va ichki huquq o'rtasida umumiy xalqaro huquqqa nisbatan yaqinroq darajada aloqadorlik mavjudligi.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar o'ta murakkabligi bilan ajralib turadi. Bu aloqalarning asosiy qismi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida amalga oshiriladi. Bunday faoliyat bevosita davlatlarning ichki huquqi va bilvosita (davlatlar orqali) xalqaro iqtisodiy huquq bilan tartibga soladi.

Xalqaro iqtisodiy munosabatlar amaliyotida bir qancha rejimlar yuzaga kelganki, davlatlar boshqa davlatlarni, ularning jismoniy va yuridik shaxslarini o'z hududlarida ana shu rejimlar asosida faoliyat yuritishiga ruxsat etadi:

Davlatning mumkin qadar qulaylik berish rejimi. Bu bir davlat boshqa davlatga yoki uning fuqarolariga uchinchi bir davlat va uning fuqarolariga taqdim etilganidan kam bo'lmagan darajada qulaylik yaratishga qaratilgan rejimdir.

Milliy rejim. U ikki turdan iborat bo'lib; birinchisi, umumiy huquqqa nisbatan milliy rejim iloji boricha ko'proq davlatlarda amal qilib, o'z huquq va majburiyatlari borasida mahalliy fuqarolarga tenglashtirilgan, qonunda ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno, barcha chet elliklarga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga taqdim etiladi.

Ikkinchisi, maxsus iqtisodiy huquqlarga nisbatan milliy rejim chet elliklarga yoki fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga qonunda maxsus ko'zda tutilgan alohida huquqlar taqdim etilishini anglatadi. Iqtisodiy faoliyat sohasida chet elliklar bilan mahalliy fuqarolarning maqomini to'laligicha tenglashtirib qo'yish ma'qullanmaydi, chunki bu milliy iqtisodiyotni xavf ostida qoldirishi mumkin.

Maxsus rejim — xorijiy davlatlar va ularning fuqarolariga qonunda yoki xalqaro shartnomada maxsus ko'zda tutilgan alohida huquqlarni taqdim etish.

Preferensial rejim bir iqtisodiy birlashmaning fuqarolari yoki davlatlariga yoxud qo'shni mamlakatlarga alohida qulay shart-sharoit yaratishni nazarda tutadi.

Xalqaro iqtisodiy huquq obyektlarini tartibga solishning murakkabligi shundaki, u xilma-xildir. Masalan, savdo, moliyaviy, investitsiyaviy, transport va boshqa masalalar bo'yicha munosabatlarni qamrab oladi. Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy huquq tarkibiga savdo huquqi, moliyaviy huquq, investitsiyaviy huquq va hokazo kichik tarmoqlar kiradi.

Xalqaro iqtisodiy huquqning umumiy prinsiplari bo'lib xalqaro huquqning asosiy prinsiplari amal qiladi. Maxsus prinsiplar sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- kamsitmaslik, ya'ni barcha subyektlarning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda ishtirok etishdagi teng huquqliligi prinsipi;
- o'zaro manfaatdorlik prinsipi;
- har bir davlatning o'z tabiiy boyliklariga suvereniteti prinsipi;
- tashqi iqtisodiy aloqalarni tashkil etish shaklini tanlash huquqi prinsipi;
- iqtisodiy qulay sharoitlar yaratib berish prinsipi;
- milliy rejim prinsipi.

2-§. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari

Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari, umuman olganda, umumiy xalqaro huquq manbalarining o'zidir. Shu bilan birga, ayrim o'ziga xos maxsus manbalari ham mavjud.

Xalqaro iqtisodiy huquq maxsus manbalarining aksariyatini xalqaro shartnomalar, shuningdek, xalqaro «yumshoq» huquq normalari tashkil etadi. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga doir qoidalar quyidagi turli xil hujjatlarda aks etgan bo‘ladi:

1) iqtisodiy mazmundagi maxsus bitimlar;

2) umumsiyosiy hujjatlar;

3) jahon iqtisodiyotining globallashuvi munosabati bilan iqtisodiy masalalar bo‘yicha shartnomalarning tobora ko‘proq qismini tashkil etayotgan ko‘p tomonlama shartnomalar;

4) xalqaro iqtisodiy tashkilotlar, shuningdek, mintaqaviy integratsiyalashgan birlashmalarning ta‘sis hujjatlari va ana shu tashkilotlar hamda birlashmalar qabul qiladigan hujjatlar.

Xalqaro iqtisodiy huquq shartnomalarini ishtirokchilar soni (tarkibi) bo‘yicha ikki guruhga ajratish mumkin.

— Davlatlararo (yoki hukumatlararo, tashkilotlararo doirada turli mamlakatlarning bir xil maqomdagi subyektlari o‘rtasida tuziladigan) shartnomalar;

— Diagonal, ya‘ni davlat bilan boshqa davlatning jismoniy yoki yuridik shaxslari o‘rtasida tuziladigan shartnomalar.

Tartibga solish predmeti bo‘yicha xalqaro shartnomalar bir necha turlarga bo‘linadi.

1. *Savdo shartnomalari* (savdo to‘g‘risida, savdo va dengizda suzish to‘g‘risida, savdo va navigatsiya to‘g‘risida) davlatlar nomidan tuzilib, ratifikatsiya qilinishi zarur. Ular hukumatlararo yanada aniqroq bitimlar tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Savdo bo‘yicha umumiy rejimdan tashqari, bunday shartnomalarda bojxona —tarif bo‘yicha qarorlar mavjud bo‘ladi, ular jismoniy va yuridik shaxslarning maqomini belgilaydi, kema qatnovi va transportning boshqa turlari qatnovi umumiy rejimi va hokazolarni joriy etadi. Bunday shartnomalarda hamkorlikning institutsiyaviy mexanizmlarini tashkil etish haqidagi qoidalarga tez-tez duch kelish mumkin. Aksar hollarda savdoga taalluqli qoidalar do‘stlik to‘g‘risidagi shartnomalarga kiritiladi.

2. *Tovar ayirboshlash va to‘lovlar to‘g‘risidagi shartnomalar* tovar ayirboshlashga tegishli mahsulotlar kontingentini (nomi va miqdorini) belgilaydi. Kontingent doirasida tovarlarni olib kirish va olib chiqish uchun litsenziyalar beriladi. Ko‘pincha tovar ayirboshlash to‘g‘risidagi bitimlarda to‘lovlar haqidagi qoidalar mavjud bo‘ladi. Bu qoidalar nafaqat tovar ayirboshlash hisob-kitoblari, balki u bilan bog‘liq sarf-xarajatlar, transport, sug‘urta, fraxt va boshqa to‘lovlarga doir masalalarni ham belgilab beradi. Bular, odatda, uzoq muddatli savdo bitimlari bo‘lib, har yili ularga qo‘shimcha ravishda nisbatan aniq masalalar bo‘yicha protokollar imzolab boriladi.

3. *Kliring bitimlari* tashqi savdoda, chet el valyutasini ko'chirmagan holda, yuzaga keladigan muqobil talab va majburiyatlarni hisobga olish yo'li bilan o'zaro hisob-kitoblar tartibini belgilaydi. Bundan maqsad o'zaro to'lovlarni muvozanatlashtirishdan iboratdir. Hisob-kitoblar amalga oshiriladigan valyuta kursi o'zgarib turishini nazarda tutgan holda, bunday bitimlarga «valyutaviy izoh» kiritiladiki, unga ko'ra, valyuta kursi o'zgarganda kredit hisob raqamlaridagi mablag' to'g'ridan to'g'ri qayta hisoblab chiqiladi.

4. *Iqtisodiy, ilmiy-texnik hamkorlik to'g'risidagi bitimlar* sirasiga, odatda, shu sohalaridagi hamkorlikning uzoq muddatli dasturlari kiradi. Ularda ko'pincha ijro mexanizmlarini tashkil etish ko'zda tutilgan bo'ladi.

5. *Kredit bitimlarida* tomonlar kreditlashning asosiy shartlarini belgilaydilar. Bunda banklar va firmalar kreditlash subyektlari hisoblanadi. Bu guruhga xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirishdan (natsionalizatsiyadan) kafolatlovchi investitsiya rejimi to'g'risidagi bitimlar ham kiradi.

6. *Soliq bitimlarining* mavzui, odatda, ikki tomonlama soliqqa tortishga barham berishdan iborat bo'ladi.

Universal xalqaro tashkilotlarning aktlari rezolyutsiyalar va deklaratsiyalar shaklida bo'ladi. Ular yuridik hujjat hisoblanmasa-da, ijrosidan bo'yin tovlash mumkin bo'lmagan o'ziga xos umumiy normativ fon yaratadi.

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning aktlari bir necha turdan iboratdir:

1) konvensiyalar — a'zo davlatlar tomonidan imzolanadi yoki boshqacha tarzda barcha xalqaro shartnomalar kabi qabul qilinadi;

2) rezolyutsiyalar va deklaratsiyalar — majburiy mazmunga ega bo'lmagan va umumiy fikrni ifodalovchi hujjatlar;

3) tavsiyalar — rasman majburiy mazmunga ega bo'lmasa-da, ak-sariyat hollarda a'zo davlatlar majburiy hujjatlar sifatida qabul qiladi. Ularning bajarilmasligi a'zo-davlatlarning o'z manfaatlariga ziyon yetkazishi mumkin;

4) asosiy yo'nalishlar (umumiy tavsiyalar, rahbariy ko'rsatmalar) — ular o'zining yuridik ahamiyati jihatidan tavsiyalarga yaqin turadi. Ularning asosiy mazmuni a'zolarning tegishli soha huquqiy rivojidagi tendensiyalar to'g'risidagi fikrlaridan iboratdir;

5) muomala kodekslari XX asrning 70-yillaridan e'tiboran davlat-lararo munosabatlar amaliyotiga kirib keldi. Bu alohida toifadagi subyektlar yoki iqtisodiy faoliyatning muayyan sohasi (texnologiyalar yu-borish, cheklangan xizmat amaliyoti ustidan nazorat) bo'yicha muomala qoidalari majmuyidir. Rasman tavsiyaviy mazmunga ega bo'lsa-da, ular-ning ahamiyati milliy qonunchilikni ishlab chiqish uchun o'ziga xos model bo'lib xizmat qilishda ko'rinadi. Misol tariqasida Tarmoq kon-

ferensiyalari muomalasi kodeksini oladigan bo'lsak, alohida kema qatnovi tarmog'larida ishlaydigan kema qatnovi kompaniyalari guruhlari ushbu qoidalar majmuyi bo'yicha faoliyat yuritadi. Muomala kodeksi ushbu qoidalarni ozmi-ko'pmi universallashtiradi, ya'ni bu qoidalarining dunyo miqyosida uyg'unlashuvi yo'lida xizmat qiladi.

3-§. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning ishtiroki

Xalqaro iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish tizimida davlat markaziy o'rinda turadi. U xalqaro iqtisodiy huquqning va umuman, xalqaro huquqning asosiy subyekti hisoblanadi.

Bunda davlat zimmasiga muhim, ayni chog'da, murakkab vazifa yuklanadi. Ya'ni, davlat mamlakatning ichki va tashqi amaliy faolligini rag'batlantirish uchun tegishli shart-sharoit yaratish yo'li bilan ichki munosabatlarda ham, xalqaro miqyosda ham milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga ko'maklashishi kerak bo'ladi. Shu maqsadda davlat o'z jismoniy va yuridik shaxslarining xorijiy kompaniyalar va davlatlar bilan o'zaro hamkorligi, ularning xorijdagi faoliyati hamda chet el jismoniy va yuridik shaxslarining o'z hududidagi faoliyati uchun muayyan huquqiy normalar yaratuvchi ikki va ko'p tomonlama bitimlar imzolaydi.

Davlat zimmasidagi vazifalarga, shuningdek, xalqaro tijorat arbitrajleri ishi uchun shart-sharoit yaratish masalasi ham kiradi.

Suveren hisoblangan davlat muayyan xususiy mulkni davlat mulkiga aylantirish huquqiga ega, milliy manfaatlar taqozo etgan hollarda fuqarolari zimmasiga o'zlarining xorijdagi sarmoya omonatlarini repatriatsiya qilish (o'z vataniga qaytarish) majburiyatini yuklashi mumkin. Masalan, jahon urushlari davrida Buyuk Britaniya xuddi shunday yo'l tutgan.

Davlatning xalqaro iqtisodiy munosabatlardagi o'ta muhim vazifasi o'z fuqarolarini, shuningdek, o'zida qayddan o'tgan kompaniyalarni diplomatik himoyaga olishdir.

Davlat tijorat faoliyatini bajarayotgan hollarda uning fuqaroviy-huquqiy javobgarligi masalasi muayyan muammoni yuzaga keltiradi. XX asrning birinchi yarmida davlatning har qanday holda ham to'la immunitetga egaligi g'oyasi hukmronlik qilardi, ya'ni davlat nafaqat sudga chaqirish va sud qilish, balki oldindan da'voni ta'min etish hamda sud qarorini ijro etishda ham tegishli immunitetga ega hisoblangan. Ammo bu risoladagidek iqtisodiy munosabatlar uchun to'sqinlik qilgan, natijada «savdolashuvchi davlat» nazariyasi paydo bo'ldi hamda bunday davlatlar funksional immunitet atalmish imtiyozga ega hisoblana boshlagan.

«Funksional immunitet» tushunchasi davlat tijorat faoliyatini emas, balki ommaviy-huquqiy mazmundagi faoliyatni bajarish chog'ida uning

tegishli immunitetga ega bo'lish huquqi mavjudligini anglatadi. Immunitetni cheklashni aniq tartibga soluvchi qoidalar ko'pincha xalqaro shartnomalarda bitilgan bo'ladi. Odatiy amaliyotda esa bu borada turlicha yondashuvlarni kuzatish mumkin. Masalan:

— to'raligicha davlatga qarashli bo'lgan korxonaga o'z davlatiga mansub sud oldida javob beradi;

— qo'shma korxonaga faoliyat ko'rsatib turgan davlat milliy huquqiga bo'ysunadi, ammo uning mulki oldindan da'voni ta'min etish va sud qarorini majburiy ijro etishga nisbatan immunitetdan foydalanadi. Fuqarolik javobgarlik esa yuridik shaxsning mulki ko'lami bilan cheklana-
di;

— davlatlar o'rtasidagi shartnoma asosida tashkil etilgan davlatlararo kompaniya ana shu xalqaro shartnoma normalariga amal qiladi. Odatda, bunday kompaniyalar o'z vazifasini bajarishi zarur bo'lgan doiradagi immunitetdan foydalanadi. Ularning mulkiga davlat mulkiga nisbatan bo'lganidek yondashiladi.

4-§. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar

Xalqaro iqtisodiy huquqni rivojlanishiga xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning vujudga kelishi katta ta'sir ko'rsatgan. Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy tashkilotlar zamonaviy xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida, xalqaro iqtisodiy huquqni rivojlanishiga katta hissa qo'shmoqdalar. XXI asr boshida dunyoda xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning ham umumjahon miqyosda, ham mintaqaviy darajada muayyan tizimi shakllandi. Xalqaro iqtisodiy huquqni xalqaro iqtisodiy tashkilotlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

BMT tizimida xalqaro iqtisodiy munosabatlar bilan bir qator organlar shug'ullanadilar. Bular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) BMT Bosh Assambleyasi;
- 2) BMTning Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi (EKOSOS);
- 3) YUNKTAD — BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha komissiyasi;
- 4) YUNIDO — BMTning sanoat taraqqiyoti bo'yicha konferensiyasi;
- 5) YuNSITRAL — BMT Bosh Assambleyasining xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi;
- 6) EKOSOSning beshta mintaqaviy — iqtisodiy komissiyasi (Yevropada — EKE; Osiyo va Tinch okeani mintaqasida — ESKATO; Lotin Amerikasida — EKLA; Afrikada — EKA; G'arbiy Osiyoda — EKZA).

Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar turli mintaqalarda ham ko'plab tuzilgan.

Umuman olganda, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar barcha xalqaro

tashkilotlarga xos bo'lgan maqomga egadir (yuridik tabiati, vakolatlari ko'lami, xalqaro-huquqiy subyektliligi ta'sis hujjati qoidalarida belgilanadi). Ammo xalqaro iqtisodiy tashkilotlar ko'pincha nosiyosiy hisoblanganligi tufayli, davlat ularga iloji boricha kengroq vakolatlar berishga intiladi. Aksariyat xalqaro iqtisodiy tashkilotlar o'zining asosiy vazifasini huquqiy ijodkorlik roli bilan bog'laydilar. Boshqalari esa, asosan, boshqaruv funksiyasini bajara borib, a'zo davlatlar hududida amal qiladigan boshqaruv hujjatlarini ishlab chiqadi.

5-§. Transmilliy korporatsiyalar

BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (YUNSTRAL) tomonidan izohlanishicha, «ko'pmillatli kompaniya» atamasi keng ma'noda qo'llanganda, bo'limlari, filiallari yoki boshqa tashkilotlari orqali tegishli darajada tijorat yoxud boshqa xil iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanadigan kompaniyalarni qamrab oladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ta'siri natijasi o'laroq, BMT amaliyotida quyidagi ikkita tushuncha paydo bo'lgan:

birinchisi, *ko'pmillatli kompaniyalar* bo'lib, davlatga mansub bo'lgan yoki davlat nazoratidagi kompaniyalardan iboratdir. Ular keyingi tur kompaniyalarga nisbatan mumkin qadar ko'proq qulaylik berish rejimidan foydalanadilar;

ikkinchisi, xususiy shaxslarning mulki hisoblanadigan *transmilliy kompaniyalardir*.

Transmilliy korporatsiyalar (TMK) xalqaro iqtisodiy aloqalarda tobora ahamiyatli subyektlarga aylanib bormoqda. Jahon savdosining uchdan bir qismi TMK bilan munosabatlar tizimidagi ichki firma savdosi hissasiga to'g'ri kelmoqda. Texnologiya yetkazib berish bo'yicha barcha to'lovlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ini TMK amalga oshirmoqdalar. Jahon iqtisodiyotining aksariyat masalalari davlatlar emas, ayni ana shu korporatsiyalar tomonidan hal etilyapti.

TMK huquqiy maqomining o'ziga xosligi o'z korxonalarini bir necha mamlakatlarda tashkil etishi natijasida uning davlatlarga nisbatan ko'proq mustaqil ekanida namoyon bo'lmoqda. TMK iqtisodiy nochor davlat bilan yakkama-yakka bellashadigan bo'lsa, uning qo'li baland kelishi tabiiydir.

Xalqaro maydonda TMK erkin bozor faoliyatiga ziyon yetkazishi va risoladagidek ishlash amaliyotiga to'sqinlik qilishi mumkin, chunki xalqaro savdoning yopiq tizimlarini tashkil etish TMK doirasida amalga oshiriladigan rejalashtirish sirasiga kiradi va bunda savdoning kattagina qismi bitta guruhga mansub korporatsiyalar nazorati ostidagi firmalar o'rtasida bajariladi. Bundan tashqari, TMK ishlab chiqarishni monopollashtirishga harakat qiladi va buning uchun yetarli darajada imkoniyatlarga ham ega bo'ladi.

Shu bilan birga, TMKga mutlaq ofat sifatida qarash ham to'g'ri emas. TMK o'zining investitsiyaviy harakatchanligi, aloqa tizimi, shu jumladan, hukumatlar bilan ham aloqasining kengligi, ilmiy va yuksak texnologiyalashgan ishlab chiqarishni tashkillashtirish borasidagi ulkan imkoniyatlari bilan jahon iqtisodiyoti rivojida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ular o'zining sarmoya kiritish, yangi texnologiyalar yetkazib berish, korxonalar tashkil etish, mahalliy xodimlarning malakasini oshirish orqali qabul qiluvchi mamlakatlar milliy iqtisodiyotiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir hisoblanadi. Umuman olganda, TMK davlatga nisbatan ko'proq samaradorlik va ozroq to'rachilik mavjud tashkilot ekani bilan farqlanadi va shu bois ular iqtisodiy muammolarni davlatga qaraganda osonroq, muvaffaqiyatliroq hal etadi.

Shunday ekan, TMK faoliyatini cheklash emas, balki ularning salohiyatini ijobiy sotsial maqsadlarga xizmat qildirish uchun tegishli shart-sharoit yaratish haqida gap borgani ma'quldir. Korporatsiyalar markazini o'zida qayd etuvchi davlatlardan tortib, qabul qiluvchi davlatlarga ularning faoliyati ustidan tegishli nazorat o'rnatilishini yoqlaydi. Ammo korporatsiyalar o'zining korxonalari va aktivlari bir qator davlatlarda joylashganligi faktini ro'kach qilgan holda, hech bir qiyinchiliksiz davlat nazoratini chetlab o'ta oladi. Shu ma'noda, bu borada faqat xalqaro nazoratgina yaxshi samara berishi mumkin.

Muammoning ahamiyatini hisobga olgan holda, BMT Iqtisodiy va Ijtimoiy kengashi (EKOSOS) tomonidan TMK bo'yicha markaz hamda TMK bo'yicha komissiya ta'sis etilgan. Komissiyada TMK muomalasi kodeksi ishlab chiqilgan bo'lib, undagi qoidalar tavsiyaviy maqomga ega. Bu qoidalarga yuridik kuchga egalik maqomi berishning imkoni bo'lmagan, chunki fuqarolari ko'plab TMKni nazorat qiluvchi davlatlar ularning manfaati nuqtayi nazaridan kelib chiqib, ikki taraflama pozitsiyani egallaganlar. Siyosiy darajada ular kodeks g'oyasini qo'llab-quvvatlagan bo'lsa, yuridik jihatdan kodeks qoidalarining ro'yobga chiqarilishiga qarshilik ko'rsatganlar.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarining xalqaro iqtisodiy tashkiloti — Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OESR) tomonidan ko'pmillatli korporatsiyalar uchun «Rahbariy asoslar» qabul qilingan bo'lib, u ham majburiy xarakterga ega emas va xalqaro «yumshoq» huquq toifasiga kiradi. Bu ularning ta'sir kuchini nafaqat davlatlarga, balki ular qatorida korporatsiyalarga ham joriy etish imkonini beradi.

«Rahbariy asoslar»ga muvofiq, korporatsiyalarning davlatga mansubligi quyidagi ikki mezon bo'yicha aniqlanadi, ya'ni TMK mazkur davlat huquqi bo'yicha tashkil etilgan va uning boshqaruv markazi shu davlat hududida joylashgan. Jismoniy shaxs misolida bo'lgani kabi dav-

lat bilan real aloqa mavjud bo'lishi talab etilmaydi. Bunday davlat korporatsiyalarni diplomatik himoya qilish huquqiga egadir.

TMK muammosi O'zbekiston uchun ham dolzarbdir. Birinchidan, ko'plab TMK bizning bozorimizga intilayotir. Ikkinchidan, TMKning huquqiy jihatlarini faoliyati bevosita kechadigan davlatlar, shuningdek, uchinchi mamlakatlar bozorlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shma korxonalar taalluqlidir. MDH Iqtisodiy ittifoqini tuzish to'g'risidagi shartnomada tomonlarning «qo'shma korxonalar, transmilliy ishlab chiqarish birlashmalari tuzish»ga ko'maklashish yuzasidan majburiyatlari qayd etilgan. Bu qoida rivojlantirila borib, bir qator shartnomalar imzolangan hamda davlat ishtirokidagi va ishtirokisiz ko'plab qo'shma korxonalar tashkil etilgan.

6-§. Xalqaro iqtisodiy huquqda javobgarlik

Davlat xususiy shaxslarning hamda transmilliy kompaniyalarning iqtisodiy faoliyati uchun javobgar hisoblanmaydi. Shuningdek, bunday kompaniyalar ham mustaqil yuridik shaxs sifatida o'zi mansub davlatning harakatlari uchun javobgar emas.

Yadro energiyasi, kosmosdagi faoliyat, kimyoviy moddalar bilan bog'liq bo'lgan va «xatarli» deb hisoblangan ishlab chiqarish tufayli ba'zi hollarda yuzaga keladigan vaziyatga ko'ra, muayyan davlat ushbu ishlab chiqarishdan foyda olsa, shu davlatning bunday faoliyati g'ayrihuquqiy emasligiga qaramay, boshqa davlatlarga undan ziyon yetadi. Keyingi yillarda shu kabi holatlarda davlatlarning fuqarolik-huquqiy javobgarligini belgilaydigan bir qator hujjatlar qabul qilindi.

Bir qancha tankerlar avariya uchraganidan so'ng, 1969-yilda Dengizni neft bilan ifloslantirishdan yetkazilgan ziyon uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Yadroviy ishlab chiqarishdan ziyon yetkazilgan hollar uchun davlatlar zimmasiga anchagina javobgarlik yuklanganligini Yadroviy kemalar operatorlarining javobgarligi to'g'risidagi 1962-yil konvensiyasi misolida ko'rish mumkin.

Xalqaro shartnomalar va davlatlar milliy qonunchiligida ko'rib chiqilayotgan holatlar bo'yicha javobgarlikdan ozod qilish imkoniyatlari ham ko'zda tutiladi. Xalqaro shartnomalardagi ozod qilish uchun asos, odatda, milliy qonunchilikda ko'zda tutilgan qoidalarning o'zidan iborat bo'ladi. Bunday xalqaro shartnomalarda kompensatsiyalar chegarasi belgilab qo'yilganligi ularning muhim jihati hisoblanadi.

7-§. Xalqaro savdo huquqi

Asrlar davomida savdo aloqalari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning amalda bo'lgan yakkayu yagona turi hisoblangan. Bu aloqalarni sav-

dogarlarning o'zlari amalga oshirib, bunda davlatning roli uncha sezilarli bo'lmagan. Davlat asosan chet elliklar va ularning mol-mulki maqomini belgilash bilan shug'ullangan. Normativ tartibga solish ehtiyoji asosan amaliyotda orttirilgan nodavlat mazmundagi odatlar hisobiga qondirilgan.

Xalqaro savdo munosabatlariga iqtisodiy munosabatlar kabi davlatlarning iqtisodiy va siyosiy o'ziga xosligi, shuningdek, ularning o'zaro munosabatlari bilan belgilanadigan xilma-xillik xosdir. Savdo aloqalarini tartibga solishda ikkitomonlama bitimlarning birlamchi ahamiyat kasb etishi ham shu bilan izohlanadi. Ko'ptomonlama xalqaro hujjatlarda bunday bitimlarning ahamiyatiga e'tibor qaratiladi va ulardan foydalanish tavsiya etiladi. Jahon savdosini yalpi ravishda, samarali tartibga solish zarurati bir qancha universal tashkilotlarning paydo bo'lishiga olib keldi.

GATT — Jahon savdo tashkiloti. 1947-yili xalqaro savdo sohasidagi asosiy hujjat — Tariflar va savdo to'g'risidagi bosh bitim — GATT (GATT — General Agreement on Tariffs and Trade) qabul qilingan. Ushbu bitim savdoni ko'ptomonlama tartibga solishning va shu bilan bir qatorda, xalqaro savdo huquqining asoslarini tashkil etdi.

Bitimda davlatning mumkin qadar qulaylik berish rejimi, kamsitmaslik rejimi, milliy rejim to'g'risidagi qoidalar o'rin olgan. Umuman olganda, uning vazifalari ko'lami unchalik keng bo'lmagan. Unda, asosan, 1947-yilda ham urushdan oldingi yuqori darajada saqlanib turgan bojxona tariflarini kamaytirish haqida gap borgan.

GATTning o'ziga xos ish tartibi qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, muzokaralar mavzusi e'lon qilinar va ushbu mavzu bir necha yil mobaynida muhokama etilardi. Bunday muzokaralar davrasi «raund» deb atalar va uning oxirida tegishli qaror qabul qilinar edi. 1994-yilda yetti yilga cho'zilgan Urugvay raundi deb atalmish muzokaralar yakuniga yetgan, unda 118 davlat ishtirok etgan. Ushbu raund nihoyasi bo'yicha Yakunlovchi akt qabul qilinib, u bir necha bitimlar va ularga ilovalardan iborat. Aktning asosiy matni 500 sahifani tashkil etadi. Asosiy hujjatlar sirasiga quyidagi bitimlar kiradi:

- 1) Jahon savdo tashkilotini (JST) ta'sis etish to'g'risida;
- 2) Bojxona tariflari to'g'risida;
- 3) Tovarlar savdosi to'g'risida;
- 4) Xizmatlar savdosi to'g'risida;
- 5) Savdoga taalluqli intellektual mulk huquqlari to'g'risida.

Xalqaro savdo sohasida ko'plab xalqaro tashkilotlar faoliyat ko'rsatadi.

1964-yili BMT Bosh Assambleyasi rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini ko'zlovchi mustaqil organ — *BMTning savdo va taraqqi-*

yot bo'yicha konferensiyasini (*YUNKTAD*) ta'sis etdi. U Davlatlarning tranzit savdosi to'g'risida konvensiya, xomashyo mahsulotlari savdosi bo'yicha bitimlar, savdo preferensiyalari global tizimi to'g'risida bitimlar va hokazo hujjatlarni ishlab chiqdi.

Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti (*OPEK*) jahon neft bozorida narx-navo barqarorligini ta'minlab turish va uning o'zgarishlariga yo'l qo'ymaslik kabi asosiy vazifani bajaradi. *OPEK* a'zo mamlakatlarning neft qazib olish siyosatini muvofiqlashtirib turadi.

Xalqaro mahsulot bitimlari — kofe, bug'doy, kakao, shakar, zaytun yog'i, kauchuk, qalayi kabi asosiy xomashyo mahsulotlarini eksport va import qiluvchilarni o'z safida birlashtiruvchi tashkilotlar ana shunday nomlanadi. Bu tashkilotlar muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga sotish borasida kvotalar ishlab chiqadi. Shu maqsadda ular fondlar va mahsulot zaxiralarini tashkil etadilar.

BMTning Xalqaro savdo huquqi bo'yicha komissiyasi (*YUNSIKRAL*) 1966-yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan tuzilgan. Uning vazifasi xalqaro savdo huquqini uyg'unlashtirish va unifikatsiyalashtirishdan iborat.

Xalqaro savdo palatasi — xalqaro nohukumat tashkilot bo'lib, 1920-yilda ta'sis etilgan, savdo odatlari va amaliyotini umumlashtirish bilan shug'ullanadi. Palata tomonidan qabul qilingan «Xalqaro atamalarni izohlashning xalqaro qoidalari» (*INKOTERMS*) keng ommaviylashgan bo'lib, muntazam ravishda yangilab turiladi.

8-§. Jahon savdo tashkiloti: maqomi, tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Jahon savdo tashkiloti (*JST*) xalqaro iqtisodiyot sohasidagi barcha bitimlarni amalga oshirishda asosiy o'rinni egalladi. Uning asosiy vazifalaridan biri — savdo va xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohasida yangi bitimlar tayyorlash. Demak, *JST*ning faoliyat doirasi savdo sohasi bilangina cheklanib qolmaydi.

*JST*ga a'zolik savdo uchun foydali shart-sharoit yaratishi bois, ko'pchilik davlatlar unga a'zo bo'lishga intiladilar. Ammo bu oson ish emas, chunki buning uchun har qaysi nomzod tegishli talablarga javob bera olishi, avvalo, uning iqtisodiyoti bozor iqtisodiyotiga asoslanganligi tan olinishi kerak.

JST rivojlangan tashkiliy tizimga ega. Uning yuqori organi barcha a'zo davlatlar vakillaridan tarkib topgan va ikki yilda bir marta chaqiriladigan sessiyalarda faoliyat yuritadigan *Vazirlar konferensiyasi* hisoblanadi. U *JST* faoliyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan barcha masalalar yuzasidan qarorlar qabul qiladi va uning nizomiga rasmiy izohlar beradi. Qarorlar konsensus asosida qabul qilinadi.

JST ijro organi Bosh kengash bo'lib, u ham barcha a'zo davlatlar vakillaridan iboratdir. Bosh kengash sessiyalar oraliq'idagi davrda majlislar o'tkazadi va shu davr mobaynida uning vazifalarini bajaradi. Uning qo'l ostida Nizolarni hal etish bo'yicha organ, Savdo siyosati bo'yicha organ kabi muhim organlar, turli kengash va qo'mitalar faoliyat yuritadi.

Nizolarni hal etish bo'yicha organ aslida Bosh kengashning tegishli o'rinlarda nizolarni hal etish bo'yicha organi sifatida o'tkaziladigan maxsus majlisidir. Umuman olganda, ushbu organning ish protsedurasi o'zida arbitraj bilan murosaga keltirish protsedurasi jihatlarini jamlab aralash mazmun kasb etadi.

Savdo siyosati bo'yicha organ ko'p tomonlama savdo bitimlarining ijrosini kuzatib boradi. Uning faoliyati savdo siyosatida va a'zolar amaliyotida ko'proq «shaffoflik»ka erishishga qaratilgan. Organ davlatlarning savdo siyosatini ular taqdim etadigan ma'ruzalar va JSTning kotibiyatining ma'ruzalari asosida ko'rib chiqadi. Natijalar xususida Vazirlar konferensiyasiga axborot topshiradi. Organ har yili barcha xalqaro savdo bilan shug'ullanuvchilarda katta qiziqish uyg'otadigan xalqaro savdo muhiti rivoji haqida sharhlar tayyorlab boradi.

JSTning ishtirokchilar milliy huquqiga ta'sir etish imkoniyatlari alohida e'tiborga sazovordir. JST nizomida qayd etilishicha, «har bir a'zo o'z qonunlari, qarorlari va ma'muriy protseduralarining ilova qilinadigan Bitimlardagi majburiyatlarga muvofiqligini ta'minlaydi». Mutaxassislarning hisob-kitoblariga qaraganda, JST bitimlarining amalga oshirilishi tufayli jahon daromadi yiliga qariyb 235 milliard dollarga ko'payar ekan. Jahon savdosi 2002-yilga kelib yiliga 755 milliard dollarga o'sdi.

JST faoliyatining asosiy yo'nalishlariga to'xtalamiz.

Birinchi yo'nalish — tariflarni kamaytirish. Rivojlanayotgan mamlakatlar taraqqiy etgan mamlakatlar sanoat mahsulotlarining 72 foizi bo'yicha belgilangan tariflarning 38 foizini bir tomonlama tartibda oshirib yubormaslikka rozi bo'ldilar. O'z navbatida, sanoati rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinadigan sanoat mahsulotlari uchun o'rtacha tarifni 37 foizga kamaytirishga ko'ndilar.

Ikkinchi yo'nalish — qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosini liberal-lashtirish. Bitimda barcha tarifsiz to'siqlarni tariflar bilan almashtirish ko'zda tutilgan.

Uchinchi yo'nalish — mahsulotning kelib chiqishiga doir qoidalar ilk bor yuridik majburiy kuchga ega shaklda JST bitimida qayd etilgan. Bu qoidalar savdo siyosatida davlatlar zo'raonligini cheklash va mahsulotlar kelib chiqishi to'g'risidagi milliy qoidalarni proteksion to'siqlarga aylantirishga barham berishga qaratilgandir.

To'rtinchi yo'nalish — ogohlantiruvchi choralar to'g'risidagi bitim-

larda, agar milliy sanoat jiddiy zarar ko'rayotgan yoki importning mislsiz darajada ortib ketishidan zarar ko'rishi mumkin bo'lsa, ahdlashayotgan tomonlar uchun majburiyatlarni vaqtincha to'xtatib turish yoki ularga o'zgartirishlar kiritish, shu jumladan, tariflar bo'yicha yon berish imkoniyatlari ko'zda tutilgan.

Beshinchi yo'nalish — antidemping choralari milliy sanoatni unga nisbatan kuchliroq bo'lgan xorijiy raqibdan, shuningdek, xorijiy kompaniyalar va hukumatlarning nohalol savdo siyosatidan himoyalash maqsadi ko'zda tutilgan.

Oltinchi yo'nalish — subsidiyalarni cheklash subsidiyalanadigan eksportga qarshi choralar ko'rishga tegishlidir.

Etinchi yo'nalish — savdodagi texnik to'siqlar tovarlarni olib kirish va olib chiqish bilan bog'liq ko'p sonli va xilma-xil qoidalar, ishlab chiqarish va sanitariya standartlari, sinovlar va hokazolardan iborat. Bunday to'siqlarga barham berishdan ko'zlanadigan maqsad huquqiy tartibga solishni internatsionallashtirish, savdo kontraktlari shartlarini soddalashtirish va bu kabi holatlarda yuzaga keladigan nizolarni hal etishdir.

Sakkizinchi yo'nalish — savdoni xizmatlar ko'magida tartibga solish tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Masalan, AQSHning umumiy savdo hajmida xizmatlar savdosi 30 foizni tashkil etadi. Hozircha u ko'p sonli milliy hujjatlar hisobiga ushlab turilibdi va yuzaga kelayotgan muammolar mumkin qadar qulaylik berish rejimiga muvofiq ravishda o'zaro yon berishlar yo'li bilan hal etilmoqda.

To'qqizinchi yo'nalish — intellektual mulk huquqi. Shu paytga qadar maxsus konvensiyalar bilan tartibga solinar edi. Savdoning intellektual mulkka doir jihatlari bo'yicha JST bitimlari mavjud konvensiyalarga nisbatan ilg'orligi bilan ajralib turadi. Ularda himoyaning nisbatan yuqori standartlari belgilangani buning misolidir.

9-§. Xalqaro moliya huquqi

Xalqaro moliya huquqi-davlatlararo valyuta-moliya munosabatlarini, ya'ni hisob-kitob, kredit munosabatlari, savdo bitimlarini moliyaviy ta'minlash, valyuta bozorini takomillashtirish, xalqaro valyuta-kredit tashkilotlarini tuzish va ularning faoliyatiga doir munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy prinsiplar va normalar majmuyi.

Davlatlar o'rtasidagi valyuta-moliya munosabatlarini tartibga solish ikki tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Bu sohaga taalluqli qoidalar, odatda, umumiy mazmun kasb etuvchi iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi shartnomalarda o'z ifodasini topadi.

Valyuta-moliya munosabatlari rivojlanib va murakkablashib borgan sari davlatlar ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tuzishga ko'proq e'tibor

bera boshlaydilar. Bunday tashkilotlar orasida 1945-yilda tuzilgan va BMTning ixtisoslashgan muassasasi hisoblangan *Xalqaro valyuta fondi* (XVF) markaziy o'rinni egallaydi. Deyarli barcha davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi va MDHning boshqa mamlakatlari ham XVF a'zosi.

Xalqaro valyuta fondining maqsadi quyidagilardan iborat:

- 1) valyuta siyosati sohasidagi hamkorlikni rag'batlantirish;
- 2) jahon savdosining muvozanatli rivojiga ko'maklashish;
- 3) valyutalar barqarorligini saqlab turish;
- 4) raqobat nuqtayi nazaridan kelib chiqib valyutalarning devalvatsiya qilinishiga qarshilik ko'rsatish;
- 5) valutaning erkin transfertiga ko'maklashish;
- 6) a'zo mamlakatlar to'lov balanslarining muvozanatsizligiga barham berish uchun mablag'lar ajratish.

Xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'lish chog'ida har bir davlat unga tegishli sarmoyaning muayyan ulushiga imzo chekadi. Ana shu kvota bilan davlatga tegishli bo'lgan ovoz soni, shuningdek, u olishi mumkin bo'lgan ko'mak miqdori belgilanadi.

Jahon banki juda murakkab xalqaro tuzilmalardan hisoblanadi. Uning tizimiga Jahon banki Prezidentiga bo'ysunuvchi quyidagi to'rtta mustaqil muassasa kiradi:

1) *Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki (XTTB)*. Aksariyat ko'pchilik davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston va MDH mamlakatlari ham uning ishtirokchilari hisoblanadi. Bankning maqsadi — ishlab chiqarish sohaslariga sarmoya kiritish, shuningdek, xususiy va xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirish;

2) *Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK)* — BMTning ixtisoslashgan muassasasi bo'lib, maqsadi — rivojlanayotgan mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotiga xususiy ishlab chiqarish korxonalarini rag'batlantirish yo'li bilan ko'maklashishdan iborat. Ko'pchilik davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston va MDH mamlakatlari ham uning ishtirokchilaridir;

3) *Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA)* — XTTB otalig'idagi tashkilot, qashshoq mamlakatlarga foizsiz qarzlarni berish bilan shug'ullanadi;

4) *Investitsiya kafolatlari bo'yicha ko'p tomonlama agentlik (IKKA)*.

Shuningdek, *London va Parij klublari* bank ittifoqlari ham mavjud bo'lib, ular davlatlarga xususiy boshqaruvdagi banklardan tijorat shartlari asosida qarz olib berish bilan shug'ullanadi.

10-§. Xalqaro investitsiya huquqi

Xalqaro investitsiya huquqi davlatlarning sarmoya kiritish borasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi prinsiplar va normalar majmuyidir.

Xorijiy investitsiyalar — chet el investorlari tomonidan foyda (daro-mad) olish maqsadida tadbirkorlik obyektlariga va faoliyatning boshqa turlariga omonat qo‘yiladigan mulkiy hamda intellektual boyliklarning barcha turlari.

XX asrning 90-yillari xorijiy investitsiyalar ko‘lami va ular bilan bog‘liq holda bu sohadagi milliy hamda xalqaro huquq ijodkorligi izchil ravishda yuksalgan davr bo‘ldi. Chet el investitsiyalarini jalb etishga intilib, qariyb 45 ta rivojlanayotgan va sobiq sotsialistik mamlakatlar keyingi bir necha yilda yangi qonunlar qabul qildilar. Buning natijasida taxminan 500 ta ikki tomonlama shartnoma tuzildi. Bunday shartnomalarning umumiy soni 900 taga yetib, ularda 140 ta davlat ishtirok etayotir. Bu hujjatlarning barchasi, umuman olganda, bir tomondan investitsiyalarning huquqiy rejimini liberallashtirishga, ikkinchi tomondan ularni himoyalash darajasini oshirishga qaratilgandir. Ulardan ayrimlari xorijiy investorlarga milliy rejim va hatto erkin kirish imkoniyatini taqdim etadi. Ularning ko‘pchiligida kompensatsiyalanmagan natsionalizatsiyadan va valyutani olib chiqishni taqiqlashdan kafolatlar mavjud.

O‘zbekiston ishtirok etayotgan bitimlarda milliy rejim taqdim etish ko‘zda tutilgan. Asosiy e‘tibor xorijiy investitsiyalarni notijoriy qaltisliklardan, ya‘ni urush, davlat to‘ntarishi, inqilob va hokazolar bilan bog‘liq siyosiy qaltisliklardan kafolatlashga qaratilgan.

1988-yili Jahon banki tashabbusi bilan 1985-yildagi Seul konvensiyasi negizida *Investitsiya kafolatlari bo‘yicha ko‘ptomonlama agentlik* ta‘sis etildi. Uning maqsadi — kafolatlar berish, shu jumladan, chet el investitsiyasiga notijorat qaltisliklarni sug‘urtalash va qayta sug‘urtalash yo‘li bilan ishlab chiqarishga chet el sarmoyalarini kiritishni rag‘batlantirishdan iborat. Bunday qaltisliklar sirasiga valyutani olib chiqishni taqiqlash, natsionalizatsiyalash hamda boshqa shu kabi choralar, shartnomaning buzilishi va, albatta, urush, inqilob, ichki siyosiy g‘alayonlar kiritilgan.

Agentlik tashkiliy jihatdan Xalqaro taraqqiyot va tiklanish banki bilan bog‘liq bo‘lib, unga faqat XTTB a‘zolarigina a‘zo bo‘lishi mumkin. Ammo agentlik yuridik va moliyaviy jihatdan mustaqil hisoblanadi. 120 dan ziyod davlat, shu jumladan, O‘zbekiston va MDHning boshqa mamlakatlari uning a‘zolari hisoblanadilar.

Investorning agentlik bilan munosabati xususiy-huquqiy shartnoma asosida rasmiylashtiriladi. Unga ko‘ra, investor sug‘urta kafolati summasidan foiz sifatida belgilanadigan miqdorda yillik sug‘urta badali to‘lab borishga majbur. O‘z navbatida, agentlik zarar hajmidan kelib chiqib belgilanadigan muayyan miqdordagi sug‘urta to‘lovini to‘lab borish majburiyatini yuklaydi. Bunda tegishli davlatga nisbatan bildirilgan da‘volar subrogatsiya tartibida agentlikka o‘tadi.

11-§. Natsionalizatsiya

Xorijiy mulkni natsionalizatsiya qilish investitsiya huquqi va, umuman, xalqaro huquqning asosiy muammolaridan biri hisoblanadi.

Xorijiy mulkni natsionalizatsiya qilish xalqaro huquqda tan olingan bo'lsa-da, muayyan shartlar ham ko'zda tutilgan. Masalan: o'zboshimchalikka asoslanmasligi; xususiy emas, balki jamoa manfaatlari yo'lida amalga oshirilishi hamda tezkor va muvofiq tarzda tegishli kompensatsiyalar mavjud bo'lishi kerak. O'zbekiston qonunchiligida natsionalizatsiya to'g'risidagi masala xalqaro amaliyotda tasdig'ini topgan qoidalarga muvofiq hal etiladi. Xalqaro amaliyot kompensatsiya uchun asos natsionalizatsiyadan keyin yuzaga keladi, ammo bunda natsionalizatsiyani amalga oshirish niyati to'g'risida e'lon qilish natijasida yetkazilgan ziyon uning hisobiga kiritiladi, degan prinsipga amal qiladi.

12-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslari

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini xalqaro iqtisodiy munosabatlarga oid ko'p tomonlama va ikki tomonlama shartnomalar hamda milliy qonunlar asosida amalga oshiradi. Bu borada 1998-yil 14-mayda «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi» maxsus qonun qabul qilingan. Ushbu qonunning yangi tahriri 2000-yil 26-mayda qabul qilindi¹. Bu qonun tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi. Qonunning asosiy vazifalari tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining:

- iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- iqtisodiy suvereniteti va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish;
- milliy iqtisodiyotini rivojlantirish;
- iqtisodiyotini jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iboratdir.

Tashqi iqtisodiy faoliyat deganda, O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali iqtisodiy aloqalarni o'rnatishi va rivojlantirishga qaratilgan faoliyati tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan yuridik shaxslar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashash joyiga ega bo'lgan va yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqlidirlar.

¹ O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. 2000. № 4–5. 148-m.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

1) tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligi;

2) tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining tengligi;

3) savdo va iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdan o‘zaro manfaatdorlik;

4) tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

— xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

— tashqi savdo faoliyati;

— chet el investitsiyalarini jalb qilish;

— O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati.

O‘zbekiston Respublikasining xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorligi ishlab chiqarish, moliya, bank va sug‘urta faoliyati, ta‘lim va kadrlarni tayyorlash, turizm, sog‘liqni saqlash, ilmiy-texnikaviy, madaniy, ekologiya, gumanitar va boshqa sohalarda tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xorijiy davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek, xalqaro tashkilotlar bilan o‘zaro foydali aloqalarni o‘rnatishi va kengaytirishiga qaratilgan tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdir.

Xalqaro tovar ayirboshlash sohasidagi tadbirkorlik faoliyati tashqi savdo faoliyati hisoblanadi. Tashqi savdo faoliyati tovarlarni eksport va import qilish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlarning O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga, ularni qayta olib kirish majburiyatini olmasdan, olib chiqib ketilishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar belgilanmagan bo‘lsa, eksport deb e‘tirof etiladi.

Tovarlarni O‘zbekiston Respublikasining bojxona hududiga, ularni qayta olib chiqib ketish majburiyatini olmasdan, olib kirish import deb e‘tirof etiladi.

Chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning boshqa turlariga kiritilayotgan moddiy va nomoddiy ne‘matlarning barcha turlari hamda ularga bo‘lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulkka bo‘lgan huquqlar, shuningdek, chet el investitsiyalaridan olinadigan har qanday daromad O‘zbekiston Respublikasi hududidagi chet el investitsiyalari deb e‘tirof etiladi.

O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi tadbirkorlik va boshqa faoliyat obyektlariga moddiy va nomoddiy ne‘matlarni hamda ularga bo‘lgan huquqlarni qo‘yish bilan bog‘liq tashqi iqtisodiy faoliyat sub-

yektlari harakatlarining yig'indisi O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati deb e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

1) yuridik shaxslar tashkil etish yoki ustav fondlarida (kapitallarda) ulushbay asosda, shu jumladan mol-mulk va aksiyalar sotib olish yo'li bilan qatnashish;

2) O'zbekiston Respublikasidan tashqarida vakolatxonalar, filiallar va boshqa alohida bo'linmalar ta'sis etish;

3) qimmatbaho qog'ozlarni, shu jumladan, xorijiy davlatlarning rezidentlari tasdiqlagan qarz majburiyatlarini sotib olish;

4) konsessiyalarni, shu jumladan, tabiiy resurslarni qidirish, izlab topish, qazib olish yoxud ularda foydalanishga mo'ljallangan konsessiyalarni qo'lga kiritish;

5) mulk huquqini, shuningdek, yerga hamda boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish huquqini qo'lga kiritish.

O'zbekiston Respublikasida xorijiy davlatlarning savdo va iqtisodiy masalalar bo'yicha vakolatxonalari O'zbekiston Respublikasining tegishli xorijiy davlatlar bilan tuzadigan xalqaro shartnomalari asosida ta'sis etiladi.

Ajnabiy yuridik shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq vakolatxonalar ochishga haqlidirlar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

— tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;

— valyuta bilan tartibga solish;

— soliq bilan tartibga solish;

— tarif va notarif tartibga solish;

— O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensatsiya va dempingga qarshi choralarni qo'llash;

— tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan, miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;

— qurol-yarog'lar, harbiy texnika, ikki xil maqsadda ishlatilishi mumkin bo'lgan tovarlar va texnologiyalarga nisbatan eksport nazoratini o'rnatish;

— olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;

— texnikaviy, farmakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;

— tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda Vazirlar Mahkamasi quyidagi vakolatlarga ega:

- 1) tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqadi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini, iqtisodiy mustaqilligi va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;
- 3) O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi xalqaro shartnomalarini tuzadi;
- 4) O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini ishlab chiqadi;
- 5) chet eldan olinadigan kreditlar uchun O'zbekiston Respublikasi hukumati kafolatlarini beradi;
- 6) O'zbekiston Respublikasining chet ellardagi mulkiga egalik qiladi, undan foydalanadi va uni tasarruf etadi.

O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda vakolatli davlat organi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi:

- 1) tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat siyosati olib borilishini, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilinishini ta'minlaydi;
- 2) tashqi iqtisodiy faoliyatning qonunchilik negizini takomillashtirishga doir takliflarni ishlab chiqadi;
- 3) qonun hujjatlarida belgilangan vakolatlarini doirasida tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari faoliyatini muvofiqlashtiradi va tartibga solib turadi;
- 4) tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat boshqaruv organlari ishini muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasida qonun hujjatlari bilan tovarlar eksporti, importini taqiqlash hamda cheklash belgilanishi mumkin va ular quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- milliy xavfsizlikni ta'minlash;
- fuqarolar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilish, hayvonot va o'simlik dunyosini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish;
- ijtimoiy axloq-odobga va huquq-tartibotga rioya etish;
- O'zbekiston Respublikasi xalqining madaniy merosini saqlash;
- madaniy boyliklarni noqonuniy olib chiqish, olib kirish va ularga bo'lgan mulk huquqlarini boshqalarga o'tkazishdan himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasining to'lov balansini saqlab turish;
- O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlarini bajarish;
- tiklab bo'lmaydigan tabiiy resurslar tugatilishining oldini olish;
- O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlarini himoya qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi shartnomani amalga oshirish

natijasida yuzaga keladigan nizolar shartnomada nazarda tutilgan tartibda hal qilinadi. Shartnomada nizolarni hal qilishni tartibga soluvchi qoidalar bo'lmagan taqdirda, qo'llaniladigan huquq va hal qilinadigan joy xalqaro xususiy huquqning umume'tirof etgan normalariga muvofiq belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan nizolari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona bojlari, soliqlar va ularga teng kuchga ega bo'lgan yig'implarni bekor qilishga, tovarlarni eksport va import qilishning miqdoriy cheklovlariga, tovarlarning erkin harakat qilishi yo'lidagi boshqa to'siqlarni bekor qilishga qaratilgan erkin savdo to'g'risida xorijiy davlatlar bilan xalqaro shartnomalar tuzishi mumkin.

YIGIRMANCHI MAVZU. XALQARO ATROF-MUHIT HUQUQI¹

- 1-§. Xalqaro atrof-muhit huquqi, uning taraqqiyoti va prinsiplari**
- 2-§. Atrof-muhitning xilma-xil turlarini muhofaza qilish**
- 3-§. Hayvonot va o'simliklar dunyosi muhofazasi**
- 4-§. O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorligi**
- 5-§. Xalqaro atrof-muhit huquqining nazariy muammolari**

1-§. Xalqaro atrof-muhit huquqi, uning taraqqiyoti va prinsiplari

Xalqaro atrof-muhit huquqi atrof-muhit muhofazasi, uning xazinalaridan unumli foydalanish borasida xalqaro huquq subyektlari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq prinsiplari va normalari majmuyidir.

Uzoq davr mobaynida tabiiy muhitni asrab-avaylash na jamiyat va na davlat uchun ustuvor qadriyat hisoblanmagan. Bu borada BMT ustavidek muhim dasturilamal hujjatda ham tabiiy muhit haqida biror so'z deyilmaganligini eslatishning o'zi kifoya.

Keyingi o'n yilliklarda tabiiy muhitni asrab avaylash Yerda hayot davom etishining zaruriy sharti sifatida umuminsoniy qadriyatlardan biriga aylanib bormoqda. Ammo buni anglab yetish jarayoni juda sust kechmoqda. 1972-yilning iyun oyida umuminsoniy miqyosdagi ilk an-

¹ Izoh: Xalqaro huquq bo'yicha darsliklarda ushbu mavzu ikki nom bilan ma'lum: «Xalqaro ekologiya huquqi» va «Xalqaro atrof-muhit huquqi». Umuman ushbu ikki nomlanish sinonim tarzida ishlatiladi.

juman — Atrof-muhit muammolari bo'yicha BMT konferensiyasi bo'lib o'tdi va unda dastlabki muhim hujjat — BMTning Atrof-muhit muammolari bo'yicha Stokgolm deklaratsiyasi qabul qilindi.

Shundan so'ng xalqaro atrof-muhit huquqi ayrim omillar asosida rivojlana boshladi.

Birinchidan, xalqaro «yumshoq» huquq hujjatlari — rezolyutsiyalar, deklaratsiyalarni qabul qilish yo'li bilan rivojlandi. Bunga BMT Bosh Assambleyasi 1980-yilda qabul qilgan «Davlatlarning Yer tabiatini hozirgi va kelgusi avlod uchun saqlab qolish uchun tarixiy javobgarligi to'g'risida»gi rezolyutsiyasini, shuningdek, 1982-yilda Xalqaro nohukumat tashkilotlar kongressi tomonidan qabul qilingan «Tabiat umumjahon xartiyasi»ni misol sifatida keltirish mumkin.

1992-yil Rio-de-Janeyroda davlatlar, xalqaro tashkilotlarning nufuzli vakillari, olimlar ishtirokida bo'lib o'tgan Atrof-muhit va taraqqiyot bo'yicha BMT konferensiyasi muhim tarixiy ahamiyatga ega bo'ldi. Konferensiyada mazkur muammoning holati turli nuqtayi nazarlar bo'yicha o'rganildi va uni hal etishning yangi, zamonaviy yo'llari ishlab chiqildi. Xususan, Rio deklaratsiyasi (Global sheriklikning yangi shakllari negizida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha xalqaro hamkorlik kelishilgan prinsiplarining yangilangan majmuyi), «XXI asr kun tartibi» nomli deklaratsiya va bir qator konvensiyalar qabul qilindi. Ana shu barcha hujjatlarning asosi global hamkorlik konvensiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Iqlim o'zgarishi to'g'risida va biologik xilma-xillik haqidagi ramkali konvensiyalarning 154 ta ishtirokchisidan biridir.

Ikkinchidan, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasiga doir xalqaro shartnomalarni ishlab chiqish orqali. Hozir bunday shartnomalarning soni ikki yuztaga yetdi. Bu xalqaro shartnomalar hamkorlikning ayrim sohalariga yoki alohida jug'rofiy hududlarga taalluqlidir.

Xalqaro atrof-muhit huquqi rivojida xalqaro tashkilotlar yetakchi o'rin tutadi. Ayniqsa, BMTning o'rni alohida bo'lib, Bosh Assambleya bu borada prinsipial rezolyutsiyalar qabul qiladi. Shuningdek, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash (EKOSOS) ekologiya masalalari bilan muntazam shug'ullanadi. Bunda BMT tizimidagi boshqa tashkilotlar hamda uning mintaqaviy komissiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. BMTning Sanoat taraqqiyoti bo'yicha tashkiloti (YUNIDO), YUNESKO, Atom energiyasi bo'yicha xalqaro agentlik (MAGATE), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JST), Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) kabi ixtisoslashgan muassasalarining har biri o'z sohasi bo'yicha atrof-muhit muhofazasiga oid qoidalarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Maxsus xalqaro tashkilot — YUNEP haqida alohida to'xtalib o'tish joizdir. Yuridik jihatdan u 1972-yilning dekabrda Bosh Assambleyaning 1972-yilgi Insonni o'rab turuvchi atrof-muhit muammolari bo'yicha

BMT konferensiyasi tavsiyalariga muvofiq barpo etilgan yordamchi organ hisoblanadi. YUNEP doirasida huquqiy masalalar ishlab chiqiladi, konvensiyalarni tayyorlash borasida tashabbuskorlik ko'rsatiladi. YUNEP vakillari turli muammolar bo'yicha bitimlar ishlab chiqish maqsadida o'tkaziladigan ko'plab konferensiyalarda ishtirok etadi.

YUNEPning rahbariy organi 58 nafar a'zodan iborat Boshqaruvchilar kengashi bo'lib, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan to'rt yil muddatga saylanadi. Boshqaruvchilar kengashi zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan:

1) tashkilot faoliyatiga umumiy rahbarlik va BMT tizimi doirasida insonni o'rab turuvchi atrof-muhit sohasiga taalluqli dasturlarni muvofiqlashtirish;

2) yuzaga keladigan muammolar hukumatlar tomonidan tegishli tartibda ko'rib chiqilishiga erishish maqsadida jahon miqyosida atrof-muhitning holatini muntazam kuzatib borish;

3) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikka ko'maklashish va hokozolar.

YUNEP qarorgohi Nayrobida (Keniya) joylashgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari xalqaro huquqning inson huquqlari, dengiz huquqi, havo huquqi, kosmik huquq va hatto qurolli mojarolar huquqi kabi turli sohalariga taalluqli bitimlarda o'ziga xos tartibga solish obyektiga aylanmoqda.

Xalqaro huquqning asosiy prinsiplari xalqaro ekologiya huquqining umumiy prinsiplari hisoblanadi.

1972-yilgi deklaratsiyada o'z ifodasini topgan xalqaro atrof-muhit huquqining maxsus prinsiplar quyidagilardan iborat:

1) insonning atrof-muhitga nisbatan munosib va farovon yashash imkonini beradigan darajadagi huquqi;

2) atrof-muhitni hozirgi va kelgusi avlodlar farovonligi yo'lida muhofaza qilish;

3) tabiat zaxiralaridan ekologik jihatdan asoslangan holda oqilona foydalanish.

Quyidagi bir qator tabiat muhofazasiga qaratilgan prinsiplar esa xalqaro huquqning boshqa tarmoqlaridan o'rin oladi:

— dengiz muhitini ifloslantirishni taqiqlash;

— atrof-muhitning radioaktiv zaharlanishiga yo'l qo'ymaslik;

— tabiiy muhitga ta'sir etuvchi vositalardan harbiy maqsadlarda yoki boshqa har qanday dushmanlarcha foydalanishni taqiqlash.

Bularning barchasi bir qadar umumiy prinsip — atrof-muhitni muhofaza qilish prinsipining shakllanishiga xizmat qiladi. Ayni chog'da boshqa davlatlarning tabiatga ziyon yetkazganlik uchun javobgarlik prinsipi shakllanayotir.

2-§. Atrof-muhitning xilma-xil turlarini muhofaza qilish

Atrof-muhitning alohida turlari xalqaro-huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

1. *Dengiz muhiti xalqaro-huquqiy muhofazaning dastlabki obyektlaridan biridir.* BMTning 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha konvensiyasida dengizni kemalar ifloslantirishiga barham berishning umumiy prinsiplari va tabiiy zaxiralarni qazib olish bo'yicha yo'l-yo'riqlar, Jahon okeanida davlatlarning zaxira qazib olish faoliyatiga oid shartlar hamda ularning dengiz muhitini muhofaza etish yuzasidan vakolatlari belgilangan.

Ayniqsa, dengizni neft bilan ifloslantirishga qarshi kurashga alohida e'tibor berilgan. Ilk ekologik universal konvensiya — 1954-yildagi Dengizni neft bilan ifloslantirishning oldini olish bo'yicha London konvensiyasi xuddi shu muammoga bag'ishlangan. Unda kemalardan neft va neft aralashmalarini to'kish taqiqlab qo'yilgan. Tankerlar bilan bog'liq bir qator avariyalardan keyin yangi konvensiyalar qabul qilindi, 1969-yilgi Ochiq dengizda neft bilan ifloslantirishga sabab bo'ladigan avariyalarga (falokatlariga) aralashish to'g'risidagi Bryussel konvensiyasida qirg'oqbo'yi davlatlariga g'oyat katta vakolatlar berilgan. Hatto ular qirg'oqni va qirg'oqbo'yi suvlarini jiddiy tarzda ifloslantirish xavfi yuzaga kelgan taqdirda kema va yukni yakson qilish huquqiga ega. Konvensiyada xuddi shunday hollarda dengizning boshqa moddalar bilan ham ifloslantirilishiga qarshi bir qator qat'iy choralar belgilangan (1973-yilgi protokol).

Tabiiyki, neft bilan ifloslantirish oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash to'g'risidagi masala ham kun tartibidan o'rin olgan. 1969-yildagi Neft bilan ifloslantirishdan kelib chiquvchi zarar uchun fuqarolik javobgarligi to'g'risidagi Bryussel konvensiyasi aynan shu masalaga bag'ishlangandir. Unda kema egalari mutlaq, ya'ni aybiga bog'liq bo'lmagan holdagi javobgarligi mustahkamlangan va shu bilan birga, uning hajmlari yuqori ko'rsatkichlarda bo'lsa-da, cheklab qo'yilgan. Neft bilan ifloslantirish oqibatlariga qarshi kurash davlatlarning hamjihatlikdagi harakatlarini taqozo etadi. 1990-yilgi Neft bilan ifloslantirish hollariga tayyorlikni ta'minlash, u bilan kurash va hamkorlik bo'yicha konvensiya xuddi shunday harakatlarni tashkillashtirishga qaratilgan.

Kemalardan har qanday ishlatib bo'lingan chiqindilarni tashlashni man etish masalalari 1973-yilgi Dengizni kemalar ifloslantirishining oldini olish bo'yicha konvensiyada ko'zda tutilgan. 1972-yildagi Dengizni chiqindilar va boshqa materiallar bilan ifloslantirishning oldini olish bo'yicha konvensiya esa ekologik zararli moddalarni dengizga ko'mish muammolariga bag'ishlangan.

Mintaqaviy darajada ham qator bitimlar tuzilgan. Bu borada 1976-

yilgi O'rtta Yer dengizini ifloslanishdan muhofaza etish to'g'risidagi konvensiya ilk keng qamrovli konvensiya hisoblanadi. 1992-yilgi Qora dengizni ifloslanishdan muhofaza etish to'g'risidagi konvensiya yerdagi ifloslantiruvchi manbalar to'g'risidagi, favqulodda vaziyatlarda neft va boshqa zararli moddalar bilan ifloslantirishga qarshi kurashda hamkorlik haqidagi masalalarga taalluqlidir.

1973-yilgi Dengizni kemalar bilan ifloslantirishning oldini olish bo'yicha konvensiyada Boltiq dengizi «alohida hududlar» toifasiga kiritilgan. Bunday hududlarga nisbatan ifloslantirishga barham berish borasida yuqoriroq talablar qo'llaniladi. Boltiqbo'yi mamlakatlari 1974-yilda Boltiq dengizi hududidagi dengiz muhitini muhofaza etish bo'yicha Xelsinki konvensiyasini tuzganlar. Uning o'ziga xosligi dengizni quruqlikdan turib ifloslantirishni man etishi bilan izohlanadi. Konvensiya negizida Boltiq dengizi hududidagi dengiz muhitini muhofaza etish bo'yicha komissiya tashkil etilgan. Ammo tez orada konvensiya qoidalari yetarli emasligi ayon bo'lib qoldi va 1992-yilda Boltiq dengizi hududidagi dengiz muhitini muhofaza etish bo'yicha yangi konvensiya qabul qilinib, unda bu borada yanada qat'iyroq talablar qayd etilgan. Uning ta'sir kuchi ichki suvlarning muayyan qismiga ham taalluqli bo'lib, bunday ta'sir doirasining chegaralari har bir davlat tomonidan belgilanadi.

2. *Daryolar va ko'llarning* suvlari katta farqlarga ega bo'lganligi tufayli ular to'g'risida umumiy konvensiyalar ishlab chiqishning imkoni topilmagan. Hatto Yevropa Kengashi 1974-yilda tayyorlagan mintaqaviy konvensiya uchun zarur miqdordagi ratifikatsiyalar to'planmagan. Daryolarni ifloslantirishga barham berish to'g'risidagi ayrim qoidalar boshqa masalalarga bag'ishlangan bitimlar tarkibida ham mavjuddir. Yuqorida zikr etilgan Boltiq dengizi to'g'risidagi konvensiya ana shu dengizga quyiladigan daryolarga ham taalluqlidir. Muhofaza masalalari qirg'oqbo'yi davlatlari bitimlari bilan, hozircha qoniqarsiz tarzda bo'lsa-da, hal etilmoqda. Ijoiy natija sifatida Reyn suvlarini muhofaza etishning tegishli normalari va tashkiliy shakllariga e'tibor qarataish mumkin. 1963-yilda Reynni ifloslanishdan muhofaza etish to'g'risida Bern konvensiyasi imzolangan. Uni ro'yobga chiqarish maqsadida komissiya ta'sis etildi. Ushbu komissiya 1976-yilda Reynni ximikaliylar bilan ifloslanishdan hamda xloridlardan muhofaza etish to'g'risidagi konvensiyalar tayyorlagan.

Chuchuk suv iste'molining ortib borishi va uning zaxiralari cheklanganligi munosabati bilan chuchuk suvli havzalarni muhofaza qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Buning natijasi o'laroq, xalqaro ekologiya huquqining yangi qirralari yuzaga kelmoqda. Hayot talablaridan kelib chiqqan holda BMTning Xalqaro huquq komissiyasi xalqaro

suv oqimlaridan kema qatnovidan boshqa yo'nalishlarda foydalanish huquqi to'g'risidagi moddalar loyahasini tayyorladi va Bosh Assambleyaga taqdim etdi. Suv oqimlari deganda, nafaqat ochiq, balki yaxlit bir oqimni tashkil etgan va, odatda, yagona chiqish yo'li sari oqadigan yer osti suvlari tizimi tushuniladi. Muayyan qismlari boshqa davlatlarda joylashgan suv oqimlari xalqaro suv oqimlari hisoblanadi. Bunday suv oqimlarining rejimi hududiy jihatdan bog'liq bo'lgan davlatlar o'rtasidagi bitimlar bilan belgilanadi. Bu davlatlarning har biri bitimda ishtirok etish huquqiga egadir.

Davlatlar suv oqimlaridan ularning muhofazasini tegishli ta'minlay oladigan darajada foydalanishga majbur sanaladi. Ular suv oqimlari muhofazasida adolatli asoslarda ishtirok etishga va bu maqsadga erishish yo'lida hamkorlik qilishga majburdirlar.

3. *Havo muhitining* muhofazasi xalqaro atrof-muhit huquqida biror-bir ko'rinishda aks etmagan. Mazkur masala ikki tomonlama va mintaqaviy darajalarda hal etiladi. YXHT doirasida 1979-yilda tayyorlangan va keyinchalik bir qator protokollar bilan to'ldirilgan Katta masofalarda havoni ifloslantirish to'g'risidagi konvensiya bu boradagi yagona muhim qadamdir. Unda havoda keng ko'lamda tarqalib ketadigan va jamiki tirik jonzotga ziyon yetkazadigan kislotali yomg'irlarni yuzaga keltiruvchi oltingugurtning atmosferaga chiqarilishini qisqartirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tabiat muhofazasida *issiqxona ta'siri*, ya'ni atmosferaning asosan avtoulovlardan chiqadigan uglerod gazi bilan to'yinishi oqibatida *dunyo miqyosida iqlim isishi* kuchayishining oldini olish borasidagi hamkorlik muhim yo'nalish hisoblanadi. Bu borada 1992-yili BMTning Iqlimni o'zgartirish to'g'risidagi ramkali konvensiyasi qabul qilingan. Unda hamkorlikning umumiy qoidalari va asosiy yo'nalishlari belgilab berilgan. Davlatlarning umumiy javobgarligi o'rnatilgan, ayni chog'da ularning iqtisodiy salohiyatidagi farqlari inobatga olinmagan. Iqlimning salbiy o'zgarishlaridan ko'proq zarar ko'radigan, boshqa tomondan esa bunday hollarga qarshi chora qo'llash imkoniyatlari juda oz bo'lgan rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlariga ayniqsa alohida e'tibor qaratish zarur.

Ozon qatlami Yerni Quyoshning ultrabinafsha nurlarining zararli ta'siridan saqlab turadi. Inson faoliyatining salbiy oqibatlari natijasi o'laroq, bugungi kunda ana shu qatlam anchagina siyraklashib qolgan va ayrim hududlar ustida «ozon tuynuklari» paydo bo'lgan. Shu bois 1985-yilda Ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha konvensiya qabul qilindi. Unda ozon qatlami ahvolini nazorat qilish va uni muhofaza etish borasida hamkorlik masalalari to'g'risida so'z boradi. 1987-yilda Ozon qatlami siyraklashishiga olib keluvchi moddalarga doir Monreal

protokoli qabul qilingan. Ushbu qatlamga salbiy ta'sir etuvchi moddalarni ishlab chiqarish borasida cheklashlar belgilangan.

3-§. Hayvonot va o'simliklar dunyosi muhofazasi

1972-yilgi Insonni o'rab turuvchi atrof-muhit muammolari bo'yicha Stokgolm konferensiyasida ma'qullangan prinsipga muvofiq, Yer zaxiralari, shu jumladan, havo, suv, yer yuzasi, hayvonlar, o'simliklar hozirgi va kelgusi avlod manfaatlarini uchun jiddiy rejalashtirish va boshqarish yo'li bilan muhofaza etilishi zarur.

Umumiy strategiya nohukumat tashkilot — Xalqaro tabiatni va tabiiy zaxiralarni saqlash ittifoqi tomonidan ishlab chiqilgan va 1982-yilda «Jahon tabiatni saqlash strategiyasi» harakat dasturi sifatida chop etilgan. Hujjatni tayyorlash jarayonida hukumatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ko'plab maslahatlashuvlar o'tkazilgan. «Jahon tabiatni saqlash strategiyasi»ning maqsadi o'z zaxiralarini tartibga solishda hukumatlarga samarali usullarni taklif etish yo'li bilan tirik zaxiralarni saqlab qolish natijasida barqaror rivojlanishga erishishlariga ko'maklashishdan iboratdir. «Strategiya» muhim ekologik jarayonlarni va tuproqni tiklash va muhofaza etish, oziq moddalarni qayta ishlash, suvni tozalash, biologik xilma-xillikni saqlash kabi o'zini o'zi saqlab qolish tizimlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Aksariyat muhim hayotiy jarayonlar aynan ana shularga bog'liqdir. Hayvonlar va o'simliklarning muayyan turlari, shuningdek, ekotizimdan foydalanishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda.

Bunday maqsadlarga iloji boricha tezroq erishish kerak bo'ladi. Yeming o'z aholisini moddiy ne'matlar bilan ta'minlash imkoniyatlari tobora kamayib bormoqda. O'rmonlarning kesib yuborilishi va ulardan noto'g'ri foydalanish oqibatida har yili millionlab tonna tuproq yo'qolib borayotir. Sanoati rivojlangan mamlakatlarning o'zidagina imoratlar va yo'llar qurilishi tufayli har yili uch ming kvadrat kilometr hajmdagi qishloq xo'jalik maydonlari foydalanishdan chiqmoqda.

«Strategiya»da o'z maqsadlarini ro'yobga chiqarishning muhim vositalaridan biri sifatida tabiiy zaxiralar to'g'risidagi qonunchilikning takomillashtirilishi ko'zda tutilgan. Davlatning yanada samarali va keng qamrovli bo'lgan ichki ekologik huquqini yaratish zarur. Davlatlar tabiatning barcha unsurlari o'zaro hamjihat, bir-biriga bog'liq, butun atrof-muhit yaxlit global tizimdan iborat ekani faktini tushungan holda siyosat yuritgandagina tabiatning jamiki xilma-xil dunyosi, shu jumladan, insoniyat ham yashab qolishini ta'minlashga erishish mumkin.

Qayd etilgan tashkilot Tabiat umumjahon xartiyasini ham tayyorlagan bo'lib, u 1982-yili BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan maqullangan va tantanali ravishda e'lon qilingan. Mazkur xartiyada tirik zaxi-

ralardan ularning tiklanish imkoniyatidan ortiq darajada foydalanilmaslik tuproq hosildorligini saqlash va oshirib borish, zaxiralar, shu jumladan, suv iloji boricha qayta ishlanishi va ulardan qaytadan foydalanish, qayta tiklanmaydigan zaxiralarni katta tejamkorlik asosida ishlatish zarurligi qayd etilgan.

Hayvonot va o'simlik dunyosiga bag'ishlangan konvensiyalar ichida 1972-yilgi Umumjahon madaniyati va tabiat merosini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiyani qayd etish maqsadga muvofiqdir. U alohida ahamiyatga ega tabiat majmualarini, yo'qolib borayotgan hayvonot va o'simlik turlari mavjud joylarni muhofaza qilish borasida hamkorlikni ta'minlashga qaratilgan. 1983-yilgi Tropik o'rmonlar to'g'risidagi bitim esa o'simliklar dunyosi muhofazasiga bag'ishlangan. 1973-yilgi Yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan yovvoyi fauna va flora turlari bilan xalqaro savdo to'g'risidagi konvensiyaning dunyo miqyosidagi ahamiyati beqiyos bo'lib, unda bunday savdo ustidan nazorat qilishning asoslari belgilab berilgan.

Konvensiyalarning aksariyati hayvonot dunyosi turlari — kitlar, tyulenlar, oq ayiqlar muhofazasiga bag'ishlangan. Bu borada nomlanishidanoq mazmun-mohiyati anglashilib turgan 1992-yilgi Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiyani alohida qayd etish o'rinlidir. Shuningdek, 1979-yilgi Ko'chib o'tayotgan yovvoyi hayvonlar turlarini muhofaza qilish to'g'risidagi konvensiya ham muhim ahamiyatga ega-dir.

4-§. O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorligi

O'zbekiston borgan sari global ekologik muammolarning tazyiqini his etmoqda. YUNESKO ma'lumotlariga ko'ra, respublikamizda eng katta hisoblangan Abramov muzligi yer kurrasining isishi sababli keyingi 30-yilda o'z hajmining 18 foizini yo'qotdi. Haroratning yana 0,5 darajaga ko'tarilishi muzlikning yana 17 foizi erib ketishiga va natijada ichimlik suvi sifatining yomonlashishiga olib kelishi mumkin¹. Shu va boshqa ekologik muammolar sabab O'zbekiston xalqaro ekologik hamkorlikda ishtirok etmasligi mumkin emas.

Mustaqillik davrida O'zbekiston quyidagi xalqaro konvensiyalarga qo'shilgan:

1. Iqlim o'zgarishi bo'yicha chegaralangan konvensiya (1993-y.)
2. Biologik rang-baranglik to'g'risidagi konvensiya (1996-y.)
3. Xavfli chiqindilarni chegaradan olib o'tish va ularni yo'qotish nazorati bo'yicha Bazel konvensiyasi (1996-y.)

¹ Qarang: Inson taraqqiyoti to'g'risida ma'ruza: O'zbekiston 99. 2000. B.78—79.

4. Hududlarning cho'lg'a aylanishi bo'yicha konvensiya (1996-y.)

Konvensiyalar bo'yicha qabul qilingan majburiyatlarni amalga oshirish borasida faol ishlar olib borilmoqda. O'zbekistonni BMT Yevropa Konvensiyasiga a'zolikka qabul qilish masalasi ko'rib chiqilmoqda. Keyingi yillarda, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza etish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasida o'zaro totuvlik va hamkorlik to'g'risida Turkiya Respublikasi (1996-y.) va Xitoy Xalq Respublikasi (1997-y.) bilan ikki tomonlama xalqaro shartnomalar imzolandi. Niderlandiya qirolligi, Vengriya, Slovakiya Respublikasi, Isroil, Lyuksemburg, Litva kabi mamlakatlar bilan shartnomalar tayyorlandi. MDH doirasida Markaziy Osiyo respublikalari bilan tabiatni muhofaza etish sohasida o'zaro hamkorlik bo'yicha uch tomonlama shartnoma, Gruzija, Belorusiya, Ukraina bilan ikki tomonlama shartnomalar imzolandi. O'zbekiston Davlatlararo ekologik kengashning (DEK) faol a'zosi, uning uchinchi sessiyasi 1993-yilning may oyida Toshkentda bo'lib o'tdi. Mazkur sessiyada DEK a'zolari bo'lmish mamlakatlarning ekologiya sohasidagi hamkorligiga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqildi va respublika tomonidan bir qator shartnoma va nizomlarni imzolash haqida qaror qabul qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Yer xartiyasini tasdiqlashni ko'zlamoqda, u jahon mamlakatlari uchun muhim hujjat bo'lib qolishi kutilmoqda. Barqaror rivojlanish bo'yicha O'zbekiston milliy komissiyasining tashabbusiga ko'ra, mazkur xartiyaning birinchi milliy muhokamasi Toshkentda o'tkazildi. Xavf-xatarsiz, barqaror taraqqiyotni ta'minlash maqsadida jamiyat asos qoidalarni joriy etadi. Chunonchi, ular ekologik tizimlar butunligini himoyalash va tiklash; atrof-muhitga yetkazilayotgan ziyonni qoplash emas balki oldini olish; qaytarib bo'lmay yoki jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan harakatlarga chek qo'yish majburiyatini yuklaydi.

5-§. Xalqaro atrof-muhit huquqining nazariy muammolari

Shuni nazardan qochirmaslik kerakki, «atrof-muhit himoyasi» tushunchasi «tabiat muhofazasi» degan tushuncha bilan ayrim jihatlardan o'xshash bo'lishiga qaramay, ular aynan bir xil, o'zaro muqobil tushunchalar emas. Dastavval tabiat va uning resurslari muhofazasi sifatida paydo bo'lib, tabiat muhofazasi bilan bog'liq maqsadlarni o'z oldiga qo'yar ekan, atrof-muhit unsurlari (masalan, atmosfera havosi, dengiz muhiti, chuchuk suv zaxirasi, hayot sifati, ishlab chiqarish muhiti kabilar) ilk bor BMT ning Atrof-muhit muammolari deklaratsiyasida (1972-yil) qayd etilgan.

Xalqaro-huquqiy amaliyot quyidagilardan foydalanish va ularni muhofaza etish borasida ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro

huquq tarmog'i, degan tushunchani anglashda qarashlar yakdilligi mavjud emasligidan dalolat beradi:

1) tabiiy (jonli) muhit (flora, fauna) obyektlari;

2) jonsiz muhit (dengiz va chuchuk suv havzalari, ya'ni gidrosfera), havo havzasi (atmosfera), tuproq (litosfera), yerga yaqin kosmik bo'shliq obyektlari;

3) insonning tabiat bilan o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyati jarayonida yaratilgan «sun'iy» muhit obyektlari.

Ayrim xalqaro huquq bo'yicha mutaxassislar «ekologiya» tushunchasi jonli organizmlar va ular tashkil etadigan hamjamiyatlarning o'zaro hamda atrof-muhit bilan munosabatlari to'g'risidagi fan ma'nosini anglatishdan kelib chiqib, «atrof-muhit» atamasini yuqorida sanab o'tilgan obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish borasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquq tarmog'ini ifodalash uchun qo'llaydi.

Xalqaro amaliyotda yuzaga keladigan huquqiy munosabatlarni ifodalash uchun har ikki atamani ham qo'llash tajribasi mavjud. Masalan, 1992-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan BMT konferensiyasida xalqaro huquq subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan muayyan bir munosabatlarni ana shu har ikki atama bilan ifodalash tajribasi qo'llangan.

Xalqaro ekologiya huquqining xalqaro huquq tarmog'i sifatida shakllanish jarayoni davom etmoqda.

Xalqaro-huquqiy nazariyada atrof-muhit muhofazasi sohasidagi dolzarb masalalarga quyidagilar kiradi:

1) ekologik xavfsizlikning yangi, butun jahon konsepsiyasini belgilash. Bu sayyoramizning ekologik tartiblari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimini, shuningdek, ular o'rtasida mavjud bo'lib turgan jonli tabiiy muvozanatni asrash va saqlab turish kabilarni o'z ichiga oladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, atrof-muhit muhofazasi bilan xalqaro xavfsizlik o'rtasida bevosita aloqa o'rnatiladi. Ekologik xavfsizlikning huquqiy mazmuni davlatlarning o'z faoliyatini shunday bir tartibda amalga oshirish majburiyatidan iboratki, toki bunda ekologik inqirozlarning mahalliy, milliy, mintaqaviy va global darajalarda kuchayib borayotgan ta'siri istisno etilsin;

2) atrof-muhitni insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlari farovonligi yo'lida himoyalash va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkillashtirish va amalga oshirish borasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish. Ushbu masalani butun jahon darajasida hal etish yo'lida 1972-yil Atrof-muhit bo'yicha BMT dasturi (YUNEP) ta'sis etilgan.

YUNEPning asosiy vazifalari quyidagilar:

— atrof-muhit jabhasida hamkorlikka ko'maklashish va tegishli tavsiyalar ishlab chiqarish;

- BMT tizimi doirasida atrof-muhit muhofazasi jabhasidagi siyosatga umumiy rahbarlik qilish;
- doimo ma’ruzalarni tayyorlash va muhokama qilish;
- atrof-muhit muhofazasi xalqaro huquqini rivojlantirishga ko’maklashish;
- urush davrida atrof-muhitni muhofazalashga qaratigan norma-larning ta’sirchanligini oshirish (1868-yilgi Sankt-Peterburg deklaratsiyasi, 1907-yilgi quruqlikdagi urush qonunlari va odatlari to’g’risidagi Gaaga konvensiyasi va uning nizomi, 1949-yilgi urush davrida fuqaro aholisini himoyalash to’g’risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi I qo’shimcha protokol, 1977-yilgi Tabiiy muhitga ta’sir ko’rsatish vosita-laridan harbiy yoki boshqa har qanday dushmanlik yo’li bilan foydala-nishni taqiqlash to’g’risidagi konvensiya, shuningdek, atrof-muhit himo-yasi repressaliy sifatida tabiiy muhitga keng ko’lamli, uzoq muddatli va jiddiy ziyon yetkazgan yoki yetkazish ehtimoli bo’lgan harbiy harakat-larni amalga oshirish usullari va vositalarini qo’llash prinsipi mustahkam-langani hujjatlar — 1980-yilgi odatdagi qurol-yarog’ konkret turlarining qo’llanishini taqiqlash yoki cheklash to’g’risidagi konvensiyalar norma-lari shular jumlasidandir. Shuningdek, atrof-muhitni qandaydir hujum obyektiga aylantirilishi man etiladi);
- amaliyotga («ifloslantiruvchi to’lashga majburligi» prinsipi bo’yicha) joriy etish.

YIGIRMA BIRINCHI MAVZU. XALQARO JINOYAT HUQUQI¹

- 1-§. «Xalqaro jinoyat huquqi» tushunchasi**
- 2-§. «Xalqaro jinoyat» tushunchasi**
- 3-§. Xalqaro jinoyatlarning turlari**
- 4-§. Xalqaro va davlatning ichki jinoyat huquqi**
- 5-§. Xalqaro jinoyat sudi**
- 6-§. Davlatlarning oddiy va umumiy jinoyatchilik bilan kurash sohasidagi hamkorligi**
- 7-§. Interpol faoliyati**

¹ Izoh: Turli darslik va ilmiy yuridik adabiyotlarda ushbu mavzu uch xil nomlanadi: «Xalqaro jinoyat huquqi», «Jinoyatchilikka qarshi kurash bo’yicha xalqaro hamkorlik» va «Xalqaro jinoyatchilik bilan kurashda xalqaro huquqning roli». So’nggi yillarda «Xalqaro jinoyat huquqi» iborasi tobora ko’proq e’tirof etilmoqda.

1-§. «Xalqaro jinoyat huquqi» tushunchasi

Xalqaro jinoyat huquqiga oid jinoyatlar qadimdan ma'lum. «Xalqaro jinoyat huquqi» iborasi esa XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida paydo bo'lgan. Xalqaro jinoyat huquqi xalqaro xarakterdagi jinoyatlarga qarshi kurash uchun zarurdir. Chunki bunday jinoyatlar bir necha yoki barcha davlatlar uchun ijtimoiy xavf tug'diradi. Ikkinchi jahon urushidan keyin xalqaro jinoyat huquqi yanada jadal sur'atlarda rivojlandi. Bunga misol tariqasida Nyurenberg, Tokio, sobiq Yugoslaviya va Ruanda bo'yicha tuzilgan tribunallar faoliyatini ko'rsatish mumkin.

Xalqaro jinoiy faoliyat keng qamrovli tushunchadir. Xalqaro huquqqa qarshi jinoyatlarda xalqaro huquq tartibga soladigan ijtimoiy munosabatlar jinoiy tajovuz obyekti hisoblanadi. Xalqaro ijtimoiy xavf tug'diruvchi harakatlar ikki guruhga bo'linadi: birinchisi, xalqaro jinoyatlar; ikkinchisi, xalqaro xarakterdagi jinoyatlar.

Jinoyatchilikka qarshi kurashda davlatlar xalqaro hamkorligining ahamiyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- 1) jinoyatlarning tobora baynalmilallashuvi va globalashuvi;
- 2) xalqaro jinoyatlarning ko'payishi va bir qancha yoki barcha davlatlarning manfaatlariga zidligi;
- 3) davlatlarning xalqaro jinoyatlarga qarshi kurashda o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirishining zarurligi;
- 4) jinoyatchilikka qarshi kurashda milliy va xalqaro-huquqiy vositalarni qo'shib olib borishning zarurligi.

Shunday qilib, xalqaro jinoyat huquqi zamonaviy xalqaro huquqning kompleks mustaqil sohasidir. Xalqaro jinoyat huquqi normalari ikki subyektga, ya'ni davlatlarning o'zaro vakolat va majburiyatlari bo'yicha hamkorligi va xalqaro jinoyatlar uchun jismoniy shaxslarning jinoiy javobgarligiga qaratilgan bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqi — davlatlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi hamkorligini tartibga soluvchi prinsiplar va normalar majmuyi. Uning o'ziga xos jihati shundaki, aniq kishilar, jismoniy shaxslar tomonidan sodir etilgan xatti-harakatlar huquqiy tartibga solish obyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqini tartibga solish sohasiga xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va odatdagi jinoiy ishlarga qarshi kurashda hamkorlik kabilar kiradi.

2-§. «Xalqaro jinoyat» tushunchasi

«Xalqaro jinoyat» tushunchasi II jahon urushidan keyin, Germaniya va Yaponiyaning asosiy harbiy jinoyatchilarini sud qilish uchun Nyurenberg va Tokio tribunallari tashkil etilgan davrda yuzaga kelgan. Bu tri-

bunallar maxsus xalqaro bitimlar asosida tashkil etilgan bo'lib, bunday hujjatlar sirasiga jinoiy xatti-harakatlarni aniqlashdan tortib, jinoyatchilarni jazolashgacha bo'lgan protsessual normalarni o'z ichiga olgan tribunallar nizomlari ham kiradi.

BMTning Xavfsizlik Kengashi rezolyutsiyasiga muvofiq, 1993–1994-yillarda Ruanda va Yugoslaviya bo'yicha xalqaro tribunallar tashkil etildi. E'tiborlisi shundaki, Nyurnberg va Tokio tribunallari davlatlararo mojarolar davrida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa, Ruanda va Yugoslaviya bo'yicha tribunallar xalqaro bo'lmagan mojarolar bilan bog'liq ishlarni ham o'rganish uchun tuzildi.

Shu bilan bir qatorda, urushdan keyingi davrda aholining ma'lum guruhiga qarshi qaratilgan og'ir jinoyatlar bilan kurashga bag'ishlangan bir qator konvensiyalar qabul qilingan.

Shunday qilib, alohida shaxslar tomonidan sodir etilishi oqibatida butun insoniyat farovonligiga ziyon yetkaziladigan xatti-harakatlar tushunchasi asta-sekin shakllanib borgan. Turli sabablarga ko'ra bunday xatti-harakatlarning oldini olish yoki ularga barham berish uchun bir davlatning ta'sir kuchi yetarli bo'lmay qolgan va shu bois xalqaro ko'lamda tegishli choralar qo'llash ehtiyoji yuzaga kelgan. Bunday xalqaro choralar sirasiga quyidagilar kiradi:

— turli davlatlarning milliy huquqidan o'rin olishi zarur bo'lgan xalqaro-huquqiy normalarni ishlab chiqish;

— maxsus xalqaro sudlar tashkil etish. Masalan, avval, Nyurnberg va Tokio tribunallari tashkil etilgan bo'lsa, keyinchalik Ruanda va Yugoslaviya bo'yicha tribunallar hamda Xalqaro jinoyat sud tuzilgan.

Xalqaro jinoyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin: *Xalqaro jinoyat — bu aholining muayyan guruhlari yoki etnoslarning yakson etilishiga yoxud degradatsiyasiga olib keluvchi jiddiy huquqbuzarlik bo'lib, bunday harakatlar ularning manfaatlariga katta ziyon yetkazadi yoki butun insoniyat uchun zararli hisoblanadi.*

Tegishli xatti-harakatlarning jinoiyligi umumiy xalqaro huquq tomonidan belgilanishi tufayli ushbu huquqning ta'siri barcha shaxslarga, ularning qayerda joylashganligidan, shuningdek, bunday jinoyat tarkibi u sodir etilgan mamlakat qonunchiligida aks etgan-etmaganligidan qat'i nazar, taalluqlidir.

3-§. Xalqaro jinoyatlarning turlari

Urushdan keyingi tribunallar nizomlarida ko'rsatilishicha, xalqaro jinoyatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

1. Tinchlikka qarshi jinoyatlar — bosqinchilik urushini rejalashtirish, unga tayyorgarlik ko'rish, bunday urushga yo'l ochish yo uni amalga oshirish yoki xalqaro shartnomalar yoxud ahdlashuvlarni buzgan holda

urush olib borish va, umuman, hattoki bunday harakatlarning birortasini amalga oshirishga yo'naltirilgan reja yoki fitnada ishtirok etish.

2. Harbiy jinoyatlar — bu urush qonunlari va odatlarini jiddiy buzishdir. Harbiy jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

a) istilo etilgan hududlar aholisini o'ldirish, qiynoqqa solish yoki majburiy mehnat uchun haydab ketish;

b) harbiy asirlarni o'ldirish yoki qiynoqqa solish;

d) garovdagilarni o'ldirish;

e) jamoat mulki va xususiy mulkni talon-toroj etish;

f) harbiy zarurat talab etmagan hollarda shaharlar va qishloqlarni maqsadsiz ravishda yakson qilish, xonavayron etish va boshqa shu kabi xatti-harakatlarni sodir etish.

Sobiq Yugoslaviya uchun tribunal nizomida ushbu ro'yxat quyidagilar hisobiga yanada to'ldirildi va aniqlashtirildi:

a) biologik sinovlar;

b) harbiy yoki fuqaro shaxsni dushman tomonning qurolli kuchlarida xizmat qilishga majburlash;

d) fuqarolarni garovga olish;

e) harbiy asir yoki fuqaroni odil sudlov huquqidan mahrum etish.

Bulaming barchasi 1949-yilgi Urush qurbonlari himoyasi to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi ularga qo'shimcha protokollarda mavjud.

3. Insoniyatga qarshi jinoyatlar. Ular sirasiga o'ldirish, qirg'in qilish, asoratga solish va aholiga nisbatan qo'llaniladigan shu kabi boshqa shafqatsizliklar yoki siyosiy, irqiy yoxud diniy sabablar bo'yicha ta'qib etish hollari kiradi. Bu ro'yxat Ruanda va sobiq Yugoslaviya uchun tribunallarning nizomlaridagi qiynoq, qamoqqa tashlash, nomusiga tegish, shuningdek, terrorizm kiritilishi hisobiga yanada kengaydi.

Konvensiyaviy jinoyatlar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

Qulchilik. 1926-yilda qabul qilingan va 1953-yilda o'zgartishlar kiritilgan Qulchilikka oid konvensiyada qayd etilganidek, qullik — insonning o'ziga nisbatan mulk huquqi atributlari amal qiladigan muayyan holati yoki maqomidir. Tutqinlar savdosi sirasiga insonni qo'lga tushirish, sotib olish yoki qul sifatida sotish uchun arzon garovga berish, tutqunni sotish yoki almashtirish maqsadida xarid qilish bilan bog'liq har qanday aktlar, sotish yoki almashtirish maqsadida xarid qilingan tutqunni sotish yoki almashtirish maqsadida arzongarovga berish bilan bog'liq har qanday aktlar va, umuman, tutqunlar savdosi va ularni tashish borasidagi har qanday harakatlar kiradi.

1956-yilgi Qulchilikni, qullarni sotish va qulchilikka o'xshash odatlar va institutlarni tugatish to'g'risidagi qo'shimcha konvensiyada bayon etilishicha, qul savdosi boshqa bir shaxsni qulga aylantirish, unga

suiqasd uyushtirish va bunday xatti-harakatlarni sodir etishda sherik bo'lish, erksiz holdagi shaxslarni mayib-majruh etish va ularga tamg'a bosishni o'z ichiga oladi.

Shu o'rinda 1950-yilgi Insonlarni sotish va uchinchi shaxslar tomonidan fohishalarni ekspluatatsiya qilishga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyani ham eslatib o'tish joizdir.

Yollanma jinoyatchilik. 1989-yilda qabul qilingan Yollanma jinoyatchilarni yollash, foydalanish, moliyalash va tayyorlashga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyada «*yollanma jinoyatchi nizolashayotgan tomonning fuqarosi hisoblanmagan, shaxsiy moddiy foyda ko'rish maqsadida harbiy harakatlarda ishtirok etish uchun o'z ixtiyori bilan yollangan xususiy shaxs*», degan ta'rif berilgan. Yollanma jinoyatchilar harbiy jinoyatchilar hisoblanadilar va harbiy asirlik rejimi ularga nisbatan qo'llanilmaydi. Hududida ana shu jinoyatchi joylashgan davlat o'z milliy qonunchiligiga muvofiq, uni hibsga oladi va tergov qiladi. Davlatlar yollanma jinoyatchilikka qarshi kurashda bir-birlariga huquqiy ko'mak beradilar.

Terrorizm. Terrorizm harakatini aniqroq ta'riflash va uni yuridik kvalifikatsiya qilish juda mushkuldir. Hozircha bu borada kelishilgan ahdlashuvga muvofiq, terrorizm qurol ishlatish yo'li bilan amalga oshiriladigan g'ayriqonuniy zo'ravonlik, aholini tahlikaga solishga intilishdir. Xalqaro-huquqiy tartibga solish umumiy terrorizmga nisbatan emas, balki bunday xatti-harakatlarning alohida toifalariga nisbatan shakllantirilgan.

Garovga olish. 1979-yilda qabul qilingan Garovga olishga qarshi kurash to'g'risidagi konvensiyada muayyan shaxsni qo'lga olish yoki qo'l ostida ushlab turish, o'ldirish, tahdid etish, jarohat yetkazish yoxud garovga olingan shaxsni ozod qilish sharti sifatida davlatni, xalqaro tashkilotni, tegishli shaxsni u yoki bu harakatni amalga oshirishga yoxud muayyan harakatlardan tiyilishga majbur qilish uchun garovga olingan shaxsni ushlab turishda davom etish kabi harakatlar tartibga solish obyekt sifatida ko'zda tutilgan.

Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi qaratilgan g'ayriqonuniy aktlar. Bu borada IKAO tashkiloti doirasida bir qator bitimlar qabul qilingan. 1970-yilgi Gaaga konvensiyasida qayd etilishicha, parvozdagi (eshiklarning yopilishidan to' ochilishigacha bo'lgan davrda) havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda, kuch ishlatish yoki tahdid etish yo'li bilan qo'lga olish jinoyat hisoblanadi.

1971-yilgi Monreal konvensiyasida belgilanishiga qaraganda, havo kemasi xavfsizligini xatar ostiga qo'yish; havo kemasini yakson etish; havo kemasiga portlovchi moddalar o'rnatish va boshqa shu kabi xatti-harakatlar parvozdagi havo kemasi bortida joylashgan shaxslarga nisba-

tan zo'rvonlik akti, deyiladi. Bu konvensiya parvozoldi tayyorgarligi boshlangan paytdan toki parvoz tugaganidan keyin 24 soat vaqt o'tganigacha bo'lgan oraliq davrda sodir etilgan harakatlarga nisbatan qo'llaniladi.

1988-yilgi protokol aeroportdagi shaxsga qarshi zo'rvonlik akti; aeroport asbob-uskunalari yoki inshootlarini yakson etish yoxud ularni ishdan chiqarish kabi harakatlar jinoyat hisoblanishi to'g'risidagi qoidalar bilan Monreal konvensiyasini to'ldirgan.

1988-yilda qabul qilingan Konvensiyada jinoiy xatti-harakatlar, parvozdagi havo kemasiga, uning bortida joylashgan shaxslar yoxud mol-mulkka xavf soluvchi aktlar haqida so'z yuritiladi.

Umumiy qoidaga ko'ra, kema bortida tegishli yurisdiksiyani shu havo kemasini qayddan o'tkazgan davlat amalga oshiradi. Boshqa davlatlar quyidagi ikki holatda o'z yurisdiksiyasini amalga oshirishi mumkin:

— agar jinoyat tegishli davlat hududida muayyan oqibatlar olib kelgan yoki uning xavfsizligiga qarshi qaratilgan bo'lsa;

— jinoyat mazkur davlat fuqarosi tomonidan yoki shu davlat fuqarosiga nisbatan sodir etilgan bo'lsa.

Xalqaro dengiz tashkiloti doirasida *qaroqchilikka* qarshi kurashga taalluqli hujjatlar ishlab chiqiladi. 1982-yilda qabul qilingan konvensiyada shaxsiy maqsadlarda xususiy kema yoki uchish apparati ekipaji yoxud yo'lovchilari tomonidan boshqa kema yoki uchish apparatiga qarshi yoxud bortdagi shaxslarga yo mol-mulkka nisbatan sodir etilgan har qanday g'ayrihuquqiy zo'rvonlik, ushlab turish yoki talon-toroj etish aktlari qaroqchilik sifatida baholanadi. Shuningdek, 1988-yili Kontinental shelflardagi statsionar platformalar xavfsizligiga qarshi qaratilgan no-qonuniy aktlar bilan kurash to'g'risidagi protokol qabul qilingan.

1973-yilgi Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlarning oldini olish va jazolash to'g'risidagi konvensiya ham diqqatga sazovordir. Ushbu konvensiya bo'yicha quyidagilar jinoyat hisoblanadi:

1) diplomatik himoyadan foydalanuvchi shaxsni o'ldirish, o'g'irlab ketish yoki uning shaxsi yoxud shaxsiy erkinligiga qarshi qaratilgan boshqa tajovuzlar;

2) bunday shaxslarga mansub bo'lgan rasmiy ish joyi, turarjoy yoki transport vositasiga qarshi qaratilgan tajovuzlar.

«Bunday shaxslar» sirasiga quyidagilar kiradi:

— xorijiy davlatda bo'lib turgan davlatlar rahbarlari, hukumatlar boshliqlari va ularga hamrohlik qiluvchi oila a'zolari;

— xalqaro normalarga muvofiq, o'z shaxsiga, erkinligi va sha'niga qarshi qaratilgan tajovuzlardan maxsus himoyalaniş huquqiga ega bo'lgan shaxslar — davlatning har qanday vakili yoki mansabdor shaxsi

yoxud xalqaro tashkilot xodimi, shuningdek, ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari.

Narkotik moddalar bilan noqonuniy muomala qilish. Bu sohadagi ilk hujjat — Opium bo'yicha konvensiya 1912-yildayoq qabul qilingan. Ikkinchi jahon urushidan keyin narkotik moddalarga qarshi kurash BMT doirasida amalga oshirilmoqda. 1946-yili EKOSOS shafe'ligida Narkotik vositalar bo'yicha komissiya tuzildi.

Keyinchalik yana qator hujjatlar qabul qilindi. 1988-yilda Narkotik vositalar va psixotrop moddalar bilan noqonuniy muomala qilishga qarshi kurash to'g'risidagi BMT konvensiyasi kuchga kirdi. Unda xalqaro amaliyotda ilgari qo'llanilmagan ayrim yangi choralar ko'zda tutilgan. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi:

- xorijiy mol-mulkni xatlash;
- narkotiklarni tashishga qarshi kurashda yuklarni nazoratdan o'tkazish usulidan foydalanish.

Radioaktiv moddalar bilan bog'liq noqonuniy xatti-harakatlar. Yuz berish ehtimoli bo'lgan radiatsion falokatning xatarli oqibatlariga olib kelishi mumkinligini nazarda tutgan holda 1980-yilda Yadroviy materialni fizik himoyalash to'g'risidagi konvensiya qabul qilindi. Ushbu bitim yadroviy materialni davlatlararo tashish jarayonida u bilan muomala qilishni tartibga soladi. Konvensiyada asosan ogohlantiruvchi mazmundagi choralar ko'zda tutilgan bo'lib, texnik va tashkiliy himoya standartlarini belgilash shular jumlasidandir.

Jinoiy faoliyatdan olingan *daromadlarni «yuvish» («отмывание»)*ga qarshi kurash mintaqaviy doirada olib borilmoqda. 1990-yilda Yevropa Kengashining jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni aniqlash, olib qo'yish va konfiskatsiya qilish to'g'risidagi konvensiyasi qabul qilingan. «Daromad» deganda, jinoyat sodir etish evaziga olingan har qanday iqtisodiy foyda tushuniladi. Konvensiyada daromadlarni noqonuniy «yuvish» bilan bog'liq, ya'ni daromadlarning kelib chiqishini yashirish yoki buzib ko'rsatish jinoyatlari belgilangan. Ishtirokchi davlatlar bir-biridan (tegishli sudlov qarori mavjud bo'lishi sharti bilan) muayyan shaxs daromadlarining kelib chiqishi haqida so'rab-surishtirishi mumkin. Bunda bank omonatlarining sir saqlanishi to'g'risidagi qoida amal qilmaydi. Davlatlar xorijiy sudning qarori bo'yicha jinoyat qurollari va noqonuniy tarzda olingan daromadlarni konfiskatsiya qilish chora-tadbirlarini ko'rishga, shuningdek, moliyaviy va boshqa xil hujjatlarni qamoqqa olishga majburdir. 1996-yili Lotin Amerikasi mamlakatlari Hukumatning jirkanch biznesiga barham berish borasida hamkorlik to'g'risidagi konvensiyani imzoladilar.

Xalqaro jinoyatlarga chek qo'yish bo'yicha choralarning o'ziga xos bir qator jihatlari mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1) aksariyat hollarda universal yurisdiksiya ko'zda tutiladi, ya'ni har qanday davlat jinoyatchilarni ushlab uchun tegishli choralarni ko'rishi mumkin;

2) jinoyat tarkibi xalqaro huquq bo'yicha aniqlanadi. Ba'zan milliy huquq normalari ham qo'llanilishi mumkin, ammo har doim bunday normalar davlatning ichki huquqiga xalqaro huquqdan o'tgan bo'ladi;

3) sud jarayoni maxsus xalqaro sudlov organi nizomi bo'yicha yoxud sud huquqi yoki ayblanuvchi fuqarosi hisoblangan davlat huquqi bo'yicha tashkil etiladi;

4) jazo choralari sud huquqi yoki ayblanuvchi fuqarosi hisoblangan davlat huquqiga muvofiq ravishda tanlanadi.

4-§. Xalqaro va davlatning ichki jinoyat huquqi

Xalqaro jinoyat huquqining o'ziga xos jihati uning davlatlarning ichki jinoyiy qonunchiligiga keng miqyosda singib borishida namoyon bo'ladi.

Xalqaro jinoyat huquqining konvensiyaviy normalarida milliy huquqning tegishli normalari uchun alohida andozalar yaratiladi. Ammo ko'pincha milliy huquq ayrim davlatlar jinoyiy qonunchiligini baynalmillallashtirish tendensiyalarini o'zida aks ettiruvchi umumiy xalqaro jinoyat huquqining normalarini ham singdirib olaveradi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida «Tinchlikka va insoniyat xavfsizligiga qarshi jinoyatlar» degan alohida bo'lim mavjud bo'lib, unda umumiy xalqaro jinoyat huquqi bo'yicha asosiy jinoyatlar tarkibi qayd etilgan. Garchi Jinoyat kodeksida xalqaro huquq ustuvorligi to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalar mavjud bo'lmasa-da, u Konstitutsiyaga va xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalariga asoslanadi. Bundan tashqari, unda to'g'ridan to'g'ri aytilgan-ki, xatti-harakatlarning jinoyiligi, shuningdek, uning jazolanishi va boshqa jinoyiy-huquqiy holatlar faqatgina mazkur kodeks bilan belgilanadi.

Shu bilan birga, umumiy xalqaro huquq normalari mazkur normalar tegishli jinoyat qonunchiligi mavjud yoki mavjud emasligidan qat'i nazar, qo'llanishi zarur hisoblanadi. Konstitutsiyaga muvofiq, xalqaro huquqning umume'tirof etgan prinsiplari va normalari milliy qonunchilikka nisbatan ustuvor ahamiyatga ega.

Jinoyat va jinoyat-protsessual huquq normalarini tegishli o'rinlarda qo'llash chog'ida xalqaro huquq normalari e'tiborga olinishi shart. Yaqqol bir misol, Jinoyat kodeksida huquqning umumiy prinsipi quyidagicha ifodalangan: «Hech kim bir marta sodir etgan jinoyati uchun ikki marta jinoyiy javobgarlikka tortilishi mumkin emas». Bu ifoda oqlangan kishilarning qayta javobgarlikka tortilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan muhim hujjat — 1966-yilgi Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktini hisobga olgan holda talqin etilishi zarur.

Shu munosabat bilan muayyan xatti-harakati tufayli boshqa davlatda sudlangan yoki oqlangan shaxsni xuddi shu harakatlari bo'yicha takroran javobgarlikka tortish mumkinligi masalasi yuzaga keladi. Ko'pchilik huquqshunoslarning fikri, shuningdek, sudlov amaliyotiga asoslanadigan bo'lsak, yuqorida zikr etilgan prinsip muayyan bir davlat hududida amal qiladi. Bundan boshqacharoq mazmundagi qoida xalqaro shartnomada belgilab qo'yilishi mumkin.

Xuddi shu jihatdan 1972-yilgi Jinoyat ishlar bo'yicha protsessual funksiyalarni topshirish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasida tegishli masalaning hal etilishi e'tiborni tortadi. Unga ko'ra, o'ziga nisbatan yakuniy sudlov qarori chiqarilgan shaxs aynan shu xatti-harakati uchun boshqa ahdlashayotgan davlatda ta'qib ostiga olinishi mumkin emas, agar:

- u oqlangan bo'lsa;
- qo'llangan jazo chorasi to'liq amalga oshirilgan yoki amalga oshirilayotgan bo'lsa yoxud tegishli shaxs to'la yo qisman amnistiya tushgan yoki afv etilgan bo'lsa va yo muddati o'tgani bois unga nisbatan jazo qo'llanilishi mumkin bo'lmasa.

Ayni vaqtda ushbu qoidadan istisnolar ham mavjud. Ushbu qoida boshqa davlatning fuqarosi ommaviy ahamiyatga molik yoki muassasasiga qarshi qaratilgan yoxud xuddi shunday ahamiyatga molik shaxs tomonidan sodir etilgan jinoyatlar bilan bog'liq holatlarga taalluqli emas. Har qanday sharoitda ham yangi chiqarilgan hukmda o'tab bo'lingan jazo hisobga olinishi shart.

Qayd etilgan muammo xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasi amal qilishi bilan bog'liq hollarda ham yuzaga kelishi mumkin. BMT Xavfsizlik Kengashi ta'xis etgan tribunallar nizomlarida bu masala quyidagi tartibda hal etilgan:

birinchidan, milliy sud shaxslarni ularning xalqaro tribunal tomonidan sudlanishiga sabab bo'lgan xatti-harakatlari uchun javobgarlikka tortishi mumkin emas;

ikkinchidan, gumanitar huquqni jiddiy ravishda buzgani uchun milliy sud tomonidan sudlangan shaxsning tegishli xatti-harakatlari odatiy jinoyat sifatida kvalifikatsiyalangan yoki sudlov ishlari ayblanuvchini xalqaro jinoiy javobgarlikdan himoyalash uchun mo'ljallangan hollardagina bunday shaxs xalqaro tribunal tomonidan sudlanishi mumkin.

5-§. Xalqaro jinoyat sudi

1948-yili BMTning Bosh Assambleyasi Xalqaro huquq komissiyasiga Xalqaro jinoyat sudini tashkil etish to'g'risidagi masalani ko'rib chiqishni taklif etgan. Komissiya bunday sud nizomi loyihasini tayyorlash

borasidagi ishlarni 1994-yilda nihoyasiga yetkazdi. 1998-yili Rimda BMT rahbarligida vakolatli shaxslarning diplomatik konferensiyasi «Xalqaro jinoyat sudining Rim Statuti»ni qabul qildi. Konferensiya ishida 160 dan ziyod davlat delegatsiyalari ishtirok etdi. Statutni qabul qilish uchun 120 davlat ovoz berdi.

Statutga muvofiq, sud xalqaro hamjamiyatda tashvish uyg'otayotgan eng jiddiy jinoyatlar uchun javobgar shaxslarga nisbatan yurisdiksiyaga ega bo'lgan doimiy organ sifatida ta'sis etiladi. Xalqaro jinoyat sudi davlatlarning jinoyat sudlari vazifasini o'tamaydi. Uning yurisdiksiyasi to'ldiruvchi mazmun kasb etadi.

Har qanday davlat Statut ishtirokchisiga aylanan ekan, bu bilan uning yurisdiksiyasini tan olgan hisoblanadi.

Muayyan ish tergov davlatning bayonoti yoxud sud tarkibiga kiruvchi prokurorning tashabbusi asosida boshlanishi mumkin. Sudning tegishli palatasi davlatning yoxud tegishli hollarda BMT Xavfsizlik Kengashining bayonoti bo'yicha prokurorning tergovni boshlash yoki tergovni boshlashdan voz kechish to'g'risidagi qarorini ko'rib chiqishi mumkin.

Sud Statutida jinoyat huquqining umumiy prinsiplariga bag'ishlangan alohida bo'lim mavjud. Unda quyidagi prinsiplar qayd etilgan:

- 1) «Qonunsiz jinoyat yo'q»;
- 2) «Qonunsiz jazo yo'q»;
- 3) Statut orqaga qaytish kuchiga ega emas;
- 4) Individual jinoiy javobgarlik.

Statutga «bir qilmish uchun ikki bor sud qilish mumkin emas» degan protsessual prinsip ham kiritilgan.

Xalqaro jinoyat sudi tarkibi 18 nafar sudyadan iborat. Ular Statut ishtirokchilari bo'lgan davlatlar tomonidan 9-yil muddatga saylanadi.

Statut ishtirokchilari bo'lgan davlatlar Xalqaro jinoyat sudi yurisdiksiyasiga tushgan jinoyatlarni tergov qilish va aybdorlarni ta'qib etish borasida sud bilan hamkorlik qilishga majbur. Davlatlar o'z milliy qonunchiliklarida Xalqaro jinoyat sudi bilan hamkorlikning tegishli shakllari ko'zda tutilishini ta'minlaydilar.

Ozodlikdan mahrum etish bilan bog'liq jazo sudlanganlarni qabul qilish uchun tayyorligini bildirgan davlatlar ro'yxatidan Xalqaro jinoyat sudi belgilab bergan davlatda o'taladi.

6-§. Davlatlarning oddiy va umumiy jinoyatchilik bilan kurash sohasidagi hamkorligi

Bunday xalqaro hamkorlik asosan fuqarolik, oila va jinoyat ishlari bo'yicha huquqiy yordam to'g'risidagi xalqaro shartnomalar doirasida amalga oshiriladi.

1985—1990-yillar mobaynida BMTning Bosh Assambleyasi jinoiy ishlar bo'yicha o'zaro yordam to'g'risidagi bir qancha namunaviy shart-nomalarni ma'qulladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi 20 ga yaqin huquqiy yordam to'g'risidagi ikki tomonlama bitimga ega. Sudlanganlarni jazo o'tash uchun topshirish masalalari bo'yicha bitimlar ham mavjud.

Ana shu bitimlar asosida, odatda, quyidagi masalalar tartibga solinadi:

- 1) jinoyat sodir etuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni almashlash;
- 2) tayyorlanayotgan va sodir etilgan jinoyatlar haqidagi axborotlarni almashlash;
- 3) sudlar qarorlari ijrosiga ko'maklashish;
- 4) boshqa davlat hududida jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan fuqarolarga, shu jumladan o'z fuqarolariga qarshi jinoiy ta'qibni amalga oshirish;
- 5) shaxslarni javobgarlikka tortish maqsadida qidirish;
- 6) shaxslarni topshirishni ta'minlash maqsadida qamoqqa olish.

1993-yilda MDH doirasida fuqarolik, oila va jinoiy ishlar bo'yicha huquqiy yordam va huquqiy munosabatlar to'g'risidagi konvensiya tuzilgan. Konvensiya bo'yicha ko'rsatiladigan huquqiy yordam ko'lamini anchagina kengdir. Unda protsessual va boshqa harakatlarni amalga oshirish, xususan, tintuv o'tkazish, musodara etish, ashvoviy dalillar berish, ekspertiza qilish, ayblanuvchilar, guvohlar va ekspertlarni so'roq qilish, jinoiy ta'qib qo'zg'ash, jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirish va topshirish kabilar ko'zda tutilgan.

Topshirish deganda, ayblanuvchi yoki sudlangan shaxs o'z hududida bo'lib turgan davlat uni jinoyat sodir etgan deb hisoblanayotgan yoxud u sudlangan davlatga berishi tushuniladi.

Umum qabul qilingan qoidaga ko'ra sodir etilgan xatti-harakat har ikkala davlat huquqi bo'yicha ham jinoyat hisoblangan taqdirdagina tegishli shaxsni topshirish mumkin. Agar shaxs siyosiy sabablarga ko'ra ta'qib etilayotgani xususida asoslar mavjud bo'lsa, u holda bu shaxsni topshirish amalga oshirilmaydi.

7-§. Interpol faoliyati

Interpol — Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkilotining qisqartirilgan nomi bo'lib, uning bosh qarorgohi Lion (Fransiya) shahrida joylashgan. Unda deyarli barcha davlatlar, shu jumladan O'zbekiston ham ishtirok etadi.

Interpolning asosiy vazifalari:

— jinoyat politsiyasi organlarining milliy qonunchilik va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi doirasida keng ko'lamli, hamjihatlikda faoliyat yuritishlarini ta'minlash;

— jinoiy (siyosiydan farqli o'laroq) jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashda ko'maklashuvchi muassasalarni tuzish va rivojlantirishdan iborat.

Interpol jinoyatga oid qidiruv va boshqa kriminalistika axborotlarini to'playdi va tizimlashtiradi, xalqaro qidiruvda ishtirok etadi, milliy politsiya xizmatlarini axborot bilan ta'minlaydi.

Interpolning axborot faoliyati sirasiga qidiruv kartalari, qidiruvdagi shaxslarning tashqi qiyofasi tasvirlangan ko'rsatmalar, fotosuratlar va barmoq izlarini tarqatish kabilar kiradi. Shuningdek, xalqaro jinoyatchilar haqida ma'lumotlar to'plangan karta-xatlar, bedarak yo'qolgan shaxslarning kartalari, aniqlanmagan jasadlar kartalari, o'g'irlangan muluklar kartalari, shu jumladan jinoyat sodir etishning yangi va alohida qiziqish uyg'otadigan usullari haqida axborotlar tarqatiladi.

A'zo davlatlarda Interpolning Markaziy byurosi bilan jinoyat politsiyasining milliy organlari faoliyatini muvofiqlashtirib turuvchi Milliy byurolar ta'sis etiladi.

YIGIRMA IKKINCHI MAVZU. XALQARO GUMANITAR HUQUQ

- 1-§. «Xalqaro gumanitar huquq» tushunchasi**
- 2-§. «Qurolli mojar» tushunchasi**
- 3-§. Urushning boshlanishi va tamom bo'lishi**
- 4-§. Harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalari**
- 5-§. Urush qurbonlarini himoya qilish**
- 6-§. Kombatantlarning maqomi**
- 7-§. Muayyan hududga joylashtirish va xavfsizlik zonasi**
- 8-§. Harbiy istilo rejimi**
- 9-§. Betaraflik (neytralitet)**
- 10-§. Xalqaro bo'lmagan tusdagi mojarolar va xalqaro gumanitar huquq**

1-§. «Xalqaro gumanitar huquq» tushunchasi

Xalqaro gumanitar huquq xalqaro huquqning harbiy harakatlar olib borishning taqiqlangan usullari va vositalarini aniqlash yo'li bilan urush falokatini cheklashga va urush qurbonlarini himoyalashga qaratilgan tarmog'idir. Ko'pincha eskichasiga xalqaro gumanitar huquq «urush qonunlari va odatlari» deb yuritiluvchi harbiy harakatlar olib borish qoidalari harbiy usullar va vositalardan foydalanishni cheklaydigan printsiplar va normalar majmuyidan iboratdir.

BMTning Xalqaro sudi xalqaro gumanitar huquqning quyidagi ikkita asosiy prinsipga e'tiborni qaratadi:

birinchisi, tinch aholi va fuqaro obyektlarini himoyalash, kombattantlar va nokombattantlar o'rtasidagi tafovut;

ikkinchisi, kombattantlarga ortiqcha jabr berilishini taqiqlash.

Xalqaro gumanitar huquqning asosiy manbayi odatdir. Odat normalari 1899—1907-yillardagi Gaaga konvensiyalarida, shuningdek, 1949-yilgi Jeneva konvensiyasida kodifikatsiyalangan¹.

Xalqaro gumanitar huquq normalari davlatlarning qurolli mojarolar chog'idagi amaliyoti negizida emas, balki davlatlarning shartnomaviy amaliyoti va xalqaro tashkilotlarning rezolyutsiyalari bazasida shakllanadi. Bu jarayon konvensiya, kamdan-kam hollarda xalqaro tashkilot rezolyutsiyasi qabul qilinishi bilan boshlanadi. Shundan keyin xalqaro odat huquq normalariga mos keluvchi tegishli huquq qoidalari davlatlar va tashkilotlar tomonidan tan olinadi.

Xalqaro gumanitar huquqning harakat qilish doirasiga davlatlararo munosabatlar sohasi kiradi. Xalqaro gumanitar huquq davlatlar o'rtasidagi har qanday qurolli mojarolarga taalluqlidir. Bunda ushbu mojaroning xarakteri, kelib chiqishi va sabablari ahamiyatiga ega emas.

Xalqaro huquq bo'yicha ayrim mutaxassislar xalqaro gumanitar huquqni faqat qurolli mojarolar sharoitida, ya'ni urush vaqtidagina amal qiladigan qurolli mojarolar huquq deb atashadi².

Xalqaro gumanitar huquq o'zining asosiy talablarini joriy etar ekan, harbiy harakatlarni amalga oshirish vositalari va usullarini cheklaydi va urushayotgan tomonlar zimmasiga harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan yoki ishtirok etishni to'xtatgan shaxslarni ayash majburiyatini yuklaydi.

Xalqaro gumanitar huquqning bosh maqsadi — urushning g'ayrioddiy vaziyatlarida inson hayoti, sog'lig'i va qadr-qimmatini himoya qilishdan iborat. Inson qadr-qimmatini himoya qilish vazifasi davlat zo'ravonlikda ayblanayotgan hollarda alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro gumanitar huquq inson huquqlarini davlat hokimiyati tomonidan o'tkaziladigan tazyiqlardan himoya qiluvchi xalqaro huquq bo'limining bir qismi hisoblanishi ham bejiz emas.

¹ Xalqaro gumanitar huquqqa doir eng muhim ko'p tomonlama shartnomalar ro'yxati / Xalqaro gumanitar huquq: Jeneva konvensiyalari to'plami / Mas'ul muharrir A. X. Saidov. Toshkent, 2002, 433—437-betlar.

² Qarang: Xalqaro gumanitar huquq: Insonparvarlik va xayrixohlik muammolari instituti / Mas'ul muharrir A. X. Saidov. Toshkent, 2000.

2-§. «Qurolli mojaro» tushunchasi

Qurolli mojaro xalqaro va xalqaro tusda bo'lmagan nizolarga bo'linadi. Jeneva konvensiyalariga ikkinchi qo'shimcha protokolda xalqaro tusda bo'lmagan nizolarning quyidagi alohida jihatlarini ko'rsatib berilgan:

— uning doirasi davlat hududi bilan cheklanadi;

— uning ishtirokchilari davlat qurolli kuchlari va hukumatga qarshi kuchlar yoxud boshqa uyushgan qurolli guruhlar hisoblanadi.

Tartibsizliklar, alohida va tasodifiy zo'rovonlik aktlari yoki shunday mazmundagi boshqa aktlar xalqaro tusdagi nizolar hisoblanmaydi hamda ular mazkur protokolning ta'sir doirasiga kirmaydi.

Davlat hududidan tashqariga chiqmaydigan har qanday qurolli mojaro shu davlatning ichki ishi hisoblanadi. Davlat qo'zg'alon ko'targan fuqarolar bilan o'z munosabatlarini tartibga soluvchi, shu jumladan, qo'zg'alonning jinoyilini belgilovchi normalar joriy etish huquqiga ega.

Xalqaro gumanitar huquq ta'sir doirasining hududiy aspektlari mavjud bo'lib, ular quyidagicha farqlanadi:

— urush teatri — urushayotganlarning harbiy harakatlar olib borish huquqiga ega bo'lgan barcha turdagi (quruqlik, havo va suvdagi) hududlari;

— harbiy harakatlar teatri — harbiy harakatlar amalda olib borilayotgan quruqlik, havo va suv hududlari.

3-§. Urushning boshlanishi va tamom bo'lishi

Odatda, urush e'lon qilmay yoki ultimatum, ya'ni urush boshlash to'g'risida oldindan ogohlantirmay turib, harbiy harakatlar boshlanishi mumkin emas. Hozirgi davrda qurolli mojarolar urush holati rasmiy tan olinmagan sharoitda bo'lib o'tmoqda. Keyingi nizolar sifatida 1982-yilda Folklend orollari masalasi yuzasidan boshlangan anglo-argentina qurolli mojarosini hamda Iroqning Quvaytga qarshi 1990-yildagi bosqinini ko'rsatish mumkin.

Urush e'lon qilishning huquqiy oqibatlarini, asosan, quyidagilarda namoyon bo'ladi:

1) tinchlik munosabatlari barham topadi; diplomatik va konsullik munosabatlari uziladi; diplomatik va konsullik xodimlari chaqirib olinadi;

2) tinchlik munosabatlarga tegishli siyosiy, iqtisodiy va boshqa yo'nalishlardagi shartnomalar barham topadi yoki vaqtincha to'xtatib qo'yiladi; umumiy mazmundagi ko'p tomonlama bitimlar harakati urush davomida to'xtatib qo'yiladi; urush holati munosabati bilan maxsus tuzilgan shartnomalar qo'llanadi;

3) dushman tomon fuqarolari uchun alohida rejim o'rnatiladi. Ularning chiqib ketishi urushayotgan davlat manfaatlariga zid bo'lmagan taqdirdagina ular shu davlat hududini tark etishlari mumkin. Ularga nisbatan urush tamom bo'lgunga qadar muayyan hududga joylashtirish yoki muayyan joylarga majburiy ravishda ko'chirish choralarini qo'llashgacha bo'lgan maxsus rejim joriy etilishiga yo'l qo'yiladi;

4) dushman davlatga tegishli mol-mulk musodara etiladi, diplomatik va konsullik vakolatxonalari mulki bundan mustasno. Dushman tomon fuqarolarining mol-mulki o'z maqomini saqlab qoladi.

Urushning *tamom bo'lishini* urushayotgan tomonlar o'rtasida tinchlik shartnomasini tuzish bilan rasmiylashtirish qabul qilingan bo'lib, unga ko'ra, mojaro oqibatida yuzaga kelgan muammolar hal etiladi va sobiq dushmanlar o'rtasida risoladagidek munosabatlar tiklanadi. Tinchlik shartnomasidan oldin, odatda, sulh to'g'risidagi bitim tuziladi. U harbiy harakatlarni qisman yoki yalpi to'xtatish maqsadida tuzilishi mumkin. Bunday bitimlar harbiy masalalarni hal etishga qaratilgan bo'lib, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga daxl qilmaydi.

Tomonlardan birining kapitulyatsiyasi ham harbiy harakatlarni to'xtatishning o'ziga xos shaklidir. Kapitulyatsiya urush holatiga barham bermaydi. Undan so'ng, albatta, tinch yo'l bilan tartibga solish amalga oshiriladi.

BMT Xavfsizlik Kengashining qarori bu boradagi muhim yangilik bo'lib, u tinch yo'l bilan tartibga solish vositasi sifatida xizmat qiladi. Iroqning Quvaytga qarshi bosqini barham topganidan keyin mazkur Xavfsizlik Kengashining qarorlari o'rniga nafaqat sulh to'g'risidagi bitimlar, balki tinchlikka qaratilgan, shu jumladan, bosqin uchun Iroqning javobgarligi masalalarini ko'zda tutuvchi shartnoma amal qila boshladi.

Urush holatining barham topishi sobiq dushman tomonlar o'rtasida tinchlikka qaratilgan huquqiy munosabatlarni to'la miqyosda tiklaydi. U uchinchi mamlakatlar uchun ham ahamiyat kasb etadi. Betaraf davlatlarga taalluqli normalarning harakati to'xtaydi.

4-§. Harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalari

Bu jabhada ikkita prinsip amal qiladi:

1) urushayotgan tomonlarning dushman tomonga ziyon yetkazish borasida tegishli vositalarni tanlash huquqi cheklangan bo'ladi;

2) ortiqcha jabr yetkazishga yo'l qo'yilmaydi.

Bombardimon qilish urush olib borish vositalari ichida tobora omamaviy tus olib bormoqda. U fuqaro obyektlari emas, balki harbiy obyektlarga yo'naltirilishi va «tanlanmagan» mazmunda bo'lmasligi zarur. Himoyalangan shaharlarni, binolar va aholi mavjud boshqa joylarni bombardimon qilish taqiqlanadi. Bombardimon qilish chog'ida ilm-fan

maqsadlarida, san'at, xayriya faoliyati va sog'liqni saqlash uchun ishlatilayotgan hamda harbiy maqsadlarda foydalanilmayotgan binolarni iloji boricha ayashga qaratilgan choralar ko'rilishi shart. Bunday himoyadan harbiy hospitallar ham foydalanadi.

Xatarli kuchlarga ega bo'lgan moslama va inshootlar, hatto ular harbiy obyektlar hisoblansa ham, hujum qilish obyektiga aylantirilmaligi kerak.

5-§. Urush qurbonlarini himoya qilish

Xalqaro gumanitar huquqning urush qurbonlari himoyasi sohasidagi asosiy aktlari — 1949-yilgi to'rtta Jeneva konvensiyasi va 1977-yilgi ularga qo'shimcha protokollardan iborat¹.

Xalqaro gumanitar huquqning o'ziga xos jihatlaridan biri, uning rivojlanishi va joriy etilishida jamoat tashkilotlari, avvalambor, *Qizil Xoch* va *Qizil Yarim oy harakati* muhim o'rin tutadi. Ushbu harakatning milliy jamiyatlari deyarli har bir mamlakatda mavjud. Ular xalqaro darajada birlashib, Qizil Xoch va Qizil Yarim oy jamiyatlari Ligasini tashkil etgan. Harakatning oliy organi Qizil Xoch va Qizil Yarim oy Xalqaro konferensiyasidir.

Xalqaro Qizil Xoch Qo'mitasi (XQXQ) mazkur harakat doirasida o'z maqomiga ega bo'lib, Jeneva konvensiyalarida rasmiy ravishda tan olingan. Uning tarkibi Shveysariya fuqarolaridan tashkil topgan. XQXQ xalqaro gumanitar huquqqa amal qilinishini kuzatib boradi, qurolli mojarolar qurbonlariga yordam beradi, xalqaro gumanitar huquq bo'yicha bilimlarni tarqatishda ko'maklashadi va uni rivojlantirish yuzasidan takliflar kiritadi.

XQXQ Jeneva konvensiyalariga amal qilinishi borasidagi kuzatuvni xulosalarini tegishli davlatga ma'lum qiladi. Istisno etilgan hollarda (masalan, Iroq tomonidan zaharli moddalar qo'llanilgani taxmin etilgani kabi holatlarda) u ochiq bayonot bilan chiqishi mumkin. XQXQ emblemasi oq sathdagi qizil xoch (Shveysariya davlat bayrog'idagi ranglarning teskari tartibda joylashuvi bo'yicha) tasviri hisoblanadi.

Yaradorlar va bemorlarni himoyalash tezkor tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan barcha yaradorlar va bemorlar, harbiylar yoki fuqaro shaxslar uchun bir xil ta'sir kuchiga ega. Bunday shaxslar hurmat qilinishi va himoya etilishi zarur.

Urushayotgan tomonlar yaradorlar va bemorlarni qidirish va yig'ib olish uchun zudlik bilan tegishli choralarni ko'rishga majbur. Zarur hollarda shu maqsadda sulh ham tuziladi. Dushman tomonning yara-

¹ Qarang: Xalqaro gumanitar huquq: Jeneva konvensiyalari to'plami/ Mas'ul muharrir A. X. Saidov. Toshkent, 2000.

dor jangchilariga hurmat bilan muomala qilinadi va zarur tibbiy yordam ko'rsatiladi. Ular ustida tibbiy sinovlar o'tkazish man etiladi. Murdalar yig'ib olinadi va munosib tarzda dafn etiladi. Dafn to'g'risidagi ma'lumotlar XQXQga yetkaziladi. Dafn joylariga marhumlarning yaqinlari kelishi ta'minlanadigan darajada shart-sharoit yaratilishi kerak.

Tibbiy xodimlar xalqaro gumanitar huquq himoyasida bo'ladi, urushayotgan tomonlar ularga hurmat ko'rsatib, himoyasini ta'minlashi shart. Tibbiy xodimlar dushman tomonidan ushlab qolinishi mumkin. Bunday hollarda ular imkon qadar o'zlari mansub mamlakat fuqarolariga tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyatini davom ettiradi.

Doimiy tibbiyot muassasalari va ko'chma tibbiyot tuzilmalari ham himoyadan foydalanadilar. Ular farqlovchi belgilarga ega bo'lishlari zarur. Ulardan dushman tomonga ziyon yetkazish maqsadida foydalanilgan hollardagina ularni himoyalash to'xtatiladi. Tibbiy xodimlar o'zini va mijozlarini himoya qilish uchun shaxsiy qurol olib yurish huquqiga ega. Dushman tomon yaradorlar va bemorlarni qo'lga olgan hollarda ular harbiy asirlarga tegishli huquqlardan foydalanadi.

Dengiz urushi vaqtida yaradorlar va bemorlarni himoyalash muayyan o'ziga xosliklarga ega. Bunda tegishli normalar halokatga uchragan kemalarga ham taalluqli hisoblanadi. Ayniqsa, qidirish va qutqarish ishlari katta ahamiyat kasb etadi. Bu harakatlarni jangdan keyinoq harbiy kemalarning o'zi amalga oshirishi kerak.

Gospital kemalar oq rangga bo'yaladi va milliy bayroq bilan yonma-yon qizil xoch bayrog'ini ham ko'targan bo'ladi. Dushman tomonga bu kemanding nomi va shakl-shamoyili ma'lum qilinadi. Bunday kemalarga hujum qilish yoki qo'lga olishga yo'l qo'yilmaydi. Kemanding tibbiy xodimlari va komandasini asir olish mumkin emas.

6-§. Kombatantlarning maqomi

Harbiy asirlar maqomi qurolli mojarolarning kombatantlar deb ataluvchi qonuniy ishtirokchilariga beriladi. Ilgari bu toifaga faqatgina muntazam armiyalarning jangovar tarkibi mansub bo'lgan. Hozir kombatantlar doirasi ancha kengaygan bo'lib, unga quyidagi tarkiblarga mansub shaxslar kiradi:

- 1) muntazam qurolli kuchlar;
- 2) politsiya kuchlari;
- 3) qarshilik harakatlari;
- 4) sanab o'tilgan kuchlar tarkibiga kiruvchi harbiy va ko'ngilli otryadlar a'zolari.

Kombatantlarga, shuningdek, qo'shinlar ixtiyoriga berilgan fuqaro ko'makchi kuchlari tarkibiga kiruvchi shaxslar, shu jumladan quyidagilar ham kiradi:

- 1) prokurorlar;
- 2) sudyalari;
- 3) ruhoniylar va boshqalar.

Qurolli kuchlar tarkibidagi shaxs ayg'ochilik bilan shug'ullanayotgan paytda qo'lga olingan hollarda harbiy asirlik maqomiga da'vo qila olmaydi. Bunday shaxs harbiy tribunalda sud qilinadi.

Yollanma jinoyatchilar kombatant maqomiga ega bo'lmaydi va harbiy asirlar uchun mo'ljallangan rejim ularga nisbatan joriy etilmaydi. Yollanma jinoyatchi qurolli mojaroda foydalanish uchun yollangan va amalda moddiy foyda olish maqsadida harbiy harakatlarda ishtirok etadigan shaxsdir. U nizolashayotgan mamlakat fuqarosi bo'lmashligi va shu mamlakat hududida doimiy yashab turmasligi shart, nizolashayotgan mamlakat qurolli kuchlari tarkibiga kirmaydi.

Mojaroda moddiy manfaatdorlik emas, balki boshqa maqsadlarda (siyosiy hammaslaklik, mafkuraning, dinning umumiyliigi nuqtayi nazariidan) ishtirok etadigan shaxslar yollanma jinoyatchilardan farq qiladi.

Yollanma jinoyatchilik kichikroq va endi rivojlanayotgan davlatlar uchun jiddiy xavf soladi. BMT Bosh Assambleyasi 1989-yilda Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risida konvensiya qabul qilgan. Konvensiyada yollanma jinoyatchilik barcha davlatlar manfaatlariga daxl qiladigan jiddiy jinoyat sifatida tan olingan va barcha ishtirokchilar zimmasiga aybdorlarni sud qilish yoki topshirish mas'uliyati yuklangan. Ayrim jinoyat kodekslarida ham yollanma jinoyatchilikka bag'ishlangan qoidalar mavjud.

Asir olingan paytidan e'tiboran harbiy asirlar uchun javobgarlik ularni qo'lga olgan komandirlarning emas, balki bevosita davlatning zimmasida bo'ladi. Harbiy asirlarga insoniy muomala qilish talab etiladi. Asirning o'limiga yoki sog'lig'iga jiddiy ziyon yetkazishga sabab bo'ladigan har qanday g'ayriqonuniy harakat yoki harakatsizlik jinoyat hisoblanadi.

Asirlar lagerlari quruqlikdagi xavfsiz joylarda joylashgan bo'lishi zarur. Oddiy asirlarning jismoniy holatidan kelib chiqib, mehnatga jalb etish mumkin. Ofitserlar bunday ishlarga rahbarlik qilishdagina ishtirok etadi.

Asirlar ularni asir olgan davlat armiyasida amal qiladigan qonunlar va qoidalarga bo'ysunadi.

Harbiy harakatlar barham topganidan keyin asirlar tezkorlik bilan vataniga qaytarilishi kerak.

7-§. Muayyan hududga joylashtirish va xavfsizlik zonasi

Urushayotgan tomonlar xavfsizlik talablari jiddiy taqozo etgan hol-

lardagina xorijiy fuqarolarni muayyan hududga joylashtirishi mumkin. Fors ko'rfazi urushi davrida, ya'ni 1991—1992-yillarda Quvayt Iroq tomonidan istilo etilganidan keyin g'arb davlatlari fuqarolari harbiy nuqtayi nazardan muhim sanalgan joylarga hujum qilinishining oldini olish maqsadida bu joylar «mehmon» sifatida saqlab turilgan. Bu taxlit «tirik qalqon» usuli har qanday vaziyatda ham g'ayrihuquqiydir.

Xalqaro gumanitar huquq tinch aholi xavfsizligini ta'minlash maqsadida urushayotgan tomonlarning roziligi asosida xavfsizlik zonalar va hospital zonalar tashkil etishni qo'llab-quvvatlaydi. Bu boradagi bitimlar XQQQ vositachiligida tuziladi.

Odamlar hayotini saqlab qolish yoki madaniy boyliklarni qutqarish maqsadida «himoyalannmaydigan hudud»lar (odatda, bu hudud shahar yoki qo'riqxon, front chizig'iga yaqin bo'lgan hududning cheklangan bir qismi bo'ladi) e'lon qilinishi ham mumkin. Ular jangsiz ravishda dushman tomon istilo etgan hudud hisoblanadi. Urushayotgan tomonlar roziligi bo'yicha qurolsizlantirilgan zonalar ham belgilanishi mumkin.

8-§. Harbiy istilo rejimi

Qurolli mojaro davomida urushayotgan tomonlardan biri ikkinchisining hududini qisman yoki to'laligicha o'z nazorati ostiga olishi, ya'ni uni istilo etishi mumkin. Istilo tufayli istilochi suveren huquqlarga ega bo'lmaydi. U mazkur hududni anneksiya qilishi (zabt etishi) yoki boshqa davlatga topshirishi mumkin emas. Bu hudud taqdiri tinch yo'l bilan uzil-kesil barqarorlashtirishlar orqaligina hal etiladi. BMT Ustaviga muvofiq, bosib olish hududga ega bo'lishning qonuniy yo'li emasligini ham unutmaslik lozim. Quvaytni istilo etganidan so'ng Iroq o'zining 19-provinsiyasi deb e'lon qilib, uning hududini anneksiya qilishga intilgandi. Ushbu anneksiyani biror-bir davlat tan olmadi. Istilo etilgan hududda tegishli tartibni ta'minlash yo'lida istilo faktining o'ziyoq (hatto noqonuniy bo'lsa ham) aholi zimmasiga istilochiga nisbatan muayyan majburiyatlarni yuklaydi, istilochi esa aholi huquqlarini hurmat qilish borasida javobgar hisoblanadi.

Istiloning xilma-xil turlari mavjud. Xalqaro gumanitar huquqning ta'sir kuchi, avvalo, harbiy terrorni, ya'ni qurolli mojaro davomida dushman tomon hududlarini vaqtincha egallab olish holatini qamrab oladi.

Istiloning navbatdagi turi ham qurolli mojaro bilan bog'liq bo'lib, bu bosqin uchun javobgar hisoblangan davlat o'z majburiyatlarini bajarishni ta'minlash vositasi sifatida amalga oshiradigan urushdan keyingi istilodir.

Istiloning yana bir turi urushayotgan tomonning betaraf davlat hududini egallab olishidir. Bunday hollarda ham xalqaro gumanitar huquq qo'llaniladi.

Istilo etilgan hudud ustidan nazoratning amalda o'ratilishi, istilochi ma'muriyat tuzilishi bilan boshlanib, hudud ustidan amaldagi nazorat barham topishi bilan tugaydi.

Istiloning tugashi u bilan bog'liq yuridik munosabatlarga chek qo'ymaydi. Ayniqsa, ko'pincha istilo oqibatida yetkazilgan ziyonni qoplash va jinoyat yustitsiyasi bilan bog'liq masalalar yuzaga keladi. Masalan, 1991-yili Iroq istilosi tugaganidan keyin Quvayt yetkazilgan ziyonni qoplashni talab qilib chiqdi. BMTning Xavfsizlik Kengashi ana shu individual da'voni qondirish maqsadida Iroq neftini cheklangan miqdorda eksport qilishga ruxsat berdi. Quvayt hududi ozod etilganidan keyin dushman bilan hamkorlik qilishda ayblangan Falastin vakillarining sudlovsiz ommaviy ravishda jazolanganligi inson huquqlarini hurmat qilish prinsipiga zid edi.

Istilo etilgan hududni boshqarishda istilochi ma'muriyat xalqaro gumanitar huquqning tegishli normalarini hisobga olgan va iloji boricha mahalliy qonunlar amal qilishini saqlab qolgan holda boshqaruvni amalga oshirishi lozim.

Istilochi ma'murlar imkoniyat doirasida insonning asosiy huquqlarini, shuningdek, gumanitar masalalar bo'yicha xalqaro normalarda belgilangan tegishli huquqlarini hurmat qilishga majburdirlar.

Aholi harbiy ahamiyatga taalluqli faoliyatga jalb etilishi mumkin emas. Istilochi qo'shinlar, kommunal xizmatlar uchun, aholini oziq-ovqat, tibbiy xizmat, turarjoy, kiyim-kechak bilan ta'minlash maqsadida zarur bo'lgan hollarda 18 yoshdan oshgan shaxslarni majburiy mehnatga jalb etishga yo'l qo'yiladi. Ishlayotganlar adolatli tarzda maosh olishi zarur. Ularning deportatsiya qilinishi, ya'ni xorijga badarg'a etilishi mumkin emas.

Militsiya va ko'ngillilar otryadlariga, shu jumladan, istilo etilgan hududlarda faoliyat yurituvchi uyushgan qarshilik harakatlariga mansub shaxslar harbiy asir maqomini olish huquqiga egadir. Partizanlar kurashining qonuniyligi 1907-yildagi to'rtinchi Gaaga konvensiyasidayoq tan olingan.

Qurolli kuchlar bilan tegishli aloqasi bo'lmagan uyushgan qarshilik, masalan, shaharlarda faoliyat ko'rsatadigan jangovar guruhlarning maqomi butunlay boshqachadir. Bunday guruh ishtirokchilari jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Ular ayyoqchilik, harbiy obyektlarga jiddiy ziyon yetkazish (diversiya) va qotillik sodir etgan hollardagina o'lim jazosiga hukm etilishi mumkin va bunda, albatta, ana shu jazo chorasi istilo etilgan hudud mansub bo'lgan davlat huquqida ko'zda tutilgan bo'lishi kerak. Ommaviy tarzda jazolash va garovga olish man etilgan.

9-§. Betaraflik (neytralitet)

Betaraflik (neytralitet) urush huquqining eng qadimiy institutlaridan biridir. Ayni chog'da hozirgi zamon xalqaro huquqida u bir qator yangi jihatlar bilan boyidi. Betaraflik xalqaro gumanitar huquq instituti sifatida, avvalo, davlat aholisini qurolli mojarolar bilan bog'liq falokatlardan himoya qilishga qaratilgan vosita hisoblanadi.

O'z ichki qonunchiligiga muvofiq, Shveysariya, Avstriya va Malta doimiy betaraf bo'lgan va bu boshqa mamlakatlar tomonidan tan olingan. Moldova va Turkmaniston ham o'z betarafliqi haqida ma'lum qilgan.

Urush davrida betaraf davlatning vazifasi urushayotgan tomonlarning birontasiga faol ko'maklashishdan tiyilish va ular bilan munosabatda yagona andozalarga amal qilishdan iboratdir. Betaraf davlat urushayotgan davlatlar bilan savdo-sotiqni, shu jumladan, harbiy sohada savdo qilishni to'xtatishga majbur emas. Savdo borasida cheklashlar joriy etilgan hollarda bunday davlatlar barcha urushayotgan tomonlarga bir xil munosabatda bo'lishi zarur. Betaraf davlat o'z hududida urushayotgan tomonlarning yollash punktlarini joylashtirish huquqiga ega emas, ammo o'z fuqarolari ularning qurolli kuchlariga ko'ngilli bo'lib kirishini man etishga majbur emas.

Betaraf davlatning o'zini mudofaa etish zarurati yuzasidan amalga oshirgan harbiy harakatlariga dushmanlik harakati sifatida qaralmaydi.

Dengiz urushida betaraflik bilan bog'liq quyidagi ikkita asosiy muammo yuzaga keladi:

1) betaraf davlatning savdo munosabatlari va manfaatlariga nisbatan urushayotgan davlatlar huquqi;

2) betaraf davlatning o'z yurisdiksiyasi doirasida vaqtincha bo'lgan va urushayotgan tomonlar kemalariga nisbatan huquqi.

Dengizdagi qurolli mojarolarda dengiz qamali qo'llaniladi, ya'ni portlar yoki dushman tomonning qirg'oqbo'yi chiziq-lari izolyatsiyalanadi. Qamal samarali amalga oshirilishi, kemalar qatnovini to'sib qo'yishga qodir jiddiy g'ov bo'lishi zarur. Betaraf kemalar qamal zonasiga yaqinlashganda tintuv qilinishi, qamal tartibini buzganda esa qo'lga olinishi mumkin. Jahon urushlari yillarida qamal dengiz izolyatsiyasi rejimi bilan almashtirildi. 1945-yildan keyin ham qamal e'lon qilish hollari uchrab tursa-da, ularning birontasi tegishli talablarga javob bermas edi. Masalan, Pokiston bilan o'zaro urush davrida, 1971-yilda Hindiston dushman portlariga nisbatan qamal e'lon qiladi. Ammo bunday maqsad uchun ajratilgan kemalar miqdori qamalni samarali amalga oshirish talablariga mutlaqo javob bermas edi. 1962-yili AQSH Kubaga sovet raketalari yetkazib berilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida keng miqyosdagi qamal uyushtirdi. Qamal tinchlik davrida amalga oshirilga-

ni uchun g'ayrihuquqiy bo'lib, bunda kuch ishlatmaslik prinsipi buzilganini kuzatish mumkin.

Qamal xalqaro iqtisodiy sanksiya sifatida ham qo'llaniladi. 1990-yili BMTning Xavfsizlik Kengashi Iroqdan neft eksport qilishga barham berish uchun harbiy dengiz kuchlaridan foydalanish vakolatini bergan.

Dengiz akvatoriyasida davlatning barcha hududlari uchun umumiy bo'lgan rejim amal qiladi. Agar betaraf davlat hududiy dengizi haqida gap borayotgan bo'lsa, u holda bu hudud harbiy harakatlar teatriga aylantirilishi mumkin emas. Dushmanning ta'qib etilayotgan harbiy kemasi betaraf davlat suvlariga kirgan taqdirda, uni ta'qib etish to'xtatiladi.

Havo bo'shlig'ida harbiy harakatlar olib borish to'g'risida maxsus konvensiya mavjud emas. Urushayotgan tomonlar betaraf davlatning havo bo'shlig'i daxlsizligini hurmat qilishga majbur. Urushayotgan davlatga mansub samolyot betaraf davlatning havo bo'shlig'iga kirgan taqdirda, betaraf davlat uni chiqarib yuborishi yoki uning bortidagi shaxslarni kelgusida muayyan hududga joylashtirish uchun samolyotni qo'nishga majbur qilish maqsadida o'z imkoniyatidagi choralarni ishga solishi shart. Muayyan hududga joylashtirish chorasi samolyotning majburiy qo'nish hollarida ham qo'llaniladi. Hatto ochiq dengizda betaraf kema bortiga chiqarib olingan halokatga uchragan samolyot ekipajiga nisbatan ham muayyan hududga joylashtirish chorasi amal qiladi.

Betaraf davlat urushayotgan davlatlarga aviatsiya texnikasini yetkazib berish huquqiga ega emas, ammo u xususiy firmalarning bunday faoliyatini taqiqlashga majbur emas.

Urushayotgan davlatlarning betaraf davlatlar fuqaro aviatsiyasiga nisbatan nazorat faoliyati betaraf davlatlarning dengiz kemalariga nisbatan qo'llaniladigan nazoratga o'xshashdir. Fuqaro samolyoti tekshirish uchun qo'nishga taklif etilishi mumkin. Agar samolyot betaraflik qoidalariga mos kelmaydigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lsa, uni musodara etish mumkin.

Urushayotgan davlat hududida joylashgan betaraf davlat fuqarolari xalqaro gumanitar huquqqa muvofiq mahalliy aholiga nisbatan alohida imtiyozlarga da'vo qila olmaydilar. Shu o'rinda ularni betaraf davlat diplomatik himoyaga olish imkoniyati mavjudligi ham katta ahamiyat kasb etadi.

10-§. Xalqaro bo'lmagan tUSDagi mojarolar va xalqaro gumanitar huquq

Xalqaro bo'lmagan tUSDagi mojarolar sonining ortib borishi va ular o'ziga xos shafqatsizliklarga ega ekanligi munosabati bilan bunday mojarolarga nisbatan muayyan gumanitar normalarni joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi. Xalqaro bo'lmagan tUSDagi mojarolarga tegishli,

umume'tirof etgan normalar hamma uchun bir xil bo'lgan 1949-yilgi Jeneva konvensiyasining 3-moddasida ko'zda tutilgan.

Konvensiyaning 3-moddasi minimal talablardan iborat. Unga ko'ra harbiy harakatlarda ishtirok etmayotgan, shu jumladan, ishtirok etishni to'xtatgan shaxslar insoniy muomalaga loyiqdir. Bunday shaxslarning hayotiga va jismoniy daxlsizligiga suiqasd qilish, garovga olish, insoniy qadr-qimmatini oyoqosti qilish, sudlovsiz aybdor qilish va jazolash man etiladi. Ushbu moddada qayd etilishicha, undagi qoidalar qo'llanilishi nizolashayotgan tomonlarning yuridik maqomiga daxl qilmaydi va shu sababli qurolli qo'zg'alon ishtirokchilari qo'lga olinganidan keyin sudga berilishi mumkin.

Jeneva konvensiyasiga 1977-yilgi qo'shimcha protokol xalqaro bo'lmagan tUSDagi mojarolarga bag'ishlangan. Unda inson huquqlari xalqaro bo'lmagan tUSDagi qurolli mojarolarda ham hurmat qilinishi zarurligi ta'kidlanadi.

Ichki mojarolarga o'smirlar tobora ko'proq jalb etilmoqda. Ikkinchi qo'shimcha protokolda 15 yoshgacha bo'lgan bolalar qurolli mojarolarda ishtirok etishining taqiqlanishi ko'zda tutilgan. Ma'lumki, Chechenistonda ushbu qoidaga amal qilinmadi. Agar, o'smir mojaroda ishtirok etgan va qo'lga olingan bo'lsa, u holda unga zarur kafolatlar, shu jumladan, ta'lim olishni davom ettirish imkoniyati beriladi.

Aholini majburiy ko'chirishga faqatgina ularning xavfsizligini ta'minlash nuqtayi nazaridagina yo'l qo'yiladi. Madaniyat muassasalari va yodgorliklar saqlanishi zarur, bu qoida diniy obyektlarga ham taalluqlidir. Ichki mojarolar chog'ida bunday muassasa va obyektlar ko'pincha ommaviy tarzda vayron etib yuboriladi.

Harbiy harakatlar olib borishning usullari va vositalariga kelsak, bunda xalqaro mojarolarga taalluqli tegishli normalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir. Iroq hukumati 1980-yilda kurdlar qishloqlariga qarshi kimyoviy qurol ishlatgani dunyo miqyosida keng ko'lamlı noroziliklarga sabab bo'ldi.

Qizil Xoch va Qizil Yarim oy milliy hamjamiyatlari mojaro qurbonlariga insonparvarlik yordami ko'rsatishlari mumkin. Fuqarolarning yaradorlar va bemorlarni yig'ib olish hamda ularga yordam ko'rsatish borasidagi harakatlari rag'batlantiriladi. Agar aholi zarur ta'minotning yetishmasligidan jabrlanayotgan bo'lsa, u holda davlatning roziligiga ko'ra, xorijiy yordam barcha aholi uchun bir xil asosdagi ta'minot sifatida qabul qilinishi mumkin.

Nizolashayotgan tomonlar yaradorlarni qidirish va qutqarish, ularga insoniy muomala qilish, shu jumladan, tibbiy yordam ko'rsatish borasida barcha zarur choralarni qo'llashga majbur. Tibbiy va diniy xodimlar hurmat va himoyadan foydalanadilar. Tibbiyot muassasalari va trans-

porti hujum uchun nishon bo'lmisligi kerak. Masalan, Budyonovskda dudayevchilar kasalxonaga hujum qilgani va bemorlarni garovga olinganini eslash kifoya. Tibbiyot muassasasi yoki transporti harbiy maqsadlarda foydalanilganda ularga homiylik to'xtatiladi. Tibbiyot muassasalarini belgilashda xalqaro mojarolar davrida qo'llaniladigan belgilardan foydalaniladi.

Xalqaro bo'lmagan tUSDagi mojarolarda «harbiy asir» atamasini qo'llash ham yuridik, ham siyosiy jihatdan noto'g'ridir. Bu yerda gap «ushlab turilganlar» haqida bormoqda va ular harbiy asir maqomiga ega emas. Shu bilan birga, ularning muayyan huquqlari bor. Ularni saqlab turish va majburiy mazmun kasb etishi mumkin bo'lgan ishlarga jalb etishning umumiy shart-sharoiti mahalliy aholi foydalanadigan sharoitlar bilan bir xil bo'lmog'i darkor.

Qamoqda saqlash joylarining shart-sharoiti xalqaro mojarolarda harbiy asirlar va muayyan hududga joylashtirilgan shaxslar lagerlari uchun ko'zda tutilgan sharoitlarga o'xshash bo'lishi, xususan, jang maydonidan uzoqda joylashishi va tibbiy yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilishi zarur. Yozishmalar uchun ruxsat etiladi, ammo u cheklab qo'yilishi ham mumkin. Ushlab turish tugagan paytdan e'tiboran ozod etilganlarning xavfsizligini ta'minlash choralari ko'riladi.

Tinch aholi ichki mojarolar chog'ida jiddiy xavf-xatar ostida qoladi. 1977-yilgi qo'shimcha protokolda bunga alohida e'tibor qaratilgan. Protokolga muvofiq, aholiga hujum qilinishi mumkin emas, aholini qo'rqitish maqsadida biror-bir xatti-harakatni amalga oshirish, shuningdek, tahdid qilish man etiladi. Tinch aholi hayoti uchun zarur bo'lgan obyektlarga, shu jumladan, oziq-ovqat zaxiraloriga, ularni ishlab chiqarish joylariga, suv manbalariga hujum qilish ham mumkin emas. Shuningdek, xatarli kuchlarga ega obyektlarga, masalan, dambalar, yadro elektrostansiyalari va tabiiyki, neft sanoati inshootlariga hujum qilishga yo'l qo'yilmasligi ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Jeneva konvensiyalari va ularga qo'shimcha protokollarga 1993-yilda, Qurolli mojaro chiqqan hollarda madaniy boyliklarning himoya qilinishi to'g'risidagi konvensiyaga esa 1994-yilda qo'shilgan¹.

¹ Qarang: Saidov A. X. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro gumanitar huquq/ Xalqaro gumanitar huquq: Jeneva konvensiyalari to'plami. Toshkent, 2002, 6–26-betlar.

YIGIRMA UCHINCHI MAVZU. XALQARO NIZOLARNI TINCH YO‘L BILAN HAL ETISH HUQUQI

- 1-§. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish asoslari
- 2-§. Xalqaro nizolarni hal etishda xalqaro tashkilotlarning o‘rni
- 3-§. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishning xalqaro- huquqiy vositalari
- 4-§. Xalqaro nizolarni hal etishning xalqaro sudlov vositalari
 - *Xalqaro arbitraj*
 - *Xalqaro sud*
- 5-§. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish huquqining rivojlanish tendensiyalari

1-§. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish asoslari

Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish huquqi — davlatlararo nizolarni tinchlik vositalari bilan barqarorlashtirish tartibini belgilab beradigan prinsiplar va normalar majmuyidir.

Xalqaro huquqning bu mustaqil sohasi negizida nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish prinsipi yotadi. Bu prinsip nizolarni faqatgina tinch yo‘l bilan hal etish vositalari bilan barqarorlashtirish majburiyatini yuklaydi. Yana bir prinsip mavjud bo‘lib, bu nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalarini erkin tanlash prinsipidir.

Xalqaro to‘qnashuvlarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risidagi Konvensiya 1899-yili Gaaga tinchlik konferensiyasida qabul qilingan. Shundan buyon mazkur muammoga bag‘ishlangan qator xalqaro-huquqiy aktlar qabul qilindi. BMT Ustavida mazkur masalaga taalluqli alohida bob mavjud. BMT Bosh Assambleyasi bu borada bir qancha rezolyutsiyalar qabul qilgan va ular orasida 1982-yilgi Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish to‘g‘risida Manila deklaratsiyasi alohida ahamiyatga molik. Shuningdek, bu sohada ko‘plab mintaqaviy hujjatlar ham qabul qilingan.

«Xalqaro nizo» atamasi ikki xil, ya‘ni tor va keng ma‘nolarda qo‘llanadi. Tor ma‘noda muayyan ishtirokchilar, yetarlicha ochiq-oydin o‘zaro da‘volar, muayyan aniq bir predmet bilan bog‘liqlikni ifodalovchi vaziyatlargina tushuniladi. Keng ma‘nodagi xalqaro nizo deganda, davlatlararo munosabatlarda yuzaga keladigan va ko‘pincha «vaziyat» deb ham ataladigan har qanday nizoli holatlar anglashiladi. Bu borada BMT Ustavida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishga tahdid solishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarga alohida toifa sifatida e‘tibor qaratilgan (34-modda).

«Nizo» bilan «vaziyat» iboralari o'rtasidagi tafovut yuridik ahamiyatga ega. Nizo BMT Xavfsizlik Kengashida ko'rib chiqilayotganda Kengashning nizoda ishtirok etayotgan a'zosi ovoz berishdan tiyilishga majbur, «vaziyat» ko'rib chiqilayotganda esa bunday majburiyat talab etilmaydi. Tinchlikka tahdid soluvchi nizolarga nisbatan BMTning Xavfsizlik Kengashi alohida huquqlardan foydalanish imkoniga ega. U bunday nizolarning har qandayini o'z tashabbusi asosida o'rganib chiqishi, uni barqarorlashtirish yuzasidan tegishli protseduralarni tavsiya etishi, shuningdek, nizoni hal etish shartlarini taklif qilishi mumkin.

Bundan tashqari, BMT Ustavida nizolarning yana ikki xil toifasi ko'rsatilgan. Bularga yuridik va boshqa nizolar kiradi. Yuridik nizolarning ajratib ko'rsatilishi nisbiy ahamiyatga ega. Xalqaro sud Statutida yuridik nizolar sirasiga, avvalo, shartnomani talqin etishga, xalqaro huquqqa tegishli har qanday masalaga, xalqaro majburiyatlarning buzilganligini ko'rsatuvchi faktlar mavjudligiga, majburiyatni buzganlik uchun undirib olinadigan to'lovlarga taalluqli nizolar kiritilgan. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, davlatlar siyosiy, ya'ni noyuridik nizolar, ayniqsa, davlatning muhim manfaatlariga daxldor nizolarni uchinchi bir tomonga ko'rib chiqish uchun topshirmasdan, ikki tomonlama asosda hal etishni afzal biladi.

BMT Ustavining 33-moddasiga muvofiq, davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkin bo'lgan har qanday nizoda ishtirok etayotgan tomonlar, avvalo, nizoni muzokaralar, o'rganib chiqish, vositachilik, sulh, arbitraj, sudlov ishi, mintaqaviy organlarga yoki bitimlarga murojaat qilish yo'li yoxud o'zi tanlagan boshqa tinch yo'l bilan hal etish vositalari bilan hal etishga intilmog'i zarur.

2-§. Xalqaro nizolarni hal etishda xalqaro tashkilotlarning o'rni

Xalqaro tashkilotlarning nizolarni hal etishdagi o'rni ustuvor darajada siyosiy mazmun kasb etsa-da, baribir ishtirokchilarning xalqaro huquqqa muvofiq ravishda harakat qilishi talab etiladi. Siyosiy protsedura, asosan, tomonlarning pozitsiyalarini yaqinlashtirish va ular o'rtasida kelishuvga erishish maqsadlariga qaratiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotida Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashi nizolashayotgan davlatlarni nizoni hal etish borasida har qanday tinch yo'l bilan hal etish vositasidan foydalanishga da'vat etishi mumkin. BMTga a'zo bo'lmagan davlat o'zi ishtirokchi tomon hisoblangan har qanday nizo haqida BMT Bosh Assambleyaga yoki Xavfsizlik Kengashiga ma'lum qilishi mumkin.

Har qanday nizo yoki ixtilofga olib kelishi yoxud nizo qo'zg'ashi mumkin bo'lgan vaziyatlar tinchlik-osoyishtalikka tahdid solishda dav-

om etishi mumkin yoki yo'qligini aniqlash maqsadida BMT Xavfsizlik Kengashi ularni o'rganib chiqishi mumkin. BMTning har qanday a'zosi ana shunday nizo yoxud vaziyat haqida Xavfsizlik Kengashiga ma'lum qilish huquqiga ega. Bu kabi holatlarda Xavfsizlik Kengashining rezolyutsiyalari tavsiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi. Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra har qanday nizo ko'rib chiqish uchun BMTning Xavfsizlik Kengashiga topshirilishi mumkin va bunday hollarda Xavfsizlik Kengashi tegishli tavsiyalar beradi. Masalan, Malta va Liviya o'rtasida 1980-yilda yuzaga kelgan kontinental shelfni belgilash to'g'risidagi nizo bo'yicha BMTning Xavfsizlik Kengashi Xalqaro sudga murojaat qilishni tavsiya etgan va ushbu tavsiya bajarilgan.

BMTning Bosh Assambleyasi Ustav doirasida har qanday masalani, shu jumladan, xalqaro nizolarni muhokama etish va tegishli qarorlar qabul qilish huquqiga ega. U davlatlar o'rtasidagi do'stona munosabatlarga ziyon yetkazishga qodir bo'lgan har qanday vaziyatni tinch yo'l bilan barqarorlashtirishga oid ko'riladigan tegishli choralarni tavsiya etishi mumkin.

Barcha mintaqaviy xalqaro tashkilotlar nizolarni hal etishda bir-biriga o'xshash bo'lgan mexanizmlardan foydalanadilar.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) 1992-yilda Sulh va arbitraj to'g'risidagi konvensiyani qabul qilgan bo'lib, unda YXHT doirasida Sulh va arbitraj palatasini ta'sis etish ko'zda tutilgan.

Palataga murojaat qilishdan oldin, nizolashayotgan tomonlar boshqa vositalar, birinchi navbatda, muzokaralardan foydalanishlari darkor. Bular natija bermagan taqdirda tomonlardan har biri nizoni shu munosabat bilan tuziladigan sulh komissiyasi ixtiyoriga topshirishi mumkin. Bunda boshqa tomonning, agar tegishli nizo o'zining hududiy yaxlitligiga daxldor ekani to'g'risida bayonot bermasa, roziligi talab qilinmaydi.

Bu boradagi ishlarning natijasi xalqaro nizoni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi takliflardan iboratdir. Agar muayyan tomonlardan biri ana shu takliflarga rozi bo'lmasa, ular YXHTning Vazirlar kengashiga topshiriladi.

Arbitraj yurisdiksiyasi fakultativ mazmunga ega. Nizolarni uning ixtiyoriga topshirish uchun tomonlarning roziligi bo'lishi kerak.

Yevropa Kengashi 1957-yilda Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini qabul qilgan. Konvensiyada, Xalqaro sud Statutida bo'lganidek, nizolar yuridik va boshqa xil nizolarga ajratilgan. Konvensiyadagi tomonlar yuridik nizolarga nisbatan sudning majburiy yurisdiksiyasini qabul qilgan. Buning natijasi o'laroq, tomonlarning har biri boshqasining rozilgisiz ham nizoni sudga topshirishi mumkin. Noyuridik nizolar uchun esa sulh (murosa) protseduralari va arbitraj ko'zda tutilgan.

3-§. Xalqaro nizolarni tinch yo‘l bilan hal etishning xalqaro-huquqiy vositalari

Murosa vositalari suveren davlatlarning o‘zaro munosabatlarida yuzaga kelgan nizolar va kelishmovchiliklarni tinch yo‘l bilan barqarorlashtirishda muhim o‘rin tutadi. Bu vositalarning mazmun-mohiyatiga kelsak, bunda nizo tomonlar o‘rtasidagi bevosita muloqot va bitimlar yordamida barham topadi.

Nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish vositalariga quyidagilar kiradi:

- 1) muzokaralar;
- 2) maslahatlashuvlar (konsultatsiyalar);
- 3) xayrli xizmatlar;
- 4) vositachilik;
- 5) faktlarning aniqlanishi (tergov protsedurasi);
- 6) sulh (murosa protsedurasi).

Muzokaralar tomonlarning o‘zaro ma‘qul bir bitimga erishish maqsadiga qaratilgan bevosita aloqalarni anglatadi. Shartnoma amaliyotida «nizolar diplomatik kanallari bo‘yicha hal etiladi» degan qoida qabul qilingan. Muzokaralar olib borish alohida tashkiliy tayyorgarlikni talab etmaydi, bu jarayon davomida nafaqat siyosiy, balki yuridik masalalar ham uchinchi tomon aralashuvisiz hal etilishi mumkin.

Muzokaralar ikki tomonlama, shuningdek, ko‘p tomonlama bo‘lishi mumkin. Har qanday vaziyatda ham muzokaralar vijdonan olib borilishi zarur. Muzokaralar umumiy qoida tariqasida nizolarni hal etishning boshqa xil vositalaridan oldin bo‘lib o‘tadi.

Maslahatlashuvlar (konsultatsiyalar) — muzokaralarning bir turi bo‘lib, ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi:

- alohida rasmiyatchiliklarsiz ayni bir vaqtdagi muloqot;
- muayyan bitim ijrosini nazorat etish yoki davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni umumiy monitoring qilish maqsadida amalga oshiriladigan muntazam bir shakldagi muloqot.

Ko‘pincha maslahatlashuvlar rasmiy muzokaralardan oldin bo‘lib o‘tadi. Bir qator xalqaro shartnomalarda kelishmovchiliklarni maslahatlashuvlar va muzokaralar yo‘li bilan barqarorlashtirish ko‘zda tutilgan.

Xayrli xizmatlar uchinchi tomonning nizolashayotgan tomonlar o‘rtasida bevosita aloqa o‘rnatish borasidagi faoliyatidir. Xayrli xizmatlar davlat, uning mansabdor shaxsi, xalqaro organ yoki tashkilot, ularning mansabdor shaxslari, nufuzli xususiy shaxs tomonidan ko‘rsatilishi mumkin. Xayrli xizmat ko‘rsatish uchun nizoning barcha ishtirokchilaridan rozilik olinishi kerak. Ba‘zi hollarda tomonlar uchinchi tomonning muzokaralarda bevosita ishtirok etishi va imkon qadar kengroq vakolatlarga ega bo‘lishiga rozilik bildiradi. Bunday hollarda xayrli xiz-

matlar *vositachilikka* aylanishi ham mumkin. Masalan, 1962-yilgi Karib krizisi davrida SSSR BMT Bosh kotibining xayrli xizmatlariga rozilik bildirgan va bu AQSH bilan muzokaralar boshlashga ko'mak bergan, natijada esa yirik davlatlar o'rtasida yadro mojarosi yuzaga kelishi xavfiga barham berilgan.

Vositachilik — nizoni hal etish yo'llaridan biri bo'lib, bunda uchinchi tomon nizolashayotgan tomonlarni o'zaro da'volar bo'yicha kelishtirish va ularga ma'qul keladigan takliflarini kiritish uchun muzokarlarda ishtirok etadi. 1899 va 1907-yillardagi xalqaro to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi Gaaga konvensiyalarida belgilanishicha, vositachining roli tomonlarni nizoli da'volar yuzasidan kelishtirish va ularning bir-biriga bo'lgan qarama-qarshilik kayfiyatini tarqatib yuborishdan iboratdir.

Vositachi vazifasini davlat ham, xalqaro organlar va tashkilotlar ham, shuningdek, alohida shaxslar ham bajarishi mumkin. BMT Bosh Assambleyasi va BMT Xavfsizlik Kengashining Bosh kotibi orqali ko'p marotaba vositachilik vazifasini bajarilgan. 1952-yilda Hindiston va Pokiston o'rtasida Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki vositachi bo'lgan. 1979-yili Chili bilan Argentina o'rtasidagi nizoda esa katoliklar kardinali vositachilik qilgan.

Xayrli xizmatlar va vositachilik protseduralarining o'ziga xosligi shundaki, ular norasmiy va maxfiy holda o'tkaziladi. Vositachining takliflari tomonlar uchun majburiy ahamiyatga ega emas. Vositachilik natijalari qo'shma kommyunike, bitim yoki jentelmencha kelishuvda o'z aksini topadi.

Faktlarning aniqlanishi (surishtiruv protsedurasi, tergod) — nizo negizida yotgan faktlarni, xususan, bitimlarni buzish faktlarini aniqlash zarurati yuzaga kelganda qo'llaniladigan protsedura hisoblanadi. Bunday hollarda, odatda, tomonlarning teng sonli vakillaridan iborat qo'shma komissiya tuziladi. Ba'zan komissiyaga uchinchi tomon vakillari ham kiritiladi. Ba'zida komissiya o'rnini alohida shaxs, xususan, muayyan tashkilotning mansabdor shaxsi o'tashi ham mumkin. 1963-yilgi «Faktlarni aniqlash usullari to'g'risidagi masala» rezolyutsiyasida BMT Bosh Assambleyasi bu vositaning, xususan, xalqaro tashkilotlar doirasida faktlarni xolislik bilan aniqlashning ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Protsedura tomonlarni tinglash, guvohlardan surishtirish, tegishli joylarni borib ko'rishdan iborat bo'lishi mumkin. Protsedura natijalari tomonlarga ma'lum qilinadigan hisobotda aks etadi. Ayrim shartnomalarda faktlarning aniqlanishi yakunlariga katta e'tibor qaratiladi.

Sulh (murosa protsedurasi) o'zida faktlarning aniqlanishi va vositachilikni birlashtiradi. Odatda, sulhni murosa komissiyasi amalga oshiradi. Bunday komissiya xalqaro nizo predmetini aniqlaydi, tegishli

ma'lumotlarni to'playdi va tomonlarni kelishtirishga intiladi. Komissiya o'z faoliyati natijalari haqida nizolashayotgan tomonlarni xabardor qiladi.

Aksariyat ko'p tomonlama konvensiyalarda sulh komissiyasini shakllantirishning birgina usuli ko'zda tutiladi. Unga ko'ra tomonlardan har biri komissiya tarkibiga ikkitadan vakil tayinlaydi, hosil bo'lgan to'rtlik beshinchi vakilni tayinlaydi va u komissiya raisi hisoblanadi. Ba'zan komissiya a'zolari yoki faqatgina rais xalqaro tashkilot tomonidan tayinlanadi.

4-§. Xalqaro nizolarni hal etishning xalqaro sudlov vositalari: xalqaro arbitraj va xalqaro sud

Deyarli siyosiy usul hisoblangan murosa vositalaridan farqli o'laroq, xalqaro nizolarni hal etishning sudlov vositalari qaror qabul qilish asosida ham, protsess, ya'ni jarayon sifatida ham yuridik mazmun kasb etadi.

Sudlov ishidan maqsad, murosa protsedurasida bo'lgani kabi o'zaro kelishuv bitimiga erishishdan iborat emas, balki nizoni sudlov organi yoki tomonlarning o'zi hal etishi uchun qo'llanadigan huquqiy normalarni o'rnatishdan iboratdir. Ammo, sudlov organi barcha xalqaro nizo ishtirokchilarining manfaatlarini hisobga oladigan tegishli qaror chiqarishga intilmas ekan, degani emas.

Murosa protsedurasida yakuniy qarorni tomonlar chiqaradi, sudlov protsedurasida esa bunday qaror xalqaro organ tomonidan chiqariladi. Uning qarori tomonlar uchun yuridik majburiy kuchga egadir.

Xalqaro nizolarni hal etishning sudlov protsedurasi arbitraj va sud yo'li bilan amalga oshiriladi.

Xalqaro arbitraj — nizolashuvchi tomonlar davlatlar va xalqaro tashkilotlar hisoblangan nizolarni ko'rib chiqadigan hakamlar sudi. Bu sudni turli mamlakatlarning yuridik shaxslari murojaat etadigan xalqaro tijorat sudidan farqlash lozim.

Aksariyat hollarda arbitraj aniq nizoni ko'rib chiqish uchun tuziladi (ad hoc arbitraji). Bunday arbitrajning tarkibi va faoliyat tartibi kelishuv bitimi yoki oddiygina kompromiss deb ataladigan bitimda belgilab qo'yiladi.

Doimiy arbitraj muayyan xalqaro tashkilot tomonidan yuritiladigan arbitrlar ro'yxatidan iboratdir. 1907-yilgi Gaaga konvensiyasiga muvofiq, Gaagada Hakamlar sudining doimiy palatasi ta'sis etilgan. Arbitrlar ro'yxatini BMT Xalqaro sudining Kotibiyati yuritadi. BMTning a'zo davlatlari tomonidan arbitrlar tarkibiga shu davlatlarning vakilligi ostida eng nufuzli olimlar kiritilgan. 1930-yilgacha Xalqaro sudning doimiy palatasi bir qancha nizolarni, jahon urushidan keyin esa faqat

bittagina nizoni ko'rib chiqqan. Hakamlar sudining doimiy palatasi tajribasidan boshqa arbitrajlarini tuzish chog'ida foydalanilgan.

Tomonlar tayinlaydigan a'zolar va ular rozilik bildirgan superarbitr hisobiga doimiy arbitraj ad hoc arbitrajini yoki aniq nizoni ko'rib chiqishda arbitrajning hozir bo'lishini tashkillashtiradi. Ko'p tomonlama shartnomalarda, aksariyat hollarda, superarbitrning xalqaro mansabdor shaxs, masalan, BMT Bosh kotibi tayinlash imkoniyati ko'zda tutilgan bo'ladi. Ko'pchilik hollarda arbitraj uch yoki besh nafar arbitrdan iborat bo'ladi. Lekin nizolar yagona arbitr tomonidan hal etilgan hollar ham ma'lum. Tomonlar arbitrajda o'z agentlarini vakil qilib qo'yadi.

Ad hoc arbitraji orqali nizoni hal etish chog'ida tomonlar qo'llaniladigan huquqqa ham, ya'ni arbitraj o'z qarorini chiqarishda asoslanadigan xalqaro shartnomalarga e'tiborni qaratadi. Shuningdek, tomonlar nizoni ko'rib chiqish protsedurasini ham o'zaro kelishib oladilar.

Doimiy arbitraj, odatda, o'z protsedurasiga muvofiq faoliyat yuritadi. Arbitraj qarori tomonlar uchun majburiydir.

Keyingi yillarda ad hoc arbitraji ko'magida bir qator xalqaro nizolar, ayniqsa, dengiz chegaralariga taalluqli nizolar hal etilgan.

Xalqaro sud — doimiy asosda faoliyat yuritadigan, mustaqil sudyalardan tashkil topgan, nizolarni xalqaro huquq asosida hal etadigan va yuridik majburiy kuchga ega qarorlar chiqaradigan muassasa. Doimiy asosda faoliyat yuritadigan sud xalqaro huquq normalarini qo'llash va talqin etish borasida izchillik bilan ishlashga arbitrajga nisbatan ko'proq moslashgan.

Ilk bor suveren davlatlar Millatlar Ligasi Statuti negizida xalqaro sud 1922-yilda ta'sis etilgan. Bu o'rinda Xalqaro adliya doimiy palatasi ko'zda tutilmoqda. Qariyb 20-yillik tarixida mazkur palata 37 ta nizoni ko'rib chiqqan va Millatlar Ligasi Kengashi so'rovlari bo'yicha 28 ta maslahat xulosasi qabul qilgan.

Mazkur palata o'rnida keyinchalik BMTning Xalqaro sudi tashkil etilgan va uning Statuti negizi sifatida Xalqaro odil sudlov doimiy palatasining Statutidan foydalanilgan.

Muayyan ishni ko'rib chiqishda Xalqaro sud a'zolari to'la tarkibda hozir bo'lishi yoki nizolashayotgan tomonlarning iltimosiga muvofiq, tegishli masala uch yoxud undan ortiq sudyalardan tashkil topgan palata tomonidan ko'rib chiqilishi ham mumkin. Davlatlar o'rtasidagi nizolarni ko'rib chiqish bilan bir qatorda, Xalqaro sud BMTning Bosh Assambleyasi va Xavfsizlik Kengashi so'rovlari bo'yicha ham maslahat xulosalari chiqaradi. O'tgan yillar davomida Xalqaro sud 20 tadan ortiq ana shunday xulosa chiqargan.

Xalqaro sud vakolatlarining o'ziga xosligi shundaki, avvalo, faqat davlatlarga nizolashuvchi tomonlar bo'lishi mumkin. Xalqaro sud uni

tan olgan davlatlarga nisbatangina majburiy yurisdiksiyaga ega hisoblanadi. Bunday tan olish ikki shaklda amalga oshirilishi mumkin.

Statut ishtirokchisi hisoblangan davlat oldindan, bu borada alohida ahdlashuvlarni kutib o'tirmay, Xalqaro sudning: shartnomani talqin etish bo'yicha barcha huquqiy masalalar; xalqaro huquqqa taalluqli har qanday boshqa masalalar; xalqaro majburiyatni buzish sifatida talqin etilishi mumkin bo'lgan faktlarning mavjudligi; xalqaro majburiyatlarni buzganlik uchun to'lanadigan tovon pulining mazmuni va miqdori yuzasidan majburiy yurisdiksiyaga egaligini tan oladi (Statutning 35-moddasi). Bunday bayonotlar ozchilik davlatlar tomonidan e'lon qilingan bo'lib, ko'pincha ayrim nizolarni, masalan, hududiy muammolarga, harbiy harakatlarga tegishli va boshqa masalalar bo'yicha nizolarni Xalqaro sud yurisdiksiyasidan chiqarish to'g'risidagi shartlarni ko'zda tutadi. Bugungi kunda BMT Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zolaridan faqat Buyuk Britaniya Xalqaro sudning 35-modda bo'yicha yurisdiksiyasini tan oladi va bunda u ham bir qator nizolar toifalarini ushbu sud yurisdiksiyasidan chiqarib tashlashni shart qilib qo'ygan.

Xalqaro sud yurisdiksiyasi nizolar bo'yicha maxsus qabul qilinadigan muayyan shartnoma tomonidan, mazkur shartnomani qo'llash va talqin etish munosabati bilan, tan olinishi ham mumkin.

Sobiq Ittifoq xalqaro organlarda nizolarni xolis ko'rib chiqish imkoniyatiga ishonchsizlik bilan yondashgan va hech qachon nizolarni sudlarda ko'rib chiqishda muayyan bir tomon sifatida qatnashmagan. Uning so'nggi yillarida shakllangan yangi siyosiy tafakkur konsepsiyasining amal qila boshlashi natijasidagina bu borada ma'lum bir o'zgarishlar yuz bergani kuzatilgan. Xususan, Xalqaro sudning rolini kuchaytirish ma'qulligi to'g'risida bayon qilingan. Sobiq Ittifoq bir qator, asosan, xalqaro jinoyatlar hisoblanadigan xatti-harakatlarga taalluqli shartnomalarni talqin etish va qo'llash chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar bo'yicha Xalqaro sudning majburiy yurisdiksiyasini tan olgan. Shunga qaramay, BMT Xalqaro sudida sudlov ishi muhokamasi tomonlaridan biri sifatida ishtirok etmagan.

Xalqaro sud nizolarni xalqaro huquq negizida hal etadi va bunda qo'llanadigan normalar doirasini o'zi belgilaydi. Tomonlar rozi bo'lgan hollarda nizoni adolat negizida hal etish imkoniyati ham ko'zda tutilgan. Ammo bu imkoniyatdan davlatlar foydalanmagan.

Xalqaro sud qarori majburiy va qat'iy, bu hukm ustidan shikoyatga o'rin yo'q. Ishning xulosasiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan yangi shart-sharoitlar ochilgan hollarda bu qaror sudning o'zi tomonidan qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Xalqaro sud qarorining bajarilmasligi xalqaro-huquqiy javobgarlikka sabab bo'ladi. Agar bir tomon qarorni ijro etmas ekan, ikkinchi tomon bu haqda BMT Xavf-

sizlik Kengashiga murojaat qilishi mumkin. Xavfsizlik Kengashi bu borada tegishli tavsiyalar berish va hatto Xalqaro sud tomonidan qaror ijrosi ta'minlanishiga erishish uchun tegishli choralar ko'rish huquqiga ham ega, ayni chog'da, bu harakatlarni amalga oshirishga majbur emas.

Xalqaro sud qarori faqatgina shu ishda ishtirok etayotgan tomonlar uchun va shu ish bo'yicha majburiydir. Boshqacha aytganda, qaror shu kabi hollarda boshqa davlatlar uchun ham majburiy tusga kiradigan sud pretendentini yuzaga keltirmaydi. Shunday bo'lsa-da, Xalqaro sud qarori yuksak nufuzga ega. Davlatlar o'z huquqlarini asoslash chog'ida, aksar hollarda, Xalqaro sudning qarorlarida bayon etilgan fikrlarga tayanadi. Buning natijasi o'laroq, Xalqaro sud xalqaro huquq rivojining yalpi jaryonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatlar o'rtasidagi nizolarni hal etish bilan bir qatorda Xalqaro sud har qanday yuridik masalalar yuzasidan konsultativ xulosalar ham beradi. Bu haqda, BMT Ustaviga muvofiq, tegishli huquqqa ega muassasalargina murojaat qilishi mumkin. Murojaat qilgan muassasaning bunday huquqi bor-yo'qligi haqidagi masalani Xalqaro sudning o'zi hal etadi. Masalan, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining qurolli nizo davrida davlatlarning yadro qurolini qo'llashi qonuniyligi bilan bog'liq 1996-yilgi so'roviga javoban Xalqaro sud bunday so'rov mazkur tashkilot vakolatiga kirmasligini ma'lum qilgan. Shu bilan birga, Xalqaro sud BMT Bosh Assambleyasining yadro quroli bilan tahdid etish yoki uni qo'llashning qonuniyligi bilan bog'liq masala yuzasidan yuborgan so'roviga konsultativ xulosa bergan.

Konsultativ xulosalar yuridik majburiy kuchga ega bo'lmasa-da, qaror kabi yuksak nufuzga ega hisoblanadi.

Xalqaro sud o'z faoliyati davomida yuzga yaqin ishni ko'rib chiqqan, ularning uchdan bir qismi bo'yicha konsultativ xulosalar bergan. Xalqaro sud qarorlari asosan quyidagi masalalarni qamrab olgan:

- 1) shartnomalarni talqin etish va qo'llash;
- 2) muayyan hududlar va chegaralar suvereniteti;
- 3) dengiz huquqi;
- 4) fuqarolarni xorijda himoyalash;
- 5) kuch ishlatish;
- 6) xalqaro huquq umumiy prinsiplarining buzilishi.

5-§. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish huquqining rivojlanish tendensiyalari

Hozirgi zamon xalqaro huquqida xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish huquqini rivojlantirish borasida bir qancha tendensiyalar namoyon bo'lmoqda.

Birinchi tendensiya — tinch yo'l bilan hal etish vositalarini ixtisoslashtirish. Yirik xalqaro shartnomalarda tinch yo'l bilan hal etish vositalariga murojaat etish majburiyatini ko'zda tutish bilangina cheklanib qolmay, balki har bir vositadan foydalanish va muayyan bir vositadan boshqasiga o'tish qoidalarini tartibga solishga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Masalan, xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risidagi bo'lim Erkin savdo bo'yicha Shimoliy Amerika assotsiatsiyasi (NAFTA) to'g'risidagi bitim hamda Jahon savdo tashkiloti (JST) to'g'risidagi shartnomaning kattagina qismini tashkil etadi.

Ikkinchi tendensiya — ilgarigi qoidaga ko'ra o'z-o'zidan, tabiiy ravishda foydalanib kelingan tinch yo'l bilan hal etish vositalarini institutlashtirish. Bu tendensiya muzokaralar, maslahatlashuvlar, murosa protsedurasiga taalluqlidir. 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasi, erkin savdo assotsiatsiyalarini tuzish to'g'risidagi bitimlar, siyosiy munosabatlarga doir ko'plab shartnomalarda tomonlar o'rtasida maslahatlashuvlarni muntazam ravishda amalga oshirish ko'zda tutilgan, murosa protsedurasiga esa majburiy tus berilgan, ya'ni murosa jarayoni boshlanishi uchun nizolashayotgan tomonlardan birining arizasi kifoya qiladi.

Uchinchi tendensiya — xalqaro sudlar sonini ko'paytirish. Aksariyat xalqaro tashkilotlar, ayniqsa, mintaqaviy integratsiyalashgan birlashmalar o'z tuzilmasi tarkibida Ta'sis shartnomasida bayon etilgan normalarga amal qilinishini kuzatib boradigan xalqaro sudlar mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Misol sifatida Yevropa Ittifoqi sudini yoki Yevropa Kengashi tarkibidagi Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudini ko'rsatish mumkin.

Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish huquqini rivojlantirish tendensiyalari 1982-yilgi Dengiz huquqi bo'yicha BMT konvensiyasida ayniqsa aniq-ravshan ifodalangan bo'lib, qariyb 170 ta davlat ishtirokchisi bo'lgan ushbu konvensiyada yer ustining 2/3 qismidan foydalanishga daxldor ko'plab amaliy masalalar tartibga solingan.

Konvensiyaning tegishli bo'limi mazkur konvensiyani talqin etish va qo'llash chog'ida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xalqaro nizolarni hal etish uchun har qanday vositani tanlash erkinligi to'g'risidagi qoida bilan boshlangan.

Bunday maqsadlarda BMT Ustavida, boshqa har qanday ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalarda sanab o'tilgan vositalardan yoxud tomonlar o'zaro kelishib olgan boshqa biror-bir vositadan foydalanish mumkin.

Konvensiyada, shuningdek, olti oy davomida o'z yechimini topmagan xalqaro nizoni ko'rib chiqish uchun murosa komissiyasiga topshirish yuzasidan tomonlarning majburiyatlari, mazkur komissiyaning ishlash tartibi qayd etilgan. Komissiya a'zoligiga loyiq shaxslarning

ro'yxatini BMT Bosh kotibi tuzadi. Murosa komissiyasiga majburiy yurisdiksiya berilgani muhim yangilik hisoblanadi, ya'ni nizo ko'rib chiqish uchun tomonlarning o'zaro roziligi asosida emas, balki ulardan atigi bittasining roziligi bo'yicha qabul qilinishi mumkin.

Shuningdek, tomonlarga tanlab olish uchun to'rtta — kema qatnovi, baliq ovlash, ilmiy tadqiqotlar va dengizni ifloslantirishga qarshi kurash masalalari bo'yicha arbitrajlar tavsiya etiladi. Bunday maxsus arbitrajlarining ish protsedurasi konvensiyada qayd etilgan, arbitrlarning ro'yxati esa xalqaro tashkilotlar tomonidan tuziladi.

Bundan tashqari, Konvensiyada maxsus sud — Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunal ko'zda tutilgan bo'lib, u o'z faoliyatini boshlab yuborgan. Konvensiya bo'yicha barcha nizolar bilan shug'ullanuvchi mazkur Tribunal tuzilmasi tarkibiga Dengiz tubiga taalluqli nizolar bo'yicha kamera ham kiritilgan. Tribunal uchun ham, kamera uchun ham xalqaro nizolarni ko'rib chiqishning alohida, mustaqil protsedurasi ko'zda tutilgan.

Arbitrajlarining, shuningdek, Dengiz huquqi bo'yicha xalqaro tribunalning yurisdiksiyasi konvensiya ishtirokchisi hisoblangan barcha davlatlar uchun majburiydir.

Xalqaro nizoni o'ziga xos siyosiy-huquqiy munosabat sifatida o'rganish mumkin va uning negizida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy, harbiy, xalqaro-huquqiy mazmunda bo'lgan va ikki yoki undan ortiq xalqaro huquq subyektlari o'rtasida yuzaga keladigan bir qator ziddiyatli omillar yotadi.

Davlatlar o'rtasidagi nizoli munosabatlarni ifodalash uchun BMT Ustavida «nizo» va «vaziyat» degan atamalar ishlatiladi. Xalqaro huquq nazariyasida «xalqaro nizo» atamasi, odatda, davlatlar o'rtasidagi o'zaro e'tirozlarni ifoda etish maqsadida qo'llaniladi.

Xalqaro huquq nazariyasi va amaliyoti, BMT Xavfsizlik Kengashi tajribasi va Xalqaro sud qarorlaridan kelib chiqadigan bo'lsak, nizo davlatlar nizoning aynan bitta predmeti yuzasidan bir-biriga o'zaro e'tirozlar bildirgan taqdirda paydo bo'ladi. Vaziyat esa — davlatlar manfaatlarining to'qnashuvi bo'lib, u o'zaro e'tirozlar bildirish ko'rinishida namoyon bo'lmasa-da, davlatlar o'rtasida ziddiyatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Nizolar va vaziyatlarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchi turga mansublarining davomiyligi xalqaro tinchlik va xavfsizlikka tahdid soladi, ikkinchi turga mansublari esa, bunday tahdid bilan bog'liq emas.

BMT Ustavida yuridik (huquqiy) va siyosiy nizolar o'rtasida aniq farq belgilanmagan. Masalan, BMT Ustavining 33-moddasida «Xavfsizlik Kengashi xalqaro ziddiyatlarga olib kelishi yoki nizo qo'zg'ashi mumkin bo'lgan har qanday nizo va har qanday vaziyatni, mazkur nizo yoxud vaziyatning davom etishi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab

turishga xavf solish ehtimolini aniqlash uchun, o'rganib chiqish va-kolatiga ega», deyilgan. BMT Ustavi nizo va vaziyatlarni zikr etilgan ikki toifaga ajratish mezonlarini belgilab bergan holda, bu masala yechimini Xavfsizlik Kengashiga havola etadi.

Xalqaro huquq bo'yicha mutaxassislar xalqaro nizolarni turli xil aso-lar bo'yicha, ya'ni: nizo obyekt yoki predmeti bo'yicha; tarqalish jug'rofiyasi bo'yicha (mahalliy, mintaqaviy yoki global); subyektlar soni bo'yicha (ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama) tasnif etadilar.

BMT Ustavida, o'z navbatida, xalqaro nizolarning «nizo, tinchlik va xavfsizlikning davomiyligi» (Ustavning 37-moddasi); «xalqaro ni-zolar (Ustavning 52-moddasi, 2—3 bandlari) hamda «yuridik mazmun-dagi nizolar» (Ustavning 36-moddasi 3-bandi) kabi alohida turlari ajratib ko'rsatilgan. BMT Xalqaro sudi statutining 36-moddasi 2-bandida esa yuridik mazmundagi va ushbu sud yurisdiksiyasiga kiruchi nizolar de-ganda nimalar tushunilishi to'g'risida tushuncha beruvchi mezonlar sanab o'tilgan, bunday nizolar sirasiga shartnoma talqiniga xalqaro huquq-ning har qanday masalasiga, faktning mavjudligiga (agar uning aniqla-nishi xalqaro majburiyat buzilishi hisoblanadigan bo'lsa), shuningdek, majburiyat buzilgani uchun to'lanadigai tavon pulininig xarakteri va miqdoriga taalluqli nizolar kiradi.

YIGIRMA TO'RTINCHI MAVZU. XALQARO XAVFSIZLIK HUQUQI

- 1-§. «Xalqaro xavfsizlik huquqi» tushunchasi**
- 2-§. Kollektiv xavfsizlik va uning tizimlari**
- 3-§. Qurol-yarog'larni cheklash va nazorat qilish**
- 4-§. Xalqaro xavfsizlik huquqida ishonch va nazorat choralar**

1-§. «Xalqaro xavfsizlik huquqi» tushunchasi

Xalqaro xavfsizlik huquqi davlatlarning yalpi tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, shu jumladan, oldini olish bo'yicha faoliyat ko'rsatish so-hasidagi munosabatlarini tartibga soluvchi normalar majmuyidir.

Davlatlar o'rtasidagi dushmanlik sabablariga barham berish va xalqaro tanglikning oldini olish xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning eng ishonchli vositasi hisoblanadi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi to'laligicha ana shu maqsadga qaratilgandir. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlarda maz-kur yo'nalishda boshqa bir qator aniq choralar ham ishlab chiqilgan.

Bunday xalqaro-huquqiy choralar, odatda, bir necha guruhni tashkil etadi:

- 1) kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish;
- 2) qurol-yarog'larni cheklash va ular ustidan nazorat o'rnatish;
- 3) ishonch va nazorat choralari.

Xalqaro amaliyotda xalqaro xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha choralar ko'rishning hozirgi bosqichida quyidagi dolzarb masalalarga urg'u berilmoqda:

1. Qurollanish poygasi va qurolsizlanish jarayoni.
2. Qurol-yarog'larni cheklash va qurolsizlanish to'g'risidagi bitimlarga rioya etilishini tekshirish.
3. Ishonchni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.
4. Kafolatlangan xavfsizlik chora-tadbirlarini o'rnatish.

Qurolsizlanishning xalqaro-huquqiy asosi BMT Ustavida o'z aksini topgan. *Qurolsizlanish* deganda, urush olib borish vositalarini ko'paytirishga barham berishga, ularni cheklash, kamaytirish va bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. 11-moddaning 1-bandida «qurolsizlanish va qurol-yarog'ni tartibga solishni belgilab beruvchi prinsiplar» xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash ishidagi hamkorlikning umumiy prinsiplari sirasiga kiritilgan.

Demilitarizatsiya (qurolsizlanish) muayyan hudud yoki makondan tinchlik davrida harbiy maqsadlar uchun foydalanishni taqiqlaydigan, ahdlashuv asosida o'rnatiladigan xalqaro-huquqiy rejim (tartib)dir. Ushbu chora mazkur hududda harbiy istehkom va inshootlarning bartaraf etilishi hamda bu joyda qurolli kuchlar saqlab turilishini taqiqlanishini nazarda tutadi.

Neytralizatsiya deganda, muayyan hududda yoki makonda harbiy harakatlar olib borishning yoxud ushbu hududlardan harbiy amaliyotlar uchun baza sifatida foydalanishning ahdlashuv asosida o'rnatilgan tartibda taqiqlanishi tushuniladi. Neytralizatsiyadan maqsad ushbu hududda yoki ushbu hududdan urush boshlanishining oldini olish, mabodo harbiy harakatlar yaqin kelib qolgan va uni to'xtatishning imkoni bo'lmagan taqdirda, bunday hududni harbiy harakatlar doirasida chiqarib olishdan iborat.

Qurol-yarog'larni cheklash va qurolsizlantirish to'g'risidagi bitimlarga rioya etilishini tekshirish jarayonini shartnoma majburiyatlarini nazorat qilish va olingan ma'lumotlarni tahlil etish usullarining mujassamligi sifatida ta'riflash mumkin. Tekshirish shartnomaning har bir ishtirokchisiga boshqa ishtirokchilar o'z majburiyatlarini qanday bajarayotganligi haqida ma'lumotlar taqdim etish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda shartnoma maqsadlariga erishish, uning qoidalari buzilishining oldini olish va bunday buzilishlarni aniqlash hamda shu qoidalarga rioya etilayotganiga nisbatan ishonchni kuchaytirish imkoniyatlari ortadi.

Ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar — maxsus shartnomaviy yoxud boshqa yo'l bilan ahdlashuv asosida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar bo'lib, ular bir tomonning harakatlari boshqa tomonning xavfsizligiga ziyon yetkazish maqsadini ko'zlamaganligiga ishonchni ta'minlash uchun qo'llaniladi (ayniqsa, agar bunday harakatlar qo'qqisdan hujum qilishga tayyorgarlik yoxud uning boshlanishi hamda rostdan ham tegishli ziyon yetkazgan deb tushunilsa yoki shunday baholansa). Bunday chora-tadbirlar real qurolsizlanish chorasi hisoblanmaydi va ularning o'rnini ham bosmaydi, ammo o'z-o'zicha yoki qo'shimcha choralar sifatida qabul qilinar ekan, ular ochiq muzokaralar uchun qulay shart-sharoit yaratadi yoxud mavjud muzokaralar olg'a siljishiga ko'maklashadi.

Kafolatli xavfsizlik choralarni belgilash *xalqaro huquq subyektlari o'rtasida qurol-yarog'larni cheklash va qurolsizlanish to'g'risidagi bitimlar bo'yicha majburiyatlarni zimmaga olish hamda bunday majburiyatlarni ro'yobga chiqarish va tekshirish mexanizmini o'rnatish demakdir. Xalqaro amaliyotda xavfsizlikning pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) kafolatlari farqlanadi.*

2-§. Kollektiv xavfsizlik va uning tizimlari

Kollektiv xavfsizlik — bu davlatlarning tinchlikka tahdid solishning oldini olish va bunday tahdidlarga barham berish hamda agressiya harakatlarini bartaraf etishga qaratilgan birgalikdagi chora-tadbirlari tizimidir.

Kollektiv xavfsizlikning yalpi va mintaqaviy tizimlari mavjud.

Yalpi kollektiv xavfsizlik tizimining asosi BMT Ustavidir. Bunda har tomonlama tinch hamkorlik tizimini barpo etish va qo'llab-quvvatlash yo'li bilan tinchlikka tahdidning oldini olishga tayanilishi alohida e'tiborni tortadi.

Tinchlikka tahdidning oldini olishga tayanish nizoli vaziyatlar yuzaga kelganda qo'llaniladigan usullarga ham xosdir. Davlatlar:

- 1) kuch bilan tahdid etishdan yoki kuch qo'llashdan tiyilib turishga;
- 2) nizolar va vaziyatlarni faqatgina tinch yo'l bilan hal etish vositalari orqali barqarorlashtirishga;
- 3) tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish uchun o'z kuchlarini birlashtirishga majburdir.

Harbiy harakatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jiddiy nizolar o'chog'i alangalangan vaziyatlarda BMT Xavfsizlik Kengashi, vaziyatni tinchlikka xavf solishi, tinchlikni buzishi mumkin bo'lgan vaziyat yoki agressiya harakati sifatida baholar ekan, dastavval, BMT Ustavining 39-moddasi bo'yicha tegishli choralarni ko'rishga kirishadi. U 40-modda bo'yicha vaziyatning qaltis tus olishiga yo'l qo'ymaydigan muvaqqat

choralarni joriy etishi mumkin. Shundan so'ng qurolli kuchlardan foydalanmay sanksiya qo'llash haqidagi 41-modda kuchga kiradi. Ya'ni iqtisodiy munosabatlarni, transportlar qatnovini to'xtatish, diplomatik munosabatlarni uzib qo'yish shular jumlasidandir. Keyin esa qurolli sanksiyalar to'g'risidagi 42-moddani qo'llash mumkin bo'ladi.

BMTning tinchlikparvar operatsiyalari (tadbirlari) tinchlik va osoyishtalikni saqlab turishda muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda bunday amaliyotlarning ko'lemi tobora kengaymoqda. Ayni vaqtda ular Ustavda to'g'ridan to'g'ri ko'zda tutilmagan, balki BMTning umumiy maqsad va prinsiplaridan kelib chiqadi. Shu bois bunday amaliyotlar harakati tinchlikparvar amaliyotlar to'g'risidagi masalalarni muntazam ravishda ko'rib chiqadigan Bosh Assambleyaning BMT Ustaviga muvofiq qabul qilgan bir qator rezolyutsiyalari bilan tartibga solinadi.

Tinchlikparvarlik degani, qurolli kuchlarning o'zini o'zi himoya qilish hollarini istisno etganda, qurol ishlatmasdan va urushayotgan tomonlar roziligi asosida bajaradigan hamda sulh haqidagi bitimga amal qilinishini kuzatib turish uchun mo'ljallangan amaliyotlarini anglatadi. Bundan maqsad — xalqaro nizoni siyosiy yo'l bilan hal etilishiga erishish yo'lida diplomatik harakatlarni rag'batlantirishdan iborat.

BMTning tinchlikparvar kuchlari ilk bor 1948-yilda, Isroil davlatining tashkil topish davrida, qo'llanilgan bo'lib, o'tgan vaqt mobaynida ulardan bir necha marta foydalanilgan. Endilikda BMTning tinchlikparvar kuchlari tinchlikni va davlat yaxlitligini xavf ostida qoldiradigan turli diniy, etnik negizlardagi mahalliy nizolarga barham berishda katta vazifalarni bajarmoqda. BMT kuchlarining xalqaro bo'lmagan tUSDagi nizolarni barqarorlashtirish borasidagi roli ortib bormoqda, bu uning faoliyatida yangi yo'nalish hisoblanadi.

Amaliyotlarni moliyalashtirish BMT barcha a'zolarining majburiyati sanaladi. BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalarida nizoli hududdagi mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikning ahamiyatiga alohida urg'u beriladi.

1994-yili BMT Assambleyasi BMT xodimlari va u bilan bog'liq shaxslar xavfsizligi to'g'risidagi konvensiya loyihasini tasdiqlagan. Tinchlikparvar kuchlar safida qurbonlar sonining keskin ortib borayotgani ana shu konvensiyani qabul qilishni taqozo etgan. 45-yil mobaynida Isroilda joylashgan nazoratchilar safidagi yo'qotish 39 nafar kishini tashkil etgan. Ikki yil ichida Somalida BMT kuchlari safidan 130 nafar kishi qurbon bo'lgan.

BMT xodimlari sirasiga harbiylar, politsiyachilar yoki fuqaro shaxslar kontingenti, ya'ni Bosh kotib tomonidan BMT amaliyotida qatnashish uchun yo'llangan shaxslar kiritilgan. BMT amaliyoti deganda, BMTning vakolatli organi tomonidan Ustavga muvofiq joriy etgan va BMT

rahbarligi hamda nazorati ostida amalga oshiriladigan amaliyotlar tush-uniladi.

Konvensiyada BMTning tinchlikparvarlik amaliyotlari va Ustavning VII bobiga muvofiq amalga oshiriladigan majburiy harakatlarni ko'zda tutuvchi amaliyotlar bir-biridan farqlanadi. U xalqaro gumanitar huquq qo'llanadigan uyushgan qurolli kuchlarga qarshi harbiy harakatlarga jalb etilgan xodimlarga nisbatan qo'llanilmaydi. Ammo, bu mutlaqo tinchlikparvar kuchlar xodimlari mazkur huquq ta'siri doirasida emas ekan, degan mazmuni anglatmaydi. Konvensiyada ta'kidlanganidek, undagi hech bir narsa xalqaro gumanitar huquqning amaliyotlarda band bo'lgan BMT xodimlariga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi yoki bu xodimlar-ning mazkur huquqni hurmat qilishga majburligi masalalariga daxl qil-maydi.

BMT xodimlari o'zlari bo'lib turgan mamlakat va tranzit bilan o'tadigan mamlakatning qonun va qarorlarini hurmat qilishga, o'z maj-buriyatlarining xolisligi va xalqaro ahamiyatga egaligiga mos kelmay-digan xatti-harakatlardan tiyilishga majburlirlar.

Mintaqaviy kollektiv xavfsizlik tizimi. BMT Ustavida mintaqaviy bitimlar hamda mintaqadagi harakatlarga mos ravishda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga taalluqli masalalarni hal etuvchi organlar to'g'risida maxsus bob mavjud. Bobda ana shu bitimlar va organlar, shuningdek, ularning faoliyati BMT maqsadlari va prinsiplariga mos kelishi zarurligi qayd etilgan. BMT Xavfsizlik Kengashi bunday bitim-lar va organlar doirasida nizolarning tinch yo'l bilan hal etilishini rag'batlantiradi. U o'z rahbarligi ostida majburiy harakatlarni amalga oshirishda mintaqaviy bitimlar va organlardan foydalanadi. Kengash vakolatisiz ular majburiy harakatlarni amalga oshira olmaydi, kollek-tiv tarzda o'zini o'zi himoyalash maqsadiga qaratilgan harakatlar bun-dan mustasno. Kengash tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan yoki amalga oshirish mo'ljallangan barcha ha-rakatlardan xabardor qilinishi shart.

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotini tuzish uchun asos bo'lib xizmat qilgan 1994-yilgi Budapesht hujjatida qayd etilishicha, tashkil-otning maqsadi mintaqada xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikni ta'minlashga hissa qo'shishni kuchaytirish, shu yo'l bilan Xelsinki yakun-lovchi akti prinsiplariga muvofiq ravishda, YXHTning yalpi xavfsizlik makonini rivojlantirish borasida asosiy o'rinni egallashiga erishishdan iboratdir.

1994-yildayoq oliy darajadagi kengashda Xavfsizlikning harbiy-si-yosiy jabhalari bo'yicha muomala kodeksi qabul qilingan. Unda xavfsizlik bo'linmas ekani o'z tasdig'ini topgan. Har bir davlatning xavfsizligi boshqa barcha davlatlar xavfsizligi bilan o'zaro chambarchas bog'liqdir.

Ishtirokchilar o'z xavfsizligini boshqa davlatlar xavfsizligi evaziga mustahkamlamaslik majburiyatini zimmasiga olgan. Ular yakka tartibda yoki kollektiv tarzda o'zini o'zi mudofaalash huquqini ro'yobga chiqarishda ko'makka muhtoj davlatlar bilan tezda maslahatlashish majburiyatini olganlar. Ishtirokchilar mavjud tahdid va umumiy qadriyatlarini himoyalash maqsadida taqozo etiladigan xatti-harakatlarning mazmun-mohiyatini birgalikda ko'rib chiqishga kelishib olganlar.

Qurolli kuchlar yakka tartibdagi yoki kollektiv xavfsizlik talablari darajasiga mos bo'lishi zarur. Nazorat qilish, qurolsizlanish, ishonch va xavfsizlik choralari kuchaytirish sohalaridagi majburiyatlar tasdiqlab olingan. Konstitutsiyaviy hokimiyat nazoratida bo'lmagan kuchlarga toqat qilmaslik va ularni qo'llab-quvvatlamaslik borasidagi majburiyatlar, ayniqsa, diqqatga loyiqdir. Agar davlat bunday kuchlar ustidan o'z hukmronligini o'rnatishga qodir bo'lmasa, u zarur harakatlarni belgilab olish uchun YXHT doirasida tegishli maslahatlashuvlarni boshlab yuborishi mumkin.

MDH Nizomida ham xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, unda xalqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha hamkorlik qilish, qurol-yarog'lar va harbiy sarf-xarajatlarni kamaytirishga qaratilgan samarali choralar qo'llash, yadroviy va boshqa xil ommaviy qirg'in qurollarini bartaraf etish, yalpi va to'la qurolsizlanishga erishish, bahs va nizolarni tinch yo'l bilan hal etish bu boradagi asosiy maqsadlar sifatida qayd etilgan. Ko'rinib turibdiki, vazifalarning ko'lamini juda keng va uzoq istiqbolga mo'ljallangandir.

Bu vazifalarni bajarish uchun ishtirokchilar xavfsizlik sohasida yakdil siyosat yuritishga kelishib olganlar. Xavfsizlikka tahdid yuzaga kelgan vaziyatlarda darhol BMT Ustaviga muvofiq yakka tartibdagi va kollektiv mudofaalash huquqini ro'yobga chiqarish tartibidagi qurolli kuchlardan foydalanishni ko'zda tutuvchi tahdidni bartaraf etish choralari qo'llash maqsadiga qaratilgan o'zaro maslahatlashuvlar mexanizmi ishga tushadi. Qurolli kuchlardan foydalanish to'g'risidagi qaror MDH davlatlari rahbarlari kengashi yoxud faqat bevosita manfaatdor davlat tomonidan qabul qilinadi.

Bunday qoidalar Arab Davlatlari Ligasi, Amerika Davlatlari Tashkiloti, Afrika Birdamligi Tashkiloti kabi mintaqaviy tuzilmalarning nizomlariga ham kiritilgan.

3-§. Qurol-yarog'larni cheklash va nazorat qilish

Qurolsizlanish — insoniyatning azaliy orzusi. Qurolsizlanish xavfsizlikning eng ishonchli kafolati, demakdir. BMT Ustavida Bosh Assambleyaga «xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlab turish bo'yicha hamkorlikning umumiy prinsiplarini, shu jumladan, qurolsizlanish va qurol-yarog'larni tartibga solishni belgilab beruvchi prinsiplarni ko'rib chiqish»

vakolati berilgan. Bu g'oya bir qator xalqaro-huquqiy hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lsa-da, baribir, qurolsizlanish g'oyasi haligacha pozitiv huquq normasiga aylanmagan.

Amalda qisman qurolsizlanish, qurol-yarog'larni qisqartirish haqida gap boradi. Avvalo, o'ta xavfli qurollar turlari qisqarishga yuz tutdi.

Kimyoviy va bakteriologik qurollar. Zaharlovchi gazlarning ilk bor I jahon urushi davrida qo'llanilishi shu qadar dahshatli oqibatlariga olib keldiki, natijada 1925-yilning o'zidayoq Jeneva protokoli asosida urushda bo'g'uvchi, zaharlovchi va boshqa xil gazlar hamda bakteriologik vositalarni qo'llash taqiqlab qo'yildi.

Kimyoviy va bakteriologik qurollarni qo'llamaslikni ta'minlash bo-rasida Bakteriologik (biologik) va toksin qurollarni yaratish, ishlab chiqarish va to'plashni taqiqlash hamda ularni yo'q qilish to'g'risida 1972-yilda qabul qilingan BMT konvensiyasi muhim qadam bo'ldi. Konvensiyada harbiy maqsadlar yo'lida bunday vositalarni va ularni tashish vositalarini ishlab chiqarish taqiqlangan, tegishli vositalarni boshqa davlatlarga berish cheklab qo'yilgan. BMT Xavfsizlik Kengashi muayyan davlatning biologik yoki bakteriologik hujum obyektiga aylanganini tan olgan taqdirda, unga tegishli ko'mak ko'rsatish ko'zda tutilgan. Mazkur konvensiyani ro'yobga chiqarish bilan bog'liq qiyinchiliklarni ham hisobga olmaslik mumkin emas. Zero, bunday qurollar zaxiralarni bartaraf etish katta sarf-xarajatlarni taqozo etadi.

Ximiyaviy qurolni yaratish, ishlab chiqarish, to'plash va qo'llashni taqiqlash hamda uni yo'q qilish to'g'risida 1993-yilda qabul qilingan konvensiyaga muvofiq, kimyoviy qurolni taqiqlash bo'yicha maxsus xalqaro tashkilot tuzishgacha bo'lgan choralarni o'zida qamrab olgan murakkab milliy va xalqaro kafolatlar tizimini yaratish ko'zda tutilgan. Konvensiyada hatto ko'zdan yosh oqizadigan gazlar kabi vaqtinchalik ta'sir kuchiga ega zaharlovchi moddalarni qo'llash ham taqiqlangan.

Portlovchi o'q-dorilar va yondiruvchi qurollar. 1863-yilda rus armiyasida portlovchi snaryadlar yaratilgan, 1868-yilda esa xalqaro konferensiya bo'lib o'tgan va unda Portlovchi va yondiruvchi o'q-dorilardan foydalanishni taqiqlash to'g'risidagi Sankt-Peterburg deklaratsiyasi qabul qilingan. Ana shu mashhur deklaratsiyaga muvofiq, portlaydigan yoki yonuvchi moddalar joylangan hamda vazni 400 gramm-dan kam bo'lgan har qanday snaryadlarning qo'llanishi taqiqlangan. 1899-yilgi Gaaga konferensiyasida Yondiruvchi o'q-dorilar to'g'risidagi deklaratsiya qabul qilingan. Unga ko'ra nafaqat yondiruvchi maxsus o'q-dorilar, balki qattiq qoplamalar qismlarini ko'chirishga mo'ljallangan o'q-dorilar ham taqiqlangan.

Oddiy qurolning haddan tashqari ko'p zarar keltiradi yoki barcha narsaga baravar ta'sir etadi deb hisoblanadigan aniq turlari qo'llanilishini

taqiqlash yoki cheklash to'g'risida 1980-yilda qabul qilingan BMT konvensiyasiga uchinchi protokolda ham yondiruvchi o'q-dorilarni qo'llash taqiqlab qo'yilgan. Uning tinch aholiga qarshi ishlatilishi mumkin emas va hatto turarjoy hududlaridagi harbiy nishonlarni havodan bombardimon qilish yoki boshqa har qanday maqsadlarda foydalanish chog'ida hujum qilinadigan nishon aniq ajralib turishi shart. Yondiruvchi vositalarning o'rmonlar va boshqa o'simliklarga qarshi ishlatilishi ham taqiqlanadi, ularning dushman tomonidan harbiy maqsadlarda faol qo'llanilishi bilan bog'liq holatlar bundan mustasno.

Lazer qurollari. 1995-yilda Ko'r qiluvchi lazer qurollari to'g'risidagi protokol qabul qilingan. Ammo u hozircha kuchga kirmagan.

Urushni ekologik vositalar va usullar bilan olib borish. Tabiiy muhitga ta'sir etuvchi vositalardan harbiy yoxud har qanday dushmanlik maqsadlarida foydalanishni taqiqlash to'g'risida 1976-yilda qabul qilingan konvensiya xuddi shu masalaga bag'ishlangan. Konvensiyada tabiiy muhitga nisbatan yalpi, uzoq muddatli va jiddiy oqibatlariga ega ta'sir ko'rsatuvchi vositalarni dushmanlarcha qo'llashga taalluqli har qanday harakat taqiqlangan. Xususan, ob-havo sharoitini o'zgartirib yuboradigan, zilzila, to'fon va toshqinlarga sabab bo'ladigan, shuningdek, ozon qatlamini siyraklashtiradigan vositalardan foydalanish man etiladi.

Yadroviy qurollar. Xalqaro sudning belgilashicha, qurol-yarog'ning mazkur turidan foydalanish qonuniy ekanligini tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi normalar mavjud emas.

1961-yildan boshlab BMT Bosh Assambleyasi yadroviy qurollarni qo'llashni taqiqlovchi bir qator rezolyutsiyalar qabul qilgan. SSSR va AQSH o'rtasida imzolangan bitimlar — 1971-yildagi Yadro urushi yuzaga kelishi xavfini kamaytirish to'g'risidagi bitim hamda 1973-yildagi Yadro urushining oldini olish to'g'risidagi bitim katta ahamiyatga ega.

1968-yildan buyon Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma amal qilmoqda. Aksariyat davlatlar ana shu shartnomaning ishtirokchilaridir. Yadro quroliga ega davlatlar uni yadro quroli bo'lmagan davlatlarga bermaslik, yadro quroli bo'lmagan davlatlar esa bunday qurollarni olmaslik va ishlab chiqarmaslik majburiyatini zimmasiga olgan. Shartnomani imzolash oldidan, 1968-yilda BMT Xavfsizlik Kengashi xavfsizlik kafolatlari haqida rezolyutsiya qabul qilgan. Unga ko'ra, yadro quroliga ega bo'lmagan davlatga qarshi agressiya uyushtirilishi Xavfsizlik Kengashi tomonidan, avvalo, uning doimiy a'zolari tomonidan tegishli harakatlarni boshlashga olib keladi.

Yadosiz zonalar yadro quroli tarqalishini cheklash va yadro qurolisiz davlatlar xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 1967-yilda Lotin Amerikasida yadro qurolini taqiqlash to'g'risidagi shartnoma (Tlatelolko shartnomasi) qabul qilindi. Unga ko'ra, mazkur mintaqa

yadro qurolidan xoli deb e'lon qilingan. Uning ishtirokchilari yadro qurolini sinamaslik, ishlab chiqarmaslik va sotib olmaslik hamda bunday ishlarni boshqa mamlakatlar amalga oshirishiga yo'l qo'ymaslik majburiyatini olganlar. Beshta yadroviy davlat shartnomaga qo'shimcha II protokolni imzolagan va unga ko'ra, Lotin Amerikasining yadrosiz zona maqomiga amal qilish hamda shartnoma ishtirokchilariga qarshi yadro qurolini qo'llamaslik va uni qo'llash bilan tahdid etmaslik majburiyatlarini o'z zimmalariga olganlar.

Ikkinchi yadrosiz zona Tinch okeanida barpo etilgan. 1985-yili Tinch okeanining janubiy qismidagi yadrosiz zona to'g'risida shartnoma (Raratong shartnomasi) qabul qilindi. Tlatelolko shartnomasidagiga o'xshash qoidalardan tashqari, ushbu shartnomada zona doirasidagi dengizda radioaktiv moddalarni ko'mishni man etuvchi normalar ham o'rin olgan. Beshta yadroviy davlat bu holda ham Lotin Amerikasiga nisbatan qabul qilingan majburiyatlarni o'z zimmasiga oldi.

Bundan tashqari, yadro qurolini joylashtirish jug'rofiy jihatdan cheklangan ayrim mintaqalar mavjud:

1) 1959-yilgi Antarktika to'g'risidagi shartnoma o'z ta'sir doirasida yadrosiz zonani tashkil etgan;

2) 1967-yilgi Kosmos to'g'risidagi shartnoma yadro qurollarini orbitaga chiqarishni va kosmik fazoda joylashtirishni man etgan;

3) 1979-yilgi Oy to'g'risidagi shartnoma yadro qurollarini samoviy jismlarga joylashtirishni taqiqlagan;

4) 1971-yilgi shartnoma yadro qurollarini dengiz tubida va uning qa'rida joylashtirishni man etgan.

Yadro quroli sinoviga kelsak, 1963-yilda Yadroviy qurollarning atmosferada, kosmik fazoda va suv ostidagi sinovlarini taqiqlash to'g'risida Moskva shartnomasi imzolangan. Ayni paytda sinovlarni umuman man etishga qaratilgan harakatlar davom etmoqda.

Strategik qurol-yarog'larni cheklash (SQCh) xalqaro xavfsizlikni ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biridir. 1972-yili SSSR va AQSH keyinchalik SQCH-1 nomini olgan bitimlarni imzolagan. Ular sirasiga Raketalariga qarshi mudofaa tizimini cheklash (RQM) to'g'risidagi shartnoma hamda Strategik hujumkor qurollarni cheklash sohasidagi ayrim choralar to'g'risidagi muvaqqat bitim kiradi.

RQM to'g'risidagi shartnoma RQM tizimlarini joylashtirish hududlari sonini har bir tomon uchun ikkitadan qilib cheklab qo'yan. Muvaqqat bitim strategik ballistik raketalarining uchirish moslamalari miqdoriga cheklov joriy qilgan. Suvosti kemalaridagi ballistik raketalar soni ham cheklangan. Bitimning amal qilish muddati — besh yil. Shunga qaramay, 1977-yili tomonlar mazkur bitimga kelgusida ham amal qilishlari haqida bayonot bergan. 1979-yilda tomonlar Strategik hujum-

kor qurollarni cheklash to'g'risidagi (SQCH-2) shartnomani imzolangan. Bu shartnoma har bir tomon o'zining strategik raketalari, uchirish moslamalari va og'ir bombardimonchilari sonini cheklashi majburiyatini ko'zda tutadi.

1987-yilda yadroviy qurollarning katta bir turkumini qisqartirishga qaratilgan hujjat — O'rta va yaqin masofaga uchuvchi raketalarni yo'q qilish to'g'risidagi shartnoma imzolangan.

Oddiy qurollarni qisqartirish endigina amalga oshirila boshlandi. Bu boradagi muhim qadamlardan biri 1990-yilda Yevropadagi oddiy qurolli kuchlar to'g'risidagi shartnomaning qabul qilinganidir. Unda quruqlikdagi va havodagi kuchlarni jiddiy ravishda qisqartirish ko'zda tutiladi.

4-§. Xalqaro xavfsizlik huquqida ishonch va nazorat choralari

Xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonchni mustahkamlash choralari xavfsizlik tizimining nisbatan yangi unsuridir. Bu borada XX asrda qabul qilingan dastlabki hujjatlar qatoriga SSSR va AQSH o'rtasida 1971-yilda imzolangan Yadro urushi yuzaga kelishi xavfini kamaytirish bo'yicha choralar to'g'risidagi bitimni hamda 1973-yildagi Yadro urushining oldini olish to'g'risidagi bitimni kiritish mumkin. Tomonlar o'zaro munosabatlarida xavfli keskinlashuvlarga olib kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarning yuzaga kelishiga barham berish majburiyatini zimmlariga oldilar. Qayerdadir yadroviy nizo yuz berishi xavfi paydo bo'lgan hollarda tomonlar zudlik bilan o'zaro maslahatlashuvga kirishadilar.

«Ishonchni mustahkamlash choralari» tushunchasining o'zi 1975-yilgi YXHKning yakunlovchi akti orqali muomalaga kirib kelgan. Unda harbiy faoliyat haqida xabardor qilish va uning ustidan nazoratni amalga oshirish masalalari ko'zda tutilgan. YXHK doirasida tomonlar harbiy o'quv mashqlari va mashg'ulotlari, mashq va mashg'ulotlarga kuzatuvchilar taklif etilishi haqida o'z vaqtida bir-birini xabardor etish, bu boradagi faoliyat yuzasidan yillik rejalarni almashlash to'g'risida ahdlashib olganlar.

Nazorat — joylarda o'zaro nazoratni, inspeksiyani amalga oshirishning amaliy shakli. Bunday turdagi inspeksiyadan keng foydalanish masalalari 1986-yilgi Yevropada ishonch va xavfsizlikni mustahkamlash choralari bo'yicha o'tkazilgan Stokgolm hujjatida alohida qayd etilgan. Unga ko'ra, har bir ishtirokchi ishonchni mustahkamlash bo'yicha chora ko'rish zonasidagi boshqa ishtirokchining hududida tegishli nazoratni amalga oshirish huquqiga egadir.

UCHINCHI BO‘LIM. XXI ASR XALQARO HUQUQINING NAZARIY ASOSLARI

- **XXI asr boshida xalqaro huquqning o‘ziga xos xususiyatlari**
- **Xalqaro parlament huquqi**
- **Xalqaro diniy huquq**
- **Xalqaro huquq va ichki kontinental davlatlar**
- **Saylovlar va xalqaro huquq**
- **Yangi dunyo tartiboti va xalqaro huquq**

YIGIRMA BESHINCHI MAVZU. XXI ASR BOSHIDA XALQARO HUQUQNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-§. Xalqaro huquq uchinchi ming yillikda

2-§. Hozirgi zamon global muammolari va xalqaro huquq

1-§. Xalqaro huquq uchinchi ming yillikda

XXI asr boshida xalqaro vaziyat bir qator jihatlari bilan ajralib tura-
di.

Birinchidan, *siyosiy* nuqtayi nazardan so'nggi o'n besh yilda dunyo-
da mutlaqo yangi geopolitik vaziyat vujudga keldi. Bu hol jahon sotsia-
listik tizimining yemirilishi va sobiq SSSRning parchalanishi hamda
yangi mustaqil davlatlarning paydo bo'lishida yaqqol namoyon bo'ldi.
Buning natijasida dunyoda ikki qarama-qarshi tizim kurashiga barham
berildi. AQSH jahonda yagona buyuk davlat bo'lib qoldi.

Ikkinchidan, *iqtisodiy* nuqtayi nazardan dunyoda yangi xalqaro ikti-
sodiy tartib o'rnatildi, yangi xalqaro mehnat taqsimoti yuzaga keldi,
xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning roli oshdi, bozor munosabat-
lari sari yo'nalish umumjahon harakat tusini oldi, iqtisodiyotning
globallashuvi yuz berdi.

Uchinchidan, *mafkuraviy* nuqtayi nazardan «sovuq urush»ga barham
berildi, ikki qarama-qarshi, ya'ni «burjua» va «sotsialistik» mafkura
kurashining tugashi natijasida xalqaro munosabatlardagi «sinfiy» yon-
dashuv o'rniga xalqaro huquq ustuvorligi prinsipi qaror topdi.

To'rtinchidan, *ma'naviy* nuqtayi nazardan xalqaro munosabatlarda
umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, o'z taraqqiyot yo'lini erkin tan-
lash, milliy va tarixiy o'ziga xosliklarni hisobga olish alohida ahamiyat
kasb eta boshladi.

Beshinchidan, *xalqaro* nuqtayi nazardan dunyo hamjamiyati global
muammolarga duch keldi va bu muammolarni hech bir davlat yakka
tartibda hal qilishga qodir emasligi ayon bo'ldi. Bunday muammolar
jumlasiga quyidagilar: ilmiy-texnikaviy progressning salbiy oqibatlari
(ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi), ekologik va energetik krizis,
uchinchi «dunyo» mamlakatlarining iqtisodiy qoloqligi, xalqaro terro-
rizm, qulchilik, fohishabozlik, qo'shmachilik, narkobiznes, qurol-yarog'
savdosi, turli darajadagi integratsiyaviy jarayonlar, barcha sohalarda
xalqaro hamkorlikning jadallashuvi va boshqalar kiradi.

Sanab o'tilgan xalqaro munosabatlarni hozirda xalqaro huquqsiz
tasavvur etib bo'lmaydi. Xalqaro huquq xalqaro munosabatlarni tartib-
ga solib turuvchi muhim sotsial regulyatoridir. Xalqaro huquq xalqaro

maydonda davlatlar o'zaro bog'liqligining muhim vositasidir. Shu bois zamonaviy xalqaro munosabatlarni tartibga solishda xalqaro huquqning o'mi va ahamiyati oshib boradi.

Butun dunyo II jahon urushi tugagan paytdan to XXI asrgacha bo'lgan davrda ulkan taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

XX asrning 60-yillarida dunyo mustamlakachilik tizimining yemirilishi boshlandi. Uzoq yillar mobaynida rivojlangan davlatlarning bo'yish manbaya bo'lib xizmat qilgan ko'plab davlatlar xalqaro sahnaga chiqib keldi. Sobiq mustamlakalar adolatsizlikka barham berish yo'lida rivojlanayotgan, ya'ni qashshoq mamlakatlarning alohida huquqlarini hisobga olish konsepsiyasini olg'a surdilar. Bu mamlakatlar BMT Bosh Assambleyasida «77 lar guruhi»ni (bu organdagi mamlakatlar soni asosida) tuzdilar va o'zlarining son jihatdan ko'pchilik ekanidan foydalanib, bir qator muhim qarorlarni qabul qildilar. Yangi jahon iqtisodiy tartiboti to'g'risida deklaratsiya, Davlatlarning iqtisodiy huquq va majburiyatlarini xartiyasi, Insoniyatning yalpi merosi to'g'risida deklaratsiya va boshqalar shular jumlasidandir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bunday harakatlari zamirida barcha badavlat mamlakatlar zimmasiga o'ziga xos soliq to'lovini yuklashga intilish mavjud ediki, bu mustamlakaga ega bo'lmagan boshqa davlatlarga nisbatan adolatsizlikni keltirib chiqarar edi. Asta-sekin bir toifadagi davlatlar manfaatidan kelib chiqadigan bunday huquq tengsizligi holatlari xalqaro huquqdan chiqib ketdi. Ayni chog'da xalqaro huquq o'zgarishga yuz tutdi, endi u haqiqatdan ham umumiy va anchagina demokratik tus oldi. Xalqaro iqtisodiy huquqda yangi jahon iqtisodiy tartibotining aniq jihatlari saqlanib qoldi.

Hozirgi zamon iqtisodiyoti va texnologiyasining global mazmun-mohiyati alohida mamlakatlarning yakkalanib rivojlanishini tobora bekor-ga chiqarmoqda. Shu bois ko'p tomonlama, ko'pincha umumjahon ko'lamlarda tartibga solishga ehtiyoj tug'ildi.

XXI asrni xalqaro tashkilotlar davri, deb baralla aytish mumkin. Bugungi kunda minglab bunday tashkilotlar tuzilgan va yana yangidan-yangilari tuzilmoqda. Shu tufayli xalqaro huquqning faoliyat mexanizmi ham tubdan o'zgardi. Xalqaro tashkilotlarning mavjudligi huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash jarayonini institutsionalizatsiya qilishga sabab bo'ldi. Hozirgi zamon xalqaro huquqi o'z zimmasidagi murakkab vazifalarni xalqaro tashkilotlarsiz ado etishi juda mushkul.

Xuddi shu davrning o'zida mavjud xalqaro huquqni inventarizatsiya qilish bo'yicha harakatlar amalga oshirila boshladi. Xususan, xalqaro huquqni kodifikatsiya qilishga qo'l urildi. BMTning Xalqaro huquq komissiyasi dengiz huquqi, diplomatik va konsullik huquqi, xalqaro shartnomalar huquqi, xalqaro javobgarlik huquqi shu kabilarni kodi-

fikatsiyalash loyihalarini tayyorladi. Ushbu loyihalar uchun tegishli konvensiyalar asos sifatida qabul qilindi.

Kodifikatsiyalash bilan boshqa xalqaro tashkilotlar ham shug'ullanadi. BMTning Inson huquqlari bo'yicha komissiyasi o'z sohasi bo'yicha kodifikatsiyaviy hujjatlar tayyorlaydi, BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari hamkorlikning maxsus sohalari bo'yicha kodifikatsiyalashni amalga oshiradi.

Texnologiya taraqqiyoti qurollanish poygasini boshi berk ko'chaga kiritib qo'ydi va «sovuq urush»ning istiqboli yo'qligini ko'rsatdi. XX asrning 70-yillarida xalqaro ziddiyatlarda yumshash boshlangani ko'zga tashlandi. Bu davr nafaqat o'ta xavfli qurol-yarog' turlarini taqiqlash va cheklashga muvaffaq bo'lingani, balki Xelsinki jarayoni deb nom olgan uchrashuvlarning boshlangani bilan ham ajralib turadi. Xelsinki jarayonida ishtirok etuvchi butun shimoliy yarimshar davlatlari vakillarining muntazam uchrashuvlari yuridik mazmun kasb etmasa-da, yuqori darajada siyosiy mas'uliyat yuklaydigan umumiy xulq-atvor qoidalari ishlab chiqilar edi.

Bashariyatning global taraqqiyoti insoniyat mavjudligining o'zini ham xavf ostida qoldiradigan yangidan-yangi muammolarni yuzaga keltirdi. Xalqaro huquqda, umuminsoniy normalar tushunchasi paydo bo'ldi, ya'ni sayyoraviy ko'lamlarda, barcha davlatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari tufayligina hal etish mumkin bo'lgan muammolarga yechim izlana boshlandi.

Bu, avvalo, suv va havoning halokatli tarzda ifloslanishi, shuningdek, tabiat zaxiralarining zavol topishi kabi xavf-xatarlarni o'zida jamlagan atrof-muhit muammosidir.

Yangidan-yangi qurol-yaroq turlarining paydo bo'layotgani ham xatarlidir. Garchand bunday qurollarning o'ta xavflilari, qoidaga ko'ra, ixtiro etilganidan keyin (masalan, toksin quroli) taqiqlab qo'yilsa-da, mas'uliyatsiz ekstremistlar tomonidan ularning qo'llanish xavfi saqlanib qolaveradi.

Dunyo bo'ylab odamlarning harakatlanishi osonlashgani turli xavfli kasalliklar, masalan, gemorragik bezgakning paydo bo'lishiga va tezlik bilan tarqalishiga sabab bo'lmoqda.

Klonlashtirish va gen muhandisligi singari biologik texnologiyalar yoki internet kabi kompyuter texnologiyalarining oqibatlarini ortida qanday xavf-xatarlar borligi esa hali-hozircha bizga noma'lum.

Bularning barchasidan xulosa shuki, xalqaro huquq omma ongida o'z mavqegini mustahkamlamoqda. Odamzot xalqaro huquqni hurmat qilmasdan, tinchlik va hamkorlikni ta'minlash va, umuman, yashab qolish mumkin emasligini tobora anglab yetayotir.

2-§. Hozirgi zamon global muammolari va xalqaro huquq

Sivilizatsiya tarixi davomida urush insoniyat uchun ofat bo'lib kelgan. Urush ajdahosi qurbon qilgan odamlarning hisobi yo'qdir. Ilgari urush davlatlararo muammolarni yechishda huquqiy usul deb qabul qilingan edi, hozirgi paytda bu maqomini yo'qotgan. Katta urush bo'lsa, butun insoniyat halok bo'ladi, kichik urushda esa barcha ishtirokchilar katta zarar ko'radi. Tinchlik barcha xalqlarning farovonligi uchun kerak bo'lgan oliy umuminsoniy qadriyat hisoblanadi. Bugun butun dunyoda tinchlik va barqarorlik o'rnatish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Shu bilan birga, bu imkoniyatdan foydalanish bilan bog'liq qiyinchilik borligini ham inkor etib bo'lmaydi. Qator xalqaro shartnomalar tuzilganligi tufayli keskin yadroviy falokat xavfi biroz susaydi. Xalqaro xususiyatga ega bo'lmagan qurolli to'qnashuvlar soni ko'payib bormoqda. Kelajakda bunday shavqatsiz kichik urushlarda nihoyatda ko'p odamlar qurbon bo'lishi mumkin.

Insoniyat oldida davlatlarning birdamligi bilan hal etiladigan global muammolar mavjud. Ekologik faoliyat o'z tahdidini ko'rsatmoqda. Iqtisodiy va ijtimoiy hayot bilan bog'liq murakkab masalalar o'z yechimini kutib turibdi. Yer yuzining aksariyat aholisi ochlikdan, turli kasalliklardan aziyat chekmoqda. Bu muammolarning yechimi ko'p hollarda ichki va ko'p tomonlama shartnomalarda o'z aksini topmoqda. Faqat barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka, barcha uchun teng va bo'linmas bo'lgan barqarorlikka erishish mumkin. Global muammolarni yechishdan barcha mamlakatlar, qolaversa, butun insoniyat manfaatdordir.

Milliy va umuminsoniy munosabatlar o'zgarib bormoqda. Dunyo hamjamiyati muhim ijtimoiy-siyosiy tizimga aylanmoqda. Uni mustahkamlash yo'li bilan davlat va xalqlarning milliy hamda umumiy manfaatlarini ta'minlash imkoniyati tug'ilmoqda. Bunday manfaatlarni ta'minlashda davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish zarur. Yangi sharoitda xalqaro huquqni hurmat qilish davlat siyosati samarasining asosiy shartlaridan biridir.

Afsuski, yangi siyosiy ong talablari ko'p hollarda orqada qolmoqda. Davlatlar aksariyat hollarda an'anaviy egoistik manfaatlar yo'lidan borib, umuminsoniy va milliy manfaatlarni bir-biriga o'zaro zid qo'yimoqda. Aslida ular o'zaro bog'liq manfaatlar ekanligini tushunish yangi siyosiy ongning shakllanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Global muammolar o'z-o'zidan yechilmaydi. Buning uchun davlatlar oliy maqsadlarni nazarda tutib, harakat qilishlari lozim bo'ladi. Davlatlarining milliy va umumiy barqaror manfaatlariga asoslangan yangi butun jahon tartibotini yaratish haqida gap bormoqda. Bu tartib hozirgi zamonning global muammosidan biri bo'lgan — jahon tizimini yanada ko'proq boshqariladigan qilishi lozim, qaysiki usiz boshqa global muammolar o'z yechimini topa olmaydi.

Xalqaro hayotda o'zboshimchalik ustuvorlik qilmoqda. Global tartib nihoyatda sust ravishda o'rnatilmoqda. Muammolarning aksariyat qismi tajriba usuli va xatolar bilan yechilmoqda. Bunday yechimlar natijasi falokatga olib kelishi mumkin. O'tmishdagi siyosatdan farqli ravishda bugun nafaqat mavjud muammolarni yechish, balki istiqbolda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan mojarolarning ham oldini olish lozim. Buni anglash sekinlik bilan xalqaro amaliyotga kirib bormoqda (ma'lumki, BMT istiqbolli diplomatiyaga katta e'tibor bermoqda).

Jahonda o'rnatilgan yangi tartibot demokratik mazmunga ega bo'lishi kerak. Hech kim qaror qabul qilish monopoliyasiga ega bo'lishi mumkin emas. Xalqaro muammolarni yechishda davlatlar teng huquqqa ega. Yangi jahon tartiboti barcha davlatlarning qonuniy manfaatlarini ta'minlashi, xalqaro munosabatlarni takomillashtirishi zarur. Kuchlar muvozanati bilan almashtirilishi lozim.

Yangi jahon tartiboti iqtisodiyot, fan, sog'liqni saqlash, madaniyat sohalarida keng hamkorlik qilish uchun qulay sharoit yaratib berishi, davlatlarning integratsiyalashuviga ko'mak berish kerak. Jahonning yangi tartibotini yaratish hozirgi dolzarb masalalardan biridir. Uni muvaffaqiyatli yechimiga nafaqat bir mamlakatning faravonligi, balki insoniyatning taqdiri bog'liq. Bu masalaning ahamiyati davlat rahbarlarining nutqlari va xalqaro shartnomalarda doimo qayd etilayotganligi bilan ham izohlanadi.

Yangi jahon tartibotini yaratish va uni o'rnatishda xalqaro huquq muhim ahamiyat kasb etishi tasodif emas. Xalqaro munosabatlar tizimi boshqaruvini xalqaro huquqsiz ta'minlab bo'lmaydi. Xalqaro tizimdagi demokratizmni ta'minlash uchun huquq talab qilinadi. Yangi jahon tartiboti huquqiy, xalqaro-huquqiy hamkorlik tartiboti bo'lish lozim. Bularning barchasi umumiy qonuniyatni, ya'ni jamiyatning ma'rifatparvar rivojlanishida huquq, qonun ustuvor ahamiyatga ega bo'lganligini ko'rsatadi. Bugungi kunda xalqaro hayotda qonunchilikni ta'minlash, xalqaro huquq ustuvorligini tan olish kabi muammolar o'z yechimini topmoqda.

BMT Xalqaro sudining 50-yilligi munosabati bilan o'tkazilgan maxsus majlisda so'zga chiqqan Bosh Assambleya 51-sessiyasining raisi professor D.Fleytas do Amaral xalqaro huquq ustuvorligini joriy etish va ta'minlash masalasi hayot-mamot bilan bog'liq, insoniyat muhim ahamiyat kasb etgan tinchlik, erkinlik, xavfsizlikka huquqsiz erisholmaydi, chunki ular tsivilizatsiyalashgan jamiyatni rivojlantirishga imkon beradi, degan edi.

Bu fikr Xalqaro sud tomonidan ham qayd etilgan. Xalqaro huquqni ta'minlash murakkab xalqaro jamiyatning xavfsizligi va faravonligi uchun muhim hayotiy ahamiyatga ega.

Shuni qayd qilish lozimki, xalqaro huquq, global muammolarni yechishda ustuvor ekanligi turli yuristlar, birinchi navbatda, huquq nazariyasi bilan shug'ullanuvchi olimlar tomonidan tan olingan¹.

Shu bilan birga, xalqaro huquqning ustuvorligini joriy etishda to'siqlar borligi ko'zga tashlanmoqda. Bunda davlat rahbarlari, yurist, jurnalistlarning xalqaro-huquqiy ongi saviyasining pastligi nihoyatda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro huquq, BMT va boshqa xalqaro institutlarga nisbatan keng tarqalgan tanqidiy qarashlar omma orasida ularga ishonmaslik fikrini shakllantirmoqda, davlat siyosatiga tegishli ta'sirini ko'rsatmoqda. Bunday ahvol xalqaro huquqni, xususan, uning mexanizmini bilmaslik bilan izohlanadi. Sodda qilib aytadigan bo'lsak, xalqaro munosabatlarda ishonchli majburlov mexanizmi yo'q, shuning uchun bu huquq samarali bo'lolmaydi. Bunday mulohaza yuritish negizida, umuman huquqni tushunmaslik yotadi. Ma'lumki, huquqqa nisbatan hurmatni ta'minlashda majburlash emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'naviy omillar muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatlar o'z manfaatlarini ko'zlagan holda xalqaro huquq normalariga rioya qiladi. Shu bilan birga ba'zi holatlarda o'z samarasini berayotgan majburlash ham inkor qilinmaydi.

Skeptiklar ba'zi hollarda xalqaro huquq normalari buzilayotganligini aksariyat holatlarda xalqaro huquq o'z samarasini bermayotganligi bilan ta'kidlamogdalar. Agar xalqaro huquq va milliy huquqlar buzilishlarini qiyoslasak, unda milliy huquq ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'ladi.

Xalqaro shartnomalarning tarixiy roli haqida juda ko'p dalillar mavjud. II jahon urushining murakkab sharoitida tuzilgan bitimlar fashizmga qarshi koalitsiyani tuzishga, g'alaba qozonishga olib keldi. Hatto «sovuq urush» yillarida ham tuzilgan qator xalqaro shartnomalar tinchlikni saqlashda katta ahamiyat kasb etdi. «Sovuq urush» tugagandan so'ng xalqaro huquq imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaydi. Hozirgi paytda u xavfsizlikning muhim masalalarini yechmoqda.

Xalqaro huquq jahonda yangi tartibotni shakllantirishda ishtirok etib, zamon talabiga muvofiq takomillashmoqda. Olimlarning qayd etishicha, barcha huquqlar orasida xalqaro huquq eng hozirjavob bo'lib, o'zgaruvchan dunyo talablariga tezroq moslashmoqda².

O'zgarishlar xalqaro huquqning ijtimoiy-siyosiy mazmunida, faoliyat mexanizmida ro'y bermoqda. Oliy mansabdor shaxslar yangi xalqaro huquq paydo bo'layotganligi haqida fikr bildirmogdalar.

Yangi jahon tartibotini faqat mustahkam yuridik zaminda o'rnatish

¹ Qarang: Общая теория права и государства. Учебник / Под ред. В.В. Лазарева. – М., 1996. С.444.

² Qarang: Theory of International Law at the Threshold of 21 st Century/ The Hague, 1996. P. 235.

mumkin. Bu esa hozirgi xalqaro huquqni hamkorlik va davlatlar manfaatlarining tengligiga asoslangan yangi xalqaro huquqqa aylanishi jarayonining yengil kechishini ta'minlash demakdir. Huquqni kuchga qarshi qo'yish, xalqaro-huquqiy tizimni mustahkamlash BMTning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi. Dunyo o'zgarayotgan bir paytda ayni shu tizim yo'lboshchi prinsiplarni belgilashi lozim.

XXI asr xalqaro huquqi butun dunyo xalqlari manfaatining himoyasiga katta e'tibor beruvchi jahon hamjamiyati huquqidir. Xalqaro huquqni yaratish va normalarini amalga oshirish mexanizmida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu jarayon davom etib, xalqaro huquqning o'rni va samarasini oshirmoqda.

Qayd qilingan holatlar xalqaro huquq nazariyasining dolzarb muammolarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etganligini bildiradi. Bolgar yuristi I. Genovning fikricha, bu nazariya «xalqaro huquqshunoslik doirasida ma'rifiy, tashkiliy va metodologik funksiyalarni bajaradi»¹.

YIGIRMA OLTINCHI MAVZU. XALQARO PARLAMENT HUQUQI

- 1-§. Parlament va tashqi siyosat**
- 2-§. Parlament xalqaro munosabatlar tizimida**
- 3-§. Parlamentlararo tashkilotlar — xalqaro parlament huquqining institutsiyaviy asosi**
- 4-§. Parlamentlararo hamkorlik va Birlashgan Millatlar Tashkiloti**
- 5-§. Parlamentlararo Ittifoq — dunyo parlamentlarining universal tashkiloti**
- 6-§. Globallashuv va xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning rivojlanish tendensiyalari**

1-§. Parlament va tashqi siyosat

Zamonaviy davlatlarning parlamentlari o'zlarining an'anaviy vazifalarini bajarish bilan birga, faol xalqaro faoliyat ham olib bormoqdalar. Parlamentlar davlat rahbarlari, hukumat, diplomatik va konsullik xizmatlari bilan bir qatorda, tashqi siyosat organlari hisoblanadi². Ular budjet va qonun ijodkorligi mexanizmlari orqali xalqaro munosabatlar-

¹ Генев И. Международное право в современите международные отношения. — София, 1985. С. 61.

² Лукашук И.И. Внешняя политика: Президент и парламент // Государство и право. 1996. № 7. С. 138—144.

ga hamda davlatlarning tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatadilar. Parlamentlar tashqi aloqalarni tartibga solib turuvchi qonunlarni qabul qiladi. Ayrim hollarda ular tashqi aloqalarni amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarni lavozimiga tayinlashda yaqindan ishtirok etadilar. Masalan, davlat va hukumat boshlig'i, vazirlar, elchilar va xalqaro tashkilotlardagi vakillar shular jumlasiga kiradi. Xalqaro majburiyatlarni amalga oshiruvchi davlat organlari ustidan parlament nazorati amalga oshiriladi. Parlamentlar davlatlar imzolagan xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qiladilar va aynan ratifikatsiyadan keyin ular qonuniy kuchga ega bo'ladi¹.

Bularning hammasi zamonaviy jamiyat parlamensiz yashay olmasligini ko'rsatadi. Dunyo mamlakatlarining barchasida amal qiluvchi konstitutsiyalarda parlament maqomini mustahkamlashga katta e'tibor beriladi. Erkin va ochiq tarzda saylangan parlament insoniy qadr-qimmat va fuqarolarning farovonlikka erishuvining kafolatidir.

Hozirgi vaqtda parlamentlarning tashqi siyosatni amalga oshirishdagi faolligi ortib bormoqda. Bu holat, ayniqsa, parlament a'zolari ishtirokida o'tkazilayotgan xalqaro konferensiyalar sonining oshib borishida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu tendensiya yana parlament delegatsiyalarining xalqaro tashkilotlar rahnamoligidagi harakatlarining faollashuvida hamda yangi parlamentlararo tashkilotlarning vujudga kelishida ham namoyon bo'lmoqda.

Parlamentlar xalqaro doiradagi hukumatlararo tashkilotlarning vujudga kelishi hamda parlament a'zolari ishtirokidagi xalqaro nohukumat tashkilotlarning faoliyatida sezilarli o'ringa ega bo'lmoqdalar².

Bu holat ham xalqaro doiradagi parlamentlararo tashkilotlarning funksiyalari va vakolatlari, faoliyat yo'nalishlari hamda ular sonining oshib borayotganini isbotlaydi. Ular bir-birlarini to'ldiradi, o'zlariga tegishli vakolatlarga ega bo'lgan holda o'zlariga birlashtirilgan sohalarda faoliyat yurgizadilar.

Hozirgi vaqtga kelib milliy huquqning mustaqil sohasi bo'lgan parlament huquqi shakllanib bo'ldi.

Parlament huquqi — bu parlamentning ichki tuzilishi hamda u bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy munosabatlarni parlamentning kundalik faoliyati, uning davlat hokimiyati organlari va saylovchilar korpusi bilan aloqalari va normalarning o'ziga xos tizimidir³.

Parlament huquqi parlamentar-huquqiy munosabatlarni turli xil darajada, masalan, parlament ichidagi, parlament bilan boshqa oliy davlat

¹ Qarang: Саидов А. Х. Межпарламентские организации мира: Справочник. —М., 2004.

² Qarang: Саидов А. Х. Межпарламентские организации мира: Справочник. —М., 2004.

³ Qarang: Хабриева Т.Я. Понятие и место парламентского права России в системе права // Журнал Российского права, 2002. № 9. С. 3.

organlari, parlament bilan saylovchilar korpusi orasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Parlament huquqi predmetiga ikki tomonlama va ko'p tomonlama parlamentlararo hamkorlik masalalari ham kiradi¹. Bundan tashqari, parlament huquqi manbalari sirasiga xalqaro huquqning parlamentarizm sohasiga tegishli umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari kiradi.

2-§. Parlament xalqaro munosabatlar tizimida

Agar birinchi parlamentlararo tashkilot yuz yilcha oldin vujudga kelgan bo'lsa, XXI asr boshiga kelib, bunday tashkilotlar xalqaro munosabatlarning uzviy va ajralmas elementiga aylanib, katta ahamiyat kasb etmoqda. Bu vaziyatda xalqaro doiradagi parlamentlararo tashkilotlar, tabiiyki, parlament a'zolari, siyosatchilar, jamoat va davlat arboblari, olimlar hamda oddiy insonlarni o'z qatoriga jalb etmoqda.

Parlamentlararo aloqalar davlatlararo munosabatlarning tarkibiy qisimidir. Ular zamonaviy xalqaro munosabatlarning mazmuni, darajasi, dinamikasi va rivojlanish istiqbollariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatan ham, parlamentlararo aloqalarning turli-tuman shakl va metodlari ichida turli xil davlat parlament a'zolarining yuzma-yuz aloqalari alohida va ijobiy ahamiyatga egadir. Bunday uchrashuvlar o'zaro ishonch, bir-birini tushunib yetish, aloqalarni mustahkamlash ishlarida katta ahamiyatga ega. Parlament a'zolarining o'zaro kasbiy aloqalari, bundan tashqari, turli xil darajadagi davlatlararo aloqalarda qatnashishlari kelib chiqishi mumkin bo'lgan tushunmovchiliklarning oldini olib, ayrim voqealarni to'g'ri tushunib olishga hamda mamlakatda sodir bo'ladigan turli xil vaziyatlarni va jamiyatda mavjud turli-tuman fikrlarni to'g'ri anglab olishga katta yordam beradi. Parlament a'zolari parlament diplomatiyasini rivojlantirishga, o'zaro manfaatlarni birlashtirishga hamda davlatlararo munosabatlarni normativ-huquqiy tartibga solishga qaratilgan o'zaro manfaatlarni mustahkamlashga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.

Ayrim parlament a'zolarining xususiy ravishda olib borayotgan uchrashuvlardan tashqari, xalqaro amaliyotda katta natija bergan va parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishning samarali yo'li bu turli xil davlatlarning parlament a'zolarini parlamentlararo tashkilotlarining muvaffaqiyatli faoliyati hisoblanadi.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarning alohida xususiyatlaridan biri, parlamentlararo tashkilotlarning o'rni va ahamiyatining oshib borishidir. Buning natijasida xalqaro munosabatlar rivojlanmoqda, ularning

¹ Qarang: Парламентское право России: Учебное пособие / Под ред. Степанова И.М., Хабриевой Т.Я. — М., 1999. С. 206—223.

yo'nalishlari kengaymoqda, ikki tomonlama parlamentlararo munosabatlar, xususan, ijtimoiy hayotning turli sohalarini qamrab oluvchi parlamentlararo tashkilotlar doirasidagi aloqalar chuqurlashmoqda. Bu holat parlamentlarning tashqi siyosatda, xalqaro munosabatlarda tutgan mavqei ortishiga olib kelmoqda. Biz tomondan amalga oshirilgan hisob-kitoblarga ko'ra, rasmiy ravishda ro'yxatdan o'tkazilgan parlamentlararo tashkilotlarning umumiy soni 70 dan oshdi¹. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning rivojlanish tendensiyalari yangi parlamentlararo tashkilotlarni tuzish va mavjud tashkilotlarni tadrijiy rivojlantirishni taqozo etmoqda. Xalqaro parlament tashkilotlari sonining oshib borishi, faoliyat yo'nalishlarining kengayishi, o'z navbatida, xalqaro munosabatlarning strukturasi va tizimiga ta'sir ko'rsatishi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Parlamentlararo tashkilotlarning faoliyati xalqaro muammolar tadrijiy rivojlanishini aks ettirib, ularni transformatsiya qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalqaro ommaviy huquq bo'yicha tuzilgan o'quv dasturlarida parlamentlararo tashkilotlarga umuman joy ajratilmagan. «Xalqaro tashkilotlar huquqi» kursi o'qitilayotganda asosiy e'tibor universal va mintaqaviy xalqaro hukumatlararo tashkilotlarning faoliyatidagi xalqaro-huquqiy jihatlariga asosiy e'tibor beriladi. Shu bilan birga, xalqaro munosabatlarning hozirgi rivoji va ularda parlamentlararo tashkilotlar rolining oshib borishi xalqaro-huquqiy fanlarni o'qitishda xalqaro parlamentlararo tashkilotlar faoliyatiga alohida e'tibor berilishini taqozo etmoqda.

«O'zbekiston Respublikasining parlament huquqi» o'quv kursi bo'yicha tuzilgan dasturda «parlamentlararo hamkorlik» nomli maxsus mavzu mavjud². Yevropa huquqi bo'yicha dasturlarda esa Yevropa parlamentiga bag'ishlangan mavzular mavjud³. Shunday qilib, xalqaro parlament tashkilotlarining vazifalari, ularning faoliyatidan xabardor bo'lish har bir inson uchun foydalidir. Chunki shiddat bilan rivojlanayotgan XXI asr parlamentlararo hamkorlik to'g'risida axborot olishga ehtiyoj tug'diradi.

¹ Xalqaro assotsiatsiyalar ittifoqi xalqaro tashkilotlar ro'yxatini tuzish bo'yicha ishlarini amalga oshirib, bu ma'lumotlar maxsus yillik axborotnomalarda chop etildi. «Xalqaro assotsiatsiyalar yillik axborotnomasi»da 25542 ta xalqaro «hukumatlararo va hukumatlarga tegishli bo'lmagan» tashkilotlar to'g'risida qisqa ma'lumotlar berilgan. Ularning ichida parlamentlararo tashkilotlar to'g'risidagi axborotlar ham bor. Qarang: Yearbook of International Associations: 2002/2003. Guide to global and civil society Networks. Edition 39. K.G. Saur Munchen: Union of International Associations, 2003. Vol. I A.XXI, 1242p; Vol. I B. P. 1243—2674.

² Qarang: *Xalilov E.X.* O'zbekiston Respublikasi parlament huquqi. Dastur. T., 2001.

³ Qarang: *Топорнин Б.Н.* Европейское право: Учебник. —М., 1998. С. 324—354; *Европейское право: Учебник / Отв.ред. Л.М.Энтин.* —М., 2000. С. 266—285; *Основы права Европейского Союза: Учебное пособие / Под ред. С.Ю.Кашкина.* —М., 1997; *Право Европейского Союза: Учебник / Под ред. С.Ю. Кашкина.* —М., 2002. С. 253—277.

3-§. Parlamentlararo tashkilotlar — xalqaro parlament huquqining institutsiyaviy asosi

Parlament vujudga kelgan paytda faqat davlatga tegishli bo'lgan milliy institut edi, bu holat uning tutgan o'rnidan, aniqrog'i xalq manfaatlarini hokimiyat oldida ifoda etish shakli edi. Parlamentarizmning rivojlanishi natijasida parlamentga ancha keng bo'lgan vakolatlarining berilishi, uning tutgan mavqeini o'zgartirdi. Ushbu jarayon bilan muvoziy ravishda dunyodagi umumiy siyosiy vaziyat ham o'zgardi. Bu voqealar XIX asrning oxiri, aniqrog'i 1889-yilda dunyoda birinchi xalqaro parlamentlararo tashkilot — Parlamentlararo ittifoqning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning vujudga kelishi insoniyat jamiyatining baynalmilallashishi hamda integratsiyalashishining obyektiv xususiyatlaridir. Birlashish jarayonlarining instituttsionalizatsiyasi tarixiy rivojlanishning har bir bosqichida demokratik, vakillik va parlament doirasidagi o'ziga xos shakllarga ega bo'lib bordi. Bu xalq ommasini xalqaro siyosatga va xalqaro hukumatlararo tuzulmalar ustidan nazorat faoliyatiga keng jalb qilinishi bilan chambarchas bog'liq¹.

Birinchi mintaqaviy va universal xalqaro tashkilotlar faqat hukumatlararo bo'lib, parlament muassasalariga ega emas edi. Ular davlatlarga tegishli bo'lib parlament nazorati tashqarisidagi hamkorlikning natijasi edi.

II jahon urushidan keyingi davrda dunyoda integratsiya jarayonlari kuchayishi xalqaro parlament Assambleyalari — ko'p tomonlama parlamentarizmning vakillik muassasalari shaklidagi xalqaro parlament vakilligi to'g'risidagi fikrlarni keng ravishda institutsializatsiya qilinishini boshlab berdi.

Ma'lumki, davlatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish, ularning yaqinlashuvi davlat suvereniteti bilan bog'liq bo'lgan bir qancha an'anaviy vakolatlarni davlatlararo va xalqaro organlarga berilishini taqozo etmoqda. Natijada davlatlarning ushbu vakolatlari millat va xalqlarning oddiy siyosiy va parlament nazoratidan chiqib ketadi. Davlatlararo va xalqaro ijroiya organlarining vakolatlari qanchalik ko'paysa, xalqaro parlament nazoratini amalga oshirish zarurati tobora yaqqolroq ko'rinmoqda. Ushbu nazorat, o'z navbatida, vazifalarni amalga oshirishga qodir bo'lmay qolgan milliy vakillik organlari nazorati o'rnini egallaydi. Bu holat xalqlarning kundalik hayotlari bilan bog'liq bo'lgan ehtiyojlaridan kelib chiqmoqda.

XX asrning o'rtalarigacha xalqaro parlamentlararo hamkorlik uncha rivojlanmagan edi. Ushbu davrda parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan bir nechtagina tashkilot vujudga keldi. Masalan, Britaniya hamdo'stligi parlamentlari assotsiatsiyasi, Parlament-

¹ Qarang: Саудов А. Х. Межпарламентские организации мира: Справочник. — М., 2004.

lar bosh kotiblari assotsiatsiyasi, vakillik va parlamentar institutlar tarixi bo'yicha parlamentar komissiya, parlamentar rivojlanishiga qaratilgan Xansard jamiyati.

II jahon urushidan so'ng xalqaro parlament tashkilotlari faol rivojlana boshladi. Ushbu rivojlanishning o'ziga xosligi shundan iborat bo'ldiki, parlamentlararo tashkilotlar yo mintaqaviy xususiyatga ega bo'ldi yoki siyosiy-mafkuraviy asoslar natijasida vujudga keldi (Yevropa Ittifoqining parlament Assambleyasi, Yevropa Parlamenti, G'arbiy Yevropa ittifoqi Assambleyasi, Shimoliy Atlantika Assambleyasi, Benilyuksning parlamentlararo maslahat kengashi, Lotin Amerikasi parlamenti, Aseanning parlamentlararo tashkiloti, And parlamenti va boshqalar).

Fikrimizcha, ushbu holat mavjud tashkilotlarning muvafaqqiyatli rivojlanishiga turtki bo'ldi, chunki ular BMTga o'xshab katta byurokratik tashkilot bo'lmaganidan, mafkuraviy yo'nalishiga qarab faoliyat ko'rsatish uchun yetarli mablag'larga va siyosiy rahnamolarga ega bo'ldi.

Mustamlakachilikning yemirilishi va yangi davlatlarning vujudga kelishi ular o'rtasida umuman yangi bo'lgan aloqalarni mavjud bo'lishiga olib keldi. Parlamentlararo hamkorlikka kelsak, bu aloqalar ikki yo'nalishda rivojlandi. Birinchisi, sobiq mustamlakalar o'rtasida (masalan, Osiyo va Tinch okeani basseyni parlament a'zolari ittifoqi, Arab parlamentlararo ittifoqi, Afrika parlamentlararo ittifoqi), ikkinchisi rivojlanayotgan davlatlar va ularning sobiq mustamlakachilari o'rtasida (Yevropa — Arab hamkorligi borasidagi parlament assotsiatsiyasi, Fransuzcha gaplashuvchi parlament a'zolarining parlament Assambleyasi).

1980-yillar oxiri va 1990-yillar davomida xalqaro parlamentlararo tashkilotlar rivojlanishining yangi davri boshlandi. Ushbu davr «sotsialistik» deb nomlanuvchi lagerning ko'lamini va Yevroosiyo qit'asida yangi mustaqil davlatlarning shakllanishi davri bo'ldi. Xususan, Markaziy va Sharqiy Yevropaning yangi davlatlari Yevropada joylashgan xalqaro parlamentlararo tashkilotlar bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga intilsalar (Yevropa Ittifoqining parlament Assambleyasi, YXHT Parlament Assambleyasi), sobiq SSSRning sobiq respublikalari xalqaro mintaqaviy parlamentlararo tashkilotlarni tuza boshladilar, ular ichida eng kattasi MDHning parlamentlararo Assambleyasidir.

Sobiq Ittifoqning deyarli barcha respublikalari u yoki bu darajada siyosiy yoki iqtisodiy turg'unlikni boshidan kechirar edi, bu holat, o'z navbatida, mavjud noxush vaziyatdan chiqishning yo'llarini topishni taqozo etdi. Ushbu yo'llardan biri, oldin yagona davlatda bo'lgan sobiq respublikalar o'rtasidagi aloqalarni qayta tiklash edi. Shuning uchun ham mazkur davlatlarning parlamentlari o'rtasida aloqalar boshlanib, bir qancha mintaqaviy parlamentlararo tashkilotlarning vujudga kelishiga olib keldi. Ularning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular ikki yoki bir

nechta davlatni birlashtiradi (Boltiqbo‘yi Assambleyasi, Belorussiya va Rossiya ittifoqining parlament yig‘ini, Yevroosiyo iqtisodiy hamjamiyatining parlamentlararo Assambleyasi).

Bundan tashqari, XX asrning oxirgi o‘n yilligi va uchinchi ming yillikning boshida globallashuv jarayonlari ta‘sirida butun dunyoda ko‘p sonli parlamentlararo tashkilotlar tashkil etildi.

1991-yildan 2002-yilgacha bo‘lgan davrda dunyoda 20 dan ortiq yangi xalqaro parlamentlararo tashkilotlar tashkil etildi (Markaziy Amerika parlamenti, Janubiy umumiy bozorning qo‘shni parlament komissiyasi, Yevropa iqtisodiy hududining qo‘shni parlament qo‘mitasi, Osiyo parlamentlarining tinchlik borasidagi assotsiatsiyasi, Amerika parlamentlararo forumi va boshqalar). Diniy asosda bo‘lgan Provaslavlarning Yevropa parlamentlararo Assambleyasi va Islom konferensiyasiga a‘zo davlatlarning parlament ittifoqi xalqaro parlamentlararo tashkilotlar vujudga keldi.

Yangi xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning tuzilishi davom etmoqda. Parlamentlararo ittifoq konferensiyasi doirasida (Marokash 2002-yil 17—23 mart) O‘rta Yer dengizida xavfsizlik va hamkorlik bo‘yicha parlamentlararo konferensiya ishtirokchisi bo‘lgan davlatlarning vakillari ishtirokida uchrashuv bo‘lib o‘tdi, unda O‘rta Yer dengizi bo‘yidagi davlatlarning parlament Assambleyasini tuzish masalasi muhokama qilindi. 2002-yilning noyabrida Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti davlatlarining parlament a‘zolarining yig‘ini bo‘lib o‘tdi. 2002-yilning 20—21-noyabr kunlari Kanadaning Ottava shahrida 70 ta davlatning 100 dan ortiq parlament a‘zolari ishtirokida parlamentariylarning xalqaro konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Konferensiyaning asosiy maqsadi xalqlarning yashashi va rivojlanishi bo‘yicha xalqaro konferensiyaning dasturiy harakatlarini amalga kiritish, dunyoning barcha hududlarini o‘z ichiga oladigan parlamentlararo aloqalarni rivojlantirish edi. 2002-yilning 23—26-iyul kunlari Korea Respublikasining Seul shahrida parlamentariylarning axborot texnologiyalari sohasidagi xalqaro assotsiatsiyasi Bosh Assambleyasining ta‘sis majlisi bo‘lib o‘tdi.

Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar ko‘p bo‘lishiga qaramay, ularda bir qancha umumiyliklar ham bor. Mazkur umumiyliklar quyidagilardan iborat:

— ular faoliyatining huquqiy asoslari mavjudligi (nizom, xartiya, shartnoma);

— xalqaro parlamentlararo tashkilotlar a‘zo davlatlardan iborat. Ayrim vaziyatlarda xalqaro tashkilotlardan ham iborat. Bunday a‘zolik universal va mintaqaviy bo‘lishi mumkin;

— yuqoridagi tashkilotlar parlamentlararo aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan hamohang maqsadlar, prinsiplar va funksiyalarga ega;

— parlamentlararo tashkilotlar o‘ziga xos strukturaga ega (konferensiya, ijroiya qo‘mita, kotibiyat, qo‘mita va komissiyalar).

Shunday qilib, XXI asr boshiga kelib xalqaro parlamentlararo tashkilotlar zamonaviy xalqaro munosabatlar rivojlanishining muhim omiliga aylandi. Ular xalqaro parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yaratishga qaratilgan, keng jamoatchilik ularga tobora ko'proq ishonib bormoqda. Hozirda parlamentlararo hamkorlik yaqin o'tmishda siyosiy-mafkuraviy sabablarga ko'ra ko'rib chiqilishi mumkin bo'lmagan barcha masalalarni qamrab olishi lozim.

4-§. Parlamentlararo hamkorlik va Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Parlamentlararo tashkilotlar zamon talabi darajasida rivojlanishi uchun xalqaro parlamentlararo hamkorlikning kelajagiga nazar tashlagan holda faoliyat shakllari va sonini ko'paytirib, parlamentlararo tashkilotlarning harakat vositalari va vakolatlarini kengaytirishi talab etiladi.

BMT zamonaviy xalqaro hamkorlik markazi hisoblanadi. BMTning parlamentlararo hamkorlik bilan bog'liq faoliyati borgan sari katta ahamiyat kasb etmoqda. 1996-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Parlamentlararo Ittifoqining hamkorligi to'g'risidagi kelishuvga qo'l qo'yildi¹. Ushbu kelishuv mazkur ikki tashkilot o'rtasida samarali munosabatlarning poydevoridir. BMT Bosh kotibi yuqoridagi kelishuvga asosan, har yili Bosh Assambleyaga Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Parlamentlararo Ittifoq o'rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini to'g'risidagi ma'ruzani taqdim etadi, Bosh Assambleya har bir sessiyasi kun tartibiga esa «Birlashgan Millatlar Tashkiloti va Parlamentlararo Ittifoq o'rtasidagi hamkorlik» deb nomlanuvchi masalani qo'yadi².

BMT Bosh Assambleyasida qatnashish uchun ko'pgina parlamentlarning a'zolari ishtirokidagi yillik parlamentlararo majlislar odat bo'lib qolgan hamda dunyo parlamentlari a'zolari tomonidan BMTning maqsadi va faoliyati metodlari to'g'risida mukammal ma'lumotlar beradi, ayni paytda BMTga dunyo parlamentariylari fikr-mulohazalarini tushunib yetishga ko'maklashadi. Bosh Assambleya har yili Parlamentlararo Ittifoq tomonidan BMTning o'ta zarur tadbirlari borasida parlament strukturali tomonidan qo'shiladigan hissa masalalarini ko'rib chiqadi.

BMTning ming yillik Assambleyasi munosabati bilan Bosh Assambleya zalida 2002-yilning 30—1-sentabr kunlari o'tkazilgan Milliy parlamentlar raislarining birinchi konferensiyasi ming yillik Sammitini o'tkazishning birinchi bosqichi bo'ldi. Konferensiyada 138 ta davlatdan 150 ga yaqin raislar va mingga yaqin parlament a'zolari qatnashdi. Konferensiya «Uchinchi ming yillik bo'sag'asida xalqaro hamkorlikni parlamentcha tushunish» deb nomlanuvchi Deklaratsiya qabul qilindi, unda

¹ Qarang: Док. А/51/402. приложение.

² Qarang: Док. А/ RES/54/12.

milliy parlamentlarning raislari xalqaro hamkorlikka sodiqlikni bu yerda BMT katta rol o'ynashni va BMTni samarali yalpi hamkorlikning asosi bo'lib qolishini hamda parlamentlarni xalqaro munosabatlarda, xususan BMT tizimi faoliyatida faolroq qatnashish lozimligini ta'kidlab o'tdilar¹.

2000-yil o'tkazilgan ming yillik Sammitida «BMT bilan parlamentlararo ittifoq tashkiloti orqali milliy parlamentlar o'rtasida tinchlik, xavfsizlik, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, xalqaro huquq va inson huquqlari, demokratiya va gender masalalari bo'yicha munosabatlarni mustahkamlash» to'g'risidagi qaror qabul qilindi².

BMT o'zining faoliyatida parlamentlararo ittifoq orqali milliy parlamentlar bilan aloqalarni mustahkamlashga xohish bildirmoqda. Bosh Assambleya Parlamentlararo Ittifoqning milliy parlamentlarni vakili bo'lmish xalqaro tashkilot sifatidagi maqomini tan olmoqda³. Bundan tashqari bu tashkilotning davlatlararo maqomga egaligi ham e'tirof etilmoqda⁴. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib parlamentlararo ittifoqqa BMT Bosh Assambleyasidagi kuzatuvchi maqomi berildi⁵.

Parlamentlararo Ittifoqning BMT Bosh Assambleyasidagi yangi maqomi zamonamizning dolzarb muammolari bo'lmish tinchlik, xavfsizlik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlari gender muammolarini hal etishda faolroq qatnashishga imkon yaratadi. Parlamentlararo Ittifoqning BMTning Nizomi, prinsiplari va maqsadlarini to'liq tan oladi hamda BMTning vazifalarini muvafaqqiyatli amalga oshirishga ko'maklashadi.

5-§. Parlamentlararo Ittifoq — dunyo parlamentlarining universal tashkiloti

Parlamentlararo Ittifoq o'zaro teng va o'zaro manfaatli hamkorlik hamda tajriba almashish vositasi sifatida yoxud demokratiya asosida birlashgan dunyo parlamentlarining tashkiloti, parlamentlararo hamkorlik, ularni saylagan xalq oldida hisobot berishga tayyor bo'lgan tashkilot sifatida alohida rol o'ynaydi. Parlamentlararo Ittifoqning parlamentlar guruhi ittifoqidan BMT bilan chuqur faoliyat yurgizuvchi xalqaro tashkilotga aylandi. Bu tashkilot dunyo parlamentlarining Bosh Assambleyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Parlamentlararo Ittifoq universal xalqaro

¹ Qarang: Conference of Presiding Officers of National Parliaments. Lausanne: Inter-Parliamentary Union, 2001. 202 p.

² Qarang: Декларация тысячелетия Организация Объединенных Наций // Док. А/55/L.2.

³ Qarang: Dok. A/55/19.

⁴ Qarang: Dok. A/56/35.

⁵ 108th IPU Conference and Related Meetings. Results of the proceedings. Santiago de Chile (Chili), 3–12 April, 2003. Geneva. 2003. P. 8–9.

tashkilot bo'lib, uning asosiy maqsadi barcha mamlakat parlamentlarini xalqaro tinchlik va xavfsizlikni, zamonning dolzarb muammolarini kollektiv muhokama etish, bir-biriga yaqinlashtirishdan iborat.

Parlamentlararo Ittifoqning butun dunyo parlamentlari xalqaro tashkiloti sifatida BMTning prinsip va maqsadlari rivojlanishiga muvofiq xalqaro hamkorlik va dunyoning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi (BMT — Parlamentlararo Ittifoq o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi kelishuvning birinchi moddasi). Parlamentlararo Ittifoq faoliyati BMT faoliyatning asosiy yo'nalishlari bilan mos keluvchi keng masalalar doirasini qamrab oladi. Bular: tinchlik va xavfsizlik muammolari, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish, xalqaro huquq va inson huquqlari, demokratiya va qonunchilikni mustahkamlash, ayollarning sharoitini yaxshilash, sivilizatsiyalararo muloqot va boshqalar.

Hozirgi vaqtda Parlamentlararo Ittifoq milliy parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlashda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

birinchidan, BMTga Parlamentlararo Ittifoqda bo'ladigan muhokamalar va majlislarda bildiriladigan turli xil nuqtayi nazarlar to'g'risida axborot berib turish;

ikkinchidan, parlamentlarning BMT va uning dasturi orqali tuzilayotgan xalqaro shartnomalar va bu shartnomalarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida axborot berishga ko'maklashish;

uchinchidan, xalqaro shartnomalarni, parlamentlar va ularning a'zolarini, jamoatchilikni faollashtirish va milliy darajada xalqaro harakatlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi faoliyatni kuchaytirishga ko'maklashish;

to'rtinchidan, BMT faoliyatiga taalluqli bo'lgan, ayniqsa Parlamentlararo Ittifoqning tajribalari alohida ahamiyatga ega sohalarda parlamentlar faoliyati bilan bog'liq ma'ruzalar va ma'lumotlar tayyorlash;

beshinchidan, BMT doirasidagi xalqaro hamkorlikka taalluqli parlamentlarning milliy miqyosdagi qonunchilik va nazorat funksiyasini bajarish imkoniyatlarini kuchaytirish va qo'llab-quvvatlash.

Hozirgi zamonda Parlamentlararo Ittifoqning obro'-e'tibori oshib, u dunyo parlamentlarining bir butun tashkilotiga aylanmoqda. Natijada Parlamentlararo Ittifoq bilan BMT o'rtasidagi aloqalar mustahkamlanib, kengayib bormoqda. Ayniqsa, Parlamentlararo Ittifoqning xalqaro huquq va milliy qonunchilik rivojiga ko'rsatayotgan ta'siri katta ahamiyat kasb etmoqda.

6-§. Globalashuv va xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning rivojlanish tendensiyalari

Insoniyatni qiziqtirib kelayotgan global muammolar davlatlarni, savdo-sotiq, moliya, ekologiya, texnologiya, xavfsizlik, xalqaro terrorizm-

ga qarshi kurash sohalarida o'zaro hamkorlikka chorlaydi¹. Bunda davlatlararo hamkorlik parlamentlararo tashkilotlarni ham birlashishiga asoslanishi lozim.

XXI asr boshida vujudga kelgan vaziyat parlamentariylarga zamonaviy dunyo muammolarini hal etishda BMT va Parlamentlararo Ittifoqlar o'rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, bundan tashqari, dunyoning turli xil parlamentlararo tashkilotlari faoliyatida faolroq ishtirok etishni taqozo etadi.

Globallashuv XXI asrda planetar rivojlanishning magistral yo'nalishiga aylanmoqda va bu parlamentariylardan alohida e'tibor talab qiladi. Dunyo parlamentariylari o'zlarining bor obro'-e'tibori bilan demokratik va ma'naviy boyliklarni, milliy an'analarni, o'zaro hurmat prinsipi kabi asrlar davomida to'plagan hamda dunyo xalqlarining ulkan boyligini tashkil etuvchi xazinalarni buzishga qaratilgan tajovuzkorlikka qarshi turishi shart.

Xalqaro munosabatlarni demokratlashtirish parlamentlararo aloqalarning integratsiyalashuvi jarayoni kabi dolzarbdir.

Parlament va parlamentarizm rolining oshishi dunyoviy rivojlanishning obyektiv va qonuniy asosidir. Parlament a'zolari universal ahamiyatga ega bo'lgan xalqaro huquqning asosiy mualliflari hisoblanadilar. Ular xalq suverenitetini ifoda etadi va davlat xohish-irodasini xalqaro huquqda aks ettirish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladilar.

Parlament a'zolari zamonaviylashish bilan bog'liq masalalarga javob topishda asosiy vazifalarni bajaradilar. Globallashuv, xalqaro terrorizm, ekologik vaziyat barqaror rivojlanish kabi muammolar haqiqatan ham parlament nuqtayi nazarini talab etadi.

Parlamentlar hozirgi kunda jahon hamjamiyatini tashvishga solib turgan muammolar markazida turibdi. Parlament a'zolarining xalqlarning qonuniy vakili va fuqarolarning ehtiyojlarini bog'lab turuvchi zanjir sifatida, shuningdek, davlatning milliy hamda xalqaro miqyosda olib borayotgan siyosatiga mos ravishda roli muhimdir.

Globalizatsiyaning zamonaviy tushunish jarayoni o'zida parlamentarizm usullari yordamida fuqarolarning manfaatlari va huquqlarini amalga oshirishni ham nazarda tutadi. Ushbu sharoitda milliy parlamentlarning roli katta bo'ladi. Parlament mustaqil davlatlar manfaatlariga daxldor bo'lgan milliy qonunchilikning rivojlanish tendensiyalari va global jarayonlarning rivojlanish markazida turadi. Barcha mamlakatlar parlamentlarining asosiy vazifasi global jarayonlarning progressiv qabul qilinishi va o'z milliy manfaatlarini saqlab qolinishi o'rtasida kelishuv yo'llarini izlashdan iboratdir.

¹ Qarag'ang: Лукашук И.И. Глобализация, государство, право, XXI век. —М., 2000.

Xalqaro parlamentlararo tashkilotlar vakolatli organlarning umumjahon rivojlanish jarayonida asosiy qismi bo'lib qoldi. Zamonaviy parlamentlararo tashkilotlarning evolyutsiyasi quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:

birinchidan, parlamentlararo sohadagi xalqaro tashkilotlar obro'sining o'sib borishi;

ikkinchidan, parlamentlarning global, mintaqaviy va milliy miqyosda qabul qilinayotgan qarorlar jarayonida faol ishtiroki;

uchinchidan, parlament demokratiyasining xalqaro muloqot va barqaror rivojlanishning asosiy qismi sifatida shakllanishi;

to'rtinchidan, xalqaro hamkorlikda parlament rolining o'sib borishi;

beshinchidan, BMT va Parlamentlararo Ittifoq o'rtasida hamkorligining mustahkamlanishi va kuchayishi.

Shunday qilib, parlamentning xalqaro xususiyatga egaligi tobora namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon nafaqat parlamentlarning tashqi siyosiy faoliyati kengayishi bilan, balki parlamentlararo tashkilotlarning keng tarqalishi bilan bog'liqdir. Parlament harakatining kengayishi va parlamentarizm prinsiplarining hamda g'oyalarining butun jahonda tan olinishi parlament faoliyatiga kuchli ta'sir etuvchi omil, barqaror rivojlanish va ijtimoiy hayotning kuchayishi, shuningdek, adolatli fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Zamonaviy parlamentlararo tashkilotlar fuqarolarga, jamiyatga va davlatga ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda, o'z navbatida, o'zida ham ularning kuchli ta'sirini his etadi. Parlamentlararo tashkilotlar zamonaviy dunyo hamjamiyatining «parlament ko'zgusi», shuningdek, parlamentlararo institutlarning demokratiyani yuritishdagi samarali va barqaror kuchdir.

YIGIRMA YETTINCHI MAVZU. XALQARO DINIY HUQUQ

- 1-§. Davlat va dinning xalqaro munosabatlar rivojidadagi o'rni**
- 2-§. Xalqaro diniy huquqning predmeti**
- 3-§. Xalqaro diniy huquq prinsiplari**
- 4-§. Xalqaro diniy huquqning o'ziga xos xususiyatlari**
- 5-§. Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid xalqaro standartlar**

1-§. Davlat va dinning xalqaro munosabatlar rivojidadagi o'rni

XIX asrning oxirida taniqli rus diplomati, xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassis F.F. Martens «Dinning xalqaro xarakteri tartibqoida va huquqqa asoslangan holda xalqlarni birlashtirish maqsadida

muloqot qilish vositasiga aylanmoqda»,— deb ta'kidlagan edi¹. Mazkur fikr hozirda ham o'ta dolzarb bo'lib qolmoqda.

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda din omili tobora muhimroq ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu omilga asosan, ko'pgina diniy tashkilotlar va birlashmalar xalqaro siyosatda faol ishtirok etmoqdalar. Xalqaro jarayonlarning globallashuvi hamda xalqaro munosabatlarning uyg'unlashuvi sharoitida din ayrim davlatlar, davlatlararo ittifoqlar va birlashmalarni o'zini o'zi anglashi uchun zarur vositaga aylandi. Dinlar va diniy jamoalar hududiy chegaralarni tan olmasligi sababli, bir davlatda yashovchi biror-bir din vakillari boshqa davlatda yashovchi dindoshlari bilan muntazam ravishda aloqa qilib, xalqaro munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatib keladilar.

XVII asrga kelib, klassik xalqaro xuquqning asoschisi G. Grotsiy siyosat va dindagi nomutanosibliklar va turli xil farqlar yagona xalqaro xuquqning mavjud bo'lishiga xalaqit qilmaydi, deb isbotlagan edi. Darhaqiqat, din o'z mohiyatiga ko'ra xalqaro huquqning ajralmas qismidir. Insonlarning bir dinga sig'inishi, garchi ular boshqa-boshqa davlatlarda yashasalar ham, xalqaro hamjamiyatda davlatlar o'rtasidagi xalqaro munosabatlarni zarur institutlardan biriga aylantiradi².

Diniy-huquqiy nazariyalarning ta'siri xalqaro huquq va xalqaro munosabatlarga faqat davlatchilik nuqtayi nazaridan yondashishni oldini olib, birinchi o'ringa inson muammolari, uning huquq va erkinliklarini olib chiqmoqda³.

Dunyo dinlarining diniy-huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy normalari, shuningdek, prinsiplari (insonlarning birligi, odamlarning etnik va tabaqaviy xususiyatlaridan qat'i nazar, xudo oldida tengligi, tinchlik-parvarlik va zo'rlikni inkor etish, umumiy farog'at konsepsiyasi) zamonaviy xalqaro huquqning universallashtirish funksiyalarini mustahkamlamoqda.

Davlatlar, dinlar va xalqaro huquq o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik butun tarixiy rivojlanish davrida mavjud bo'lgan. Davlatlar hamda xalqaro huquqning vujudga kelishigacha din xalqaro munosabatlarda me'yoriy omil vazifasini o'tgan. Haqiqatan ham xalqaro huquq o'zining shakllanishi jarayonida dinga suyangan, uning prinsiplari va normalarini o'zining normativ aktlarida aks ettirgan. Lekin din yakka o'zi xalqaro munosabatlarni ta'minlab bera olmadi, natijada diniy urushlarni keltirib chiqardi (masalan, Muqaddas Xoch yurishlari). Afsuski, bugungi

¹ Qarang: *Мартенс Ф.* Современное международное право цивилизованных народов. Т.2. Спб., 1883. С. 99.

² Qarang: *Борисов К.Г.* Международное право религиозных конфессий мирового сообщества. — М., 2001. С.14.

³ Qarang: *Карлов Ю.Е.* Религия и международное право /Отв.ред. Ю.М. Колосов, Э.С. Кривчикова. — М., 2001. С. 499—501.

kunda ham dinlar murosaga kela olmay, umumiy tinchlikni o'rnatishga to'sqinlik qilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi davrda diniy omilning faollashuvi natijasida diniy fundamentalizm, diniy ekspansiya (prozelitizm), boshqa din vakillarini chiqishtirmaslikdek noxush ko'rinishlar vujudga kelmoqdaki, ular xalqaro barqarorlikka putur yetkazishi mumkin.

2-§. Xalqaro diniy huquqning predmeti

Xalqaro hamjamiyat har qanday dinga e'tiqod qilish huquqini ta'minlashda xalqaro universal va mintaqaviy hujjatlardan foydalanadi. Ular milliy qonunchilik talablarini, xususan, xalqlar urf-odatlari, milliy qadriyatlarini inobatga olingan holda yaratiladi. Shuning uchun ham «zamonaviy xalqaro huquqda diniy huquq va erkinliklar tizimi diniy konfessiyalar xalqaro huquqi deb ataladi. U xalqaro huquqning mustaqil sohasi bo'lib, diniy tashkilotlarni xalqaro muloqotlarda bimalol qatnashishlarini taqozo etadi»¹.

Dinga e'tiqod qilish yoki unga sig'inish huquqi, ya'ni diniy huquq va erkinliklarning vujudga kelishini har bir insonga tug'ilishidan tegishli bo'lgan va ajralmas tabiiy huquqlar sifatida qabul qilish odatga aylangan.

Xalqaro diniy huquq zamonaviy xalqaro huquqning mustaqil bir sohasi bo'lib, diniy huquq va erkinliklarni himoya qilishga qaratilgan norma va prinsiplardan iborat. Uning asosida BMT Ustavida mustahkamlangan irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish majburiyati yotadi.

Xalqaro diniy huquq universal va mintaqaviy shartnomalar asosida shakllantiriladigan dinga e'tiqod qilish huquqini mustahkamlovchi prinsiplar va normalardan iborat. Ushbu shartnomalarga xos bo'lmagan kelishuvlar shaxs, davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga doir andozalarni belgilab, davlatlarga o'z milliy qonunchiliklarida tegishli o'zgartirishlarni amalga oshirish vazifasini yuklaydi. Xalqaro diniy huquqning shakllanishiga xalqaro odat huquqi normalari juda katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi milliy qonunchilik ham xalqaro diniy huquq rivojlanishining asosi hisoblanadi.

Xalqaro shartnomalarda dinga e'tiqod qilish huquqini mustahkamlash jarayoni katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Ushbu jarayon ikkita xususiyat, ya'ni diniy huquq va erkinliklarni milliy darajada tartibga solishdan ularni universal yoki mintaqaviy darajada ta'minlashga o'tish hamda BMT tuzilishidan oldingi va keyingi davrda diniy huquq va

¹ Qarang: *Борисов К.Г. Международное право религиозных конфессий мирового сообщества.* — М., 2001. С. 18.

erkinliklarni amalga oshirish davlatlarning ichki vakolati doirasida bo'lib kelganligi bilan ajralib turadi.

Haqiqatan ham, xalqaro diniy huquq murakkab va ko'p qirralidir. Ushbu xuquq sohasi xalqaro-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, huquqiy va boshqa jihatlarni ham hisobga oladi. Insonning diniy huquq va erkinliklarni amalga oshirish demokratiya, barqaror rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati kabi ijtimoiy kategoriyalarni tatbiq etish orqali yo'lga qo'yiladi va bu holat dunyoviy hamda diniy siyosatchi va mafkurachilar huquqiy sohadan o'z maqsadlarida foydalanishlari uchun turtki bo'ladi.

3-§. Xalqaro diniy huquq prinsiplari

Xalqaro diniy huquqning poydevor prinsipi «vijdon va din erkinligi»dir. Mazkur prinsipdan xalqaro muloqotda keng foydalaniladi. Ushbu prinsip ko'pgina universal va mintaqaviy xalqaro hujjatlarda, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 18-moddasida o'z aksini topgan. Deklaratsiyaning muqaddimasida «Inson huquqlarini mensimaslik va uni poymol etish inson vijdoni qiynaladigan vahshiyona ishlar sodir etilishiga olib keladi. So'z erkinligi va e'tiqod erkinligiga ega bo'ladigan hamda qo'rquv va muhtojlikdan xoli sharoitda yashaydigan dunyoni yaratish insonlarning ezgu intilishidir¹», — degan g'oya mustahkamlangan.

Bundan tashqari, xalqaro diniy huquqning universallik va kamsitmaslik degan prinsiplari xam mavjud. Ularning birinchisiga asosan, diniy huquq va erkinliklar bilan bog'liq prinsip va normalar barcha davlatlar va aholining barcha qatlamlari uchun majburiydir. Xullas, diniy huquq va erkinliklar bilan bog'liq universal va mintaqaviy hujjatlar umumiy yagona bir tizimni tashkil etib, barcha davlatlar va jamiyatlarda qo'llanilishi mumkin.

Shuningdek, davlatlar diniy huquq va erkinliklarni kamsitmagan (hech qanday cheklashlarning mavjud emasligi) holda ta'minlab berishlari lozim. Diniy cheklashlarni hech qanday bahona bilan asoslab bo'lmaydi. Ularga irqiy, milliy yoki etnik kelib chiqish, terining rangi, jinsiy farq, siyosiy yoki ijtimoiy, diniy farqlarni kiritish mumkin.

Xalqaro diniy huquqning yana bir prinsipi davlatning din ishlariga aralashmasligidir. Ushbu prinsip davlatning diniy erkinlikka bo'lgan munosabatini belgilaydi. Shu bilan birga, davlat ayrim shaxslar va guruhlariga o'z diniy urf-odatlarini amalga oshirish uchun shaxsiy va gu-

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi va inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar / Mas'ul muharrir yuridik fanlar doktori, professor A.X. Saidov. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi. —T., 2002 — 48-b.

ruhiy erkinliklarni ta'minlab berishi lozim, chunki bu talab diniy erkinlik huquqiga to'liq mos keladi¹.

Xalqaro diniy huquqning norma va prinsiplari har bir shaxsning insoniylik mohiyatini darhol namoyon etadi. Mazkur qoida Yer kurrasida yashovchi barcha odamlar uchun juda katta ahamiyatga egadir. O'z yurisdiksiyasi ostida bo'lgan shaxslarning huquqiy maqomini belgilash uchun davlatlar yuqoridagi normalar va prinsiplardan unumli foydalanadilar. Ularga rioya qilmay turib, diniy huquq va erkinliklarni to'liq ta'minlab bo'lmaydi.

4-§. Xalqaro diniy huquqning o'ziga xos xususiyatlari

Hozirgi kunga kelib, xalqaro huquqning yangi sohasi bo'lgan xalqaro diniy huquq asosan shakllanib bo'ldi. Mazkur soha quyidagi uch xil munosabatlarni tartibga soladi:

1) diniy e'tiqod va huquqlar borasidagi xalqaro standartlarni shakllantirish bo'yicha munosabatlarni;

2) diniy e'tiqod va erkinliklarni davlatlar va BMT konvensiyaviy organlari tomonidan ta'minlash borasidagi munosabatlarni;

3) turli xil diniy konfessiyalar va xalqaro diniy tashkilotlar o'rtasidagi munosabatlarni.

Xalqaro diniy huquq shakllanishining obyektiv shart-sharoitlariga quyidagilar kiradi.

1) diniy e'tiqod va erkinliklarga rioya qilishda huquqqa oid xalqaro va milliy-huquqiy normativ asosning mavjudligi (Hozirga kelib diniy huquq va erkinliklarni himoya qilish masalalari bo'yicha 100 dan ortiq universal va mintaqaviy xalqaro shartnomalar qabul qilingan. Davlat va din o'rtasidagi munosabatlar, diniy e'tiqod va huquqlarga bo'lgan fuqarolarning huquqlari har bir davlatning Konstitutsiyasi va qonunlari, aniqrog'i vijdon erkinligi hamda diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi);

2) diniy e'tiqod va vijdon erkinligi huquqlarini hamda xalqaro diniy tashkilotlarni himoya qilish bo'yicha universal va mintaqaviy xalqaro diniy tashkilotlar tizimi yaratilganligi;

3) diniy huquq va erkinliklarni himoya qilish borasidagi universal va mintaqaviy pretsedent huquqi faol shakllanganligi;

4) har bir shaxs davlat, xalqaro tashkilotlar va davlatlarsimon uyushmalar bilan bir qatorda, xalqaro diniy huquqning subyektini hisoblanishi;

5) xalqaro diniy huquqning yetarli mafkuraviy asosi mavjud bo'lib, davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risidagi dunyoviy va diniy nazariyalarga suyanishi;

¹ Qarang: *Борисов К.Г.* Международное право религиозных конфессий мирового сообщества. — М., 2001. С. 104.

- 6) dunyoviy va diniy ta'limning keng tarqalgan tizimi yaratilganligi;
- 7) xalqaro diniy huquqning rivojlanishiga yordam bera oladigan din bo'yicha mutaxassislar, diniy arboblarning guruhining mavjudligi.

5-§. Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid xalqaro standartlar

Xalqaro diniy huquq doirasida davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga taalluqli quyidagi xalqaro standartlarni keltirish mumkin:

- vijdon erkinligi va xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki qilmaslik huquqi, shaxsning erkin dunyoqarashga bo'lgan huquqi;
- diniy tashkilotlar tuzish huquqi;
- har qanday kamsitishdan himoyalash huquqi;
- diniy jamoalar yuridik shaxs maqomini olish va saqlab qolish huquqi;
- har bir fuqaroning o'z e'tiqodiga asosan bilim olishi huquqi;
- har bir ota-ona o'z e'tiqodlariga ko'ra farzandlariga ta'lim berish shaklini tanlash huquqi;
- milliy madaniy va diniy qadriyatlardan bahramand bo'lish, ma'rifiy-madaniy hayotda qatnashish va madaniy rivojlanish huquqi;
- xalqaro madaniy rivojlanish jarayonida milliy madaniyatni saqlash va hurmat qilinishiga bo'lgan huquq.

Xalqaro diniy huquqda shakllantirilgan va umume'tirof etgan diniy huquq va erkinliklar hamda diniy tashkilotlarning xalqaro munosabatlarda qatnashish huquqi zamonaviy huquq tartibotning asosi bo'lib, xalqaro hamjamiyatning barqarorligini ta'minlaydi¹.

Xalqaro diniy huquq normalarini sobitqadamlik bilan amalga oshirilishi hamda davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvaffaqiyatli ro'yobga chiqarilishi faqat dinlararo muloqot va diniy-ma'rifiy faoliyat orqali hayotga tatbiq etilishi mumkin. Hozirda shakllantirilgan ta'lim tizimi o'zaro hamkorlik, diniy bag'rikenglik, tinchlik va do'stona munosabatlar rishtalarini mustahkamlashga yordam beradi, diniy konfessiyalar o'rtasidagi muloqotni ham mustahkamlaydi.

Dinlararo muloqot konfessiyalar o'rtasidagi tushunmovchiliklar va nizolar, diniy e'tiqod va erkinliklarning buzilishini oldini olish borasida zarur omil hisoblanadi. Diniy konfessiyalar nizolarni oldini olish yoki yarashtirish ishlarida bosh-qosh bo'lishlari mumkin².

Ma'rifiy-madaniy va ta'lim berish faoliyati, shuningdek, dinlararo muloqot inson huquqlarini ta'minlash, diniy bag'rikenglikni mustahkam-

¹ Qarang: *Карлов Ю.Е.* Религия и международное право/ Отв ред Ю.М. Колосов. Э.С. Кривчикова. — М., 2001. — С. 503; *Борисов К.Г.* Международное право религиозных конфессий мирового сообщества. — М., 2001. — С. 110.

² Qarang: Док. ООН E/CN.4/2000/65 от 15 февраля 2000 г. — С. 63—65.

lash, diniy ekstremizmning oldini olish va ayollarni diniy qonun-qoidaga binoan kamsitishni oldini olishga qaratilgan bo'lib, diniy sohadagi asosiy standartlarni tashkil etadi¹.

YIGIRMA SAKKIZINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ VA ICHKI KONTINENTAL DAVLATLAR²

- 1-§. Ichki kontinental davlatlar**
- 2-§. Ichki kontinental davlatlarning maqomi to'g'risidagi xalqaro-huquqiy nazariyalar**
- 3-§. Dengizga chiqish huquqi to'g'risidagi konsepsiya**
- 4-§. Xalqaro huquqda «erkin tranzit» tushunchasi**
- 5-§. Ichki kontinental davlatlar orasidagi tranzit savdo**
- 6-§. Qirg'oq bo'yida joylashgan davlat portlaridagi erkin tranzit zonalari**
- 7-§. Dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning dengiz va dengiz-gacha bo'lgan tranzitdan foydalanish borasidagi huquqlari**
- 8-§. Qit'a ichkarisidagi davlatlarning dengiz tubi boyliklaridan foydalanishda qatnashishlari borasidagi huquqlari**

1-§. Ichki kontinental davlatlar

Xalqaro huquq ichki kontinental, ya'ni muayyan qit'a ichkarisida joylashgan davlatlar qatoriga dengiz va okeanlarga to'g'ridan to'g'ri chiqish imkoniga ega bo'lmagan davlatlarni kiritadi. Hozirga kelib, yer yuzida qirq ikkita dengiz va okeanlarga bevosita chiqa olmaydigan qit'a ichkarisida joylashgan davlatlar mavjud. Osiyoda bunday davlatlarga Afg'oniston, Laos, Mo'g'uliston, Nepal, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston misol bo'la oladi. Qozog'iston va Turkmanistonni ham qit'a ichkarisidagi davlatlar sirasiga qo'shish mumkin, chunki Kaspiy dengizi dunyo okeaniga to'g'ridan to'g'ri chiqmaydi.

O'zbekiston Lixtenshteyn bilan birga okeanga chiqish uchun kami-da ikkita davlat hududidan o'tishi talab qilinadigan ikki davlatdan biridir.

Afrika qit'asida 15 ta qit'a ichkarisida joylashgan davlat mavjud. Ular orasida Botsvana, Burundi, Burkina-Faso, Zambiya, Zimbabve, Lesoto, Malavi, Mali, Niger, Ruanda, Svazilend, Uganda, Markaziy Afrika respublikasi, Chad, Efiopiya bor. Yevropada bunday davlatlar 11 ta bo'lib, Avstriya, Andorra, Vatikan, Vengriya, Lixtenshteyn, Lyuk-

¹ Qarang: Док. ООН. E/CN.4/2000/65 от 15 февраля 2000 г. — С. 65.

² Izoh: Ichki kontinental davlatlar — muayyan jug'rofiy hudud ichkarisida joylashgan, ya'ni bevosita dengiz va okeanlarga ega bo'lmagan davlatlar.

semburg, Makedoniya, San Marino, Shveysariya, Belarus respublikasi, Chexiya va Slovakiyani o'z ichiga oladi. Lotin Amerikasida faqat Boli-viya va Paragvay davlatlari ichki kontinental mamlakatlarga misol bo'ladi.

Odatda, Dunyo okeaniga bevosita yo'lning mavjud emasligi har bir mamlakatning geografik vaziyati borasidagi xususiyatlardan biridir.

Qit'a ichkarisida joylashgan davlatlarning huquqlari 1982-yilda qabul qilingan Dengiz huquqi to'g'risidagi xalqaro konvensiyada mustahkamlab qo'yilgan. Konvensiyada dengizga bevosita chiqishga ega bo'lmagan davlatlarni dengizga chiqish va undan foydalanish borasidagi huquqlar bilan ta'minlanganligi qayd etilgan (125-modda)¹.

Dengiz qirg'oqlariga ega bo'lmagan qit'a ichkarisida joylashgan davlatlar dengizga chiqish uchun dengiz bilan tutashgan davlatlar yordamiga muhtoj. Shuning uchun aynan shu davlatlar xalqaro huquqda dengizga chiqishni ta'minlab beruvchi samarali normalarni tezroq qabul qilinishidan manfaatdordir².

2-§. Ichki kontinental davlatlarning maqomi to'g'risidagi xalqaro-huquqiy nazariyalar

Xalqaro huquq nazariyasida qit'a ichkarisida joylashgan davlatlarning maqomi to'g'risida bir qancha nazariyalar mavjud. Ularning ichida XVII—XVIII asrlarda vujudga kelgan aloqalar erkinligi to'g'risidagi nazariya ajralib turadi. G. Grotsiy, E. de Vattellarning umumiy fikrlariga ko'ra, dengizga chiqa oladigan hamda dengizga bevosita chiqish yo'liga ega bo'lmagan davlatlar o'rtasida hech qanday farq bo'lishi kerak emas, sababi ularning barchasi dengizga bevosita chiqish borasidagi tabiiy huquqqa egalar. Boshqa yana bir nazariyaning mazmunida, ya'ni servitut nazariyasiga asosan, tranzit davlatning hududiy ustunligi boshqa davlatning yoki bir guruh davlatlarning foydasiga chegaralanishi shart. Ochiq dengiz erkinligi prinsipiga asoslangan nazariyaning asosiy xususiyati shundan iboratki, qit'a ichkarisida joylashgan davlatlarning dengizga chiqish huquqi ochiq dengiz erkinligining mantiqiy davomidir.

Rossiya imperiyasi 1815-yilda Vena kongressiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida dengiz erkinligi huquqi har bir davlat uchun dengizga chiqa olish huquqi bilan birgalikda tushunilishi zarurligi to'g'risida fikr bildirgan edi.

1919-yilda bo'lib o'tgan Parij tinchlik konferensiyasida ham ichki kontinental davlatlarning dengizga chiqish borasidagi huquqlari qo'llab-quvvatlangan.

¹ Qarang: Морское право // Конвенция ООН по морскому праву. Нью-Йорк, 1984. — С. 60.

² Qarang: Салимчерей А.А., Ерджанов Т.К., Сарсембаев М.А. Морское право и внутриконтинентальное право. Алматы, 2000. — С. 113—269.

Bundan tashqari, Vengriya va Avstriya Trianon tinchlik shartnomasining 294-moddasida hamda Ser-Jermen Tinchlik shartnomasining 311-moddasiga asosan, Adriatika dengiziga chiqish huquqiga ega bo'lganlar. Tranzitning turli xil jihatlarini tartibga soluvchi ko'p tomonlama konvensiyalarning matnlari Barselona (1921-yil) va Jeneva (1923-yil) konferensiyalarida ishlab chiqilgan edi. Mazkur konferensiyalar Millatlar Ligasi Statutining 23-moddasiga binoan chaqirilgan edi. Tranzit erkinligi to'g'risidagi konvensiya va Statut, xalqaro ahamiyatga ega suv yo'llarida kema qatnovining rejimi to'g'risida konvensiya, Statut va qo'shimcha protokol, dengiz portlarining xalqaro rejimi to'g'risidagi konvensiya va Statut, temir yo'llarning xalqaro rejimi to'g'risidagi konvensiya va Statutlar qabul qilingan.

3-§. Dengizga chiqish huquqi to'g'risidagi konsepsiya

1958-yilning 10—14 fevral kunlari dunyodagi o'n ikkita ichki kontinental davlat vakillari konferensiya o'tkazdilar. Konferensiya jarayonida mazkur davlatlar orasida dengizga chiqish masalasi bo'yicha bir qancha kelishmovchiliklar vujudga kelgan.

Dengiz huquqi to'g'risidagi 1958-yilda bo'lib o'tgan Jeneva konferensiyasi ishida Dengizga chiqa olish huquqi to'g'risidagi konvensiya rasmiy tan olingan hamda konsepsiya sifatida mustahkamlangan. Bu konsepsiya ochiq dengiz erkinligi prinsipiga asoslangan va dengizga chiqa olmaydigan barcha davlatlarning dengizga chiqa olish erkinligini ta'minlab beruvchi prinsipga asos bo'lgan.

Ichki kontinental davlatlarning dengizga chiqa olish va undan o'z hududiga kela olish huquqi dengizga chiqa oladigan davlatning portlariga bermalol chiqa olish huquqini bildiradi. Bu huquq mazkur masalalarni hal etishga qaratilgan xalqaro huquq prinsiplari va normalariga asoslanib tuzilgan ikki davlat o'rtasidagi shartnomalar bilan tartibga solinadi.

1958-yilgi Hududiy dengiz to'g'risidagi konvensiyaning 14-moddasi dengizga chiqa oladigan va chiqa olmaydigan davlatlarga tegishli savdo kemalari hududiy suvlardan bermalol o'ta olish huquqini beradi. Bu yerda qit'a ichida joylashgan davlatning dengizga chiqa olish huquqi suvlardan bermalol o'tishni kafolatlovchi xalqaro huquq bilan ta'minlab beriladi.

Versal tinchlik shartnomasining 278-moddasi, Sevrsk tinchlik shartnomasining 265-moddasi hamda 1921-yilning 20 aprelida Barselona (Ispaniya)da bo'lib o'tgan aloqa vositalari va tranzit bo'yicha Birinchi Bosh konferensiyada qabul qilingan dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning bayroqqa ega bo'lishini tan olish to'g'risidagi deklaratsiyada dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning dengiz bayrog'iga bo'lgan huquqi mustahkamlab qo'yilgan.

Ichki kontinental davlatlar huquqining mazmuni 1965-yilgi Qit'a

ichida joylashgan davlatlarning tranzit savdosi to'g'risidagi konvensiya qoidalari bilan boyitilgan. Ushbu konvensiyaning 2-moddasi 4 bandida «Shartnomaga qo'shilayotgan davlatlar o'z hududiy (ichki) suvlaridan tranzit harakatni amalga oshirishga ruxsatni xalqaro umumiy huquq prinsiplari yoki xalqaro konvensiyalar yoxud o'zlarining milliy qonunchiligi asosida amalga oshirishlari lozim», deyilgan. Afsuski, bunday tranzit savdoni ko'p tomonlama asosda hal etish masalalarining barchasi ham o'z yechimini topgani yo'q. Shuning uchun ham ichki kontinental davlatlar tranzit savdo masalalarini ikki tomonlama shartnomalar asosida hal etishlari zarur.

BMT Bosh kotibining 1958-yilgi memorandumida dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning unga chiqa olish huquqi to'g'risida gap boradi, shuningdek, Bosh kotibning 1970-yilgi ma'ruzasida yuqorida keltirilgan masalalar bo'yicha fikr bildirilib, dengizda suzish erkinligi, ichki suvlardan erkin ravishda o'tish huquqi, dengiz portlaridan savdo-sotiq yo'lida erkin foydalanish mumkinligi, dengizga chiqa olo olmaydigan davlatlar hududidan o'tuvchi avtomobil, temir yo'l va havo yo'llaridan bimalol foydalanish huquqlari to'g'risida gapiriladi. Xalqaro huquq bo'yicha ayrim huquqshunoslar bunday yondashuvni ichki kontinental davlatlarning huquqlarini keng doirada sharhlash deb qaramoqdalar. Bunday qarashlar har doim ham to'g'ri emas. Ichki kontinental mamlakatlar o'zlarining dengizga chiqish huquqlarini keng ma'noda tushunilishiga erisha olishlari lozim. Afsuski, BMT Bosh kotibining mazkur ma'ruzasidagi qimmatli fikrlar hanzuga qadar konvensiyalarda o'z aksini topgani yo'q.

4-§. Xalqaro huquqda «erkin tranzit» tushunchasi

Ichki kontinental davlatlarning erkin tranzitdan foydalanish huquqi xalqaro huquqning asosiy muammolaridan. Xalqaro huquqning asosiy prinsiplaridan biri davlat suvereniteti prinsipidir. Mazkur prinsipga asosan, hech qaysi bir davlat boshqa bir davlatning rasmiy roziligisiz uning hududidan havo yoki quruqlikdagi transportdan foydalanib tranzit ravishda o'ta olmaydi.

O'rnatilgan qoidalarga binoan, hech qaysi bir davlat tegishli shartnomaga qo'l qo'ymasdan boshqa davlatdan tranzit yo'li berilishi borasida talab qo'ya olmaydi. Tranzit masalalariga bag'ishlangan ko'p tomonlama konvensiyalarning tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro huquqda ma'lum davlatga o'z hududidan boshqa davlatning fuqarolari va tovarlarining olib o'tilishi bilan bog'liq tranzit erkinligini berish majburiyati yuklanmaydi. Xususan, BMT Kotibiyatining 1958-yilgi memorandumida o'sha vaqtda Tariflar va savdo bo'yicha bosh shartnoma (TSBSH), keyinchalik Jahon savdo tashkiloti (JST) ishtirokchilari, bundan tashqari, Barselona konvensiyasi va 1921-yilgi tranzit erkinligi

to'g'risidagi Statut qatnashchilari tranzit erkinligi xalqaro huquqning majburiy normasi sifatida emas, balki ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar, konvensiyalar bilan o'rnatilgan norma sifatida qabul qiladilar, deb yozib qo'yilgan. Bu yerda ichki kontinental davlat tranzit to'g'risidagi kelishuvga qo'l qo'yishga da'vogar bo'lishga imkon beruvchi normaga tayanishi mumkin emas. Dengiz bo'yida joylashgan davlatda o'z hududidan yuklar va xorijiy fuqarolarni tranzit o'tkazishga yo'l qo'ymaslik huquqi bor.

Erkin tranzit shartnomada qatnashuvchi bir davlat hududidan boshqa qatnashuvchi davlatga tegishli shaxslar, transport vositalari, tovar va yuklarini o'tkazish deganidir. Tranzit xalqaro savdo-sotiqni yo'lga qo'yishga qaratiladi. Erkin tranzit tushunchasiga harbiy, politsiya transporti hamda harbiy yuk-anjomlarni olib o'tish kirmaydi.

Tranzit xalqaro savdo-sotiqni ta'minlashga qaratilgani bois tranzit o'tuvchi yuklar eksport yoki import bojlaridan, tranzit transporti esa tranzit soliqlaridan ozoddir. Bojxona to'lovlari va soliqlar tranzit davlati xarajatlar qilgan bo'lsa olinishi mumkin.

Shunday qilib, xalqaro huquqda «erkin tranzit» borasidagi majburiy normalar yo'q. Shuning uchun qit'a ichidagi davlatlar boshqa davlatlarning hududidan o'zlarining yuklari va yo'lovchilarini tranzit o'tkazish masalalarini osonlashtirish uchun Jahon Savdo Tashkilotiga, Barselona konvensiyasiga va erkin tranzit Statutiga qo'shilishlari lozim.

5-§. Ichki kontinental davlatlar orasidagi tranzit savdo

EKADV (hozirda ESKATO)ning Manilada 1963-yilning 3—6-dekabr kunlari bo'lib o'tgan anjumanida Afg'oniston, Nepal va Laos ichki kontinental davlatlarning tranziti to'g'risidagi ko'ptomonlama konvensiyani tayyorlash zarurati to'g'risidagi masalani ko'tarib chiqqanlar.

BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha birinchi konferensiyasida Afg'oniston, Nepal va Laosning ushbu talabiga dengizga to'g'ridan to'g'ri chiqa olmaydigan sakkizta afrikalik davlat ham qo'shilgan. Konferensiya «Dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning tranzit savdosiga tegishli prinsiplar to'g'risida»gi rezolyutsiyani qabul qilgan va BMT Bosh kotibiga hukumatlararo ekspertlar qo'mitasi tuzishni, mazkur qo'mitaga ekspertlarni tenglik asosida va geografik xususiyatlarni hisobga olib, qit'a ichidagi, tranzit va boshqa manfaatdor davlatlar vakillaridan tayinlanishi hamda ichki kontinental davlatlarning tranzit savdosi masalalari bo'yicha konvensiya matnini ishlab chiqish vazifasini topshirgan. Mazkur konvensiya 1965-yilda Nyu-Yorkda qabul qilingan. Bu konvensiyada «tranzit davlat» tushunchasi berilgan. Konvensiyaga asosan, tranzit davlat, bu dengizga chiqa oladigan yoki chiqa olmaydigan, dengizga chiqa olmaydigan va unga chiqa oladigan davlat o'rtasida joylashgan va

tranzit yo'llari o'tadigan davlatlar o'rtasidagi mamlakat tushuniladi. 2-moddaning 1-bandi dengizga chiqa olish huquqiga ega bo'lmagan davlatlar uchun tranzit huquqni mustahkamlagan.

Konvensiya «tranzit harakati» degan tushunchani ochib bergan. Unga asosan tranzit harakati bu tovarlarni «shartnomaga qo'shilgan barcha davlatlar hududi hamda ichki kontinental davlat o'rtasida harakati va bu harakat umumiy yo'lining bir qismi bo'lishi, bu yo'l qit'a ichkarisida joylashgan davlatda boshlanib dengizda mollarni tashish bilan bog'liq bo'ladi». Yukni tashish, uni omborlarda saqlash, yuklarni kichik partiyalarga taqsimlash, mashinalarni ehtiyot qismlarga ajratish hamda qayta yig'ish «tranzit harakati» tushunchasi ichiga kiradi, lekin bu bunday huquqni berish tranzit davlat majburiyatiga kiradi, degani emas.

Konvensiya tranzit harakatiga axloq yoki sog'liqni saqlash, jamiyat xavfsizligi yoki hayvonlar va o'simliklardan kasal yuqtirishning oldini olish maqsadida olib kelinishi taqiqlangan tovarlarni olib o'tishni kiritmaydi.

Dengizga chiqa oladigan qo'shni davlatlar qit'a ichkarisida joylashgan davlatlarga tazyiq o'tkazishi mumkin.

Tranzit to'g'risidagi ikki tomonlama shartnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, odatda, ahdlashayotgan davlatlar qit'a ichkarisida joylashgan davlatning tranzitga bo'lgan huquqini shartnomada mustahkamlab, faqat olib o'tish mumkin bo'lmagan tovarlarnigina tranzit qilishga ruxsat bermaydilar. Boshqacha qilib aytganda, davlat ikki tomonlama shartnomalar amaliyotida tranzit to'g'risidagi ko'p tomonlama shartnomalar normalariga asoslanadilar.

Dengizga chiqa olmaydigan davlat yuklarini tashish uchun transport turini qit'a ichkarisidagi hamda dengizga chiqa oladigan davlatlarning geografik joylashuvi, yuklarning xususiyati, transport yo'llarining rivojlanganligi darajasini hisobga olib tanlaydi.

Ichki kontinental davlatlarning tranzit savdosi to'g'risidagi konvensiya transport vositalarini uch guruhga bo'ladi. Konvensiyaning 2-moddasi 1-bandiga asosan, birinchi guruhga temir yo'l transporti, dengiz va daryo kemalari, avtomobillar kiradi hamda ularga tranzit erkinligi beriladi. Ikkinchi guruhga hammollar, yuk tashuvchi hayvonlar kirib, ularga ham mahalliy sharoitlarda tranzitning boshqa shakllari mumkin bo'lmagan holatlarda tranzit huquqi beriladi. Uchinchi guruhga transportning boshqa barcha turlari, shuningdek, neft va gaz o'tkazuvchi quvurlari kiradi. Ularga ham tomonlarning kelishuviga qarab tranzit huquqi berilishi mumkin.

Ushbu konvensiyada ichki kontinental davlatlarning tranzit savdosi to'g'risida quyidagi muhim qoida mustahkamlab qo'yilgan: «Kelishuvchi tomonlar o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, kirish, chiqish, kerak bo'lganda yukni qayta ortish nuqtalarida tranzit harakat asossiz ravishda cho'zilishining

oldini olish maqsadida tegishli transport vositalari va yuklovchi-tushiruvchi asbob-uskunalarini taqdim etish majburiyatini oladilar».

Zamonaviy xalqaro huquqqa asosan, tranzit huquqini beruvchi davlat tranzit hudud ustidan suverenitetni saqlab qoladi, shuningdek, dengizga chiqa olmaydigan davlatga tegishli transportning tranzit harakati ustidan to'liq nazorat va o'z yurisdiksiyasini amalga oshiradi.

Tranzit o'tuvchi davlat tranzit hududga kirishga ruxsati yo'q shaxslarga hamda u yoki bu toifadagi tovarlarni olib kirishni man etishga haqli. 1965-yilgi konvensiyada ko'rsatilishicha, tranzit o'tuvchi davlat o'z hududidan tranzit o'tish uchun ruxsatnomalar berish huquqiga ega.

Umumiy qoidaga binoan, tranzit amalga oshirilgan vaqtda ichki kontinental davlat tranzitga ruxsat bergan davlat tomonidan bojxona to'lovlaridan ozod etiladi. 1965-yilgi konvensiya bu qoidani mustahkamlab, 2-moddasida tranzit o'tuvchi davlatga tranzit ustidan nazorat va ma'muriy xarajatlarni qoplash uchun tranzit harakatga soliq solishga huquq beradi.

Bojxona to'lovlari dengizga chiqa olmaydigan mamlakatlarning tashqi savdosiga ta'sir ko'rsatmasa-da, bu davlatlarning ancha yuqori bo'lgan transport xarajatlari ularning eksport salohiyatiga juda jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Agar port inshootlaridan va yuklash-tushirish uskunalaridan foydalanish uchun tarif yig'inlarining stavkasi oshsa, unda import xarajatlari ko'payadi, bu esa ichki kontinental davlatning eksportdan tushadigan foydasini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi. Shuning uchun ichki kontinental davlatlar oldida transport xarajatlarini kamaytirish va port inshootlari va uskunalaridan foydalanish xarajatlarini minimallashtirish vazifasi turadi.

Ichki kontinental davlatlar dengizga chiqa oladigan davlatlardan ularning o'zlari ichki hududlarida foydalanadigan narxlardan transportdan foydalanishda qo'llanilishini iltimos qilishlari mumkin. Bundan tashqari, qit'a ichkarisida joylashgan davlatlar qirg'oq bo'yida joylashgan davlatlarning hududiga borishni osonlashtirish maqsadida muqobil yo'llardan foydalanish huquqiga da'vogar bo'lishi mumkin. Bu qirg'oqbo'yi davlatining suverenitetini cheklamaydi, qit'a ichkarisidagi davlat esa, xorijiy portlarga borish yo'llarini qayta qurish va ta'mirlashga o'z hissasini qo'shishi mumkin.

6-§. Qirg'oqbo'yida joylashgan davlat portlaridagi erkin tranzit zonalar

Davlatlarning xalqaro-huquqiy amaliyotida qirg'oqbo'yi davlatiga tegishli portlarda joylashgan erkin va tranzit zonalar bo'lishi ko'zda tutilgan. Ulardan qo'shni davlatlarga tegishli tovarlarni saqlash va qayta yuklash maqsadida foydalaniladi. Ularni imtiyozli soliqlar va bojxona

rejimi mavjud zonalaridan farqlash lozim. Ko‘rib chiqilayotgan zonalar manfaatdor tomonlar kelishuvining natijasida vujudga keladi.

Erkin zona — bu qirg‘oqbo‘yi davlatining alohida ajratilgan va omborlari, ustaxonalari, naveslari bor hududidir. Bu hududdagi inshootlar qit‘a ichkarisidagi davlatga tegishli bo‘lib, bojxona nuqtayi nazaridan qirg‘oqbo‘yi davlati yurisdiksiyasiga kirmaydi. Bu zonaga qit‘a ichkarisida joylashgan davlatlar saqlash, qadoqlash va qo‘shimcha ishlov berish maqsadida o‘z tovarlarini olib kirishlari mumkin. Bu vaziyatda bojxona to‘lovlari olinmaydi. Lekin shuni yodda tutish lozimki, qirg‘oqbo‘yi davlatining bojxona, o‘sha davlatning mehnat, sog‘liqni saqlash, sanitariya, jinoyat qonunchiligi talablaridan ozod etmaydi. Bunday zonalarini boshqarish manfaatdor davlatlar yoki mansabdor shaxslarning kelishuvi yoxud ichki kontinental davlatlarning bojxona organlari tomonidan boshqariladi.

Ichki kontinental davlatlar erkin zonalaridan foydalanish vaqtida tegishli imtiyozlarga intilishlari lozim. Bundan tashqari ular Dunyo okeani resurslaridan foydalanishga ham o‘z hissalarini qo‘shishlari shart, chunki Dunyo okeani butun insoniyatga tegishli boylik bo‘lib, qirg‘oqbo‘yi davlatlariga ham, qit‘a ichkarisida joylashgan davlatlarga ham taalluqli.

Qirg‘oqbo‘yi davlatlari cheklangan bo‘lsa ham, lekin ochiq dengizning ko‘pgina hududlari ustidan yurisdiksiyaga egalar. Bu holatni mavjud 200 millik iqtisodiy zonalar isbotlab turibdi. Qit‘a ichkarisida joylashgan davlatlar 200 millik iqtisodiy zonalar ichida o‘z yurisdiksiyasini amalga oshirishda ishtirok etish masalasini ko‘tarishlari lozim. Bu holatni xalqaro konvensiyalarda, konkret vaziyatlarda esa ichki kontinental davlatlar qirg‘oqbo‘yi davlatlari bilan ikki tomonlama shartnoma asosida kelishib olishlari mumkin.

Ichki kontinental davlatlarning dengiz tubida joylashgan boyliklardan foydalanish huquqi bo‘yicha ishlar ham yuqoridagidek. Dengiz tubi boyliklaridan foydalanish uchun qit‘a ichkarisi davlatlariga bu resurslarni birlamchi ishlab berish uchun ko‘pgina fabrikalar kerak bo‘ladi. Lekin bunday fabrikalarni qirg‘oqbo‘yi davlatlarida qit‘a ichkarisida joylashgan davlat tomonidan qurilishining mumkinligi xalqaro huquq tomonidan ko‘zda tutilmagan. Bu muammoni ham ichki kontinental davlatlar zudlik bilan hal etishlari lozim.

7-§. Dengizga chiqq olmaydigan davlatlarning dengiz va dengizgacha bo‘lgan tranzitdan foydalanish borasidagi huquqlari

Tranzitni tartibga soluvchi amaldagi xalqaro va ko‘p tomonlama konvensiyalardan ko‘rinib turibdiki, xalqaro huquqda bir davlatning o‘z hududidan boshqa davlatning fuqarolari va yuklari o‘tishi uchun yo‘l ochib berishga majbur qiladigan tranzit bilan bog‘liq erkinlik prinsiplari mavjud emas.

Tranzit to'g'risidagi ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalarda «erkin tranzit» tushunchasi mavjud. Masalan, 1938-yil 21-iyunda Paragvay va Boliviya o'rtasida tuzilgan do'stlik va tinchlik to'g'risidagi shartnomaning 7-moddasida «Paragvay respublikasi o'ziga tegishli Puerto-Kasado portiga keladigan va Boliviya tegishli yuklarni o'tishi yoki ularni xorijga jo'natish uchun erkin tranzitni to'liq kafolatlaydi», — deb yozib qo'yilgan.

1921-yilgi Barselona Statuti va Tarif va savdo to'g'risidagi bosh shartnomaga qo'l qo'ygan davlatlar boshqa davlatlar bilan aloqaga kirishganda yuqoridagi hujjat talablariga rioya etishga majbur emasligini muntazam ta'kidlab keladilar. Bu holat ham xalqaro huquqda haqiqatan ham hamma uchun majburiy bo'lgan normaning yo'qligidan dalolat beradi. Faqat 1965-yilgi Nyu-York konvensiyasining 2-moddasining 1-bandigina ichki kontinental davlatlarga dengiz bo'yi davlatlari hududi bo'yicha tranzit erkinligini kafolatlaydi.

Ichki kontinental davlatlarning transport bilan bog'liq muammolari qirg'oqbo'yi davlatlari tomonidan ularga qo'shimcha huquqlar berish yo'li bilan emas, balki rivojlanish va dengiz bo'yi davlatlari bilan iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish yo'li bilan hal etilishi zarur. Bunday aloqalarga erkin iqtisodiy zonalar misol bo'la oladi.

8-§. Qit'a ichkarisidagi davlatlarning dengiz tubi boyliklaridan foydalanishda qatnashishlari borasidagi huquqlari

Dengiz tubi bo'yicha qo'mitaning birinchi sessiyasi ish boshlangandan so'ng qirg'oqbo'yi davlatlarining ochiq dengizdagi keng hududlarga o'z yurisdiksiyalarni yoyishlari odat tusiga kirgan. Shu bilan birga dengizga chiqa olmaydigan davlatlar mazkur holatni o'z pozitsiyalarini yanada mushkullashishiga olib keladi, deb qayta-qayta ta'kidlaydilar. Qo'mita ish jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, qirg'oqbo'yi davlatlari ochiq dengizning yanada kattaroq hududlariga o'z yurisdiksiyalarini yoyishga intilmoqdalar.

Ichki kontinental davlatlar dengiz tubini razvedka qilish va undan foydalanish uchun unga bemaol chiqa olishi zarur bo'ladi. Xalqaro huquq milliy yurisdiksiyadan tashqarida bo'lgan dengiz va okeanlar tubini barcha davlatlarga tegishli deb e'lon qilgan. Shuning uchun ham dengiz tubi bo'yicha qo'mita ichki kontinental davlatlarga dengiz tubiga bemaol chiqa olish va undan foydalanish huquqini berib, ushbu huquqni dengiz tubini huquqiy rejimining bo'lg'usi asosini tashkil etuvchi prinsiplar qatoriga kiritishga qaror qilgan.

YIGIRMA TO‘QQIZINCHI MAVZU. SAYLOVLAR VA XALQARO HUQUQ

- 1-§. Saylovlarning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati**
- 2-§. Xalqaro huquq va saylovlar**
- 3-§. Saylovlar to‘g‘risidagi milliy qonunchilikdan xalqaro saylov huquqi sari**
- 4-§. BMTning saylovlarga taalluqli inson huquqlari borasidagi xalqaro prinsiplari**
- 5-§. YXHT ning saylovlarni o‘tkazish bo‘yicha asosiy prinsiplari va majburiyatlari**
- 6-§. Xalqaro saylov huquqining prinsiplari**

1-§. Saylovlarning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati

Inson huquqlari qonun ustuvorligi hamda demokratik huquqiy davlatning tayanchi hisoblanadi. Insonlarning asosiy huquq va erkinliklari faqat erkinlik, adolat, tenglik va javobgarlik sharoitlarida, siyosiy va mafkuraviy plyuralizmga nisbatan umumiy hurmat va bag‘rikenglik (tolerantlik) asosida munosabatda bo‘lish orqali amalga oshirilishi mumkin. Huquqiy davlatning asosiy maqsadi jamiyatning barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ijtimoiy adolatga erishishda insonlarning fundamental huquq va erkinliklariga rioya etish, ularni himoya qilishdir.

Huquqiy davlat Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, shuningdek, inson huquqlariga davlat organlari, mansabdor shaxslar, nohukumat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan to‘liq rioya etilishiga asoslanadi.

1997-yil 16 sentabrda Parlamentlararo Ittifoq kengashi qabul qilgan Demokratiya to‘g‘risidagi umumjahon deklaratsiyasida quyidagi takliflar mustahkamlangan: «Demokratiya har bir fuqaroning qarorlar qabul qilishda ishtiroki, jamoat ishlarini boshqarishda qatnashishi. Vakillik institutlarini davlat boshqaruvining barcha bosqichlarida tashkil etish, xususan aholining barcha qatlamlari namoyon bo‘lgan va xalq irodasini qonunchilik jarayonida ifoda etish uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lgan hukumat faoliyati ustidan nazorat mavjud bo‘lgan Parlamentda bunday institutlarning yaratilganligiga asoslanadi».

Haqiqatan ham, demokratiyani umume‘tirof etgan saylov huquqi prinsiplari asosida amalga oshiriladigan saylovlarsiz tasavvur etish mumkin emas. Ushbu prinsiplar zamonaviy huquqiy davlatning zarur jihatlari-dan biri hisoblanadi.

Huquqiy davlat hokimiyatni amalga oshirish jarayonida erkin siyosiy faoliyatni, fuqarolarning qonun asosida davlatni boshqarish ishlarida qatnashuvini kafolatlaydi.

Davlat hokimiyati organlari tizimi hokimiyatlarni taqsimlash bo'yicha konstitutsiyaviy prinsip asosida tashkil etilganligi, shuningdek, demokratik saylovlarni amalga oshirilganligini hisobga olib, huquqiy davlat:

— saylov huquqining umumiy, teng, erkin, to'g'ridan to'g'ri, yopiq ovoz berishdek xalqaro prinsiplarni muttasil amalga oshirilishini ta'minlab berishi;

— ochiq va adolatli saylovlarni tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan hamda konstitutsiya va qonun ustuvorligiga asoslangan huquqiy shart-sharoitlar va samarali protsessual kafolatlarni yaratishi;

— saylovlar davomida insonlarning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish va ularga rioya etilishini ta'minlab berishi;

— saylov to'g'risidagi milliy qonunchilikni saylov huquqi borasidagi xalqaro prinsiplarga moslashtirish;

— milliy va xalqaro darajada faoliyat yurgizadigan davlat hokimiyatining saylanuvchi organlarini shakllantirishda demokratizatsiya (demokratiyani qo'llab-quvvatlash) jarayonlariga ko'maklashishi lozim.

Shunday qilib, inson huquqlarini ro'yobga chiqarish qonun ustuvorligi, demokratiya va saylovlar o'rtasida uzviy bog'liqlik hamda o'zaro mutanosiblik mavjud.

2-§. Xalqaro huquq va saylovlar

Xalqaro va milliy huquq tomonidan tartibga solingan hamda saylovlar vaqtida vujudga keladigan munozaralar «xalqaro saylov huquqi» tushunchasining mazmunini tashkil etadi. Xalqaro saylov huquqi zamonaviy xalqaro huquqning sohasi bo'lib, o'z ichiga xalqaro hamjamiyat a'zolari bo'lmish davlatlardagi saylov jarayonini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalar mazmunini kiritadi. Bu yerda saylovlarni tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan universal va mintaqaviy xalqaro hujjatlar haqida gap ketmoqda.

Xalqaro saylov huquqini xalqaro umumiy huquqning bir qismi sifatida o'rganishni quyidagi ikki yo'l orqali amalga oshirish mumkin:

1) saylovlarga taalluqli bo'lgan inson huquqlari borasidagi universal hujjatlarni tadqiq etish yo'li bilan;

2) alohida olingan hududlarning saylov huquqi, ya'ni mintaqaviy xalqaro saylov huquqini chuqur o'rganish orqali.

Birinchi holatda xalqaro saylov huquqining asosiy rivojlanish yo'nalishlari hamda ushbu yo'nalishlarni belgilab beruvchi asosiy jihatlar to'g'risida gapirish mumkin.

Mintaqaviy saylov huquqini o'rganish dunyoning turli yerlarida mavjud bo'lgan saylov tizimlari rivojlanishining xususiyatlarini yaqindan o'rganishga imkon beradi.

Saylov huquqining xalqaro umumiy huquq sohasi sifatidagi xususi-

yatlari va mustaqilligi saylovlar bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni alohida tartibga solish predmeti bilan belgilanadi. Xalqaro saylov huquqning tartibga solish predmetini xalqaro-huquqiy normalar bilan tartibga solinadigan hamda bevosita demokratiyaning zarur instituti sifatida saylovlar jarayonida vujudga keladigan munosabatlar tashkil etadi.

Xalqaro saylov huquqi saylov jarayonini tartibga soluvchi xalqaro-huquqiy normalar majmuyidan tashkil topgan. Bundan tashqari, har bir fuqaroning saylash va saylanishdek subyektiv saylov huquqlari mavjud. Fuqarolarning saylov huquqlari insonlarning fundamental huquqlari sirasiga kirib, inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq predmeti doirasida o'rganiladi. Mazkur mavzuda butun diqqat e'tiborni xalqaro saylov huquqini obyektiv jihatdan o'rganishga qaratamiz.

3-§. Saylovlar to'g'risidagi milliy qonunchilikdan xalqaro saylov huquqi sari

Saylov demokratiyaning eng qadimgi instituti hisoblanib, mamlakatning boshqarish shakllari va vositalarini belgilab beradi. Umumiy ovoz berish qadim antik davrda ham mavjud bo'lgan. Biroq, keyinchalik yo'q bo'lib ketib, XVII asrda paydo bo'ldi, XIX asrda esa ancha rivojlandi. Saylovlar institutining zamonaviy tarixida 1789-yilda bo'lib o'tgan buyuk Fransuz inqilobi katta ahamiyatga ega. Chunki birinchi bo'lib saylovlar protsedurasi umummilliy xulq-atvor aktiga aylantirildi. Xususan, 1789-yilda qabul qilingan Inson va fuqarolar to'g'risidagi deklaratsiyaning 3-moddasida quyidagi holat mustahkamlab qo'yildi. «Millat suveren hokimiyatning manbayi hisoblanadi, hech qanday bir tashkilot yoki alohida bir olingan shaxs millatga tegishli bo'lgan hokimiyatga egalik qilishi mumkin emas». Deklaratsiyaning 6-moddasida esa: «Qonun umumiy xohish-irodaning ifodasidir. Barcha fuqarolar o'zlari yoki o'z vakillari orqali qonunlarni yaratish ishlarida qatnashishlari mumkin. Ular barcha fuqarolar uchun bir xil bo'lishi lozim. Hamma fuqarolar qonun oldida teng bo'lganligi sababli lavozimlarga tayinlashda kasb-koridan qat'i nazar bir xil imkoniyatlarga egalar, faqat o'zlarining imkoniyatlaridan kelib chiqib fuqarolar turli xil lavozimlarni egallashlari mumkin»¹.

O'sha davrdan boshlab dunyoning barcha davlatlari o'z fuqarolarining quyidagi davlat organlarini shakllantirishdagi saylov huquqlarini amalga oshirishga intiladilar.

Boshlanishida saylov qonunchiligi milliy huquqiy institut edi. Chunki saylov to'g'risidagi qonunlar qancha puxta ishlangan bo'lsa, shuncha saylov jarayonini samarali o'tishini ta'minlab berishi mumkin bo'ladi.

¹ Международные акты о правах человека // Сборник документов. 2 изд., доп. — М., 2002. — С.30 — 31.

Saylov jarayoni, o'z navbatida, huquqiy poydevorga asoslanib, fuqarolarning saylov huquqlarini ta'minlashga hamda uni o'ta siyosatlashtirishining oldini olishga qaratilgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, insonlar ko'pgina holatlarda fuqarolarning saylov huquqlarini saylovlar to'g'risidagi milliy qonunchiliklarda yaqin-yaqindan boshlab mustahkamlanganini esdan chiqarib qo'ymoqdalar. «Umumjahon saylov huquqi» faqat XX asr davomida shakllanib o'z tasdig'ini topdi.

Buyuk Britaniyada birinchi saylov qonuni 1632-yilda qabul qilingan bo'lsa ham faqat 1918-yildan boshlabgina saylov huquqi umumiy saylov huquqiga aylandi. O'shanda erkak jinsidagi 21 yoshga to'lgan inglizlar ovoz berish huquqiga ega bo'lganlar. 1918-yilgi Xalq vakillari to'g'risidagi qonunga asosan, 30 yoshdan oshgan ayollar ham ovoz berish huquqi bilan ta'minlandi. Bu cheklashlar Buyuk Britaniyada 1928-yilgacha, ya'ni ayollarga ham erkaklar bilan bir xil saylov huquqi berilgungacha amalda bo'lgan. 1975-yilda qabul qilingan, 2002-yilda o'zgartirishlar kiritilgan jinsiy belgilar bo'yicha cheklashlarga qarshi qaratilgan qonunga asosan, partiyalar saylanadigan lavozimlar va mandatlariga nomzodlarni tanlash ishlarida hech qanday jinsiy cheklashlarga yo'l qo'ymasliklari lozim¹.

Shveysariyada umumiy saylov huquqi 1971-yilga kelib qabul qilindi. 1971-yilgacha faqat erkaklar saylov huquqiga ega edilar. Ko'pgina ayollar 1991-yilning 3 martida o'tkazilgan referendumdan keyingina ovoz berish huquqiga ega bo'ldilar hamda ayollar uchun ham 18 yoshdan faol saylov huquqi kenzi o'rnatildi².

Xorijiy davlatlarda 200 yil davomida jamlangan amaliyotga nazar tashlasak, turli xil (parlament, prezidentlik, mahalliy) va darajadagi (umummilliy, mintaqaviy) saylovlar to'g'risidagi yuzlab qonunlar qabul qilindi. Bu davr mobaynida saylov huquqning kompleks sohasi shakllantirildi, saylovlar to'g'risidagi qonunchilikning umumiy tizimi yaratildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, milliy saylov qonunchiligi tizimi faqat saylovlar to'g'risidagi qonunlardan emas, balki boshqa qonunlar va normativ huquqiy aktlar ham o'z ifodasini topgan.

Hozirgi vaqtda milliy saylov qonunchiligi tizimiga quyidagi normativ aktlar kiradi:

1) Konstitutsiya (Germaniya Konstitutsiyasining 38. 1-moddasi, Italiya Konstitutsiyasining 68. 1 va 69. 2-moddalari, Ruminiya Konstitutsiyasining 59. 1-moddasi) hamda fuqarolarning saylov huquq va erkinliklarini, saylov tizimi va saylov huquqlarining asosiy prinsiplarini mustahkamlovchi konstitutsiyaviy normalar;

¹ Qarang: *Дегтерева О.В.* Избирательное право Соединённого Королевства Великобритании и Северной Ирландии. — М., 2003. С. 68—69.

² Сравнительное избирательное право. — М., 2003.

2) saylov to'g'risidagi konstitutsiyaviy normalarni ravshanlashtiruvchi va saylov jarayonining asosiy bosqichlarini tartibga soluvchi maxsus saylovga oid qonunlar;

3) saylov jarayonining ayrim masalalarini tartibga soluvchi huquqning ayrim sohalari (konstitutsiyaviy, ma'muriy jinoyat, axborot va boshqalar)ga taalluqli qonunlar;

4) saylov komissiyalarining (organlarining) normativ aktlari;

5) sud organlarining aktlari;

6) xalqaro-huquqiy aktlar.

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab insonlarga tegishli huquq va erkinliklar universal va mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning diqqat-e'tiborida bo'la boshladi. Demokratik saylovlarni amalga oshirish borasidagi xalqaro-huquqiy normalarni shakllantirishning deyarli yarim asrlik tarixi zamonaviy xalqaro saylov huquqini yaratishda ikkita asosiy xususiyatni belgilab berdi.

Birinchi xususiyat — universal (BMT, Parlamentlararo Ittifoq) va mintaqaviy (Yevropa Kengashi, MDH) xalqaro tashkilotlar barcha uchun umumiy bo'lgan xalqaro saylov standartlarining yagona tizimini, ya'ni erkin va adolatli saylovlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan universal xalqaro-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishni o'z zimmasiga oladi.

Ikkinchi xususiyat — turli xil davlatlarda saylov jarayoniga baho berish bilan bog'liq umum tan olingan saylov standartlarini amalga oshirish borasidagi milliy va xalqaro aloqalarni chuqurlashtirish amalga oshirildi.

BMT o'z faoliyatini birinchi kunlardan boshlab (Bosh Assambleya, Inson huquqlari bo'yicha qo'mita va boshqalar) saylovlarga tegishli bo'lgan xalqaro-huquqiy normalarni ishlab chiqishda, har bir davlatda saylovlar pleybestsit o'tkazishda faol qatnashmoqda¹.

Demokratik saylovlarni amalga oshirish prinsipi birinchi bor 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida o'z aksini topib, 1966-yilda qabul qilingan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktda mustahkamlangan bo'lsa ham xalqaro hamjamiyat so'nggi o'n besh yildagina bu masalaga e'tibor bera boshladi. Mazkur muammo Berlin devorining va sotsialistik tizimining qulashi, sovuq urushning tugashi, shuningdek, ijtimoiy hayotning barcha sohalarni demokratlashtirishga qaratilgan yalpi tendensiya vujudga kelishi oqibatida xalqaro tashkilotlarda erkin va adolatli saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq standartlarga qiziqish uyg'ota boshladi.

Xalqaro mintaqaviy tashkilotlar ham xalqaro saylov standartlariga

¹ Izoh: BMT birinchi bor 1948-yilda Koreyadagi saylovlarni kuzatib bordi. Shundan boshlab BMTning turli darajadagi saylovlarda qatnashishi ko'pgina davlatlarda erkin va adolatli saylovlar o'tkazilishiga yaqindan yordam berdi.

katta c'tibor bermoqda. Xususan, Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi 1950-yilgi Yevropa konvensiyasining I protokolidagi «erkin saylovlarga bo'lgan huquq», deb nomlanuvchi 3-moddada: «Yuqoridagi ahdlashuvchi tomonlar qonun chiqarish organlarini saylash vaqtida xalq irodasini ta'minlab berish bilan bog'liq sharoitlarda yashirin ovoz berish yo'li bilan erkin saylovlarni muntazam ravishda o'tkazishni o'z zimmalariga oladilar», deyilgan.

Xalqaro saylov standartlari inson huquqlariga oid bir qancha mintaqaviy hujjatlarda ham mavjud. Masalan, Inson huquqlari bo'yicha Amerika konvensiyasining (1969-yilning 22-noyabrida qabul qilingan va 1978-yilda kuchga kirgan) 23-moddasiga ko'ra, har bir fuqaro quyidagi huquq va imkoniyatlarga ega:

a) davlat ishlarini amalga oshirishda shaxsan yoki erkin saylangan vakillari orqali ishtirok etish;

b) saylovchilar xohish-irodasiga kafolat beruvchi yashirin tarzda o'tkaziladigan umumiy va teng saylov huquqi asosida amalga oshiriladigan haqiqiy muddatli saylovlarda saylanish va saylash;

d) o'z mamlakatining davlat xizmatida, umumiy asoslarga ko'ra, xizmat qila olish.

Qonun yuqorida ko'rsatilgan huquq va erkinliklardan foydalanishni yoshi, fuqaroligi, yashash joyi, ma'lumoti, huquq va muomala layoqati, jinoyat sodir etganligi uchun vakolatli sud tomonidan jazolanganligini hisobga olgan holda tartibga solishi mumkin¹.

1986-yil 26-iyunda Afrika birligi tashkilotining davlat rahbarlari uchrashuvida qabul qilingan va 1986-yilning 21-oktabrida kuchga kirgan Inson va xalqlar huquqlari to'g'risidagi Afrika xartiyasining 13-moddasida quyidagilar mustahkamlab qo'yilgan:

1) har bir fuqaro davlatni boshqarish ishlarida yakka o'zi yoki qonun asosida erkin saylangan o'z vakillari orqali ishtirok etishi mumkin;

2) har bir fuqaro o'z mamlakatidagi davlat xizmatiga boshqalar bilan bir xil imkoniyatlar asosida jalb etilishi mumkin;

3) har bir inson barchaning qonun oldida tengligi asosida jamoat fondlari va manfaatlariga egalik qilish huquqiga ega².

1990-yildan boshlab universal va mintaqaviy darajada qabul qilingan va demokratik saylovlarni amalga oshirish prinsiplarini o'zida aks ettirgan xalqaro hujjatlarning soni ortib bermoqda. Lekin ular turli xil xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ko'pgina hujjatlar ichida tarqalib ketgan.

¹ Qarang: Международные акты о правах человека: Сборник документов. — М., 2002. — С. 874.

² O'sha asar.

Hozir dunyoda oddiy va sodda shaklda bayon etilgan va demokratik saylovlarni amalga oshirish prinsiplari va majburiyatlarini aks ettirilgan amaldagi xalqaro normalarning to'liq ro'yxatini o'z ichiga olgan umumiy va yagona xalqaro hujjat mavjud emas.

Dunyoda hozirgi vaqtga kelib insonning saylov huquq va erkinliklarini ta'minlash, demokratik ruhdagi erkin va adolatli saylovlarni tashkil etish va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan 30 dan ortiq universal va mintaqaviy aktlar amal qilmoqda.

Xalqaro hujjatlarning ko'pligiga qaramay, saylov huquqining xalqaro prinsiplari alohida olingan aktda kodifikatsiya qilinmagan. Zamonaviy xalqaro huquqning quyidagi manbalari: shartnomalar, urf-odatlar, xalqaro huquqning umum tan olgan prinsiplari, siyosiy normalar orqali tarqalib ketgan. Shu sababli yangi konvensiyada saylov standartlarini xalqaro-huquqiy kodifikatsiya qilishning zarurligi asoslantirib berilmoqda.

Umumevropa hamkorligi masalalari bo'yicha Sankt-Peterburg xalqaro parlament konferensiyaning deklaratsiyasida demokratik saylov standartlari, saylov huquq va erkinliklar to'g'risidagi Yevropa konvensiyasini qabul qilish yo'li bilan saylov jarayonini xalqaro-huquqiy tartibga solishning modelini tashkil etish¹ taklif etilmoqda.

XXI asrning boshiga kelib universal va mintaqaviy darajadagi yangi konvensiyani qabul qilish maqsadida saylov huquqiga tegishli xalqaro-huquqiy normalarni kodifikatsiya qilish borasida faol ishlar boshlab yuborildi. Mazkur kodifikatsiya faqat mavjud normalar va standartlarni yagona tizimga jamlash emas, balki ularni aniqlashtirish, shartnomaviy-huquqiy shaklda xalqaro urf-odatlarini aks ettirish hamda adolatli va erkin saylovlarni o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan yangi xalqaro-huquqiy normalarni ishlab chiqishni ko'zda tutadi.

YXHTning Kopengagen hujjati qabul qilingan vaqtdan boshlab BMT, Parlamentlararo Ittifoq, Yevropa Kengashi va uning parlament Assambleyasi, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi, Huquq orqali demokratiyaga deb nomlanuvchi Yevropa komissiyasi (Venetsiya komissiyasi), Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida saylov tashkilotchilari assotsiatsiyasi, MDHning parlamentlararo Assambleyasi demokratik saylovlarni o'tkazishga taalluqli bo'lgan xalqaro huquq prinsiplarining rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shdilar.

1996-yilning avgustida BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasi dunyoning ko'pgina mamlakatlari a'zo bo'lgan Fuqaroviy va siyosiy huquqlar to'g'risidagi paktning 25-moddasida ko'zda tutilgan va demokratik saylovlarni o'tkazish prinsiplarini interpretatsiya qiluvchi 25-

¹ Qarang: Вестник Межпарламентской Ассамблеи, 2003. № 2. — С. 46.

umumiy sharhni qabul qildi¹. Bundan tashqari Inson huquqlari bo'yicha qo'mitaning Qozog'iston ma'ruzasi bo'yicha saylovlar to'g'risidagi², shuningdek, Ignatonning Latviyaga qarshi ishlarini³ misol qilib keltirish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan va dunyodagi 145 ta davlat parlamentlarini birlashtirib turuvchi Parlamentlararo Ittifoq davlat hokimiyatining vakillik organlariga o'tkaziladigan saylovlarga katta e'tibor beradi. 1994-yilning 26 martida Parlamentlararo Ittifoq erkin va adolatli saylovlar prinsiplarini qabul qilib, unda dunyoning barcha hukumatlari va parlamentlarini deklaratsiyada o'rnatilgan va saylov huquqiga taalluqli bo'lgan xalqaro prinsiplar va normalarga asoslanib ish yuritishga chaqirdi. Deklaratsiyada davlatlar tomonidan insonning umumiy va maxsus huquqlari to'g'risidagi rasmiy hujjatlarda aks ettirilgan muntazam, erkin va adolatli saylovlarga taalluqli bo'lgan fundamental prinsiplar mustahkamlab qo'yilgan. Unga asosan, har bir inson bevosita yoki o'zi saylagan vakillari orqali davlat boshqaruv ishlarida qatnashishi, saylovlarda yashirin ovoz bera olish va o'z nomzodini ilgari sura olish imkoniyati, hamda o'zining siyosiy qarashlarini yakka tartibda yoki boshqaruv bilan birga targ'ib qila olish huquqlari mustahkamlangan. Bundan tashqari, deklaratsiyada davlatlarning saylovlarini erkin va adolatli o'tkazish borasidagi tegishli huquq va majburiyatlari belgilab qo'yilgan. Ularga asosan, davlatlar o'zlarining xalqaro-huquqiy majburiyatlari asosida muntazam, haqiqiy, erkin va adolatli saylovlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquq va konstitutsiyaviy asoslarini kafolatlash maqsadida tegishli qonunchilik va konstitutsiyaviy jarayonlarni amalga oshirishlari lozim⁴.

To'g'ri, Parlamentlararo Ittifoqning deklaratsiyalari va boshqa qarorlari yuridik jihatdan majburiy xarakterga ega emas. Shu bilan birga, ular dunyodagi deyarli barcha davlatlarining qonun chiqaruvchi organlari vakillarini xohish-irodasining ifodasi hamdir. Shuning uchun ham ular dunyo jamoatchiligi, hukumatlar va xalqaro tashkilotlarga tegishli ta'sir ko'rsatadi. Bu qarorlarni a'zo davlatlarning parlamentlari va hukumatlari tavsiya sifatida qabul qiladilar. Parlamentlararo Ittifoq dunyo jamoatchiligini yer kurrasining turli davlatlarida bo'layotgan parlament saylovlari, parlamentlarning tuzilishi hamda ish usullari to'g'risida xabardor qilib turadi. Parlamentlararo Ittifoqi 1993-yilda chop etgan, «Saylov tizimi» deb nomlanadigan katta tadqiqotda saylov va demokratik jara-

¹ Qarang: UN OOH, 1996.

² Qarang: UN OOH, 2000.

³ Qarang: UN OOH, 1999.

⁴ Декларация о принципах свободных и справедливых выборов // Саидов А.Х. Межпарламентские организации мира: Справочник.—М., 2004. — С. 295—300.

yonlar borasidagi muammolarga o‘z dunyoqarashini bildirib, asosiy e‘tiborni saylanganlar va elektorat o‘rtasidagi aloqalarning uzilishini oldini olish uchun saylovchilar va saylanganlar o‘rtasidagi tegishli aloqalarni muntazam amalga oshirish lozimligini alohida ta’kidlaydi¹.

2002-yilning 18—19-oktabrida Venetsiya komissiyasi «Saylovlar o‘tkazish davrida tavsiya etiladigan normalar majmuyi: rahbariy prinsiplar va umumiy doklad», deb nomlangan hujjatni qabul qildi. Ushbu hujjat demokratik saylovlar o‘tkazish borasida umumevropa tajribasining ustuvor prinsiplarini o‘zida jamlagan. Mazkur hujjatda Yevropa saylov merosi asosida quyidagi beshta prinsip yotishi ta’kidlanadi: umumiy, teng, erkin, yashirin va to‘g‘ridan to‘g‘ri saylov huquqi. Bundan tashqari saylovlar muntazam ravishda o‘tkazib turilishi lozim². Yevropa Kengashining parlament Assambleyasi 2003-yilning 30-yanvarida 1529 (2003) raqamli tavsiyanomani qabul qilib, Venetsiya komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan «Saylovlarni o‘tkazish vaqtida tavsiya etiladigan normalar majmuyi»ni Saylovlar to‘g‘risidagi Yevropa konvensiyasiga aylantirishga chaqirdi.

Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudining Yevropa Kengashiga kiruvchi a‘zo davlatlar fuqarolarining saylov huquqlarini himoya qilish borasidagi faoliyati hamda tashkilotning pretsedentlik huquqi saylov huquqi borasidagi xalqaro prinsiplarni ancha boyitdi³. Yevropa Kengashiga a‘zo davlatlarning fuqarolari tomonidan kelib tushgan ko‘pgina yakka tartibdagi shikoyatlarni ko‘rib chiqish asosida Inson huquqlari bo‘yicha Strasburg sudi saylov huquqiga tegishli bo‘lgan Yevropa pretsedentlik huquqini ishlab chiqdi.

2002-yilning 20-dekabrda Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari saylovlar o‘tkazish tashkilotchilari assotsiatsiyasi 2002-yil 22—28-sentabr kunlari qabul qilingan Demokratik saylovlar standartlari, saylov huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi konvensiya loyihasini taqdim etib, Yevropa Kengashining parlament Assambleyasi muhokamasiga qo‘ydi.

MDH davlatlarining parlamentlararo Assambleyasi xalqaro saylov huquqi rivojlanishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib, 2001-yil 7-oktabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlarda demokratik saylov standartlari, saylov huquqi va erkinliklari to‘g‘risidagi konvensiya qabul qildi⁴.

Bular «Yevropa saylov huquqi»ning shakllanayotganligi to‘g‘risida

¹ Qarang: Election systems. Comparative World Review. — Geneva, 1993.

² Qarang: Свод рекомендуемых норм при проведении выборов. Руководящие принципы и Пояснительный доклад. — Страсбург, 2002. — С. 14.

³ Qarang: Европейский Суд по правам человека: Избранные решения. — М., 2000.

⁴ Борисов И.Б., Малив Ю.Н. Основные права и обязанности государств в избирательном процессе // Московский журнал международного права, 2002. — №1. — С. 8.

gapirishga imkon beradi. Bunga Yevropada saylov mexanizmlarini shakllantirish jarayonlariga dunyoning boshqa joylariga qaraganda ko'proq e'tibor berilayotganligi ham sabab bo'lmoqda. Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Yevropacha saylov standartlari dunyoning boshqa qit'alari va mintaqalari uchun andoza bo'la oladimi yoki yo'qmi? Buning uchun boshqa mintaqalarda ham tegishli ijtimoiy baza vujudga kelishi kerak.

Hokimiyat asosini fuqarolar tomonidan o'z huquq va majburiyatlarini, muntazam, erkin va adolatli saylovlar, umumiy va teng saylov huquqi, turli xil partiyalar uchun ochiq bo'lgan va yashirin ovoz berish orqali amalga oshiriladigan hamda hokimiyatdan mustaqil bo'lgan mutassadilar nazorati ostidagi, firibgarlik va qo'rqitishlardan xolis bo'lgan insonlarga tegishli xohish-iroda tashkil etadi².

Haqiqatan ham saylov huquqi prinsiplari demokratik davlatlar konstitutsiyalari va qonunchiligida o'z aksini topmoqda. Ularning ta'siri ostida XX asming o'rtalariga kelib, saylov huquqining umume'tirof etgan prinsiplari doirasini o'rganish kengayib bordi. Ko'pgina hollarda xalqaro-huquqiy normalarni milliy huquqqa implimentatsiya qilish orqali yoki davlat ichida majburiy bo'lgan akt chiqarish yoxud inkoratsiya orqali erishilmoqda (masalan, anglo-sakson huquqiy oilasida bo'lgani kabi sud praktikasi orqali).

«Davlat konstitutsiyasi va qonunlari yordamida saylov jarayonini tartibga solishga bo'lgan huquq saylov huquqining xalqaro institut normalarida mustahkamlab qo'yilgan formal huquqqa (davlatlarning huquq va majburiyatlariga) qaraganda real hisoblanadi. Bu degani, formal huquq to'g'ridan to'g'ri harakat qilmaydi va tegishli davlatda huquqiy va siyosiy majburiyatlarni amalga kiritish protsedurasidan tashqari holatda milliy huquq subyektlariga majburiyat yuklay olmaydi»¹.

Shunday qilib, hozirgi dunyoda milliy saylov qonunchiligidan xalqaro saylov huquqi kodifikatsiyasigacha bo'lgan rivojlanish, ya'ni saylovlar borasidagi xalqaro-huquqiy normalarning yagona tizimini shakllantirishga bo'lgan tendensiya kuzatilmoqda.

4-§. BMTning saylovlarga taalluqli inson huquqlari borasidagi xalqaro prinsiplari

BMTning saylov huquqiga tegishli prinsiplari va standartlari quyidagi xalqaro universal hujjatlarda mustahkamlangan:

1) 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi. Dok. 217 A(III));

¹ Вестник Межпарламентской Ассамблеи СНГ. 2002 — №3. — С. 343—366.

² Варшавская декларация (К сообществу демократий). 27 июня 2000 года // Московский журнал международного права, 2002. — №1. — С. 271.

2) 1966-yil 16-dekabrda qabul qilingan va 1976-yil 23 martdan kuchga kirgan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt;

3) 1965-yil 21-dekabrda qabul qilingan va 1969-yil 4-yanvardan kuchga kirgan Irtiq kamsitishning barcha shakllarini tugatish to'g'risidagi xalqaro konvensiya;

4) 1979-yil 18-dekabrda qabul qilingan va 1981-yil 3-sentabrdan kuchga kirgan Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi konvensiya;

5) 1952-yil 20 sentabrda qabul qilingan va 1954-yil 7-iyuldan kuchga kirgan Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiya;

6) 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan Milliy yoki etnik, diniy va til jihatidan ozchilikka mansub shaxslarning huquqlari to'g'risidagi deklaratsiya (Bosh Assambleyaning 15/14-sonli (XV) hujjati);

7) 1960-yil 14-dekabrda qabul qilingan Mustamlaka davlatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi deklaratsiya (Bosh Assambleyaning 15/14-sonli (XV) hujjati);

8) 1973-yil 30-noyabrda qabul qilingan va 1976-yil 18-iyuldan kuchga kirgan Aparteid jinoyatini to'xtatish va uning uchun jazolash to'g'risida konvensiya;

9) «Saylov jarayonlari amalga oshirilayotgan vaqtda milliy suverenitet prinsiplarini hurmat qilish va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik» to'g'risida BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyalari (1993-yil 20-dekabrda qabul qilingan 48/24 — sonli va 1992-yil 18-dekabrda qabul qilingan 47/130 -sonli hujjatlar);

10) «Davriy va haqiqiy saylovlarni o'tkazish prinsipining samaradorligini oshirish». (BMT Bosh Assambleyasining 1991-yil 17-dekabrda qabul qilgan rezolyutsiyasi, 46/117-sonli hujjat);

11) Insonlarning umum tan olingan asosiy huquqlarini rag'batlantirish va himoya qilish bilan bog'liq faoliyat yurituvchi ayrim fuqarolar, guruhlar va organlarning huquqlari va majburiyatlari to'g'risidagi deklaratsiya (BMT Bosh Assambleyasining rezolyutsiyasi, 53/144-sonli hujjat);

12) «Jamoat ishlarida ishtirok etish huquqi», «saylov huquqlari» hamda «davlat xizmatiga bo'lgan teng imkoniyatlar huquqi». BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasining 25-sonli sharhi¹ va boshqalar.

BMTning saylovlarga taalluqli bo'lgan xalqaro prinsiplari va standartlari quyidagi inson huquqlari bilan chambarchas bog'liq:

- davlat boshqaruv ishlarida qatnashish huquqi;
- saylash va saylanish huquqi;
- davlat xizmatiga bo'lgan teng imkoniyat huquqi.

¹ Qarang: BMTning hujjati CCPR/C 121/Rev/ 1, ilova 7, 1996-y. 27-avg.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida «boshqaruv hokimiyatining asosini xalq xohish-irodasi tashkil etishi lozim», deb yozib qo'yilgan (21-modda). Bundan tashqari, «xalq xohish-irodasi umumiy va teng saylov huquqi, yashirin ovoz berish yoki shunga o'xshash shakllar, xullas ovoz berish erkinligini ta'minlab beruvchi vositalar yordamida amalga oshiriladigan davriy va haqqoniy saylovlar orqali aks etishi lozim», deyiladi deklaratsiyada.

Shunday qilib, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida saylov demokratiyasining beshta asosiy belgisi belgilab berilgan:

- umumiy saylov huquqi;
- teng saylov huquqi;
- davriy saylovlar;
- haqqoniy saylovlar;
- yashirin ovoz berish.

Saylovlar insonning asosiy huquq va erkinliklarini amalga oshirish va ularga rioya etilishi borasidagi muhim voqelikdir. Shuning uchun saylovlarda qatnashuvchi xalq ular orqali o'zining xohish-irodasini ifoda etadi. Bundan tashqari, saylovlar haqiqatan ham erkin va adolatli bo'lishi va xalqaro standartlarga muvofiq kelishi uchun ular insonning asosiy huquq va erkinliklarini ta'minlovchi vaziyatda o'tkazilishi kerak¹.

SFXXPning 25-moddasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining normalarini rivojlantirib, diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik orqali demokratik saylovlarni amalga oshirishdek muhim prinsiplarni mustahkamlaydi. SFXXP yuridik jihatdan majburiy xalqaro shartnoma sifatida o'zining 25-moddasida mazkur paktida qatnashuvchi davlatlar uchun hech qanday nohuquqiy cheklashsiz saylovchilarning erkin xohish-irodasini kafolatlaydi. Shu bilan birga, 25-modda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 21-moddasining bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, lekin alohida amalga oshiriladigan fuqaro huquqiga almashtiradi:

— shaxsan yoki o'zi saylangan vakil orqali davlatlarni boshqarish ishlarida qatnashish huquqi (bu holat ko'pincha vakillik boshqaruv huquqi ham deb ataladi);

- saylash va saylanish huquqi;
- davlat xizmatiga kirishish huquqi (ishtirok etish).

Fuqarolarning davlat ishlarida qatnashish huquqi, xususan, ularni saylovlar yordamida amalga oshirish insonning fundamental huquqi sirasiga kiradi. Uni samarali ravishda amalga oshirish uchun xalqaro darajada himoya qilinadigan boshqa bir qator huquq va erkinliklarni amalga

¹ Qarang: Права человека и выборы. Пособие по правовым, техническим аспектам и аспектам прав человека, связанным с проведением выборов. Нью-Йорк и Женева, 1995. — С. 3.

oshirish talab etiladi. Bunday huquq va erkinliklarga quyidagilar kiradi:

1) o'z fikrini erkin ifoda etish va erkin ma'lumotga ega bo'lish (SFXXPning 19-moddasi);

2) erkin majlislar o'tkazish (SFXXPning 21-moddasi);

3) uyushmalar erkinligi (SFXXPning 22-moddasi);

4) erkin harakat qilish (SFXXPning 12-moddasi);

5) mustaqil sud protsedurasiga bo'lgan huquq (SFXXPning 14-moddasi). Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyalari bilan tasdiqlangan (1985-yilning 29-noyabri va 13-dekabrda qabul qilingan 40/32 va 40/146-sonli hujjatlar);

6) diskriminatsiyadan himoyalash huquqi (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2 va 7-moddalari, SFXXPning 2, 3 va 26-moddalari).

SFXXP doirasida o'zining xalqaro majburiyatini amalga oshirish mexanizmi sifatida davriy ma'ruzalarni paktga a'zo davlatlar tomonidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga taqdim etish qabul qilingan. Hozirgi davrga kelib, SFXXPga qo'shilgan davlatlar soni 148 taga yetdi.

Inson saylov huquqi va erkinliklaridan teng foydalanishi uchun u hech qanday cheklashsiz amalga oshirilishi lozim. Saylovlar cheklashlar va qo'rqitishlardan xoli, hamda insonning asosiy huquq va erkinliklari hurmat qilinadigan vaziyatda o'tishi lozim. BMTning inson huquqlariga taalluqli bo'lgan ustuvor hujjatlarda o'z aksini topgan insonning ko'pgina huquqlariga rioya etish erkin va adolatli saylovlarni amalga oshirish yo'lida katta ahamiyatga ega.

BMTning inson huquqlariga taalluqli bo'lgan xalqaro hujjatlarida quyidagi xalqaro mezonlar mustahkamlab qo'yilgan:

1) erkin saylovlar;

2) adolatli saylovlar;

3) haqqoniy saylovlar;

4) saylovlar davriyligi va ma'lum muddatda o'tkazilishi;

5) saylovlar to'g'risidagi milliy qonunlarga bo'lgan umumiy talablar¹.

BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasida aytilishicha, «davriy va haqqoniy saylovlar fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan doimiy xatti-harakatlarning zarur va kerakli elementi va amaliyotning isbotlashicha har bir fuqaroning davlatni boshqarish ishlarida qatnashishi bu barcha insonlar tomonidan insonlarga te-

¹ Qarang: Права человека и выборы. Пособие по правовым, техническим аспектам и аспектам прав человека, связанным с проведением выборов. Нью-Йорк и женева, 1995, С. 21-48.

gishli siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni o'z ichiga olgan asosiy huquq va erkinliklarni samarali amalga oshirilishining zarur shartlaridan biridir»¹.

Haqiqatan ham, BMTning saylovga taalluqli inson huquqlari sohasidagi prinsiplari va standartlari o'z mazmuniga ko'ra juda keng bo'lib, barcha davlatlarda qo'llanishi mumkin. Bu vaziyatda BMT barcha davlatlarni va xalqlarni qoniqtira oladigan yagona siyosiy tizim mavjud emasligini alohida ta'kidlaydi. Bundan tashqari BMTning saylov borasidagi faoliyati suveren tenglik, hududiy yaxlitlikni va siyosiy mustaqillikni hurmat qilishdek asosiy prinsiplarga muvofiq amalga oshiriladi. Bu qoida BMT Ustavida yozib qo'yilgan².

Davlat suvereniteti, xalqaro huquq normalari va xalqaro siyosiy normalarga binoan, davlatlarga berilgan ayrim huquqlar va saylov jarayoni masalalarida yuklatilgan majburiyatlar sababli cheklanmaydi³. Shunday qilib, davlatlar umumiy xohish-iroda asosida o'z suverenitetlarini amalga oshirib, harakatga kirishadilar.

5-§. YXHTning saylovlarni o'tkazish bo'yicha asosiy prinsiplari va majburiyatlari

Demokratik saylovlar o'tkazish bo'yicha YXHTning asosiy prinsip va majburiyatlari quyidagi hujjatlarda keltirilgan:

- 1) Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik kengashi (yakunlovchi hujjat). Xelsinki, 1975-yil 1-avgust;
- 2) YXHTga a'zo davlatlari vakillari Madrid uchrashuvining yakuniy hujjati. Madrid, 1983-yil 6-sentabr;
- 3) YXHTga a'zo davlatlar vakillari Vena uchrashuvining yakuniy hujjati. Vena, 1989-yil 19-yanvar;
- 4) YXHTning insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Kopenhagen kengashining hujjati. Kopenhagen, 1990-yil 20-yanvar;
- 5) yangi Yevropa uchun Parij xartiyasi. Parij, 1990-yil 21-yanvar;
- 6) YXHTning insoniylik mezonlari bo'yicha konferensiyasi Moskva kengashining hujjati. Moskva, 1991-yil 3-oktabr;
- 7) 1992-yilgi Xelsinki hujjati — o'zgarishlar davrining da'vati. Xelsinki, 1992-yil 10-iyul;

¹ BMT Bosh Assambleyasining 46/137-sonli rezolyutsiyasi. 1991-yil 17-dekabrda qabul qilingan, 3-band.

² Qarag: Права человека и выборы. Пособие по правовым, техническим аспектам и аспектам прав человека, связанным с проведением выборов. Нью-Йорк и женева, 1995, С. 18.

³ Qarag: Борисов И.Б., Малеев Ю.Н. Основные права и обязанности государств в избирательном процессе // Московский журнал международного права, 2002. — №1. — С. 7.

8) Yangi davrda haqiqiy hamkorlik sari — oliy darajadagi Budapesht uchrashuvi deklaratsiyasi. 1994-yil 6-dekabr;

9) Oliy darajadagi Lissabon uchrashuvi deklaratsiyasi. Lissabon deklaratsiyasi, 1996-yil 3-dekabr.

10) Istambul uchrashuvi deklaratsiyasi, 1999-yil 19-noyabr.

YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha byu-rosining hujjatlari saylovlar bilan bog'liq bo'lgan masalalarni tartibga solish, ularni nazorat qilish, texnik yordam ko'rsatish, qonunchilikka sharh berish borasida katta ahamiyatga ega.

YXHT hududida saylovlarni o'tkazishni monitoring qilish masalasi borasida BDIPChning asosiy hujjatlariga quyidagilar kiradi:

1) Saylovlar kuzatuvini boshqarish, 4-to'plam, Varshava, 1999;

2) Saylovlarning qonunchilik bazasi tahlili bo'yicha BDIPChning tavsiyalari, Varshava, 2000;

3) YXHTga a'zo davlatlarda o'tkaziladigan saylovlarga nisbatan nizoli masalalarni standart tizim monitoringi. Varshava, 2000;

4) Saylovlar jarayonida millatlarning ishtirokiga taalluqli tavsiyalar. Varshava, 2001;

5) Saylovchilar fikrlarini bilish to'g'risidagi so'rovlar natijalarini o'z ichiga oluvchi ma'lumotlarni cheklashga qaratilgan qonun va nizomlarni qiyosiy o'rganish. London, 2003;

6) Demokratik saylovlarga bo'lgan huquq borasidagi xalqaro andozalar va majburiyatlar: demokratik saylovlarni ijobiy o'tkazish bo'yicha amaliy ko'rsatma. (YXHT/BDIPCh). Varshava, 2002;

7) Saylovlar va elektoral kuzatish borasida YXHT va BDIPChning yakuniy hisobotlari¹.

YXHTning demokratik saylovlar sohasidagi asosiy andozalari «Kopengagen hujjati» nomi bilan tanish bo'lgan Insoniylik bo'yicha konferensiyaning Kopengagen kengashi hujjatlarida mustahkamlab qo'yilgan. Bu hujjat YXHTga a'zo mamlakatlarda demokratik saylovlar prinsiplarini ifoda etuvchi asosiy xalqaro hujjatlardan biri deb tan olingan. Hujjatda «plyuralistik demokratiya va huquqiy davlat inson huquqlari va asosiy erkinliklarini ta'minlab berish, insonlar orasida aloqalarni rivojlantirish va shunday muammolar bilan bog'liq bo'lgan boshqa gumanitar masalalarni hal etishda zaruriy vosita hisoblanadi», deb ko'rsatilgan. Shuning uchun ham YXHTga a'zo davlatlarning demokratik g'oyalar va siyosiy plyuralizm, erkin saylovlar va qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik jamiyat qurishga qat'iy kirishganlari ijobiy holatdir. Haqiqatan ham davriy va haqiqiy saylovlarda xalq xohish-irodasining erkin va haqqoniy aks ettirilishi dunyodagi barcha davlatlarda mavjud bo'lgan qonuniylik va odillikning asosi hisoblanadi.

¹ Qarang: YXHT/BDIPChning veb-saytida: <http://www.OSCE.org/odihr>.

A'zo davlatlarda tegishli ravishda fuqarolarning davlat boshqaruv ishlarida o'zlari yoki saylagan vakillari orqali qatnashishlari hurmat qilinadi. YXHTga a'zo davlatlar inson huquqlari borasidagi xalqaro standartlar yordamida o'zlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini erkin tanlash va rivojlantirishga bo'lgan o'zaro huquqlarini hurmat qilishlarini yana bir bor ta'kidlaydilar.

YXHTga a'zo davlatlar quyidagilarni tan oladilar:

— haqqoniy va davriy saylovlar vakillik boshqaruvining asosini tashkil qiladi;

— erkin va haqqoniy saylovlarda qatnashish huquqi xalqaro huquq tomonidan kafolatlangan fundamental inson huquqlari hisoblanadi;

— umumiy, teng, haqqoniy, erkin, ochiq va hisobotli saylovlargina demokratik hisoblanadi.

Kopengagen hujjatida saylovlarga tegishli bo'lgan majburiyatlar 6, 7, 8-paragraflarda mustahkamlangan. 7-paragraf YXHTga a'zo davlatlarning quyidagi 9 majburiyatlarini o'z ichiga oladi:

7.1. — erkin saylovlarni qonunda ko'rsatilgan tegishli muddatlarda o'tkazish;

7.2. — barcha mandatlar, hech bo'lmaganda milliy qonun chiqaruvchi organning bir palatasini saylash, nomzodlarni umumxalq saylovlari vaqtida erkin raqobatlashishi asosida saylanishi;

7.3. — balog'at yoshiga yetgan fuqarolarga umumiy va teng saylov huquqini kafolatlash;

7.4. — ovoz berish, yashirin yoki erkin ovoz berishning boshqa protsedurasi asosida amalga oshirilishi va ovozlarni jamlash hamda u to'g'rida axborot berish haqqoniy bo'lishi, shuningdek, rasmiy natijalari e'lon qilinishi;

7.5. — siyosiy partiyalar va tashkilotlar vakili sifatida yoki yakka tartibda davlat lavozimlarida fuqarolarni hech qanday cheklashsiz qatnashish huquqlarini hurmat qilish;

7.6. — alohida shaxslar yoki shaxslar guruhining siyosiy partiyalarini yoki boshqa siyosiy tashkilotlarni tuzish huquqini, bunday siyosiy partiyalar va tashkilotlarga bir-birlari bilan qonunlar va hokimiyat organlari oldida tengliklari asnosida raqobat qilishlariga imkoniyatlar tug'diruvchi yuridik kafolatlarni berish;

7.7. — qonun va davlat siyosati, siyosiy kompaniyalarni erkinlik va haqqoniylik muhitida o'tkazish, bunday kompaniyalarda partiyalar va nomzodlar hech qanday ma'muriy to'siqlar, qo'rqitish yoki zo'rvonliksiz o'z fikrlarini ifoda eta olishlarini, saylovchilar esa ularning fikrlari bilan jazolanishdan qo'rqmagan holda erkin tanishishlarini ta'minlab berish;

7.8. — ommaviy axborot vositalariga yetishish, barcha siyosiy guruhlar va saylov jarayonida qatnashmoqchi bo'lgan barcha manfaatdor

shaxslarga to'siqlar yoki yuridik va ma'muriy cheklashlar qo'yilishini oldini olishni qat'iy ta'minlash;

7.9. — tegishli ovozlarni olgan barcha nomzodlar demokratik parlamentar va konstitutsiyaviy protseduralar asosida qonun bilan belgilanadigan lavozimlarga kirishishlari va ushbu lavozimda vakolatlari tugaguncha qolishlari uchun zarur sharoitlarni ta'minlash¹.

Kopengagenda qabul qilingan hujjat faqat saylovlar bilan bog'liq bo'lgan vositalar majmuyi bo'lmay, YXHTga a'zo bo'lgan davlatlar uchun inson huquqlarini hurmat qilish ruknidagi haqiqiy demokratik saylovlarni o'tkazishda juda keng hajmdagi majburiyatlarni ham o'z ichiga oladi.

YXHTning saylov prinsiplari quyidagi yettita so'zda o'z aksini topgan: *universallik, tenglik, erkinlik, haqqoniylik, yashirin tarzda ovoz berish, aniqlik va hisobot berish*. Bu har bir fuqaroning ovozi va o'zi davlat hokimiyatining vakillik organlarini shakllantirishga ko'maklashadi, deganidir².

Kopengagen hujjatida o'z aksini topgan majburiyatlar BDIPCH uchun saylovlar vaqtda rahbariy hujjat bo'lib xizmat qildi. Mazkur byuro Parij xartiyasiga muvofiq, 1990-yilda tashkil etilib, avvalida «Erkin saylovlar bo'yicha byuro» deb ataldi. 1991-yilning may oyida o'z faoliyatini boshlagan BDIPCH YXHTning a'zo davlatlariga insonning asosiy huquq va erkinliklarini hurmat qilish, qonuniylik, demokratiya prinsiplarini hayotga tatbiq etish, demokratik institutlarni tuzish, mustahkamlash va himoya qilish, shuningdek, butun jamiyat miqyosida bag'rikenglik munosabatlariga taalluqli prinsiplarni rivojlantirishda yordam beruvchi asosiy institut hisoblanadi³.

BDIPCH Yevropada saylovlarni kuzatish borasidagi yettinchi institut hisoblanadi. U har yili YXHT hududida amalga oshirilayotgan saylovlarda minglab kuzatuvchilar bilan qatnashib, kuzatuv missiyalarini tashkil etadi, ular faoliyatini tartibga soladi hamda mazkur saylovlarni milliy qonunchilik va xalqaro standartlarga mos kelishini baholab tura-di. BDIPCH saylov jarayonining barcha bosqichlari monitoringi metodikasini ishlab chiqqan. BDIPCH o'zining ko'maklashish loyihalari vositasida YXHT a'zo davlatlari saylov tizimlarini yaxshilash uchun yordam beradi.

2003-yilda YXHTning Demokratik institutlar va inson huquqlari

¹ Qarag'ang: Документы по человеческому измерению ОБСЕ: Сборник. Варшава, 1995. — С. 44 — 45.

² Qarag'ang: Руководство ОБСЕ/БДИПЧ по наблюдению за выборами: 2-е издание. Варшава, 1997. С.4.

³ Qarag'ang: Заключительный Хельсинкий документ — Вызов времени // Документы по человеческому измерению ОБСЕ: Сборник. Варшава, 1995.

bo'yicha byurosi (BDIPCh) «YXHTga a'zo davlatlarda demokratik saylovlarni o'tkazish borasidagi amaldagi majburiyatlar» deb nomlanuvchi hujjatni ishlab chiqdi. Unda quyidagilar mustahkamlangan:

— BMT hujjatlarida mustahkamlangan saylov va inson huquqlariga taalluqli bo'lgan mavjud va umume'tirof etgan normalar;

— 1990-yilda va undan keyin qabul qilingan Kopengagen hujjati va boshqa hujjatlardan kelib chiqadigan YXHTning majburiyatlar;

— YXHT hududida qabul qilingan va mintaqaviy hujjatlarda o'z aksini topgan prinsiplar;

— YXHT ga a'zo davlatlarning hududida demokratik saylovlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyatning umumiy andozalari¹.

6-§. Xalqaro saylov huquqining prinsiplari

Hozirgi vaqtga kelib, inson huquq va erkinliklari borasidagi barcha xalqaro normalarni xalqaro standartlar deb atash rasm bo'lgan². Bu ta'rifga asoslanib, erkin va adolatli saylovlar borasidagi inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalarni xalqaro andozalar deb atash mumkin.

Xalqaro saylov standartlari, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqaro normalar bo'lib, universal va mintaqaviy andozalarga bo'linadi. Saylovlarga taalluqli mintaqaviy xalqaro andozalar universal andozalarga qaraganda kengroq, chuqurroq bo'lib butun xalqaro hamjamiyatni emas, balki ayrim davlatlarning tarixiy an'analari, xususiyatlari, rivojlanish darajalarini hisobga oladi.

Zamonaviy xalqaro huquq saylov huquq sohasida ko'pgina prinsiplarni ishlab chiqqan. Inson huquqlariga taalluqli bo'lgan universal va mintaqaviy hujjatlarda saylovlarga tegishli bo'lgan xalqaro prinsiplar turli xil jihatdan tasniflanadi.

XXI asrning boshiga kelib, xalqaro huquq saylov huquqining quyidagi umume'tirof etgan prinsiplarini belgilaydi:

- 1) umum saylov huquqi;
- 2) teng saylov huquqi;
- 3) erkin ovoz;
- 4) to'g'ridan to'g'ri ovoz;
- 5) yashirin ovoz³.

¹ Qarag: Существующие обязательства по проведению демократических выборов в государствах-участниках ОБСЕ: Сборник. Варшава, 2003.

² Qarag: *Мюллерсон Р.* Права человек: идеи, нормы, реальность. — М., 1991. — С.13; *Саидов А.Х.* Международное право прав человека. — М., 2002; *Саидов А.Х.* Общепризнанные права человека. — М., 2004.

³ Qarag: Свод рекомендуемых норм при проведении выборов: Руководящие принципы и Пояснительный доклад. Венетсия, 2002.

Ushbu prinsiplar jamlanib, xalqaro saylov andozalarini tashkil etadi. «Xalqaro saylov andozalari davlatlarning o‘z yuridiksiyalarida bo‘lgan shakllarga erkin, adolatli, haqqoniy va davriy saylovlarda qatnashishlari, bunday huquq va erkinliklarni buzmasliklari, shu bilan birga, ularni ta‘minlash va amalga oshirish borasidagi majburiyatlaridir. Ayrim hollarda bu huquq va erkinliklarni cheklashga yo‘l qo‘yiladi, lekin ular alohida andozalarda qayd etiladi.

Shunga qaramay, saylov huquqi bo‘yicha taniqli mutaxassis G.S. Gudvinldjil barcha davlatlar uchun mos keladigan yagona saylov mavjud emasligini to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tadi.

Har bir davlatda muayyan ijtimoiy-tarixiy va madaniy sharoitlarda xalq xohish-irodasini to‘liq ta‘minlab beruvchi milliy saylov tizimi yaratilishi lozim¹.

Bu BMT Bosh Assambleyasining 1991-yil 17-dekabrda qabul qilingan 46/130-sonli «Saylov davomida Milliy suverenitetni hurmat qilish va ichki ishlarga aralashmaslik prinsiplarni hurmat qilish» rezolyutsiyasida o‘z aksini topgan. Unda aytilishicha, saylov jarayonlarini tashkil-lashtiruvchi institutlarni shakllantirish, shuningdek, uni konstitutsiyaviy normalar va milliy normativ aktlar asosida o‘tkazishni har bir xalqning o‘zi tanlaydi. Bundan tashqari, xalqaro hamjamiyatning regulyar va haqqoniy saylovlarni o‘tkazishga qaratilgan prinsiplarning samaradorligini oshirish borasidagi faoliyati alohida olingan davlatlarning xalq xohish-irodasiga muvofiq, saylovlarni o‘tkazish hamda o‘zlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy tizimlarini, bu tizimlar boshqa davlatlarga yoqadimi-yo‘qmi, rivojlantirishga qaratilgan².

«Erkin va haqqoniy saylovlarni ta‘minlash bo‘yicha asosiy javobgarlik muayyan davlatlarning hukumatlariga yuklatilgan»³.

¹ Qarang: Goodwin — Gill G. Free and Fair Elections: International Law and Practice. Geneva, 1994. — P.5.

² Qarang: Резолюция № 46/137 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1991 года, пункт 3.

³ Qarang: Резолюция № 46/138 Генеральной Ассамблеи ООН от 17 декабря 1991 года и № /48/131 от 20 декабря 1993 года.

O‘TTIZINCHI MAVZU. GLOBALLASHUV, YANGI DUNYO TARTIBOTI VA XALQARO HUQUQ

- 1-§. XXI asr — globallashuv asri
- 2-§. Globallashuv sharoitida davlatning roli
- 3-§. Global boshqaruv va xalqaro huquq
- 4-§. BMT va yangi dunyo tartibotini belgilash
- 5-§. Yangi dunyo tartiboti qadriyatlari va maqsadlarining asoslari
- 6-§. BMT XXI asrda: taraqqiyot istiqbollari

1-§. XXI asr — globallashuv asri

Shiddat bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda kelajak haqida aniq tasavvurga ega bo‘lmay turib davlatning milliy va xalqaro-huquqiy tizimini lozim darajada takomillashtirish borasidagi izchil va samarali siyosati haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas.

Odamlar kelajakka nafaqat qiziqish bilan, balki xavotirlanib boqmoqdalar. Agar XX asr va XXI asrni qanday kutib olishganini taqqoslasak, odamlarning kelajakka beqiyos katta umid bilan qaraganlari ma‘lum bo‘ladi. Bunga sabablar bisyor. Insoniyat tsivilizatsiyaga xavf solayotgan jiddiy muammolarga duch kelib qoldi. Yadro halokati xavfi bartaraf qilinmagani, davlatlar ichida birin-ketin qurolli to‘qnashuvlar alangalanayotgani, xalqaro terrorizm qurbonlari sonining ortayotgani, iqlimiy o‘zgarishlar xavfining oshishi, yuqumli kasalliklardan millionlab odamlarning halok bo‘lishi, ochlikdan va yarim ochlikdan ko‘pgina odamlarning hayotdan ko‘z yumishlarini esga olish kifoya.

Tabiiy ravishda savol tug‘iladi: bunday vaziyatning sabablari nima-da? Nima uchun odamlar o‘z tinchligini ta‘minlay olmayapti? Buning sababi, jamiyat boshqaruvini milliy va xalqaro miqyosda tashkil etish saviyasida, deb o‘ylashga barcha asoslar bor. Ishlab chiqarish kuchlari, fan va texnika taraqqiyoti shunday yuksaklikka erishdiki, bu amalda har qanday muammoni yechishga imkon beradi. Faqatgina mavjud imkoniyatdan to‘g‘ri foydalana olish kerak, xolos.

XXI asr sezilarli darajada globallashuv jarayonining o‘sishi bilan karakterlanadi. Biz global bosqich davriga qadam bosdik. Globallashish faqatgina iqtisodga tegishli, degan fikr keng tarqalgan. Bu fikrlarning asossizligi yetarlicha ravshan, u xalqaro aktlarda ham ta‘kidlanmoqda. BMT Bosh Assambleyasining 2000-yildagi 55/102 rezolyutsiyasida aytilishicha, «globallashuv nafaqat iqtisodiy jarayon bo‘lib qolmay, u ijtimoiy, siyosiy, ekologik, madaniy va huquqiy jihatlariga ham ega». Globallashuv tsivilizatsiya konsepsiyasining o‘ziga ham c‘zgarishlar kirita-

di. Bu bilan har bir davlat o'zining ham ichki, ham xalqaro faoliyatida ko'proq hisoblashishga to'g'ri kelmoqda.

Ko'pchilik falokatlarini yoki, hech bo'lmaganda, ularning asosiylarini globallashuvga ag'darishga intiladilar. Globallashuvga qarshi bo'lgan anti-globalistlar harakatining sababi mana shundan kelib chiqadi. Ammo, aslida globallashuv jarayoni milliy va xalqaro miqyosdagi tashkiliy nuqsonlarni faqat oshkor qiladi, xolos. Ko'pchilik mutaxassislar iste'molchi jamoalarning inqirozi dunyo resurslarining kamayib ketishiga, dunyodagi ko'pchilik aholining qashshoqlashishiga olib kelishini ta'kidlamoqdalar. Boy mamlakatlarda yashovchi Yer kurrasi aholisining beshdan bir qismi dunyo resurslarining 80% foizini ishlatishadi. Boshqa tomondan, qoloq mamlakatlar ijtimoiy-siyosiy tizimining rivojlanmaganligi ularga aholining eng oddiy kundalik ehtiyojini qondirishga ham imkoniyat bermayapti.

Bularning hammasi asosan sanoati rivojlangan yetakchi mamlakatlarda manfaatlariga xizmat qiladi va xalqaro tizimda ham o'z aksini topadi. Boy davlatlar boshqa mamlakatlarning madaniyati va o'ziga xos hayot tarzi bilan hisoblashmay, ularga o'zining mafkurasini, o'z qadriyatlarini tizimini majburan tiqishtirishga intiladilar. Natijada boy davlatlarning siyosatidan norozilik kuchayib, ichki va xalqaro ziddiyatlarning soni oshayotganligi turli usul va shakllarda ifodalanmoqda.

Hozirgi vaqtda milliy va xalqaro miqyosdagi tizimiy qarama-qarshiliklar shunday keskinlikka yetdiki, bu holat boshqa inqirozli holatlarni ham vujudga keltirmoqda.

Bu jihatdan Amerika sotsiologiyasi yetakchisi D. Bell jamiyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyatda uyg'unlikka erishsagina samarali ishlaydi, lekin hozirgi global iqtisodiyotda ochiq nomuvofiqlik mavjud degan fikri qiziqish uyg'otadi, uning quyidagi bayonoti alohida e'tiborga loyiq: «Men iqtisodda sotsialistman, siyosatda liberal». Bunda iqtisodiy tizimni tubdan qayta tashkil etish zaruratini tan olish, davlatning demokratik xarakterini ta'min etishda rolini oshirish g'oyalarini ko'rish mumkin.

Insoniyat oldida turgan muammolar yechimini yaratish orqali yangi dunyoviy tartib-qoidani hal etish mumkin. BMT Bosh Assambleyasining e'tirof etishicha, «faqat keng va qat'iy harakat yo'li bilan, siyosatni va global miqyosdagi tadbirlarni qo'llab, insoniyatimiz uchun uning rang-barangligiga asoslangan umumiy kelajak yaratibgina, haqiqiy insoniy qiyofaga ega va barchani qamrab oluvchi globallashishga erishish mumkin»¹.

Ma'lumki, insoniyatning birlashishiga qarshi turuvchilar Shimol va Janub manfaatlarini kelishmasligini pesh qilishadi, so'nggi vaqtlarda is-

¹ Док. ООН. Рез. ГА 55/102, 2000 г.

lom va xristian tsivilizatsiyasining o'zaro qarshi turishiga alohida urg'u berilyapti. Shimol va Janub qarama-qarshiligini inson hayoti uchun oddiy sharoitlar yaratishda, Janubga zaruriy yordam ko'rsatish yo'li bilan bartaraf etish mumkin. Bu katta fidoiylikni talab qilmaydi, lekin yutuq katta bo'ladi.

Islom to'g'risidagi fikrga kelganda esa, terrorizm bu dindan paydo bo'layotgani yo'q, balki ayrim guruh va tashkilotlar o'z jinoiy faoliyatini oqlash uchun undan foydalanishga urinayotganidan kelib chiqmoqda. Bu haqda musulmon davlatlarining xatti-harakatlari guvohlik bermoqda. Ular o'z madaniyati va tsivilizatsiyasining o'ziga xosligi, o'zlarining hurmati uchun kurashmoqdalar. Shu bilan birga, ular umumiy manfaatlar ta'min etilishiga hissa qo'shishga tayyor ekanligi haqida bayonot berishmoqda, xususan, ular ko'plab qurbonlarga olib keluvchi terrorizmni qat'iy qoralashmoqda.

«Islom konferensiyasi» tashkiloti tomonidan qabul qilingan Dakar deklaratsiyasida (dekabr 1991-y.) «Biz islom dini ta'limotiga qarshi boruvchi terrorizm faoliyatini (hodisasini) qat'iy qoralashimizni yana bir bor ta'kidlaymiz. Biz qonun doirasida va xalqaro huquq prinsiplarini hurmat qilgan holda jahon hamjamiyati bilan xalqaro terrorizmning barcha shakl va ko'rinishlariga qarshi kurashda chin dildan hamkorligimizni tasdiqlaymiz», deyilgan. Ma'lumki, «Islom konferensiyasi» tashkiloti AQSHda sodir etilgan terroristik akti keskin qoralaydi.

Shunday qilib, insoniyat birligi g'oyasini o'zida namoyon etuvchi dunyo tartiboti tasdig'i yo'lida yengib bo'lmaydigan to'siqlar yo'q. Uning ustiga, bu davr talabidir. Tinchlik va insoniyatning omon qolishi faqat davlatlar hamda xalqlarning hamkorlikdagi harakati bilan ta'minlanishi mumkin. Bugun har bir mamlakatning tinchligi va xavfsizligi xalqaro tizimning ahvoliga bog'liq.

Bu vaziyatlarning ahamiyatini davlatlarning tashqi siyosat rahbarlari tez-tez ta'kidlaydilar. Kanada va Norvegiyaning tashqi ishlar vazirlari L. Eksvorti va K. Volebak «Yangi dunyoni shakllanishi uchun yangi diplomatiyaning qat'iy zarurligi» nomli maqolalarida «Bugungi dunyoda alohida davlat tomonidan mustaqil bajariladigan ishlar kam qoldi. Kelajakni kutgandan ko'ra, biz o'zimizning ixtiyorimizdagi mavjud ko'p tomonlamali muassasalarni ishlatishimiz zarur»¹, deb yozishgan.

Yangi dunyo tizimining shakllanishi yo'lidagi asosiy to'siq obyektiv emas, balki subyektiv xarakterga ega bo'lib, bunda yetakchi siyosiy tafakkur zamon talabidan mohiyatan ortda qolmoqda. Bu holat, hatto xalqaro anjumanlarda ham birinchi yil belgilanayotgani yo'q. 1991-yilgi Stokgolm konferensiyasida qabul qilingan rezolyutsiyada, xususan, qu-

¹ International Herald Tribune. 1998. 21 oktober.

yidagilar aytiladi: «Biz hisoblaymizki, hozir yangi global tizimda haqiqiy umumiy manfaatimiz yo'lidagi hamkorlik shundan iboratki, biz davlatlarni global boshqaruv tizimini tuzishga oqilona ishontirishimiz lozim»¹. Ko'rganingizdek, ancha murakkab masalalardan biri «davlatlarni oqilona ishontirish»ga asosli ravishda katta e'tibor qaratilmoqda.

Siyosiy tafakkurning ortda qolayotganligi hodisasi ikki jihat bilan tavsiflanadi. Birinchisi, dunyoqarash sezilarli darajada bir qolipdagi ko'p asirlik tarixga ega tashqi siyosat bilan aniqlanadi. Bu, xususan, milliy manfaatlariga mutlaq ahamiyat berish va xalqaro manfaatlariga yetarli baho bermaslikda namoyon bo'lmoqda. Bugun milliy manfaatlar borgan sari ahamiyati ko'proq aniq bo'layotgan, faqat umumiy manfaatlar bilan o'zaro aloqada ta'minlanishi mumkinligi hisobga olinmaypti.

Globalashuv shunga olib keldiki, hozirda birorta ham davlat xalqaro tizim bilan o'zaro faol aloqasiz kun kechira olmay qoldi. Uning ustiga davlatning tinchligi uning qanchalik o'zaro aloqani samarali tashkil etilganligiga bog'liq. Endi global muammolar inson bilan bog'liq barcha ishlarda borligini BMT hujjatlari tasdiqlaydi.

Siyosiy arboblarda hamda nazariyotchilarning siyosiy tafakkurida sovuq urush qolipidan qutulmaganlik holatlari borligi alohida e'tiborga loyiq. Bu holatni mutaxassislar muntazam qayd qilishyapti. M. Bronde «Xalqaro munosabatlar to'g'risidagi barcha nazariyalar deyarlik eskirdi» nomli maqolasida yozishicha, bunday eskirganlik SSSR yo'q bo'lgandan so'ng aniq bo'lib qoldi. Faqat juda kam olimlar o'z nazariyasining zaifligini, tarixga qarshi, siyosatni o'zgartirishga asoslanganligini tan oladilar².

Siyosiy tafakkur qoloqligi hodisasining ikkinchi jihati, yangi dunyo tartibi va uni shakllantirish yo'llari haqida aniq tasavvurning yo'qligidan iborat. Bu jihatning ahamiyati haqida davlat rahbarlari muntazam gapirishaypti. XXRning sobiq raisi Szyan Szemin «Insoniyat XXI asrga qadam qo'ydi. Biz XX asr xalqaro munosabatlari tajribasidan nimalarni o'zimiz bilan birga olishimiz mumkin? XXI asrda xalqaro munosabatlar qanday bo'lishi lozim? Bu savollar haqqoniy ravishda har bir mamlakat xalqi oldida, har bir siyosatchi oldida turibdi»³, — degan edi.

Ko'pchilik nazariyotchilar xalqaro munosabatlarning global tizimini qayta tashkil etish zarurligini inobatga olishadi. Lekin shu bilan birga yangi tizim qanaqa bo'lishi va qanday yo'llar bilan maqsadga erishish lozimligida hamjihatlikdan uzoqdalar. Bularning hammasi tasodifiy emas. Vujudga kelayotgan sharoitlarning yangiligi shunchalik muhimki, o'tmish tajribasi faqat chegaralangan me'yorda qo'llanilishi mumkin.

¹ Common Responsibility in the 1990 s. Stoskholm, 1991. -P. 36.

² Braunds M. The Obsolescence of Almost All Theories Concerning International Relations // European Revue 1998. -№3.

³ Российская газета, 1998, 19 ноябрь.

Vujudga kelgan vaziyatni G. Kissindjer mana shunday tavsiflaydi: «Yangi dunyo tartibini qurishi lozim bo'lgan e'tiborli mamlakatlarning biron-tasi ham ko'p davlatlar bilan vujudga kelayotgan tizim munosabatida hech qanday tajribaga ega emas. Yangi dunyo tizimi avval hech qachon shunchalik turli konsepsiyalar yoki shunday global miqyos asosida shakllanmagan»¹.

Aytilganlardan kelib chiqadiki, yangi dunyo tartibini o'rnatishning zaruriy sharti — yangi siyosiy tafakkurni (dunyoqarashni) shakllantirishdan iborat. Yangi siyosiy tafakkur yangi dunyo tizimining chegarasi aniqlanishi bilan bir vaqtda shakllanadi va bu jarayon ayniqsa jamoa asosida bo'lib o'tadi. Bu jarayonda muhim rol BMTga tegishlidir.

2-§. Globallashuv sharoitida davlatning roli

Globallashuv muammosi bo'yicha bahs jamiyatning milliy va xalqaro miqyosda to'g'ri tashkillashtirilishi masalasi atrofida olib borilmoqda. Alohida e'tibor iqtisodiy tuzilishga va iqtisodiy faoliyat subyektlari orasidagi munosabatlarga qaratilmoqda. Globallashtirishga siyosatshunoslar ham katta e'tibor berishyapti. Afsuski, yurisprudensiya bu zamonaviy fanning magistral rivojidan hozircha chetda qolmoqda. Adabiyotlarda globallashuvga yetarli e'tibor bermayotgan xalqaro-yuristlar sha'niga ham ko'pincha ta'nalar uchramoqda². Ayni shu vaqtda davlat va huquq haqidagi fan ijtimoiy boshqaruv tizimini takomillashtirish yo'llarini belgilashda hal qiluvchi rol o'ynashi talab etiladi. Birinchi galda, bu davlatning rolini aniqlashga tegishlidir.

Bu savol bo'yicha ikki asosiy nuqtayi nazar mavjud bo'lib, birinchi nuqtayi nazar tarafdorlarining fikricha, kapitalizm to'lig'icha erkin raqobatlilik bilan inson erki va uning farovonligini ta'minlashga imkon beruvchi jamiyatni tashkillashtiradigan yagona tizimdir. Shunga binoan davlatning tartibga soluvchi roli yo'q darajaga keltirilishi lozim. Ba'zi mutaxassislar jamiyatning bosh tashkiloti sifatida davlatning roli tushib ketganligi haqida yozishmoqda va hatto milliy davlatlarning tugashini ta'kidlashmoqda. Global jarayonlar boshqaruvida bosh o'rin yirik korporatsiyalarga berilmoqda.

Bu konsepsiya Rim klubi kabi e'tiborli forum ishida ham o'z aksini topdi. E. Toflarning tasdiqlashicha, milliy davlatlar tizimi asta-sekin «dunyo tizimiga o'xshash, uni ta'minlashga qodir bo'lgan, mutlaqo yangi siyosiy chegaralarni talab qiluvchi»³ transmilliy korporatsiyalar dunyosi tomonidan siqib chiqariladi.

¹ Kissinger H. Diplomacy. New York, 1994. — P. 26.

² European Journal of International Law. 1998. № 4. — P. 751.

³ Toffler A. The Third Wave. New York, 1980. — P. 344.

TNK dunyo tartibini ta'min etishi mumkinligiga bo'lgan ishonch real emasligi tez orada ma'lum bo'lib qoldi. Bu jihatdan Butun jahon banki tutgan yo'l ibratlidir. Ko'p yillar davomida Bank milliy hokimiyatchilik va borgan sayin kuchayib borayotgan byurokratiyaga qarshi chiqqan edi. Biroq, 1997-yili u «O'zgaruvchan dunyoda davlat» muammosiga bag'ishlangan maxsus hisobotini nashr etdi. Hisobotda e'tirof etilishicha, davlatsiz barqaror iqtisodiy, ijtimoiy taraqqiyot mumkin emas. Uning bu taraqqiyotda boshqaruvchidan ko'ra ko'proq sherik va ko'maklashuvchi omil sifatida muhim rol o'ynashi talab etiladi. E'tiborga loyiq tomoni shunda, bankning mulohazasi bo'yicha davlatsiz hech qanday maqsadlarga erishib bo'lmaydi, lekin uning vazifasi boshqarish emas, balki bank va korporatsiyalarga ko'maklashishdir.

Katta biznes vakillari orasida davlatning vazifasi yirik kapital uchun zarur bo'lgan mamlakat ichkarisidagi va jahon maydonidagi tartib-qoidani saqlab turishda e'tibor qozongan.

Umuman davlat rolining pasayib ketishi haqidagi konsepsiya globalashuv orqali ochilgan imkoniyatlardan keng foydalanuvchi yirik kompaniyalarga ega AQSHda ko'proq tarqalgan. Yevropada kapitalizm hayot darajasini oshishida optimal tizim sifatida qaralishiga moyil konsepsiya ko'proq ommalashgan. Lekin davlatlarning erkin raqobatni madaniylashgan darajaga qo'yishi talab qilinadi.

Yevropalik mutaxassislar davlat rolini e'tirof etish bilan bir vaqtda ko'p qismini u faqat boshqa davlatlar bilan o'zaro aloqada amalga oshirishi mumkin bo'lgan, uning funksiyalarini birlashtirishni, internatsionalizatsiya qilishni (baynalmilallashuvini) ta'kidlashmoqda. Nemis professori S. Xobe qaralayotgan savolga bag'ishlangan asosiy ishida davlat tushunchasining o'zini tubdan o'zgartirish lozimligini yozadi. Uning fikricha, davlatning xalqaro hamkorlik uchun ochiq bo'lishining o'zi davlat tizimining konstitutiv elementidir (unsuridir)¹.

Davlatning barcha faoliyati baynalmilallashuviga shubha yo'q. Lekin bu aslo uning roli pasayishini bildirmaydi. Xalqaro munosabatlarda davlat boshqa davlatlar bilan birlashadi va o'z mustaqilligiga ko'ra, o'z chegaralarida tartib-qoidani ta'minlaydi. Natijada davlatning roli ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda nafaqat pasayadi, balki lozim darajada o'sadi.

3-§. Global boshqaruv va xalqaro huquq

Siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarning turli-tumanligi shunchalik ta'sirliki, asosiy boshqaruv ko'lami milliy va mahalliy saviyada bajariladi. Milliy darajadagi boshqaruv saviyasini oshirishni markazlashgan

¹ Hobe S. Der Offene Verfassungsstaat Zwischen Souveranität und Interdependenz. Berlin, 1998.

davlatni saqlash zarurati talab qilmoqda. Shu bilan birga, ijtimoiy hayotning murakkablashishi va uni boshqarish tashqi aloqalar vakolati bilan birga, qo'shimcha ma'muriy-hududiy bo'limlar vakolatini ham berishni talab qilmoqda.

Bu shart Yevropa xalqaro-huquqiy aktlarida o'z aksini topgan. Chegara bitimida kam sonli millatlar himoyasi haqida aytiladi: Beg'araz va gullayotgan Yevropa taraqqiyoti nafaqat davlatlar orasidagi hamkorlikdan iborat, balki chegara orqali hamkorlik davlatlarning hududiy butunligiga va mahalliy mintaqaviy hokimiyatlar orasida Konstitutsiyaga rioya qilishga asoslanadi¹, deyilgan.

Hayot jamiyat tinchligini ta'minlashda davlatning hal qiluvchi roli mavjudligi borasida borgan sayin asosli dalillar keltirilmoqda. Ichki qurolli to'qnashuvlar aynan davlat hokimiyati ta'sir qilolmaydigan mamlakatlarni shikastlamoqda. Natijada boshqa davlatlar uchun katta xavf paydo bo'lmoqda. Bunday to'qnashuvlar BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan tinchlik va xavfsizlikka tahdid deb baholanmoqda. Shunday davlatlar xalqaro terrorism uchun baza bo'lib xizmat qilishini yaqin o'tmishdagi voqealar tasdiqlamoqda.

Jahon tizimining samarali boshqaruvini tashkil etish masalasi muhim ahamiyatga ega. Ko'pchilik mutaxassislar, dunyo davlati va dunyo hukumatini tashkil etish — xayoliy maqsad ekanligiga qo'shilishmoqda. Ha, tashkil etilgan holda ham ular foydali bo'lmagan bo'lardi. Global boshqaruv davlatlar hamkorligiga tayanishi zarur. Xalqaro uyushma ham shu nuqtayi nazar tarafdori. BMT Bosh kotibining 2000-yilda tashkilotning qilingan ishlari haqidagi ma'ruzasida: «Samaraliroq dunyo boshqaruvi zarur, bunda men dunyo ishlarini hamjihatlik bilan olib borishni ko'zda tutyapman»², — degan edi.

Dunyo jarayonlarini boshqarishni tashkil etish har bir daraja vakolatlarini to'g'ri aniqlab olishni talab qiladi. Jahon miqyosida yuqoridagi holat uchun eng muvofiq keladigan faqat umumiy muammolar hal qilinadi. Oqillik chegaralaridan chiqish global mexanizm ta'sirini susaytiradi, g'oyaning ham obro'sini tushiradi. Boshqarish faoliyatining ahamiyatli qismi mintaqaviy darajaga tegishli. Bu jihatdan, yordam puli beruvchi tamoyillari bilan, Yevropa Ittifoqi tajribasi juda foydalidir. Unga ko'ra, Ittifoq organlariga faqat umumiy muammolarni hal qilishda zaruriy vakolatni amalga oshirish huquqi berilgan.

Xalqaro miqyosdagi boshqaruvning takomillashishi xalqaro tashkilotlar tizimining rivoji, ular vakolatining kengayishi va faoliyati ta'sirining oshishini talab qiladi. BMT, «Globallashtirish oqibatida paydo

¹ Бюллетень международных договоров. 1999. №5, — С. 20.

² Аннан К. Общая судьба — новая решимость. Нью-Йорк, 2001. — С.5.

bo'layotgan imkoniyatlar va takliflar xususida ko'p yoqli mexanizmlar noyob rol o'ynashi shartligini»¹, ta'kidlaydi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, xalqaro tashkilotlardan, ayniqsa, iqtisod sohasida, ko'pincha kuchli davlatlar o'z xususiy manfaatlarini uchun foydalanadilar. Lekin shuni hisobga olish kerakki, xalqaro idoralarsiz kuchlilarning hukmi yana ham sezilarli, tegishli me'yorlar bilan chegaralanmagan bo'lardi. Universal siyosiy tashkilotlarga kelsak, ular o'rta va kichik davlatlar oldida dunyoviy muammolar yechimida qatnashishi uchun sezilarli qo'shimcha imkoniyatlar yaratadi.

Globalashuv amalda ijtimoiy hayotga har taraflama, shu qadar muhim o'zgarishlar kiritdiki, hozircha ularning barcha natijalarini aniqlashga qodir emasmiz. Bu natijalarning ahamiyatini hisobga olib, ularni aniqlash uchun muhim tadqiqotlarni amalga oshirish zarur. Afsuski, hozirgi jamiyatning ijtimoiy va siyosiy fanlarga qilgan sarf-xarajatini, boshqa, ayniqsa, harbiy ishlar bilan bog'liq tadqiqotlar chiqimi bilan taqqoslab ham bo'lmaydi. Ijtimoiy fanlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha mablag'lar talab qilinadi. Ular bilimning boshqa sohalari xarajatiga qaraganda kattaroq miqdorda qoplanadi.

Ijtimoiy fanlarning bunday ahvoli siyosiy tafakkur rolining oshayotganligini aks ettirmaydi, balki ularning oqsayotganini namoyon qiladi. Boshqa tomondan, ijtimoiy fanlarning yetarli rivojlanmaganligi — siyosiy tafakkurning orqada qolish sabablaridan biridir.

Kelgusidagi o'zgarishlarning asosiy xususiyatlarini inobatga olib, davlatlar siyosati jamiyatning kengroq doirasidagi ko'magiga muhtoj bo'ladi. Bu davr talabiga binoan ommaviy ong rivojini talab qiladi. Bunda hal qiluvchi rolni ommaviy axborot vositalari o'ynashi lozim bo'ladi. Lekin qayd qilishga to'g'ri keladiki, hozirgi jamiyatda OAV foyda manfaatiga bo'ysundirilgan. Ular qanchalik g'ayriijtimoiy axloqni targ'ib qilsa, shunchalik ma'rifat tarqatmaydi va jamiyatni tarbiyalamaydi. Bu kabi holatni o'zgartirish zarurati jamiyatdan tarbiyalash va ma'rifatli qilish funksiyasini o'z zimmasiga olishni talab qilmoqda. Asosiy e'tibor insonlar ongida odamlarning bir-biriga, jamiyatga, boshqa xalqlarga, butun insoniyatga munosabatini belgilovchi huquq prinsiplari va axloq qoidalarini mustahkamlashga qaratilishi shart. Bu qoida va tamoyillar asosida umuminsoniy qadriyatlar tizimi aks ettirilgan bo'lishi shart.

4-§. BMT va yangi dunyo tartibotini belgilash

Yangi dunyo tartibining asosini belgilash jarayoni davlatlarning o'zaro murakkab aloqasidan kelib chiqadi. Davlatlar tashqi siyosiy harakatlari

¹ Глобализация и её влияние на полное пользование правами человека: Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН от 4 декабря 2000 г. 55/102

rida bu tartibot ahamiyatining u yoki bu aspektlariga diqqatlarini qarataishmoqda. Lekin ma'lum darajada yaxlit konsepsiyalar kam uchraydi. Yangi dunyoviy tartibdan global muammolar yechimini ta'min etish talab qilinadi. Uning samaradorligi va ishonchli kafolati o'zaro manfaatlarni hisobga olishdadir. XXI asrda dunyo tartiboti xalqaro munosabatlarni keng demokratlashtirish va birlamchilik huquqiga, muhim muammolarni jamoa bo'lib hal qilish mexanizmiga asoslanishi shart. Xalqaro institutlar va mexanizmlar roli jahon iqtisodiyoti va siyosatida ham kuchayib bormoqda. Xalqaro munosabatlarni muvofiqlashtirishda BMT asosiy bo'g'in bo'lib qolishi kerak.

Hozirgi yangi siyosiy tafakkur va yangi dunyo tartibi shakllanish jarayonining o'ziga xosligi unda davlatlarning keng doirasi qatnashishidir. Bunda BMT asosiy vazifani bajaryapti. Bosh Assambleyaning 2000-yilda bo'lib o'tgan «Ming yillik Sammiti» muhim o'rin egallaydi. Globallashuv asrida dunyo tuzumining asosiy parametrlari u qabul qilgan rezolyutsiyalarda yetarlicha aniq belgilangan¹. Birinchi navbatda bu BMTning «Ming yillik Sammiti»da qabul qilingan Deklaratsiyasiga taalluqlidir.

Deklaratsiya muhim ahamiyat kasb etadi. Deklaratsiyani amalga oshirishga bag'ishlangan rezolyutsiyada, uning qoidalari milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda hayotga tatbiq etilishi axloqiy-siyosiy majburiyat sifatida yuklanishi ko'zda tutilgan. Deklaratsiyaning amalga oshirilishida hukumatlar individual va jamoaviy tarzda javobgar bo'lishi ta'kidlangan. BMTning barcha tizimi bu ishda davlatlarga yordam ko'rsatishga da'vat etiladi².

Dunyo tartiboti asosiga o'zining doimiy va universal xususiyatini isbotlagan BMT Nizomining maqsad va prinsiplari joylashtiriladi. Buning ustiga davlatlar va xalqlar o'zaro bog'liqroq va o'zaro aloqadorroq bo'lgan sharoitda ularning imkoniyatlari va ilhomlantirish qobiliyati oshdi. Bu maqsad va prinsiplar asosida butun dunyoda adolatli va mustahkam tinchlik o'rnatiladi. So'nggi qoida BMT tomonidan alohida ta'kidlanadi. Unga, ya'ni «demokratik va adolatli xalqaro tartibotga ko'maklashish» ga³ Bosh Assambleyaning alohida rezolyutsiyasi bag'ishlangan. Rezolyutsiyaning «demokratik va adolatli xalqaro tartibotga hamma haqli» bo'lishi haqidagi ko'rsatmasi alohida e'tiborga loyiq.

Prinsiplar orasidagi inson huquqlari prinsipiga alohida e'tibor berilgan. Ta'kidlab o'tamizki, o'z taqdirini belgilash prinsipining mazmuni faqat xorij okkupatsiyasi yoki mustamlaka hukmronligi ostida qolayotgan xalqlarga taalluqlidir. Bunda davlatlarning hududiy yaxlitligini ta'min etish borasidagi tashvish o'z aksini topgan.

¹ Resolutions and Decisions adopted by the General Assembly during its fifty-fifth session. Vol. I. New York. 2001.

² Док. ООН. Резолюция ГА ООН 55/162, 2001.

³ Док. ООН. Резолюция ГА ООН 55/107, 2001.

Yangi dunyo tartibi sharoitida globallashtirishga oid tomonidan qo'yilgan masalalar orasida hal qilinishi zarur bo'lganlariga asosiy o'rin ajratilgan. U dunyodagi barcha xalqlar uchun ijobiy kuchga aylanishi zarur. Globallashtirish barchaga ulkan imkoniyatlar ochishi qayd qilinmoqda. Lekin hozirgi vaqtda uning hosili va azobi baravar taqsimlanmagan.

Tegishli muammolar yechimi rang-barangligiga qaramay, insoniyatning birdamligiga asoslangan umumiy kelajak yaratishda qat'iy harakat qilish va keng yo'llar ochishni talab qilyapti. Bu harakatlar jamiyatning o'zgaruvchan iqtisodi va rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojiga javob beradigan hamda ularning samarali ishtirokida amalga oshiriladigan va belgilanadigan global darajadagi mablag'lar va siyosatni qo'shishi shart. Shundagina dunyo tartibotining adolatli va demokratik xarakterini ko'rish mumkin.

5-§. Yangi dunyo tartiboti qadriyatlari va maqsadlarining asoslari

Dunyo tartiboti asosiga yigirma birinchi asrda xalqaro munosabatlar uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar kiritilmoqda. Ular quyidagilar:

Erkinlik: inson huquqlarini ta'min etishda demokratiyaning eng yaxshi vosita va barchaning ishtirokiga tayanuvchi boshqaruv.

Tenglik: birona ham inson yoki davlat taraqqiyot imtiyozlaridan mahrum qilinishi mumkin emas.

Birdamlik: global muammolar yechimining og'ir yuki ijtimoiy adolat prinsiplariga binoan taqsimlanishi zarur. Dunyo tartiboti prinsiplari soniga ijtimoiy adolat prinsiplarining kiritilishi katta ahamiyatga egaligini payqamaslik mumkin emas. O'tmishdagi dunyo tizimining oliy yutug'i davlatlarning nomigagina tengligi tasdiqlanganligida edi.

Tolerantlik: odamlar bir-birini madaniyati, tili, e'tiqodi turli-tumanligiga qaramay, hurmat qilishlari kerak. Jahon madaniyati va barcha sivilizatsiyalar orasidagi munosabat faol qo'llab-quvvatlanishi haqidagi qoida alohida e'tiborga loyiq.

Tabiatga hurmat: birlashgan harakatlar bilan tabiatni asrashni ta'minlash. Hozirgi iste'mol va ishlab chiqarish usullari bizning kelajagimiz xotirjamligi, merosxo'rlarimiz tinchligi ehtiyoji uchun tubdan o'zgartirilishi zarur.

Umumiy javobgarlik: jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy taraqqiyoti uchun javobgarlik, shuningdek, tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash barcha davlatlar uchun umumiy bo'lishi kerak va ko'p tomonlama asosda amalga oshirilishi lozim. Bu qoida alohida e'tiborga loyiq. U yangi dunyo tartibotini ta'riflaydi. Umumiy javobgarlikni tan olish zarurati birinchi yil ta'kidlanayotgani yo'q. BMTning Bosh kotibi K. Annan: «Davlatlar bizning global dunyomizda o'zining ikki tomonlama rolini puxta anglashi

zarur. O'zining mustaqil javobgarligiga qo'shimcha ravishda, har bir davlat o'zining jamiyati, davlatiga munosabati bilan bu sayyorada bizning umumiy hayotimizga kafolat beradi. Davlat o'rnini bosa oladigan yoki raqobatga qodir bironta ham tuzilma yo'q»¹ — degan edi.

Umumiy javobgarlik BMT aktlarida qayta-qayta takrorlanishi tasodifiy emas. Davlatlar va hukumat rahbarlari jamiyat oldidagi javobgarligi bilan bir qatorda, dunyo xalqlari oldida umumiy tinchlikni ta'minlash uchun kollektiv javobgarlikni ham olib boradilar.

Belgilangan qoidada boshqa muhim jihat bo'lgan dunyo tizimi boshqaruvini zarur darajada ta'min etish uchun javobgarlik ham bor. Yetarlicha yuqori darajada boshqarish — insoniyat oldida turuvchi muhim va murakkab muammolar yechimining zarurati bilan aniqlanadigan yangi dunyo tartibining xarakterli xususiyatlaridan biri. Gap jamiyatni milliy va xalqaro miqyosda yuksakroq uyushtirish, mukammalroq boshqarish haqida ketmoqda. K. Annan: «Biz milliy miqyosda yaxshiroq boshqarishimiz shart, xalqaro miqyosda esa biz boshqarishni birgalikda o'rganishimiz yaxshiroqdir»², — deb ta'kidlaydi. Boshqaruv ahamiyati Bosh Assambleya rezolyutsiyalarining ko'pgina qoidalarida aks etgan. Unda dunyo tuzumining asosiy maqsadlari belgilab berilgan.

Birinchi maqsad — Tinchlik, xavfsizlik va qurolsizlanish. Davlatlar orasida ham, ular ichida ham xalqlarni urush xavfidan ozod etish. Ommaviy qirg'in qurollari vujudga keltiradigan xavfni yo'qotishga intilish. Bu maqsadlarga erishish uchun aniq yo'llar ko'zda tutilgan. Xalqaro va ichki ishlarda huquq ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikning umumiy miqyosda oshishining birinchi o'ringa qo'yilganligi e'tiborga loyiq. Xalqaro sud qarorlari bajarilishining ahamiyati uqdirib o'tiladi.

Xalqaro gumanitar huquq va inson huquqlari, qurolsizlanish va qurolanish ustidan nazorat qilishga taalluqli shartnomalar bajarilishi ta'min etilishi shart. Barcha davlatlar Xalqaro jinoyat sudi nizomini tasdiqlashga da'vat etiladi. Xalqaro terrorizmga qarshi muvofiqlashtirilgan harakatlarning zarurligi alohida ko'rsatilgan. Davlatlar tegishli bitimlarga iloji boricha tezroq qo'shilishga chaqiriladi.

BMT rolining muhimligini oshirish va uning imkoniyatlarini kengaytirilishi ko'zda tutilmoqda. Tinchlik o'rnatishda nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, tinch qurilish va qayta tiklash, konfliktlarni oldini olish uchun kerak bo'lgan mablag' va qurollarni BMTga berib, uni tinchlik va xavfsizlikni ta'minlovchi samarali vositaga aylantirish vazifasi qo'yilmoqda. BMT mintaqaviy tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirishi lozim.

¹ Annan K. «We the Peoples» — The Role of United Nations in the XXI st Century. New York, 2000. P. 13.

² Ibid, — P. 7.

Transmilliy jinoyatchilik bilan kurash ham tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash usullari qatoriga kiritilishi e'tiborga loyiq.

Ikkinchi maqsad — taraqqiyot, qashshoqlikni tugatish. Butun insoniyatni muhtojlikdan qutqarish va har biri uchun taraqqiyot huquqini real ta'minlash, buning uchun milliy va global miqyosda sharoit yaratish lozimligi ifodalandi. Shu bilan birga, qo'yilgan maqsadlarga erishish har bir mamlakatda va xalqaro miqyosda yaxshi boshqarishga bog'liq. Ko'p tomonlama savdo va moliyalar tizimi ochiq, adolatli, me'yorga asoslangan, oldindan xabar beriladigan va kamsitmaydigan bo'lishi kerak. Asosiy e'tibor rivojlanayotgan va qoloq mamlakatlarga qaratilgan bo'ladi.

Bu masalalar yechimi uchun ijtimoiy tashkilotlar va xususiy sektor bilan ishonchli sherikchilik rivojlanadi.

Uchinchi maqsad — umumiy atrof-muhitni himoya qilish. Atrof-muhitni saqlashning yangi etikasi va tegishli boshqaruvni qabul qilish, xususan, tegishli bitimlarni hayotga tatbiq etish va kuchga kirishi uchun hamma imkoniyatlardan foydalanish nazarda tutiladi. Atrof-muhit himoyasi haqidagi qoidalar juda cheklanganligini payqamaslik mumkin emas. Moddiy kulfat taqsimotidek, asosiy muammo yechimi ham aniqlanmagan. Shunisi ham borki, bu fikr boshqa qoidalarga ham tegishli. Rivojlangan mamlakatlar birmuncha aniq majburiyatlarni qabul qilishdan saqlanishadi.

To'rtinchi maqsad — inson huquqlari, demokratiya va yaxshi boshqaruv. Bu savollarga boshqa muammolar yechimida ham e'tibor berilgan. Ushbu holatda demokratiyani rag'batlantirish va huquq ustuvorligini kuchaytirish, shuningdek, rivojlanish huquqini o'z ichiga olgan, xalqaro e'tirof etilgan inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash uchun harakatlarni faollashtirish va ularni ayamaslik ifodalanadi.

Beshinchi maqsad — yordamga juda muhtoj kishilarni himoya qilish. Gap tabiiy ofat, genotsid, qurolli to'qnashuvlar va boshqa ijtimoiy halokatlar natijasida behad qashshoqlikka bardosh berayotgan barcha tinch aholi va bolalar himoyasi bo'yicha maxsus tadbirlar haqida bo'ryapti. Me'yoriy hayot tiklanishi uchun himoya va yordam berish nazarda tutilgan. Bunda umumiy farovonlikka qiziqish uyg'otayotgan yangi dunyo ijtimoiy xususiyati yuzaga keladi.

Oltinchi maqsad — Afrikaning o'ziga xos ehtiyojlari. Afrikaliklarga barqaror taraqqiyot va qashshoqlikni bartaraf etishda, ularning mustahkam tinchlik uchun kurashiga yordamlashish va Afrikada demokratiyaning qaror topishida ko'maklashish maqsadi ifodalangan. Afrika muammolarini hal qilishda demokratiyani mustahkamlash birinchi o'ringa qo'yilgan.

6-§. BMT XXI asrda: taraqqiyot istiqbollari

Birlashgan Millatlar Tashkiloti mavqeini kuchaytirish yangi dunyo

tizimining yettinchi maqsadidir. Oldingi paragraflarda sanab o'tilgan maqsadlarga erishishda BMTni samarali qurolga aylantirish uchun harakatlarni ayamaslik maqsadi ifodalangan. Bunda, xalqaro uyushmaning tashkiliy tizimida BMTning rahbarlik o'rni yana ham batafsilroq tasdiqlanmoqda. Uning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha aniq tadbirlar nazarda tutilgan.

Asosiy e'tibor bosh vakolatli idorasi sifatida BMT siyosatini belgilash va muhokama qilish huquqi bo'lgan Bosh Assambleyaning rahbarlik o'rnini tasdiqlashga qaratilgan. Xavfsizlik Kengashiga kelsak, u faqat isloh qilinishi kerakligi aytiladi. Hech qanday islohot mezonlari ko'rsatilmagan. Shu asnoda Xavfsizlik Kengashi barcha sharoitlarda yangi dunyo tizimini tuzishda va ishlab turishida birinchi darajali rol o'ynaydi.

Iqtisodiy va Ijtimoiy Kengash hamda Xalqaro sudning roli oshirilishi zarurligi ko'rsatilgan. BMTga o'z vazifasini bajarishi uchun zarur mablag' va resurslarni o'z vaqtida berilishi lozimligi alohida ta'kidlanadi.

BMT va uning idoralari bilan Bretton-Vud institutlari va Butun dunyo savdo tashkiloti kabi tashkilotlar hamkorligini faollashtirish haqidagi nizom e'tiborga loyiq. Ma'lumki, bu muammo juda jiddiy bo'lib, yuqoridagi tashkilotlar o'z faoliyatida BMT bilan unchalik hisoblashmaydilar.

BMTning Parlamentlararo Ittifoq orqali milliy parlamentlar bilan hamkorlikni faollashtirish ko'zda tutilgan. G'oyat muhim yo'nalish shuki, BMT day markaziy tashkilot faqatgina hukumatlararo tashkilot bo'lib qolayotganlik fakti birinchi yil muhokama qilinayotgani yo'q. Unga parlamentlar juda kam ta'sir qiladi. Olimlar parlamentlarni ifodalovchi, maslahat beruvchi organ sifatida BMTning Parlamentlararo Assambleyasini tuzishni taklif qilishmoqda. Taxminlarga ko'ra, Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlik qilish hozirgi bosqichda muammolar yechimini ifodalaydi.

BMT maqsadlarini amalga oshirishda xususiy sektor va hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlarga o'z hissasini qo'shishga katta imkoniyatlar yaratish mo'ljallanmoqda. Bu nizom bugun muhim ahamiyatga ega. U yangi dunyo tizimining shakllanishi umumiy jarayoni va uning ishlab turishini ta'minlashda hozirgi dunyo iqtisodi va moliyasini belgilovchi rolga ega bo'lgan yirik kompaniyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan. Muhim rol bu yerda BMTning hukumatga qarashli bo'lmagan tashkilotlar va ijtimoiy harakatlar bilan o'zaro aloqalariga ham ajratgan. Bu jamoatchilikning xalqaro munosabatlarga ta'siri oshayotganligining umumiy yo'nalishini aks ettiradi.

Yangi dunyo tartibotining demokratiyani nafaqat xalqaro, balki milliy miqyosda ham tasdiqlanishiga ko'maklashishi kabi xususiyatini qayd qilmoq kerak. Demokratiyaga jamiyat va davlatning normal ishlashi uchun zaruriy vosita sifatida qaralmoqda. Buning tasdig'i sifatida Bosh

Assambleyaning doimiy ravishda qabul qilayotgan «Hukumatlarning yangi yoki qayta tiklangan demokratiyasini mustahkamlash yo'lida qilayotgan harakatlarini Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimi tomonidan qo'llab-quvvatlanishi», «Demokratiyani mustahkamlash va rag'batlantirish» va «Xalqaro uyushma demokratiyani rag'batlantirishi va mustahkamlanishini qo'llashi zarur»¹, kabi rezolyutsiyalarini dalil qilib keltirishimiz mumkin.

Shunday qilib, yangi asr bo'sag'asida xalqaro uyushma kollektiv harakatlar bilan dunyo tartibotiga tegishli asoslarni belgilab olishga muvaffaq bo'ldi. Yangi tizimda turli-tuman ishtirokchilarni hurmat qilgan holda, yagona prinsip va maqsadlar asosida, barcha davlatlarning yuksak rivojlangan tizim hamkorligiga tayanishi va insoniyat birdamligi g'oyasini gavdalantirish talab etiladi. Bu tizim adolatli, demokratik bo'ladi, qonuniylik va yuqori darajali boshqaruvni ta'minlaydi. Yangi tizim fan va madaniyat, dunyo iqtisodi, barcha mamlakatlarning barqaror taraqqiyoti, tinchlik va xavfsizlikni ta'min etishdan tortib insoniyat oldida turgan asosiy muammolar yechimini topish uchun sharoit yaratadi.

Bularning ahamiyatini yetarlicha baholamaslik mumkin emas. Shu bilan birga, bu holat diqqatni o'ziga qaratadiki, asosiy maqsad va prinsiplarning tasdiqlanishi yetarlicha aniq belgilangan yo'llarni, ularni amalga oshirish usullari va vositalarini, avvalo, iqtisodiy xarakterini ko'rsatmaydi. Umuman dunyo tuzumining ajralmas qismi ekanligini ifodalovchi yangi iqtisodiy tartibot g'oyasi e'tiborsiz qoldirilgan. Buning hammasi, yangi tartibot parametrlarini aniqlashda va yana ham ko'proq uni hayotga tatbiq etishda yechimi kutilayotgan muammolar hali kam emasligidan guvohlik bermoqda.

Yuqorida esga olib o'tilgan siyosiy tafakkur qoloqligi vujudga keltirilayotgan yana bir muammo bor. Yangi dunyo tartiboti konsepsiyasida gavdalangan g'oyalar dunyoda hukmronlik qilayotgan siyosiy tafakkurning jismiga va qoniga singgan, deb o'ylashimiz mumkinligi ham dargumon. Tegishli maqsadlarga erishish uchun ko'p narsaning amalga oshirilishi kutilmoqda. Bunga davlatlar ham, xalqaro tashkilotlar ham, jamoatchilik ham zarur harakatlar ko'rishi lozim. Alohida javobgarlik hali uni anglab yetmayotgan OAV zimmasiga tushadi. Hatto BMTning ming yillikdagi deklaratsiyasi asosiy mazmuni ham jamoatchilik e'tiboriga to'liq yetkazilmaganligini aytish yetarlidir.

Ta'kidlash lozimki, insoniyat taqdiri bilan bog'liq yangi dunyo tartibotining tasdiqlanishi, davlatlar, xalqlar, umuman, dunyo jamoatchiligidan faol harakatlarni talab qiladi. Bu holni anglab yetmay turib, muvaffaqiyatga umid bog'lash qiyin.

¹ Док. ООН. Резолюция ГА ООН 55/96 2000 г.

XULOSA

XXI asr har bir inson va davlat hayotida xalqaro munosabatlar rolining rivoji, yo'nalishi o'sishini ko'rsatmoqda, bu xalqaro huquq rivojiga ham olib kelishi muqarrar.

XXI asrdagi tarixiy taraqqiyot barcha mamlakatlarni yagona jahon hamjamiyati bilan bog'lab, globallashuv jarayonining tobora chuqurlashuvi bilan xarakterlanadi. Nafaqat tinchlik, balki insoniyat omon qolmog'ining o'zi ham davlatlarning keng hamkorligiga bog'liq. Dunyoda bo'layotgan o'zgarishlar yangi dunyo tartibi va tegishli huquqiy tartibotning yaratilishini talab qilmoqda. BMT davlatlarni «yo'naltirilgan adolatli xalqaro tartibot va demokratiyaga ko'maklashishni xalqaro hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan davom ettirishga»¹ chaqiradi. Bugun hatto qudratli davlat ham yakka holda o'z fuqarolarining va o'zining xavfsizligini ta'minlay olmaydi. Shu faktni anglab yetish milliy va xalqaro xavfsizlik konsepsiyasini qayta ko'rib chiqishga olib keladi. Bu bo'lajak o'zgarishlarning muhim xarakteri haqida guvohlik beruvchi muhim nuqtayi nazardir. Yangi jahon tartiboti va uning amal qilishini ta'minlovchi qurol xalqaro huquqdir. Shu bois BMTning eng asosiy hujjatlarida xalqaro munosabatlarda huquqning ustunligini ta'minlash ahamiyatining ta'kidlanishi tasodifiy emas.

Nafaqat davlatlar orasidagi munosabatlarda, balki ularning ichki hayotida ham xalqaro huquqning roli o'sib bormoqda. Globallashuv kelajakda jamiyat hayotini baynalmilallashtirishga, xalqaro aloqalar rolining o'sishiga olib keladi. Shunga muvofiq ravishda xalqaro huquqning davlat hayotiga va qisman uning huquqiga ta'siri kuchayadi. Yagona xalqaro va ichki qonuniylik holati paydo bo'ladi. Buning ahamiyati yuqori baholanmoqda, BMT ming yillikning 2000-yilgi deklaratsiyasida asosiy vazifalardan biri sifatida «xalqaro va ichki ishlarda huquq ustuvorligiga hurmatni oshirish», qayd etilgan.

Shuning uchun parlament a'zolari va sudyalalar hamda boshqa yuristlarga xalqaro-huquqiy bilimlar nihoyatda zarur. Ma'lum darajada bu bilimlar har qanday yuridik ta'limning tarkibiy qismiga aylanishi kerak. Busiz xalqaro hayot taraqqiyotida yo'l topishning iloji yo'q. Xullas, xalqaro huquq jismoniy va yuridik shaxslar manfaati va huquqi himoyasida tobora katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.

¹ Резолюция Генеральной Ассамблеи ООН 55/107 от 4 декабря 2000 г. «Содействии утверждению демократического и справедливого международного порядка».

Xalqaro-huquqiy madaniyatning shakllanishida ommaviy axborot vositalarining alohida o'rnini bor. Afsuski, ular bu vazifani uddalay olmayotganligini qayd qilishga to'g'ri keladi. Xalqaro siyosiy va u bilan bog'liq huquqiy muammolarni noto'g'ri, ba'zida esa latifanamo ko'rinishda yoritilmoqda. Xalqaro jurnalist xalqaro huquq sohasidan boxabar bo'lmog'i kerak.

Xalqaro amaliyotda mavjud muammolar **BMT**ni xalqaro-huquqiy bilimlarni yoyish va xalqaro huquqni o'rganishni rag'batlantirish bo'yicha qator tadbirlar qabul qilishga undadi. Bunga **BMT**ning xalqaro huquqning o'n yilligi dasturi bag'ishlangan. **BMT**ning kotibiyati 2001-yili xalqaro huquqni o'rganishning ahamiyati va uni o'qitishni kengaytirish haqidagi «Butun dunyodagi yuridik fakultetlari dekanlariga murojaatnoma»ni qabul qildi. Unda keng omma orasida xalqaro huquq haqidagi axborotni tarqatishda yuristlarning mas'uliyati alohida ta'kidlanadi.

Xalqaro huquqqa faqat kasbiy nuqtayi nazardan qarash noto'g'ri bo'lgan bo'lardi. U xalqlar orasida muomala madaniyatining umuminsoniy madaniyatning muhim elementi bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda baynalmilal muomalaning ko'p asrlik tajribasini o'z ichiga olgan insoniyat madaniy merosining muhim unsuri haqida gap bormoqda. Hozirgi zamonning muhim muammolaridan — baynalmilal ongning shakllanishi, dini, madaniyati, irqidan qat'i nazar, insonlarni bir-biriga hurmat ruhida tarbiyalash muammolarini hal etishida xalqaro huquq yordam beradi. Bunday ong dunyo madaniyatining muhim elementi bo'lib, uning qaror topishi xalqaro va etnik aholi orasida ziddiyatlarining yo'qolishida hal qiluvchi me'yorga ega.

KIRISH	3
---------------------	---

**BIRINCHI BO'LIM.
UMUMIY XALQARO HUQUQNING NAZARIY ASOSLARI**

**BIRINCHI MAVZU. «XALQARO HUQUQ» TUSHUNCHASI,
AHAMIYATI VA TIZIMI**

1-§. «Xalqaro huquq» tushunchasi	7
2-§. «Xalqaro huquq» atamasining ma'nosi	9
3-§. Xalqaro huquqning obyekti va predmeti	10
4-§. Zamonaviy xalqaro huquq, uning amal qilish doirasi va asosiy maqsadlari	11
5-§. Xalqaro huquqning funksiyalari	12
6-§. Xalqaro huquqning ahamiyati	13
7-§. Xalqaro huquqning paydo bo'lishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari	15
8-§. «Xalqaro huquq tizimi» tushunchasi	20
9-§. Xalqaro «yumshoq» huquq	21
10-§. Xalqaro huquq va milliy huquqiy tizim	22
11-§. Xalqaro ommaviy huquq va xalqaro xususiy huquq	23
12-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquq	24

**IKKINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ NAZARIYASI, FANI
VA AMALIYOTI BIRLIGI**

1-§. Xalqaro huquq nazariyasining shakllanishi. Tabiiy huquq va pozitiv huquq nazariyalari	26
2-§. Xalqaro huquq nazariyasi ijtimoiy fanlar tizimida	31
3-§. Xalqaro huquq amaliyotiga tabiiy fanlar ta'siri	33
4-§. Xalqaro huquq va tashqi siyosatning o'zaro nisbati	34
5-§. Zamonaviy xalqaro huquq fanining ahvoli	37
6-§. Zamonaviy xalqaro huquq amaliyoti	40

UCHINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ NORMALARI VA MANBALARI

1-§. «Xalqaro huquq normasi» tushunchasi	45
2-§. Xalqaro huquq normalarining tasnifi	46
3-§. Xalqaro huquq normalarining yuridik majburiyiligi	48
4-§. Xalqaro huquq institutlari va sohaları	49
5-§. «Xalqaro huquq manbalari» tushunchasi va tizimi	50
6-§. Xalqaro huquqning universal manbalari	51
7-§. Xalqaro huquqning maxsus manbalari	56
8-§. Xalqaro huquqning qo'shimcha manbalari	57
9-§. Davlatlarning bir tomonlama hujjatlari	58
10-§. Xalqaro huquq ta'limoti (doktrinasi)ning o'rni	60
11-§. Xalqaro huquqni kodifikatsiya qilish	61

12-§. Xalqaro huquqda norma ijodkorligi	62
13-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq	64

TO'RTINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQNING ASOSIY PRINSIPLARI

1-§. «Xalqaro huquq prinsipi» tushunchasi	65
2-§. Xalqaro huquq prinsiplarining tizimi	66
3-§. Suveren tenglik prinsipi	67
4-§. Aralashmaslik prinsipi	68
5-§. Kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik prinsipi	69
6-§. Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish prinsipi	71
7-§. Xalqaro huquqqa oid majburiyatlarni vijdonan bajarish prinsipi	72
8-§. Hududiy yaxlitlik prinsipi	73
9-§. Xalqlarning teng huquqliligi va o'z taqdirini o'zi belgilash prinsipi	74
10-§. Hamkorlik prinsipi	75
11-§. Inson huquqlarini hurmat qilish prinsipi	76
12-§. Chegaralarning buzilmasligi prinsipi	78
13-§. O'zbekiston Respublikasi va xalqaro huquqning asosiy prinsiplari	79

BESHINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ SUBYEKTLARI

1-§. «Xalqaro huquq subyektlari» tushunchasi	82
2-§. Davlat — xalqaro huquqning asosiy subyekti	84
3-§. Xalqaro tashkilot xalqaro huquqning subyekti sifatida	86
4-§. Mustaqil davlat barpo etish yo'lida kurashayotgan xalq, millat — xalqaro huquq subyekti	88
5-§. Xalqaro huquqning noan'anaviy subyektlari	88
6-§. Individ — xalqaro huquq subyekti	89
7-§. Transmilliy korporatsiyalar — xalqaro huquq subyekti	90
8-§. O'zbekiston Respublikasi — xalqaro huquq subyekti	90

OLTINCHI MAVZU. XALQARO-HUQUQIY SUBYEKTLILIK VA XALQARO HUQUQDA DAVLATNING TAN OLINISHI

1-§. Xalqaro huquqda «davlat» tushunchasi	93
2-§. Xalqaro huquqda «davlatlarning subyektlilik huquqi» tushunchasi	93
3-§. «Davlat yurisdiksiyasi» tushunchasi	93
4-§. «Davlat immuniteti» («daxlsizlik huquqi») tushunchasi	94
5-§. Xalqaro huquqda oddiy (unitar) va murakkab davlatlar	95
6-§. Xalqaro huquqda tan olish. Davlatlarni tan olish	98
7-§. Hukumatlarni tan olish	99
8-§. Xalqaro huquqda tan olishning boshqa turlari	101

YETTINCHI MAVZU. DAVLATLARNING HUQUQIY VORISLIGI

1-§. «Davlatlarning huquqiy vorisligi» tushunchasi va uning turlari	102
2-§. Xalqaro shartnomalar bo'yicha huquqiy vorislik	103
3-§. Yangi mustaqil davlatlar — sobiq ittifoqdosh respublikalarning huquqiy vorisligi	104
4-§. Davlat mulki bo'yicha huquqiy vorislik	106
5-§. Davlat arxivlari bo'yicha huquqiy vorislik	108
6-§. Davlat qarzlari bo'yicha huquqiy vorislik	109

**SAKKIZINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ VA MILLIY
HUQUQNING O'ZARO MUNOSABATI**

1-§. Xalqaro va milliy huquqning o'zaro munosabati	110
2-§. Konstitutsiya va xalqaro huquq	112
3-§. Xalqaro huquq normalarining milliy huquqqa bo'lgan transformatsiyasi (implementatsiyasi)	113

TO'QQIZINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQDA HUDUD

1-§. Xalqaro huquqda «hududiy ustuvorlik» tushunchasi	115
2-§. Xalqaro huquqda «davlat chegaralari» tushunchasi	118
3-§. Alohida xalqaro-huquqiy maqomga (rejimga) ega makonlar	121
4-§. «O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi to'g'risida»gi qonuni	125

O'NINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQDA AHOLI

1-§. Xalqaro huquqda «fuqarolik» tushunchasi	127
2-§. Xalqaro huquqda «diplomatik himoya» tushunchasi	128
3-§. Shaxsning xalqaro-huquqiy maqomi	129
4-§. Ishchi-migrantlar (ko'chmanchilar)ning huquqiy maqomi	134
5-§. Qochoqlarning huquqiy maqomi	135
6-§. Xalqaro huquqda boshpana huquqi	136

O'N BIRINCHI MAVZU. XALQARO-HUQUQIY JAVOBGARLIK

1-§. «Xalqaro-huquqiy javobgarlik» tushunchasi, elementlari va maqsadlari	137
2-§. Xalqaro huquqbuzarliklar	137
3-§. Xalqaro huquqda majbur qilish va uning turlari	138
4-§. Xalqaro huquqda sanksiyalar	139
5-§. Xalqaro huquqda qarshi choralar	140
6-§. Xalqaro javobgarlik huquqining nazariy muammolari	141

**IKKINCHI BO'LIM.
XALQARO HUQUQ SOHALARINING
NAZARIY ASOSLARI**

O'N IKKINCHI MAVZU. DIPLOMATIK VA KONSULLIK HUQUQI

1-§. Tashqi siyosat va diplomatiya	144
2-§. Davlatning tashqi aloqalar olib boruvchi organlari tizimi	146
3-§. Diplomatik huquq asoslari	148
4-§. Konsullik huquqi asoslari	153
5-§. O'zbekiston Respublikasida diplomatik xizmatning huquqiy asoslari	156
6-§. O'zbekiston Respublikasida konsullik xizmati	159

O'N UCHINCHI MAVZU. XALQARO SHARTNOMALAR HUQUQI

1-§. «Xalqaro shartnomalar huquqi» tushunchasi	168
2-§. Xalqaro shartnomalarda tomonlar	169
3-§. Xalqaro shartnomalarni tuzish bosqichlari	171
4-§. Xalqaro shartnomalarda izoh	175
5-§. Xalqaro shartnomaning kuchga kirishi, e'lon qilinishi va ro'yxatga olinishi	176
6-§. Xalqaro shartnomaning shakli, tuzilishi va tili	177

7-§. Xalqaro shartnomaning amal qilishi	177
8-§. Xalqaro shartnomaning haqiqiy yoki va haqiqiy emaslik shartlari	178
9-§. Xalqaro shartnomaning bekor qilinishi	179
10-§. Xalqaro shartnomaning to'xtatib qo'yilishi	180
11-§. «O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to'g'risida»gi qonuni	181

O'N TO'RTINCHI MAVZU. XALQARO TASHKILOTLAR HUQUQI

1-§. Xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishi va yuridik xususiyatlari	190
2-§. «Xalqaro tashkilotlar huquqi» tushunchasi	191
3-§. Xalqaro tashkilotlarni tasniflash (klassifikatsiyalash)	193
4-§. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquqning subyekti sifatida	198
5-§. Xalqaro tashkilotlarning funksiyalari	199
6-§. Xalqaro tashkilotlarga a'zolik	200
7-§. Xalqaro tashkilotlarning organlari	201
8-§. Xalqaro tashkilotlarning hujjatlari	203
9-§. Birlashgan Millatlar Tashkiloti — universal xalqaro tashkilot	203
10-§. Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti	210
11-§. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi	212
12-§. Xalqaro konferensiyalar	216

O'N BESHINCHI MAVZU. INSON HUQUQLARI BO'YICHA XALQARO HUQUQ

1-§. «Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq» tushunchasi va mazmuni	223
2-§. Inson huquqlari to'g'risidagi normalarga rioya qilish bo'yicha xalqaro nazorat	224

O'N OLTINCHI MAVZU. XALQARO DENGIZ HUQUQI

1-§. Xalqaro dengiz huquqi, uning manbalari va prinsiplari	226
2-§. Xalqaro dengiz huquqining asosiy tushunchalari	227
3-§. Davlat suvereniteti ostidagi dengiz hududlari	228
4-§. Qirg'oqbo'yi davlati alohida nazorat etish huquqiga ega bo'lgan dengiz hududi	229
5-§. Qirg'oqbo'yi davlati tabiiy xaziralardan foydalanish uchun suveren huquqqa ega bo'lgan dengiz hududi	230
6-§. Xalqaro huquqning barcha subyektlari tomonidan umumiy tarzda foydalaniladigan hududlar	231

O'N YETTINCHI MAVZU. XALQARO HAVO HUQUQI

1-§. Xalqaro havo huquqi, uning prinsiplari va manbalari	234
2-§. Xalqaro havo bo'shlig'ida parvozlarni tartibga solish	236
3-§. Davlatlar hududi ustidan o'tadigan xalqaro parvozlarni	236
4-§. Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash	237

O'N SAKKIZINCHI MAVZU. XALQARO KOSMIK HUQUQ

1-§. «Xalqaro kosmik huquq» tushunchasi	238
2-§. Kosmik fazo maqomi	239
3-§. Kosmosdagi faoliyat uchun javobgarlik	240
4-§. Kosmonavtlar va kosmik apparatlar maqomi	240
5-§. Amaliy kosmik faoliyatni xalqaro-huquqiy tartibga solish	241

O'N TO'QQIZINCHI MAVZU. XALQARO IQTISODIY HUQUQ

1-§. Xalqaro iqtisodiy huquq, uning maqsadi va prinsiplari	242
2-§. Xalqaro iqtisodiy huquq manbalari	244
3-§. Xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning ishtiroki	247
4-§. Xalqaro iqtisodiy tashkilotlar	248
5-§. Transmilliy korporatsiyalar	249
6-§. Xalqaro iqtisodiy huquqda javobgarlik	251
7-§. Xalqaro savdo huquqi	251
8-§. Jahon savdo tashkiloti: maqomi, tizimi va faoliyatining asosiy yo'nalishlari	253
9-§. Xalqaro moliya huquqi	255
10-§. Xalqaro investitsiya huquqi	256
11-§. Natsionalizatsiya	258
12-§. O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining huquqiy asoslari	258

YIGIRMANCHI MAVZU. XALQARO ATROF-MUHIT HUQUQI

1-§. Xalqaro atrof-muhit huquqi, uning taraqqiyoti va prinsiplari	262
2-§. Atrof-muhitning xilma-xil turlarini muhofaza qilish	265
3-§. Hayvonot va o'simliklar dunyosi muhofazasi	268
4-§. O'zbekiston Respublikasining xalqaro ekologik hamkorligi	269
5-§. Xalqaro atrof-muhit huquqining nazariy muammolari	270

YIGIRMA BIRINCHI MAVZU. XALQARO JINOYAT HUQUQI

1-§. «Xalqaro jinoyat huquqi» tushunchasi	273
2-§. «Xalqaro jinoyat» tushunchasi	273
3-§. Xalqaro jinoyatlarning turlari	274
4-§. Xalqaro va davlatning ichki jinoyat huquqi	279
5-§. Xalqaro jinoyat sudi	280
6-§. Davlatlarning oddiy va umumiy jinoyatchilik bilan kurash sohasidagi hamkorligi	281
7-§. Interpol faoliyati	282

YIGIRMA IKKINCHI MAVZU. XALQARO GUMANITAR HUQUQ

1-§. «Xalqaro gumanitar huquq» tushunchasi	283
2-§. «Qurolli mojar» tushunchasi	285
3-§. Urushning boshlanishi va tamom bo'lishi	285
4-§. Harbiy harakatlar olib borishning usul va vositalari	286
5-§. Urush qurbonlarini himoya qilish	287
6-§. Kombatantlarning maqomi	288
7-§. Muayyan hududga joylashtirish va xavfsizlik zonasini	289
8-§. Harbiy istilo rejimi	290
9-§. Betaraflik (neytralitet)	292
10-§. Xalqaro bo'lmagan tusdagi mojarolar va xalqaro gumanitar huquq	293

YIGIRMA UCHINCHI MAVZU. XALQARO NIZOLARNI TINCH YO'L BILAN HAL ETISH HUQUQI

1-§. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish asoslari	296
2-§. Xalqaro nizolarni hal etishda xalqaro tashkilotlarning o'rmi	297
3-§. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etishning xalqaro-huquqiy vositalari	299
4-§. Xalqaro nizolarni hal etishning xalqaro sudlov vositalari: xalqaro arbitraj va xalqaro sud	301

5-§. Xalqaro nizolarni tinch yo'l bilan hal etish huquqining rivojlanish tendensiyalari	304
---	-----

YIGIRMA TO'RTINCHI MAVZU. XALQARO XAVFSIZLIK HUQUQI

1-§. «Xalqaro xavfsizlik huquqi» tushunchasi	307
2-§. Kollektiv xavfsizlik va uning tizimlari	309
3-§. Qurol-yarog'larni cheklash va nazorat qilish	312
4-§. Xalqaro xavfsizlik huquqida ishonch va nazorat choralari	316

UCHINCHI BO'LIM.

XXI ASR XALQARO HUQUQINING NAZARIY ASOSLARI

YIGIRMA BESHINCHI MAVZU. XXI ASR BOSHIDA XALQARO HUQUQNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1-§. Xalqaro huquq uchinchi ming yillikda	318
2-§. Hozirgi zamon global muammolari va xalqaro huquq	321

YIGIRMA OLTINCHI MAVZU. XALQARO PARLAMENT HUQUQI

1-§. Parlament va tashqi siyosat	324
2-§. Parlament xalqaro munosabatlar tizimida	326
3-§. Parlamentlararo tashkilotlar — xalqaro parlament huquqining institutsiyaviy asosi	328
4-§. Parlamentlararo hamkorlik va Birlashgan Millatlar Tashkiloti	331
5-§. Parlamentlararo Ittifoq — dunyo parlamentlarining universal tashkiloti	332
6-§. Globallashuv va xalqaro parlamentlararo tashkilotlarning rivojlanish tendensiyalari	333

YIGIRMA YETTINCHI MAVZU. XALQARO DINIY HUQUQ

1-§. Davlat va dinning xalqaro munosabatlar rivojidagi o'rmi	335
2-§. Xalqaro diniy huquqning predmeti	337
3-§. Xalqaro diniy huquq prinsiplari	338
4-§. Xalqaro diniy huquqning o'ziga xos xususiyatlari	339
5-§. Davlat va din o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga oid xalqaro standartlar	340

YIGIRMA SAKKIZINCHI MAVZU. XALQARO HUQUQ VA ICHKI KONTINENTAL DAVLATLAR

1-§. Ichki kontinental davlatlar	341
2-§. Ichki kontinental davlatlarning maqomi to'g'risidagi xalqaro-huquqiy nazariyalar	342
3-§. Dengizga chiqish huquqi to'g'risidagi konsepsiya	343
4-§. Xalqaro huquqda «erkin tranzit» tushunchasi	344
5-§. Ichki kontinental davlatlar orasidagi tranzit savdo	345
6-§. Qirg'oqbo'yida joylashgan davlat portlaridagi erkin tranzit zonalar	347
7-§. Dengizga chiqa olmaydigan davlatlarning dengiz va dengizgacha bo'lgan tranzitidan foydalanish borasidagi huquqlari	348
8-§. Qit'a ichkarisidagi davlatlarning dengiz tubi boyliklaridan foydalanishda qatnashishlari borasidagi huquqlari	349

YIGIRMA TO‘QQIZINCHI MAVZU. SAYLOVLAR VA XALQARO HUQUQ

1-§. Saylovlarning xalqaro munosabatlardagi ahamiyati	350
2-§. Xalqaro huquq va saylovlar	351
3-§. Saylovlar to‘g‘risidagi milliy qonunchilikdan xalqaro saylov huquqi sari	352
4-§. BMTning saylovlarga taalluqli inson huquqlari borasidagi xalqaro prinsiplari	359
5-§. YXHTning saylovlarni o‘tkazish bo‘yicha asosiy prinsiplari va majburiyatlari	363
6-§. Xalqaro saylov huquqining prinsiplari	367

O‘TTIZINCHI MAVZU. GLOBALLASHUV, YANGI DUNYO TARTIBOTI VA XALQARO HUQUQ

1-§. XXI asr— globallashuv asri	369
2-§. Globallashuv sharoitida davlatning roli	373
3-§. Global boshqaruv va xalqaro huquq	374
4-§. BMT va yangi dunyo tartibotini belgilash	376
5-§. Yangi dunyo tartiboti qadriyatleri va maqsadlarining asoslari	378
6-§. BMT XXI asrda: taraqqiyot istiqbollari	380
XULOSA	383

**Igor Ivanovich LUKASHUK,
Akmal Xolmatovich SAIDOV**

HOZIRGI ZAMON XALQARO HUQUQI NAZARIYASI ASOSLARI

O'quv qo'llanma

O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti,
100083, Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41.
Tel: 136-55-79; faks: 139-88-61.

Muharrirlar	<i>R. Yarlaqabov, M. Tursunova</i>
Texnik muharrir	<i>A. Berdiyeva</i>
Musahhih	<i>H. Zokirova</i>
Komputerda sahifalovchi	<i>N. Mamanov</i>

Bosishga 15.08.07-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60×90¹/₁₆.
«Tayms» garniturada ofset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 25,0.
Nashr h.t. 24,5. Adadi 1000 nusxa. Buyurtma № 46

**«AVTO-NASHR» SHK bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko'chasi, 57-uy.**